2025-yil, aprel 7-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



10-APREL – O‘ZBEK ROMANCHILIGI ASOSCHISI ABDULLA QODIRIY TAVALLUD TOPGAN KUN



Sayyora HALIMOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Media nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

“SADOI FAG‘ONA” GAZETASINING TILI VA USLUBI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada XX asr boshlarida Farg‘onada chop etilgan “Sadoi Farg‘ona” gazetasining tili va uslubi, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.Rossiya chor mustamlakasi sharoitida o‘zbek adabiy tilida yuz bergan o‘zgarishlar va bu jarayonning milliy matbuot tilida aks etishi ushbu nashr misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *usuli jadida, rusiya, duma, qo‘mondon, gazet, tarjumon, qrim-tatar, uyezd, gubernator.*

Аннотация: в данной научной статье анализируются язык и стиль, а также специфические особенности газеты «Садои Фергана», издававшейся в Фергане в начале XX века. На примере данного издания освещены изменения, произошедшие в узбекском литературном языке в условиях российской царской колонии, и влияние этого процесса на становление национальной прессы.

Ключевые слова: *новый метод (усули джадида), Россия, Дума, полководец, газета, переводчик, крымско-татарский, уезд, губернатор.*

Annotation: this article analyzes the language and style, as well as specific features of the newspaper “Sadoy Fergana” published in Fergana in the early twentieth century. On the example of this publication the changes that occurred in the Uzbek literary language in the conditions of the Russian tsarist colony and the impact of this process on the formation of the national press are highlighted.

Key words: *jadid method, Russia, Duma, commander, newspaper, translator, Crimean Tatar, uyezd (imperial Russian district), governor.*

Kirish.XX asrning boshlarida Turkistonda o‘zbek adabiy tili o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turgan.Birinchidan o‘zbek tilining mustabidlar – chor Rossiyasi tomonidan kamsitilishi, hukumatga yozma va og‘zaki arz faqat davlat tili – rus tilida qabul qilinishi tufayli mahalliy ona tiliga e’tibor susaygan edi. Ikkinchidan rus, tatar, qrim-tatar, fors, arab tillarida chop etilgan gazetalarning mamlakat hayotiga kirib kelishi shu davr milliy adabiy tiliga juda kuchli ta’sir etgan. Ayniqsa, Turkistonda matbuot, teatr tashkil qilishda, yangi usul maktablari ochishda ko‘mak bergan tatarlarning bevosita ishtiroki o‘sha davr adabiy tilida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hatto milliy matbuot nashrlarida bosilgan maqolalarning sarlavhalar uslubida ham buni aniq ko‘rish mumkin. “Hozirgi madrasalarimizda o‘quv”(“Sadoi Turkiston”, 20-son), “Bizda o‘quv va o‘qituv” (“Sadoi Turkiston”, 8-son), “Yubileyg‘a hozirlanuv” (“Sadoi Turkiston”, 13-son), “Milliy tashbishlar” (“Sadoi Turkiston”, 7-son), “Gazeta nadur, na uchun lozim” (“Sadoi Fag‘ona”, 2-son), “Gosudarstvenniy dumada mol suyuv masalasi”(“Sadoi Farg‘ona”, 35-son) kabi.

Mavzuga oid nashr tahlili. 1914-1915-yillarda Farg‘onalik jadid ma’rifatparvari, yirik savdogar Obidjon Mahmudov tomonidan chop etilgan “Sadoi Farg‘ona” gazetaning tili ham ruscha, tatarcha, o‘zbek tiliga moslashtirilgan arabcha va usmonli turkcha so‘zlardan iborat bo‘lgan.Gazeta sahifalarida qrim tatar gazetalari “Tarjumon”, “Vaqt”, Ozarbayjon satirik jurnali “Mulla Nasriddin” sahifalaridan turli xabarlar, maqolalar olinib chop etilgan. Gazetaning 1-sonida Ashurali Zohiriyning “So‘z boshi” sarlavhali maqolasi bosilgan bo‘lib, unda til va imlo rivojida gazetaning muhim o‘rnini ko‘rsatib o‘tgan. “Har millatning o‘zina ayru dam tili va adabiyoti bo‘lg‘onidek har bir qavm qabilasining ham shevasi va tarzi odati tarkib qalamig‘a qarab bir-biriga o‘xshamas. Masalan, tatar, boshqird, qirg’iz, qozoq, turkman, o‘zbek, sart, forsiy....Turkiy qavmdan bo‘lsalar ham har qaysilarining lahja va shevalari o‘zilarig‘a alohidadur. Biz ham shu yo‘l bilan borib mahalliy shevada (o‘zbek tilida) shul gazetani chiqormoqg‘a azmi himmat etduk”[1].Ashurali Zohiriy maqola davomida milliy matbuotga juda yuksak baho beradi. “G‘azeta har bir millatning tarjimoni, tili.G‘azetasiz millat tilsizdur.Zero, tili va adabiyoti yo‘qdur.Har kimning dunyoda tiriklik (hayot) turmog‘i uchun havo bilan suv qandog‘ lozum bo‘lsa, har qavmning hayoti va saodati uchun ul millatning matbuoti va adabiyoti bo‘lmog‘i lozim”[2]-deb yozadi. “Sadoi Farg‘ona” gazetasi dastlabki sonlaridan til va imlo masalasiga jiddiy munosabatda bo‘lgan.Buni gazeta 1-sonida bosilgan “E’tizor”ruknida bayon etilgan fikrlardan ham anglash mumkin.Unda shunday so‘zlar bor. “Gazetamizni mahalliy (bir xalq tili) chiqarmoq eng birinchi maqsadimiz o‘lsa ham bul birinchi no‘mirimiz ul maqsadg‘a muvofiq suratda bo‘lub chiqmadi.Sababi: idora ishlarini tartibg‘a solurg‘a elimizning ishtiyoqig‘a muvofiq tezlik ila chiqarmoq uchun ko‘b maqolalar o‘z

shevasinda o‘zgartilmay qoldi.Inshalloh keladurg‘on no‘meri bul to‘g‘rilarig‘a diqqat sarf qilinadur.Ehtirom ila idora”[3]. Rus tilining davlat tili deb e’lon qilinishi oqibatida milliy tilning g‘ariblashib borayotganidan qattiq tashvishlanayotgan millat ziyolilarini bahsga chorlagan maqola ham “Sadoi Farg‘ona” gazetasida 1914-yil 13-aprel 3-sonida chop etilgan.Bu Ashurali Zohiriyning “Ona tili” maqolasi edi[4] . “Sadoi Farg‘ona” bilan bir paytda nashri yo‘lga qo‘yilgan “Sadoi Turkiston” gazetasida ham 1914-7yil 27-may sonida Ashurali Zohiriyga javoban Abdulla Avloniyning “Hifzi-lison” maqolasi e’lon qilinadi. Maqolada “ona tilini asrash - millatni asrash demakdir”, degan ilg‘or g‘oya ilgari suriladi[5].Hatto Avloniy o‘z his-tuyg‘ularini she’riy satrlarda ifoda etgan.

“Ey, ona til! Aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim.
Tug‘digim kundan aylading ulfat,
O‘lgunumcha ayilma, ey jonim.

Ashurali Zohiriy esa “Ona tili” maqolasida o‘zbek adabiy tilining shakllanishida matbuot tilining o‘rni katta ekanligini alohida qayd etadi. Jumladan, unda shunday deb yozadi muallif: “millatning mahobati ona tili muhabbati ilan bo‘lur. Buning birlan millat o‘zini dunyoda borlig‘ini bildiradur.Tili borlar tarixda hayot hisoblanur.Takror aytaman g‘azeta ona tilimizg‘a xizmat etsun.Va qat’iy kelganda millatni tili yo‘qlar qatorida qoldurmasunlar”[6]. A.Zohiriy matbuot va adabiyotni millatning ko‘zgusiga qiyos etadi. “Har kimning dunyoda tirik turmog‘i uchun havo bilan suv qanday lozim bo‘lsa, har qavmning hayoti va saodati uchun ul millatning matbuoti va adabiyoti bo‘lmog‘i lozim”[7].Bu davr tilida g‘arbiy turk tiliga xos bo‘lgan o‘l- bilan o‘zbekcha bo‘l-fe’llari parallel ishlatilgan. Masalan: Har xil mahalla va maktab kitoblari, yozuv asboblari mukammal suratda mavjud o‘lub, imtihonlar yaqinlashdig‘i munosabati ila nafis va go‘zal ravishda bosdirilur”[8]. Gazeta faoliyat ko‘rsatgan davrda madrasalarda forscha, arabcha kitoblar ko‘proq o‘qitilgan. Arabcha va forschani ko‘p bilish fazilat hisoblangan. Ko‘pgina turkiy so‘zlar o‘rniga ajnabiy so‘zlar qo‘llanilgan. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy “So‘zlaganda, yozganda ajnabiy so‘zlarni aralashtirish - bu jaholatdur”[9] - deb bejiz o‘sha davr adabiy tilini keskin tanqid qilmagan. “Sadoi Farg‘ona” gazetasida chop etilgan Cho‘lponning “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik”nomli maqolasida ham o‘sha davr tili va uslubini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. “Har kuni gazetalarda “faloniy sindi”, “faloniyni vekseli prosent bo‘ldi, do‘kon pechotlondi” degonga o‘xshash ko‘rqinchlik xabarlarni o‘qub, eshitmoqda va ko‘rib bilmoqqa bo‘lsak ham ammo ibratlanmaymiz. Sababini hech tekshirmaymiz. Yolg‘iz “bozor kasod” deb o‘ta beramiz”[10].Keltirilgan parchada veksel, prosent, pechotlandi kabi ruscha so‘zlar ishlatilgan. Gazeta taxlamlarida gosudarstvenniy duma, birjaviy komitet, Peterburg agenstvasi, zolotoy kray, oblastnoy, mexanik, fabrikant, voyenniy sobraniya, straxovaniya, kvitansiya, zakaz, import, moda, eksport, duxtur, ustav, sklad, presedatel, bank, kredit, avtomobil, klinika, komissiya, kontura, auksion, starshina, vokzal, stansiya, prikaz, uyeyad, nalog kabi 50 ga yaqin rus tilidan kirib kelgan so‘zlar ishlatilgan. Masalan, “Ovruponing mo‘dasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir qul qilodur. Bundan saqlaning!”[11] (Cho‘lpon). Bundan tashqari fonetik xususiyatlar: vor, yafrog‘, rahm edub, yo‘x, vermak.Yana bir e’tiborli jihati, “Sadoi Farg‘ona” gazetasida neologizmlar - yangi so‘zlar ham uchraydi. Masalan: Sanoatxona-korxona ma’nosida kelgan (3-son).Tijorat (olish-verish), kiyim saqlamak (vishulka) (1-son), stansiya (manzil) deb berilgan (3-son). Gazeta materiallari “Ho‘qand xabarlari”, “Doxliya xabarlari”, “Turkiston va Farg‘ona xabarlari”, “Urush xabarlari”, “Adabiy munozara”, “Feleton”, “Idoraga maktublar”, “Telegramm xabarlari” rukni ostida berilgan. Gazeta sahifalarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ilmiy, adabiy muammolar izchillik bilan tahlil etib borilgan.Gazetaning mundarijasi juda keng. Uning sahifalarini varaqlar ekansiz, yer ilmi, dorishunoslik, ijtimoiy illatlar, dinshunoslik, ijtimoiy ta’minot va yordam, iqtisodiy masalalar, sog‘liqni saqlash, tilshunoslik, tomosha san’ati, shaharsozlik, etnografiya, urf-odatlar, o‘lkashunoslik, o‘zbek huquqiy masalalar, milliy matbuot masalalasi kabi juda dolzarb mavzularga e’tibor qaratilgan.Reklama va e’lonlar gazetaning 3-4 sahifalarida yoritilgan.Tatar tilining morfologik va leksik elementlari o‘sha davr tilida yaqqol namoyon bo‘lgan. Masalan: “Tujjor” gazetasi yozadi:Bizim Turkistonga vagun (tramvay) vormish, Turkiston ginerol gubernaturi ushbu 21-sentabrda 261-raqamlik farmoyish ilan elon qilmishki, Turkiston fuqarolori uchun ushbu yilda 18-mortda 93-raqamlik farmoyish va prikozlor va ham 12-iyunda va 4-iyulda joriy bo‘lgon farmoyishlor o‘z quvvotlorida soqlonib tursunlor deb”[12]. Lekin “Sadoi Farg‘ona” bu illatdan asranishga harakat qilgan.Aksariyat holllarda biz olmoshi, bizim emas, bizlardin, biz deya ishlatilgan. Masalan, Obidjon Mahmudovning ushbu maqolasida ham shunday jumlalar bor: “Bizning Turkistonliklar uchun eng avval g‘azetaning nima ekanini bilmoq lozim”[13]. Ammo g‘arbiy turkiy elementlar fonetik faktlarda. ham saqlanib qoldi. Masalan: vir mamlakat var esa Turkiston [14]. Rus tili elementlari, asosan, jonli so‘zlashuv shaklida urg‘usiz unlilar talaffuziga ko‘ra yozilgan. Masalan, kredit ochmoqlikni arz qilubdur [15]; qorakul savdosining aboroti, arbitrajni komissiya, veksellarning protest bo‘lmasligi haqida kabi.Boshqa tillardan qabul qilingan yangi terminlar ommaga tushunarli bo‘lishi uchun shu terminlarning ona tilidagi sinonimlari qo‘llangan. Masalan, deputat (yurt vakili), grajdan (ozod xalq), revolьver (to‘ppopcha), sho‘pir, kapital (boylik), matros (suv soldati), naborshchik (murattib), farmoyish va prikazlar, sulh mahkamasi

(mirovoy sud), polojeniya va nizom-noma kabi [16]. “Shuning uchun “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1914 -yil 27-avgustdan boshlab, “Gazeta o‘quvchilariga yordam” bo‘limi ochib, unda bir qancha chet va rus tilining so‘z va iboralari izohini berib bordi[17]. Bu ham gazetani til va imlo masalasiga qanchalik e’tiborli bo‘lganidan yana bir dalolatdir.Gazetada “Til va imlo masalasiga javob” deb nomlangan maqola ham e’lon qilinga[18]. Imzo “Til bilmas” deb yozib qo‘yilgan. Maqolada “Sadoi Turkiston” gazetasida namanganlik Muharram janoblari yo‘llagan maktubga javob yozilgan.Ya’ni maktub muallifi tomonidan “Sadoi Farg‘ona” gazetasi tili tanqid qilingan.Bunga gazeta “Muharram janoblari o‘zlarig‘a ma’qul matbuot tilida jarida va majalla nashr etsunlar”,-deb muammoni tanqid qilish oson, amalda uni bartaraf etish qiyin ekanligiga ishora beradi.Shu o‘rinda gazetaning sarlavha tanlash uslubiga nazar tashlaymiz. Ma’lumki, sarlavha tanlash jurnalistik mahoratning muhim belgilaridan sanaladi. “Har qanday sarlavha, u qanday uslubga xos bo‘lmasin, eng avvalo, atash vazifasini bajaradi. Gazeta axborotlari umuman, yozma matnlar dastlab sarlavhasi orqali ma’lum bo‘ladi. Demak, sarlavhalar o‘zlari biriktirilgan matnning nomi sifatida axborotlarni bir-biridan ajratib, farqlab ham turadi”[19]. “Sadoi Farg‘ona”gazetaning 1-sonida “Maqsad va maslak” sarlavhasi bilan dasturiy maqola bosh muharrir Obidjon Mahmudov imzosi bilan bosilgan.Bu yerda sarlavha aniq va ixcham, matn mazmunining o‘zagini tashkil etgan.Gazetaning 2-sonida esa bosh muharrirning navbatdagi “G‘azeta nadur, na uchun lozim” sarlavhali maqolasi chop etilgan.Sarlavha o‘quvchi e’tiborini o‘ziga tez jalb etib oladi. Uning savol tarzida qo‘yilganligi ham gazeta sahifasiga o‘zgacha bezak bergan.Savolga javob topish uchun ham gazetxon maqolani so‘nggiga qadar o‘qib chiqishga intiladi.Gazetaning ifoda uslubidaso‘nggi publitsistik uslub hali to‘la shakllanmagan. Deyarli barcha maqola va feletonlar xabar, sharh uslubida yozilgan.Masalan, “Savdogar qanday bo‘lmog‘i lozim?”, “Nomongonda to‘ylar islohi va maktab masalasi”, “Millat uchun kim foydalik”, “Salomat fikr va toza aql salomat badanda bo‘lur”, “Musulmon syezdi”, “Zamoni keldi” kabi maqolalarda publitsistik uslubning tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish, til vositalaridan mahorat bilan foydalanishdek asosiy talablari bajarilmagan.O‘quvchida “Sadoi Farg‘ona” sahifalarida publitsistik uslubdan ko‘ra, so‘zlashuv uslubi ustivordek taassurot qoldiradi. “Zamoni keldi” maqolasidan quyidagi misolni keltiramiz.“Bizlarg‘a hamadan ziyoda lozim bo‘lg‘on narsa ilum bo‘lg‘onlig‘idan bilmoq va bildurmoq, o‘qimoq va o‘qutmoq lozumdur.Buning uchun har qaysimiz jon dil birlan himmat va g‘ayrat qilmog‘imiz sha’riy islomiyatdin lozimdur”[20].

Xulosa.Keltirilgan misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, “Sadoi Farg‘ona” tili va ifoda uslubi bilan o‘zbek milliy matbuotining ilk namunalaridan biri sifatida sodda va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi.Gazeta o‘zbek adabiy tilining sofligi va taraqqiyoti uchun kurashdi.U XX asr boshlarida bahs va munozaralarga boy bo‘lgan o‘sha davr milliy matbuot tili xususidagi qarashlari, adabiy til muammolariga oid turkum maqolalari bilan muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil. 3- aprel, 1-son.
2. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil. 3-aprel, 1-son.
3. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil.3-aprel, 1-son.
4. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil.13-aprel, 3-son.
5. “Sadoi Turkiston”, 1914 –yil.27-may, 13-son.
6. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil.13-aprel, 3-son.
7. “Sadoi Farg‘ona”, 1914- yil.3-aprel, 1-son.
8. “Sadoi Farg‘ona” 1915 –yil.26-may.
9. “Sadoi Turkiston” 1915. 23-fevral.
10. “Sadoi Farg‘ona” 1914- yil.30-aprel.
11. “Sadoi Farg‘ona”gazetasi.1914 –yil. 6-iyun.
12. U.Tursunov, B.O‘rinboyev, A. Aliyev.O‘zbek adabiy tili tarixi. –T.: O‘qituvchi,1995.140-b.
13. “Sadoi Farg‘ona”, 1914-yil, 2-son.
14. “Sadoi Farg‘ona” 1914. 13-iyun soni.
15. “Sadoi Farg‘ona”,1914.22-may soni.
16. “Sadoi Farg‘ona”, 1914. 29-iyul soni.
17. www.ziyouz.com kutubxonasi.
18. “Sadoi Farg‘ona”, 1915-yil. 10-aprel 118-son.
19. Toshaliyev I.Sarlavha stilistikasi. – T.: Universitet, 1995.25-b.
20. Sadoi Farg‘ona” 1914-yil. 4-son.

Maxsumaxon DEHQONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
adabiyotshunoslik kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD)

80-YILLAR DOSTONCHILIGI VA ADABIY TANQID

Annotatsiya: XX asrning 80-yillari adabiy tanqidchilik rivojida dostonlarning ham o‘rni alohida o‘rin tutadi. Tanqidchilar tomonidan bu janrning o‘rganilishi esa o‘zbek dostonchiligining ham rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *XX asr 80-yillar adabiy tanqidchiligi, dostonlarning o‘rganilishi, sho‘ro va mustaqillik davrida sho‘ro mafkurasi, dostonlarda inson qalbi tasviri.*

Annotation: in the development of literary criticism in the 1980s, epics also played a special role. The study of this genre by critics had a great influence on the development of Uzbek epic poetry.

Key words: *literary criticism of the 1980s, the study of epics, Soviet ideology during the Soviet and independent periods, the depiction of the human soul in epics.*

Аннотация: эпос также сыграл особую роль в развитии литературной критики в 1980-е годы. Изучение этого жанра критиками также оказало большое влияние на развитие узбекского эпического творчества.

Ключевые слова: *литературная критика 1980-х годов, былиноведение, советская идеология в советский и негосударственный периоды, изображение человеческой души в былинах.*

XX asr so‘nggi choraklarida o‘zbek dostonlari sho‘ro va mustaqillik davrida sho‘ro mafkurasi hamda mustaqillik mafkurasi ta’sirida yaratildi. Shunga qaramay, o‘zbek dostonchiligi shakl va mazmun jihatdan har tomonlama badiiy taraqqiy etdi. Adabiy tanqidchilikda 80-90-yillar o‘zbek dostonchiligi bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlar baholandi. Boshqa janrlarga nisbatan biroz kam o‘rganilgan bo‘lsada, shu davr adabiy tanqidchiligi mahsuliga aylandi. XX asrning 80-90-yillarida turli mavzudagi dostonlar yozilishi bilan birga, yaratilgan dostonlarni tahlil qilish tendensiyasi ham jonlandi. O‘zbek adabiy tanqidchiligida lirik turning barcha janrlari nazariy jihatdan o‘rganilgani kabi o‘zbek dostonchiligi ham adabiy tanqidchilik e’tiboridan chetda qolmadi. “Saksoninchi yilda dunyoga kelgan o‘zbek shoirlarining salmoqli dostonlariga xos bo‘lgan umumiy belgilarni topishni istasak, buni avvalo, dostonlarning qahramonlaridan qidirmoq” [1.224]. Shu ma’noda, adabiy tanqidchilikda dostonlar qahramonlari doimo asosiy tahlil markazida bo‘lgan. Adabiyotshunos M.Mahmudov “Zaynab va Omon” dostonini shu davr odamlarining ma’naviy qiyofasini aks ettirish, insoniy tuyg‘ularning erkinligini tasvirlashni maqsad qilganini tahlil etadi [2.217.]. Doston qahramonini real hayotdagi shaxs taqdiri bilan qiyoslaydi. Shoir o‘zida yetiltirib yurgan niyatiga hayotiy shaxs taqdiri mos keladi. Bizga ma’lumki, Hamid Olimjon kolxoz dalalarida mehnat qilib mukofotlangan Zaynab ismli qizni topib suhbatlashgan, uni dostonning bosh qahramoniga aylantirgan. Maqolada ham dostonning yozilish tarixi va Sarvar Azimovning shu haqidagi izlanishlariga to‘xtaladi. Shoirning dostondan avval yozilgan “Zaynab” ocherki va dostonini qiyoslab tahlil qiladi. Ocherkda shoir kolxozning afzalligini ko‘rsatgan bo‘lsa, dostonda shoirning g‘oyaviy niyati o‘zgaradi. Doston kompozitsiyasida turli vaqtlarga sochilgan hayot hodisalarini bir asarga yig‘ish orqali ijodkor o‘z g‘oyasini bera oladi. Doston retrospektiv kompozitsiya asosiga qurilgani, doston boshida Zaynabning bugungi shodon kunlari, keyin esa uning qayg‘uli kunlariga qaytishi asarni o‘ziga xosligini ta’minlaganini keltiradi. Shuningdek, Zaynab portretini yaratishda o‘zbek qizlarining tipik xarakteri tasvirini beradi. O‘zbek qizi hayosi, qalbi, nazokati Zaynab tasvirida yaqqol aks etadi. Tanqidchi shoirning ijodiy izlanishlari o‘zbek poeziyasining durdona asari yaratilishiga asos bo‘lgan, deya xulosalaydi.

Ayni yuqoridagi tahlillar va mulohazalar Muhammad Ali va tanqidchi Umarali Normatovning suhbati [3.215.] da kengroq ochib berilgan. Tanqidchi va shoir shu davr dostonchiligining muammolari, janrning adabiy jarayondagi mavqeyi xususida mulohazalarini berib o‘tgan. Muhammad Ali o‘zbek dostonchiligini uch davrga bo‘ladi: 1) har birini she’riy roman desa bo‘ladigan dostonlar; 2) o‘ttizinchi-qirqinchi yillarda yaratilgan dostonlar; 3) oltmishinchi-yetmishinchi yillarda yaratilgan dostonlar. Birinchi davr dostonchilikning eng muhim bosqichi sifatida taraqqiyotini belgilab bergan. Ikkinchi davr dostonlarida hayot uchun ayovsiz kurash o‘z aksini topdi. Uchinchi davr dostonlarida esa, qahramonning qalbi, kechinmalarining ifodasi yangi usul sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Shoir yuqoridagilardan kelib chiqib, dostonchilik o‘z mavqeyini saqlab qolganligini dalillaydi. Shuningdek, tanqidchi va shoir suhbatida bu davr dostonchiligining va adabiyotining bosh masalasi – inson ekani, inson va uning obrazi dostonlar ruhini boyitgani hamda psixologizm elementlarining ko‘zga tashlanganini anglash mumkin. Doston shakli haqidagi fikrlarda Shukur Qurbonning “Temur Malik”, Usmon Azimning “Oq sharpa” dostonlarida shakl maromiga yetkazilmagi, A.Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostonida esa shu davrning dolzarb muammolariga munosabat bildirgan. Shaxsga xilma-xil yondashib, insonni barcha murakkabliklari bilan tasvirlaganiga e’tibor qaratadi. Dramatik dostondagi shoir obrazi “mif vositasida realistik tasvirning yuksak cho‘qqisi”ga ko‘tarilgan. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida ham afsonalar real voqelikning mohiyatini ochishga xizmat qilgani

bilan e’tiborga sazovor deyilgan. Shu bilan birga, tanqidchi va shoir doston janrining o‘ziga xosligi xususida ham bir qator bahsli fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Ushbu adabiy suhbat 80-yillar dostonchiligi xususida tasavvur bera oladigan pishiq tadqiqotdir. Muhammad Alining shu yo‘nalishdagi yana bir izlanishi [4.193.] 80-yillar dostonchiligi haqida tasavvur bera oladi. Unda dostoniy tafakkur mahsuli qanday bo‘lishi kerakligi masalasi ko‘tariladi. Dostonlar badiiy-falsafiy tafakkur asosiga qurilishi bilan birga, o‘z davri haqiqatini aytishi, obrazlari badiiy haqiqatni yelkasida ko‘targan bo‘lishi lozimligini qayd etadi. Boyqobilovning “Yulduzli osmon” dostoni ayni shu jihatlari bilan ahamiyatli ekanini tahlil qiladi. Shunga qaramay, dostondagi ba’zi kamchiliklarni sanaydi. Dostonda qaytariq satrlarning uchrashi, dostonda keltirilgan miflar shunchaki aytib berilishi, hayot materiali mif asosida tadqiq etilmasligini keltiradi. Doston boblarining qo‘shiq deb nomlanishini ham mulohaza qilib ko‘rish kerakligi o‘rtaga tashlanadi. Bundan tashqari, E.Samandarning “Erk sadolari”, O.Matjonning “Xorazmiyning to‘rt sayohati va sakkiz bashorati”, J.Kamolning “Rajab Ashurov dostoni”, O.Hakimovning “Lochin” kabi dostonlari ham tahlilga tortilgan. Xulosalarida shu davr dostonlarida dostoniy tafakkur yetishmasligi, milliy adabiyot qobig‘ini yorib, jahon andozalariga muvofiq asarlar yaratish muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Shu izlanishlarning davomi sifatida Umarali Normatov [5.173.] dostonnavislarning zamon bilan hamnafas qirralarini tekshiradi. Dostonnavislik xususida to‘xtalar ekan, o‘zbek dostonchiligi shu davrga qadar hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarini keng yoritmaganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, doston davr muammolari va hayot haqiqatini aks ettirishda lirika, drama, proza bilan tenglashishga harakat qilgan. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, “Istambul jofiasi”, O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, A.Muxtor “Dol qoya”, Muhammad Alining “Inqilob”, I.Otamurodovning “Yarador umid otlari” kabilarni shu qatoridagi dostonlar sifiga kiritadi. E.Vohidovning “Istambul fojiasi” va O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar” dostonini qiyosiy tahlil qiladi. Unga ko‘ra, “Istambul fojiasi”da murakkab taqdirlar, mukammal xarakterlar, adashgan, gunohkor shaxslar, “Gaplashadigan vaqtlar” qahramoni esa mashaqqatli taqdir egasi, o‘z davri odamlaridan yuqori fikrlaydigan oddiy inson. “Istambul fojiasi”da lirik qahramon voqealar kuzatuvchisi, “Gaplashadigan vaqtlar”da shoir lirik qahramonning voqealarga aralashuvidan keng foydalangan. Shu yillar dostonlarini tahlil qilar ekan, kitobxonlarni to‘lqinlantiradigan falsafiy dostonlarga urinish sifatida A.Muxtorning “Dol qoya”, U.Azimning “Uchrashuv” poemalarini keltirgan. “Uchrashuv” dostonida texnika taraqqiyotining salbiy timsoli bo‘lgan yigit va tabiiylik tarafdori bo‘lgan qiz timsoli. Texnika taraqqiyotidagi bir yoqlamalik inson tuyg‘ularini xarob qilayotgani dard bilan tasvirlangan. “Dol qoya”da esa, yuqoridagi mavzuga muvofiq tarzda Bobo va nabira ruhiyati o‘rtasidagi nomuvofiqlik aks ettirilgan. Ikki doston ham o‘z zamonasining tashvishlarini, muammolarini dalil ko‘taradi. Tanqidchi yuqoridagi dostonlarda davrning dolzarb muammolariga murojaat etib, insonlar ruhiyati, hayot haqiqati va murakkab ziddiyatli vaziyatlarni talqin etish tendensiyasi kuchayganini xulosa qiladi.

Doston janriga bag‘ishlangan Umarali Normatovning “Doston va zamon” [5.173.] nomli maqolasi ham shu sohadagi ilmiy tahlillardan biri. Maqolada keltirilishicha, doston janri 80-90-yillarda hozirjavob proza, dramaturgiya sohalari bilan tenglasha olgan. Janr hayotga, ijtimoiy muammolarga juda yaqin kelgan. Tanqidchi bunday dostonlar sirasiga E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, “Istambul fojiasi”, Omon Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”ni kiritadi. Shuningdek, A.Muxtorning “Dol qoya” dostoni ma’naviy vorislik, U.Azimning “Uchrashuv”i insoniy fazilatlar, I.Otamurodning “Yarador umid otlari”i dostoni esa ozodlik kurashi ruhi bilan yo‘g‘rilgani qayd etiladi. Keltirilishicha, dostonlar mavzu va muammo jihatidangina emas, hayot haqiqatining talqini, uslubiy xususiyatlari bilan ham yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan. Dostonlarda ham roman, qissa, drama singari murakkab taqdirlar, xarakterlar tasvirlangan. Ayniqsa, “Istambul fojiasi” dostonida chigal taqdirli obrazlar xarakterini tasvirlab, roman kabi hayotiy tafsilotlari batafsil beriladi. Tanqidchi talqinicha, bu doston “adashganlar jofiasi”, uzoq yillar g‘aflatda qolgan vijdonning uyg‘onishi, vijdon faryodiga bag‘ishlangan dostondir. Muhammad Alining “Oybek haqida etyudlar” [6.289.] maqolasida “Dilbar – davr qizi”, “Davrim jarohati”, “O‘ch”, “Qizlar”, “Nur qidirib”, “Navoiy” dostonlari xususida so‘z boradi. “Dilbar – davr qizi”ida qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan Dilbar xarakteri keskin o‘zgaradi. U mehnatda qotgan ayollarni, dugonalarini ozodlikka chaqiradi. Bu shoirning ayni davr talab qilgan qahramon qiz obrazi edi. “O‘ch” poemasida Xolxo‘ja o‘z sevgisi uchun kurashadi, “Davrim jarohati”da davrning tilini tushuna olmagan inson taqdiri yoritiladi, “Qizlar”, “Nur qidirib” va “Navoiy” dostonlarida esa tinchlik uchun, yashash uchun kurash tasvirlari o‘rin oladi.

Adabiy tanqidchilikda 80-90-yillar dostonlarining o‘rganilishini xulosalaydigan bo‘lsak, barcha janrlarda kuzatilgani kabi 80-yillar boshlarida yaratilgan doston personajlarining mehnat kishisi sifatidagi qahramonliklari ko‘kka ko‘tarilgan bo‘lsa, 90-yillarga kelib, ularning qalbi, ruhiyati, insoniy kechinmalari tahlilga tortildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғафуров И. Мўъжизалар ҳар куни керак // Шарқ юлдузи, 1981, № 7. – Б. 224 – 230.
2. Маҳмудов М. Ҳаёт ҳақиқати ва бадиий сюжет // Шарқ юлдузи, 1979, № 1. – Б. 217 – 220.
3.Муҳаммад Али, У.Норматов. Поэма-қалб қўшиғи // Шарқ юлдузи, 1981, № 8. – Б. 215 – 222.
4. Муҳаммад Али. Поэтик тафаккур ва бадиий ҳақиқат // Шарқ юлдузи, 1985, № 10. – Б. 193 – 198.
5. Норматов У. Достон ва замон // Шарқ юлдузи, 1987, № 10. – Б. 173 – 180.
6. Муҳаммад Али. Ойбек ҳақида этюдлар. Ҳаёт кўзгуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 289-303.

Feruza BURXANOVA,
TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti decani;
Feruza SAPARBOYEVA,
DPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

INSONNING TURFA RAKURSDAGI BADIIY TAHLILI

Annotatsiya: zamonaviy adabiy jarayonni kuzatar ekanmiz, undagi turfa metod va uslublar, ijodiy yo‘nalish va oqimlar xilma - xilligiga guvoh bo‘lamiz. Aslida ham rang - baranglik, turg‘unlikning oldini oluvchi, taraqqiyotning muhim omillaridan biri sanaladi. Shu ma’noda bugungi adabiy jarayonda an’anaviylik va norealistik yo‘nalish va oqimlarning sinkretik ifodasi, ijtimoiylikdan ko‘ra inson ichki, botiniy olami tahlili, ruh holi badiiy tadqiqiga e’tibor qaratilayotgani shoyad haqiqat. Shu ma’noda badiiy asar tasvirida yozuvchilarimiz subyektivizm tamoyiliga urg‘u qaratishayotgani kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: *an’ana, tasvir, yozuvchi, ilm, adabiyot, qahramon.*

Аннотация: наблюдая за современным литературным процессом, мы становимся свидетелями многообразия в нем методов и стилей, творческих направлений и течений. Фактически разнообразие считается одним из важных факторов развития, предотвращающим стагнацию. В этом смысле верно, что в современном литературном процессе внимание уделяется синкретическому выражению традиционализма и нереалистических направлений и течений, анализу внутреннего мира человека, художественному исследованию душевного состояния, а не социального. В этом смысле наблюдается, что наши писатели подчеркивают принцип субъективизма в описании художественного произведения.

Ключевые слова: *традиция, образ, писатель, наука, литература, герой.*

Annotation: observing the modern literary process, we witness the diversity of methods and styles, creative directions and trends in it. In fact, diversity is considered one of the important factors of development, preventing stagnation. In this sense, it is perhaps true that in today’s literary process, attention is paid to the syncretic expression of traditionalism and non-realistic trends and trends, to the analysis of the inner, inner world of man, to the artistic study of the state of the soul, rather than to sociality. In this sense, it is observed that our writers emphasize the principle of subjectivism in the depiction of a work of art.

Key words: *tradition, image, writer, science, literature, hero.*

Inson ruhiyati musavviriga aylangan iste’dodli ijodkorlarimizdan biri Nazar Eshonqul hisoblanadi. Adib ijodi ramziy-majoziyligi, murakkab ruhiy holatlarni ifoda qilishi norealistik tasvirlari bilan adabiy jarayonda o‘ziga xos o‘ringa ega. Nazar Eshonqul nafaqat yozuvchi, balki qalami o‘tkir munaqqid, adabiyotshunos olim sifatida ham jahon va o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalari ijodiga bag‘ishlangan chuqur ilmiy tahliliy maqolalari, adabiy-estetik qarashlari jamlangan kitoblari, etyudlari bilan tan olingan. Muallif o‘z adabiy estetik qarashlarida: “Kitob baribir insonning “men”ini, shaxs tushunchasini shakllantiruvchi eng katta, hozirda men bilganlarning ichida, san’atlarning ichida eng mukammal va to‘g‘ri xulosa beradigan vosita”[1], - deya ta’kidlaydi yozuvchi. Uning bu qarashlari bejizga emasligini asarlaridan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Asarlaridagi ba’zi detallari mutolaa qiluvchining shu darajada e’tiborini tortadiki, uni oxirigacha pauzasiz o‘qishga harakat qilamiz. Voqealarning oxiri nima bilan tugashi ochiq ko‘rinib turmasligi, uning jumboqliligi ham alohida diqqatni qaratadi. Uning shunday beqiyos asarlaridan biri esa “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidir. Bu hikoya 1996-yilda ilk bor “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida nashr etilgan.

Shamolni tutib bo‘lmaydi! Hikoya sarlavhasiyoq o‘ziga jalb etadi. Bu sarlavha hikoya bosh qahramonining jilovlanmas nafratini aks ettiruvchi beqiyos yechimdir. Shamol kabi uning ham nafratini, qahrini boshqarib bo‘lmaydi. Shu oddiy shamol kuchayib, ulkan kemalarni parokanda qilgani kabi nafrat ham o‘z kuchini ko‘rsatadi. Hikoya umri davomida mardlarcha yashab o‘tgan, butun hayotini Tersota qishlog‘iga bag‘ishlagan Rayim polvon va uning o‘g‘li nohaq otib tashlanishi bilan boshlanadi. Bir vaqtning o‘zida ham eridan, ham farzandidan ayrilgan Bayna momo butun umr Zamon otboqar va qishloqdoshlarini kechirolmay yashaydi. Ularning otilishida Zamon otboqarning “Molingni topshir, deganda ering biz bilan sichqon-mushuk o‘ynadi…”[2]- shu jumlalariga to‘xtalamiz. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, Rayim polvon juda ham matonatli va hech kimga tobe bo‘lishni istamaganligi va bu erkinlikka bo‘lgan intilishi ularga yoqmaganligi, o‘ziga bo‘ysundira olmaganligi uchun shafqatsizlarcha otib tashlaydi. Zamon otboqarning xarakterini esa Bayna momoga qarata: “Sen havotir olma, o‘lsang itlarim ko‘madi”[3], - deya itlariga ishora qilib qo‘yishi yanada yorqinroq ochib beradi. Bayna

[1] https://youtu.be/DiRIrQ7sh6g?si=ImvNnjqNLY7ZRLYk
[2] https://mutolaa.com/uz/book/shamolni-tutib-bo‘lmaydi
[3] https://mutolaa.com/uz/book/shamolni-tutib-bo‘lmaydi

momo esa eri va o‘g‘lining o‘limidan keyin kamgap bo‘lib qoladi. O‘z ichki dunyosiga berkinadi, hech kimsaga qo‘shilmaydi. Adib judolik ishg‘ol qilgan ayol baxtsizligini uning xatti - harakatlari, kechinmalari, ruhiy olami tasviri vositasida jonli va hayotiy tasvirlashga erishgan. Bayna momo o‘zini hayvonlarga qarash-u ekin-tikin ishlari bilan band qilib yurar edi. Tegirmonga ham yilda ikki-uch marotaba borardi. Ollomurd tegirmonchi ovora bo‘lib yurmasligini, biror-bir erkakka aytsa, uyiga o‘zi tashlab ketishni aytadi. Bayna momo esa: “Bu qishloqda erkak yo‘q”,[4]- deydi. Uning shu bir og‘iz gapida ayol qalbidagi dard-alam aks etadi. Darhaqiqat, o‘sha mudhish kunda atrofidagilarga qanchalar najot ko‘zlari bilan boqqan edi-ya. Ammo uning yonida kim bor edi, kim yelkadosh bo‘ldi?! Bayna momoning o‘rnida kim bo‘lsa ham bunday holatda ruhan azoblanar edi. Keyinchalik esa qishloqdoshlarini ochiqdan - ochiq masxara qiladigan bo‘ldi. “E senmisan, Salom ko‘sa, xotiningni ishtonini kiyib yuribsanmi”, “Hakim otchoparmisan, buncha urg‘ochi baytalga o‘xshab qiyshanglaysan…” “Bu qishloqning ayollari endi faqat hezalak tug‘adi”[5]. Bayna momoning yuragiga hech narsa sig‘maydi. Vaqtlar o‘tishi bilan uning nafrati ortsa ortdiki, ammo kamaymadi. Hattoki Zamon otboqarning o‘limi ham unga ta’sir etmadi. Uni shunchaki oddiy holdek qabul qiladi va “boringlar, o‘liklaringga yig‘langlar” - deydi.

Bayna momo so‘nggi nafasigacha o‘z nafratiga sodiq qolganligi, Zamon otboqarning o‘limidan so‘ng ham qishloqdoshlari bilan ilakishib ketolmaganligi keltiriladi. Zamon otboqarning o‘limida mirshablar kelib har bir qishloq erkaklari bilan gaplashib chiqadi. Bayna momodan ham shubha qilib uning yoniga ham kelishadi, lekin uning nechog‘lik kichik jussasi tog‘dek otboqarga qasd qila olmasligiga indamay qaytishdi. U qaysidir ma’noda “munosib”, ya’nikim qilgan ishlariga mos ravishda tahqirli o‘lim topgan edi. Uning tanasining ba’zi qismlari kesilgan, o‘nta barmog‘i esa uzib olingan edi. Uning kesilgan barmoqlari topilmagach, shu holicha ko‘mishga to‘g‘ri keldi. Yozuvchi Zamon otboqar obraziga kitobxonda shu darajada nafrat uyg‘otadiki, uning bunday mudhish o‘limi insonning rahmini keltirmaydi.

Yozuvchi Zamon otboqarning qotilini sir saqlash usuli orqali oshkor qilmay, asar dramatizmini kuchaytirib boradi. Faqat ba’zi detallar va vositalar orqali ishora berib o‘tadi. Bayna momoni dafn qilish oldidan kelinlik sandig‘ini ochishganda undan o‘limligi uchun zarur bo‘lgan narsalar va chorsining yirtig‘iga pala-partish o‘rab tashlangan o‘nta odam barmog‘i ham topiladi. Nazar Eshonqul kampirning bu qotilligini detallar yordamida ochib beradi. Ya’nikim otboqar o‘lgan paytida u kelinlik sandig‘ining yonida o‘tirgan edi va xonadan qon hidi kelib turgan edi. Insonning tobora avj olayotgan nafrati bunday bo‘ronlarga olib kelishi hayratlanarli, albatta. Nazar Eshonqul o‘z asarlarida boshqa asarlarda takrorlanmas qahramonlarni keltiradi. Bayna momo ham milliy ayollar obraziga umuman o‘xshamaydi. Milliy obrazdagi ayollar timsoli qay darajda sokin bo‘lsa, Bayna momo obrazi shu darajada qahrli va bo‘ronlidir. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Yirik shaxslar tasviri yo‘lida” [6]nomli maqolasida mazkur hikoyaning badiiy xususiyatlari haqida to‘xtalib shunday yozadi: “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo milliy adabiyotimizda mutlaqo tasvir etilmagan obraz. Hikoya chinakam insonga, butun shaxsga bitilgan madhiyadir. Nomusli odamni, g‘ururli insonni, chinakam shaxsni yengib bo‘lmaydi. Uni qiynash, chalish, yiqitish, boringki, o‘ldirish mumkin, lekin mag‘lub qilish mumkin emas. Shaxsligi shakllanmagan yoxud sindirilgan kimsada g‘urur bo‘lmaydi”. Ular esa o‘z g‘ururlari bilan muqim qolishadi. Feruza Burxanova esa o‘zining “Monografiya”sida shunday ta’rif beradi: “Qalbidagi isyonni zohiriga zarracha ham chiqarmagan bu murakkab obraz millatimizga xos oriyat, sadoqat, andisha, raqibiga ojizligini bildirmasligi kabi fazilatlarni o‘zida jamlab, sobiq sho‘rolar zamonini o‘ziga xos bo‘yoqlarda fosh etadi, ruhan o‘zida qo‘rquv psixologiyasini shakllantirayotgan, tarqoqlik sari borayotgan xalqni sergak tortishga, ma’naviy qadriyatlaridan uzoqlashayotgan o‘zligidan ogoh etadi ”[7]. Biz nafrat, sabot, g‘urur, odamiylik, iymon va vijdon tushunchalarini Nazar Eshonqul asarlarida yanada chuqurroq anglashimiz mumkin. Bunday asarlar har doim badiiy adabiyotning xazinasi bo‘lib kelgan. Zero, inson ruhiyatini tasvir etib, uni yangicha rakursda tasvirlagan, badiiyat namunalari insoniyat ma’naviy mulkiga aylanishi, shubhasiz.

[4] https://mutolaa.com/uz/book/shamolni-tutib-bo-lmaydi
[5] https://mutolaa.com/uz/book/shamolni-tutib-bo-lmaydi
[6] Hozirgi adabiy jarayon masalalari. - Toshkent, 2022
[7] Burxonova F. Monografiya. - Toshkent: Innovatsiya - Ziyo, 2020. 77-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burxonova.F.Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. 77-bet.
2. Hozirgi adabiy jarayon masalalari. – Toshkent, 2022.

Internet saytlari:

1. https://youtu.be/DiRIrQ7sh6g?si=ImvNnjqNLY7ZRLYk
2. https://mutolaa.com/uz/book/shamolni-tutib-bo‘lmaydi

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustozi

ISHQ O‘TI – AZALNING QISMATI

(Ijod maktablari hamda filologiya yo‘nalishidagi akademik litseylar uchun)

Adabiyot muallimlari e`tiboriga taqdim

Annotatsiya: ushbu maqola dars ishlanma shaklida yozilgan bo’lib, unda A. Navoiyning ‘’Jong‘a chun derman: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?” g‘azalining sharhi hamda bu darsni o’tish metodlariga misollar keltirilgan.
Kalit so‘lar: *jon, jism, bag‘ir, ko‘z, hirqat, tardoman.*
Annotation: this article is written in the form of a textbook, which contains the commentary of A. Navoi’s gazelle “Jong’a chun derman: “Ne erdi ólmakim mood?” and examples of methods of conducting this lesson.
Key words: *soul, body, baggage, eye, hirqat, tardoman.*
Аннотация: данная статья написана в виде учебника, в котором содержится комментарий газели А. Навои “Jong‘a chun derman”: “Ne erdi ólmakim mood?” и примеры методики проведения данного урока.
Ключевые слова: *душа, тело, багаж, глаз, хиркат, тардоман.*

Mavzu: A. Navoiyning: ‘’Jong‘a chun derman: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?‘’ g‘azalini o‘rganish.

Dars maqsadlari:

– **ta’limiy maqsad:** shoirning yuqoridagi g‘azali mazmuni, matni, g‘oyasi, tushunilishi qiyin so‘zlari haqida bilim berish; ifodali o‘qitish, matnning nasriy bayoni bilan tanishtirish;

– **tarbiyaviy maqsad:** mumtoz merosni xohlab tushunish, uni qadrlash va e’zozlash, tasavvuf va komil inson axloqini anglash layoqatini o‘stirish;

– **rivojlantiruvchi maqsad:** shoir lirikasi, g‘azal janri va uning xususiyatlariga oid, tasavvuf nazariyasiga oid bilimlarini kengaytirish, adib adabiy merosini o‘rgatish orqali o‘quvchilar adabiy bilimi va dunyoqarashini rivojlantirish.

Dars usullari: “Zanjir”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Savollar va dalillar”, “Harfni tikla”, “Nasriy bayon va sharh”.

Dars jihozlari: Navoiy haqidagi asarlar, shoir asarlari to‘plami, slaydlar, testlar, rasmli ko‘rgazmalar, tarqatma materiallar, rag‘bat va jarima kartochkalari.

Darsning borishi. I. Tashkiliy qism:

salomlashish va davomat;

tayyorgarlik nazorati;

d) darsning maqsadini tushuntirish (musobaqa tarzida o‘tishini aytish, ekspert o‘quvchilar tarkibini saylash, sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lish).

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash.

Bunda guruhlar shoir hayoti va ijodiga oid savollarga ketma-ket javob berishadi. Ish **“Zanjir“** usulidan foydalanib mavzuni so‘rashdan boshlanadi. To‘g‘ri va yaxshi javob berganlar “Rag‘bat”, qoniqarli aytolmagan guruh “Jarima” kartochkasini qo‘lga oladilar. Beriladigan savollar namunasi:

1. A.Navoiy qachon va qayerda tug‘ilgan? (1441-yil 9-fevral Hirot shahrida.)

2. Navoiy lirik she’rlarining barchasi nechta devonga jamlangan? (8 ta devonga jamlangan. Shulardan 7 tasi turkiy, bittasi forsiy devoni.)

3. Shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan devoni qaysi, u qachon tuzilgan? (“Ilk devon”, 1465-1466-yillarda)

4. Husayn Boyqaro iltimosiga binoan tuzilgan devoni nomi? (“Badoe’ul –bidoya”)

5. Forsiy she’rlari asosida tartib berilgan devoni qanday ataladi? (“Devoni Foniy”)

6. To‘rt devonni o‘z ichiga olgan kulliyotidagi har bir devoni nomi qanday edi? (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob“, “Badoe’ul-vasat”, “Favoyid ul-kibor”)

7. “Xazoyin ul-maoniy“ majmuasi yana qanday nom bilan ataladi? (“Chor devon”)

8. “Xazoyin ul-maoniy”dan jami nechta mumtoz janrga oid namunalar o‘rin olgan? (16 ta lirik janr)

9. Majmuadagi eng yetakchi asosiy mumtoz janr qaysi? (G‘azal)

10. “Xazoyin ul-maoniy” to‘plamining har bir devoniga nechtadan g‘azal kiritilgan? (650 tadan, jami: 2600 ta g‘azal)

11. Navoiyning forsiy qasidalaridan tuzilgan to‘plamlarining nomlari qanday? (“Sittai zaruriya “, “ Fusuli arbaa”)

12. Begona bayt nima? (G‘azal matnidagi lirik chekinish – begona bayt)

Javoblar umumlashtiriladi, faol guruh rag‘batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni.

O‘qituvchi: “Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan”… Darhaqiqat, A. Oripov aytganidek: dunyo-sir, hayot-sir. Qo‘liga qalam ushlagan zot borki, ana shu “anglab bo‘lmas sir”ni tushunib yetishga urinadi. Biroq olam sir-sinoatlarini taxayyul sultoni Navoiychalik izlagan shoir dunyoda kam bo‘lsa kerak. Chunki she’riyatning


o‘zi ham Buyuk sir!

Klassik so‘z san’atkorlari misralariga jo bo‘lgan majoziy va botiniy ma’no qatlarini anglash, tushunib yetish uchun yana nimalarga e’tibor berilishi zarur? Shoirni qalam tutishga undagan dard, g‘am va g‘urbat, ayriliq, g‘amzada ruh iztiroblari nimalardan iborat? O‘rganishga shaylanayotganimiz g‘azalda yana qanday **suvrat** va **siyrat** ma’nolari yashiringan?

Bugungi mashg‘ulotimizda mana shunday savollarga javob izlaymiz. She’r mulkining sultoni, fasohat mulki maliki Navoiy g‘azalining sinoat olamiga sayr qilamiz.

Mashg‘ulot **“Aqliy hujum‘’** usulidan foydalanib savollar berish va unga guruhlarning javoblarini tinglash bilan davom ettiriladi:

1.G‘azal nima? O‘quvchilar savolga shu paytgacha o‘rgangan nazariy bilimlariga asoslanib javob beradilar. Javoblar lavhaga yozib boriladi, asosli va to‘liq javoblar umumlashtiriladi va rag‘batlantiriladi.



O‘qituvchi **“Klaster”** usulidan foydalanib o‘quvchilar javoblarini yozib boradi:

O‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil bildirish yo‘li bilan bu usulni davom ettiradilar.

O‘qituvchi: Bolalar! Sizlarga o‘z kuzatishlaringizdan ayon bo‘lib bormoqdaki, har bir g‘azalning o‘ziga xos mazmun-mohiyati, an’anaviylik xususiyati, badiiy tasvir qatlari hamda imkoniyatlari, ta’sirchanligi, taqte’ maromi, emotsional-ekspressiv quvvati mavjud bo‘lar ekan. Bugun o‘rganishni niyatlaganimiz Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning:

Jonga chun derman: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?”

Derki: “Bois bo‘ldi jism ichra marazning shiddati“, – matlali g‘azalini ham bir tinglab ko‘ringchi… (G‘azal matni o‘qituvchi tomonidan ifodali yod o‘qib berish namunasi orqali taqdim etiladi.)

Shundan so‘ng g‘azaldagi ma’no va mazmuni notanish, tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati ustida ishlanadi:

hirqat – kuyish, **maraz** – kasallik, **za’fingg‘a** – vaziyatga, **barqi** – chaqmog‘i, yashin; **tardomani** – etagi ho‘l, **mahvash** – oy sifat.

Undan keyin esa g‘azal baytma bayt sharhlanib, nasriy bayon matni videoproektor orqali yoki monitor ekrani yordamida namoyish etiladi va tushuntirib beriladi.

1-bayt. Lirik qahramon – Haq yo‘lchisi: oshiq ishq o‘tining riyozatlari bois o‘lib o‘z vafoti sababining taftishiga “kelgan” O‘z ruhidagi shu azaliy pinhona tavhidiy visol maqomiga uruj orzusi **jonni** o‘lim ostonasiga keltirgan. Solik o‘z jonidan so‘ramoqdaki: “O‘limimning sababi nima?” **Jon** esa unga javoban: “Bunga jismdagi kasallikning shiddati sabab bo‘ldi”, – deb javob beryapti.

2-bayt. Endi Oshiq Jism (tana)ga murojaat qilib undan: “Bu vaziyat (ahvol)ga tushib qolishingga nima sabab bo‘ldi?” – deb so‘raydi. **Jism:** Bunga o‘tlik bag‘irning hirqati (kuyishi) sabab bo‘ldi”, – deb javob berdi.

3-bayt. Voqean endi savol navbati **Bag‘ir**ga yetdi. U lo‘ndagina: “Menga ko‘ngildan o‘t tushdi. Chunki ko‘ngilga ishq chaqmog‘ining shu’lasi ofat soldi’’, – dedi.

4-bayt. Oshiq qahramon Ko‘ngilga “g‘azab qildi’’. **Ko‘ngil** esa gunohni Ko‘zga yuklaydi: “Agar ko‘z ko‘rmaganida edi, biz bu ishning tuhmatiga qolmagan bo‘lar edik’’, – deb vaj ko‘rsatdi.

5-bayt. Solik endi **Ko‘zga** ko‘z solib yuzlandiki: “Ey etagi hol-u yuzi qaro, ko‘nglumning balo-yu vahshati sendan ekan-ku”, – deya do‘q urib dag‘dag‘a qildi.

6-bayt. O‘z vazifasini to‘g‘ri bajarganligi bois shu holga tushgan **Ko‘z** yig‘lab: “ Menda ham ixtiyor yo‘q edi, nogohon ul sho‘xi mahvash tal’ati ko‘rinib ketgan bo‘lsa, men nima ham qilay?” – deya etagini ho‘l qilib javob berdi.

7-bayt. Nihoyat g‘azal **qahramoni** (oshiq, solik) shoirga murojaat qilib:” Ey Navoiy, barcha o‘z uzrini aytdi, endi sen o‘lguningcha kuy, chunki ishq o‘ti senga azalning qismati ekan”, – deb yakun chiqaradi.

– **Aziz o‘quvchilar!** Usbu sharh, izoh hamda nasriy bayondan so‘ng g‘azal syujeti mazmunini yanada chuqurroq anglab yetmog‘ingiz uchun quyidagi fikrlarni ham ilova qilaman. Ya’nikim, tasavvuf ta’limotiga ko‘ra ilk Ilohiy qudratdan ajralib chiqqan olam, undagi inson o‘zicha harakatlar qiladi. Bugina emas, ana shu inson – olami sag‘ir unsurlari: Jon (ruh), Tan (gavda), Ko‘z, Ko‘ngil, Bag‘ir va boshqa (og‘iz, quloq, qo‘l, oyoq,)lar ham o‘zicha faoliyat yuritishga intiladi deb qaralgan. Jism (tana) o‘zining ilk manbasi tuproqqa qaytish uchun ruh (jon) bilan olishsa, Jon esa o‘zining ilk mabda’si Ruhi a’zamga birikish (vahdat, visol) uchun Tan, Ko‘ngil, Bag‘ir, Ko‘z va boshqa a’zolar bilan musohabaga kirishadi. Tasavvuf pok axloqida inson mana shunday bo‘lak (juz) larga bo‘lib o‘rganilgan, kuzatilgan va bu “laboratoriya” yakunlaridan **komil insonning** suvrat va siyrat axloq fazilat (maqom)lari “ishlab chiqilgan”. Soliklarga riyozat uchun “tariqat maktablari“da maqomlardan saboqlar berilgan. Demak, komil axloqqa ko‘ra Jismning har bir bo‘lagi (organ) o‘z harakati uchun mas’ul bo‘lganlar. Barcha organlar nojoiz ish qilmasa, Aql ularning yo‘liga yurmasa, Vujud (tan) inqirozga yuz tutmaydi-ku. Tasavvufda inson Vujudini pok saqlash, uni ilm va urfonga boshlash mas’uliyatini Aql “toji” zimmsiga yuklangan. Jismni jismoniy sog‘lom, ruhiy barkamol saqlash, Ko‘ngil qutisidagi Jon (juz)ni pok asrash Tanni ishqi majoziydan ishqi haqiqiyga yetaklab olib borish Inson atalmish maxluq (yaratilgan)qa Xoliq (yaratuvchi) tomonidan yuklangan eng buyuk xalifa (o‘rinbosar)lik mas’uliyatidir.

Yuqorida biz o‘rganganimiz g‘azal mazmuni va g‘oyasida ham Tan atalmish Vujud ro‘zg‘ori turmushidan bir kunlik hayotining so‘nggi soniyalaridagi Oshiq (solik) Jismi va Joni o‘rtasidagi “sarguzashtlari”dan “intervyu”olib berilmoqda… Oshiq tanining inqirozi sabablari tadqiq etilib, uning “o‘limi”ga sabab bo‘lgan vujud a’zolari har birining ayb-gunohlari o‘z “og‘izlari”dan iqror etilmoqda. G‘azal mazmun-mundarijasidan tushunib yetdingizkim, bu qurbonlikning bosh sababchisi Ko‘z ekan… Beixtiyor nogohon sho‘x Mahvash tal’atiga bir boqish muhabbati Oshiqni qurbon *qilgan ekan…*

(Adabiyot chuqurlashtirib o‘rgatiladigan ljod maktablari hamda filologiya yo‘nalishidagi akademik litseylar uchun kengaytirilgan sharh.)

Demak, g‘azal mazmun-mohiyatiga asoslansak, Oshiq o‘z Vujudini tark etishga majbur bo‘lganligining sabablarini o‘rganish uchun O‘zlik (gavda, tan) kulbasi yoniga “tashrif” buyurgan, Ishq olovidan halokatga uchragan Solik jon va boshqa a’zolarni so‘roq qilyapti. Ma’lumki, Jon Tanni tark etmasa, Vujud o‘limga yuz tutmaydi. Shu bois “o‘lmak”lik sababi, avvalo, Jondan so‘ralayotir. Jon esa sog‘lom Jismni vatan tutadi. Jon Tanni tark etgan ekan, demak, vujudda uning yashashi uchun imkon qolmagan. Bu jon javobidan anglashilmoqda… Uning sabab ko‘rsatishicha, oshiq jismi-jasadi ichra maraz, ya’ni kasallik xuruji avj olganligi bois o‘lim sodir bo‘lgan. Demak, kalavaning uchi Jismga borib taqalayotir. Jism jon-u vujud qo‘rg‘oni. Mantiqan u o‘ziga hech qanday xastalikni yuqtirmasligi zarur. Zarracha maraz ko‘plab ofatlarni boshlab kelishi mumkin. Shunday andishalar sabab endi oshiq Jismini so‘roqqa tutadi. (2-bayt.)

Jism bu xastahol vaziyatga sabab nimaligini surishtirsa, o‘z savolidan ham tez kutilmagan javobni oldi. Javob: ***“o‘tlug‘ bag‘irning hirqati“*** Jism bir javob bilan vaziyatdan jo‘ngina chiqib ketdi. Aybni osongina Bag‘ir (majozan: yurak, “ yurak-bag‘rim kul bo‘ldi” kabi) ga yukladi-qo‘ydi. Emishki, go‘yo Bag‘irning o‘rtanib yonib kuyishidan Jismga o‘t tushib, u haroratlanib (isitmalab) xastalik xuruj etgan emish. Endi Solik (oshiq) o‘zining halokati sababini topish oson kechmasligini sezdi va foje qismati (qadar va qazo) tarixini taftish qilishda davom etib Bag‘irdan so‘roqlaydi. Ma’lum bo‘lishicha, Bag‘ir ham o‘zini aybdor deb hisoblamaydi. U ham o‘zini aybdorlikdan osongina soqit qildi. Uning sabab ko‘rsatishicha: “Ishq deb atalgan bir chaqmoq (barq) bor, uning chaqnashi – ofat. Nogohon ana shu chaqmog‘i chaqnagan-u, Ko‘ngilga shu’la solgan. Ko‘ngilga shu’lavor yolqin ishq (muhabbat) ofati oralagan. Shu yolqindan esa Bag‘irga o‘t tushgan. Ko‘ryapsizlarki, osongina Jon ham, Jism ham, Bag‘ir ham oppoq. Bari gunoh Ko‘ngilda… Chunki u Ishq chaqmog‘ining shu’lasiga o‘rin bergan. Oshiq mana endi halokati sababini ***aniq*** topganday. Voqealar silsilasi kelib Ko‘ngilga bog‘landi. Hammasi to‘g‘ri, barchasi haqiqat. Agar ishq chaqmog‘ining shu’lasiga Ko‘ngil yo‘l bermaganida edi, Bag‘irga o‘t tushmas, u haroratlanib yonmas, o‘tlug‘ bag‘irning lovullashidan Jism dardga chalinmasdi, Jon Tanni tark etmas, oqibatda lirik qahramon – Oshiq o‘lmas edi. Bu o‘t – otashni tasavvuf adabiyotida *partav* yo *barq* istilohlari ifodalab, uning so‘fiyona nomi *tajalli*dir. Bu Nur Tangrining olamdagi in’ikosi ramzi. Yaratuvchini Nur, Suv, May timsollari orqali idrok etish mumtoz adabiyotdagi an’anaviy ramziy obrazlardir.

Tanadagi turli a’zolar sarkashlik qilib, gunohni endi hamsoyasiga to‘nkayotganligidan tutaqib Ko‘ngilni chinakam aybdor deb bilib, uning ham sarkashlik qilishidan xavotir olib Oshiq unga g‘azab qilgan. (4-bayt)

Voajabki, Ko‘ngil ham qahr-u g‘azabdan hech hayiqmay, o‘ziga qo‘yilayotgan gunohni tuhmat deb bilib, undan ochiqchasiga bosh tortayotir. Ko‘ngil aybni osongina Ko‘zga ag‘dardi. Balki harqalay Ko‘ngil Ko‘zni ayblashida bir jiddiy asos borga o‘xshaydi. U ham bo‘lsa, borib-borib Ko‘zning ko‘rish xususiyatidan emish. Yo Rab… Mana endi Ko‘ngil: ”Ko‘z manzurni ko‘rmasa, Ishq chaqmog‘i shu’lasi ko‘zga tushmas edi”, – deb o‘zini oqlab turibdi-ya. Ko‘ngil qiynalmay chap bergan g‘azabdan Ko‘z ahvoli ne kecharkin? (5-bayt) Oshiq so‘rog‘i siyosati Ko‘zga kelganda, yanada kuchayib o‘ta jiddiy tus oldi. Endi u g‘azabdan oshib do‘q-po‘pisa, dashnom tusini oldi. Biz bu muomaladan Oshiq o‘z

halokati sababchisini aniq topishiga ishonch ruhini anglaymiz. Chunki u Ko‘zga ayb qo‘yishdan burunroq, uni: *”Tardomani yuzi qaro”* deya urushish va haqorat iskanjasiga olganligini ko‘ramiz. So‘nggi qarori*: “Sendan o‘lmish telba ko‘nglimning balo-yu vahshati”,* deb uni qat’iy ayblaydi.

“Tardomani yuzi qaro“ sifati hayosiz, axloqsiz, or-nomussiz ma’nolarida ekanligining o‘zi dahshat. U tortinmay ibosiz boqadigan ko‘zga nisbatan qo‘llanishini o‘ylasak, masala chuqur. (Xalqda ham: “…ko‘zini suzmasa…”, ”suzilmay o‘l” kabi iboralar bor) Bu yerda so‘zning lug‘aviy ma’nosidan ham ustalik bilan foydalanilgan. Tojikcha: “Tardoman, “tar” – ho‘l va “doman” – etak bo‘lib, u “etagi ho‘l“ ma’nosini beradi. Bu ayni o‘rinda ko‘zning tabiiy xususiyatini ham, ya’ni u “tardoman” – “etagi” hamma vaqt ho‘l, hamisha namlanib turuvchi ekanligidan hamdir. “Yuzi qora” ham xuddi shunday ko‘zning tabiiy qora ekanligini anglatib turuvchi sifatlash. Bu po‘pisa va dashnom siyosatidan qo‘rqib ketgan Ko‘z yig‘iga tushdi. (6-bayt) Bilasizki, Ko‘zning asosiy vazifasi ko‘rish. Shu tabiiy vazifani to‘g‘ri ado etgani uchun ham ma’nan dashnomga duchor bo‘lib turgan Ko‘z ahvolini tasavvur qilyapsizmi? O‘z vazifasini to‘g‘ri bajargan “kishi“ga dashnom berish *zulmdir.* Bu do‘q va po‘pisaga qarshi ko‘zning yig‘lashdan o‘zga qanday tabiiy chorasi ham bor, axir? Voqean begunoh Ko‘z yig‘lab siqtab aytdiki: *“Nogohonda bir sho‘x mahvash tal’ati nomoyon bo‘lsa-yu , u butun borliqni mahliyo qilib, o‘z go‘zalligiga rom etib tursa-yu, unga qaramaslik yo uni ko‘rmaslik ixtiyori endi menda qoladimi?“* Vazifasiga ko‘ra endi ko‘zda nima ayb va gunoh?

Xullas, Ko‘z aybni o‘zidan shunday tabiiy soqit qilyaptiki, endi Oshiq o‘z qismatiga boshqa hech bir a’zoni sababchi deb topish yo talqin qilshga o‘zga imkon qolmadi. Ko‘z o‘z javobi bilan Oshiq shubhaga olgan barcha a’zolarni o‘z gunohlaridan ozod etilishiga yashil yo‘l ochdi. Ya’ni barcha o‘z tabiiy vazifasini to‘g‘ri ado etgan, xolos…

Xo‘sh, endi bu ma’naviy taftish qanday yakun topadi? To‘g‘ri unga qoyilmaqom javob topishi qiyin… shu yerda yana shoirning o‘zi “labbay” deya faylasufona yakun chiqaradi: *”Hamma o‘z uzrini aytdi, demak, to o‘lguncha ishq o‘tidan kuyish sen (solik)ga azalning qismatidir”.* Shoir o‘z asarida yozganidek:

Tangri chun odamni maxluq ayladi,
O‘zni – oshiq, oni – ma’shuq ayladi…


Shunday ekan, inson ana shu Ma’shuqi azal Ishqida yonib – riyozat tortib, unga munosib bo‘lish uchun ma’naviy komillikka intilib yashaydi. Qadar va qazo o‘ti – ishqda toblanish unga azaliy qismat, chunki bu gulshan uning Vujud ro‘zg‘ori hovlisidan ilohiy o‘rin olgan:

Ki Inson Ko‘nglin etdi, gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin mahzani Ishq.

Tasavvuf insonni ana shu o‘z ichiga joylashgan xazinani anglashga, u gulshanga kirib o‘ziga munosib “guldastalar” hozirlashga o‘rgatuvchi nazariya.

Demak, inson ruhidagi azaliy abadiy tiriklik talabi odam sajiyasiga (ongiga, ruhiga) tashqaridan kiritilmagan, bu “tuyg‘u” azaldan uning ruhiyatida pinhondir. Shu bois jism (tan) libosi ichra Ruh ham doim qulay “vaziyat kutib” yashaydiki, shunday imkon “eshiklari” ochilishiga sharoit juz (ruh) o‘z ilk mabda’si (Kull) tomon yo‘l olishga har dam shay turishi bizga tasavvuf ta’limotidan ayon…

G‘azal baytlaridagi mazmuniy silsilaviylik, misralar aro bir-biriga voqeaviy tadrij asosida rivojlanib syujet yaxlitligini yuzaga keltirayotganligini kuzatish uchun slayd orqali quyidagi tasvir namoyish qilinadi:



IV. ***Yangi mavzuni mustahkamlash.***
Mustahkamlash **“Savollar va dalillar”** usulidan foydalanib amalga oshiriladi.

Savollar	Dallllar	Ball
Janri	G‘azal	
Vazni	Ramali musammani maqsur	
Hajmi	7 bayt, 14 misra.	
Mavzusi	Majoziy va haqiqiy ishq	
Lirik qahramoni	Oshiq (solik), ma’shuq(yor, Haq)	
Radifi	Yo‘q	
Badiiy vositasi	Tashxis, tashbeh, tanosib.	
Qofiyalanishi	Kayfiyati, shiddati, hirqati, ofati, tuhmati, vahshati, tal’ati, qismati	
Timsollar	Jon, Jism, Bag‘ir, Ko‘ngil, Ko‘z, Oshiq.	
Holat va sifatlar	o‘tli bagir, tardomani yuzi qaro, telba ko‘ngil, sho‘xi mahvash.	

Jadvalni to‘g‘ri va tez to‘ldirgan guruhlar rag‘bat kartochkalarini qo‘lga kiritadilar. So‘ng **“Tushirilgan harflarni tikla”**topshirig‘i bajartiriladi.

Tushirilgan harflar	S o‘ z l a r	ball
h-x	…irqati, guna…, tu…mati, va…shati, i…tiyor, noga…on, sho‘…i, ma…vash.	
o‘-u	o‘tl…q, s…rdim, k…rmayin, k…zga, …lmish, k…rindi, sh…xi, …lguncha.	
d-t	qisma…, kayfiya…, shidda…, tush…i, ofa…	
b-p	saba… g‘aza…	

Guruhlarning boshlang‘ich to‘g‘ri javoblari slayd orqali ko‘rsatiladi. G‘olib guruhlar rag‘batlantiriladi. Vaqtga qarab mustahkamlashni davom ettirish maqsadida guruhlarga quyidagi **test** topshiriqlari beriladi.

1. Mumtoz adabiyot an’anasiga ko‘ra devonga dastlab qaysi janr kiritilgan?
A. g‘azal B. ruboiy D. fard E. tuyuq

2. “Jong‘a chu derman…” deb boshlanuvchi g‘azalda Oshiq “o‘lmaki”ning sababini so‘rab qaysi a’zolarini so‘roqqa tutadi?
A. Jism, lab, qosh, kiprik.
B. Jon, jism, bag‘ir, ko‘ngil, ko‘z.
D. Jism, bag‘ir, ko‘ngil, qomat, quloq.
E. Jism, bag‘ir, ko‘ngil, ko‘z, og‘iz.

3. Oshiqning ayovsiz so‘roqlariga qaysi a’zo yig‘lab javob berdi?
A. Jism B. Bag‘ir D. Ko‘z E. Jon

4. Lirik qahramonning azal qismati nima?
A. ishq o‘ti B. yuz qaroligi D. ko‘zning ko‘rishi E. ko‘ngilning balo-yu vahshati.

5. O‘rgangan ushbu g‘azalingiz qanday san’at asosiga qurilgan?
A. Tashbeh B. Tashxis D. Tazod E. Talmih

6. Ishq o‘ti – barq, shu’la tasavvuf ta’limotida qaysi nazariya orqali ifodalangan ekan?
A. Muhabbat. B. Visol (tavhid). D. Mazhar. E. Tajalli.

V. **Baholash va rag‘batlantirish** .

Guruhlarning yig‘gan ballari ekspert ishchi guruhi tomonidan hisoblaniladi, g‘olib guruh e’lon qilinadi. O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra olgan baho (ball) lari izohlanadi. G‘olib guruh va faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. **Uyga topshiriq.**

G‘azalda qo‘llanilgan tashbeh, tanosib va tashxis kabi badiiy vositalar ishtirok etgan baytlardan misollar daftarga yoziladi. G‘azalni ifodali yod o‘qish uchun tayyorgarlik ko‘riladi.

Rayhonoy SAIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SEMIOTIKADA MATNLARARO ADABIY-POETIK BOG'LANISHLAR

Annotatsiya: matn harakati faqat o'z sathi doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Uning asosiy xususiyati bo'lgan harakat hamisha ilgariga undaydi. Albatta, bunday intilish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi: u badiiy matn hududidagi belgilarning turli munosabatlari (paradigmatika, sintagmatika, binar oppozitsiya) natijasida yuzaga keladi. Bashariyatning butun badiiy taraqqiyotida yuzaga kelgan adabiy yaratmalardagi tasvir, ifoda, kod (belgi)lar hech qachon o'z holicha qolib ketmaydi. Muayyan vaqtda yangidan yaratilgan matnlarda muayyan darajada o'zgargan, zamonaviy tafakkur va shart-sharoitlarga moslashgan holda qaytadan yuzaga keladi.

Har bir matn intermatn hisoblanadi. Semiotika, strukturalizm singari yangi fan sohalari yuzaga kelmagan davrlardayoq nafaqat ilm ahli, shuninglek, ijodkorlar ham matnlar orasidagi adabiy-badiiy aloqa-bog'lanishlar borligini bilganlar.Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Nizomiy, Dehlaviy dostonlari orasidagi matniy bog'lanishlar, shuningdek, Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor asarlaridagi belgilarning matniy bog'lanishari yuzaga kelganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *matn, intermatn, semiotika, paradigmatika, sintagmatika, binary oppozitsiya, oraliq matn, matnlararo bog'lanish, madaniy kod, formula, ritmik struktura, tasvir, ifoda.*

Аннотация: движение текста не ограничивается его собственным уровнем. Его главная характеристика – движение, которое всегда стремится вперед. Разумеется, такое стремление не возникает спонтанно: оно возникает в результате различных отношений (парадигматики, синтагматики, бинарной оппозиции) знаков в поле художественного текста. Образы, выражения и коды (символы) в литературных произведениях, возникшие на протяжении всего художественного развития человечества, никогда не остаются прежними. В определенный момент он вновь появляется во вновь созданных текстах, претерпев некоторые изменения и адаптировавшись к современному мышлению и условиям.

Каждый текст – это интертекст. Еще до появления новых научных направлений, таких как семиотика и структурализм, не только ученые, но и творческие люди знали о существовании литературных и художественных связей между текстами. В статье раскрывается возникновение текстовых связей между эпосами Алишера Навои, Низами и Дехлеви, а также текстовые связи символов в произведениях Абдуллы Кадыри и Абдуллы Каххора.

Ключевые слова: *текст, интертекст, семиотика, парадигматика, синтагматика, бинарная оппозиция, промежуточный текст, интертекстуальная связь, культурный код, формула, ритмическая структура, образ, экспрессия.*

Annotation: text movement is not limited to the scope of its own level. Its main feature is movement, which always pushes forward. Of course, such a desire does not arise by itself: it arises as a result of various relationships of signs in the field of the artistic text (paradigmatics, syntagmatics, binary opposition). The image, expression, code (sign) in literary creations that have arisen throughout the entire artistic development of mankind never remain the same. At a certain time, they reappear in newly created texts, having changed to a certain extent, adapted to modern thinking and conditions.

Every text is an intertext. Even before the emergence of new scientific fields such as semiotics and structuralism, not only scientists, but also creative people were aware of the existence of literary and artistic connections between texts. This article reveals the textual connections between the epics of Alisher Navoi, Nizami, and Dehlavi, as well as the textual connections of symbols in the works of Abdulla Qodiriy and Abdulla Qahhor.

Key words: *text, intertext, semiotics, paradigmatics, syntagmatics, binary opposition, intermediate text, intertextual connection, cultural code, formula, rhythmic structure, image, expression.*

Matn harakati faqat o'z sathi doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Uning asosiy xususiyati bo'lgan harakat hamisha ilgariga undaydi. Albatta, bunday intilish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi: u badiiy matn hududidagi belgilarning turli munosabatlari (paradigmatika, sintagmatika, binar oppozitsiya) natijasida yuzaga keladi.

Matnlararo adabiy-poetik bog'lanishlar semiotikada intermatnlik deb ataladi. Bu nisbatan yangi atama bo'lib, 1967-yilda psixoanalitik va semiotik Yuliya Kristeva tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan.Garchi mazkur istiloh ushbu olima tomonidan birinchi bo'lib qo'llanilgan bo'lsa-da, adabiyotshunoslikda ushbu qarashning genezisini tadqiqotchilar, shu jumladan, L.V. Grishkova, M.M. Baxtinning dialogik badiiy tafakkur ta'limotiga bog'lab ko'rsatadilar. Bunday nuqtayi nazarning

haqqoniyligini allomaning quyidagi fikri asoslashga xizmat qiladi: “Dialogik kontekstda birinchi va so‘nggi so‘z yo‘q: unda hech qanday chek-chegara mavjud emas – u nihoyasiz o‘tmish va nihoyasiz kelajakka qarab keta oladi. Hatto qadimga oid, ya’ni o‘tgan asrlar dialogida yuzaga kelgan ma’nolarni hech qachon barqaror, uzil-kesil tugallangan deb hisoblab bo‘lmaydi. Ular dialogning navbatdagi bosqichlarida hamisha o‘zgarib, yangilanib boradi. Dialog taraqqiyotining istalgan holatida cheklanmagan miqdorda unutilgan ma’nolarning ulkan xirmoni mavjud bo‘ladi.Ammo dialogning keyingi rivojining muayyan paytlarida ular yana eslanadi hamda yangilangan holda tiriladi”. Keltirilgan iqtibosda atoqli olim dialog sifatida matnlar orasidagi aloqa-bog‘lanishlarni nazarda tutmoqda. Undan shu narsani tushunish mumkinki, bashariyatning butun badiiy taraqqiyotida yuzaga kelgan adabiy yaratmalardagi tasvir, ifoda, kod (belgi)lar hech qachon o‘z holicha qolib ketmaydi. Muayyan vaqtda yangidan yaratilgan matnlarda muayyan darajada o‘zgargan, zamonaviy tafakkur va shart-sharoitlarga moslashgan holda qaytadan yuzaga keladi. Bu o‘rinda qaysidir shakllar, masalan, janr haqida gap ketayotgani yo‘q. M.M. Baxtin asosiy e’tiborni ma’no (ma’ni, sema)ga qaratmoqda.

Matndagi semiotika muammosiga Rolan Bart ham alohida e’tibor qaratgan. U bu haqda shunday yozadi: “Har bir matn intermatn hisoblanadi, unda boshqa matnlar turlicha darajada, ozroq yoxud ko‘proq tanish ko‘rinishda – oldingi madaniyat matnlari va uni o‘rab turgan madaniyat matnlari tarzida namoyon bo‘ladi. Har bir matn eski iqtiboslardan to‘qilgan mato sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Madaniy kod, formula, ritmik strukturalar parchalari, ijtimoiy iboralar bo‘laklari va boshqalar – bularning barchasi matn tomonidan qabul qilinib, uning tarkibiga singdiriladi, chunki matngacha va uning atrofida til mavjuddir. Istalgan matniy qurilmadagi intermatnlikning dastlabki zaruriy sharti shundaki, uni manbalar va ta’sir muammosiga bog‘lab bo‘lmaydi: u kelib chiqishini kamdan kam holda aniqlash mumkin bo‘lgan qo‘shtirnoqlarsiz beriladigan anonim formula, g‘ayri shuuriy yoki mashinavori iqtiboslarning umumiy sathini ifodalaydi”.


Olim “Asardan matn sari” nomli maqolasida yana shunday qarashlarni bayon etadi: “Har bir matn boshqa bir matnga nisbatan “oraliq matn”dir, biroq ushbu intermatnlikni “matnda qandaydir bir kelib chiqish manbayi” bor deb tushunish kerak emas; “manba” va “ta’sir”larni izlash asar filiatsiyasi haqidagi mifga o‘xshaydi, matn esa – yashirin, sezilmas, ayni paytda o‘qilgan sitata (qo‘shtirnoqsiz sitata) lardan hosil bo‘ladi”. Rolan Bart intermatnlikka oid bunday qarashlari e’lon etgach, ba’zi bir tadqiqotchilar uning bunday qarashlarini rad etishga harakat qildilar. Jumladan, fransiyalik olima Natali Pyege-Gro: “agar bularning hammasini (R.Bart fikrlari nazarda tutilmoqda – R.S.) intermatn deb qaraydigan bo‘lsak, intermatnlikni har qanday o‘ziga xoslikdan, mazkur tushunchani esa samaradorlikdan mahrum etgan bo‘lamiz”, - deb yozadi”. Rossiyalik semiotik V.E. Chernyavskaya fikricha, Rolan Bartning bunday konsepsiyasi “radikal”, ya’ni o‘ta keskin mazmunga ega.

Aslida fransuz semiotigining mazkur qarashlaridagi qarashlarida radikallik ham, intermatndagi o‘ziga xosliklarni inkor etishga urinish ham yo‘q. Bu fikrni M.Baxtin va R.Bart mulohazalarini o‘zaro muqoyasa etganda, yaqqol ko‘rish mumkin. Rus allomasining “dialogik kontekstda birinchi va so‘nggi so‘z yo‘q” degan nuqtayi nazariga g‘arb olimining “har bir matn eski iqtiboslardan to‘qilgan mato sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi” tarzidagi mulohazasi o‘zaro yaqin hamda hamohang. Bu o‘rinda Rolan Bartning intermatn mohiyati va xususiyatlari haqida yuqorida keltirilgan iqtiboslardagi asosiy jihatlarga qisqacha bo‘lsa-da to‘xtalib o‘tamiz:

1) “har bir matn intermatn hisoblanadi”. Semiotika, strukturalizm singari yangi fan sohalari yuzaga kelmagan davrlardayoq nafaqat ilm ahli, shuninglek, ijodkorlar ham matnlar orasidagi adabiy-badiiy aloqa-bog‘lanishlar borligini bilganlar. Bu fikr isbotini hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi quyidagi misralari tasdiqlab turibdi:

Yozmoqda bu ishqi jovidona.
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun.
Afsona anga libosi mavzun.

Mashhur ishq dostoni – “Layli va Majnun”ning xotima vazifasidagi XXXVIII faslidan olingan misralar intermatnga xos eng muhim xususiyatlardan biri xususida fikr yuritilmoqda: mutafakkir shoir o‘z dostoni uchun xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan fasona (afsona) asos bo‘lganini aytadi. Ijodkorning e’tiroficha, uning bu qadim afsona voqeasini shunchaki bayon etib berish niyati bo‘lmagan. Asosiy maqsad mazmun, ya’ni qadimiy syujet vositasida yangicha mohiyatga ega ishq kontseptsiyasini yuzaga keltirish hisoblandi. Bu afsonadagi voqea tizimidan buyuk turk(iy) shoirigacha Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviylar ham o‘z “Xamsa”larida foydalanganlar. Har bir xamsanavis o‘z ijodiy-badiiy niyatiga ko‘ra Layli va Majnun muhabbati haqida novatorona mohiyat kasb etgan barkamol badiiyat namunalarini yaratganlar, chunki ularning har birining maqsudi boshqalarni takrorlash emas, adabiy-badiiy tafakkur tadriji taqozo etgan zamonaviy badiiy-estetik mazmun yaratish edi. Uchala xamsanavis ham davr o‘z oldilariga qo‘ygan mana shunday murakkab va dolzarb vazifasini to‘la-to‘kis bajarib, badiiylikning yuksak talablariga mos keladigan mukammal adabiy durdonalarni yarata oldilar. Layli va Majnun (Qays) haqidagi jahon so‘z san’atida yuzaga kelgan asarlardagi intermatnlik xususiyatini quyidagi chizmada ko‘rsatamiz:



Yuqoridagi chizma ushbu matnlararo bog‘lanishlar birmuncha murakkab va ko‘p tarmoqli ekanligidan dalolat beryapti:

1) A + B; 2) A+S; 3) F+G; 4) B+S; 5) S+G; 6)B + G.

Yuqorida ko‘rsatilgan matnlararo bog‘lanishlar Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi intermatnlikni yuzaga kelishida xalq og‘zaki ijodidagi mashhur rivoyatdan tashqari yana ikkita badiiy matn (Nizomiy va Dehlaviyning Layli va Majnuning fojiali taqdiri haqidagi dostonlari) muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

2) “har bir matn eski iqtiboslardan to‘qilgan mato sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi”, – Rolan Bartning bu fikrini maqolamizda Abdulla Qahhor ijodi asosida isbotlashga harakat qilamiz.

“Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqada qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to‘zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo‘l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog‘landi… Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo‘lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi”. Bu tasvir roviy (muallif obrazi) tomonidan dodxoning xotinbozligi (bitta emas, sakkizta xotini bor), shuningdek, zolimligi (bu kundoshlarning bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltaklanadi) ni ta’kidlash uchun kiritilgan. Biroq mazkur matniy parchaning badiiy-poetik vazifasi yuqorida qayd etilgan jihatlar bilangina intiho topmaydi. Mazkur segmentda ishratparastlik va qahri qattiqlikni aks ettirgan g‘ayriinsoniylikka ishora qilgan axloqiy kod (semiotikada belgi)dan tashqari Rolan Bartdan olingan iqtibosda aytilgan “madaniy kod” ham bor. Milliy-islomiy tarbiyada xotin-qizlarga nafaqat er, umuman olganda, erkak kishiga ehtirom ko‘rsatish go‘dakligidan boshlab o‘rgatilgan. Tabiiyki, bunday e’tibor erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan ham bo‘lgan. Masalan, uyida erkagi bo‘lmagan ayol suv kerak bo‘lganda, chelakni uyidan tashqariga chiqarib qo‘ygan. Yo‘ldan o‘tayotgan er kishi bo‘sh chelakka mahalla hovuzidan suv to‘ldirib kelib, idishni joyiga qo‘ygach, yo‘lida davom etgan. Demak, biz yuqorida keltirgan matniy bo‘lakda mazkur tarbiya natijasini ko‘ramiz. Dodxo xonadonidagi ayollar erning zulmidan bezgan bo‘lishlariga qaramay, milliy mentalitetdagi mavjud odatga rioya qilishda davom etadilar.

Mana shunday madaniy kod Abdulla Qodiriyning “O‘tkan” kunlar” romanida ham mavjud:

“Hoji o‘z qo‘li bilan sochlarni tuzatib, Kumushning ko‘kimtil tovlangan yuzini ko‘rdi va manglayini bosdi.

– Oyim…Oyim!.. – dedi hoji. Kumush ko‘zini ochib, besaranjom unga nazar tashladi va tanib… qo‘zgalmoqchi bo‘ldi”. Ushbu epizod bir qancha tadqiqotchilarning diqqat-e’tiborini tortgan. Ular roman qahramonining o‘lim oldidagi bunday harakatini mazkur obrazning favqulodda insoniylik va odobi ifodasi tarzida baholaydilar. Shunday qarashga qo‘shilgan holda yana shuni aytishimiz kerakki, bu tasvirda namoyon bo‘lgan madaniy kod tarixiy xronotop doirasidagi aksar xotin-qizlarga xos axloqiy xususiyat edi.

Binobarin, ikki badiiy yaratma (“O‘tkan kunlar” romani va “Dahshat” hikoyasi) matnidagi madaniy kod garchi bir-biridan jiddiy farqlanuvchi shart-sharoit, psixologik holat va xarakterlarni ifodalovchi badiiy lavhalarda ishtirok etgan bo‘lsa-da, matnlar orasidagi bog‘lanish, ya’ni intermatnlilikni yuzaga keltirgan.

3) “Har bir matn boshqa bir matnga nisbatan “oraliq matn”dir, biroq ushbu intermatnlikni “matnda qandaydir bir kelib chiqish manbai” bor deb tushunish kerak emas; “manba” va “ta’sir”larni izlash asar filiatsiyasi haqidagi mifga o‘xshaydi, matn esa – yashirin, sezilmas, ayni paytda o‘qilgan sitata (qo‘shtirnoqsiz sitata) lardan hosil bo‘ladi”.

Bu fikr isbotini yuqorida ko‘rib chiqilgan intermatnlik misolida ham aniq ko‘rsa bo‘ladi. “Dahshat” hikoyasi “O‘tkan kunlar”ga nisbatan “oraliq” matn hisoblanadi, chunki unda romanda namoyon bo‘lgan kod qo‘llanilgan, biroq bu o‘rinda adabiy ta’sir haqida gapira olmaymiz – madaniy kod ikkita mustaqil matnni tutashtirishiga qaramay, adabiy ta’sir natijasida yuzaga kelmagan. Bu qarashni ham Rolan Bartdan yuqorida keltirilgan iqtibosdagi quyidagi mulohaza dalillaydi: “madaniy kod, formula, ritmik strukturalar parchalari, ijtimoiy iboralar bo‘laklari va boshqalar – bularning barchasi matn tomonidan qabul qilinib, uning tarkibiga singdiriladi, chunki matngacha va uning atrofida til mavjuddir”. Bu mulohaza ikki matn orasida ta’sirdan xoli holda bitta kod qo‘llanishi sababini aniq ko‘rsatadi: chindan ham bu kod milliy til zahirasida, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, shu tilni o‘z hududiga olgan milliy tafakkur xazinasida saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.211-b.

2. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти,1967.41-б.

3. Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 2014.298-б.

4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества.– М.: Искусство, 1986.

5. Ролан Барт. Избранные работы.Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. С. 418.

6. Р.А. Саидова. Бадиий матнда белги муносабатлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси. –Бухоро, 2020.93-94-б.

7. Saidova, R. A. (2020). SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION. Theoretical & Applied Science, (2), 201-205.

Sanjar ANORQULOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
PhD, dotsent
s.anorqulov@gmail.com

ISMLAR VA JOY NOMLARINI O‘RGANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: ushbu maqola onomastika va toponimika sohalarida ismlar hamda joy nomlarini o‘rganishning bosqichlarini batafsil tahlil qiladi. Maqolada shaxs ismlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy, madaniy va lingvistik asoslari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, joy nomlarining shakllanishi, ularning semantik va etimologik jihatlari chuqur yoritib beriladi. Tadqiqot davomida ismlar va joy nomlarini o‘rganishning asosiy bosqichlari ko‘rib chiqiladi:

Tarixiy-etimologik tahlil – ismlarning va joy nomlarining paydo bo‘lish tarixi va ularning ildiz so‘zlari tahlili.

Lingvistik tadqiqot – fonetik, morfologik va semantik jihatdan nomlarning o‘zgarish jarayonlari.

Madaniy va ijtimoiy jihatlar – ismlar va joy nomlarining milliy o‘ziga xosligi va ijtimoiy omillar ta’siri.

Zamonaviy qo‘llanilishi – rasmiy hujjatlar, xaritalar va jamiyatdagi nomlash tendensiyalarining tahlili.

Maqolada turli tillardagi ismlar va joy nomlarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilib, ularning fonologik va semantik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi joy nomlarining qadimiy ildizlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati keng yoritilgan. Maqola tilshunoslar, tarixchilar, madaniyatshunoslar hamda ismlar va joy nomlarining kelib chiqishini o‘rganishga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *joy nomlari, onomastika, atoqli otlar, tilshunoslik, turdosh otlar, ismlar tarixi.*

Аннотация: в статье дается подробный анализ этапов изучения имен и топонимов в области ономастики и топонимики. В статье рассматривается происхождение личных имен, их исторические, культурные и языковые основы. Подробно рассматриваются вопросы образования топонимов, их семантические и этимологические аспекты. В исследовании будут рассмотрены основные этапы изучения имен и топонимов:

Историко-этимологический анализ – история возникновения имен и топонимов и анализ их корней.

Лингвистические исследования – процессы изменения названий с точки зрения фонетики, морфологии и семантики.

Культурные и социальные аспекты – национальная принадлежность имен и топонимов и влияние социальных факторов.

Современное использование – анализ тенденций наименования в официальных документах, картах и обществе.

В статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование имен и топонимов в разных языках, особое внимание уделяется их фонологическим и семантическим особенностям. В частности, широко освещаются древние корни топонимов в узбекском языке и их значение в настоящее время. Статья представляет собой важный источник информации для лингвистов, историков, культурологов и исследователей, интересующихся изучением происхождения имен и топонимов.

Ключевые слова: *топонимы, ономастика, имена собственные, лингвистика, нарицательные имена, история имен.*

Annotation: this article provides a detailed analysis of the stages of the study of names and place names in the fields of onomastics and toponymy. The article discusses the origin of personal names, their historical, cultural and linguistic foundations. It also covers the formation of place names, their semantic and etymological aspects. The main stages of the study of names and place names are considered in the course of the study:

Historical-etymological analysis – the history of the emergence of names and place names and the analysis of their root words.

Linguistic research – the processes of change of names in phonetic, morphological and semantic terms.

Cultural and social aspects – the national identity of names and place names and the influence of social factors.

Modern use – an analysis of official documents, maps and naming trends in society.

The article studies the factors influencing the formation of names and place names in different languages, paying special attention to their phonological and semantic features. In particular, the ancient roots of place names in the Uzbek language and their significance today are widely covered. The article serves as an important source for linguists, historians, cultural scholars, and researchers interested in studying the origin of names and place names.

Key words: *place names, onomastics, proper names, linguistics, common names, history of names.*

Kirish. Ismlar va joy nomlari har bir xalqning tarixi, madaniyati va tilining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi lingvistika va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Onomastika (ismshunoslik) va toponimika (joy nomlarini o‘rganish) fanlari shu jarayonlarni tadqiq qilish

bilan shug‘ullanadi. Ushbu maqolada ismlar va joy nomlarini o‘rganishning asosiy bosqichlari, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari hamda zamonaviy tadqiqotlardagi o‘rni tahlil qilinadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan olamda, bugungi kunga kelib bahsli munozaralarga ko‘proq duch kelmoqdamiz. Aynan atrof-muhitda, jamiyatimizda odamlarga turli nomlar bilan to‘ldirilgan bir makon namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Haqiqatdan ham, har bir mavjud obyekt o‘zining maxsus atalish nomiga ega. Mashhur rus onomastika olimi A.V. Superanskaya ta’kidlaganidek, “Har qanday tildagi nomlar bilan birga, o‘ziga xos ismlar ham mavjud bo‘lib, ular alohida bir yagona predmetni nomlash uchun xizmat qiladi va ularni shunga o‘xshash ko‘plab predmetlardan farqlaydi va ajratib turadi” [Superanskaya 2012:].

Onomastika – bu o‘ziga xos ismlarni keng qamrovda o‘rganadigan lingvistik bo‘lim bo‘lib, yunoncha onomastike – “nom qo‘yish san’ati” so‘zidan kelib chiqqan. “Onomastika” atamasining bir necha ta’rifi mavjud.

Taniqli olim E.Begmatov o‘zining “Onomastika” nomli qo‘llanmasida o‘zbek ismlari haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, onomastikaning bir qismi sifatida joy nomlari, ya’ni toponimlar haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. “Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko‘zga ko‘rinmas zarrachalarning ham o‘z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo‘lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir”. [Begmatov E. 2013.]. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog‘liq so‘zlar guruhi mavjud bo‘ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Toponim yunoncha so‘z bo‘lib, topos – joy, onoma – nom. Demak, toponim – joy nomi. Joy nomlari bilan ismlarning bir - biriga chambarchas bog‘liqligini ko‘pgina tadqiqotlarda isbotlab o‘tishgan. Ko‘pchilik joy nomlarining nomlanishida ismlarning ishtiroki alohida e’tirof etiladi.

O‘zbek tilshunoslari haqida fikr bildirilganda S.Qorayevning mehnatlarini ta’kidlab o‘tish joiz. Jumladan, S. Qorayev “Geografik nomlar, ya’ni toponimlar til lug‘at tarkibining bir qismi bo‘lib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, so‘zni albatta tilshunoslik – lingvistika fani o‘rganishi kerak” yoki “toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan onomastika fanining bir qismi bo‘lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi” degan fikrlarni bildirganlar [Qorayev, 2006, Nikonov, 1965, Hasanov, 1965].

Muhokama va natijalar. Mashhur rus tilshunosi N.V. Podolskaya ta’rifiga ko‘ra, onomastika “har qanday o‘ziga xos ismlarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limidir”. Olimning ta’kidlashicha: “O‘zgacha “onomastika” atamasi uzoq vaqt davomida quyidagi ma’nolarda tushunilgan edi: a) antroponimlarni o‘rganish, ya’ni antroponimiya; b) antroponimlarning jamlanmasi, ya’ni antroponimiya; v) barcha o‘ziga xos ismlarning jamlanmasi, ya’ni onimiya” [Podolskaya 1978: 97]. Shu kabi ta’rifni biz N. Yartsevning “Linguistik Ensiklopedik Lug‘at” ida ham topamiz [LES 1998: 347].

O.S. Axmanova bu atamaning uchta ma’nosini ta’kidlaydi: 1) tilshunoslik bo‘limi, shaxsiy ismlarni o‘rganadi (ism, sharif, familiya, odamlar va hayvonlarning laqablari); 2) shaxsiy ismlarning jamlanmasi (sistemi) tilshunoslikning o‘ziga xos obyekti sifatida ko‘riladi; 3) tilshunoslikning ma’lum bir bo‘limi, o‘ziga xos ismlarni o‘rganadi. [Axmanov 2004: 288].

Shu bilan birga, ushbu maqolada biz “Rus onomastikasi” asarining muallifi V.D. Bondaletov ta’rifini ham ko‘rib chiqdik, unda onomastika “lingvistik fan sifatida o‘ziga xos ismlarning mohiyati, ularning funksional xususiyatlari, paydo bo‘lishi, rivojlanishi, tilning barcha qatlamlari yoki qatlamlari bilan bog‘liqligi, onomastika fanining nazariy va amaliy bilimlari, shuningdek, uning boshqa fanlar bilan aloqalari bilan shug‘ullanadi” deb ta’kidlab o‘tgan. [Bondaletov 2012: 8]. O‘ziga xos ismlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda ham paydo bo‘lgan. Ba’zi nomshunoslar, xususan, Xrisipp, ularni alohida so‘zlar toifasiga ajratgan. Ammo keyingi davrlarda — Renessans davri, Yangi Uyg‘onish davrida va XIX asr davomida o‘ziga xos ismlar haqidagi munozaralar ancha vaqt davom etgan. Eng qiyin masala o‘ziga xos ismlarning ma’nosi va xususiyatlarini aniqlash bo‘lgan (izoh. [Superanskaya 2012: 45-48]).

Ushbu masala ko‘proq lingvistlar emas, balki faylasuflar va mantiqchilar tomonidan o‘rganilgan. Bunday olimlardan biri ingliz mantiqchisi D.S. Mill hisoblanadi, u o‘z asarlarini asosan, o‘ziga xos ismlarni o‘rganishga bag‘ishlagan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘ziga xos ismlar ma’noga ega emas, balki ular predmetlarni bir-biridan ajratishga yordam beruvchi xususiy belgilar, yorliqlar sifatida ishlatiladi. D.S. Mill o‘ziga xos ism nomlangan narsa tavsifi bilan bog‘lanishini inkor qiladi, ular uni “konnotatsiya” qilmaydi (yoki bildirishi), balki faqat “denotatsiya” qiladi, ya’ni uni ataydi. U shunday fikrni olg‘a suradi: “konnotatsiya qiluvchi ismlar o‘ziga xos ismlardan keyin paydo bo‘lgan ismlar deb hisoblayman” degan fikrda bo‘ladi. [Mill 2011: 62].

D.S. Millning fikriga qarshi ravishda boshqa ingliz mantiqchisi X. Jozef o‘ziga xos ismlarda ma’no mavjudligini tan olgan va ular mazmunsiz nomlardan ko‘ra ko‘proq ma’no tashiydi deb hisoblagan [Joseph 1946]. Ingliz faylasufi va mantiqchisi B. Rasselning fikricha, o‘ziga xos ismlarning tilda mavjudligi, ularning kundalik muloqotda qulayligini ta’minlash bilan oqlanadi. Uning fikriga ko‘ra, “barcha o‘ziga xos ismlar orqali ajratilgan narsalar, o‘sha narsalarni fazo-vaqt koordinatlari yordamida belgilashi mumkin va bu aniqroq, ilmiyroq bo‘lishi mumkin” [Russell 1967: 53], deb o‘z fikrini bildiradi.

Daniyalik lingvist P. Kristofersen o‘ziga xos ismlar va mazmunsiz ismlar o‘rtasidagi farqni shunday izohlagan: “Birinchisini u aniq, ikkinchisini esa abstrakt deb atagan”. Biroq, o‘ziga xos ismlarning aniqligi va predmetning yagona bo‘lishi o‘rtasidagi farqni chalkashtirmaslik kerak. Yagona bo‘lishi predmetga o‘z nomini olishga imkon beradi. Ammo bir xil nom bir nechta predmetni ham ifodalashi mumkin. Shu bilan birga, barcha predmetlar individual sifatida tasavvur qilinishi kerak [Christophersen 1938].

Ingliz tilshunosi A. Gardiner o‘z asarida D.S. Millning o‘ziga xos ismlar ma’no tashimaydi, degan ta’rifini davom ettirib, “o‘ziga xos ism bu so‘z yoki so‘zlar guruhidir, uning maqsadi faqat so‘zning ovoz shakli orqali aniqlanishi” deb ta’riflaydi. A. Gardiner o‘ziga xos ismlarni “jismoniy” (vujudga keltirilgan) va “jismonsiz” (vujudga keltirilmagan) deb ajratadi. “Jismoniy” (vujudga keltirilgan) ismlar ularni ma’lum bir shaxs, joy va hokazolar bilan bog‘langan bo‘lsa, “jismonsiz” (vujudga keltirilmagan) ismlar ayni shu so‘zlarni, ammo ularni ma’lum bir shaxs yoki joylar bilan bog‘lanmagan holda ko‘rib chiqadi [Gardiner 1964: 73].

V. Shmidt onomastikaga doir tadqiqotlarning asosiy obyektlari sifatida antroponimika va toponimikani ajratadi: “Antroponimlar sirasiga insonlarning ismlari (Rufnamyen) va ularning familiyalari (Familiennamyen) kiradi; toponimlar sifatida tor ma’noda aholi hududlari nomlari (Siedlungsnamyen), keng ma’noda esa mamlakat va qit’alar nomlari (Landernamyen), tog‘ nomlari (Bergnamen), daryo nomlari (Flussnamen), o‘rmon nomlari (Waldnamen), dala va adirlar (Flurnamen) nomlari mansubdir [Schmidt, 1960, b.318].

Yana bir nemis tilshunosi A. Baxning ta’kidlashicha, toponimlar bilan ishlash uzoq tarixga borib taqalishi, joylarga nom berish o‘z o‘zidan kelib qolmaganligi, nom berish uchun dastlabki strategiyalarni belgilab olish kerakligi ta’kidlab o‘tilgan. Masalan: Uzoq davrlarda urug‘ boshliqlari nomlaridan hududlar nomlana boshlangan. Keyinchalik esa, ya’ni X asrga kelib bunday kuzatishlar kamaya boshlab, nom berishning boshqa shakllari rivojlanish bosqichlariga chiqqan. [Bach, 1953, B.343].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. 4-е изд. – М.: Либроком, 2012. 370- с.
2. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т., Маънавият, 1998. 64 - б.
3. Бах А. История немецкого языка. – М.: Иностранная литература, 1967. 343-с.
4. Кораев С. Тошкент топонимлари. – Т., Фан, 1991. 62 - б.
5. Ахманов А.С. Логические формы и их выражение в языке.// Мышление и язык: сб.ст./ под ред. Д.П. Горского. – М.: Политиздат, 1957. 407 - с.
6. Бондалетов В. Д. Ономастика и социолингвистика // Антропонимика. – М.: Либроком, 2012. 312 - с.
7. Милль Д.С. Система логики силлогической и индуктивной: Изложение принципов доказательства в связи с методами научного исследования.
8. Christophersen P. The Articles. A study of their theory and use in English. – London: Humphrey Milford; Copenhagen: Munksgaard, 1938. - 206 p.
9. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. 324 - p.

Iroda SABITOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti
“Amaliy ingliz tili” kafedrasi v.b dotsenti

TILSHUNOSLIKDA NOVERBAL DIALOGIZM TUSHUNCHASI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR SHAKLLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada tilshunoslik nuqtayi nazaridan noverbal dialogizm tushunchasining mohiyati, uning ilmiy talqini hamda shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Noverbal dialogizmlar lingvistik kommunikatsiya jarayonida muhim omil bo‘lib, ularning semantik, pragmatik va sotsiokulturaviy xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu fenomenning ilmiy tadqiqotlar doirasida rivojlanishi, yetakchi xorijiy va mahalliy tilshunoslarning qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *noverbal dialogizm, kommunikativ lingvistika, noverbal muloqot, pragmatika, lingvistik tadqiqotlar, semiotika, sotsiopragmatika.*

Аннотация: в данной статье анализируется сущность понятия невербальный диалогизм, его научная интерпретация и этапы становления с точки зрения лингвистики. Невербальные диалогизмы являются важным фактором в процессе языкового общения, при этом особое значение имеют их семантические, прагматические и социокультурные особенности. В статье анализируется развитие данного явления в рамках научных исследований, научные взгляды ведущих зарубежных и отечественных лингвистов.

Ключевые слова: *невербальный диалогизм, коммуникативная лингвистика, невербальное общение, прагматика, лингвистические исследования, семиотика, социопрагматика.*

Annotation: this article analyzes the essence of the concept of nonverbal dialogism from the point of view of linguistics, its scientific interpretation and stages of formation. Nonverbal dialogisms are an important factor in the process of linguistic communication, and their semantic, pragmatic and sociocultural characteristics are of particular importance. The article analyzes the development of this phenomenon within the framework of scientific research, the scientific views of leading foreign and domestic linguists.

Key words: *nonverbal dialogism, communicative linguistics, nonverbal communication, pragmatics, linguistic research, semiotics, sociopragmatics.*

Kirish. Tilning nolisoniy sistemasi har xil terminologik birliklar bilan nomlanib kelinadi, bu haqida ilmiy adabiyotlarda tilning nolisoniy sistemasiga nisbatan: “...bu fan sohasi ekstralingvistika, paralingvistika, noverbal vosita kabi nomlar bilan atab kelindi. Biroq keyingi davrlarda ekstralingvistika va paralingvistika bir-biridan ajratilmoqda. Paralingvistika esa kommunikatsiya uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalarini o‘rganadi”[1].

Zamonaviy lingvistika fanida inson muloqotining verbal va noverbal omillar orqali shakllanishi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Xususan, noverbal dialogizmlar muloqot jarayonida bevosita ishtirok etib, kommunikativ aktning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Globalizatsiya sharoitida tillararo va madaniyatlararo aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda, noverbal kommunikatsiya vositalarining lingvistik tizim bilan aloqadorligi masalasi dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada noverbal dialogizm tushunchasi, uning ilmiy yondashuvlar shakllanishi hamda tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Nonverbal kommunikatsiya (so‘zlar orqali emas, balki jismoniy harakatlar, yuz ifodalari, qo‘l ishoralari, tovushlar va tana tili orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiya), insonlar o‘rtasida axborot almashishning muhim usullaridan biridir. Bu, asosan, til va so‘zlardan tashqari muloqot shakllarini o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda nonverbal dialogizm tushunchasi, til va noverbal elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘rganishga qaratilgan ilmiy yo‘nalishdir. Nonverbal kommunikatsiya odamlar o‘rtasidagi muloqotning samaradorligini oshiradi, chunki ba’zi holatlarda so‘zlar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, tilshunoslikda nonverbal dialogizmni o‘rganish nafaqat tilning, balki inson xulq-atvori va muloqot madaniyatining muhim jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Noverbal dialogizmlarning til tizimida o‘ziga xos yondashuvlarini aniqlash nafaqat lingvistika balki psixologiya, sotsiologiya va kommunikativ tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu maqolada noverbal dialogizmlarning turli tillarda namoyon bo‘lishi, ularning madaniy kontekst bilan bog‘liqligi va funksional ahamiyati bo‘yicha ilmiy-nazariy tahlil amalga oshiriladi. Mazkur izlanish natijalari noverbal vositalarning lingvistik tizimdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim metodikasi

[1] Ҳакимов ва бошқ. Тил назарияси ва амалиёти. - Фарғона, 2015. - Б. 41.

sotsiologik, mantiqiy-eksperimental, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik tahlil, pedagogik-psixologik ilmiy manbalar, o‘quv-metodik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov, tizimli funksional va adabiy tahlil usullari asosida bajarildi.

Natijalar va muhokamalar. Noverbal muloqot va dialogizmlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar lingvistika, psixologiya va sotsiologiya yo‘nalishlarida keng rivojlangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, noverbal vositalarning kommunikativ ahamiyati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganila boshlandi. Ushbu sohadagi ilmiy yondashuvlar turli maktablar va nazariy asoslar doirasida shakllangan.

Noverbal dialogizmlarning umumiy xususiyatlari va ularning kommunikativ jarayondagi o‘rni E.Hall[2], P.Ekman[3] va A.Mehrabian[4] tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xususan, E.Hall noverbal kommunikatsiyaning madaniy farqlar bilan bog‘liqligini ta’kidlagan bo‘lsa, P.Ekman odamlarning mimikalari universal bo‘lishi mumkinligi haqidagi gipotezani ilgari surgan. A.Mehrabian esa muloqotdagi axborotning katta qismi so‘zsiz vositalar orqali yetkazilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Xorijiy lingvistikasida noverbal muloqot pragmatika va semiotika nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. J.Austin[5] va J.Searle[6] nutq aktlari nazariyasi doirasida noverbal komponentlarning ham semantik va pragmatik ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, D.Crystal[7] noverbal vositalarning nutq jarayonidagi qo‘shimcha ma’no yuklovchi omil sifatida qaralishi zarurligini qayd etgan.

Nonverbal kommunikatsiya — bu, asosan, odamlar o‘rtasida tilga bog‘liq bo‘lmagan axborot almashish usulidir. Ushbu kommunikatsiya shakli, odamlarning ruhiy holati, his-tuyg‘ulari va niyatlari haqida muhim ma’lumotlarni yetkazish imkonini beradi. Nonverbal kommunikatsiya orqali beriladigan axborot aniq va to‘g‘ri talqin qilinishi mumkin, chunki bu axborotlarning ko‘pchiligi sezilarli va hamma uchun tushunarli bo‘ladi. Nonverbal kommunikatsiya bir nechta turlarga bo‘linadi:

Tana tili (gestikulyatsiya) – bu kommunikatsiyaning eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, u odamning jismoniy harakatlari, qo‘l ishoralari, yuz ifodalari va tana holatlari orqali amalga oshiriladi. Tana tili, ba’zan, so‘zlardan ko‘ra kuchliroq axborot beradi.

Paralingvistika – bu tovushning balandligi, ritmi, tonlamasi va boshqa tovushli elementlar orqali amalga oshirilgan kommunikatsiya shaklidir. Paralingvistik elementlar, xususan, shaxsning ruhiy holatini yoki his-tuyg‘ularini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Proxemika – odamlar orasidagi masofa, ya’ni fizik masofa yoki shaxslar orasidagi yaqinlik, muloqotning boshqa bir muhim aspektiridir. Har bir madaniyatda odamlar orasidagi masofa turlicha bo‘lishi mumkin.

Olfaktika – bu hidlarning muloqotdagi rolini o‘rganadi. Odatiy ravishda, biz hidlarni eshitish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot olishmaydi, ammo ayrim holatlarda hidlar axborotning ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Kinesika – tana holati, pozitsiyasi va harakatlar orqali axborot uzatish. Bu turdagi kommunikatsiya, odamning shaxsiy harakatlari, holati va ishlatiladigan pozitsiya orqali amalga oshiriladi. Odatda, bu ko‘proq ruhiy holatlarni yoki hissiyotlarni ifodalaydi, masalan, qo‘rquv yoki xursandchilik.

Nonverbal dialogizm tilshunoslikda muloqotning bir shakli sifatida qaraladi, bu yerda muloqot faqat so‘zlar bilan cheklanmaydi, balki noverbal elementlar ham katta ahamiyatga ega. Nonverbal kommunikatsiyaning tilshunoslikdagi tushunchasi, faqat so‘zlar orqali bo‘ladigan axborot almashinuvidan farqli o‘laroq, tilning boshqa aspektlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha, tilshunoslar tomonidan til va muloqotda yuzaga keladigan noverbal omillarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

Nonverbal dialogizmning lingvistik jihatlari, tilni aniq tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘plab noverbal elementlarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, biror kishining yuz ifodalarini yoki tana holatini o‘rganish, uning so‘zlarini to‘liq tushunishga yordam beradi. Nonverbal kommunikatsiya ko‘plab muloqot jarayonlarida tildan ajralmas bir qism sifatida qaraladi, chunki ko‘pincha so‘zlar yetarli bo‘lmagan holatlarda, nonverbal ishoralar, harakatlar yoki yuz ifodalari yordamida qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi.

Nonverbal dialogizm, shuningdek, muloqotdagi ikkinchi darajali ma’nolarni anglashda ham yordam beradi. Masalan, biror kishi biror narsani so‘zlab turib, lekin yuzining ifodasi yoki tana holati bilan muloqotni boshqacha talqin qilishi mumkin. Bu, tilshunoslikda, muloqotning ikki qirrali tabiati va odamlar o‘rtasidagi axborot almashishining turli yo‘llarini tushunishga yordam beradi.

Nonverbal kommunikatsiya va nonverbal dialogizm tilshunoslikda o‘zining ilmiy yondashuvlarini rivojlantirgan. Bu yondashuvlar turli ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni hisobga olgan holda shakllanadi. Ilmiy yondashuvlarning shakllanishi, birinchi navbatda, muloqotning ko‘proq qatlamli va ko‘proq tarmoqli xususiyatlarini anglashga qaratilgan. Tilshunoslikda nonverbal kommunikatsiyani o‘rganishda quyidagi yondashuvlar rivojlangan:

Kognitiv yondashuv – nonverbal kommunikatsiyaning kognitiv yondashuvi tilshunoslikda

[2] Hall, E. (1966). The Hidden Dimension. Doubleday. – 224 p.
[3] Ekman, P. (1999). Basic Emotions. In T. Dalgleish & M. J. Power (Eds.), Handbook of cognition and emotion (pp. 45-60). Wiley. – 600 p
[4] Mehrabian, A. (1972). Nonverbal Communication. Aldine-Atherton. – 336 p.
[5] Austin, J. (1962). How to do things with words. Oxford University Press. – 296 p.
[6] Searle, J. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press. – 275 p.
[7] Crystal, D. (1987). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press. – 716 p.

eng muhim va rivojlangan yondashuvlardan biridir. Bu yondashuv odamlarning noverbal belgilarni qanday qabul qilishlari, ularga qanday talqin berishlari va ularni anglashdagi ongli faoliyatni o‘rganishga qaratilgan. Kognitiv yondashuv, shuningdek, nonverbal belgilarni anglashda muloqotdagi ichki jarayonlarni o‘rganish bilan bog‘liq.

Madaniyatshunoslik yondashuvi – nonverbal kommunikatsiyaning madaniyatga ta’siri va uning turlicha talqinlari haqida gapirganda, tilshunoslikda madaniyatshunoslik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Nonverbal elementlar turli madaniyatlarda turlicha qabul qilinadi. Madaniyatshunoslik yondashuvi, tilshunoslarga, noverbal kommunikatsiyaning madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni va o‘xshashliklarni tushunishga yordam beradi. Masalan, biror madaniyatda yuz ifodasi yoki tana holati ijobiy, boshqa madaniyatda esa salbiy talqin qilinishi mumkin. Yaponiyada ko‘zga tik qarash odatdagi hurmat va ehtiyotkorlikni ifodalaydi, lekin ba’zi G‘arb madaniyatlarida bu qattiq va tajovuzkor deb qabul qilinishi mumkin.

Sotsiologik yondashuv – sotsiologik yondashuv, nonverbal kommunikatsiyaning ijtimoiy va jamoaviy kontekstda qanday rivojlanishini o‘rganadi. Odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va guruhlar orasidagi aloqalar muloqotning noverbal qirralarini qanday shakllantirishi mumkinligi haqidagi ilmiy yo‘nalishdir. Odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va guruhlar orasidagi o‘zaro aloqalar nonverbal aloqaning qanday ishlashini ham belgilaydi.

Psixologik yondashuv – psixologik yondashuv, nonverbal kommunikatsiyaning odamlarning ruhiy holatlari, his-tuyg‘ulari va kayfiyatlari bilan qanday bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. Nonverbal kommunikatsiya ko‘pincha odamlarning ichki holatlari va his-tuyg‘ularini tashqi dunyoga chiqarishda yordam beradi. Bunga, yuz ifodalari, tana holati, ovoz balandligi va nutqning ritmi kiradi. Misol uchun, biror kishi qayg‘u yoki stress holatida bo‘lsa, uning yuz ifodasi o‘zgaradi, tana holati qisqaradi, ovozi pastlashadi yoki titrashi mumkin. Bu holatlar, muloqotda qo‘shimcha ma’lumot beradi, bu esa noverbal kommunikatsiyaning psixologik aspektlaridan biridir.

Xulosalar va takliflar. Nonverbal dialogizm, so‘zlar va noverbal elementlarning o‘zaro aloqasini anglatadi. Tushuncha, tilshunoslikda kommunikatsiyaning ko‘p qatlamli tabiatini tushunishga yordam beradi. Nonverbal belgilar, muloqotning so‘zlar orqali ifodalanmaydigan, lekin muhim axborotni taqdim etuvchi qismlarini tashkil etadi. Odamlar o‘rtasidagi muloqotda, ba’zan so‘zlar yetarli bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun nonverbal elementlar, muloqotning to‘liq va aniq bo‘lishini ta’minlaydi.

Nonverbal kommunikatsiya tilshunoslikda nafaqat so‘zlardan tashqari axborot almashish usuli sifatida, balki muloqotni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradigan ko‘plab ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Kognitiv, madaniyatshunoslik, sotsiologik va psixologik yondashuvlar, nonverbal kommunikatsiyani o‘rganishdagi asosiy yo‘nalishlarni tashkil etadi. Ushbu tahlillar, muloqot jarayonidagi noverbal belgilarni to‘liq tushunishga va ularni samarali boshqarishga imkon beradi, bu esa tilshunoslarning muloqotni yanada to‘liq va aniq o‘rganishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Hall (1966). The Hidden Dimension. Doubleday. – 224 p.

2. P.Ekman (1999). Basic Emotions. In T. Dalgleish & M. J. Power (Eds.), Handbook of cognition and emotion (pp. 45-60). Wiley. – 600 p

3. A.Mehrabian (1972). Nonverbal Communication. Aldine-Atherton. – 336 p.

4. J.Austin (1962). How to do things with words. Oxford University Press. – 296 p.

5. J.Searle (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press. – 275 p.

6. D.Crystal (1987). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press. – 716 p.

7. В.Г.Гак (2000). Семиотика и лингвистика: Вопросй теории коммуникатсии. Наука. – 320 с.

8. Т.М.Николаева Прагматика и лингвокултурология: Новербалъне средства комуникатсии. Ин Наука и образование в России (с. 121-137). Россижскиж Государственнйж Гуманитарнйж Университет. – 220 с.

Zohida MUQIMOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
e-mail: zohidamuqimova69@gmail.com
ORSID: https://orsid.org/0009-0006-6429-5022

MAQOL-U TOPISHMOQLARDA MILLIY-MADANIY SO‘ZLAR XUSUSIYATI

Annotatsiya: o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlari tarkibida qatnashgan milliy-madaniy so‘zlarning madaniy xususiyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *milliy-madaniy so‘z, qadriyat, lingvomadaniyatshunoslik, paremiologiya, maqol, topishmoq, lingvomadaniy kod*.
Аннотация: выделены культурные особенности национально-культурных слов, входящих в узбекские народные пословицы и загадки.
Ключевые слова: национально-культурное слово, значение, лингвокультурология, паремиология, пословица, загадка, лингвокультурный код.
Annotation: the cultural characteristics of national-cultural words included in Uzbek folk proverbs and riddles are highlighted.
Key words: *national-cultural word, value, linguocultural studies, paremiology, proverb, riddle, linguocultural code*.

Kirish. O‘z madaniyatiga ega bo‘lmagan shaxs ham yo‘q, jamoa ham. Madaniyatni bir shaxs ham, bir millat ham shakllantiradi. Madaniyatning asosini esa qadriyatlar tashkil etadi. “Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyatni qadriyatlar tizimi aks etgan semiotik tizim sifatida tushunish ustuvorlik qiladi. Demak, madaniyat, birinchi navbatda, qadriyatlar tizimidir. Til esa, belgilar sistemasi hamda semantik axborot sistemasi sifatida qadriyatli uzvga, ya’ni madaniy uzvga ham ega, deyish mumkin” [1:18]. Til birliklarida u yoki bu shaklda madaniyat o‘z aksini namoyon qiladi. Ayniqsa, barqaror birliklarda qadriyatlar atroflicha o‘z aksini ko‘rsatadi. Ma’lumki, tilshunos olim Farhod Usmonov ta’kidlaganidek, “Madaniyat shu jamiyatda o‘rinlashgan har qanday me’yor – xatti-harakat, an’ana, muloqot xulqi va hatto, qadam tashlash tarzigacha o‘z ichiga oladi” [1:19]. Aytmoqchimizki, “Inson – muqarrar ravishda qaysidir madaniyat vakili. Uning ongida yaxshi - yomon, to‘g‘ri - noto‘g‘ri, ma’qul - noma’qul, chiroyli - xunuk to‘g‘risidagi stereotiplashgan tasavvurlar mavjud va inson o‘zga madaniyat realiyalarini o‘zida mavjud stereotiplar bilan qiyoslashi muqarrar. Ushbu qiyosning natijasida aniqlangan “begona” xususiyatlar ko‘proq salbiy, ba’zan ijobiy bahoga sabab bo‘lishi mumkin” [1:20].

Asosiy qism. Aksiologiya ham, lingvomadaniyatshunoslik ham antropotsentrik tilshunoslikning yo‘nalishlaridir. Har ikkalasi tilni uning egasi bilan bog‘liqlikda o‘rganadi. “Lingvomadaniyatshunoslik filologik fan sifatida oldindan tanlangan ma’naviy qadriyatlar to‘plamini va ma’lum bir milliy-madaniy jamoaning tilshunoslik tajribasini o‘rganadi, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqlik belgilariga bevosita e’tibor qaratadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat muammolari lingvomadaniyatshunoslik doirasida ustunlik qiladi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning ifodachisi sifatida o‘rganadi” [2:31].

“Keyingi o‘n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlarda universal hamda milliy-madaniy lingvokulturemalarning milliy-madaniy tarjimaviy xususiyatlari, leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememalarining lingvomadaniy xususiyatlari, ayrim fe’llarning milliy-madaniy xoslangan ma’noviy xususiyatlari, xalq maqollari, turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari, antropotsentrik metaforalarning lingvomadaniy, kommunikativ, pragmatik jihatlariga e’tibor qaratildi. Mazkur ishlarda o‘zbek tili birliklari xalq mentaliteti, tafakkur tarzi, olamni idrok etishidagi o‘ziga xosliklari, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, yashash tarzi bilan uzviylikda tadqiq qilindi. Natijada fanda lingvomadaniy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi, tilshunosligimiz lingvomadaniyatshunoslikka oid bo‘lgan yangi nazariy qarashlar bilan boyidi” [2:34].

Bugungi kunda faqat lingvomadaniyatshunoslik borasidagi ishlarda emas, aksiologik jihatdan yondashilayotgan tadqiqotlarda ham xalq milliy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror birliklarga, jumladan, maqollarga, topishmoqlarga ham e’tibor qaratilmoqda. Bunday tadqiqotlarning aksariyatida

maqollar va topishmoqlar tadqiqot obyekti sifatida tanlanganini kuzatish mumkin.

Tilshunosligimizda milliy-madaniy so‘zlar tadqiqqa tortilgan ishlar ko‘p emas. O‘zbek tilshunosligida milliy-madaniy so‘z sanaluvchi turg‘un o‘xshatishlargina lingvomadaniy jihatdan ko‘p o‘rganilgan. Tilshunos olim D.Rustamovning “Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti” nomli tadqiqotida ayrim til birliklarining milliy va madaniy komponentlari tahlilga tortilgan [3:129]. “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)” o‘zbek tilidagi milliy-madaniy birliklar bilan assotsiativ munosabatga kirishuvchi til birliklari haqida ma’lumot beruvchi ilk lug‘atdir. Mazkur lug‘atda milliy-madaniy birliklar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan, o‘zbek milliy-madaniy birliklariga namunalar keltirilgan. Lug‘at o‘zbek milliy-madaniy birliklar haqidagi tasavvurimizni boyitishi bilan ahamiyatlidir. “Ma’lumki, muayyan xalqqa xos milliy madaniyat elementlarini aks ettiruvchi birliklar milliy-madaniy birliklar sanaladi. Bunday birliklar muayyan xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, milliy an’analar, udumlar, odob-axloq, muloqot me’yorlari kabilarni anglatadi. Bu kabi ekstralingvistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan leksik birliklarni milliy-madaniy leksika yoki milliy-madaniy birliklar deyish mumkin” [4:16]. Lug‘atda berilgan javob reaksiyalarida til egalarining, ya’ni xalqimizning tashqi olam haqidagi tasavvurlari, bilimi, dunyoqarashi, ruhiyati, voqelikka munosabati, hayotiy tajribalari, o‘y-xayollari, tashvish-muammolari ham aks etgan” [2:132].

Xalqning qadriyatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Xalqning dunyoni idrok etishi o‘z maqollarida ham o‘z tajassumini topadi. Ayonki, semantikasida madaniy axborot aks etuvchi birliklar qatoriga maqollar ham kiradi. Maqollar tarkibidagi milliy-madaniy so‘zlarni tadqiq etish ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Har bir millat o‘ziga xos *idrok intizomi* [5:6]ga ega ekan, bu ularning maqol-u topishmoqlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Quyidagi topishmoqlarda buning isbotini ko‘rishimiz mumkin. *Ko‘k beqasam* ***to‘n****im bor*, *Ichim baxmal lolazor Mazam shirin*, *go‘yo qand, Meni yegan tortmas dard* (*Tarvuz*); *Pak-pakana bo‘yi bor*, *Yetti qavat* ***to‘ni*** *bor* (*Karam*); *Yer tagida yo‘li bor*, *Ustida po‘lat* ***to‘ni*** *bor*. *Shamoldan tez yeladi*, *Buxorodan keladi* (*Gaz*); *Yo‘l-yo‘l* ***to‘ni*** *bor*, *Odam qo‘rqar turqi bor* (*Yo‘lbars*); *Makonidir dalalar*, *Pushtalarda bolalar*. ***To‘ni*** *yo‘l-yo‘l beqasam*, *Go‘shti suvli va asal* (*Tarvuz*); *Bir barmoqcha bo‘yi bor*, ***Qizil baxmal to‘ni*** *bor* (*Garmdori*); *Osmondan tushdi bir* ***tugun***, *Usti baxmal, ichi un* (*Jiyda*); *Eshik orqasida chiroyli* ***kelin*** *(****Supurgi****);* *Suv tagida* ***oltin baldoq*** (*Baliq*); *Yer tagida qator* ***qoziq*** (*Sabzi*). Mazkur topishmoqlar tarkibidagi *to‘n, tugun, baldoq, kelin, qoziq* kabi lingvomadaniy kodlar o‘zbekona tafakkur hosilasidir.

Yotar yumshoq ***ko‘rpa****da*, *Qator o‘sar har safda*. *Barglari ham yam-yashil*, *Tusi tilladan asil* (*Sabzi*). Ushbu topishmoqda *ko‘rpa* narsa-buyum lingvomadaniy kodi orqali ko‘rpacha shaklidagi yer emas, ko‘rpa shaklidagi kengroq yer nazarda tutilmoqda hamda sabzining tuproq ostida bo‘lishiga ishora qilingan.

O‘zbek tili paremiologiya fondida lingvomadaniy belgilarni o‘zida yaqqol ifodalagan milliy-madaniy so‘zlar qatnashgan maqollar talaygina. Masalan, *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* maqolida *do‘ppi*, *Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga* maqolida *g‘alvir*, *Chiqqan qiz chiyiriqdan tashqari* maqolida *chiyiriq*, *Insof sari – baraka* maqolida *insof*, *Tappi tappidan uzoqqa tushmaydi* maqolida *tappi*, *Amal tegdi hinduga, boshini suqdi yundiga* maqolida *yundi* (yuvundi) leksemalari lingvomadaniy qimmatga ega.

Agar bo‘lsa oqliging, bilinmaydi yo‘qliging maqolida *oqlik*, *Sallaga ishonma, kallaga ishon* maqolida *salla* milliy-madaniy so‘zdir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqliq so‘zining dastlabki ma’nosi sifatida “1. Sut va sutdan tayyorlanadigan mahsulotlar (qatiq, qaymoq va sh.k.)” [6:107] berilgan. *Agar bo‘lsa oqlig‘ing, bilinmaydi yo‘qlig‘ing* maqolidan ayonki, o‘zbek xonadonida sut mahsulotlari xonadon xazinasi deb qadrlangan; sut va undan tayyorlangan mahsulotlar bor xonadon boy hisoblangan; oyoqostiga, ya’ni odam yuradigan joy-yo‘laklarga sut to‘kish gunoh sanalgan. Yozuvchi S.Ahmadning “Hukm” asaridan olingan ushbu *Echki bo‘lsa hamki, bola-chaqaga* ***oqliq*** *o‘zimizdan chiqib turgan edi, go‘sht-po‘shtini olib, bitta sog‘in echki bersanglar*, gapidan ham sut qanchalik ro‘zg‘orga kerakli mahsulot ekanligini, qanchalik kerakliligini bilsak bo‘ladi.

Sallaga ishonma, kallaga ishon maqolida *salla* milliy-madaniy so‘zdir. Bunda bu so‘z narsa-buyum lingvomadaniy kodi (kiyim-kechak lingvomadaniy kodi) bo‘lib, maqolda umuman kiyim, boylik ma’nosida, *kalla* somatik lingvomadaniy kodi esa aql, tafakkur ma’nosida qo‘llangan. Ya’ni boshingda sallang bo‘lsa-da, u zardan bo‘lsa-da, unga emas, aqlga ishonish lozimligi uqtirilgan. Demak, *kalla* somatik lingvomadaniy kodi vositasida ilm olish, ilmni o‘rganishga chaqiriq oliy qadriyatlardan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, *kepak* so‘zi ham milliy-madaniy so‘zdir. Bilamizki, kepak “Bug‘doy, jo‘xori kabi donlar tortilganda

(un qilinganda), ulardan chiqadigan po‘sti va un bo‘lmagan don chiqitlari” [7:811]. Bu so‘z o‘zbek xalq maqollarida ko‘p qo‘llangan. Masalan, *Ba’zi xurmada qatiq bo‘ladi, ba’zi xurmada – kepak* yoki *Kepak yegan ot yugurik bo‘lmas. Kepak yegan ot yugurik bo‘lmas* maqolida *kepak* lingvomadaniy kodi to‘yimli bo‘lmagan taomning badiiy obrazidir.

Bir odam omoch bilan, yettovlon cho‘mich bilan maqolini yodga olishimiz bilan *O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir* (Ma’lumki, “Mashoq – bug‘doy o‘rib yig‘ib olingandan keyin yerga to‘kilib qolgan boshoqlarni terib olish” [8:36]); *Ot topadi, eshak yeydi*; *Ariqni kimlar qaziydi, Suvni kimlar ichadi*; *Chigirtkalar ekin yer, Ekmay-tikmay tekin yer*; *Dehqon ishi bilan ovora, Sichqon teshigi bilan ovora*; *Tayyor oshga – bakovul*, *Sho‘rlik oshga – yasovul* maqollari esga tushadi. Berilgan maqollardagi *omoch*, *cho‘mich*, *o‘roq*, *mashoq* milliy-madaniy so‘zlari mehnat tushunchasini esga soladi. Mazkur maqollarda qo‘llangan *omoch*, *cho‘mich*, *mashoq*, *o‘roq*, *bakovul*, *yasovul* kabi milliy-madaniy so‘zlar ma’lum ma’noda o‘zbek xalqining tarixini, turmush tarzini aks ettiradi.

Xulosa. Aytish o‘rinliki, yuqoridagi maqollar-u topishmoqlar tarkibidagi lingvomadaniy kodlar o‘zi ifodalovchi madaniyat haqida tasavvur uyg‘ota oladi. Ularda milliy-madaniy mazmun muhrlangan bo‘ladi.

Maqollar va topishmoqlarda mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ular tarkibidagi obrazlar betakrorligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvir bu birliklardagi milliy-madaniy bo‘yoqni ta’minlaydi.

Xalqning madaniyatini, o‘tmishi va qadriyatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi bunday barqaror birliklar xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Maqollar-u topishmoqlardagi milliy-madaniy so‘zlarning tadqiqi ular tili, qolaversa, ularning milliy-madaniy xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. doktori …diss. – Toshkent, 2024.18-19-20-betlar.

2. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. 31-34-132- б.

3. Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2018. 129 б.

4. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. “Ўзбек тили ассоциатив луғати” ҳақида / Ўзбек тили ассоциатив луғати (миллий-маданий бирликлар). /луғат. –Тошкент: “Навоий университети”, НМУ, 2019.16- б.

5. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. №3. 6- б.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 107-b.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.811-b.

8. Маънолар махзани. Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. 36- б.



Dilfuzaxon SAIDQODIROVA,
O‘zDJTU, dotsent.

TERMINLARDA FUNKSIYA MASALALARI

(INTERNET TERMINLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada internet va kompyuter texnologiyalari sohasiga oid terminlarning lingvistik va funksional xususiyatlari yoritilgan. Internet terminlari tizimi va ularning shakllanish jarayonlari, tilshunoslikdagi o‘rni, semantik va nominativ xususiyatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, termin va umumxalq leksikasi o‘rtasidagi farqlar, terminlarning normativ qo‘llanishi va zamonaviy til tizimidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Terminlarning hosil qilinishi, tarjima muammolari va terminologik tizimlarning taraqqiyoti tilshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *internet terminologiyasi, kompyuter leksikasi, termin tizimi, lingvistik tahlil, semantik xususiyatlar, termin hosilasi, nominativ funksiyalar.*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические и функциональные особенности терминов, относящихся к сфере интернета и компьютерных технологий. Анализируются терминологические системы интернет терминологии, процессы формирования терминов, их роль в лингвистике, семантические и номинативные характеристики. Также обсуждаются различия между терминами и общеупотребительной лексикой, нормы употребления терминов и их роль в современной языковой системе. Освещаются вопросы образования терминов, их перевод и развитие терминологических систем с точки зрения лингвистики.

Ключевые слова: *интернет-терминология, компьютерная лексика, терминологическая система, лингвистический анализ, семантические особенности, словообразование терминов, номинативные функции.*

Annotation: this article explores the linguistic and functional features of terms related to the field of internet and computer technologies. The study analyzes the system of internet terminology, the formation processes of terms, their role in linguistics, their semantic and nominative characteristics. It also discusses the distinctions between terms and general vocabulary, the normative usage of terms, their significance within the modern language system. Issues such as term formation, translation challenges, and the development of terminological systems are examined from a linguistic perspective.

Key words: *internet terminology, computer vocabulary, term system, linguistic analysis, semantic features, term formation, nominative functions.*

Kirish. Terminologiya soha tilining muhim tizimi sifatida tavsiflanadi. Terminni mantiqiy jihatdan ta’riflashda terminologik tizim asosiy tushuncha hisoblanadi. Kompyuter va internet terminlarining tadqiqi tilshunoslikning leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, semasiologiya, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis kabi bir qator bo‘limlariga xos nazariy fikrlarni to‘ldirish, ularga aniqliklar kiritish nuqtayi nazaridan ham foydalidir.

“Internetning kommunikativ sohasi tadqiqotchilarning asosiy vazifasi kompyuter orqali muloqotning mohiyatini aniqlash edi: bu haqida professional til sifatida gapirish mumkin, lekin uni professional jargon, “kodlangan nutq” sifatida ham ta’riflash mumkin”[1].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Kompyuter va internet sohasiga tegishli bo‘lgan terminlar lingvistik nuqtayi nazardan olib qaralsa, har bir tilning texnika sohasidagi mavjud terminlari ushbu tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil etadi. Jumladan, kompyuter va internet terminlari ham har bir tildagi ilmiy-texnikaviy terminologik tizimi tarkibiga kiradi amda yangi rivojlanib kelayotgan soha terminlari sifatida ko‘riladi. Zero, texnika sohasining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi va uni inson faoliyatiga har tomonlama chuqur kirib borishi tilda ham katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, hozirgi kunda til tizimida tez o‘zgaruvchan hamda faol qatlamini kompyuter va internet terminologiyasi sohasiga doir leksik birliklar tashkil etadi. Shu bois, ushbu soha terminologiyasining lingvistik xususiyatlari muammolarini ilmiy jihatdan o‘rganish tilshunoslarimiz oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, kompyuter va internet terminologiyasini tillarda ifodaviy imkoniyatlarni o‘rganish va ularni me’yorga solish masalalarini tadqiq etish ham ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, hozirgi paytda terminshunoslikda bir qator mustaqil tadqiqot yo‘nalishlari ajratib ko‘rsatilmoqda. Birinchi navbatda terminologiya, termin, termin tizimiga yuqorida berilgan ta’riflar hamda sanab o‘tilgan vazifalarni hisobga olgan holda maxsus

[1] Пичкур А. И. Компьютерный жаргон «Usertalk» как лингвистическое явление // Язык и культура (исследования по германской филологии): Сб. науч. ст. – Самара: Изд-во Самарского ун-та, 1999, С.45. 69.

leksikani rivojlantirish va qo‘llashning qonuniyatlarini tadqiq etuvchi nazariy terminshunoslik hamda unga asoslangan amaliy terminshunoslik yo‘nalishlarini aytib o‘tish kerakki, ular termin va terminologiyaning kamchiliklarini bartaraf etish, ularni tasvirlash, baholash, tahrir qilish, tartibga solish, shakllantirish, tarjima qilish va qo‘llash bo‘yicha amaliy tamoyil va tavsiyalarni ishlab chiqadi va ular quyidagilar:

terminlarga leksikografik ishlov berish (ularni yagona ko‘rinishdagi grammatik shaklga keltirish, omonimik va polisemik (ko‘p ma’noli) terminlarni belgilar bilan ta’minlash, zarur bo‘lganda terminlarning mazmuni va shaklini aniqlashtirish);

terminlarni ta’riflash – terminlar haqidagi mavjud barcha axborotlarni yozib borish: ularning kelib chiqishi, ishlatishning o‘ziga xosligi, mazmuni, variantlari va h.k.

mumkin bo‘lgan holatlarda terminlarning mualliflari va ularning aniq ilmiy maktablarga mansubligini aniqlash va h.k.

Terminlarni yaratish jarayoni shuningdek, ehtimollik va chegara degan belgilardan iborat bo‘lishi zarur va kerakli xususiyat hisoblanadi. Termin yasalish jarayonining xossasi sifatida mahsuldorlik so‘z yasalishi bilan bog‘liq holda va oldingi matnga nisbatan ko‘rib chiqiladi. “Mahsuldorligi termin shakllanishi jarayonining o‘ziga xos xususiyati bilan belgilanadi”[2].

Yana bir terminologik tadqiq xususiyatlariga derivatsion tadqiqotni keltirish mumkin. Ma’lumki, “derivatsiya” so‘zi tarmoqlanish, shakllanish ma’nolarini anglatadi va bu orqali tilshunoslikda muayyan til birligining boshqa bir birlik asosida shakllanishi tushuniladi [3].

Natijalar. Termin so‘zining mazmuni muayyan professional faoliyat bilan bog‘liq va shu boisdan bu kasbning sohasida o‘zlashtirilishini talab qiladi; notermin so‘zning mazmuni insoniy muloqotning noprofessional ehtiyojlari bilan bog‘langan, shu boisdan professional munosabat doiralaridan tashqarida o‘zlashtiriladi.

Shunday qilib, umumiy foydalanishdagi leksika so‘zlari va terminlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat shundaki, ular tabiiy til asosida tug‘iladi. Bu, bizningcha, leksikaning ushbu ikki sinfini birlashtiruvchi belgisidir. Bosh farqlovchi belgi esa, terminlarda maxsus tushunchani ta’riflovchi definitsiyaning borligidir. Ushbu definitsiya umumiy foydalanishdagi leksika so‘zlarida bo‘lmasligi mumkin, definitsiya uchun maxsus tushunchani ta’riflash majburiy emas.

Xulosa va munozara. Internet sohasining rivoji uning terminologiyasi shakllanishining turli davrlarida tabiiy jarayonlar va ongli ravishda boshqariladigan jarayonlarning nisbati turlicha bo‘lganligidan dalolat beradi. Internetning asosiy tushunchalari va terminlari paydo bo‘lish davrlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, termin tizimi shakllanishining sharoitlarini tadqiq qilish, Internet terminologiyasi shakllanayotgan termin tizimi ekanligi, uning yadrosi ancha tez shakllangan, biroq tizimning o‘zi shu paytgacha rivojlanmoqda, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

[2] Алексеева Л.М. Проблемы термина и терминообразования: Учеб. пособие по спецкурсу. – Пермь: Пермский ун-т, 1998. С.55.
[3] Лингвистический аспект стандартизации терминологии // Сборник научных трудов. – М.: Наука, 1993. С.129.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пичкур А. И. Компьютерный жаргон «Usertalk» как лингвистическое явление // Язык и культура (исследования по германской филологии): Сб. науч. ст. – Самара: Изд-во Самарского ун-та, 1999, С.45. 69.

2. Алексеева Л.М. Проблемы термина и терминообразования: Учеб. пособие по спецкурсу. – Пермь: Пермский ун-т, 1998. С.55.

3. Лингвистический аспект стандартизatsii терминологии // Сборник научных трудов. – М.: Наука, 1993. С.129.

4. Хаютин А. Д. Термин, терминология, номенклатура. – Самарканд, 1972. С.39.

Maxmud BABAYAROV,
SamDU f.f.n., dotsent

DOSTON JANRIDA SPORT TERMINLARINING AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik janrlaridan biri bo‘lgan dostonlarda qo‘llanilgan sportga oid leksemalar tahlil qilinadi. Unda “Alpomish” dostoni hamda “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Go‘ro‘g‘lining bolaligi”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” va “Zulfizar” kabi dostonlardan olingan parchalar asosida sportga oid leksik birliklar tahlil qilinadi. Ushbu dostonlarda uchraydigan “kurashmoq”, “ot choptirmoq”, “nayza otmoq”, “kamon tortmoq”, “qurol ishlatmoq” kabi sport faoliyatiga aloqador so‘zlar nafaqat harakatni ifodalash, balki qahramon obrazini ochish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Natijada, xalq dostonlarida sportga oid leksik birliklar milliy o‘zlik, epik qahramonlarning jismoniy va ruhiy kuch-qudratini ifodalovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lishi isbotlab beriladi.

Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, sport leksemalari, sport turlari, lug‘aviy ma’no, badiiy adabiyot, epik obraz, xalq og‘zaki ijodi, jangovar harakatlar, semantik tahlil, leksik guruhlar.*

Annotation: this article analyzes sport-related lexemes used in Uzbek folk epics, one of the major genres of oral literature. The study is based on examples from the epic *Alpomish* and works from the *Gorogly* cycle, including *The Birth of Gorogly*, *The Childhood of Gorogly*, *The Death of Gorogly*, and *Zulfizar*. Words related to sports activities such as “to wrestle,” “to race a horse,” “to throw a spear,” “to shoot a bow,” and “to use a weapon” serve not only to describe action but also as means of revealing heroic character traits. As a result, sport-related lexemes in folk epics emerge as important tools in expressing national identity and the physical and spiritual strength of epic heroes.

Key words: *folk epics, sport lexemes, types of sports, lexical meaning, fiction, epic character, oral folk literature, combat actions, semantic analysis, lexical groups.*

Аннотация: в данной статье анализируются лексемы, относящиеся к спорту, используемые в узбекских народных дастанах – одном из крупнейших жанров устного народного творчества. Исследование основано на примерах из дастана «Алпомиш», а также из цикла «Гуроглы», включая такие части, как «Рождение Гуроглы», «Детство Гуроглы», «Смерть Гуроглы» и «Зулфизар». Лексемы, связанные со спортивной активностью, такие как «бороться», «скакать на лошади», «метать копьё», «натягивать лук», «использовать оружие», служат не только для описания действий, но и как средство раскрытия образа героя. В итоге, спортивные лексемы в народных дастанах выступают важным инструментом выражения национальной самобытности, а также физической и духовной мощи эпических героев.

Ключевые слова: *народные дастаны, спортивные лексемы, виды спорта, лексическое значение, художественная литература, эпический образ, устное народное творчество, боевые действия, семантический анализ, лексические группы.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida epik janrlar, xususan, dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Dostonlar nafaqat badiiy mahorat mahsuli, balki xalqning hayot tarzi, urf-odatlari, ijtimoiy va jismoniy faoliyatlarini o‘zida aks ettirgan ko‘p qirrali adabiy matnlardir. Ular orqali o‘tmishdagi ijtimoiy munosabatlar, harbiy san’at, kurash va boshqa sport faoliyatlarining badiiy tasviri bilan tanishish mumkin[1]. Bugungi kunda tilshunoslik va madaniyatshunoslik doirasida milliy o‘zlik, madaniy meros va xalq dunyoqarashini tahlil etishda xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi leksik qatlamlarni chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sportga oid leksik birliklarning xalq dostonlarida qanday aks etgani, ularning funksional-stilistik va semantik xususiyatlari hamda epik obraz yaratishdagi roli bugungi zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari uchun qiziqarli va zarur yo‘nalishdir.

Dunyoning ayrim xalqlarida o‘zining tarixiga doir katta hajmdagi muhim voqealar bayon qilinadigan janrlar mavjud. Bizda bunday janr “doston” deb yuritiladi. U “maqtash, qiziq voqealarni hikoya qilish” degan ma’nolarni ifodalaydi. Badiiy adabiyotda baxshilar tomonidan kuylab kelingan va yozma shaklda shoirlar

tomonidan ijod qilingan dostonlarni uchratishimiz mumkin.

“**Alpomish**” dostonida qo‘llangan[2] sportga oid so‘zlar va ularning lug‘aviy ma’nosi quyidagicha:

Maydon – (forscha) ochiq, me’moriy jihatdan tartibga keltirilgan, atrofi bino, inshootlar yoki daraxtlar bilan to‘silgan keng sath.

Mergan – (mo‘g‘ulcha) o‘q otish bo‘yicha g‘olib, o‘qni aniq otuvchi.

Kurash – yiqitish, g‘olib chiqish uchun ikki kishi o‘rtasidagi, ma’lum qoidaga asoslangab olishuv, o‘zaro bellashuv.

Poyga – kim o‘zdi musobaqasi.

Ot – yakka tuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sutemizuvchi jonzot.

Polvon – (forscha) jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishi, bahodir, pahlavon.

Ushbu so‘zlarning turlari quyidagicha:

Kurash: polvon, maydon, kurash.

Ot sporti: poyga, ot, ko‘pkari.

Kamondan otish: mergan.

Xalq dostonlari, jumladan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni [3]o‘zbek xalqining urf-odatlari, ijtimoiy hayoti va qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu doston matnida uchraydigan sportga oid leksik birliklar xalq og‘zaki ijodida sport faoliyatining naqadar qadimiy va boy tarixga ega ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, harbiy san’at, jismoniy kuch va epik qahramon obrazini yaratishda sportga oid so‘zlar alohida semantik yuklamaga ega.

Masalan, doston matnida ishlatilgan **“qilich”** va **“nayza”** so‘zlari bevosita **qurol-yarog‘ sporti** yoki **jangovar san’at** bilan bog‘liq bo‘lib, ular qilichbozlik va nayzabozlik faoliyatlarini ifodalaydi. Bu leksik birliklar epik voqealarda jang, kurash, jasorat va shijoatni tasvirlashda qo‘llanilib, qahramonning botirligini ko‘rsatadi. Qilich – “bir tig‘li, g‘ilof bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish orqali yovga zarba yetkazadigan qurol” sifatida tasvirlanadi. Nayza esa “qo‘l bilan otib yoki sanchish uchun mo‘ljallangan, uchi o‘tkir qurol” bo‘lib, o‘zbek xalqining harbiy san’ati va jangovar mahoratini anglatadi.

Shuningdek, **ot sportiga** doir “**tulpor**” va “**ot**” so‘zlari xalq e’tiqodidagi arg‘umoq tasvirini, epik obrazning sadoqatli hamrohi va jang maydonidagi qudratli vositani ifodalaydi. Tulpor – “nasldor, chopqir, uchqur ot” bo‘lsa, oddiy ot esa epik qahramonning harakat vositasi sifatida tasvirlanadi. Bu leksemalar milliy sport turlari – poyga va otchilik bilan bog‘liqdir.

Dostonda uchraydigan yana bir muhim sportga oid leksik birlik bu **“polvon”** so‘zidir. U “baquvvat, botir, qahramon” ma’nolarini anglatib, epik matnlarda jasorat, kuch va kurash bilan bog‘liq obrazni yaratishda xizmat qiladi. Shu bilan birga, “maydon” va “poyga” so‘zlari ham xalq sport an’analari, musobaqa va jismoniy bellashuvlarga ishora qiladi.

Ushbu leksemalar sport turlariga qarab quyidagicha tasnif qilinadi:

Qilichbozlik va jangovar sport: qilich, nayza.

Kurash turlari: maydon, polvon.

Ot sporti: ot, tulpor, poyga.

Mazkur sport leksikalari badiiy matn tarkibida nafaqat voqeani harakatlantiruvchi vosita, balki xalqning epik tafakkuri, estetik ideali va milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi leksik-stilistik element sifatida ham namoyon bo‘ladi.

“**Go‘ro‘g‘lining o‘limi**” dostonidagi [5]sportga oid so‘zning lug‘aviy ma’nosi quyidagicha:

Nayza – (forscha) qo‘l bilan otib yoki urib sanchish uchun mo‘ljallangan, uchi o‘tkir qurol.

Ushbu so‘z quyidagi turga oid:

Qilichbozlik: nayza.

“**Zulfizar**” dostonida [6] qo‘llangan sportga oid so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi quyidagicha:

Tulpor – nasldor, chopqir, uchqur ot, arg‘umoq.

Qilich – bir tig‘li, g‘ilof bilan yonga osadigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol.

Maydon – (forscha) ochiq joy, sayhonlik, dala.

Ularning turlari quyidagicha:

Qilichbozlik: qilich.

Ot sporti: ot, tulpor.

Kurash: maydon.

“Go‘ro‘g‘lining bolaligi” dostoni [4] o‘zbek xalq eposida qahramonning yoshlik davri, uning jismoniy va ruhiy kamolot bosqichlari badiiy tasvirlangan muhim bo‘limlardan biridir. Ushbu qismda epik qahramonning kuch-quvvati, jasorati va harbiy san’atga tayyorligi sportga oid leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bu leksemalar nafaqat qahramon xarakterining shakllanishini yoritadi, balki xalqning jismoniy madaniyat, urf-odat va an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan sport faoliyatini ham aks ettiradi.

Doston matnida uchraydigan **“qilich”** so‘zi – xalqning jangovar an’analari, qurol-aslaha madaniyatini ifodalovchi asosiy leksik birliklardan biridir. Leksik izohga ko‘ra, qilich – *bir tig‘li, g‘ilof bilan yonga osiladigan,*

chopish va sanchish orqali yovga shikast yetkazadigan qurol bo‘lib, epik qahramonning jasorati va jangovor mahoratini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu so‘z **qilichbozlik** faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, xalq epik tafakkurida jang va musobaqa timsoli sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, **“maydon”** so‘zi – *ochiq joy, sayhonlik, dala* ma’nolarida qo‘llanilib, doston kontekstida kurash, musobaqa va bellashuvlar o‘tkaziladigan joyni bildiradi. Maydon tushunchasi o‘zbek xalq urf-odatlarida nafaqat sport zaminini, balki ijtimoiy-siyosiy voqealarning markazini anglatadi.

Ot sporti bilan bog‘liq **“tulpor”** va **“ot”** leksemalari ham dostonning asosiy ramziy ifoda vositalaridan biridir. Tulpor – *nasldor, chopqir ot, arg‘umoq* sifatida epik obrazlarning sadoqatli, chaqqon va jasur yo‘ldoshi sifatida tasvirlanadi. Bu otlar xalq hayotida musobaqa, yurish, jang maydonlari va safarlarning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Oddiy “ot” esa – *yakka tuyoqli, o‘txo‘r sutemizuvchi hayvon* sifatida umumiy transport vositasi sifatida tilga olinadi. Ikkala leksik birlik ham **ot sporti** bilan bevosita bog‘liqdir.

Xalq og‘zaki ijodining yirik va o‘ziga xos janrlaridan biri bo‘lgan dostonlarda sportga oid leksik birliklarning faol va maqsadli qo‘llanilishi o‘zbek xalqining tarixiy tafakkuri, turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot davomida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Go‘ro‘g‘lining bolaligi”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” hamda “Zulfizar” dostonlari asosida tahlil qilingan sport leksemalari sport faoliyatining turli jabhalarini – masalan, kurash, ot sporti, qurol ishlatish, jangovar harakatlar kabi yo‘nalishlarini ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu leksemalar semantik jihatdan nafaqat harakat va kuch-quvvatni bildiradi, balki epik obrazlarning qahramonlik, jasorat, epchillik, chaqqonlik kabi fazilatlarini ochishda ham muhim vosita hisoblanadi. Har bir sport leksemasi matndagi kontekstual vazifasiga ko‘ra estetik yuklama bilan boyitilgan bo‘lib, xalq dunyoqarashida jismoniy va ruhiy kamolot timsoli sifatida tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlarida sportga oid leksemalarning keng va mazmunli ishlatilishi, ularning turlari va guruhlarga ajratilishi – o‘zbek xalqining qadimdan jismoniy tarbiya va sportga yuksak baho berganini, bu orqali yosh avlodga mardlik, jasorat, kurashuvchanlik kabi sifatlarni singdirishga intilganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, sport leksikalari dostonlarda nafaqat harakat ifodasi, balki xalqning kuch-qudrati, milliy qahramonlik ruhi va estetik idealini yuksaltiruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. 672-b.
2. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Oyina.uz portal kutubxonasi, 2018. 112-b.
3. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. 96-b.
4. Go‘ro‘g‘lining bolaligi: O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. 84-b.
5. Go‘ro‘g‘lining o‘limi: O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. 88-b.
6. Zulfizar: O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. 90-b.



Aziza XOLBOBOYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘ZDJTU,
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi dotsenti

REKLAMA MATNINING AKSIOLOGIK KOMPONENTI

Annotatsiya: qadriyatlar to‘plami insonning yashash sharoitiga, intilishlariga va hayotiy maqsadlariga qarab o‘zgaradi. Reklama yaratishda muloqot rejalashtirilgan jamiyatning qadriyatlar tizimi muqarrar ravishda tahlil qilinadi. Jamiyat tomonidan tan olingan qadriyatlarni moddiy va ma’naviy, quyi (biologik) va yuqori (ijtimoiy va ma’naviy) qadriyatlarga bo‘lish mumkin. Mazkur maqola reklama diskursida aksiologik komponentning ifodalanishiga oid bo‘lgan nazariy qarashlar tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *aksiologik xususiyatlar, madaniy kontekst, inson ehtiyojlari, aksiogen vaziyat, madaniy tasodif.*

Аннотация: набор ценностей человека меняется в зависимости от условий его жизни, стремлений и жизненных целей. При создании рекламы неизбежно анализируется система ценностей общества, в котором планируется коммуникация. Ценности, признаваемые обществом, можно разделить на материальные и духовные, низшие (биологические) и высшие (социальные и духовные) ценности. Статья посвящена анализу теоретических взглядов на проявление аксиологического компонента в рекламном дискурсе.

Ключевые слова: *аксиологические характеристики, культурный контекст, потребности человека, аксиогенная ситуация, культурное совпадение*.

Annotation: the set of values changes depending on the living conditions, aspirations and life goals of a person. When creating advertising, the value system of the society in which communication is planned is inevitably analyzed. Values recognized by society can be divided into material and spiritual, lower (biological) and higher (social and spiritual) values. This article is devoted to the analysis of theoretical views on the expression of the axiological component in advertising discourse.

Key words: *axiological characteristics, cultural context, human needs, axiogenic situation, cultural coincidence.*

Kirish. Til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni bir qism (til) va butun (madaniyat) o‘rtasidagi munosabat sifatida ko‘rish mumkin. Insonga dunyo haqidagi ma’lumotlarning ko‘p qismi lingvistik kanal orqali keladi, shuning uchun inson asosan, odamlar tomonidan intellektual, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan tushunchalar dunyosida yashaydi. Inson bolaligidanoq o‘z xalqining tilini va u bilan birga madaniyatini ham o‘rganadi. Reklamani o‘rganish uzoq vaqt davomida olib borilishi bilan bir qatorda va turli bilim sohalari (falsafa, tilshunoslik, psixologiya, marketing va boshqalar) sa’y-harakatlari bilan hozirgi kungacha davom etmoqda. Shunisi e’tiborga loyiqki, har bir fan o‘z e’tiborini u yoki bu jihatga qaratadi: falsafa va psixologiya reklamani idrok etish qonuniyatlarini va uning shaxsga va umuman, jamiyatga psixologik ta’sirini o‘rganish bilan shug‘ullanadi, marketing bozorni tahlil qilishga, mahsulotni ilgari surish va foyda olishga qaratilgan. Shubhasiz, reklama hodisasining ko‘p qirrali tabiati va murakkabligi tufayli uni bitta tadqiqot doirasida to‘liq tavsiflash mumkin emas, shuning uchun biz uchun eng muhim bo‘lgan parametrlarni sanab o‘tamiz. Avvalo, biz ma’lum til vositalari yordamida nutq ta’sirini ta’minlashni, shuningdek, hissiy jihatdan baholovchi lug‘at korpusining og‘irligini tushunamiz [Goddard, 2002]. Shuni ta’kidlash lozimki, reklama diskursida adresatga psixologik ta’sir ko‘rsatishning haqiqiy leksik usullari bilan bir qatorda noverbal vositalar ham faol qo‘llaniladi, ular reklama qilinayotgan mahsulotni jonli va samarali taqdim etadigan, qabul qiluvchini o‘ziga jalb qiladigan va ishonchni uyg‘otadigan fotosuratlar, chizmalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Reklama orqali qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalasi, shuningdek, reklama hodisasining qadriyatlarning o‘zi bilan bog‘liqligi alohida e’tiborga loyiqdir, chunki bu jihatdan tadqiqotchilar yagona nuqtai nazarga ega emaslar, ularning fikrlari sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Shunday qilib, ba’zi olimlarning fikricha, reklama yangi qadriyatlarni shakllantirishda va ularni keyinchalik jamiyat vakillari ongiga kiritishda faol ishtirok etadi Anashkina [Anashkina 2012; Androsova va boshqalar, 2015]. Moiseyevaning fikriga ko‘ra, reklama, bir tomondan, jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyatlarga asoslanadi, ikkinchi tomondan, u yangilarini shakllantiradi, biz ham reklama har doim jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyatlarga yo‘naltirilgan

va shu bilan birga qabul qiluvchiga yangi qiymat munosabatlarini yetkazish jarayonida ishtirok etadi deb hisoblaymiz.

Asosiy qism. Iqtisodiyotning globallashuvi, turizmning rivojlanishi, ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlari, shuningdek, migratsiya obyektiv ravishda milliy va til madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kengayishiga va chuqurlashishiga olib keladi. Madaniyatlar va sivilizatsiya o'rtasidagi muloqot doimo ular paydo bo'lganidan beri sodir bo'lgan (masalan, qadimgi "Ipak yo'li"), ammo hozirgi davrdagina u keng ko'lamli xalqaro hamkorlik maqomiga ega bo'ldi [Yo'ldosheva, 2011. 65-70]. Xalq madaniyatining barcha nozik jihatlari olamni va undagi shaxsni turli yo'llar bilan qamrab olganligi uchun o'ziga xos tilda namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, har bir tilda olamning o'ziga xos manzarasi mavjud, shuning uchun til egasi nutq mazmunini ushbu rasmga muvofiq tartibga solishga majburdir [Yuldasheva, 2011: 65–70]. Muloqot jarayonlari ma'lum bir madaniy kontekstda sodir bo'lganligi sababli, har bir shaxsning kommunikativ jihatdan ahamiyatli xatti-harakati ko'p jihatdan uning ma'lum bir ijtimoiy-madaniy va lingvistik jamoaga mansubligi bilan belgilanadi [Kulikova, 2006: 78]. Shunga ko'ra, madaniyat tashuvchisining xatti-harakati rus madaniyatida mavjud bo'lgan aqliy tasvirlar va g'oyalardan iborat ong bilan belgilanadi (Tarasov 1996: 7-22). Ijtimoiy o'zaro ta'sir vositalaridan biri bo'lgan reklama turli xalqlar madaniyati kesishmasida madaniy o'ziga xoslikni ifodalovchi madaniy tasodif zonalarini (umumiylik, birlik) va madaniy nomuvofiqlik (divergensiya) zonalarini yaratishga qodir. Biroq zamonaviy madaniyatlararo paradigma tillar va madaniyatlarning xilma-xilligini turli til jamiyatlari vakillari o'rtasidagi muloqotga to'sqinlik qiluvchi omildan madaniyatlarni o'zaro tushunish va o'zaro boyitish vositasiga aylantirish istagini nazarda tutadi [Barinova, Nesterova, 2017. 50-52], shuning uchun biz uchun milliy madaniyatning ta'siri muhim ahamiyatga ega.

Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi fan bo'lib, reklama diskursida jamiyatning ma'naviy, moddiy va madaniy qadriyatlari aks etadi. Reklama auditoriyaga ta'sir qilish uchun uning qadriyatlar tizimini hisobga oladi. Reklama mahsulotlarini yaratishda muloqot rejalashtirilgan jamiyatning qadriyatlar tizimi muqarrar ravishda tahlil qilinadi. Jamiyat tomonidan tan olingan qadriyatlarni moddiy va ma'naviy, quyi (biologik) va yuqori (ijtimoiy va ma'naviy) qadriyatlarga bo'lish mumkin. Qadriyatlar to'plami insonning yashash sharoitiga, uning intilishlariga va hayotiy maqsadlariga qarab o'zgaradi [Komarova, 2019]. Shu munosabat bilan amerikalik psixolog A.Maslou tomonidan ishlab chiqilgan inson xatti-harakati motivatsiyasi nazariyasi qiziqish uyg'otadi [Maslow, 2001]. Tadqiqotchi inson ehtiyojlarini iyerarxik tarzda joylashtirilgan **beshta guruhga** ajratdi. Asosiy g'oya shundan iboratki, yuqori guruhga tegishli bo'lgan ehtiyojlar iyerarxiyaning quyi guruhini tashkil etuvchi ehtiyojlar qondirilmaguncha qondirilmaydi.

A.Maslou konsepsiyasiga ko'ra, ***inson ehtiyojlarining*** tuzilishi quyidagicha:

1) *fiziologik ehtiyojlar* – oziq-ovqat, suv, boshpana, ko'payish;

2) *xavfsizlik ehtiyojlari* – qulaylik, yashash sharoitlarining barqarorligi, kasallik paytida yordam va boshqalar;

3) *ijtimoiy ehtiyojlar* – sevgi, do'stlik, odamlar bilan muloqot;

4) *obro'-e'tiborga bo'lgan ehtiyoj* – o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalar tomonidan hurmat, tan olinishi, martaba o'sishi;

5) *ma'naviy ehtiyojlar* – bilim, o'zini namoyon qilish, o'z - o'zini anglash, shu jumladan, kognitiv, estetik ehtiyojlar va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj.

Inson ehtiyojlari kontekstida iste'molchining odatiy xatti-harakatlarini tahlil qilish bizga beshta asosiy iste'molchi motivlarini aniqlash imkonini beradi:

1) utilitar motivlar (ya'ni, tovarlar/xizmatlarning foydali xususiyatlari); 2) estetik motivlar, 3) obro'-e'tibor motivlari, 4) iste'molchi ma'lumot guruhi bilan o'xshashlikka erishish motivlari, 5) an'ana motivlari. Ko'rsatilgan motivlar ko'p jihatdan universal xarakterga ega bo'lib, reklama matnining aksiologik xususiyatlarini belgilaydi, ammo turli til madaniyatlarida motivlarning o'zak va periferik zonalar bilan munosabati har xil bo'ladi. Shu munosabat bilan, reklama matnlarini tahlil qilish ularning turli til madaniyatlarida amalga oshirilishini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. So'nggi jihat zamonaviy tilshunoslikning faol rivojlanayotgan yo'nalishi sifatida tilshunoslikda to'liq namoyon bo'ladi. Lingvoaksiologiya "aksiogen vaziyat" tushunchasi bilan ishlaydi, uning tavsifi va tahlili turli tillar materiallaridan foydalangan holda "muayyan jamiyat dunyosi qiymat rasmining turli qismlarida aksiologik zichlikning milliy, ijtimoiy-guruh va tarixiy o'ziga xosligini" aniqlashga yordam beradi [Karasik, 2015. 26]. Qadriyatlar tizimi nutqning ma'lum bir turida ishlaydigan turli lingvistik vositalarda o'z ifodasini topadi.

Milliy va madaniy o'ziga xoslikning asosi bo'lib xizmat qiladigan o'zbek milliy xarakterining asosiy elementlarini ko'rib chiqaylik. Shuni yodda tutish kerakki, ko'rib chiqilayotgan elementlar har bir til

jamoasining vakiliga xos emas, balki keng tarqalgan, ya'ni butun jamiyat uchun xos va qoida tariqasida, jamiyat tomonidan ma'qullangan (e'tirof etilgan). Shunday qilib, o'zbek xalqining jamoaviy ongida o'zbek milliy xarakterining eksklyuzivligi, qalbning bag'rikenglik va tafakkur ko'lami haqidagi g'oyalarni ta'kidlashimiz mumkin. O'zbek xalqiga xos muloqotdagi samimiylik, ochiqlik va halollikni aytishimiz mumkin. Shuni e'tirof etishimiz mumkinki, maqollar, matallar va milliy o'ziga xos tushunchalar, insonparvarlik, kechirimlilik, rahm-shafqat, umuminsoniylik (boshqa madaniyatlarga ochiqlik va ta'sir qilish), fuqarolik dunyosiga muhabbat, mehnat qobiliyati, jasorat, mehribonlik, sezgirlik, mehmondo'stlik, dindorlik, qat'iyatlilik, jasorat, sabr-toqat, azob-uqubat, shaxsiy fazilatlari yoki turmush tarziga salbiy va norozi munosabatda bo'lish), hayot va baxtga xizmat qilishni tushunish, adolatli kurash o'zbek milliy xarakterining asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Reklama diskursi axborot va ta'sirchanlik funksiyalarini bajarish bilan birga, muayyan madaniyat va qadriyatlarni aks ettiradi. Aksiologik jihatdan tahlil reklama matnlaridagi ma'naviy va moddiy qadriyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Barinova, I.A. O trudnostyax mejkulturnoy kommunikatsii v obuchenii inostrannim yazikam / I.A. Barinova, O.A. Nesterova // Uspexi sovremennoy nauki. 2017. № 1, T. 2. 50–52-betlar.

2.Bogdanova, L.I. Formirovaniye natsionalno-kulturnoy identichnosti v protsesse obucheniya russkomu yaziku / L.I. Bogdanova // Russkiy yazik v polikulturnom mire: II Mejdunarodniy simpozium: sb. nauch. st.: v 2 t. T. 2 / otv. red. Ye. Ya. Titarenko. –Simferopol ARIAL, 2018. 8–16-b.

3.Vajenina, I.S. Vozvisheniye potrebnostey i tupiki potrebleniya / I.S. Vajenina // EKO. – 2012. № 11(461). 131–144-b.

4.Van, Nin. Predstavleniya ob avtomobilyax v russkix i kitayskix reklamnix tekstax / Nin Van, Shuay Gao // Filologiya v XXI veke. – 2019. – № 2 (4). 27–34-b.

5.Golovanova, Ye.I. Iskrennost kak kulturnaya universaliya v kommunikativnom prostranstve Rossii // Yedinaya rossiyskaya natsiya: problemi formirovaniya yee identichnosti: sb. st. uchastnikov Vseros. nauch.-prakt. konf. – Arzamas: Arzamasskiy f-l NNGU, 2017. 205–207-b.

6.Golovanova, Ye.I. Kulturnie dominanti i sennosti v russkom yazike / Ye.I. Golovanova, O.N. Kovaleva // Mir yazika i natsionalnaya kultura: vzglyad iz sovremennosti / Voronsova T.A., Golovanova Ye.I., Kovaleva O.N., Pitina S.A., Shelestyuk Ye.V. – Chelyabinsk: Izd-vo Chelyab. gos. un-ta, 2021. 54–105-b.

7.Gromov, 2010: 213–217 Gromov, O.N. Osobennosti gedonisticheskogo diskursa rossiyskogo televideniya / O.N. Gromov // Omskiy nauchniy vestnik. 2010. – № 1 (85). 213–217-b.

8. Karasik, V.I. Yazikovoye proyavleniye lichnosti / V. I. Karasik. – M.: Gnozis, 2015.384 -b.

9. Komarova, N.I. Vliyaniye sistemi sennostey na osobennosti postroyeniya reklamnogo teksta / N.I. Komarova // Tendensii razvitiya nauki i obrazovaniya. 2019. – № 57–7. 41–45-b.

10. Kulikova, L.V. Kommunikativniy stil v mejkulturnoy paradigme / L.V. Kulikova. – Krasnoyarsk : Krasnoyarsk. gos. ped. un-t im. V. P. Astafeva, 2006. 39-b.

11. Maslou, A.G. Motivatsiya i lichnost / A.G. Maslou. – SPb.: Yevraziya, 2001. 479-b.

12. Medvedeva, Ye.V. Reklamnaya kommunikatsiya / Ye.V. Medvedeva. – M.: Lenand, 2016. 304- b.

13. Romanova, T.P. Etnokulturniy marker v logotipax rossiyskix firm kak reklamniy stimul adresata / T.P. Romanova // Medialingvistika. 2018. – T. 5, № 4. 521–533-b.

14. Tarasov, Ye.F. Mejkulturnoye obsheniye – novaya ontologiya analiza yazikovogo soznaniya / Ye.F. Tarasov // Etnokulturnaya spetsifika yazikovogo soznaniya. – M., 1996.7–22-b.

15. Umerenkova, A.V. Reklamniy tekst kak sredstvo formirovaniya natsionalnoy identichnosti / A.V. Umerenkova // Teoriya yazika i mejkulturnaya kommunikatsiya. 2016. – № 4 (23). 114–120-b.

16. Yuldasheva, M.R. Russkaya kultura i russkiy yazik v dialoge kultur / M.R. Yuldasheva // Nauchnie itogi goda: dostijeniya, proyekti, gipotezi. 2011. – № 1–1. 65–70-b.

Nurjahon NAZAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsent v.b., PhD
E-mail: nurjahonn@gmail.ru

DISKURS VA MATNNING SUHBAT JARAYONIDAGI ROLI VA O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: ushbu maqola diskurs va matn tushunchalarining kommunikatsiyadagi roli va o‘zaro bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi. Bugunga qadar diskurs tushunchasi haqida turli qarashlar va nazariyalar shakllanib kelinmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan diskurs matnga nisbatan qarama-qarshi qo‘yiladi, Matn, asosan, yozma yoki og‘zaki nutqning yakuniy shakli bo‘lib, aniq va mustahkam struktura va ma’lumotni o‘z ichiga oladi. Diskurs esa suhbat davomida ma’lum bir tilni yoki nutqni qanday ishlatish, jamiyatda shakllangan ijtimoiy va madaniy kodlar asosida olib borilishi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, kommunikatsiya, aloqadorlik, yozma shakl, og‘zaki shakl, hodisa, mukammal.*

Аннотация: в этой статье рассматриваются роль понятий дискурс и текст в коммуникации и их взаимосвязь. На сегодняшний день сформировались различные взгляды и теории, касающиеся понятия дискурса. Многие исследователи противопоставляют дискурс тексту, при этом текст понимается как окончательная форма письменной или устной речи, содержащая чётко структурированную информацию. Дискурс же связан с тем, как используется определённый язык или речь в процессе общения, в зависимости от социальных и культурных кодов, сформированных в обществе.

Ключевые слова: *дискурс, текст, коммуникация, взаимосвязь, письменная форма, устная форма, явление, совершенство.*

Annotation: this article discusses the role of the concepts of discourse and text in communication and their interrelationship. To date, various views and theories regarding the concept of discourse have been developed. Many researchers contrast discourse with text, with text being understood as the final form of written or spoken speech, containing a clear and structured set of information. Discourse, on the other hand, is related to how a particular language or speech is used during a conversation, shaped by the social and cultural codes developed within society.

Key words: *discourse, text, communication, interrelation, written form, spoken form, phenomenon, perfect.*

Jahon fanida diskurs tushunchasi tobora ommaviylashib borayotgani hamda ushbu hodisaning mukammal, ko‘p jihatli tasvir-ta’riflari berilayotganiga qaramasdan, ba’zilar hanuz diskursni alohida tadqiq obyekti sifatida tan olishdan tortinib turganlari ham ma’lum [Партин 1996; Ревзина 1999]. Turli gumanitar integrativ munosabatlar asosida shakllanayotgan yangi yo‘nalishning hududiy chegarasi aniq emasligi, diskurs hodisasi talqinida katta qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Niderlandiyalik olim T. van Deyk bunday noqulayliklar paydo bo‘lishining asosiy sababini “diskurs” tushunchasining ko‘p ma’noliligida ko‘radi. Uning fikricha, diskurs tushunchasi til tushunchasidek mujmaldir. “Bilamizki, – deb yozadi olim, – mujmal va ta’riflash qiyin bo‘lgan tushunchalar ko‘pincha ommaviylashadi. Diskurs tushunchasi xuddi shundaylardan biridir” [Deyk T.A.van 1988].

Hozirgi paytda turli manbalarda diskurs hodisasiga berilayotgan o‘nlab ta’riflarni uchratish mumkin. Diskurs – bu lisoniy-pragmatik, lingvomadaniy, psixo-lingvistik omillar negizida shakllanuvchi matn sanalib, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, muloqot jarayonida suhbatdoshlarning o‘zaro ta’siri va ularning ongi mexanizmlari (kognitiv jarayonlar) da ishtirok etuvchi komponent sifatida tushuniladi. Shunga ko‘ra “diskurs” atamasi, “matn” atamasidan farqli o‘laroq, real hayotga aloqador hamda makon va zamonga xos tavsiflanadi [Арутюнова, 1990: 13]. Yana bir olim Milovidov fikricha diskurs – bu nutqiy amaliyot bo‘lib, dialogik va dinamik jarayonlar unda aks topadi, uning uzviyligi gapirish (ijodiy kontekst) va tinglash (qabul qilish konteksti)ning joyi, vaqti, madaniy-tarixiy va ijtimoiy-psixologik konteksti, so‘zlovchi va tinglovchi maqsadi, obyektning xususiyatlari, xabarni kodlashda ishlatiladigan maxsus tillar, shuningdek, dekodlash tillarining xususiyatlari bilan belgilanadi [Миловидов 2016:13]. Matn esa diskursdan farqli bo‘lib, tilning birliklariga tegishli bo‘lib, faqat tashqi ko‘rinishda ba’zi bir ijodiy jarayonning namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Har turli mazmundagi matn faqat diskursda shakllanadi. Diskurs matnning ba’zi funksiyalarini o‘z zimmasiga oladi. Diskurs, kommunikativ hodisa sifatida, matnning birlikdan asarining yaxlitligini namoyon qiladi. I.V. Fomenko shunday degan: «Turli o‘quvchilar uchun kompozitsiyaning birligi shunday tarzda taraqqiy etadiki, har safar bunda qandaydir asoslar bo‘ladi. Ushbu asoslarni tasvirlayotganda, biz yaxlitlik konseptosfera bilan bog‘liq ekanligini yodda tutamiz, shuning uchun uning har qanday tasviri tilning dunyo tasviridan, tasavvurda mavjud bo‘lgan tasvirdan farq qiladi» [Фоменко 2006:77].

Diskurs – bu til birliklarining muayyan kontekstda

ishlatilishi va muloqot jarayonida shakllanuvchi nutqiy faoliyatdir. U matndan farqli ravishda, faqatgina yozma yoki og‘zaki ifoda emas, balki uning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jihatlarini ham qamrab oladi.

Diskursning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Kontekstga bog‘liqligi – diskurs ma’lum vaziyatda, muayyan auditoriya uchun va ma’lum maqsad bilan shakllanadi.

2. Dinamik tabiati – u muloqot jarayonida rivojlanadi va o‘zgarib boradi.

3. Nutqiy faoliyat bilan bog‘liqligi – u shunchaki yozilgan yoki aytilgan matn emas, balki tilning real ishlatilish shaklidir.

4. Ijtimoiy va madaniy jihatlar – diskurs muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi, madaniyati, dunyoqarashi va sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, diskurs – bu muloqot jarayonida shakllanadigan va kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy faoliyat shakli hisoblanadi. Diskurs atamasi dastlab gap, nutq va diskurs o‘zaro bog‘langan hodisa sifatida qaratilgan. Vaqt o‘tishi bilan zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi ko‘p qirrali, murakkab kommunikativ jarayon sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni pragmatik tahlil etishda diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda qo‘llaniladi:

1) so‘z muqobili;

2) iboralardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik;

3) nutq vaziyati hisobga olingan holda muloqotning adresatga ta’siri;

4) suhbat, nutqda so‘zlovchi o‘rni;

6) lisoniy birliklardan foydalanish;

7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;

8) matn yaratish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar

[Арутюнова 1990: 20].

G‘arbdagi olimlarning ba’zilari matn va diskursni gap hodisasi bilan qiyoslashga odatlanishgan. Jumladan, ingliz adabiyotshunosi R.Fauler “Linguistics and the Novel” kitobida “matn” tushunchasini nutqiy tuzilmalarining sirtqi qatlami bilan tenglashtiradi. Matn, olimning talqini bo‘yicha, gaplar birikishidan hosil bo‘ladigan tuzilma va o‘quvchi gaplar ketma-ketligidan ma’noni anglab yetadi. Diskurs esa “nuqtayi nazar” (point of view), “munosabat” (attitude), “dunyoqarash” (world view) kabi modal omillardan iborat va mazmun jihatidan muallifning voqelikka munosabatini aks ettiradi [Fowler 1983: 49].

“Diskurs tahlili” (Discourse analysis) asarida matn va diskurs tushunchalari til va nutq qarama-qarshiligida tavsiflanadi. Ushbu kitob mualliflarining fikricha, diskurs “qo‘llanishdagi til” (language in use) bo‘lsa, matn esa kommunikativ harakatning lisoniy qaydidir [Brown, Yule 1983: 1-6]. Haqiqatdan ham, matn ma’no shakllanishini boshlab beruvchi vosita bo‘lsa, diskurs xuddi shu jarayonning o‘zidir [Haberland 1999: 915]. Shu sabab, matn va diskurs hodisalari munosabati talqinida oxirgisini lisoniy shaxs faoliyati doirasida tavsiflash lozim bo‘ladi. Matn esa shu faoliyat mahsulidir. Hozirgi paytda diskurs nazariyasi sohasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilganini e’tirof etish lozim. Diskurs tahlili tildan ijtimoiy-madaniy muhitda foydalanish bilan bog‘liq holda olib borilmoqda. L.M.Makarov yozishicha, diskurs tahlilida lisoniy muloqotning ijtimoiy-madaniy va interaktiv jihatlari o‘rganiladi, “lekin bundan uning hududi faqat og‘zaki dialog bilan chegaralanadi, degan xulosaga kelmaslik kerak: lisoniy muloqotning har qanday ko‘rinishi....shu nuqtayi nazardan tahlilga tortilishi mumkin” [Макаров 2003: 88].

Diskursning keng ma’noda talqin qilinishi uning kategorial belgilarini aniqlashni taqozo etadi. Ushbu hodisaning struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv va estetik-madaniy xususiyatlarini e’tiborga olish lozimligini uqtirgan tadqiqotchilar uning kategorial belgilari antroposentriklik, vaziyatlilik, adreslilik, ochiqlik, protsessuallik, milliy o‘ziga xoslik kabilardan iborat ekanini qayd etadi [Нормуродова 2020: 16-17].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миловидов В.А. Семиотика литературно-художественного дискурса: монография. – М.: 17 Буки Веди, 2016. С. 13.

2. Фоменко И.В. Практическая поэтика: учеб. пособие для студентов филол. фак. вузов. – М.: 18 Изд. центр «Академия», 2006. С. 77.

3. Fowler Linguistics and the novel. – L.: Methuen, 1983. – 147 p.

4. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – 683 с.

5. Дейк.Т.А.ван Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс 1989.–312 с.

6. Макаров М.Я. Основы теории дискурса – М.: Гнозис, 2003.–280 с.

7. Нормуродова Н.З. Инглиз бадиий дискурсида антропосентризмнинг вербал экспликацияси: Филол. фан. докт. дисс. автореферати. – Т., 2020. – 78 б.

8. Ревзина О.Г.Язык и дискурс // Весник МГУ.Серия Филология,–1999.№1–С. 25-33.

Sitora MARDONOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti, PhD

QADIMGI INGLIZ TILIDA ISHLATILGAN “SĪÞIAN, SWENGAN, WEORPAN” FE’LLARI SEMANTIK TARAQQIYOTI

Annotatsiya: ushbu tadqiqot qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe’llarning semantik rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad - qadimgi ingliz tili davrida keng qo‘llanilgan fe’llarning lug‘aviy ma’nosi va funksional o‘zgarishlarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tarixiy-lingvistik yondashuv asosida qadimgi ingliz tilidagi matnlar, masalan, “Beovulf” asarida ishlatilgan misollar va boshqa yozma manbalar tahlil qilinadi.

Ishning nazariy qismi semantik o‘zgarish turlarini, xususan, ma’no torayishi (narrowing), ma’no kengayishi (broadening), metaforik va metonimik o‘zgarishlarni tushuntiradi. Amaliy qismda esa qadimgi inglizcha fe’llarning bugungi ingliz tilida qanday rivojlanganligi, ayrim hollarda esa yo‘qolib ketganligi ko‘rsatiladi. Misol sifatida “sīþian, swengan, weorpan” kabi asosiy fe’llar tahlil qilinadi.

Tadqiqot qadimgi ingliz tili va uning zamonaviy ingliz tiliga ta’siri haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishni xohlovchi filologlar, lingvistlar va til tarixchilari uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: *semantika, fe’l, harakat, ma’no, guruh, turkum, neytral, o‘timli, o‘timsiz, prefiks, suffiks.*

Аннотация: данное исследование посвящено изучению семантического развития глаголов, употребляемых в древнеанглийском языке. Основная цель – определить лексическое значение и функциональные изменения глаголов, широко употреблявшихся в древнеанглийский период. В ходе исследования на основе историко-лингвистического подхода анализируются древнеанглийские тексты, такие как примеры, использованные в «Беовульфе», и другие письменные источники.

Теоретическая часть работы объясняет виды семантических изменений, в частности, сужение, расширение, метафорические и метонимические изменения. В практической части показано, как древнеанглийские глаголы развивались в современном английском языке, а в некоторых случаях исчезли. В качестве примера анализируются такие базовые глаголы, как «sīþian, swengan, weorpan».

Исследование будет полезно филологам, лингвистам и историкам языка, которые хотят глубже понять древнеанглийский язык и его влияние на современный английский язык.

Ключевые слова: *семантика, глагол, действие, значение, группа, категория, нейтральный, переходный, непереходный, приставка, суффикс*.

Annotation: this study is devoted to the study of the semantic development of verbs used in Old English. The main goal is to determine the lexical meaning and functional changes of verbs commonly used in the Old English period. The studios uses a historical-linguistic approach to the analysis of the Old English text, such as the examples used in Beowulf, and other vritten sources.

The theoretical part of the work explains the types of semantic changes, in particular, narrowing, expansion, metaphorical and metonymic changes. The practical part shows how Old English verbs developed in modern English and in some cases disappeared. As an example, such basic verbs as “sīþian, swengan, weorpan” are analyzed.

The study will be useful to philologists, linguists and language historians who want to gain a deeper understanding of Old English and its influence on modern English.

Key words: *semantics, verb, action, meaning, group, category, neutral, transitive, intransitive, prefix, suffix.*

Kirish. Qadimgi ingliz tili (Old English, milodiy 5-11 - asrlar) Germaniya qabilalari tomonidan Britaniya orollariga olib kelingan va hozirgi zamonaviy ingliz tilining asosi bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda ishlatilgan fe’llar, ularning shakllari va semantik ma’nolari, tilning semantik evolyutsiyasi jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe’llarning semantik taraqqiyoti, ularning zamonaviy ingliz tiliga o‘tishi davomida yuz bergan o‘zgarishlari tahlil qilinadi.

Natijalar va muhokama.

1. Qadimgi ingliz tili fe’llarining asosiy xususiyatlari.

Qadimgi ingliz tilida fe’llar ancha murakkab tizimga ega bo‘lgan. Ular shakllar bo‘yicha turkumlangan: kuchli (strong) va kuchsiz (weak) fe’llarga bo‘lingan.

Zamonga ko‘ra tasniflangan: hozirgi zamon va o‘tmish zamon (past tense) fe’llari mavjud edi.

Kelib chiqishi: asosan, germanik ildizlarga ega bo‘lgan, lekin boshqa tillardan, xususan, lotin va kelt tillaridan kirib kelgan so‘zlar ham uchraydi.

2. Semantik o‘zgarishning turlari.

Qadimgi ingliz tilida fe'llarning semantik o'zgarishlari bir necha shakllarda yuz bergan:

Ma'no kengayishi: fe'l dastlab faqat bir ma'noni bildirgan bo'lsa, zamonaviy tilga o'tishda kengroq ma'noni qamrab olgan. Masalan, drīan (tortmoq, sudramoq) fe'li zamonaviy ingliz tilida to draw sifatida kengroq ma'nolarni bildiradi (chizish, tortmoq).

Ma'no torayishi: dastlab keng ma'noga ega bo'lgan fe'l ma'nosi zamonaviy tilga o'tishda toraygan. Masalan, lufian (sevmoq, xush ko'rmoq) zamonaviy ingliz tilidagi to love so'ziga aylangan.

Metaforik o'zgarish: Ba'zi fe'llar metaforik ma'nolarni qabul qilgan. Masalan, springan (sakramoq) zamonaviy ingliz tilidagi to spring so'zida mavsumiy o'zgarish yoki faoliyat boshlanishini ham bildiradi.

Semantik almashuv: ba'zi qadimgi fe'llar zamonaviy ingliz tilida butunlay boshqa ma'noni qabul qilgan yoki kamdan-kam ishlatiladi.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **"sīþian"** fe'li tez-tez qo'llanilgan fe'l bo'lib, "sayohat qilmoq, bormoq" kabi ma'nolarga ega bo'lgan. T. Fanegoning ta'kidlashicha, mazkur fe'l qadimgi ingliz tilida holat fe'llari tarkibiga kiritilgan[1]. Ammo uning qarashlari yetarlicha isbotlanmagan. **"Sīþian"** fe'li holat fe'llari tarkibiga kiritilgani borasida yetarlicha asoslar mavjud emas. Mazkur fikrlarni misollarning tahlilida ko'rib chiqishimiz mumkin. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan mazkur fe'l keltirilgan misollarda qisman holat fe'llari bo'lganligi aniqlandi.

Misol uchun:

1. Ða ða se Hælend **siðode**, sum man him cwæþ to: "Ic wille **siðian** mid ðe
and ðe folgian";

Yuqorida keltirilgan misolda **"sīþian"** fe'li tepalikka yo'naltirilgan harakat ma'nosini ifodalab kelgan. Mazkur misolda harakatning ketma-ketlikda sodir bo'layotgani aks ettirilgan. Ya'ni bunda ko'rinib turibdiki harakatning holati qisman ko'rsatilgan. Ya'ni inson tomonidan bajarilayotgan harakat qiya holatda bo'layotgani nazarda tutilgan.

2. Hig into helle cuce **siðodon;**

Keltirilgan ikkinchi misolda "biron-bir makonga tushib qolmoq" ma'nosi ifodalangan. Ya'ni harakat sodir bo'lganligi noma'lum va mavhum. Mazkur misolda **"sīþian"** fe'li "paydo bo'lmoq" ma'nosini ham ifodalab kelgan. Qadimgi ingliz tilida fe'llar tuslangan va ular ba'zi hollarda grammatik qo'shimchalar qo'shilishi natijasida ko'rinishini ham o'zgartirishgan.

3. For ðe sceal ælc flæsc forþ **siðian;**

Uchinchi misolda **"sīþian"** fe'li "biron-bir kishining qarshisiga chiqmoq" ma'nosida ishlatilgan. Ushbu misolda **"sīþian"** fe'li harakatning holatini anglatib kelmagan. Bundan ko'rinib turibdiki, **"sīþian"** fe'lini holat harakat fe'llari tarkibiga kiritish uchun yetarlicha asosga ega emasmiz.

4. Þurh ðe Frea on ðas eorþan ut **siðade;**

Mazkur misolda **"sīþian"** fe'li "butun yer yuzini aylanib chiqmoq" ma'nosini ifodalab kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, qadimgi ingliz tilida **"sīþian"** fe'li asosan, neytral harakat ma'nosiga ega fe'l sifatida ishlatilgan. Ushbu fe'lning lug'atdagi ma'nosidan tashqari "bormoq, aylanmoq" kabi ma'nolarga ham ega bo'lgan.

5. Hig **siðodon** ealle to Egipta lande;

Ushbu misolda **"sīþian"** fe'li "aylanmoq" ma'nosini ifodalagan.

"Sīþian" fe'liga "eft, for, forþ, fram, -ge, hām" kabi prefiks va suffikslarning qo'shilishi natijasida mazkur fe'l o'z grammatik shaklini va ma'nosini qisman o'zgartirgan. Misol uchun "ta'tilga chiqmoq, sayohatga bormoq yoki ekspeditsiyaga chiqmoq" kabi ma'nolarni anglatgan.

O'rta ingliz tili davriga kelib, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **"sīþian"** fe'li **"sweien"** shakliga o'zgardi. O'rta ingliz tili davrida mazkur fe'l "harakatlanmoq, yurmoq, tez yurmoq" kabi ma'nolarga ega bo'lgan.

6. He wente into Wales with his wyes all, **Sweys** into Swaldye with his snell houndes;

Mazkur misolda **"sweien"** fe'li "yurish qilmoq" ma'nosini anglatgan. Ya'ni o'rta davr ingliz tiliga kelib, ushbu fe'l fransuz kotiblarining ta'siri natijasida o'z shaklini o'zgartirgan.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **"swengan"** fe'li "tebranishga sabab bo'lmoq, tebranmoq, tez harakat qilmoq" kabi ma'nolarni anglatgan. Mazkur fe'l harakatning tezligini ifodalovchi fe'l guruhiga kiritilgan.

7. Ða eode uncer hlaford sylf in ðæt scræf ða **swengde** sio lio sona **forð** and forswealh hine;

"Swengan" fe'li qadimgi ingliz tilida **"forð"** predlogi bilan ishlatilgan. Ya'ni mazkur predlog hozirgi zamon ingliz tili davri **"for"** predlogiga to'g'ri keladi.

Keyinchalik **"swengan"** fe'li **"swengen"** shakliga o'zgargan. Ya'ni o'rta davr ingliz tiliga kelib, "a" harfining reduksiyaga uchrashi natiasida "e" harfiga almashgan va ushbu fe'lning shakli o'zgargan. O'rta ingliz tili davrida **"swengen"** fe'li "shoshilmoq" kabi ma'noga o'zgargan.

8. Thenne þe sergauntez, at þat sawe, **swengen** þeroute, And diden þe dede. And wyth peple of alle plytez þe palays þay fyllen;

Ushbu misolda **"swengen"** fe'li "shoshilmoq" ma'nosini ifodalab kelgan. O'rta ingliz tili davrida mazkur fe'l prefikslar olmagan va grammatik shakllar qo'shilmagan. Mazkur fe'l holat fe'llari turkumiga kiritilgan. B. Tollerning ta'kidlashicha, mazkur fe'l o'timsiz fe'llar turiga tegishli bo'lgan[1].

Qadimgi ingliz tili davrida o'timli fe'llar tarkibiga **"weorpan"** fe'li ham kiritilgan. Qadimgi ingliz tili davrida mazkur fe'l "otmoq" ma'nosini ifodalagan va asosan, sabab fe'li shaklida ishlatilgan.

9. Hi **wurpon** hine on ðone bat;

[1] Fanego T. Motion events in English. Folia Linguistica Historica 33, 2012. P. 29– 85.

Yuqoridagi misolda **“weorpan”** fe’li “uloqtirmoq” ma’nosida kelgan. Ya’ni nimadir sabab bo‘lib harakat yuzaga kelgan. Harakatga keltiruvchi bu ega, harakatlanuvchi esa shakl hisoblangan. Aynan shu shaklning harakatlanishiga ega sababchi bo‘lgan. Bunda makon hamda harakatning yo‘nalishi aniq keltirilgan.

10. Se deofol **wearp** ænne stan to ðære bellan;

O‘ninchi misolda “shaytonning toshni qo‘ng‘iroqqa uloqtirgani” aks ettirilgan. Ya’ni harakat nimaningdir natijasida vujudga kelyapti va shuning uchun mazkur fe’lni sabab fe’llar turkumiga kiritishgan. Eganing harakati shaklga o‘tganligi bois ushbu fe’lni o‘timli fe’llar turiga kiritsak bo‘ladi.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan **“weorpan”** fe’li o‘rta ingliz tili davriga kelib **“werpen”** shakliga o‘zgardi va “shoshilmoq” ma’nosini ifodalay boshladi. Mazkur fe’l o‘rta ingliz tili davrida ham o‘timlilik shaklini saqlab qolgan, lekin sabab fe’llari turkumiga kiritilmagan.

11. Ich leote . . . a cleane mon wunien neh a cleane wummon þet ich nawhit towart ham ne **warpe** ne ne weorri, ah leote ham al iwurðen;

Mazkur misolda **“werpen”** fe’li “shoshilmoq” ma’nosida ifodalangan. Bu yerda ega emas, balki shakl harakatlanayotgani aks ettirilgan. Ya’ni harakat ega sabab yuzaga kelmagan. Bunda harakat makon va yo‘nalishning o‘rtasida bo‘lib o‘tgan.

12. I rede ȝe . . . warpes wylily awaye;

Subyekt harakatni ifodalamagan, balki shaklni harakatga keltirgan. Shunday qilib, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “weorpan” fe’li o‘timli sabab fe’llar turkumiga kiritilgan va bu fe’l o‘rta davr ingliz tiliga kelib, o‘timli fe’llar guruhiga tegishli bo‘lgan.

Keltirilgan dalillarga asoslanib, qadimgi va o‘rta davr ingliz tilida ishlatilgan fe’llar bugungi davrda, ya’ni zamonaviy ingliz tili davrigacha ham saqlanib kelgan va ular quyidagicha ko‘rinishga ega.

1-jadval. Harakat fe’llarining semantik taraqqiyoti.

№	Qadimgi	O‘rta	Hozirgi
1.	sīþian	sweien	to move, go, go quickly
2.	swengan	swengen	hasten
3.	weorpan	werpen	to hasten, rush

Materiallarning dalilicha, qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe’llar bir qancha turlarga bo‘lingan va ushbu turlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Fe’llar sabab fe’llari, holat fe’llari va harakat fe’llari kabi turkumlarga ajratilgan. Ulardan eng katta turkum harakat fe’llari turkumi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollardan qadimgi ingliz tilida fe’llar o‘timli va o‘timsiz kabi turlarga bo‘linganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bunda harakat subyektdan shaklga o‘tganligi aks ettirilgan. Misollardagi keltirilgan harakatlarda yo‘nalish fe’llarini ham kuzatish mumkin. Grammatik shakllarning fe’llarga ta’sir etganligi bois ularning ba’zilari o‘rta ingliz tili davriga kelib o‘zgarib ketgan, ba’zilari esa umuman shaklini yo‘qotgan. Ko‘p holatlarda ma’nosi ham o‘zgarib ketganligini yuqorida keltirilgan misollar bilan isbotlashga harakat qildik. Mazkur maqolada biz ko‘rib chiqqan fe’llar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan, ammo juda ko‘p o‘zgarishlarga sabab bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa. Qadimgi ingliz tilidagi bu fe’llar vaqt o‘tishi bilan semantik jihatdan ko‘p qirrali rivojlangan va ba’zilari bugungi ingliz tilida iz qoldirgan. Ushbu jarayonlar so‘zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstlari, shuningdek, boshqa tillar bilan muloqoti orqali boyitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fanego T.K. Motion events in English. The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. Folia Linguistica Historica, 2012. – 250 p.

2. Filipović L.M., Kasia M.J. Space and time in languages and cultures. – Amsterdam: John Benjamins, 2012. – 550 p.

3. Goldberg A.E. Constructions at work. The nature of generalization in language. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 350 p.

4. Huber J.P. Caused- motion verbs in the Middle English intransitive motion construction. 2013. – 265 p.

5. Bosworth T., Joseph B., Northcote T. An Anglo- Saxon dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 1882. – 2450 p.

6. Niles J.D. Compound diction and the style of Beowulf. English Studies 62(6) 1981. – 483 p.

Abdurasul TO‘XTAMISHEV,
SamDChTI PhD

XITOY TILIDAGI BOG‘LOVCHI FE’LLARNING QO‘LLANISHIGA OID XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola hozirgi zamon putunxua lahjasida qo‘llaniladigan bog‘lovchi fe’llarning (kopulativ fe’llarning) rolini, grammatik xususiyatlarini va qo‘llanilish tendensiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada avvalo bog‘lovchi fe’l tushunchasi va uning putunxua tilidagi o‘rniga to‘xtalinadi. So‘ngra putunxua tilidagi eng asosiy bog‘lovchi fe’llar – 是 (shì), 成为 (chéngwéi), 叫 (jiào) va boshqalar – alohida ko‘rib chiqilib, ularning ma’nosi va vazifasi yoritiladi. Ushbu fe’llarning grammatik tahlili, jumladagi sintaktik xususiyatlari va boshqa so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabati misollar yordamida tushuntiriladi. Shuningdek, zamonaviy putunxua tilida bog‘lovchi fe’llarning tarixiy o‘zgarishi va bugungi kunda kuzatilayotgan tendensiyalariga e’tibor qaratilib, tadqiqot natijalari xulosa qismida umumlashtiriladi.

Kalit so’zlar: 是 *(shì),* 成为 *(chéngwéi),* 叫 *(jiào), “bo‘lmoq”, bog‘lovchi, yarim-bog‘lovchi, “是...的” konstruksiyasi.*

Annotation: this article is dedicated to analyzing the role, grammatical characteristics, and usage trends of linking verbs (copulative verbs) in modern Putonghua. The article first examines the concept of linking verbs and their function in Putonghua. Then, the most essential linking verbs in Putonghua – 是 (shì), 成为 (chéngwéi), 叫 (jiào), and others – are discussed individually, highlighting their meanings and functions. A grammatical analysis of these verbs is provided, explaining their syntactic properties within sentences and their interactions with other parts of speech through practical examples. Additionally, attention is given to the historical evolution of linking verbs in modern Putonghua and the trends observed in their current usage. The findings of the study are summarized in the conclusion.

Key words: 是 *(shì),* 成为 *(chéngwéi),* 叫 *(jiào), “to be”, linking, semi-linking, “是...的” construction.*

Аннотация: данная статья посвящена анализу роли, грамматических характеристик и тенденций использования связочных (копулятивных) глаголов в современном путунхуа. В статье сначала рассматривается понятие связочных глаголов и их функции в путунхуа. Затем подробно анализируются наиболее важные связочные глаголы путунхуа – 是 (shì), 成为 (chéngwéi), 叫 (jiào) и другие, с разъяснением их значений и функций. Проводится грамматический анализ этих глаголов, объясняются их синтаксические особенности в предложениях и взаимодействие с другими частями речи на основе практических примеров. Кроме того, внимание уделяется историческим изменениям связочных глаголов в современном путунхуа и наблюдаемым тенденциям их актуального использования. В заключении подводятся итоги исследования.

Ключевые слова: 是 *(shì),* 成为 *(chéngwéi),* 叫 *(jiào), «быть», связочный, полу-связочный, конструкция “是...的”.*

Xitoy (putunxua) tilida gapning egasi va kesimi orasidagi bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi maxsus fe’llar mavjud bo‘lib, ular, odatda, kopula fe’l deb ataladi. Bunday bog‘lovchi fe’llar gapda ega (subyekt) bilan uning xususiyatini yoki identifikatsiyasini ifodalovchi predikativ qo‘shimchani bog‘lash vazifasini bajaradi. Masalan, “他是学生” (Tā shì xuéshēng) – *U talaba* jumlasida 是 (shì) bog‘lovchi fe’l bo‘lib, ega “他” (*u*) ni predikativ qism “学生” (*talaba*)ga bog‘lab turibdi. Bog‘lovchi fe’llar subyektning kimligini, nimaga aylanganini yoki qanday atalishini ko‘rsatadi va shu sababli putunxua tilida identifikatsiya, tasnif va nominativ munosabatlarni ifodalashda juda muhim o‘rin tutadi.

Bog‘lovchi fe’llar Xitoy tilida alohida ahamiyatga ega, chunki boshqa ko‘plab tillardan farqli ravishda, putunxua tilida sifatlardan yasalgan predikatlar, odatda, hech qanday bog‘lovchi fe’l vositasida emas, balki bevosita o‘zlari kesim vazifasini bajaradi. Ya’ni putunxua tilida “Bu rasm chiroyli” yoki “Havo issiq” degandek fikrni ifodalash uchun “是” fe’li ishlatilmaydi – “画很漂亮” (Huà hěn piàoliang) – *Rasm juda chiroyli* tarzida sifatning o‘zi kesim bo‘ladi. Shu jihatdan, Xitoy tilidagi bog‘lovchi fe’llarni o‘rganish ushbu til grammatik sistemasining o‘ziga xosliklarini anglashda muhimdir.

Bog‘lovchi fe’l (kopula) tushunchasi. Bog‘lovchi fe’l – bu gapda ega bilan kesimning nominal yoki sifatli qismi orasida bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi fe’l turidir. Ingliz tilidagi *“to be”*, rus tilidagi *“быть”* yoki o‘zbek tilidagi *“bo‘lmoq”* fe’li kopulativ bog‘lovchi fe’lga misol bo‘la oladi. Bog‘lovchi fe’lning o‘zi mustaqil leksik ma’no baxsh etmasdan, asosan, grammatik vazifani bajaradi: u ega kim ekanini yoki qanday holatda ekanini ko‘rsatadi. Xitoy tilida ham bog‘lovchi fe’l tushunchasi mavjud bo‘lib, u gap mazmunida “A – bu B” munosabatini ifodalaydi. Putunxua tilida bog‘lovchi fe’l sifatida asosan 是 (shì) qo‘llanilib, u *“... dir”* ma’nosini anglatadi, ya’ni ega va predikativ bo‘lakni tenglik aloqasi bilan bog‘laydi. Masalan, “李娜是医生” (Lǐ Nà shì yīshēng) – *Li Na shifokor* jumlasida 是 egani kasb bilan bog‘lamoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, Xitoy tilida har bir sodda gapda

biror fe’l (kesim) bo‘lishi shart – bog‘lovchi fe’l bo‘lmasa, kesim vazifasini boshqa so‘z (masalan, sifat) bajaradi.

Putunxua tilida bog‘lovchi fe’llarning o‘rni. Hozirgi putunxua tilida bog‘lovchi fe’llar asosan statik holatni yoki identifikatsiyani ifodalaydi. Ular subyektni boshqa bir nomlanma (masalan, kasb, lavozim, turkum) bilan bog‘lash, yoki subyektning yangi holatga o‘tganini bildirish, yoki subyektning nomini atash kabi funksiyalarni bajaradi. Putunxua tilida bog‘lovchi fe’l qo‘llanishining muhim jihati shuki, bu til izolyativ tuzilishga ega bo‘lib, fe’llarda shaxs va zamon kategoriyalari qo‘shimchalar bilan ifodalanmaydi – fe’l shakli o‘zgarmaydi. Demak, bog‘lovchi fe’l ham o‘zining doimiy bir formasi (masalan, 是) bilan qo‘llanadi va grammatik zamon yoki son uchun o‘zgarmaydi (Putunxua tilida “*menman*”, “*sensan*” kabi shakllanish yo‘q). Bu bog‘lovchi fe’lni qo‘llashni ancha sodda qilsa-da, uning qo‘llanish qoidalari va cheklovlarini (masalan, qaysi hollarda ishlatilmasligini) bilish talab etiladi. Putunxua tilida bog‘lovchi fe’lning roli, ayniqsa, egani aniqlash (X — bu Y), ega holatini o‘zgartirish (X Y ga aylandi), yoki ega nomini atash (X ning nomi Y) kabi gap tuzilmalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida ana shunday vazifalarni bajaruvchi asosiy bog‘lovchi fe’llar ko‘rib chiqiladi.

Eng asosiy bog‘lovchi fe’llar: 是 (shì), 成为 (chéngwéi), 叫 (jiào) va boshqalar. Putunxua tilida bir nechta asosiy bog‘lovchi fe’l mavjud bo‘lib, ular ma’no va qo‘llanilishiga ko‘ra farqlanadi. Eng ko‘p uchraydiganlari 是 (shì), 成为 (chéngwéi) va 叫 (jiào) fe’llaridir. Bundan tashqari, 姓 (xìng), 叫做 (jiàozuò), 算 (suàn), 变成 (biànchéng) kabi bog‘lovchi vazifasini o‘ziga xos tarzda bajaradigan boshqa fe’llar ham bor. Ushbu bo‘limda ularning har biri alohida tavsiflanadi.

是 (shì) – *“bo‘lmoq” (“...dir”)* ma’nosidagi bog‘lovchi fe’l. Bu putunxua tilidagi eng tipik kopula fe’l bo‘lib, ega bilan nomli predikativ (odatda, ot yoki olmosh bilan ifodalangan) o‘rtasida tenglikni ifodalaydi. 是 fe’li mustaqil ravishda harakatni anglatmaydi, balki A = B munosabatini ko‘rsatadi. Misollar: “他是学生” (Tā shì xuéshēng) – *U talaba*, “北京是中国的首都” (Běijīng shì Zhōngguó de shǒudū) – *Pekin Xitoyning poytaxti*. Bu fe’l yordamida subyektning kimligi yoki nimasi ekanligi aytiladi. 是 fe’lining muhim xususiyati – u sifat bilan kelgan kesimlarda ishlatilmaydi. Ya’ni, agar predikativ bo‘lak sifat (masalan, “大” – *katta*, “漂亮” – *chiroyli*) bo‘lsa, putunxua tilida 是 qo‘llanilmaydi; sifat so‘z bevosita kesim bo‘ladi (masalan, “天气热”) – *Ob-havo issiq*. 是 faqat ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ega orasida qo‘llanadi. Shuning uchun 是 fe’lini faqat ot-ma’noli predikativlar bilan ishlatish kerakligi putunxua grammatikasining asosiy qoidasidir.

成为 (chéngwéi) – *“...ga aylanish, ...bo‘lish”* ma’nosini bildiruvchi bog‘lovchi fe’l. 成为 dinamik kopula bo‘lib, subyektning boshqa bir holatga, kasbga yoki turmush tarziga o‘tganini anglatadi. U egani yangi sifatida yoki maqomda tasvirlaydi. Misol uchun: “他成为一个科学家了” (Tā chéngwéi yí gè kēxuéjiā le) – *U olim bo‘lib qoldi/yangi olimga aylandi*. Bu gapda 成为 fe’li “bo‘ldi” ma’nosida qo‘llanib, subyektning holati o‘zgarganini ko‘rsatmoqda. 成为 fe’li odatda o‘zidan keyin obyekt (predikativ nom) talab qiladi, ya’ni kim yoki nima bo‘lib qolganini bildiradigan so‘z bo‘lishi lozim. Masalan, “多年后，她成为了公司经理” (Duōnián hòu, tā chéngwéi le gōngsī jīnglǐ) – *Ko‘p yillar o‘tib, u kompaniya menejeri bo‘ldi*. 成为 rasmiyroq uslubda ishlatiladi; so‘zlashuvda uning 变成 (biànchéng) sinonimi ham qo‘llanadi.

叫 (jiào) – *“atalmoq, ... deb nomlanmoq”* ma’nosidagi bog‘lovchi fe’l. 叫 fe’li asl ma’nosi *“chaqirmoq”* bo‘lsa-da, ism va laqablarni aytishda *“... deb atalmoq”* mazmunida bog‘lovchi vazifasida xizmat qiladi. Uning tuzilishi: Subyekt + 叫 + [ism]. Masalan: “我叫阿里” (Wǒ jiào Alǐ) – *Mening ismim Ali*, “这只猫叫咪咪” (Zhè zhī māo jiào Mīmi) – Bu mushuk Mimi deb ataladi. Ko‘rinib turibdiki, bu fe’l doimo o‘zidan keyin nom kelishini talab qiladi – odatda, shaxs ismi, joy nomi, laqab yoki termin bo‘lishi mumkin. 叫 fe’li bilan “X deb ataladi” shaklidagi gaplar tuziladi. Masalan, “这种现象叫做‘语言迁移” (Zhè zhǒng xiànxiàng jiàozuò “yǔyán qiānyí”) – Bu hodisa “til ko‘chishi” deb ataladi – bu yerda 叫做 shakli ishlatilib, ilmiy atama keltirilgan. Shuni esda tutingki, 叫 faqat nomlash ma’nosida ishlatiladi va 是 fe’li bilan ba’zan almashinma holda kelsa ham (masalan, “我是李明” va “我叫李明” ikkalasi ham “*Men – Li Ming*” degani), 叫 faqat nom va otlarga nisbatan qo‘llanadi, kengroq ma’noda tasniflash uchun ishlatilmaydi.

其他 bog‘lovchi fe’llar (boshqalar). Yuqorida ko‘rsatilgan uch fe’l bilan bir qatorda, putunxua tilida ba’zi boshqa fe’llar ham bog‘lovchi vazifasini bajaradi yoki shu vazifaga yaqin ishlatiladi:

姓 (xìng) – *“familiyasi ... bo‘lmoq”* ma’nosida ega va familiya orasini bog‘lovchi fe’l. Masalan, “他姓王” (Tā xìng Wáng) – *Uning familiyasi Van* – bu gapda 姓 fe’li *“... familiyasiga ega”* degan kopulativ mazmun beradi. Xitoy tilida ism (名) va familiyani (姓) aytishda 姓 fe’li bog‘lovchi tarzda ishlatiladi: 你姓什么？ (Nǐ xìng shénme?) – *Sizing familiyangiz nima?* – bu yerda 姓 “familiya qanday atalishini” so‘rayotganini ko‘rsatadi.

叫做/叫作 (jiàozuò) – *“... deb atalmoq/nomlanmoq”*. Bu, asosan, 叫 fe’lining to‘liq shakli bo‘lib, rasmiyroq uslubda ishlatiladi. Ko‘proq hayvonlar, narsalar, hodisalar nomini atashda uchraydi. Masalan: “这种植物叫做薰衣草” (Zhè zhǒng zhíwù jiàozuò xūnyīcǎo – *Bu o‘simlik “lavanda” deb ataladi*). 叫做 va 叫 ma’no jihatidan o‘xshash, lekin 叫做 ko‘pincha *“... deb ataladi”* tarzida tarjima qilinadi.

算 (suàn) – *“deb hisoblanmoq, sanalmoq”*. 算 o‘zi *“hisoblamoq”* degan fe’l bo‘lsa-da, “算是” birikmasida bog‘lovchi ma’noni beradi: “算是” – *“... deb hisoblash mumkin”* yoki *“... ga kira oladi”* degan modallikni bildiradi. Masalan, “这次比赛算是成功了” (Zhè cì bǐsài suànshì chénggōng le) – *Bu safargi musobaqani muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin*. Bu yerda 算是 bog‘lovchi-fe’liy

konstruksiya bo‘lib, natijani baholash ma’nosini beradi.

属于 (shǔyú) – *“tegishli bo‘lmoq, ...ga mansub bo‘lmoq”*. Bu fe’l ham ega bilan uning mansub bo‘lagi orasida bog‘liqlikni ifodalaydi. Masalan: “这个地区属于热带气候” (Zhège dìqū shǔyú rèdài qìhòu) – *Bu hudud tropik iqlimga mansub* – ya’ni bog‘lovchi tarzda *“kiradi”* ma’nosini beradi.

变成 (biànchéng) – *“...ga aylanish”* ma’nosida 成为 ga sinonim fe’l. 变成 ko‘proq ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarishlar uchun ishlatiladi: “毛毛虫变成蝴蝶。” (Máomaochóng biànchéng húdié) – *Kapalak qurtchadan kapalak bo‘lib o‘zgardi*. Bu yerda 变成 fizik o‘zgarishni ifodalovchi bog‘lovchi fe’l. Formal uslubda 成为 afzal ko‘rilsa, og‘zaki nutqda 变成 juda keng tarqalgan.

Yuqoridagi fe’llarning barchasi putunxua tilida bog‘lovchi yoki yarim-bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Ular yordamida tenglik (是), aylanish (成为/变成), nomlash (叫/叫做/称为), mansublik (属于), hisoblash (算是) kabi predikativ munosabatlar ifodalanadi. Quyida ushbu fe’llarning grammatik qurilishi va xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi.

Grammatik tahlil va ularning sintaktik xususiyatlari. Predikativ tuzilma va bog‘lovchi fe’lning joyi. Putunxua tilida sodda gap tarkibida bog‘lovchi fe’l, odatda, ega (ega, odatda, gap boshida) va predikativ bo‘lak (gap oxirida) orasida keladi. Umumiy formula: Ega + bog‘lovchi fe’l + predikativ. Misol uchun, “X 是 Y。” tuzilmasi X Y-dir degan ma’noni beradi. Predikativ bo‘lak ot bo‘lsa, 是 qo‘llanadi; predikativ sifat bo‘lsa, 是 ishlatilmaydi – sifatning o‘zi kesim bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan “他是学生” misolida 他 – ega (*u*), 是 – bog‘lovchi fe’l, 学生 – predikativ nom (*talaba*). Biroq “他高” (Tā gāo) – *U bo‘ychan*) jumlasida 高 (*baland*, *bo‘ychan*) – sifat bevosita kesim bo‘lib keldi va orada 是 yo‘q. Bu grammatik farq muhim: putunxua tilida sifatli kesimlar bog‘lovchi fe’l talab qilmaydi, chunki sifat so‘zlar “fe’l-sifat” (xingrongci) sifatida mustaqil ravishda predikat bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hopper S., Trouggott E. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 322 p.

2. James Huang. Logical Relations in Chinese and the Theory of Grammar. – New York: Garland publishing, 1998. – 435 p.

3. John Lyons. Introduction to Theoretical Lingustics. – London: Cambridge University press, 1968. – 519 p.

4. Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. – М., 1954. – 262 с.

5. Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. – 318 с.

6. https://human.libretexts.org.

7. https://articles.mangolanguages.com.

8. https://goaravetisyan.ru/uz.

Анна ШЕРЕМЕТЬЕВА,
Доктор филологических наук, профессор Национального университета Узбекистана,

Севара ОЧИЛОВА,
Магистр Национального университета Узбекистана
ochilovasevara99@gmail.com

МОРФОНОЛОГИЯ РУССКОГО ОТАДЪЕКТИВНОГО ФОРМО- И СЛОВООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: в данной статье рассматриваются морфонологические особенности формо- и словообразования имен прилагательных в русском языке, также вариативность производящей основы, происходящая в этих процессах.

Ключевые слова: *морфонология, морфонологические явления, тип варианта основы, формообразование, словообразование, вариативность.*

Annotation: this article examines the morphological features of the form and word formation of adjectives in the Russian language, as well as the variability of the generating base occurring in these processes.

Key words: *morphology, morphological phenomena, type of base variant, form formation, word formation, variability.*

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilidagi sifatlarning shakl va so‘z shakllanishining morfologik xususiyatlari, shuningdek, ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan ishlab chiqarish asosining o‘zgaruvchanligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *morfonologiya, morfonologik hodisalar, asos variantining turi, shakllanish, so‘z shakllanishi, o‘zgaruvchanlik.*

Морфонология играет важную роль в русском словообразовании, определяя взаимодействие морфем и фонем при создании новых слов. Особый интерес представляет морфонологический анализ отадъективного словообразования, то есть процессов формирования слов на базе прилагательных. Исследование морфонологических закономерностей, сопровождающих образование новых частей речи от прилагательных, позволяет глубже понять структуру и динамику русского языка.

Основы морфонологии заложил И.А.Бодуэн де Куртенэ, объясняя фонетические изменения влиянием морфологии. Он изучал изменчивость основ слов в индоевропейских языках, рассматривал формо- и словообразование и ввел понятие палеофонетических альтернаций. Морфонология представлялась важной особенностью русского языка, отличающей его от других родственных языков.

В 1920-30-е годы Н.С. Трубецкой создал морфонологию как самостоятельную дисциплину, обосновав её цели, задачи и описав систему русского языка. Однако взгляды на морфонологию, её предмет и единицы различаются, что связано с различиями в понимании фонологии и морфологии в разных лингвистических школах. Так, представители Пражского лингвистического кружка, занимались фонологией и после переносили полученные теоретические выводы в проблематику общего языкознания. Также наблюдались и схожие черты между школами: представители Казанской лингвистической школы и ПЛК при изучении разграничивали звук от фонемы и буквы. Исключительно теорией занимались лингвисты копенгагенской школы, ими была выдвинута идея предельной простоты описания теории.

Одним из первых, кто обратился к изучению прилагательного, был А.Х.Востоков («Русская грамматика» 1831). В.В. Виноградов в своей работе 1947 года дал полное описание морфологии русского языка, включая морфологию прилагательного, и сформулировал определение, ставшее основой для дальнейших исследований. Изучению прилагательного посвящены работы А.А. Потебни, Л.В. Щербы, А.М. Пешковского и др. Они исследовали особенности прилагательного и предлагали его определения.

«Русская грамматика» (1980) объединяет формо- и словообразовательные морфонологические явления, поскольку для них характерны одни и те же процессы.

Имя прилагательное, как знаменательная часть речи, обозначает признак предмета и обладает развитой парадигмой. Парадигма имени прилагательного включает 32 словоформы: формы единственного числа (3 рода, 6 падежей), множественного числа (6 падежей), сравнительной и превосходной степеней, а также краткие формы.

Система форм прилагательных характеризуется сложным сочетанием морфологических и фонологических закономерностей. Парадигма демонстрирует различные морфонологические явления, особенно

при образовании сравнительной степени, где наблюдаются альтернации и комбинированные морфонологические варианты. Морфонологический анализ адъективных словоформ позволяет выявить ключевые закономерности их структурной организации.

Для анализа парадигматики и деривации с учетом морфонологических изменений целесообразным представляется выбор одного прилагательного – близкий. Морфологическая парадигма имени существительного включает в состав формы склонения мужского, среднего и женского родов единственного и множественного чисел, формы сравнительной степени и краткие формы трех родов и единственного и множественного чисел. Представим парадигму с помощью таблицы:

Формы склонения				
Падежи	Ед.ч.			Мн.ч.
	М.р.	Ж.р.	Ср.р.	
И.п.	Бли͡зк'ий	Бли͡зкая	Бли͡зкое	Бли͡зк'ие
Р.п.	Бли͡зкого	Бли͡зкой	Бли͡зкого	Бли͡зк'их
Д.п.	Бли͡зкому	Бли͡зкой	Бли͡зкому	Бли͡зк'им
В.п.	Бли͡зкого	Бли͡зкую	Бли͡зкого	Бли͡зк'их
Т.п.	Бли͡зк'им	Бли͡зкой	Бли͡зк'им	Бли͡зк'ими
П.п.	Бли͡зком	Бли͡зкой	Бли͡зком	Бли͡зк'их
Формы сравнительной степени				
		Простая форма	Составная форма	
Сравнительная степень		Бли͡же	Более/менее бли͡зк'ий	
Превосходная степень		Ближа́йший	Самый бли͡зк'ий	
Краткие формы				
		Муж.род	Жен.род	Ср.род
Ед.число		Бли͡зок	Близка́	Бли͡зко
Мн.число		Близк'и͡		

В рамках проведенного анализа формообразования нами выявлены следующие закономерности:

При формообразовании имен прилагательных в падежных формах трех родов и множественного числа, в большинстве случаев, сохраняется «нулевой» тип основы, в редких случаях, встречается чередование мягкого и твердого фонем;

При образовании форм сравнительной степени можно наблюдать чередование звуков в основе, что объясняется историческими грамматическими особенностями, также наблюдается изменение места ударения и усечение основы производящего слова;

При образовании кратких форм имен прилагательных чаще всего происходит наращение производящей основы, в других случаях сохраняется «нулевой» тип.

Словообразовательный анализ производных на базе прилагательного близкий показал следующее:

На 1 ступени СО:		На 2 ступени СО:
Имена существительные	бли́зк'-ие, бли́з-ость, близь	бли́жн-ий (сущ): СВ нулевой неблизк-ие (сущ): СВ нулевой приблизи́тельн-ость: СВ нулевой
Имена прилагательные	близ'-е́нек, бли́ж-н-ий, не-бли́зк'ий, близк-о-ро́дств-енн-ый	ближн-е-восто́ч-н-ый: СВ нелинейный (изменение места ударения).
Наречия	бли́зк-о, в-близ'-и́, в-близь, и́з-близ'-и	неблизк-о: СВ нелинейный, альтернационный (обратное чередование к'–к) приблизи́тельн-о: СВ нулевой
Глаголы	бли́з'-и-ть-ся, при-бли́з'-ить	

Отадъективное словообразование отличается своей широкой возможностью образовывать слова фактически всех знаменательных частей речи. От имен прилагательных образуются имена существительные,

глаголы, наречия и прилагательные. В процессе адъективного словообразования, в особенности, на первой ступени словообразования встречается широкий спектр морфонологических явлений. При этом основа претерпевает различные изменения, даже в тех случаях, когда мы фиксируем «нулевой» тип основы, когда формальных изменений не наблюдается, семантика слова подвергается трансформации. Эта трансформация на лексическом уровне выводит слово на новый уровень значения. Материал словообразовательных адъективных гнезд привел к следующим выводам:

От имен прилагательных образуются, с большей вероятностью, наречия, далее имена существительные, следующие по количеству, отадъективные имена прилагательные, и меньшее количество – это глаголы:

При образовании имен существительных иногда происходит субстантивация имен прилагательных. Часто появляется альтернационный тип варианта основы с чередованием звуков и, реже, акцентный – меной ударения. Здесь также встречаются морфонологические явления в комплексе: усечение основы и изменение места ударения;

При образовании отадъективных прилагательных наблюдается чередование звуков и изменение места ударения, чаще они идут в комплексе;

Образование глаголов от имен прилагательных хоть и встречается, но при этом имеют место морфонологические изменения основы. Так, чаще наблюдается усечение основы и чередование звуков, реже изменение места ударения и чередование звуков в комплексе;

При образовании отадъективных наречий происходит чередование мягких и твердых звуков, изменение места ударения, наблюдается также нулевой тип основы.

Отадъективное словообразование в русском языке сопровождается широким и весьма разнообразным набором морфонологических изменений. Словообразование, приводящее к формированию различных частей речи (существительных, глаголов, прилагательных и наречий), характеризуется более высокой степенью морфонологической вариативности по сравнению с формообразованием имени прилагательного.

Список использованной литературы:

1. Востоков А.Х. Русская грамматика Александра Востокова, по начертанию его же сокращенной грамматики полнее изложенная. СПб., 2002. 408 с.

2. Русская грамматика. В 2х томах – М.: Наука, 1980, Т I., с.413

3. Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка, В 2 т. – М.: Рус. яз., 1985

Елена ПОПОВА,
Кокандский государственный университет доцент

ПРИЕМЫ ОСВОЕНИЯ СТУДЕНТАМИ-ИНОФОНАМИ ПЕРЕНОСНОГО УПОТРЕБЛЕНИЯ ВИДОВРЕМЕННЫХ ФОРМ РУССКОГО ГЛАГОЛА

Аннотация: в статье рассматриваются приемы знакомства студентов-инофонов с механизмом функционирования видовременных форм русского глагола. Определяется роль семантики глагола, темпоральных уточнителей в переносном употреблении видовременных форм. Выясняются условия транспозиционного употребления видовременных форм в речи. Описываются особенности работы с текстом при изучении переносного употребления глагольного времени, предлагаются грамматико-стилистические задания, способствующие развитию навыков использования средств грамматической образности.

Ключевые слова: *функционально-стилистическая направленность обучения, видовременные формы, транспозиция, темпоральное значение контекста, грамматико-стилистические средства.*

Annotatsiya: maqolada chet ellik talabalarni rus fe'lining zamonaviy shakllarining ishlash mexanizmi bilan tanishtirish usullari muhokama qilinadi. Zamonaviy shakllarning majoziy qo'llanilishida fe'l semantikasi, vaqtinchalik aniqlovchilarning roli aniqlanadi. Nutqda zamonaviy shakllardan transpozitsion foydalanish shartlari aniqlanadi. Og'zaki zamonning majoziy ishlatilishini o'rganishda matn bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi, grammatik tasvir vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan grammatik va stilistik vazifalar taklif etiladi

Kalit so'zlar: *ta'limning funksional va stilistik yo'nalishi, zamonaviy shakllar, transpozitsiya, kontekstning vaqtinchalik ma'nosi, grammatik va stilistik vositalar.*

Annotation: the article discusses the methods of introducing students of foreign languages to the mechanism of functioning of modern forms of the Russian verb. The role of verb semantics and temporal qualifiers in the figurative use of modern forms is determined. The conditions of the transpositional use of modern forms in speech are clarified. The features of working with text in the study of figurative use of the verb tense are described, grammatical and stylistic tasks are proposed that contribute to the development of skills in using the means of grammatical imagery.

Key words: *functional and stylistic orientation of education, types of temporal forms, transposition, temporal meaning of the context, grammatical and stylistic means.*

Введение**.** Обучение студентов - инофонов педагогических специальностей русскому языку сталкивается с объективными трудностями, вызванными сложностью системы русского языка. Одной из таких сложностей, безусловно, является освоение переносного употребления глагольных категорий. Решение этой проблемы входит в задачи современного образования и требует применения специально разработанной технологии обучения. Особую актуальность работа со случаями переносного употребления грамматических форм приобретает в аудитории иноязычных студентов, так как восприятию в этом случае препятствует не только «языковой барьер», но и ограниченность транспозиции глагольных форм в родном языке. Мало того, частные значения, приобретающие необычное для инвариантной формы выражение, становятся непонятны учащимся.

Наблюдения над употреблением одних глагольных форм в значении других позволяют ввести понятие «грамматические синонимы», что важно в передаче содержания высказывания в соответствии с задачей и целью речевого общения.

Цель исследования – рассмотрение приемов освоения студентами случаев переносного употребления видовременных форм русского глагола, осуществления замены одной грамматической формы или конструкции другой, синонимичной; анализ смысловых и стилистических особенностей полученных высказываний.

Материалы и методы исследования**.**

В статье применен описательный метод, сравнительный метод. Материалом для исследования послужили контексты, извлеченные из художественных произведений и разговорной речи.

Результаты и их обсуждение**.**

Всесторонний анализ изучаемых языковых явлений, ознакомление учащихся не только с общими, но и с частными значениями грамматических форм и категорий строится с учетом модели «значение

– форма - функция». При организации грамматико-стилистической работы полезно знакомство с переносным употреблением видовременных форм как средством обогащения речи, поскольку оно связано с возникновением и передачей в высказывании различных значений, которые квалифицируются как модальные. Возникновение модальных оттенков значений связано в глагольных формах с противоречием, возникающим при переносном употреблении между прямым значением формы и реальным контекстом. Перенос любой глагольной формы в противоречащий временной контекст со значением конкретного события делает противопоставление двух временных планов особенно выразительным. Реальный временной план события определяется контекстом, при этом событие «как бы» совершается, согласно временному признаку формы. Необходимо различать, с одной стороны, то, что выражается контекстом, а с другой стороны, что выражается самой формой. Реализация собственного категориального значения грамматической формы в условиях контекста трактуется как «одно из проявлений свойства обязательности, присущего морфологическим категориям в языках флективно-синтетического типа: значение формы обязательно должно быть выражено, даже в тех случаях, когда оно противоречит значению контекста» [1, с.96].

На реализацию значения грамматической формы могут воздействовать различные элементы контекста: темпоральные уточнители, лексическое окружение, семантика самой глагольной формы, синтаксическая структура предложения. Трудность состоит в невозможности однозначно сформулировать контекстные условия, в которых исходное значение всегда заменялось бы соответствующим частным и только им. Контекст актуализирует в процессе коммуникации то один, то другой элемент своего потенциала, определенные их комбинации, соответствующие требованиям выражаемой мысли. Однако, если переносное употребление временных форм рассматривать в системе, можно выявить закономерности речевой реализации любой временной формы и учитывать их в практике обучения русскому языку.

Annotatsiya: maqola XXI asrning global muammolari sharoitida zamonaviy adabiyotning ijtimoiy tanqid vositasi sifatidagi rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Iqtisodiy tengsizlik, madaniy mojarolar, texnologiyaning ta’siri va ekologik inqirozlar kabi asosiy mavzular zamonaviy mualliflarning asarlari obyektivi orqali ko‘rib chiqiladi. Adabiyotning nafaqat jamiyatning dolzarb muammolarini aks ettirish, balki ularni hal qilish yo‘llarini taklif qilish qobiliyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tanqid, XXI asr adabiyoti, iqtisodiy tengsizlik, texnologik qaramlik, ekologik inqirozlar, globallashuv, madaniy mojarolar, ekopoetika, zamonaviy mualliflar, ijtimoiy tengsizlik.*

Annotation: the article is devoted to the analysis of the role of modern literature as a tool of social criticism in the context of global challenges of the 21st century. Key topics such as economic inequality, cultural conflicts, the impact of technology, and environmental crises are examined through the lens of works by contemporary authors. Special attention is paid to the ability of literature not only to reflect current problems of society, but also to suggest ways to solve them.

Key words: *social criticism; literature of the 21st century; economic inequality; technological dependence; environmental crises; globalization; cultural conflicts; eco-ethics; modern authors; social inequality.*

Литература всегда была не только искусством слова, но и мощным инструментом для анализа и критики общества. С древних времен писатели использовали свои произведения, чтобы поднять острые вопросы о социальной несправедливости, неравенстве и человеческих ценностях. В XXI веке, когда мир сталкивается с новыми вызовами – от глобализации до экологических кризисов, – литература продолжает играть ключевую роль в осмыслении этих проблем.

Социальная критика в литературе – это не просто описание недостатков общества, но и попытка понять их причины, а также предложить возможные пути решения. Как отмечает исследователь Ю.М. Лотман, «литература всегда была связана с поиском высшего смысла бытия, а ее герои часто оказываются на грани между жизнью и смертью, между светом и тьмой» [1]. Именно эта способность литературы заглядывать за пределы обыденного делает её особенно эффективной в роли критика общества.

В современной литературе темы социальной критики приобретают новые формы и оттенки. Авторы XXI века исследуют такие проблемы, как экономическое неравенство, миграция, влияние технологий на человека и экологические катастрофы. Например, роман «The Circle» Дэйва Эггерса анализирует последствия тотального контроля и утраты приватности в цифровую эпоху, а «Прощай, планета» Джонатана Сафрана Фоера размышляет о потребительском отношении к природе. Эти произведения становятся не только зеркалом современного мира, но и призывом к действию.

Экономическое и социальное неравенство – одна из самых острых проблем современного общества, которая активно исследуется в литературе XXI века. Авторы используют свои произведения, чтобы показать, как неравенство влияет на жизнь отдельных людей и целых сообществ, подчеркивая несправедливость системы и её разрушительные последствия.

Одним из ярких примеров является роман «Ка-

питал во Франции» Эмманюэля Каррера. В центре повествования – история семьи, чья жизнь оказывается разрушенной из-за экономического кризиса. Автор мастерски показывает, как классовые различия приводят к глубоким социальным противоречиям. По мнению исследователя М. Бартони, «Каррер использует личные трагедии своих героев, чтобы выявить системные проблемы капитализма» [1]. Это делает его произведение не только художественным текстом, но и социальным комментарием.

Ещё один значимый пример – роман «Дни нашей жизни» Джейн Смайли, который исследует тему сельскохозяйственной деградации и борьбу мелких фермеров за выживание в условиях крупного агробизнеса. Автор подчеркивает, как экономические реформы и глобализация уничтожают традиционные ценности и способы жизни. Как отмечает экономист Р. Дорфман, «литература вроде произведений Смайли помогает понять, как капитализм создает маргинализированные группы, которые теряют связь с землей и своим прошлым» [2].

Через эти произведения авторы не только описывают последствия неравенства, но и ставят важные вопросы: возможно ли построение более справедливого общества? Какие шаги необходимо предпринять для преодоления социальных барьеров? Таким образом, литература становится не просто отражением реальности, но и инструментом для её переосмысления.

Миграция и культурные конфликты – одни из ключевых тем современной литературы, особенно в условиях глобализации. Авторы исследуют, как столкновение культур, идентичностей и традиций формирует новые социальные вызовы и проблемы.

Примером может служить книга «Американская борьба» Та-Нехизи Коутса, которая анализирует расизм и борьбу афроамериканцев за права в современном обществе. Коутс показывает, как исторические травмы продолжают влиять на современные поколения, создавая барьеры между людьми разных культур. Исследователь К. Льюис пишет: «Произведения Коутса – это не просто рассказ о расизме, но и попытка переосмыслить американскую идентичность через призму миграции и угнетения» [3].

Другой яркий пример – роман «Молочная федерация» Анны Бернс, где автор исследует конфликт между традициями и современностью на фоне политической нестабильности. Героиня романа сталкивается с давлением общества, которое требует от неё соответствовать устоявшимся нормам, несмотря на её стремление к свободе. По словам критика Д. Хиггинса, «Бернс использует свой текст, чтобы показать, как культурные конфликты усиливаются в условиях глобализации, когда старые ценности сталкиваются с новыми» [4].

Технологический прогресс, ставший одной из ключевых характеристик XXI века, неизбежно отразился в литературе как источник социальной критики. Авторы исследуют, как цифровизация, социальные сети и искусственный интеллект меняют человеческую жизнь, создавая новые формы зависимости, утраты приватности и даже дегуманизации.

Одним из ярких примеров является роман «The Circle» Дэйва Эггерса, где автор анализирует последствия тотального контроля и прозрачности в цифровую эпоху. Главная героиня, Мэй Холланд, начинает работать в корпорации The Circle, которая продвигает идею полной открытости и доступности информации. Однако постепенно она сталкивается с тем, что эта «прозрачность» приводит к утрате личных границ и свободы. Как отмечает исследователь К. Ланье, «Эггерс показывает, как технологии, призванные улучшить жизнь, могут стать инструментом подавления личности и контроля над обществом» [13]. Этот роман становится предостережением о том, как цифровые технологии могут изменить нашу жизнь до неузнаваемости.

Через эти произведения авторы не только критикуют современные технологии, но и ставят важные вопросы: где грань между удобством и зависимостью? Как сохранить человечность в мире, где технологии становятся всё более влиятельными? Таким образом, литература становится площадкой для обсуждения последствий технологической революции.

Экологические кризисы, ставшие одной из ключевых глобальных проблем XXI века, нашли отражение в современной литературе через жанр экопоэтики. Авторы исследуют последствия человеческой деятельности на природу, подчеркивая взаимосвязь экологических и социальных проблем. Литература становится площадкой для осмысления экологической

Через эти произведения авторы не только критикуют современное общество, но и предлагают новые способы мышления. Литература становится инструментом для переосмысления роли человека в природе и поиска путей к более устойчивому будущему.

Литература XXI века продолжает играть ключевую роль в анализе и критике общества. Через

произведения современных авторов мы видим отражение самых острых проблем нашего времени: экономическое неравенство, культурные конфликты, технологическую зависимость и экологические кризисы. Как отмечает исследователь Ю.М. Лотман, «литература всегда была связана с поиском высшего смысла бытия, а её герои часто оказываются на грани между жизнью и смертью, между светом и тьмой» [17]. Именно эта способность литературы заглядывать за пределы обыденного делает её особенно эффективной в роли критика общества.

Современные авторы не просто описывают проблемы, но и предлагают пути их решения. Например, книги вроде «The Circle» Дэйва Эггерса или «Прощай, планета» Джонатана Сафрана Фоера становятся предостережением о последствиях бездумного прогресса. Они вдохновляют читателей задуматься о будущем и принять активную позицию в решении глобальных проблем.

Таким образом, литература остаётся важным инструментом социальной критики, помогая нам лучше понять сложности современного мира и представить возможные пути его улучшения. Она не только отражает реальность, но и формирует её, предлагая новые идеи и вызывая к действию.

Список литературы

1. Лотман Ю.М. «Семиосфера». – СПб.: Искусство-СПБ, 2000.
2. Eggers D. The Circle. – New York: Alfred A. Knopf, 2013.
3. Foer J.S. We Are the Weather: Saving the Planet Begins at Breakfast. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2019.
4. Carrère E. Le Royaume. – Paris: P.O.L., 2014.
5. Smiley J. A Thousand Acres. – New York: Alfred A. Knopf, 1991.
6. Coates T-N. Between the World and Me. – New York: Spiegel & Grau, 2015.
7. Burns A. Milkman. – London: Faber & Faber, 2018.
8. Kidukal M. Sapiens: A Graphic Novel. – London: Penguin Books, 2020.
9. Rooney S. Beautiful World, Where Are You. – London: Faber & Faber, 2021.
10. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

Nilufar MUMINOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti.

Zerda NOSIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

O‘YIN TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi ta’kidlab o‘tilgan. Didaktik o‘yinlarning o‘quvchilar faolligini oshirish va dars jarayonida ularning diqqatini jamlashdagi o‘rni, shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashda katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq, yozma nutq, mantiqiy fikrlash, savodxonlik, o‘yin, didaktik o‘yin.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается эффективность использования игр в образовательном процессе для развития речевых способностей учащихся начальных классов. Охарактеризована роль дидактических игр в повышении активности учеников и концентрации их внимания в ходе урока, а также важность игр в побуждении учащихся к независимому мышлению

Ключевые слова: *речь, письменная речь, логическое мышление, грамотность, игра, дидактическая игра.*

Annotation: this article emphasizes the effectiveness of using games in the educational process to develop the speech abilities of primary school students. It highlights the role of didactic games in increasing students’ activity and focusing their attention during lessons, as well as their significant importance in encouraging students to think independently.

Key words: *speech, written speech, logical thinking, literacy, game, didactic game.*

O‘quvchi nutqini o‘stirish, avvalo, o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘z ustida ko‘p ishlasa, olib borayotgan faoliyatining samarasi tezroq ko‘rina boshlaydi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta’limini tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya – bu o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini amalga oshirish uchun ko‘zlagan natijaga erishishda eng qulay yo‘l va usullarni tanlash hamda ishlab chiqish mahoratidir.

Bola hayotida maktabgacha ta’limdan so‘ng maktabning dastlabki davri muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga uning dunyoqarashi shakllanadi, nutq boyligi oshadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning nutqini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli va ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan farqlanadi[3].

Boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish uchun avvalo, ularning og‘zaki nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish lozimdir. Ona tili darslarida o‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki va yozma nutqda ifodalash xususiyatiga ega. Og‘zaki nutq ko‘pincha yozma nutqqa qaraganda ancha rivojlangan bo‘ladi.

Boshlang‘ish sinflarda o‘quvchilarni yangi mavzuni o‘rganish jarayonida toliqish, charchash, nazariy bilimlarni anglay olmaslik kabi salbiy holatlarga tushib qolishlarining oldini olish maqsadida tez-tez charchoqyozdi mashg‘ulotlari o‘tkaziladi yoki nazariy bilimlarni o‘yinlar orqali o‘quvchilar ongiga singdirish usullaridan foydalaniladi. O‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish jarayonida qo‘llanadigan, ya’ni ta’limga qaratilgan har qanday o‘yinlar didaktik o‘yinlar hisoblanadi.

O‘yin topshiriqlar nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki ta’limning keyingi bosqichlarida ham o‘quvchilarning bilimiga bo‘lgan ehtiyojlari rivojida katta turtki bo‘ladi. O‘quvchilarga tayyor bilimni beribgina qolmay, ko‘proq ularni o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga, nutqini o‘stirishga undaydigan savollar, topshiriqlar berib borish orqali ta’lim-tarbiyaning samarasini yanada ko‘proq oshirish mumkin. Olib borilayotgan dars mashg‘ulotlari sodda va qiziqarli o‘yin tarzida olib borilsa, samarasi juda yuqori bo‘ladi.

Ma’lumki, kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. Mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llaniladigan ta’limiy o‘yinlar mavzularni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va samarali bilim berishda hamda o‘quvchi faolligini oshirishda o‘ziga xos o‘ringa egadir.

Ta’lim jarayonida uyushtiriladigan o‘yin topshiriqlar ham o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki ta’lim beruvchi faoliyati sifatida qarash lozimdir.

Xususan, o‘qituvchi didaktik o‘yinlarga tayyorgarlik jarayonida quyidagi talablarga rioya qiladi:

- tanlagan didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning yoshi va saviyasiga mos bo‘lishi;
- har bir o‘yin pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo‘lishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam berishi;

- bir xildagi o'yinlarning ko'p takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- o'yin yakunida g'olib va bilimdon o'quvchilarning rag'batlantirilib borilishi[1].

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlar juda ham ko'p. Didaktik o'yinlar orasidan o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga xizmat qiladigan turlarini keltirib o'tamiz.

"Futbol" o'yini.

Bu o'yinda o'qituvchi koptokni o'zi xohlagan o'quvchiga otadi va Vatan degan so'zni aytadi. Koptokni ilib olgan o'quvchi koptokni o'qituvchiga qaytarib otadi va doskaga chiqib, doskada Vatan so'zini yozadi. O'yin shartiga ko'ra o'quvchi aytilgan so'zni tez va xatosiz yozishi kerak. Bu o'yinning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'yin jarayonida o'quvchi aytilgan so'zni tafakkur qilish orqali qisqa vaqt ichida qanday yozilishi lozimligi haqida xulosa chiqaradi. Natijada, o'quvchining og'zaki nutqni yozma nutqqa aylantirish mahorati, tafakkur qilish qobiliyati, imlo savodxonligi oshiriladi.

"U kim? Bu nima?" o'yini.

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasiga ta'rif beradi, o'quvchilar ta'rif asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar va daftarlariga yozadilar. O'qituvchi tomonidan bir necha predmetga ta'rif berilgandan so'ng yozma topshiriq tekshiriladi, xatolar bartaraf etiladi. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, so'z ma'nolari ustida ishlash yoki yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi.

"Bo'lishi mumkin emas" o'yini.

O'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazil-mutoyiba bilan o'tadigan bu o'yin boladan hozirjavoblik, topqirlik va kuzatuvchanlikni talab qilish bilan birga, hikoya tinglash ko'nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi. O'yin bir necha marta o'tkazilgandan so'ng o'quvchilar o'zlari mustaqil hikoyalar tuza boshlaydilar. Buning natijasida o'quvchilarning lug'at boyligi kengayadi. Bu o'yindan Abdulla Avloniyning "Yaxshilik yerda qolmas" hikoyasini o'tayotganda darsni mustahkamlash qismida foydalaniladi. Masalan:

1-variant. Ari suvda suzib ketayotganda uni uchib ketayotgan mushuk ko'rib qoldi. Bola fikrlay boshlaydi, ya'ni ari suvda suza olmaydi chunki qanotlari uchishga moslashgan. Mushukning esa qanotlari yo'q, uning ko'zi, qulog'i, qo'l-oyog'i, dumi, boshi bor, ammo u yuradi.

2-variant. Tuzoq qo'ygan bolaning qulog'ini tovuq tishlab oldi. Buni ko'rgan baliq kaptarni cho'qib oldi.

Bolalar o'z bilimlariga tayanib fikrlaydilar va topshiriq shartiga ko'ra daftarlarida hikoyaning to'g'ri variantini yozadilar. Kaptarning tishi yo'q, u cho'qiy oladi, qanoti, oyog'i, yana bir necha a'zolari bor. Baliq esa faqat suv bilangina tirik, u quruqlikka o'rgana olmaydi. Uni dengiz yoki ko'llarda, akvariumlarda, daryolarda uchratishimiz mumkin. Bu o'yin o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga yozma nutqini oshirishga olib keladi.

"Davom ettir" o'yini.

1-variant: Bahor! Tevarak-atrof… .

2-variant: Navro'z bayrami arafasida … .

3-variant: Bahor kelgach, ….

Ushbu o'yinni o'quvchilar bilan guruh holda yoki yakka tartibda o'tkazsa ham bo'ladi. Agar guruh holda bo'lsa, uchta guruh a'zolari davom ettirishlari kerak. Masalan, 1-variant Bahor! Tevarak-atrof yashillikka burkangan. Gullar ifori inson qalbining go'zallikka bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi.

2-variant. Navro'z bayrami arafasida hamma joyda bayramga tayyorgarlik ishlari qizib ketadi. Daraxtlar oqlanadi, ariqlar qazib, yangi nihollar ekiladi.

3-variant. Bahor kelgach, butun bir tabiat uyg'onadi. Quyoshning zarrin nuriga talpinadi… Yana davom ettirish mumkin.

Eng so'ngida esa o'qituvchi ularning fikrlarini o'zlariga chiroyli tarzda aytib berishi yoki xohlovchi o'quvchini hikoya tarzida bayon etishiga ruxsat berishi mumkin. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchilar yozma nutqini o'stirish va o'z fikrini yoza olishiga o'rgatishdir.

Yuqoridagi didaktik o'yinlardan to'g'ri foydalana bilish kerak. Albatta, dars loyihalanayotganda mavzuga mos didaktik o'yin tanlab olinib, ishlab chiqiladi va dars mashg'uloti jarayonida qo'llaniladi. Agar didaktik o'yin to'g'ri tashkil etilsa, sinfdagi barcha o'quvchilar darsda faol ishtirok etadilar.

O'yinlarni samarali tashkil etish orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'quv jarayonida faol ishtirok etish orqali bilim darajalarini oshiradilar.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va didaktik o'yinlardan foydalanish, o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, o'yinlar o'quvchilarni faollashtirish, ularga mantiqiy fikrlash va nutqni ifodalash ko'nikmalarini o'rgatishning samarali vositasidir. Bu orqali o'quvchilarning o'ylash qobiliyatlari va nutqiy mahoratlari rivojlanadi, ular ta'lim jarayonida faol va ijodiy qatnashadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurillayeva Sh. Didaktik o'yinlarni o'tkazish. Boshlang'ich ta'lim, 2006.
2. Qosimova K. va bosh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.163- b.
3. G'afforova T. Boshlang'ich sinf o'qish va ona tilidan didaktik materiallar. –T.: Ilm-Ziyo, 2004.
4. Toirova M.E. Ona tili 3-sinf, Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. –T., 2023.

Saida YULDASHEVA,
Samarqand davlat chet tillari universiteti o‘qituvchisi

O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI VA TA’LIM TIZIMIDAGI YANGILIKLAR

Annotatsiya: ta’lim tizimidagi yangiliklar o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. O‘qituvchilar va talabalar uchun virtual o‘qish muhitlari, online platformalar va mobil ilovalar mavjud.

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, virtual o‘qitish muhitlari, online platformalar, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar.*

Annotation: news in the education system helps to effectively and interact the learning process. There are virtual learning environments, online platforms and mobile applications for teachers and students.

Key words: *distance learning envoys, online platforms, personal platforms, accustomed training, concepts, sources, organizational, methodological, psychological, psychological communities*

Аннотация: новости в системе образования помогают эффективно и взаимодействуют с процессом обучения. Существуют виртуальные учебные среды, онлайн -платформы и мобильные приложения для учителей и учеников.

Ключевыя слова: *посланники дистанционного обучения, онлайн -платформы, личные платформы, привычные обучение, концепции, источники, организационные, методологические, психологические, психологические сообщества.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikamizda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va ta’lim tizimidagi yangiliklar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internet imkoniyatlari bilan talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar va sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayoni shaxsiylashtirilmoqda. Online o‘qish muhitlari, masalan, video darslar va virtual xonalar, o‘z vaqtida va joyida o‘qish imkonini beradi. Innovatsion metodlar, gamifikatsiya va o‘qitish analitikasi orqali talabalar motivatsiyasi oshib, o‘qish jarayoni samarali bo‘lmoqda. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar yangi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish (pedagogik) texnologiyasi – ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida butun o‘qitish va o‘rgatish jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va baholashning tizimi bo‘lib, uning asosini ta’lim oluvchilarning berilgan sharoitlar va ajratilgan vaqt ichida o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishlarini ta’minlash g‘oyasi tashkil etadi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanadi va talabaning shaxsi – o‘quv jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’limning nazariy asoslariga quyidagilar kiradi:

- ta’lim olayotgan shaxsni rivojlantirish asosiy maqsad deb ko‘riladi va shaxsni o‘qitish jarayonidagi o‘rnini belgilaydi;
- ta’lim oluvchining shaxsini rivojlantirish va uning kasbiy shakllanishi bo‘yicha me’yoriy talablar qo‘yiladi. Ushbu me’yorlar Davlat ta’lim standartlarida va ularning talablarida o‘z aksini topadi;
- ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogning ijodiy qobiliyati va mahorati katta ahamiyatga ega;
- ta’lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari va faol metodlarni qo‘llash talab etiladi;
- tabaqalashtirilgan ta’limni rivojlantirish, chunki u talabaning o‘zini aniqlashida va rivojlanishida katta rol o‘ynaydi va keng miqyosda tatbiq etiladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga e’tibor berilishi tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish.
2. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini milliy ta’lim talablari asosida ishlab chiqish.
3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda o‘quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni baholashga alohida e’tibor beriladi. Fanni o‘qitishda o‘qituvchi-pedagogning mahoratini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va uzluksiz tarzda kuzatib borishdan iborat. Ta’lim tizimining moddiy-texnik bazasini boyitish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlashni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktika – ta’lim nazariyasi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar esa o‘quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi, shuningdek, xotirani

takomillashtiradi. Didaktik o'yin jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan, xususan, maktablarda tarbiyaviy ishlar yangicha tashkil etilib, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlar yagona "Tarbiya" fani sifatida joriy etildi. Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qaror qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lish hayotiy talablarni qo'ymoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar mamlakatimizdagi ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Tarbiya shaxsda jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Zamon talablariga ko'ra raqamli resurslar ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagi narsalarni o'z ichiga oladi:

1. Elektron kitoblar – talabalarga kerakli adabiyotlarni o'qish imkonini beradi.

2. Onlayn kurslar – masofaviy ta'lim uchun platformalar (Coursera, Udemy) orqali juda ko'plab fanlardan bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. O'qitish dasturlari – interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar va o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

4. Video darslar – YouTube va boshqa platformalarda ta'limiy kontentni taqdim etadi, bu esa mashg'ulotlarni kengaytiradi.

5. Forumlar va ijtimoiy tarmoqlar – talabalarga bilim almashish, fikr olish va guruh bilan ishlash imkonini beradi.

Raqamli resurslar ta'limni yanada samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, o'qituvchilar va talabalar uchun yangi aloqalar o'rnatadi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonida muhim o'rin tutmoqda. Interaktiv ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish va AQShning "blended learning" modeli keng tarqalmoqda.Hozirgi kunda o'quvchilar muqobil o'qitish usullarini tanlay olishlari ularning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Multimedia resurslari va virtual haqiqat ta'limni yanada qiziqarli qilish imkonini, ta'sirchanligini beradi. Onlayn forumlar va guruh ishlari o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni, jamoaviy ishlashni rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim sifatida yuqori darajada o'zgarishlar yuz berayotgani ko'rinmoqda. O'quvchilar ko'proq bilim olishmoqda, o'qituvchilar esa o'z taktikalarini yangilashga muvaffaq bo'layotganlarini ta'kidlashmoqda. O'qitish jarayonida texnologiyalarning integratsiyasi yanada samarali natijalarni taqdim etishga yordam beradi.

Xulosa. Bizga ma'lumki, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari ta'lim jarayonini yangi ufqlarga olib chiqmoqda. Yangi texnologiyalarni qo'llashda, ta'lim jarayoniga muvofiq ravishda integratsiya qilish va an'anaviy ta'lim usullarini saqlab qolish muhimdir. O'qitishning zamonaviy uslublari nafaqat bilim berish, balki innovatsion fikrlash va ijodkorlikni ham rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, ta'lim tizimida yangiliklar va texnologiyalar o'zaro uyg'unlashtirilib, kelajakdagi mutaxassislar uchun tayyorgarlik jarayonini yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nargiza A. DEVELOPMENT OF AN IMPROVED TWO-STAGE TECHNOLOGY FOR FIXING MOVING SOILS AND SANDS WITH THE USE OF A MECHANO-CHEMICAL DISPERSER / Universum: технические науки.2022. №. 11-8 (104). С. 26-29.

2. Zamirovna A. N., Tozhinorov K. T. METHODS FOR CHEMICAL RECLAMATION OF MOBILE SOILS AND SANDS USING COMPOSITION FROM LOCAL STRUCTURES //Archive of Conferences. 2021. С. 73-76.

3. Zamirovna A. N., Alpkamolovich E. NATURE MOVING SOILS AND SANDS OF BUKHARA-KHIVA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. 2022. – Т. 10. №. 3. С. 63-69.

4. Рахматов М. С., Рамазанов Б. Г. Исследование синтеза и изучение свойств дивиниловых эфиров салициловой кислоты //Universum: технические науки. 2021. №. 12-5 (93). С. 51-55.

5. Ахмедов В. Н., Аминов Ф. Ф., Рамазанов Б. Г. СИНТЕЗ ГИБРИДНЫХ КОМПОЗИТОВ НА ОСНОВЕ МОРФОЛИНА И ИХ СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ //PEDAGOGS jurnali. 2022. – Т. 19. №. 1. С. 157-164



Shaxobiddin ABDULLAYEV,
Iqtisodiy va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi,
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
shaxob1999@gmail.com

BLOGLAR VA IJTIMOIY MEDIA ORQALI ZAMONAVIY INGLIZ TILINING STILISTIK O‘ZGARISHLARI

Annotatsiya: zamonaviy ingliz tili, asrlar davomida o‘zgarib, rivojlanib kelayotgan bir til sifatida, bugungi kunda bloglar va ijtimoiy media orqali yanada keng tarqalgan va o‘zgaruvchan bir shaklga ega bo‘ldi. Internetning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining kengayishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, ingliz tilining stilistik jihatlarini yangilashga, yangi so‘zlar va ifodalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilining stilistik o‘zgarishlari, ayniqsa, bloglar va ijtimoiy media kontekstida qanday yuzaga kelayotgani haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, kommunikativ imkoniyatlar, tahlil, stilistika, yangi so‘zlar, til, mutaxassislar.*

Аннотация: современный английский язык, как язык, который менялся и развивался на протяжении столетий, сегодня приобрел более распространенную и изменяющуюся форму посредством блогов и социальных сетей. Развитие Интернета, расширение информационных технологий и популярность социальных сетей привели к обновлению стилистических аспектов английского языка, появлению новых слов и выражений. В данной статье представлена информация о том, как происходят стилистические изменения в современном английском языке, особенно в контексте блогов и социальных сетей.

Ключевые слова: *английский язык, коммуникативные возможности, анализ, стилистика, новые слова, язык, специалисты.*

Annotation: modern English, as a language that has been changing and developing for centuries, has today acquired a more widespread and changing form through blogs and social media. The development of the Internet, the expansion of information technologies and the popularity of social networks have led to the renewal of the stylistic aspects of the English language, the emergence of new words and expressions. This article provides information on how stylistic changes in modern English are occurring, especially in the context of blogs and social media.

Key words: *English, communicative opportunities, analysis, stylistics, new words, language, specialists.*

Kirish. Ingliz tili stilistikasi, tilning ifoda vositalarini va ularning ma’no va hissiyotlarni qanday yetkazishini o‘rganadigan fan sohasidir. Bu soha, tilning estetik jihatlarini, uning ko‘rinishlarini va kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qiladi. Ingliz tilining stilistikasi, nafaqat so‘zlar va iboralar, balki ularning konteksti, qo‘llanilishi va o‘zaro aloqalarini ham o‘z ichiga oladi. Tilning stilistik jihatlari, o‘z navbatida, yozuvchilarning, nutq so‘zlovchilarning va o‘quvchilarning fikr va hissiyotlarini qanday ifoda etishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi stilistik usullar, metafora, personifikatsiya, taqqoslash, ironik ifoda va boshqa ko‘plab vositalar orqali tilning boyligini va rang-barangligini ta’minlaydi. Ushbu usullar, yozuvchilarga o‘z asarlarini yanada qiziqarli va jalb qiluvchi qilish imkonini beradi. Ingliz tilining stilistikasi, shuningdek, tilning madaniy va ijtimoiy kontekstini ham hisobga oladi. Har bir davrda, tilning o‘zgarishi va rivojlanishi, jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ingliz tilining stilistik o‘zgarishlari, asosan, bloglar va ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi bilan bog‘liq. Ushbu o‘zgarishlar, tilning yangi ifoda usullari, leksik boyliklari va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishga olib keldi. O‘zbek adabiyotida bu masalalar haqida bir qator mualliflar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Dostonovning “Ijtimoiy media va til o‘zgarishi” nomli maqolasida, ijtimoiy media platformalarining tilga ta’siri, jumladan, ingliz tilidagi stilistik o‘zgarishlar haqida so‘z yuritiladi. U, ijtimoiy media orqali yangi so‘zlar, iboralar va uslublarning paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Ushbu platformalarda tezkor va qisqa ifodalash uslubi, tilning sodda va tushunarli bo‘lishini talab qiladi, bu esa ingliz tilining stilistik ko‘rinishlariga yangiliklar kiritadi.[1]

Abdullayeva o‘zining “Zamonaviy ingliz tilidagi leksik o‘zgarishlar” nomli ilmiy tadqiqotida, bloglar va ijtimoiy media orqali tarqalgan yangi so‘zlar va iboralar tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatilayotgan slang va jargonlarning ingliz tilining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar, nafaqat tilning leksik tarkibini boyitadi, balki uning stilistik jihatlarini ham o‘zgartiradi.[2]

Yunusova “Ijtimoiy media va zamonaviy til” nomli tadqiqotida, ijtimoiy media platformalarida ingliz tilining qanday o‘zgarayotganini va bu jarayonda yangi stilistik uslublarning qanday paydo bo‘layotganini o‘rganadi. U, shuningdek, bloglarda va ijtimoiy tarmoqlarda

ishlatiladigan emotikonlar, GIFlar va boshqa vizual elementlarning tilga ta'sirini ham tahlil qiladi. Bu elementlar, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi kommunikativ usullarni yaratadi.[3]

Umuman olganda, zamonaviy ingliz tilining stilistik o'zgarishlari, bloglar va ijtimoiy media orqali amalga oshayotgan yangi kommunikativ jarayonlar bilan bog'liq. O'zbek mualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, bu o'zgarishlarni chuqurroq tushunishga va tilning rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonlar, ingliz tilini o'rganayotganlar uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni taqdim etadi.

Muhokama. Bloglar, dastlab shaxsiy fikrlar va tajribalarni baham ko'rish uchun yaratilgan onlayn platformalar sifatida paydo bo'ldi. Ular yozuvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi va o'quvchilar bilan bevosita muloqot qilishga imkon yaratadi. Bloglarda ishlatiladigan til, ko'pincha rasmiy va akademik tildan farq qiladi. Yozuvchilar o'z o'quvchilariga yaqinroq bo'lish uchun oddiy, tushunarli va qulay tilni tanlaydilar. Bu esa zamonaviy ingliz tilining stilistik jihatlarini o'zgartiradi, chunki blog yozuvlari ko'pincha shaxsiy tajribalar, hissiyotlar va fikrlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy media platformalari, masalan, Facebook, Twitter, Instagram va TikTok, ingliz tilining yangi stilistik shakllarini yaratishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu platformalarda foydalanuvchilar qisqa, tezkor va ko'pincha informal uslubda muloqot qilishadi. Bu esa tilning oddiylashishiga va yangi so'zlarning, iboralar va qisqartmalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, Twitterda 280 ta belgidan iborat bo'lgan cheklov, foydalanuvchilarni o'z fikrlarini qisqa va aniq ifoda etishga undaydi. Natijada, yangi qisqartmalar, emojilar va giflar keng tarqaladi, bu esa ingliz tilining stilistik jihatlarini yanada boyitadi.[4]

Natija. Zamonaviy ingliz tilida ijtimoiy media orqali paydo bo'lgan yangi so'zlar va iboralar, ko'pincha foydalanuvchilar orasida tez tarqaladi. Masalan, "selfie", "hashtag", "influencer" kabi so'zlar, ijtimoiy media orqali keng tarqalgan va hozirda keng qo'llanilmoqda. Ushbu so'zlar, nafaqat ingliz tilining leksikasini boyitadi, balki yangi madaniy fenomenlarni ham aks ettiradi. "Influencer" so'zi, ijtimoiy media orqali o'z ta'sirini o'tkazadigan shaxslarni ifodalash uchun ishlatiladi va bu yangi ijtimoiy rolni anglatadi.[5]

Bloglar va ijtimoiy media, shuningdek, tilning kreativ usullarini rivojlantirishga yordam beradi. Yozuvchilar o'z asarlarida o'zgacha uslublardan foydalanadilar, masalan, metaforalar, analogiyalar va boshqa stilistik vositalar. Bu esa o'quvchilarni jalb qilish va ularning e'tiborini tortish uchun muhimdir. Zamonaviy ingliz tilida, shuningdek, ko'plab kulgili va ironik ifodalar ham paydo bo'lgan. Bu, ayniqsa, ijtimoiy media platformalarida ko'rinadi, chunki foydalanuvchilar o'z fikrlarini kulgili yoki ironik tarzda ifoda etish orqali ko'proq e'tibor qozonishga harakat qiladilar.[6]

Shuningdek, bloglar va ijtimoiy media, tilning globalizatsiyasi jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili, butun dunyoda eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biri bo'lib, turli madaniyatlar va tillardan ta'sirlanadi. Ijtimoiy media platformalarida, foydalanuvchilar o'z fikrlarini turli tillarda ifoda etishadi, bu esa ingliz tilining stilistik jihatlarini yanada boyitadi. Masalan, boshqa tillardan olingan so'zlar, iboralar va madaniy elementlar ingliz tiliga kirib keladi va uni yanada rang-barang qiladi. Shuningdek, bloglar va ijtimoiy media orqali ingliz tilining stilistik o'zgarishlari, o'quvchilar va yozuvchilar o'rtasidagi interaktiv muloqotni ham kuchaytiradi.[7]

Xulosa. Umuman olganda, zamonaviy ingliz tilining stilistik o'zgarishlari, bloglar va ijtimoiy media orqali kengayib bormoqda. Ushbu platformalar, tilning yangi shakllarini, so'zlarini va iboralarini paydo qilishga, shuningdek, tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tili bugungi kunda nafaqat til sifatida, balki global madaniyatning bir qismi sifatida ham o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar, tilni o'rganish va o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi va zamonaviy jamiyatda tilning qanday rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dostonov A. (2021). "Ijtimoiy media va til o'zgarishi". O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Abdullayeva D. (2020). "Zamonaviy ingliz tilidagi leksik o'zgarishlar". – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
3. Yunusova M. (2022). "Ijtimoiy media va zamonaviy til". O'zbekiston Milliy universiteti.
4. Karimov S. (2023). "Bloglar va tilning zamonaviy o'zgarishlari". O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi.
5. Qodirova N. (2022). "Ingliz tilidagi yangi iboralar va ularning stilistik jihatlari". Samarqand davlat universiteti.
6. Tashkentov F. (2021). "Ijtimoiy tarmoqlar va til o'zgarishlari". Toshkent shahridagi xalqaro universitet.
7. Ruzmetova G. (2023). "Zamonaviy ingliz tilida slang va jargonlar". Buxoro davlat universiteti.

Shaxnozaxon MAXMUDOVA,
Mustaqil izlanuvchi,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
shaxnozamahmudova4@gmail.com

TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI VA MOHIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarga ingliz tilini o'qitishda multimedia vositalarining o'rni va mohiyati muhokama qilinadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'rganish jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada multimedia vositalarining turli turlari, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, ingliz tilini o'rganishdagi afzalliklari ko'rib chiqiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, zamonaviy o'quv dasturlarida multimedia vositalarini qo'llashning amaliy misollari keltiriladi. Ushbu tadqiqot natijalari, talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanishning yangi yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *multimedia vositalari, ingliz tili, ta'lim jarayoni, talabalar, o'rganish, ko'rgazmali materiallar, interaktiv dasturlar, o'zlashtirish, ta'sir ko'rsatish.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль и сущность мультимедийных средств в обучении студентов английскому языку. В настоящее время использование мультимедийных технологий в образовательном процессе имеет большое значение для повышения мотивации студентов, упрощения процесса обучения и повышения его эффективности. Рассматриваются различные виды мультимедийных средств, их влияние на образовательный процесс, а также их преимущества при изучении английского языка. Кроме того, приводятся практические примеры использования мультимедийных средств в современных учебных программах. Результаты данного исследования помогут выявить новые направления эффективного использования мультимедийных средств в обучении студентов английскому языку.

Ключевые слова: *мультимедийные средства, английский язык, образовательный процесс, студенты, обучение, наглядные материалы, интерактивные программы, овладение, влияние.*

Annotation: this article discusses the role and essence of multimedia tools in teaching English to students. Nowadays, the use of multimedia technologies in the educational process is of great importance in increasing student motivation, simplifying the learning process and increasing its efficiency. The article considers various types of multimedia tools, their impact on the educational process, as well as their advantages in learning English. In addition, practical examples of the use of multimedia tools in modern curricula are given. The results of this study will help to identify new areas of effective use of multimedia tools in teaching English to students.

Key words: *multimedia tools, English, educational process, students, learning, visual materials, interactive programs, mastery, influence*.

O'zbekiston milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi rivojlanib bormoqda. Chunki bu zamonning talabi. Bugungi kunda ingliz tilini o'qitish sifatini va samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonaviy usullaridan unumli foydalanish muhim omil hisoblanadi. "Multimedia darslar" idan foydalanish ingliz tili dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Multimedia yoki raqamli o'quv resurslari o'quvchilarga ma'lumotlarni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlovchi turli media elementlaridan foydalangan holda aqliy tasavvurlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim uchun multimediadan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasmlar va so'zlarni birga qo'llagan o'quvchilarda faqat so'zlardan foydalanadiganlarga nisbatan ko'proq ijobiy natijalar qayd etilgan. [2] Ingliz tili fanini o'quvchilariga o'qitish va o'rgatish jarayonida multimedia vositalarini qo'llashning ayrim afzalliklari quyidagicha:

1. Mavhum tushunchalarni aniq holatga keltirish qobiliyati.
2. Cheklangan vaqt ichida ko'p hajmdagi ma'lumotlarni kam harakat bilan taqdim etish qobiliyati.
3. Qobiliyatli o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish.
4. O'qituvchiga o'quvchilarning ta'limdagi holatini bilish imkoniyatini beradi.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuvdir. Shu orqali o'quvchilarda ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf darslarini o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli va pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlari mujassamlashtiriladi.

"Multimedia-dars", "Slaydli dars", "Seminar dars" kabi usullarni qo'llash maqsadga muvofiq. Seminar dars – o'quvchilar mustaqil ishlariga zamin yaratadigan, kerakli joyda bahs-munozaraga undovchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o'qituvchi boshqaruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa mustaqil ijodkor shaxs sifatida o'quv jarayonida faol ishtirok etadilar. "Multimedia darslari"dan foydalanish ta'lim darsida sifat va natijaviylikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi: 1) o'quv materialini ko'rgazmali tarzda taqdim etadi; 2) yangi materialni tezkorlik bilan yetkaza oladi; 3) ma'lumotlar tezligi va hajmini animatsiyalar yordamida boshqara oladi. [1] Ingliz tili ta'limida multimedia texnologiyasining barcha fanlar kesimida qo'llanilishi natijasida ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi va tushuncha hamda bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib ingliz tili darsi o'quvchilarining lug'at boyligi ortadi, ularning nutqida maktab so'zining ma'nosi, maktabning ta'lim beruvchi maskan ekanligi, o'quvchilar maktabda ta'lim va tarbiya oladigan joy ekanligi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Bunda monitor ekranida maktabning umumiy ko'rinishi, maktab atrofida gullarning ochilib turishi, "Xush kelibsiz!" degan so'zning maktab eshigiga yozib qo'yilganligi, bolalarning maktabga sumkalarini ko'tarib borishlari monitor ekranida harakatlar bilan qiziqarli namoyish etiladi. Asosiysi shundaki, ushbu texnologiyada o'rganilayotgan o'quv materiallari multimedia asosida bajariladi. Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tezkorlik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa, "...til ta'limining sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari" bugungi kunda ingliz tili ta'lim tizimida, ayniqsa ona tili ta'limida muhim ahamiyat kasb etmoqda. [3] Ona tili ta'limini audio, video va multimediali vositalar yordamida amalga oshirish talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish innovatsion faoliyatlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha multimedia resurslaridan foydalanib joriy etilmoqda. Hatto har bir xonadon multimedia qurilmalarisiz dam olmay qoldi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, multimedia resurslari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish samarasi an'anaviy usulga qaraganda ikki baravar unumli va vaqtdan yutish imkoni bor ekan. Multimedia resurslari yordamida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa esda uzoq vaqt qoladi. Agar o'quvchilar taqdim etilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni esda saqlash 25-30% gacha ortadi. Bunga qo'shimcha ravishda o'quv materiallari audio, video va tasvir ko'rinishida jamlansa, materiallarni esda qoldirish 75% oshadi. [4] Bunga multimedia resurslari asosida chet tillarini o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini yaxshilashda o'qituvchining kasbiy mahorati va bilim darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini mukammal bilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, hozirgi kunda pedagog va dastur tuzuvchi mutaxassislarning hamkorlikda, turli fanlardan multimedia darsliklari yaratishi ta'lim samaradorligini oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmasligimiz zarur.

Talabalarga ingliz tilini o'qitishda multimedia vositalarning o'rni va mohiyati.

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy multimedia vositalari o'qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynamoqda. Multimedia vositalari – bu matn, ovoz, video va grafikalar kabi bir nechta axborot turlarini birlashtiradigan materiallardir. Ular talabalarga tilni o'rganishda ko'plab afzalliklar taqdim etadi.

1. O'qitish jarayonini jonlantirish.

Multimedia vositalari yordamida o'qitish jarayoni ko'proq interaktiv va qiziqarli bo'ladi. Masalan, video darsliklar, audio materiallar va interaktiv o'yinlar talabalarning diqqatini jalb qiladi va ularning o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, tilni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

2. Turli o'qish uslublarini qo'llab-quvvatlash.

Har bir talaba o'ziga xos o'qish uslubiga ega. Ba'zilar vizual materiallarni afzal ko'rsa, boshqalari esa eshitish orqali yaxshiroq o'rganadi. Multimedia vositalari turli o'qish uslublarini birlashtirishga imkon beradi, bu esa har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlaydi.

3. Tilni amaliyotda qo'llash imkoniyati.

Multimedia vositalari yordamida talabalar tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, video suhbatlar, onlayn forumlar va til o'rganish ilovalari orqali talabalar ingliz tilida muloqot qilishni mashq qilishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida,

tilni o‘zlashtirishni yanada samarali qiladi.

4. O‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish imkoniyatlari.

Multimedia vositalari orqali talabalar o‘z bilimlarini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Onlayn testlar, interaktiv mashqlar va o‘yinlar orqali talabalar o‘z muvaffaqiyatlarini ko‘rishlari va qaysi sohalarda yaxshilanish kerakligini aniqlashlari mumkin.

5. O‘qituvchilar uchun qulaylik.

O‘qituvchilar uchun multimedia vositalari darslarni tayyorlash va o‘tkazishda qulaylik yaratadi. Ular turli xil materiallarni bir joyda to‘plab, darslarni yanada samarali va qiziqarli qilishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchining vaqtini tejashga va dars sifatini oshirishga yordam beradi.

Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda multimedia vositalarining o‘rni va mohiyati juda katta. Ular o‘qitish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. Multimedia vositalari yordamida talabalar tilni o‘rganishda ko‘proq motivatsiya va qiziqish his qilishadi, bu esa ularning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun, ingliz tilini o‘qitishda multimedia vositalarini qo‘llash zaruriy va foydali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020-y., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020- y., 07/20/4749/0758-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-son Qarori.

5.Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.

6.Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The Power of Feedback. Review of Educational Research.

7. Azizxodjaeva N.N. Pedagogical technology and pedagogical skills. – T .: Science, 2006.

8.Measuring student attendance based on multimodal biometrics in education management systems. IEEE International Multimedia Symposium (2009), pp. 699- 744.

Mastura OBLOKULOVA,
Associate Professor of the department of English Language Teaching Methodology
Samarkand State Institute of Foreign Languages
masturamizrobovna30@gmail.com

TEACHING ENGLISH GRAMMAR THROUGH READING IN UZBEK CLASSES

Annotation: grammar instruction through reading aids is not only given to the understanding of grammatical structures but developing insight into read texts. That is grammar teaching through reading may lead to the student, in other words, involving him/herself in large language regarding grammar as communication against separate rules that stand in isolation. This could be of especial value to Uzbek learners because their special points of error would come from structure differences between the Uzbek and the English language. For instance, while the tense and aspect carry considerable reliance in English on word order and auxiliary verbs, Uzbek is freelancing regarding its word order but relies on heavy use of suffixation carrying grammatical relations. Such differences obviously call for differentiated instructional strategies that could bridge these linguistic gaps and allow effective grammar acquisition.

Key words: *grammar instruction, English word order, grammar through reading, linguistic challenges, Uzbek-English contrasts, reading integration, agglutinative structure, Uzbek learners of English, grammar instruction, structural differences, contextual understanding, text analysis, pedagogical approaches.*

Аннотация: обучение грамматике с помощью средств чтения направлено не только на понимание грамматических структур, но и на развитие понимания прочитанных текстов, то есть, обучение грамматике посредством чтения может привести к тому, что учащийся, другими словами, вовлечётся в большой язык, рассматривая грамматику как коммуникацию вопреки отдельным правилам, которые стоят изолированно. Это может иметь особую ценность для изучающих узбекский язык, поскольку их особые ошибки обусловлены структурными различиями между узбекским и английским языками. Например, в то время как время и вид в английском языке в значительной степени зависят от порядка слов и вспомогательных глаголов, узбекский язык самостоятельно регулирует порядок слов, но полагается на интенсивное использование суффиксов, несущих грамматические связи. Такие различия, очевидно, требуют дифференцированных стратегий обучения, которые могли бы устранить эти лингвистические пробелы и обеспечить эффективное усвоение грамматики.

Ключевые слова: *обучение грамматике, порядок английских слов, грамматика через чтение, лингвистические проблемы, узбекско-английские контрасты, интеграция чтения, агглютинативная структура, изучающие английский язык узбеки, обучение грамматике, структурные различия, контекстуальное понимание, анализ текста, педагогические подходы.*

Annotatsiya: grammatikani o'qish vositalari orqali o'rgatish nafaqat grammatik tuzilmalarni tushunishga, balki o'qilgan matnlarni tushunishga yordam beradi. Ya'ni, grammatikani o'qish orqali o'rgatish talabani, boshqacha qilib aytganda, grammatikaga nisbatan alohida qoidalarga qarshi muloqot sifatida katta tilga jalb qilishi mumkin. Bu o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki ularning alohida xato nuqtalari o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tuzilish farqlaridan kelib chiqadi. Masalan, ingliz tilida zamon va aspekt so'z tartibi va yordamchi fe'llarga katta bog'liq bo'lsa, o'zbek tili so'z tartibi bo'yicha erkin ishlaydi, lekin grammatik munosabatlarni o'z ichiga oluvchi qo'shimchalardan ko'p foydalanishga tayanadi. Bunday farqlar, shubhasiz, ushbu lingvistik bo'shliqlarni bartaraf etadigan va grammatikani samarali o'zlashtirishga imkon beradigan tabaqalashtirilgan ta'lim strategiyalarini talab qiladi.

Kalit so'zlar: *grammatika yo'riqnomasi, ingliz tilidagi so'zlarning tartibi, o'qish orqali grammatika, lingvistik muammolar, o'zbek-ingliz kontrastlari, o'qish integratsiyasi, agglyutinativ tuzilma, ingliz tilini o'zbek o'rganuvchilari, grammatika yo'riqnomasi, strukturaviy farqlar, kontekstual tushunish, matn tahlili, pedagogik yondashuvlar.*

Introduction

In the last couple of years, there has been an increased awareness of how grammar should be combined with reading activities regarding language education. This is in line with modern pedagogical theories supporting contextualized learning experiences where students can see the application of grammatical rules in an authentic text. This is particularly relevant for Uzbek students learning English since their mother tongue has a number of features that are different from those of other languages.

Literature review and methodology

Uzbek is an agglutinative language, attaching many suffixes to the root in order to provide meanings and grammatical functions, whereas English is a more analytic one, relying mostly on word order and auxiliary

verbs to carry most of the information. Such fundamental differences make the learning of English grammar very challenging for Uzbek learners. For example, while Uzbek verbs can express even tense with no more than the use of suffixes, this is expressed through auxiliary verbs and word placements in English. It is in this matter that awareness of such a difference is handy in devising teaching strategies by surmounting such challenges.

By teaching grammar through reading, the educator allows the students an opportunity to encounter grammatical structures in context and thus understand them and remember them better. This approach may assist learners to work with texts more profoundly and promote grammatical accuracy along with overall language proficiency. As this article will demonstrate, the introduction of reading-based grammar instruction to Uzbek classes offers a promising pathway toward improving English language acquisition among Uzbek learners, while fostering greater linguistic awareness and adaptability.

Including grammar instruction via reading in the Uzbek classrooms could favor the answering of particularly complicated problems, unique for the Uzbek learners. Grammar needs a particular presentation; stressing context presentation as its special condition. To complete such structural changes in comparison, for instance, to their Uzbek, using in sentences is indispensable for ending English. This basic difference can further lead to miscomprehension and complications in mastering English grammar by Uzbek students.

Discussion and results

Different researches prove that the integration of grammar instructions into the reading activity significantly increases comprehension and the ability to retain grammatical notions. According to Rakhimova Sarvinoz (2023), when students focus on grammar within reading, they will learn grammar rules and texts more meaningfully, and it will allow students to improve their reading skills[1]. Specific grammatical structures are introduced through activities completed prior to reading the material, such as comparative adjectives, in order to provide the students with more easily accessed meaning and context for those aspects when reading.

Moreover, grammatical structure analysis during the reading process allows students to emphasize and discuss how those structures work in the text. Such an approach will not only consolidate grammatical knowledge but also spur critical thinking because of the grammatical and semantic links students will have to make. In the opinion of scholars, including that of Tashkent State University researchers, such a method provides for a more integrated view of language and gives learners greater confidence when approaching texts that are more complex.

It is also further supported by practical exercises, including grammar-focused worksheets and guided discussions. By designing activities that involve students filling in missing grammatical elements or building sentences with vocabulary from their readings, educators can reinforce both grammar skills and vocabulary acquisition. Such a duality of focus will serve very well for the Uzbek learners because they might find it very challenging to handle certain aspects of English grammar due to the features of their mother tongue[1].

Additionally, grammatical structures can also be envisioned during reading sessions when students have been given opportunities to identify how such grammatical structures function and discuss them in a text. That will reinforce grammatical knowledge but let them also put some use of critical thinking when linking grammar with meaning. This has been the basis of studies conducted so far, such as by the researchers at Tashkent State University, and it helps students to catch on to the holistic sense of language that enables them to approach complex texts with more confidence.

Practical activities, such as grammar-based worksheets or directed discussions, would further facilitate an integrated approach. By preparing exercises that ask students to complete missing grammatical components or build sentences using vocabulary from the reading, for example, a teacher is able to address grammar skills while also reinforcing vocabulary building[2]. This latter strategy will prove particularly useful with Uzbek learners who often have great difficulties in the more detailed aspects of English grammar due to their own mother tongue's structure.

The teacher can allow students ample opportunities to observe and analyze grammatical structures in action by exposing them to authentic English texts. This approach fortifies not only grammatical concepts but also fluency in reading and vocabulary development. According to Krashen's Input Hypothesis, 1985, language acquisition is achieved when learners are exposed to comprehensible input slightly beyond their current level of competence. Alternatively, this would be achievable with careful text selection-appropriately engaging yet linguistically challenging-and maybe thus creating a supportive environment in which students, step by step, would develop grammatical knowledge and their language repertoire.

It also allows them to see grammar in a relevant communicative context. Students, rather than merely being informed about the grammatical rules of the target language, would therefore understand how such grammatical rules interact within the broad structure of the language. For example, a student may learn

[1] Rakhimova, Sarvinoz Tolibovna. "Teaching Reading Through Grammar." Modern Science and Research, vol. 2, no. 10, 2023, pp. 795-799. https://inlibrary.uz

[2] Widi, R., & Pratama, E. (2024). Teaching Grammar Through Reading Text Strategy. EJI (English Journal of Indragiri) : Studies in Education, Literature, and Linguistics, 8(2), 430–437. https://doi.org/10.61672/eji.v8i2.2792

from reading a short story how the use of different verb tenses in narrating events and pronouns referring to different characters, all intertwined with prepositional phrases, establish the meaning of a text. This holistic approach makes the students more aware of grammar and at the same time more capable of using the language easily in any situation[3].

In other words, with regard to the characteristics of both languages, the integration of English grammar into the classes of Uzbek can considerably contribute to the better learning outcomes of students. Drawing parallels and contrasts between the two language systems, using authentic reading materials, establishing a supportive learning environment are some ways through which the teachers can enable Uzbek students to have deep and delicate perceptions about the structure of English with enhanced general proficiency in that language.

Conclusion

Grammar teaching through reading within Uzbek classes forms one of the most important paths toward surmounting some specific challenges created by the peculiarities of the Uzbek and English language systems. Whereas Uzbek is an agglutinative language with heavy use of suffixes to carry meanings and grammatical relations, English represents an analytic language relying heavily upon word order and auxiliary verbs in the same way. This basic difference may become a problem for Uzbek learners while mastering all the peculiarities of English grammar.

This is the process whereby the teacher contextualizes learning for students by embedding grammar instructions into the reading activities, making it easier for them to understand and remember grammatical concepts. In this manner, it will not be perceived as an abstract system of rules but part of effective communication within an authentic text. The texts of readings focused on certain grammatical structures allow the learner to establish critical thinking and make substantial connections between their native language and English.

[3] McGlynn, A., & Fenn, J. (2018). Using Literature to Teach Grammar in the Foreign Language Classroom: Tips and Strategies for EFL Teachers. Journal of Language Teaching and Research, 9(2), 323-330.

References:

1. Krashen S. D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman Publications,1985.
2. Kadyrov A., Kulaeva F. A. The Role of Grammar in Teaching Foreign Languages: An Analysis of Methods and Approaches. Research Gate. Retrieved fromhttps://www.researchgate.net/publication/372339356_The_Role_of_Grammar_in_Teaching_Foreign_Languages, 2023.
3. Abduhakimovich A. R. Guidelines and Resources for Teaching Foreign Languages in Upper-Level Courses Based on Real-World Experience. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, *3*(2), 2024. – p.137–139. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/2151
4. Widi R., Pratama E. Teaching Grammar Through Reading Text Strategy. English Journal of Indragiri: Studies in Education, Literature, and Linguistics, 8(2), 2024. -p.430–437. https://doi.org/10.61672/eji.v8i2.2792
5. Nosirova D. Learning Grammar Through Context: Enhancing Language Proficiency. Modern Science and Research, 2(7), 2023. - p.349–351.
6. McGlynn A., Fenn J. Using Literature to Teach Grammar in the Foreign Language Classroom: Tips and Strategies for EFL Teachers. Journal of Language Teaching and Research, 9(2), 2018. - p.323-330.
7. Rakhimova S. T. Teaching Reading Through Grammar. Modern Science and Research, 2(10), 2023. - p.795–799. Retrieved from https://inlibrary.uz https://doi.org/10.5281/zenodo.10039805.
8. Lazar G. Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers. Cambridge University Press, 2009.

Maftuna OCHILOVA,
Associate Teacher,
The Department of Innovative educational technologies and methodology,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

PRAGMATIC ERRORS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation: pragmatic competence is an essential component of communicative competence in foreign language acquisition. However, learners often struggle with pragmatic errors, which can lead to misunderstandings or even communication breakdowns. This study explores the nature of pragmatic errors in foreign language teaching, their causes and effective instructional strategies. The research employs a mixed-methods approach, incorporating qualitative analysis of learner interactions and quantitative assessments of pragmatic awareness. Results suggest that explicit pragmatic instruction, cultural immersion and discourse-based teaching methods significantly reduce pragmatic errors. The findings have implications for curriculum design and teacher training programs, emphasizing the importance of integrating pragmatic competence into language instruction.

Key words: *pragmatics, pragmatic competence, pragmatic errors, pragmalinguistic errors, sociopragmatic errors, language pedagogy.*

Аннотация: прагматическая компетенция является важнейшим компонентом коммуникативной компетенции при изучении иностранного языка. Однако учащиеся часто сталкиваются с прагматическими ошибками, которые могут приводить к недоразумениям или даже к сбоям в коммуникации. В данном исследовании рассматривается природа прагматических ошибок в обучении иностранным языкам, их причины и эффективные методы преподавания. В исследовании используется смешанный методический подход, включающий качественный анализ взаимодействий учащихся и количественную оценку прагматической осведомленности. Результаты показывают, что явное обучение прагматике, культурное погружение и методы преподавания, основанные на дискурсе, значительно снижают количество прагматических ошибок. Полученные данные имеют значение для разработки учебных программ и подготовки преподавателей, подчеркивая важность интеграции прагматической компетенции в процесс обучения языку.

Ключевые слова: *прагматика, прагматическая компетенция, прагматические ошибки, прагмалингвистические ошибки, социопрагматические ошибки, языковая педагогика.*

Annotatsiya: pragmatik kompetensiya chet tilini o'rganishda kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir. Biroq, o'rganuvchilar ko'pincha pragmatik xatolarga duch kelishadi, bu esa tushunmovchiliklarga yoki hatto muloqotning uzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot chet tilini o'qitishda pragmatik xatolarning tabiati, ularning sabablarini va samarali o'qitish strategiyalarini o'rganadi. Tadqiqot aralash uslubiy yondashuvdan foydalanib, o'quvchilarning o'zaro aloqalarini sifat jihatdan tahlil qilish va pragmatik ongni miqdoriy baholashni o'z ichiga oladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aniq pragmatik ta'lim, madaniy muhitga sho'ng'ish va diskursga asoslangan o'qitish usullari pragmatik xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalari o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari uchun ahamiyatga ega bo'lib, pragmatik kompetensiyani til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *pragmatika, pragmatik kompetensiya, pragmatik xatolar, pragmalingvistik xatolar, sotsiopragmatik xatolar, til pedagogikasi.*

Introduction

Pragmatic competence is a crucial aspect of language learning, encompassing the ability to use language appropriately in different social contexts. Unlike grammatical errors, which typically affect sentence structure, pragmatic errors may not hinder comprehension but can lead to miscommunication, offense or social discomfort. For example, a learner might say "Give me the salt!" instead of "Could you pass me the salt?", which may be perceived as rude rather than a simple request.

These errors can lead to communication breakdowns, potentially affecting professional, academic and personal relationships. While pragmatic failure can sometimes be inconsequential, even leading to humorous or anecdotal misunderstandings, in other

instances, its impact is far more significant. It can give rise to confusion, surprise or even frustration, embarrassment and anger. In more severe cases, it may escalate into interpersonal conflict, cultural tensions, or a breakdown in communication. Moreover, it can result in the unfair ascription of personality traits, fostering negative labeling and stereotypes. Ultimately, such misinterpretations can reinforce systemic discrimination, particularly when they stem from fundamental differences in communication norms between speech communities.

This paper aims to investigate common pragmatic errors in foreign language learners, their sources and pedagogical strategies to address them.

Previous Research

Kasper and R. Rose (2002) define pragmatics as interpersonal rhetoric – the way speakers and writers accomplish goals as social actors who attend to interpersonal relationships using language. Pragmatics focuses on how people perform, interpret, and respond to language functions in a social and cultural context. If this context is misunderstood, the pragmatic error will occur.

Pragmatic errors generally fall into two categories: pragmalinguistic errors and sociopragmatic errors according to Leech's (1983) differentiation between pragmalinguistic and sociopragmatic aspects of language usage. Pragmalinguistic errors occur when learners misuse linguistic forms in a social interaction. These errors often result from direct translation from the native language (L1) or incorrect application of politeness strategies. For instance, a non-native speaker might directly translate a phrase from their L1 and say "You must come to my house tomorrow!" instead of a more polite form like "I'd love to invite you over if you're free".

Pragmalinguistic failure can also occur when non-native speakers misinterpret or fail to convey intended meanings accurately, or when they misuse suprasegmental and prosodic features, such as intonation, stress or rhythm. According to Olshtain and Cohen's comments (1990), Israeli learners of English who omitted intensifiers like *very, deeply,* or *really* in their apologies were perceived by American interlocutors as insincere, overly formulaic or lacking genuine remorse. Similarly, Han (1992) notes that Korean learners of English misunderstood *really?* interpreting it as a request for confirmation or repetition rather than as an acknowledgment of a compliment.

Sociopragmatic errors occur when learners fail to understand the social norms and expectations of the target culture. Olshtain and Cohen (1990), Wolfson (1989) and Tran (2006) comment that second language learners often perceive the social norms regulating their behavior in specific contexts as universally applicable, leading them to unconsciously transfer these conventions into their interactions in the target language. These errors are often influenced by differences in politeness levels, formality or conversational implicatures. In some cultures, refusing an offer directly is considered impolite, whereas in others, a direct "No, thank you" is acceptable. For example, a Japanese speaker learning English might avoid making direct refusals, as indirect refusals are more culturally appropriate in Japan, whereas English speakers expect more explicit responses.

Beyond misunderstandings stemming from learners' limited proficiency as speakers or their lack of awareness of the interactive norms and conventions governing L2 communication, misinterpretations may also arise due to erroneous processing of utterances by listeners, further contributing to pragmatic failure. Brown (1995) notes that, in certain instances, listeners may not only fail to hear or attend to a speaker's words but may also perceive them while being so preoccupied with processing a prior utterance that they are unable to fully comprehend or assimilate subsequent statements, whether partially or in their entirety. In some cases, hearers do understand the words of an utterance correctly, but they are unable to grasp some of implicit meanings in a specific context. Consequently, they may find it challenging to formulate an appropriate response, often due to a lack of sufficient contextual information.

Methods

A mixed-methods approach was used to analyze pragmatic errors in foreign language learners. The study involved 100 foreign language learners. Data collection consisted of:

1. Qualitative Analysis – Classroom observations and recorded role-play interactions were analyzed for instances of pragmatic errors, categorized into speech acts (e.g., requests, apologies, refusals).

2. Quantitative Assessments – A pre-test and post-test measured learners' pragmatic awareness before and after explicit pragmatic instruction.

3. Surveys and Interviews – Learners and teachers provided insights into challenges in acquiring pragmatic competence and the perceived effectiveness of instructional methods.

Results

The findings indicate that pragmatic errors were most common in indirect speech acts, politeness strategies and sociocultural appropriateness. Key results include:

High Frequency of Directness Errors – Learners from direct-communication cultures often transferred their native pragmatic patterns, resulting in awkward

or inappropriate expressions.

Misuse of Speech Acts – Apologies and requests were frequently formulated in ways that were perceived as either overly formal or too casual.

Insufficient Instruction – Many learners are not explicitly taught pragmatic rules, leading to errors in requests, refusals and expressions of politeness.

Cultural Exposure Matters – Failure to grasp cultural norms leads to impolite or overly direct speech. Learners with more opportunities for cultural immersion (e.g., study abroad programs, authentic interactions with native speakers) exhibit fewer pragmatic errors.

Statistical analysis revealed that 60% of respondents reported experiencing frequent pragmatic difficulties, while 40% acknowledged being unaware of cultural expectations in the target language.

Discussion

The findings suggest that pragmatic errors stem primarily from inadequate instructional approaches and limited cultural exposure. To mitigate these issues, foreign language education should incorporate:

Explicit Pragmatic Instruction – Teaching pragmatics as part of the curriculum through role-plays and discourse analysis.

Cultural Immersion – Encouraging interactions with native speakers and authentic materials to enhance cultural understanding.

Teacher Training – Providing educators with resources and strategies to integrate pragmatic competence into lessons effectively.

Conclusion

Pragmatic errors pose a significant challenge in foreign language learning, impacting communication effectiveness. This study underscores the importance of explicit pragmatic instruction and cultural exposure in minimizing such errors. Future research should explore long-term effects of pragmatic instruction and its applicability across different languages. Enhancing pragmatic competence in language learners will foster more effective cross-cultural communication and reduce instances of miscommunication.

References:

1. Bardovi-Harlig, K. (2001). Evaluating the empirical evidence: Grounds for instruction in pragmatics? Pragmatics in Language Teaching, 13, 11-32.

2. Blum-Kulka, S., & Olshtain, E. (1986). Too many words: Length of utterance and pragmatic failure. Studies in Second Language Acquisition, 8(2), 165-179.

3. Brown, Gillian. 1995. Speakers, listeners and communication. Explorations in discourse analysis. – Cambridge: Cambridge University Press.

4. Han, Chung-hye. 1992. A comparative study of compliment responses: Korean females in Korean interactions and in English interactions. Working Papers in Educational Linguistics 8(2). 17-31.

5. Kasper, G. (1992). Pragmatic transfer. Second Language Research, 8(3), 203-231.

6. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). Pragmatics in Language Teaching. Cambridge University Press.

7. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. Longman.

8. Manuel Padilla Cruz. Understanding and overcoming pragmatic failure in intercultural communication: from focus on speakers to focus on hearers. University of Seville. Article *in* IRAL – International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. March 2013

9. Olshtain, Elite & Andrew D. Cohen. 1990. The learning of complex speech act behaviour. TESL Canada Journal 7(2). 45-65.

10. Taguchi, N. (2011). Teaching pragmatics: Trends and issues. Annual Review of Applied Linguistics, 31, 289-310.

11. Tran, Giao Q. 2006. The nature and conditions of pragmatic and discourse transfer investigated through naturalized role-play. – Muenchen: Lincom.

12. Wolfson, Nessa. 1989. Perspectives: Sociolinguistics and TESOL. – New York: Newbury House.

Umida IBRAGIMOVA,
University of Business and Science Toshkent filiali
f.f.f. doktori (PhD), dotsent
ui5435524@mail.ru

YOSHLAR NUTQIDAGI DIALEKTIZMLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: nutqning sotsial xoslanganligi, uning o‘ziga xosliklarini tekshirish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan eng dolzarb masalalardandir. Zero, nutqiy samaradorlik qachonki muloqot jarayoni ishtirokchilari, muloqot vaziyati kabi nolisoniy omillar tahlili amalga oshirilgan o‘rinlardagina erishiladigan hodisadir, deyishimiz mumkin. Muloqot qiluvchilarning muayyan yosh, jins, martaba, kasb, jamiyatdagi maqomi kabilarini hisobga olish nutqiy intensiyaga oson erishishni ta’minlaydi. Albatta, bu kabi jarayonlarda muloqot qiluvchilarning yashash hududi, shuningdek, muloqot qilish joyi ham muhim sanaladi.Nutqiy sistemaning dialektizmlar bilan bog‘liq qirralari muloqot natijasiga ta’sir qiladi, albatta. Shu ma’noda, yoshlar nutqida uchraydigan leksik-semantik va frazeologik dialektizmlar tahlili nutqiy samaradorlikka erishishda xizmat qilishi shubhasiz.

Kalit so‘zlar: *sotsial xoslangan, leksika, sheva, dialektizm, lug‘at tarkibi, etnografik dialektizmlar, sinonim dialektizmlar, adabiy til.*

Аннотация: социальная специфика речи, исследование ее специфики-одна из актуальнейших проблем, стоящих перед современной лингвистикой. Ведь можно сказать, что речевая эффективность-это явление, которое достигается только тогда, когда проводится анализ таких нечеловеческих факторов, как участники процесса общения, ситуация общения. Учет таких факторов, как конкретный возраст, пол, карьера, профессия, статус в обществе коммуникаторов, обеспечивает легкий доступ к речевой интенции. Разумеется, в подобных процессах важным считается как территория проживания общающихся, так и место общения. Грани речевой системы, связанные с диалектизмами, влияют на результат общения, конечно. В этом смысле анализ лексико-семантических и фразеологических диалектизмов, встречающихся в речи молодежи, несомненно, служит достижению речевой эффективности.

Ключевые слова: *социально-типизированный, лексика, диалектика, диалектика, лексика, этнографические диалектизмы, синонимические диалектизмы, литературный язык.*

Annotation: the social specificity of speech, the study of its specificity is one of the most urgent problems facing modern linguistics. After all, we can say that speech effectiveness is a phenomenon that is achieved only when an analysis of such non-human factors as participants in the communication process and the communication situation is carried out. Taking into account such factors as a specific age, gender, career, profession, status in the society of communicators provides easy access to speech intention. Of course, in such processes, both the territory of residence of the communicants and the place of communication are considered important. The facets of the speech system associated with dialectisms affect the result of communication, of course. In this sense, the analysis of lexico-semantic and phraseological dialectisms found in the speech of young people undoubtedly serves to achieve speech effectiveness.

Key words: *socially typed, vocabulary, dialectics, dialectics, vocabulary, ethnographic dialectisms, synonymous dialectisms, literary language.*

Kirish. Nutqning sotsial xoslanganligi, uning o‘ziga xosliklarini tekshirish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan eng dolzarb masalalardandir. Zero, nutqiy samaradorlik qachonki muloqot jarayoni ishtirokchilari, muloqot vaziyati kabi nolisoniy omillar tahlili amalga oshirilgan o‘rinlardagina erishiladigan hodisadir, deyishimiz mumkin. Muloqot qiluvchilarning muayyan yosh, jins, martaba, kasb, jamiyatdagi maqomi kabilarini hisobga olish nutqiy intensiyaga oson erishishni ta’minlaydi. Albatta, bu kabi jarayonlarda muloqot qiluvchilarning yashash hududi, shuningdek, muloqot qilish joyi ham muhim sanaladi. Nutqiy sistemaning dialektizmlar bilan bog‘liq qirralari muloqot natijasiga ta’sir qiladi, albatta. Shu ma’noda, yoshlar nutqida uchraydigan leksik-semantik va frazeologik dialektizmlar tahlili nutqiy samaradorlikka erishishda xizmat qilishi shubhasiz.

Har bir hudud aholisi muloqot qiladigan leksikaning asosiy qismini umumxalq tiliga xos leksik birliklar tashkil qiladi. Shunday bo‘lsa-da, umumxalq tilidagi ayrim bir so‘zlarning iste’mol doirasi muayyan bir doirada chegaralangan bo‘lib, ayni bir hudud aholisi o‘rtasidagina amal qilinadi. Xuddi shunday holatni grammatik birliklarda ham kuzatishimiz mumkin.“Dunyoda mavjud tillarning deyarli barchasi o‘ziga xos ichki sheva yoki shevachalardan iborat.Turkiy tillarning har biri bir necha sheva va dialektlardan iboratligi ma’lum. Biroq o‘zbek tili turkiy tillar ichida o‘zining ko‘p shevaliligi dialektliligi bilan farqlanadi” [1:12]. Bunday boy dialektik manba jamiyatimizning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan yoshlar nutqida o‘z aksini topmay qolmaydi. Kundalik muloqotda uchraydigan dialektizmlar, o‘z navbatida, badiiy asarlarga ko‘chib o‘tishi, ular orqali kino, teatr san’atida namoyon bo‘lishi tabiiy hol. Chunki dialektizmlar badiiy asarlarda qahramonning o‘ziga xosligi, qaysi hududga mansubligi kabi detallarni bo‘rttirishda muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Umuman olganda, shevaga xos so‘zlar umumxalq tiliga xos yuksak qatlamdan farq qilgan holda mahalliy leksikani tashkil etadi. Umumxalq o‘zbek tilida ma’lum hudud xalqlarining xo‘jalik yuritishi, turmush va madaniyati uchun xarakterli

predmet va tushunchalarni ifoda etadigan malum bir so‘zlari ham mavjuddir. Bugungi kunda yoshlar nutqida uchraydigan leksik-semantik dialektizmlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) etnografik dialektizmlar;

b) sinonim dialektizmlar.

Tilning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan va ko‘p jihatdan sheva leksikasiga xos sanalgan leksika etnografik dialektizmlar deb ataladi.Rus olimi A.V.Kalinin “Etnografik dialektizmlar bu mahalliy narsalarning mahalliy nomidir” [2:126-127] deb yozadi.Bunda “etnos” so‘zining “xalq” ma’nosiga tayaniladi. Ya’ni etnografik dialektizmlar muayyan hudud aholisining mahalliy tili nazarda tutiladi. Biror sheva vakilining o‘ziga xos turmush va mehnat faoliyati bilan bog‘langan so‘zlar to‘dasini M.Shanskiy ham etnografik dialektizmlar yoki etnografizm termini bilan bog‘laydi [3:118]. Yana bir tilshunos olim O.A.Nachayeva ham mahalliy shevaga xos bo‘lgan bu xil qatlamni etnografizm deb ataydi [4:138]. Biz ham xalqimiz hayotida turli davrlarda turli sabablar natijasida yaratilgan, uning turmushi, madaniy-ma’naviy hayoti, e’tiqodi va an’analari, turli-tuman urf-odat va rasm-rusmlari bilan bog‘liq bo‘lgan, shunga ko‘ra, ko‘p jihatdan mahalliy sheva vakillari nutqiga xos bo‘lgan leksik birliklarni etnografik leksika nomi bilan alohida guruhga ajratamiz. O‘zbek xalqining asrlar davomida ijtimoiy va ma’naviy faoliyati zaminida yaratilgan bunday leksikani to‘plash va lingvistik tahlil qilish o‘zbek dialektologiyasi va til tarixining, shuningdek, o‘zbek xalqi tarixi, etnogenezisi, etnografiyasining ba’zi masalalarini yechishda, turli tipdagi lug‘atlar, ayniqsa, izohli lug‘atlar va dialektal lug‘atlar tuzishda boy material baza sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mahalliy dialekt va shevalarning lug‘at tarkibini xarakterlab berishda leksik dialektizm muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki leksik dialektizm shevalarni bir-biridan ajratish, farqlashda asosiy belgilardan hisoblanadi. Bunday so‘zlar ma’lum bir dialekt yoki sheva doirasidagina ishlatilganligi sababli ular tor dialektal so‘zlar deb yuritiladi. Yoshlar nutqida ham mana shunday tor dialektal so‘zlar uchrashining guvohi bo‘ldik. Masalan:

E oshna. Qishlaqdagi qizlarga balo urg‘anma? Begana qishlaq qizlarining izidan jurasanma? (badiiy filmdan)

Keltirilgan misol yosh yigitlar nuqtiga xos ekanligi so‘roq gaplar mazmuni va qo‘llangan undalmadan yaqqol sezilib turibdi. Zero, “qizlarning izidan yurish” yosh yigitlarga xos harakat ekanligi barchaga ma’lum. Shuningdek, muloqot jarayonida ishtirok etayotgan yigitlarning qipchoq lahjasiga mansubligi gapda qo‘llangan leksik va grammatik birliklar orqali aniqlash mumkin (qishlaq, oshna, begana, -g‘an, -ma, jurasanma). Shuningdek, frazeologik birlik hisoblanadigan “izidan yurmoq” iborasining ham qipchoq lahjasiga xos muqobili qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, muayyan nutqiy parchada leksik, grammatik, fonetik, frazeologik dialektizmlar bir vaqtda qo‘llanishi mumkin. Jumladan, dialektizmlar badiiy asarlarda muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlardan badiiy asar tilida uslubiy vosita (uslubiy figura) sifatida foydalanish hollari ham uchraydi” [5:200]. Yuqoridagi film ssenariysi muallifi asar qahramonlari xususiyatlarini bo‘rttirish maqsadida qipchoq lahjasiga xos leksik (*oshna*), grammatik (*-g‘an, -ma*), fonetik (*qishlaq, jurasanma*), frazeologik (*izidan jurasanma*) dialektizmlardan samarali foydalangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta’kidlash lozimki, hozirgi o‘zbek adabiy tilining frazeologik boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Lekin dialektal frazeologiyani o‘rganish nisbatan yangi sohadir. Shu kunga qadar yoshlar nutqida uchraydigan shevaga xos iboralar to‘plangani yo‘q va tekshirish manbayi bo‘lmagan.Dialektning har bir shevasida o‘z turmush sharoiti, xo‘jalik va urf-odatidan kelib chiqqan o‘ziga xos frazeologik iboralar borki, ular o‘sha sheva yoki bir necha shevalarda uchrasa, boshqalarida yo‘q yoxud boshqacha shaklda uchraydi. Bulardan ba’zilar adabiy tilda o‘z ma’no xususiyatini saqlab fonetik o‘zgarishlar bilan uchrasa, boshqalari adabiy tilga o‘zlashmaganligini ko‘ramiz.Masalan,

– Bo‘magan ishga bo‘lishma, degan gap bor, jo‘rajon (badiiy filmdan).

Mazkur gapning yosh yigitlar nutqiga xos ekanligini ko‘rsatib turuvchi leksik belgilar mavjud (jo‘rajon). Zero, *jo‘rajon* leksik birligini yosh bolalar, o‘rta yosh va keksa qatlamga mansub qatlam juda kam qo‘llaydi. Shuningdek, gapda qo‘llangan frazeologik birlik ham muayyan dialektga xos ekanligi ibora tarkibida qo‘llangan “bo‘lishma” leksemasidan ham bilib olishimiz mumkin. Zero, “bo‘lishmoq” fe’lining O‘TILdagi izohi “ko‘maklashmoq, yon bosmoq, kelishmoq, unashmoq” ma’nolari dialektizmni ko‘rsatuvchi maxsus pometa - *etn. shv*. bilan berilishi ham fikrimizni dalillaydi. Mazkur gapda “bo‘maganga bo‘lishma” iborasi muayyan vazifabi bajara olmagan shaxsga yordam berish, uni qo‘llab-quvvatlash befoyda ekanligini ifodalamoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma’lum bo‘ladiki, dialektizmlar yoshlar nutqida nafaqat biror hududga mansublikni ko‘rsatadi, balki ularning sajiyasidagi o‘ziga xosliklar haqida axborot tashish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy til lug‘at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari bilan uzviy bog‘liqdir. Adabiy til o‘z me’yorlarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga tayanadi va o‘ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек дилектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.12-б.

2. Калинин А.В. Лексика русского языка. Издетельство МГУ,1966, стр. 126-127.

3.Шанский А. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. – Москва: Русский язык, 1959, – 320 с.

4. Начаева О.А. Этнографическая лексика как источник обогашения русского литературного языка // Лингвистическая наука, 1965, – С.138.

5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. 272- b.

6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. 964-b.

Shohsanam BOBOJONOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent, tadqiqotchi

“AXLOQ” KONSEPTOSFERASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING “MA’NAVIYAT” KATEGORIYASIDA AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada jadal globallashuv ma’naviyat, axloq muammosini yanada o‘tkirlashtirib, axloq va ma’naviyat tushunchalarining tilshunoslik sohasida tadqiqot obyekti bo‘layotganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, til va ma’naviyat muammosini o‘rganadigan alohida soha – lingvoma’naviyatshunoslik yo‘nalishi haqida ham fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axloq, tushuncha, konsept, ma’naviyat, shaxs, tarbiya, ruhiyat, mohiyat, ijtimoiy ong.*

Аннотация: в статье рассматривается, как стремительная глобализация еще больше обостряет проблему духовности и нравственности, а понятия нравственности и духовности становятся объектами исследования в области лингвистики. Также представлены мнения о направлении лингвистических и духовных исследований – отдельной области, изучающей проблемы языка и духовности.

Ключевые слова: *нравственность, понимание, понятие, духовность, личность, воспитание, психика, сущность, общественное сознание.*

Annotation: this article discusses the fact that rapid globalization is further exacerbating the problem of spirituality and morality, and the concepts of morality and spirituality are becoming objects of research in the field of linguistics. It also presents opinions on a separate field that studies the problem of language and spirituality - the direction of linguo-spiritual studies.

Key words: *morality, understanding, concept, spirituality, personality, upbringing, psyche, essence, social consciousness.*

Buyuk qomusiy olimlarimiz, xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq”, Abu Nasr Forobiyning “Baxtga erishish haqida”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi ko‘plab asarlarida axloq tushunchalari haqida ma’lumot berilgan.

“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da esa *axloq* quyidagicha ta’riflanadi: axloq – ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me’yor va qoidalar yig‘indisi.

O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” kategoriyasining mohiyatini ochish uning shakllanishiga asos bo’lgan konseptosferasini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish asosida amalga oshiriladi. “Ma’naviyat” o‘zbek ijtimoiy ongida mustahkam konseptual mohiyatga ega. Olamning o‘zbek lisoniy tasvirida “ma’naviyat” konseptining shakllanishiga asos bo’lgan hodisalarni ma’naviy asoslar sifatida baholash mumkin. Biroq “ma’naviy asoslar” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasiga nisbatan ancha keng qamrovliligi bilan xarakterlanadi. Chunki “ma’naviyat” konsepti “ma’naviy asoslar” konseptosferasining mag‘zi bo‘lib, ularning umumlashmasidan iborat. Biroq bu umumlashmani shunchaki arifmetik yig‘indi emas, balki sintez asosida shakllantirilgan mohiyat sifatida qarash mumkin. “Ma’naviy asoslar” “ma’naviyat”dan tashqari, mafkuraviy munosabatlarni, ma’naviy-mafkuraviy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasalarni ham, keng ma’nodagi ma’naviyat hayotni ham qamrab oladi. Millat taraqqiyotining ma’naviy asoslari deganda ma’naviyatning rivojlanishiga ta’sir qiladigan moddiy ishlab chiqarishdan tashqari barcha asosiy omillar nazarda tutiladi, ma’lum bir davlatning ma’naviy tarbiya jarayonini amalga oshiradigan ta’lim-tarbiya, madaniyat, mafkura va targ‘ibot-tashviqot sohalarida olib borayotgan siyosatidan iborat butun boshli yaxlit struktura nazarda tutiladi.

Demak, “ma’naviyat” konseptining zaminini “ma’naviy asoslar” konseptosferasida ko’ramiz. “Ma’naviy asoslar” konseptosferasi o‘z o‘rnida quyidagi ichki guruhlarga bo‘linadi:

– milliy ma’naviyatning shakllanishiga asos bo‘lgan manbalar;
– milliy ma’naviyatning shakllanishiga asos bo‘lgan siyosat;
– milliy ma’naviyat tarbiyasi vositalari;
– milliy iroda;
– milliy ma’naviyatga ta’sir qiluvchi tahdidlar.

Bu unsurlarning har biri tizimning shakllanishiga u yoki bu darajada ta’sir qiladi va ularning roli mutanosib va teng kuchli emas. Yaxlit konseptosferani tashkil etuvchi bu unsurlarning har biri o‘z o‘rnida konsept sifatida mavjud bo‘ladi: “ma’naviy manba”, “ma’naviy

siyosat”, “ma’naviy vosita”, “milliy iroda”, “ma’naviy tahdid” kabi.

O‘zbek milliy ma’naviyatining “ma’naviy manba” konsepti o‘z o‘rnida quyidagi unsurlardan tashkil topadi:

– ma’naviy va moddiy meros;
– din;
– kashfiyotlar.

Ma’naviy va moddiy meros millat va shaxs dunyoqarashi shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, shaxsning munosabatlari tizimi shakllanishida ma’naviy va moddiy merosning o‘rni katta. Bu munosabatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– shaxsning borliqqa munosabati;
– shaxsning taraqqiyotga munosabati;
– shaxsning insonga munosabati;
– shaxsning o‘ziga munosabati.

Demak, aytish mumkinki, ma’naviy va moddiy meros hamda munosabat kategoriyalari chambarchas bog‘langan, o‘zaro belgilovchilik xarakteriga ega. Ma’naviy va moddiy meros munosabatni shakllantirganligi kabi, o‘z o‘rnida, munosabat ham ularni baholash, kelajak avlod uchun ma’naviy va moddiy meros qoldirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsning va millatning borliqqa obyektiv va to‘g‘ri, ratsional munosabatini shakllantirish ma’naviyatning shakllanishi va rivojlanishida, tarbiyalanishida katta ahamiyatga ega. “Bu munosabatlar jamiyatning umumfalsafiy qarashlaridan va ijtimoiy mo’ljallaridan kelib chiqadi. Ular “inson – jamiyat” mushtarakligi va bog‘liqligining milliy va umuminsoniy miqyosda qay darajada anglashilganini, jamiyatning bu masalani qay darajada yechishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi”[1].

Ma’naviyatning milliy tabiatiga bag‘ishlangan adabiyotlarda ko‘p hollarda “shaxsning o‘ziga munosabati” alohida ajratilmaydi va nazarimizda, “shaxsning insonga munosabati” unsurining tarkibida qaraladi. Biroq milliy ma’naviyatni “yuqoridan quyiga” tamoyili asosida emas, balki “quyidan yuqoriga” tamoyili asosida shakllantirish samaraliroqdir.

Ko‘rinadiki, lingvoma’naviyatshunoslik axloq (etika), psixologiya, lingvokulturologiya, etnografiya, sotsiolingvistika kabi qator fanlar bilan umumiy o‘rganish obyektiga ega bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos predmeti yaqqol ajralib turadi.

Har qanday xalqning mustaqilligi va taraqqiyoti ijtimoiy ong evrilishini taqozo etadi. Bu esa shaxs ma’naviyati va tafakkurida ham o‘zgarishlar sodir etishi shubhasiz. Shu ma’noda shaxs ma’naviyatini takomillashtirish ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani tizimli tashkil etish, izchil va konseptual amalga oshirish asosida yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya bugungi kunda shaxs ma’naviyati muammosi globallashgan bir paytda har qanday taraqqiyparvar mamlakat rivojining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Shuning uchun davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning negizida “ma’naviyat” konseptual tizimining barcha zaruriy va dolzarb talablar nuqtayi nazaridan ilmiy o‘rganish, tadqiqotlarni amaliy samaradorlik nuqtayi nazaridan amalga oshirish, bunda ishlarni “fundamental tadqiqotlar – innovatsion tadqiqotlar – amaliy tadqiqotlar” uzviyligi, ketma-ketligi va izchil davomiyligi asosida tashkil etish lozim bo‘ladi.

Lingvistik xarakterdagi lison, me’yor, nutqning yaxlitligi va alohidaligi haqidagi ta’limot mazkur kategoriyaga muloqot, munosabat va faoliyat sistemasi ko‘zgusida qarab, bu sistemaning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvoma’naviyatshunoslik tadqiqotlarida, sof lingvistik tadqiq usullaridan tashqari, kulturologik va sotsiologik metodlar – konsept tahlili, freymal, tasnif va tavsif, lingvistik rekonstruksiya usullari, ma’noning makrokomponent va mikrokomponent modeli, psixosotsiokulturologik eksperimentlar, matnlarning lingvoma’naviy tahlili – germenevtik metod kabilar qo‘yilgan muammolarning samarali yechimi uchun muhim vositalar bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. 480-b. 178-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Til yaxlit sistema sifatida. – Toshkent: Nihol, 2009.
2. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
5. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. 480-b. 178-b.



Qanshayim ZAYROVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti

TILDA RANGLARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

(Qoraqalpoq tilida kiyim-kechak leksikasida ranglar ramziyligi misolida)

Annotatsiya: maqolada qoraqalpoq xalqining milliy kiyimlari etnosning o‘tmishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini bugungi kunga qadar saqlab kelgan madaniyatning eng bebaho bir qismi sifatida ko‘rib chiqildi. Shu asosda qoraqalpoq tilida kiyim-kechak leksemasida ranglarning ramziy ma’no bildirishi haqida so‘z etildi. Tilimizda ranglar faqatgina rang ma’nosini ifodalab qolmasdan, balki uning boshqa semantik xususiyatlari mavjudligi, ularning abstrakt fikrlash natijasida boshqada ma’nolarni bildira boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Maqolamizda kiyim-kechaklarda ranglarning bajaradigan xizmati, ularning etnografik, ramziy, urf-odat, an’analarga bog‘liq ma’nolari ochib berilishiga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: *leksika, etnos, etnografiya, simvol, ranglar, semantika, kiyim-kechak atamalari: qoraqalpoq, oq ko‘ylak, ko‘k ko‘ylak, oq jao‘liq, qizil ro‘mol va h.*

Аннотация: в статье рассматривается национальный костюм каракалпаков как бесценнейшая часть культуры, сохранившая неповторимые особенности этноса от его прошлого до наших дней. На этой основе рассмотрено символическое значение цветов в лексеме одежды в каракалпакском языке. Мы видим, что цвета в нашем языке не только выражают значение цвета, но, возможно, имеют и другие семантические свойства, и что цвета начали выражать и другие значения в результате абстрактного мышления. В нашей статье рассматривается роль цветов в одежде, их этнографическое, символическое и традиционное значение.

Ключевые слова: *лексика, этническая принадлежность, этнография, символ, цвета, семантика, названия одежд: қорақалпоқ, оқ кўйлак (белая платье), көк көйлек (синиее платье), оқ жаўлиқ (белый платок), қизил рўмол (красный шарф) и т. д.*

Annotation: the article examines the national costumes of the Karakalpak people as the most valuable part of the culture that has preserved the unique features of the ethnic group in the past to this day. On this basis, the symbolic meaning of colors in the lexeme of clothing in the Karakalpak language was discussed. In our language, colors do not only express the meaning of color, but also, perhaps, have other semantic properties, and as a result of abstract thinking, they began to express other meanings. Our article focuses on the role of colors in clothing, their ethnographic, symbolic, and traditional meanings.

Key words: *vocabulary, ethnicity, ethnography, symbol, colors, semantics, names of clothes: korakalpoq, oq koylak (white dress), kok koylek (blue dress), oq zhaulik (white scarf), kizil rummol (red scarf), etc.*

Har bir xalq mentalitetining farqiga, ya’ni turmush an’analariga, urf-odatlariga, ishonchlariga oid ranglarning ramziy ma’nolari shakllangan. Ranglar siri ko‘plab sohalarning (fizika, psixologiya, fiziologiya, kimyo, badiiy-san’at, lingvistika) tadqiqot obyektiga aylanishi uning tabiatining murakkabligini ko‘rsatadi. Lingvistika sohasida ranglar bo‘yicha turkiy tillarda bir qancha tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, S.I.Matchanova o‘z ishida rus va o‘zbek tillaridagi rang bildiruvchi so‘zlarning strukturaviy va leksik-semantik xususiyatlarini aniqladi [1,24]. M.Ganixodjayeva o‘zbek tilidagi rangni ifodalaydigan sifatlarni qiyosiy-tarixiy aspektda tadqiq qildi [2,23]. Z.N.Pardayev o‘zbek tilida rang ifodalovchi sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilib, o‘z ishida rang ifodalovchi oq, qora, qizil, sariq kabi sifatlarning ma’noviy xususiyatini va uslubiy qo‘llanishini o‘rgangan [3,22]. Shuningdek, R.V.Alimpiyeva “oq” sifatining ma’nosi haqida [4,13]. Ibrohim Haqqul “qora” so‘zining ma’nosi haqida [5,14], R.N.Shoybekov rang ifodalovchi sifatlarning ma’noviy xususiyatlarini o‘z maqolalarida bayon qiladi [6]. Qoraqalpoq tilshunosligida A.Bekbergenovning rangni ifodalovchi sifatlar, ularning ma’nolari haqidagi maqolasi [7,54] e’lon qilindi.

Kundalik turmushda, jamiyat faoliyatida ranglar ma’nosini anglash xususiyati alohida ahamiyatga ega. Rang tabiatda mavjud bo‘lgan barcha narsalar ko‘rinishini aniqlaydigan, atrof go‘zalligini, narsa-buyumlar, o‘simliklar, hayvonlarning bir-biridan ajratadigan belgisi bo‘lishi bilan birga, insoniyatning turli o‘y-kechinmalarini, dunyoqarashi va ishonchlarni o‘zida aks ettiradi. Tilshunoslikda ranglar o‘zining rang belgisidan tashqari semantik xususiyatlarini, ularning etnografik, ramziy va urf-odat, an’anaga bog‘liq ma’nolari mavjudligini ko‘rsatadi. Rangni ifodalovchi sifatlar eng dastlab ma’lum bir rangni anglatib, keyinchalik

abstrakt fikrlash natijasida yana boshqa ma’nolarni ifodalay boshlagan. Biz ularning shu kabi semantik xususiyatlarini hisobga olib, bu maqolamizda asosan, kiyimlar leksemasida ranglarning ramziy ma’nolarda ishlatilishiga to‘xtab o‘tishni ma’qul ko‘rdik.

Kiyim har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan turmush tarzi, urf-odat dasturi, tabiati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning milliy madaniyatini belgilaydi. Kiyimlarda insonning ta’lim - tarbiyasi, uning aql-farosati, o‘zini tuta bilish estetik mahorati aniq ko‘rinadi. Chunki inson faqatgina yangi kiyimlarni kiyishda emas, balki uni kiyinish madaniyatiga xos kiyishda baholanadi. Xalqimizning azaldan kiyimlarni yoshiga moslab kiyishi, ulardagi ranglarga diqqat qaratilishi aql-farosat belgisi bo‘lib hisoblanadi.

Har bir millat madaniyatidagi rang dunyosi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘ladi, ya’ni rang millat madaniyatini tanitadigan bir faktor bo‘lib hisoblanadi. Tilimizda *qalpoq* atamasi rangni ifodalovchi qora so‘zining qo‘shilishi bilan *“qoraqalpoq”* millatimiz ramzi sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan:

… Al men mәңgi o‘atanlasың *qaraqalpaq* bolaman! (I.Yusupov).

Shuningdek, tilimizda qardosh turkiy xalqlar bo‘lgan qozoq va qirg‘iz xalqlarining milliy bosh kiyimi bo‘lgan *oq qalpoq* shu millat ramzi bo‘lib ishlatiladi. Masalan:

Diydarыңa qarayman da toymayman,
Ala tao‘dan aq qalpag‘ың kөrinse… (I.Yusupov).

Tilimizda “oq” va “qora” rangi orqali xalqimiz urf-odati, an’analariga, ishonchiga oid ayrim so‘zlarda ramziy ma’nolarda keng ishlatiladi. Oq va qora leksemalari bir-biriga qarama-qarshi ma’nolarda qo‘llaniladi. Masalan: *Aq-degeni alg‘ыs, qara-degeni qarg‘ыs*. Oq nominatsiya ma’nosidan tashqari tozalik, halollik, poklik va h. yaxshi xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini anglashda katta ahamiyatga ega. So‘nggi davrda xalqimizga evropa madaniyatining ta’siri kirib kelishi orqali yangi turmush qurgan kelinga to‘yda oq ko‘ylak kiyish an’anaga aylandi. Bu oq halollik, poklik, baxt timsoli bo‘lib qo‘llanilmoqda. “Oq ko‘ylak” baxt ko‘ylagi ramzini ifodalaydi.

Qozoq tilshunos olimi A.Almauitova o‘z ishida akademik A.Qaydar fikrini keltirib o‘tadi: “rang-tus atamalari tomiri uzoqda yotgan, xalq uzoq hayoti bilan yonma-yon kelib, estetik did bilan qarash, milliy psixologiyasi, an’ana, urf-odati bilan ulashadigan jamoaviy, filologik, etnolingvistik ma’noviy ajoyib masalalar qatorida yotadi - deydi. Demak, kiyim-kechak turlarini hosil qilishda ota-bobolarimiz ijtimoiy, ma’naviy va hokazo xususiyatlariga qarab ularning tur-tusiga alohida ma’no bergan [8,74].

Insonlar kiygan kiyimining rangi, uning dunyoqarashini, maqsadini, ma’naviy kechinmalarini, tanlagan yo‘lini anglatib turarkan. Masalan, ko‘ngli ko‘tarinki, shod bo‘lib hayotdan zavq olib yashaydigan odamlar oq rangdagi kiyimlarni kiyishni yaxshi ko‘radi. Bunday kiyim yuragida gina saqlamaydigan, yomonlik qilmaydigan insonlarga yarashadi. Chunki oq rangdagi kiyimni kunga qiyoslab, uni kiygan insonlar boshqalarga nur yog‘dirib turadi deb, qora rang tun va ko‘z qorachig‘ining rangi bo‘lib, bunday rangni kiyganlarning ko‘ngli sir-sinoatlarga to‘la insonlar bo‘lib hisoblanadi [9,10]. Mifologiyada oq rang xudolar rangi, ko‘zga ko‘rinmas qudratli kuchlar rangi deb qaralgan. Shu bois, haj ziyoratiga “Xudoning uyi” (Ka’ba) ga boruvchilar maxsus oq kiyimda yo‘lga chiqadi [10,22] degan ma’lumotlar bor. Qora rang qorong‘ulik, yo‘qchilikni anglatib kelgani bilan *qosh, ko‘z, soch* kabi a’zolarga bog‘liq qo‘llanganda go‘zallik timsolini bildiradi. Kiyimlarda esa “*qora kiyish*” turg‘un so‘z birikmasi orqali g‘am-tashvish, qayg‘u, aza ma’nolari tushuniladi. Masalan: *Gүlziyba uzың qara kөyleginiң jeңlerin tүsirip tikleniңkiredi: – Sizlerge qədirsiz bolg‘an*ы *menen, el biri edi –də! Jerleo‘ge keliңler!* [14,3,190]. *“Қora yopinish“, “niyati qora“* kabi turg‘un so‘z birikmasidagi qora so‘zining “qayg‘u”, “qazo”, “yomonlik” ma’nolarida ishlatilib, ramziy ma’no anglatishi lingvomadaniy konnotatsiya bo‘lib hisoblanadi [8,75].

Xalqimiz kiyimlarni yoshiga mos kiyishi, ulardagi ranglarga diqqat qaratishi, bunda oq rang aql - farosat, kayvonilik belgisini bildirib kelsa, qizil rang yoshlikning gullagan davrini anglatib, bu xalqning axloqiy, estetik va jamiyatlik hayotining ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Katta yoshdagi onalar oq kiymeshek, oq jegde, oq jao‘liq yopib yurgan. Masalan: *Jup*ыn*ы g‘ana kiyingen,bas*ыn*a jam*ыl*g‘an aq jao‘l*ыg‘ы*n*ың *səo‘lesi qara tor*ы *jүzine tүsip turg‘an, kөzleri adamg‘a anal*ыq *miyrim menen bag‘atug‘*ың *bul hayald*ы *Patma dep tan*ыst*ird*ы [15.4.19]. Yosh kelinchaklar esa boshlariga qizil kiymeshek, qirmizi jegde kiygan. Qizil rangdagi kiyimlar odatda to‘yga bag‘ishlangan kiyim sifatida qaraladi. Masalan: *Toylar kutl*ы *bols*ың*, bayram mүbərek, Jasas*ың *qыzыl gүl! “Qыzыl shүberek!”* (A.Ajiniyazov). Bu erda ko‘chma ma’noda, *qizil gul* - qizlarning ramziy ma’nosini bildirsa, *qizil shuberek* - yosh kelinchaklarni anglatadi. Qizil rang yoshlikning gullagan davrini anglatsa, oq rang soch-soqol oqarishi, keksalik davri ramzi. Oq jao‘liqli, qizil ro‘molli so‘z birikmalari “ayol, rafiqa, kelinchak” degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Masalan: *Aq jao‘l*ыq*l*ы *kөrsem kөpshiy beremen …* (G.Dao‘letova), *Jaynap-jasna, shadlan, əyne məhəliң, Shadl*ыq *k*ыzы*l sharsh*ың *bols*ың *kelinshek* (A.Ajiniyazov).

Kiyimlarda ranglar yaxshilik va yomonlik, baxt va baxtsizlik, quvonch va qayg‘u va h. bir qancha ma’nolarni o‘zida jamlagan. S.Shamuradova ishida “oq rang ro‘molga tavsif beruvchi belgini bildirib kelsa, baxt ramzi, qora, sariq ranglar esa ro‘molga epitet bo‘lib kelsa, ayriliq va g‘am-tashvishni anglatadi” [10,40] - deb keltirib o‘tadi. Haqiqatan ham, oq rang qora rang kabi o‘z o‘rnida qayg‘uni anglatadi. Xalqimiz odatiga ko‘ra inson umri tugab so‘nggi manziliga eltish oldidan

uni oq matoga o‘raydi, bu tilimizda kafan (marhum kiyimi) deb nomlanadi. Sh.Rahmatullayev ishida: “Bu arabcha so‘z kafan (un) ko‘rinishiga ega “*oq mato bilan o‘radi”* ma’nosini ifodalovchi *kafana* fe’lidan olingan bo‘lib, “marhumni qabrga qo‘yish oldidan o‘raladigan oq tao‘ar (mato)” ma’nosini anglatadi” [11,II,198] - deb keltirilgan. Bu kiyim tikilganda eng, yoqa solinmaydi, shu bois xalqimiz orasida kiyimni to‘liq to‘g‘rilab engini solib kiy, egningga ildirma deb irim qilinadi, bu *kepin* kiyimi bilan bog‘liqligi aytiladi. Shuningdek, azador kishilar kiyimlaridan ajralib turadi. Xalqimizda aza tutganlar rangli kiyimlar kiymaydi, ayol-qizlar boshlariga ro‘mol o‘raydi. Bunday kiyimlar qora, ko‘k ranglarda bo‘ladi.

Tilimizda kiyimlarda qo‘llaniladigan ranglar ramziyligi haqiqatan ham, o‘ziga xos bir qancha keng tushunchaga ega. Qoraqalpoq tilida ko‘k leksemasi boshqa rangni bildiruvchi sifatlarga solishtirganda (rang ma’nosini anglatishda) bir qancha abstrakt tushunchaga ega. Chunki, ko‘k deganda aniq bir rangni ko‘z oldimizga keltirish qiyin. *Ko‘k* leksemasi *yashil, osmon ko‘k* kabi ranglar doirasida tasvirlanadi. Xalqimizning milliy kiyimi ko‘k, ko‘ylakdagi ko‘k rangi yoshlik belgisi sifatida tushuntirilsa, undagi naqsh shoxlarining yuqoriga qarab to‘qilishi “unib-o‘smoq” ma’nolarini anglatgan. Bunda ko‘k – yashil ma’nosidagi yosh, unib-o‘sish davri belgisini anglatadi. Xalqimiz tushunchasida yashil – tabiatning uyg‘onish davri, bahor, tirikchilik manbayi bo‘lib, inson hayotining davom etishi, unib-o‘sish ramzi hisoblanadi. M.Sadikova ishida “ko‘k leksemasining “yosh, ko‘k, pishmagan” ma’nolarda qo‘llanilishi misollar orqali berilib, tarixiy etimologiyasi jihatdan yashil so‘zining “yosh so‘zidan, ya’ni yash (yosh+i+l) so‘ziga affikslar qo‘shilish yordamida rangni ifodalovchi so‘zning paydo bo‘lganini ko‘rsatadi [12,21]. A.Pirnazarovaning “Ko‘k ko‘ylak” haqida aytgan fikrini keltiradigan bo‘lsak: “Bu ko‘ylakning naqshlari juda murakkab va katta ma’noga ega. Ko‘k rangning o‘zi osmon rangi bo‘lib, tirikchilik negizi degan ma’noni beradi, oldiga solingan shoxlari har tomonga cho‘zilgan yirik daraxt savlati ona, hayot asoschisi [13] degan ma’lumotlarni keltiradi. Etnografik jihatdan qaraganimizda ko‘k osmon ramzi bo‘lib, ko‘kka talpinish, sig‘inish ishonchi bilan qo‘llaniladigan “ko‘kka nolam etibdi” kabi ibratli so‘zda katta ma’no bor. Xalqimiz milliy ko‘k ko‘ylagida shu kabi bir qancha ma’nolar jamlangan bo‘lib, tirikchilik negizi ona ramzi va yoshlik, unib-o‘sish davri teran tasvirlangan.

Yashil rang inson hayotida unib-o‘sish ramzi bo‘lsa, sariq, sarg‘imtir rang inson hayotida qayg‘u-g‘am, ayriliq, tushkunlik belgilarini anglatadi. Masalan: *Bul səzden buo‘ılg‘an bir gүl dəstesi, Sarg‘ısh boyao‘ basım ərman kestesi* (X.Dao‘letnazarov).

Xulosa qilib aytganda, milliy kiyim turlarida ranglarni ijtimoiy hayot, tabiiy muhitning ming alvon turli bo‘yoqlariga xos, xalqimiz milliy o‘tmishining ramziy, ritual va hokazo xususiyatlariga qarab tanlab qo‘llay olgan ota-bobolarimiz madaniyatining yuksak darajada bo‘lganligining dalolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матчанова С.И. Русско-узбекские параллели в свето обозначении. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.

2.Ганиходжаева М. Прилагательные света узбекского языка в сравнительно-историческом аспекте. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Ташкент, 1986.

3.Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол.фан.номзоди... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.

4. Алимпиева Р.В. Семантические структура слова «белый» // Вопросы семантики. – Л. 1976.

5. Ибраҳим Ҳаққул. Яна қора ранг талқини ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2001, №3.

6. Шойбеков Р.Н. Кейбир түр-түс атаўышларының мағыналары. //Қазақ ССРҒА. Хабарлары. Филолгия сериясы, 1990, №3.

7. Бекбергенов А. “Қара” сөзиниң мәнилери ҳаққында. // “ӨзССР ИА Қорақалпоқстан филиалы хабаршысы”. №4. 1969.

8. Алмауытова Ә. Қазақ тилиндеги киим атауларының түсине байланысты уәждилик// Қазақстанның ғылымы мен өмири. №3/2, 2017. 74-76 б.

9. Юлдошева С., Давлатова С., Сатторова Г. Фольклор кийимлари ва безаклари. – Тошкент, 2006.

10. Шомуродова С. Ўзбек халқ қўшиқларда либослар магияси билан боғ’лиқ қарашларнинг бадиий ифодаси. Маг. дисс. – Бухоро, 2015.

11. Рахматуллаев Ш. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати И, (Туркий сўзлар). – Тошкент 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати ИИ, (Араб сўзлар ва ўлар билан ҳосилалар). – Тошкент 2003.

12. Садыкова М. Слова обозначающие свет и окраску в узбекском языке. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Ташкент, 1963.

13.Пирназарова А. И.В.Савиский атындағы Мәмлекетлик көркем өнер музейиниң хызметкери. “Қорақалпоқ халқының кийимлери”.

14. Қайыпбергенов Т. “Қорақалпоқ дәстаны”, ИИ том “Бахытсызлар”,ИИИ том “Түсиниксизлер”. – Нөкис, 1979.

15. Каримов К. “Ағабий” тарийхый роман. Үргениш “Хорезм”, 2016, – Нөкис, 2017.

Nilufar TURDIYEVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tillarni o‘qitish kafedrasi
katta o‘qituvchisi

MATNNING MAKROSEGMENTI – MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR SINTAKTIK PARADIGMASI

Annotatsiya: mazkur maqolada til birliklarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari masalalari tadqiqi bobida ayrim mulohazalar keltirilgan. Xususan, matnning makrosegmenti bo‘lmish murakkab sintaktik qurilmalar sintaktik paradigmasi haqida nazariy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *matn, paradigmatika, sintagmatika, murakkab sintaktik qurilmalar, distributiv munosabat.*

Аннотация: в данной статье представлены основные соображения в главе исследования парадигматических и синтагматических отношений языковых единиц. В частности, изложены теоретические представления о синтаксической парадигме сложных синтаксических устройств, являющихся макросегментом текста.

Ключевые слова: *текст, парадигматика, синтагматика, сложные синтаксические приемы, дистрибутивное отношение.*

Annotation: this article presents the main considerations in the chapter on the study of paradigmatic and syntagmatic relations of linguistic units. In particular, the theoretical concepts of the syntactic paradigm of complex syntactic devices, which are a macro segment of the text, are presented.

Key words: *text, paradigmatics, syntagmatics, complex syntactic techniques, distributive relation.*

Bu o‘rinda eng avval shuni alohida ta’kidlash joizki, murakkab sintaktik qurilma matnning makrosegmenti sanaladi, zotan, mazkur qurilmaning tarkibiy qismlari, boshqacha aytganda, sintaktik derivatsiyasi operandlari mustaqil gaplar, hech bo‘lmaganda, istalgan paytda mustaqillik kasb eta oladigan sintaktik strukturalarni taqozo etadi. Shuning uchun murakkab sintaktik qurilma nutqning alohida birligi maqomiga egadir. Bu esa, o‘z navbatida, unga nutq birligi sathi maqomini beradi [1]. Ravshanki, sath tushunchasi til hodisalarining diskret xarakteri bilan uzviy bog‘liq [2].

Ana shulardan kelib chiqib, murakkab sintaktik qurilmalarni matnning segmentlari tarzida, ularning paradigmasini esa mazkur segmentlarning majmuasini tashkil etuvchi vosita sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini dalillash mumkin. Murakkab sintaktik qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda namoyon bo‘ladiki, ularning sintaktik strukturalari doimiy ravishda kamida ikki gapning sintaktik paradigmasidan tashkil topadi. Mazkur gaplarning har birida til birliklarining distributiv munosabati ustuvor ahamiyat kasb etsa, ular bilan murakkab sintaktik qurilmalar o‘rtasida esa integrativ munosabat muhim mavqega ega [2].

Ammo bu orqali integrativ munosabat matn sintaktik strukturasining komponentlari – mustaqil gaplarda kuzatilmaydi, degan xulosaga kelib bo‘lmaydi, Zotan, mustaqil gaplarda til birliklari paradigmasini kuzatar ekanmiz, bunda ham integrativ munosabat mavjudligini inkor etish qiyin. Biroq murakkab sintaktik qurilmalarda mustaqil gaplarning sintaktik paradigmasi shakllanishi bois bu o‘rinda nafaqat til birliklariga, balki nutq birliklariga xos integrativ munosabat vujudga keladi. Fikr dalili uchun quyidagi misolga murojaat etaylik:

1. Muzxonaning darichasi yo‘q, kunduzlari faqat eshikdan shu’la tushar, eshik yopilsa yerto‘la zimiston bo‘lardi. Ustod o‘zi olib kelgan shamlarni bitta-bitta yoqib, tokchalarga qadab chiqadi, tilovatdan so‘ng sal xushu’ga kelgan Abu Ali esa, nashtarlarni, jom va qumg‘onlarni tayyorlaydi (O.Yoqubov. Ko‘hna dunyo).

2. Her eyes were shining brilliantly, but her face had lost its color within wenty seconds. Rapidly she pulled down her hair and let it fall to its full length (O.Henry) – Uning ko‘zlari yonib turardi, ammo chehrasidagi otash yigirma daqiqada g‘oyib bo‘ldi. U tezda sochlarini yoydi va ularni uzun qilib tashladi.

Keltirilgan matnlarning umumiy strukturasi ikkita murakkab sintaktik qurilmadan tashkil topgani bois ayni paytda mazkur murakkab sintaktik qurilmalar paradigma hosil qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, matnning integrativ xususiyatini namoyon etmoqda. Bu o‘rinda sintaktik paradigma a’zolarining har biri o‘zicha integrativ xususiyatga ega ekanligini ham ko‘ramiz. Masalan, birinchi murakkab sintaktik qurilma muayyan paradigma hosil qilayotgan uchta mustaqil gapni birlashtirmoqda. [4]

Shuni ham aytish kerakki, murakkab sintaktik qurilma teng yoki tobe komponentli bo‘lishidan qat’iy nazar, matnning makrosegmenti sanaladi. Agar segmentlanish davom etadigan bo‘lsa, u holda navbatdagi bo‘linishda mustaqil gaplar nisbiy mikrosegmentlar tarzida ajratiladi.

Ko‘rinadiki, murakkab sintaktik qurilmalar

(MSQ) sintaktik paradigmasi murakkab sistemani taqozo etadi, zotan, ularning har biri ikki va undan ortiq gaplar paradigmasini o‘z ichiga oladi. Albatta, gaplarning sintaktik strukturalari ham til birliklarining paradigmalari shakllanishi uchun obyekt sanaladi. Matnning segmentlarini shu tarzda belgilaydigan bo‘lsak, tahlilning so‘nggi bosqichida segmentlarga bo‘linmaydigan fonemalar ajratib ko‘rsatilishi mumkin.

Umuman olganda, matn strukturasi til va nutq birliklarining amalda qo‘llanishini taqozo etuvchi murakkab sistema ekanligini ko‘ramiz. Uning murakkabligi gap va undan katta nutq birliklarining muayyan paradigmalarni tashkil etishida, mazkur paradigma a’zolarining, o‘z navbatida, yana paradigmalarga bo‘linishida, shuningdek, katta-kichik paradigmalarning barchasi o‘zaro sintagmatik bog‘lanishda faollik ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi:

Qiyot qirg‘inidan keyin ko‘p yillar o‘tgan, ko‘p suvlar oqib ketgan. Jurjon va Rayda, Qobus ibn Vushmagir kabi manman, kalondimog‘ hokimlar saroyida kechgan musofirlik yillari orqada qolgan, u o‘z eliga qaytgan (O. Yoqubov. Ko‘hna Dunyo).

Ayni paytda matn strukturasi komponentlari teng bog‘lanayotgan ikkita murakkab sintaktik qurilmadan tashkil topganini kuzatamiz. Boshqacha aytganda, mazkur murakkab sintaktik qurilmalar paradigmasi matn derivatsiyasi voqelanishini ta’minlamoqda. Shu bois ularning har biri derivatsiya operandi maqomiga ega. [3]

Matnning sintaktik tuzilmalari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular bir-biri bilan mustahkam bog‘lanadi. Murakkab sintaktik qurilmalar o‘z ichida ikki yoki undan ortiq mustaqil gapni birlashtirib, matnning makrosegmentini tashkil etadi. Bu qurilmalar til va nutq birliklarining paradigmatik tuzilishlarini yaratadi, shu bilan birga, matnning integrativ xususiyatlarini namoyon etadi. Har bir mustaqil gap o‘zining sintaktik paradigmasiga ega bo‘lib, ular orasidagi bog‘lanish va integratsiya jarayoni matnning umumiy strukturasiga ko‘rinish beradi. [5]

Murakkab sintaktik qurilmalar, shuningdek, matnni segmentlash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa so‘z bilan aytganda, ular matnning mikro va makrosegmentlariga bo‘linishini ta’minlaydi. Bu segmentlar o‘zaro sintagmatik bog‘lanishda faol ishtirok etib, tilning amaldagi paradigmatik tuzilishlarini o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, murakkab sintaktik qurilmalar matnning strukturasini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri bo‘lib, ularning paradigmatik va sintagmatik aloqalari matnning ko‘p qirrali va murakkab tuzilishini anglatadi. Bu esa matnni tahlil qilish va uni to‘liq tushunish uchun muhim asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayrullayev X. Nutq birliklarining pog‘onali munosabati. – Samarqand, 2008.

Бенвенист Ш. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974, 447с.

3. Блумфияд Л. Язык. – М., 2002. С.74; 378.

4. Ларинг А.Г. Иследование провесса “текст – грамматика” – М., 1971. С. 14 - 15.

5. Реферовская Е.А. Коммуникативная структура текста. – Л., 1989. С.12.

Sharofat ESHIMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Koreys filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: sharofate1986@gmail.com

MA’NO KO‘CHISH HODISASI YUZASIDAN TILSHUNOS OLIMLARNING FIKR VA QARASHLARI

Annotatsiya: o‘zbek tilshunosligida ma’no ko‘chishi hodisasi ko‘p tilshunoslar tomonidan o‘rganilib, u haqida ko‘plab adabiyotlarda ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ushbu maqolada ma’no ko‘chishi hodisasi bo‘lmish metafora, metonimiya, sinekdoxa haqida tilshunos olimlarimizning olib borgan tadqiqotlari va ular borasidagi fikrlari hamda qarashlari haqida manbalardan ma’lumotlar olinib keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, ma’no ko‘chishi, hosila ma’no*.

Аннотация: феномен переноса смысла в узбекском языкознании изучается многими лингвистами и сведения о нем приводятся во многих литературных источниках. В данной статье из источников, посвященных исследованиям наших лингвистов и их мнениям и вглядам о них, собраны сведения о метафоре, метонимии, синекдохе, представляющей собой явление передачи смысла.

Ключевые слова*: метафора, метонимия, синекдоха, перенос смысла, производное значение.*

Annotation: the phenomenon of meaning transfer in Uzbek linguistics has been studied by many linguists and information about it has been cited in many literatures. This article cites information from sources about the research conducted by our linguists on metaphor, metonymy and synecdoche, which are phenomena of meaning transfer and their thoughts and views on them.

Key words: *metaphor, metonymy, synecdoche, transfer of meaning, derived meaning*.

Kirish. G‘arbiy Yevropa tilshunoslari hosila ma’no yuzaga kelishi hodisasini uch guruhga ajratadilar. Fransuz tilshunosi J.Maruzoning lingvistik lug‘atida ham, nemis ensiklopedik lingvistik lug‘atida ham u uchga: metafora, metonimiya, sinekdoxaga bo‘lingan.

Bu hodisani St.Ulmap ikkiga: metafora va metonimiyaga ajratib ko‘rsatadi. Rus tilshunoslari asosan, Yevropa tillari tilshunosligiga tayanib, hosila ma’no yuzaga kelishini tasnif qilishgan bo‘lsa ham, ko‘rinishini belgilashda goh bir xillik, goh farqlilik ko‘zga tashlanadi.

Asosiy qism. Rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiy hosila ma’no yuzaga kelishini olti ko‘rinishda qayd etadi: 1) metafora (кузнечик – kichik temirchi, chigirtka), vazifadoshlik (перо – pat, patdan ishlangan yozuv quroli), emotsionallik (голубчик – kaptarcha, suyunchak bola), metonimiya (пота – ter, mehnat), xalq etimologiyasi (давлеть – yetishmoq, bosmoq), aloqadorlik (небо – osmon, tanglay). Mazkur ilmiy qarashlarda sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb qayd etilgan. Ba’zi ingliz, nemis, fransuz, yoki arab leksikologiyasi bilan shug‘ullangan rus tilshunoslari faqat metafora va metonimiyani ko‘rsatish bilan chegaralanganlar [1, 376]. Rus oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallab chiqarilgan darsliklarda yanada ko‘proq, turli xil ko‘rinishlarga bo‘lib yuborilgan. Tilshunoslar tomonidan chiqarilgan yana bir darslikda: metafora (нос – anatomik, geografik), metonimiya (стол – mebel, dasturxon), ishlab chiqaruvchi, kashfiyotchi nomi bilan atash (наган – ism, otish kuroli), vazifadoshlik (крило – qush qanoti, samolyot qanoti) kabi to‘rt ko‘rinishga bo‘lingan. (snoska)

N.M.Shanskiy ma’no ko‘chishini uchga: o‘xshashlik, ya’ni metafora; yondoshlik – metonimiya hamda vazifadoshlikka ajratib ko‘rsatadi. D.N.Shmelev ham N.M.Shanskiyga o‘xshab uni uch ko‘rinishga bo‘ladi. Ammo u sinekdoxa hodisasini ham qayd etgani holda, metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ko‘rsatadi. A.A.Reformatskiy ma’no ko‘chishini to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘rt ko‘rinishda deb bergani holda, u D.N.Shmelevdan farqli, sinekdoxani alohida hodisa sifatida talqin qiladi.

Arman tilshunosi E.B.Agayan D.N.Shmelevdan ancha ilgari hosila ma’no yuzaga kelishini xuddi unga o‘xshash holda sinekdoxani metonimiya tarkibida sanab, uch ko‘rinishdan iborat deb bilgan.

Turkiy xalqlar tilshunosligida ham ma’no ko‘chish hodisasi to‘g‘risida turli qarashlar mavjud. Qozoq tilshunosi G.G.Musaboyev, shuningdek, ozarbayjon tilshunosi S.Jafarov, rus tilshunosi A.A.Reformatskiy tasnifiga qo‘shilgan. Qoraqalpoq tilshunosi Ye.Berdimuratov faqat metafora va metonimiyani tan oladi. Boshqird tilshunosligida xuddi shu yo‘l tutilgani holda, metonimiya tarkibida sinekdoxa ham keltiriladi. Tatar tilshunosi K.S.Sabirov hosila ma’no yuzaga kelishini besh ko‘rinishda deb biladi: o‘xshashlik (metafora), aloqadorlik (metonimiya), vazifadoshlik, qamrash doirasiga ko‘ra, xususiyat yaqinligiga ko‘ra.

So‘z hosila ma’nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslansa, metafora, aloqadorlikka asoslansa, metonimiya, butun va bo‘lak munosabatiga asoslansa sinekdoxa, birini ikkinchisi ijtimoiy hayotdan surib chiqarishiga asoslansa, vazifadoshlik deb qaraladi. Bu ko‘rinishlarning har biri hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarga ko‘ra bir-biridan farq qiladi, o‘zaro chegaralanadi. Bugungi o‘zbek tilshunosligida esa metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi tasniflarga ajratiladi. Badiiy asar tilida esa ba’zan metafora, metonimiya, sinekdoxa va funksiyadoshlikka

ajratiladi. O‘zbek tilshunosligida polisemiyalar yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, funksiyadoshlikka metaforaning ichidan o‘sib chiqqan, uning bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Yangi qarashlar ham yaratilib Mirtojiyev turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tiliga ham ko‘chma ma’no hosil qiluvchi yangi hodisani, ya’ni tobelilikni kiritishni tavsiya qiladi.

Bunday ma’no ko‘chishlari badiiy asar tilida troplar atamasi bilan o‘rganilib, ularni o‘zbek tilining tasviriy vositalari orqali ma’noni kuchaytirish, ko‘chma ma’no hosil qilish, ma’noni taraqqiy ettirish, ma’noni obrazli tasvir ettirish xususiyatlarini aks ettiruvchi nutq ko‘rinishlari deb tushunmoq kerak. Yuqorida ma’no ko‘chish turlarini ko‘rib chiqdik. Bu ma’no ko‘chish turlari nima asosida yuzaga chiqishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. “Metafora” so‘zi, “ko‘chirish” yoki “bo‘ylab yurish” ma’nosini beruvchi yunoncha so‘zdan kelib chiqqan. Metaforalar “bir so‘z, tasvir, fikr yoki vaziyatdan boshqa ma’noga ega” ma’nosini anglatadi. Metofarani sodda qilib tushuntirsak, ikki narsa o‘rtasidagi tashqi yoki xususiyat jihatidan o‘xshashlikdir. Masalan: “Sayohatimizni yaxshi umid burnidan davom ettiramiz”. Bu yerda dengizdan bo‘rtib chiqib turgan quruqlik tashqi o‘xshashlik orqali yuzaga chiqmoqda. Metonimiya – ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi.

Ba’zan metonimiyada so‘z tushib qoladi va natijada yangi ma’no hosilasi yuzaga keladi. Masalan: “Oseyongni 3 kundan buyon qo‘lidan qo‘ymadi” bu yerda ifodalanayotgan so‘z aslida “Oseyong”ni asarlari shaklida bo‘lishi kerak. Sinekdoxa (yun.synekdoche — birga nazarda tutmoq, birga o‘ylamoq) – metonimiya (majoz)ning ko‘rinishlaridan biri; Sinekdoxada ham ma’no ko‘chishi o‘xshashlik, bog‘liqlikka asoslansa-da, bu yerda ko‘chish obyektlari o‘rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi; butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atash, ko‘plik sondagi so‘z o‘rniga birlik sondagi so‘zni qo‘llash yoki aksincha ishlatish, ba’zan jins, tur munosabatidagi to‘xtarning bir-biri o‘rnida qo‘llanishi va boshqalar… Masalan, “tirnoqqa zor bo‘lmoq” iborasida tirnoq (qism) so‘zi bola, farzand (butun) ma’nosida, “besh qo‘l barobar emas” iborasida esa qo‘l (butun) so‘zi, barmoq (qism) ma’nosida qo‘llangan;

Vazifadoshlik ma’no ko‘chish jihatidan bir xil vazifa bajaruvchi so‘zlarning ko‘chma ma’noda kelishini ko‘rsatib beruvchi ko‘chim turi hisoblanadi. Bunda ko‘chayotgan so‘zlarning vazifasi jihatidan tatbiq etiladi. Masalan: Mahallamiz ko‘chasida chiroq porladi. Bu yerda chiroq so‘zi yoritish uchun mo‘ljallangan barcha asboblarga nisbatan ko‘chgan. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ma’no ko‘chish hodisasi tilda ortiqchalilik, g‘alizlikning oldini olishga yordam beradi va tilning leksik qatlamini go‘zallashtiradi. Ma’no ko‘chimlari asosida turli xalq qochirimlari va adabiyotshunoslikda maxsus san’at turi yuzaga chiqqan.

Xulosa. O‘zbek tilshunoslari hosila ma’no yuzaga kelishini tasnif etishda, asosan, A.A.Reformatskiy bilan hamfikrlikka asoslanganlar. Faqat uch darslik mualliflari farqli qarash bilan chiqishgan. R.A.Bigayev va P.A.Danilovlar o‘zlarining hamkorlikdagi darsliklarida hosila ma’no yuzaga keltiruvchi hodisalarning hammasini metafora deb ko‘rsatishgan. O.Azizov sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritishi bilan yuqoridagilardan farqlanadi. Ya.Pinxasov o‘z darsligida vazifadoshlikni tilga olmaydi. So‘z hosila ma’nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari munosabatiga asoslangan ekan, uning tasnifida ham shu munosabatga asoslanish to‘la obyektiv bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraladigan bo‘lsa, A.A.Reformatskiy tasnifida ancha aniqlik bor [2, 288]. O‘zbek tilshunoslarining u bilan hamfikr bo‘lishlarida ham jon bor. A.A.Reformatskiy so‘z hosila ma’nosi yuzaga kelishini tasnif qilar ekan, hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari munosabatini aniq chegaralab ola bilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бухаловский Л. А. Русский литературный язык первой половины векаю – М.: Учпедгиз, 1934 376-385 - б
2. M.M.Mirtojiyev. “O‘zbek tili semasiologiyasi” – Toshkent, 2010. 288-bet
3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *2*(2), 83-86.
4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA POLISEMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December). KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMAQILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).
6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).
7. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.
8. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.
9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).
10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 24), 155-164.
11.Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.
12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.
13. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Jasur YO‘LDOSHEV,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
O‘zbek adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

BOBUR NASRIDA TABIAT TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada mumtoz shoir Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida tabiat tasviri va va inson ruhiyati uyg‘unligi masalasi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *lirika, tabiat, peyzaj, joy, geografiya, makon, tasvir, ruhiyat, qalb, talqin.*
Аннотация: в данной статье обсуждается вопрос гармонии образа природы и человеческого духа в лирике поэта-классика Захириддина Мухаммада Бабура.
Ключевые слова: *лирика, природа, пейзаж, место, география, пространство, образ, дух, душа, интерпретация.*
Annotation: this article discusses the issue of the harmony of the image of nature and the human psyche in the lyrics of the classical poet Zahiriddin Muhammad Babur.
Key words: *lyrics, nature, landscape, place, geography, space, image, psyche, soul, interpretation.*

Chin ijodkor uchun badiiy so‘z yashash shakli darajasida bo‘ladi.Asarda qo‘llangan har bitta so‘z badiiy-estetik niyatni ifodalashga xizmat qiladi. Inson–aziz va mukarram. U ona tabiat bag‘rida yashaydi, undan quvvat oladi, ruhiyatiga esh tuyg‘ularga oshno bo‘ladi.Inson tabiatning ajralmas uzvi sifatida u bilan hamohangdir.Buyuk mutafakkir shoir Bobur so‘zni yashash vositasi sifatida qabul qilgan hamda asarlarida tabiat bilan hamohanglikni mujassamlashtira olgan ijodkor.

Peyzaj (frans. paysage – mamlakat, joy) – 1) rassomlik (rangtasvir, grafika) va haykaltaroshlik (relyef) da tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar (qarang: Mantra); 2) adabiyotda – badiiy so‘z vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi. Peyzaj yozuvchining o‘z asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni bajarishi mumkin.Tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi o‘zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi.Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to‘laqonli ifodalashga yordam beradi.

Adib uchun vatanning har bir giyohi, daraxti, daryosi aziz va qadrli. Bobur Farg‘ona viloyati xususida fikr yuritar ekan, ushbu viloyatning ajoyib tabiatini, o‘ziga xosligini anglatuvchi sifatlarni kasf etadi.Hech bir narsa e’tibordan chetda qolmaydi. Tabiyatan sinchkov Bobur Farg‘ona tog‘larida uchraydigan tobulg‘u og‘ochi haqida fikr yuritadi, bu og‘ochning turmushda zarurligiga doir bir qancha xususiyatini sanab o‘tadi: *“Farg‘ona viloyatining girdo-girdi tog‘larida yaxshi yayloqlari bor Tobulg‘u yig‘ochi bu tog‘larda bo‘lur, o‘zga hech yerda bo‘lmas. Tobulg‘u bir yig‘ochedur, po‘sti qizil , aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarg‘a qafas qilurlar, tarosh qilib tirgaz qilurlar, xeyli yaxshi yig‘ochdur. Tabarruklik bila yiroq yerlarga eltarlar”.*

O‘lkamiz noyob giyohlarga to‘la. Giyohlar inson hayoti, salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Boburni noyob giyohlarning xususiyatlari qiziqtirgan. Misol uchun, mehrigiyoh degam giyoh haqida ham batafsil ma’lumotlar berib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Bobur asarda mehrigiyohning arabcha nomini (“yabruh us-sanam”) keltirib, uni o‘zi ko‘rmaganini, kitoblarda o‘qiganini yozadi. U o‘quvchisini noumid qilmaslik uchun Yettikent tog‘larida o‘sadigan “ayiq o‘ti” mehrigiyoh ekanini: *“Ba’zi kitoblarda bitibturlarkim, “yabruh us-sanam” (mehrigiyoh) bu tog‘lardadur, vale bu muddatda xech eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettikentning tog‘larida bo‘lur, ul el “ayiq o‘ti” derlar, mehrigiyoh xosiyatliq, g‘olibo mehrigiyohdur, ul el bu ot bila ayturlar”.*

“Boburnoma”ni o‘qirkanmiz, muallif diqqatini bog‘, oqar suv, gulzor, orasta maydon va rastalar ko‘proq o‘ziga jalb etganini kuzatamiz. Ko‘z o‘ngimizda tabiati go‘zal, suvlari tiniq, yerlari gulzor, tog‘lari ulkan va ma’danlarga boy dilbat yurtning yaxlit manzarasini gavdalantirgan: *“Andijon rudi O‘shning mahollotining ishi bila o‘tub, Andijong‘a borur. Bu rudning har ikki jonibi bog‘ot tushubtur, tamom bog‘lari rudqa mushriftur, binafshasi bisyor latif bo‘lur, qalin lola va gullar ochilur…”.*

Bobur Fargo‘na vodiysining odamlarini saxiy, mehmondo‘stligini alohida ta’kidlaydi. Shirindan shakar mevalari ko‘pligi haqida ma’lumot beradi: *“Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘z solib quruturlar, “subhoniy” derlar, bisyor lazizdur”.*

Zahiriddin Bobur olim sifatida Samarqandning Yer kurrasidagi jug‘rofiy o‘rnini o‘sha paytdagi “beshinchi iqlim”, “ramzi nujumiy”, “daraja va daqiqa” va boshqa atamalar bilan belgilaydi va “Rub’i maskunda Samarqandcha latif sharh kamroqtur”, deydi. Samarqandning islom dini va mafkurasini nazariy jihatdan asoslashda o‘ziga xos beshik bo‘lganini faxr bilan ta’kidlaydi, Samarqand eliga yuksak baho beradi:*“Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri’ va mutadayyin eldur”.*Bu bahoda islomiy aqidaga

sodiqlikdan tashqari, insonning fazilatlarini belgilovchi muhim jihat – jamiyat tartib –qoidalariga bo‘ysunuvchi, o‘z qadr-qimmatini ardoqlovchi kishilar sifati ham aytilmoqdaki, bu juda muhim jihatlardandir.

Samarqandning geografik joylashuvini ta’riflagan Bobur shahar tarixiga alohida to‘xtalgan. Uningcha, “Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur”(aslida Iskandar zabt etganda Samarqand katta shahar bo‘lgan va shu nom bilan atalgan). Bizga ma’lumki, qadimda shaharlar mustahkam qo‘rg‘onlar bilan o‘ralgan. Qo‘rg‘on devorining mustahkamligi, uzunligi shaharni, davlatni boshqargan hukmdor qudratining ramzi sifatida baholangan. O‘n ming olti yuz odimli Samarqand qo‘rg‘oni Bobur orzu qilgan poytaxt qo‘rg‘onidur: *“Qo‘rg‘onini, faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O‘n ming olti yuz qadam chiqti”.*

Zahriddin Bobur Samarqand qad ko‘targan vodiy haqida zavq bilan hikoya qiladi. “Boburnoma”ni mutolaa qilar ekanmiz, muallif shahar go‘zalligi, oqar suvlari, muhtasham binolaridan tuygan zavqini biz ham tuyamiz. Bobur yaxshi geograf olim sifatida, Samarqand chegaralarini birma-bir sanab o‘tar ekan, shahardagi Ko‘hak, Konigil, Bog‘i Maydon mavzelarining maftunkor go‘zalligini alohida shavq bilan tasvirlaydi. Uni, avvalo, Ko‘hak ariqlaridagi tiniq, zilol suvlar, Darg‘om suvi haqida yozarkan, Movarounnahr yerlarining muayyan qismi shu kanaldan bahramandligini uqtiradi: *“Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma’murdur. Buxoro va Qorako‘lgachakim, o‘ttiz-qirq, yig‘och yo‘lg‘a yovuqlashar, Ko‘hak suyi bila ma’mur va mazru’dur”.* Bobur o‘sha davrda ham Samarqand aholisi bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganini, dehqonchilik elning asosiy yumushi va rizq-ro‘zi manbayi bo‘lganini ta’kidlagan. Bunga Boburning quyidagi fikri yanada oydinlik kiritadi: “*Mundoq ulug‘ daryo (Zarafshon) aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to‘rt oy Buxorog‘a suv yetmas”.*

Samarqandda temuriylar saltanati davrida bir qancha madrasalar , binolar, osmono‘par minoralar qad ko‘targan. Amir Temur vafotidin yuz yilcha vaqt o‘tgach, Samarqandni ko‘rgan, bu shaharda yashab, uni tasvirlagan Bobur buyuk maskanning muhtasham ko‘shklari, masjid-u madrasalari haqida maroq bilan hikoya qiladi. Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldu, Naqshi Jahon, Bog‘i Chanor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Behisht singari bog‘lar inson qo‘lining yaratuvchilik mevasi ekanini ta’kidlab, buning natijasida jannatsimon o‘lka bunyod bo‘lganini maroq bilan ta’riflaydi.Bobur temuriylar davrida Samarqandda juda ko‘p imoratlar qurilganini aytib, shahardagi bir qadimiy imoratga o‘quvchi diqqatini tortadi: *”Samarqandning qal’asining ichida yana bir qadimiy imorattur, Masjidi Laqlaqa derlar. Ul gumbazning o‘rtasida yerga tepsalar tamom gumbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas”.*

Bobur Samarqandni ta’riflar ekan, fikr-mulohazalarini umumlashma tarzda bayon etadi.Bunda faqat shahar tavsifi emas, balki aholisining sarf-saranjomligi, o‘z ishining ustasi bo‘lgan kasb-hunar egalari ko‘pligini alohida ta’kidlagan: “Samarqand shahri ajab orasta shahredur, bu shahrda bir xususiyati borkim, o‘zga kam shahrda andoq bo‘lg‘ay.Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Vo‘b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur. Olamda yaxshi ko‘gaz Samarqanddin chiqar.Juvozi ko‘gazlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obi Rahmat ham derlar”.

Bundan tashqari, “Boburnoma”da Movarounnahrga tegishli Kesh viloyati haqida ham so‘z yuritilgan. U yerda Jahongir mirzo va boshqa qarindoshlarining qabrlari borligi va Amir Temur bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. Bobur yashagan davrda Qarshi Nasaf va Naxshab deb atalganini bilamiz. G‘uzor, Karman, Shovdor viloyatlari haqida ham qisqagina ma’lumot berib, muallif bu joylarning tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida to‘xtaladi.Shu bilan Bobur Movarounnahr o‘lkalari haqidagi ta’riflarini: “agarchi yana tumanlari ham bor, bu mazkur bo‘lg‘onlarcha emas.Ushmuncha bila iktifo qilildi”, deb so‘zini tugatadi.

Zahiriddin Boburning badiiy mahorati, so‘z san’atidan foydalangani hayotni real, go‘zal va aniq aks ettirishiga yordam bergani, ifodaning jonli, ta’sirchan chiqishiga ulush qo‘shganini yuqoridagi misollarda ko‘rdik. Umuman, o‘rta asr nasrida fikrni yuksak badiiy tarzda ifodalash, so‘z san’atidan mohirona foydalanish, real voqelikni boricha shoirona iboralarga, badiiy libosga o‘rab tasvirlash davr talabi bo‘lgan. Tarixiy, sarguzasht, ilmiy asarlarda ham badiiy vositalarni keng ko‘lamda qo‘llash so‘z qadri va mavqeyini saqlashning mezoni darajasiga ko‘tarilganki, bu o‘sha davr ma’naviyatida yuksak adabiy-estetik talabchanlik hukmron bo‘lganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: “O‘qituvchi”, 1976.
2. Adizova I.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2007.
3. Bobur Zahiriddin Muhammad.Boburnoma. – T.: Sharq, 2007.

Shaxlo BAZAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta-o‘qituvchisi
shahlobazarova84@gmail.com

XX ASR O‘ZBEK AYOLLAR ADABIYOTI: OYDIN SOBIROVA VA UNING IJODIY MEROSI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek adibasi Oydin Sobirova hikoyalari poetikasi haqida ma’lumot berilgan.Ijodkor hikoyalarining bosh qahramoni – ayollar.Shu sababli ham mazkur maqolada hikoyalarda aynan ayol qismati davr ruhi orqali ochib berilishi tahlilga tortiladi. Ijodkor badiiy mahoratiga munosabat bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *hikoya janri, makon va zamon, qismat, ayol ruhiyati, badiiy obraz, xarakter, ijodkor olami, badiiy detal, mazmun va shakl.*

Аннотация: в статье представлены сведения о поэтике рассказов узбекской писательницы Айдын Собировой. Главные герои рассказов писательницы – женщины. По этой причине в данной статье проводится анализ, в котором роль женщины в рассказах раскрывается через дух времени. Писательница показала свои художественные способности по достоинству.

Ключевые слова: *жанр рассказа, пространство и время, судьба, женская психика, художественный образ, персонаж, творческий мир, художественная деталь, содержание и форма.*

Annotation: the article presents information about the poetics of the stories of the Uzbek writer Aydin Sobirova. The main characters of the writer’s stories are women. That’s why, this article provides an analysis in which the role of women in the stories is revealed through the spirit of the times. The writer showed her artistic abilities at their true worth.

Key words: *story genre, space and time, fate, female psyche, artistic image, character, creative world, artistic detail, content and form.*

Kirish. Yangi voqelik zaminida XX asr boshlaridayoq o‘zbek adabiyotida yangicha nasr shakllana boshladi. Bu yangicha nasrning vujudga kelishi va rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari bor. Ma’lumki, oldingi davrlarda o‘zbek adabiyotida hozirgi ma’nodagi realistik nasr to‘la shakllanmagan edi. Hozirgi ma’nodagi romanlar, qissalar, hikoyalar yaratilmagan edi. Lekin bu, umuman olganda, o‘zbek adabiyotida o‘tmishda nasr va uning bo‘lmagan, degan ma’noni bildirmaydi, albatta. [1:23] Shunday bo‘lishiga qaramasdan bu davrda inson qismatining murakkabligiyu hayot haqiqatiga muvofiq keladigan asarlar yaratgan bir qator ijodkorlar borki, bular safiga XX asr o‘zbek adabiyotining to‘ng‘ich adibasi Oydin Sobirovani ham qo‘shsa bo‘ladi. XX asr o‘zbek xotin qizlari orasida birinchi bo‘lib yetishib chiqqan mohir hikoyanavis Oydin (Manzura Sobirova) o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Oydin yangi davr o‘zbek yozuvchilarining birinchi avlodiga mansub. U adabiyot maydoniga 20-yillarda kirib keldi.

Asosiy qism. Oydin (1906-1953) dastlabki vaqtlarda adabiyot maydonida yolg‘iz edi. Uning atrofida adiba bilan yonma-yon turib ijod qilgan ayol yozuvchilar deyarli yo‘q edi. Ular keyinchalik birin - ketin yetishib chiqa boshladilar. Oydinning eng katta xizmati va jasorati shundaki, u yangi adabiyotimizda xotin - qiz yozuvchilar safini birinchi bo‘lib boshlab berdi. Natijada, xotin - qizlar ozodligining otashin kuychisi sifatida adabiyot tarixidan joy oldi. Ijodiy merosining asosida ayollar erki, ozodligi, ilm-ma’rifatli bo‘lishi mujassam. Shubhasiz, Oydin Sobirova XX asr ayollar adabiyoti, xususan, ayollar nasrining rivojida alohida mavqega ega ijodkor sifatida nom qozondi.

Oydin murakkab va mazmundor hayot yo‘lini bosib o‘tdi. U bolaligidan yangi hayotga, ilm-ma’rifatga dadil qadam tashladi. 1923-yilda Toshkentdagi “Inpros” (pedtexnikum)ni, 1931-yilda Samarqanddagi pedakademiyani bitirdi. O‘qituvchilik qildi. O‘zbekiston davlat nashriyotida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladi. Respublika Yozuvchilar uyushmasida mas’ul kotib vazifasini bajardi. Oydin xotin-qizlarning “Yangi yo‘l” jurnaliga mas’ul kotib, “Yorqin hayot” jurnalida muharrir o‘rinbosari, respublika radio komitetida bo‘lim boshlig‘i, “O‘zbekiston xotin-qizlari”, “Saodat” jurnalida Bosh muharrir bo‘lib ishlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Oydinning kamolotga yetishida, shoira sifatida shakllanib, ijodiy o‘sishida Samarqand adabiy-ilmiy muhitining ta’siri katta bo‘lgan. Oydin 1927-1931-yillarda Samarqandda universitetda Hamid Olimjon, Uyg‘un kabi iste’dodli yosh shoirlar bilan birga o‘qiydi.

Oydinning 20-yillar o‘rtalaridan to 30-yillarning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan ijodi, asosan, she’riyatga bag‘ishlangan. Bu davrda shoira anchagina she’rlar va dostonlar yozib, “Tong qo‘shig‘i”, “Chechan qo‘llar”, “Oydin she’rlari” to‘plamlarini o‘quvchilarga taqdim etdi.

Oydin 30-yillarning oxirlariga kelib, deyarli butunlay hikoya janriga o‘tib oldi. “Gulsanam”, “Hazil emish”, “Yamoqchi ko‘chdi”, “Sadag‘ang bo‘lay komandir”, “Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit” singari rang-barang hikoyalar yozib, mohir hikoyanavis sifatida tanildi.

Xotin-qizlar hayotini tasvirlash, ularning jonli obrazlarini yaratish adiba hikoyachiligining (umuman ijodining) diqqat markazida turadi. Ana shunga ko‘ra Oydin ijodini o‘zbek xotin-qizlari hayotining badiiy tarixi, o‘ziga xos yilnomasi desa xato bo‘lmaydi. Oydin nafaqat ijodi bilan, balki shaxsiy fazilatlari bilan ham davr ayollariga o‘rnak bo‘la oladi, adabiy merosi bilan turtki bera oldi.

Oydin xotin-qizlar obrazini yaratish orqali hayot haqiqatini ochib berish tamoyiliga urushdan so‘nggi davrda ham sodiq bo‘lib qoldi. “Mardlik-mangulik”, “Hikoya va ocherklar”, “Hikoyalar” singari kitoblari ana shundan dalolat beradi. Bu kitoblarda adiba sodda, mehribon, itoatli, sabr-toqatli, sadoqatli o‘zbek ayolini, o‘zbek onasini obrazini yaratib bera olgan. Hikoyalarda bosh qahramon davr onasi, ayoli, qizi sifatida tasvirlanadi. Tasvirlarda ayollarning ilm-ma’rifatga intilayotgan holati, ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining yemirilishiga sabab bo‘lishi asos sifatida tanlangan.

Ijodkorning “Hikoyalar” kitobiga kiritilgan “Chaqaloqqa chakmoncha” kitobida davr qiyofasi va ayollar qismati yoritilgan. Mazkur hikoyada ijodkor ayollarning fojiali taqdiri orqali davr ijtimoiy muhitini ochib bergan. Hikoya bosh qahramoni Erqo‘ziyeva bo‘lib, u kalxozda faol ishchi.Yoshligidan mehnatga toblangan bu qiz voyaga yetib, o‘ziga munosib yigitga turmushga chiqadi. Lekin uning bir emas ikki emas, to‘rt farzandi tug‘ilganidayoq nobud bo‘ladi. Tug‘uruqxonada emas, uyida qushni kampirlarning yordamida dunyoga keltirgan farzandlarining nobud bo‘lishi Erqo‘ziyevani tushkun ahvolga soladi.Kampirlar unga bolasining yashab ketishi uchun har-xil maslahatlar berishadi. Jumladan: “Bolangga aks tegadi.Jinlar changal soladi. Uch marta qora tovuqni quchoqlab qoqtirgin, chillayosin qildirgin, ukki asrab, tug‘adigan chog‘ingda bosh tomoningga o‘tqizib qo‘ygin. Jinlar ukkining ko‘zidan qo‘rqadi, – deb qo‘yarda qo‘ymadilar. Bisotida bittagina gunafsha duxoba kamzuli bor edi, shuni sotib haligilarning hammasini qildi.Lekin bu bolasi ham o‘lik tushdi”.[2:4] Chunki, bunday fojiali qismatning qayta-qayta takrorlanishiga davr ayollarining ilmsizligi sabab edi. Shifoxonaga borishsa odamlar gap qiladi deydi hikoyada. Erqo‘ziyevaning turmush o‘rtog‘i bu kampirlaring nimani biladi, endigi farzandimizni shifoxonada dunyoga keltirasan deganda ayoli:

“ – Gap-so‘zga qolamiz “doktorxonada tug‘ibdi”, deb hammayoqda duv-duv gap bo‘lib o‘lar

Gap bo‘lsak, bo‘larmiz. Ish qilib bola omon bo‘lsin! Bu ham bir

tavakkalde, – deb sakrab o‘rnidan turdi.Osh-oshda qoldi, boshqa-boshqada. Er, xotin otlanishib chiqib ketdilar”. [2:5] Ular to‘g‘ri tanlov qilishgan edi. Erqo‘ziyeva doktorxonaga borib farzandini dunyoga keltirgani uchun to‘rt muchasi sog‘lom bolani dunyoga keltiradi.Bu kabi taqdirlar orqali ijodkor davr ruhini ochib beraolgan.Sababi usha davrda Erqo‘ziyeva singari qancha-qancha ayollar tug‘uruqxonaga bormasdan uylarida ilmsiz tibbiyot yordamida farzandlarini nobud qilishayotgan edi. Kampir doyalar yordamida qilinayotgan tug‘uruq jarayonidagi noto‘g‘ri hatti-harakatlar bolaning yoki onaning nobud bo‘lishi bilan yakunlanayotgan edi.Aynan mana shu hikoyadagi tasvirlarga yuqoridagi foje holatlar mujassam.

Davr talablariga hozirjavoblik, turmushdagi yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash, xususan, xotin-qizlarni “to‘rt devor ichida za’faron bo‘lib o‘tirishni bas qilishga” (Oydin), qaynoq ijtimoiy hayotga ishtirok etishga chaqirish – Oydin ijodining asosiy g‘oyaviy ma’nosini tashkil etadi.

Ijodkorning “O‘zidan ko‘rsin” hikoyasida Nazirjon ilmli, dunyo ko‘rgan yigit timsolida tasvirlansa, Shakarxon – onasining ta’siriga tushib, institutdagi o‘qishini yig‘ishtirgan, uyda utiradigan qiz sifatida tasvirlanadi. Adiba bu qahramonlarning fe’l-atvorini mahorat bilan ochib bergan. Har bir obraz o‘ziga poetik olam egalari. Shakarxonning onasi ayol kishi uyda o‘tirishi, ilm olish ayollarning ishi emas deb qaraydi. Shu sababli qizini ham ilm olishiga to‘sqinlik qiladi. Shakarxonning ilmsizligi, ta’lim olishdan yiroqligi Nazirjon va Shakarxonning onalarining orzusini amalga oshirmaydi. Nazirjon dunyoviy ta’lim-tarbiya ko‘rgan, ilm-ma’rifatli qiz bilan oila qurishni xoxlaydi. Hikoyada Nazirjon tilidan aytilgan “Ehe… Kishi o‘z tenglari bilan so‘rashish, gaplashib o‘ltirishdan ham uyaladimi, qizlar janglarda yigitlar bilan yonma-yon turib otishadilar, yaradorlarni bag‘rilariga bosib davolaydilar! Bu uyat emas, axir! Bu odamgarchilik, bu kishilarning haqiqiy odam bo‘lganligini ko‘rsatadi”,–[2:56] degan fikrlarida davr insonlarining eskicha fikrlashlari taraqqiyot emas, tanazzul belgisi ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Jamiyatda ayol va erkak teng ilm olishi lozimligi hikoyaning asosiy g‘oyasi sifatida talqin etiladi. Hikoya yakunida Shakarxon o‘z xohishi bilan yana institutga qaytadi va yangi zamon ostonasi sari ildam qadamlar tashlab ketadi. Albatta, Shakarxonning dunyoqarashining o‘zgarishida Nazirjonning ham ta’siri katta. Shakarxon eskicha fikrlashi bilan o‘z baxtini, iqbolini qo‘ldan chiqarishi mumkin ekanligini idrok eta oldi. U bir marta mana shunday holatga tushdi. Lekin hayotida bunday vaziyat ikkinchi bora takrorlanmasligi uchun ham u yorqin hayot – ilm olmoqlikka bel bog‘laydi.

Oydin hikoyalari mavzu, g‘oya va obraz e’tibori bilangina emas, til va badiiy mahorat e’tibori bilan ham qimmatlidir. Adiba xalqimizga xos milliy xususiyatlarni, milliy qadriyat, urf-odat, milliy xarakter belgilarini tasvirlashga usta. U onani onaga xos, kampirni kampirga xos, bolani bolaga xos fe’l-atvor, psixologiya va individual til bilan tasvirlaydi. Hikoyalarda yangi mavzularni badiiy ifodalash, yangi obraz yaratishga intilish tamoyili kuchli.

Oydin sujet va kompozitsiya yaratishda ham, milliy xarakter va ruhiyat tasvirini berishda ham, jonli xalq tili

va xalq og‘zaki ijodi boyliklaridan foydalanishda ham o‘z mahoratini namoyon qila olgan katta ijodkordir. Qisqa satrlarda keng ma’noni bera olish Oydin uslubining asosi sanaladi.Ijodkorning hikoyalari qisqa, lekin mohiyatan nihoyatda keng va mazmunli. Ijodkorning so‘zga chechanligi, bayonchilikka yo‘l qo‘ymasligi, asar mazmunini ochishda har bir so‘z ma’lum bir “yuk”ni o‘zida mujassam etishi bilan ham xarakterlidir.Bu hikoyalarda hayot haqiqati ixcham shaklda ifodalangan. Jonli xarakterlar yaratilib, hikoya g‘oyasi asarning umumiy ruhiga mohirona singdirib yuborilgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ayollar ijodi, xususan, nasrida ayollik nafosati va nazokati ufurib turishi, bu xususiyat, bu pafos ijodkorning adabiy-estetik qarashlari, publitsistik chiqishlarida yorqin ranglarda gavdalangan ayol martabasi va mas’uliyatiga bo‘lgan ehtirom tasodifiy bo‘lmaganligi, ayol dardini kuylash, ayol qalbini inkishof etish uning ko‘ngil e’tiqodiga aylangan jihatlar asosiy o‘rinda turadi. Mana shu jihatlari bilan ham adiba Oydin Sobirova XX asr o‘zbek ayolar adabiyotining peshqadami sifatida e’tirof etishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Ойдин. Ҳикоялар. –Тошкент, 1954.
3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024).Koreys tilida ot, sifat va boshqa so‘z turkumlarida polisimiya hodisasining ifodalanishi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December).Koreys tilidagi iboralarni o’zbek tiliga tarjimaqilishdagi qiyinchiliklar. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).
6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘zbek va koreys tillarida metaforaning o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).
7. Azizova, S. (2024). Koreys tilida kesimning turlari va uning gapda ishlatilishi xususida. tamaddun nuri jurnali.5(56).467-470.
8. Melikova, U. (2024). Koreys tilida bog ‘lovchilarning o ‘ziga xos xususiyati. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.
9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May).The importance of task-based teaching in second language acquisition. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).
10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.
11. Алимова, Д. (2021).Грамматическая категория выражения вежливости.Academic research in educational sciences, 2(12).1359-1366.
12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.
13. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Uljon MELIKOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

MORFONOLOGIK JARAYONLAR, FONETIK, FONOLOGIK VA GRAFIK MASALALAR TAVSIFI

(KOREYS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada koreys va o‘zbek tillaridagi morfonologik jarayonlar, ularning fonetik, fonologik va grafik ifodasi o‘zaro solishtirma tahlil asosida o‘rganiladi. Har ikki tildagi assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, metateza kabi hodisalarning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi.Shuningdek, morfemalarning fonetik o‘zgarishlari grafik shaklda qanday ifodalanishi masalasiga ham to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: *morfonologiya, fonetika, fonologiya, grafika, koreys tili, o‘zbek tili, morfema, fonetik o‘zgarish, assimilyatsiya, dissimilyatsiya.*

Annotation: this article examines the morphophonological processes in Korean and Uzbek, focusing on their phonetic, phonological, and orthographic representations through a comparative analysis. The study highlights the similarities and differences in phenomena such as assimilation, dissimilation, elision, and metathesis in both languages. Additionally, the paper addresses how phonetic changes in morphemes are graphically represented.

Key words: *morphonology, phonetics, phonology, graphy, korean language, uzbek language, morpheme, phonetic change, assimilation, dissimilation.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются морфонологические процессы в корейском и узбекском языках, их фонетическое, фонологическое и графическое представление на основе сравнительного анализа. Исследуются сходства и различия таких явлений, как ассимиляция, диссимиляция, элизия и метатеза в обеих языках. Также внимание уделяется тому, как фонетические изменения морфем отображаются в графической форме.

Ключевые слова: *морфонология, Фонетика, Фонология, графия, Корейский язык, Узбекский язык, Морфема, Фонетическое изменение, Ассимиляция, Диссимиляция.*

Tilshunoslikda morfonologik jarayonlar morfema va fonema o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi muhim soha hisoblanadi. Koreys va o‘zbek tillari tuzilish jihatidan farqli bo‘lishiga qaramay, morfonologik jarayonlar har ikki tilda muhim lingvistik hodisalar sifatida kuzatilgan.

Morfonologik jarayonlar: asosiy tushunchalar

Morfonologiya — morfologik birliklarning fonetik jihatdan o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘lim. Har ikki tilda quyidagi jarayonlar mavjud:

Assimilyatsiya (o‘xshashish):

O‘zbek tilida: “kitob+lar” → [kitoblar] (ovoz o‘zgarishi yo‘q)

Koreys tilida: “국밥” [국빱] (k/g tovushi p bilan assimilatsiyalashadi)

Dissimilyatsiya (farqlanish):

O‘zbek tilida: “tutmoq” o‘rniga ba’zida “tushmoq” deyilishi

Koreys tilida: kam uchraydi, lekin tarixiy fonetikada kuzatiladi

Eliziya (tovush tushib qolishi):

O‘zbek tilida: “bo‘libdi” → “bopti”

Koreys tilida: “좋다” [조타] (“좋”dagi ‘ㅎ’ tushadi)

1. ㄹTushib qolishi: -ㄹ 탈락 koreys tilida natog‘ri fe’llarni misol qilib olishimiz mumkin.

Fe’lning o‘zagi ‘ㄹ’ bilan tugasa va undan keyin ‘ㄴ, ㅂ,ㅅ’ undoshlari kelsa ‘ㄹ’ tushib qoladi.

Fe’l (동사)	ㅂ니다	으세요	는
알다	압니다	아세요	아는
놀다	놉니다	노세요	노는
만들다	만듭니다	만드세요	만드는
팔다	팝니다	파세요	파는
들다	듭니다	드세요	드는
살다	삽니다	사세요	사는
열다	엽니다	여세요	여는
울다	웁니다	우세요	우는

Yuqoridagi tushib qolish holati talaffuzni ravonlashtiradi va so‘zni ifodali o‘qilishini ta’minlaydi. Buni quyidagi misollar orqali ifodalaymiz.

친구의 집을 아는 사람이 있습니까?

Do‘stimning uyini biladigan odam bormi?

Metateza (tovushlar o‘rin almashishi):

O‘zbek tilida: tarixiy shakllarda (“barmoğ” →

“barmoq”)

Koreys tilida: kam uchraydi, ammo dialektlarda mavjud

Fonetik jihatdan o‘zgarishlar har ikki tilda morfemalarning talaffuzi va morfologik shakllariga bevosita ta’sir qiladi.Koreys tilida fonemalar talaffuzga qarab keskin o‘zgaradi (masalan, batchim tovushlari), o‘zbek tilida esa talaffuz yozuvga nisbatan barqarorroq.

O‘zbek tilida urg‘u so‘z oxiriga yaqin tushadi,

Koreys tilida urg‘u barqaror emas, intonatsiya muhim rol o‘ynaydi.

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida yosh grammatikachilar (mladogrammatiklar) maktabining fonetik qonunlariga javoban, nutq tovushlarining artikulyatsion fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo‘ldi. Garchi fonologiya termini ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan e’tirof etilsa-da, ammo bu termin ostida o‘rganilishi lozim bo‘lgan obyekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslarning juda ko‘p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: “Tovushlar fiziologiyasi ko‘p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko‘rinadi. Biz buni fonologiya termini bnlan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar evolyutsiyasi haqidagi ta’limot bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandir: u voqealarni, o‘zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi; fonologiya zamondan tashqaridir, chunki artikulyatsiya mexanizmi doimo *Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. o‘ziga o‘zi o‘xshashligicha qolaveradi».1

Jahon tilshunosligida fonologiya tilshunoslikiing alohida bo‘limi sifatida fonema va ularning farqlovchi belgilarini o‘rganuvchi soha deb e’tirof etildi (funksional tomoni). Yuqorida ta’kidlanganidek, fonologiya fonemalar haqidagi ta’limot sifatida yosh grammatikachilarning fonetikani ijtimoiy fanlar qatoriga emas, balki tabiiy fanlar qatoriga qo‘shish konsepsiyasiga qarshi yuzaga keldi. Bunday sharoitda an’anaviy fonetikaga yangi yaratilgan fonologiyaning qarama-qarshi qo‘yilishi, so‘zsiz, ijobiy hodisa bo‘ldi.Ammo keyinchalik bir qator tilshunoslar, xususan, daniyalik tilshunos L.Yelmslev va boshqa strukturalizm vakillari asarlarida fonetikadan fonologiyani farqlash shu darajaga yetdiki, ular bir-biridan tamoman ajralgan (fonetika tabiiy fanlar, fonologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradigan) ikki sohaga aylanib qoldi. Natijada fonologiyaning birligi bo‘lgan fonema o‘zining obyektiv reallikdagi material asosidan ajratib qo‘yildi.

3. Grafik ifoda va yozuvdagi tafovutlar

Grafik jihatdan koreys yozuvi (Hangul) fonematik prinsip asosida yaratilgan bo‘lib, har bir bo‘g‘in kvadrat shaklida yoziladi. O‘zbek yozuvi esa lotin asosidagi alifbo orqali harflar ketma-ketligida beriladi.

Masalan:

좋다 (koreys) = [조타]

yaxshi (o‘zbek) — fonetik va grafik jihatdan mos keladi, lekin yozuv tizimi butunlay boshqacha.

O‘zbek tilida esa undoshlarning hosil bo‘lishiga ko‘ra turlarga bo‘linishini koreys tilidan farqli ravishda kuzatishimiz mumkin va u quyidagicha:

portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;

sirg‘aluvchilar: v, f, z, s, y, r, 1, sh, g‘, x, ,h;

qorishiqlar: ch

(jadval-1)

		Lab tovushi	Til oldi tovushi	Til o‘rta tovushi	Til orqa tovushi	Bo‘g‘iz tovushi
Portlovchilar	Yengil tovush	ㅂ	ㄷ		ㄱ	
	Kuchliroq tovush	ㅍ	ㅌ		ㅋ	
	Kuchli tovush	ㅃ	ㄸ		ㄲ	
Qorishiq	Yengil tovush			ㅈ		
	Kuchliroq tovush			ㅊ		
	Kuchli tovush			ㅉ		
Sirg‘aluvchi	Yengil tovush		ㅅ			
	Kuchli tovush		ㅆ			
Burun tovushlari		ㅁ	ㄴ		ㅇ	
Yon tovushlari			ㄹ			

Unlilar (모음)

Agar undosh tovushlar nafas oqimi to‘sqinlikka uchragan holda hosil bo‘lsa, unli tovushlar esa bunday to‘sqinlik yoki to‘siqlardan xoli bo‘lib, bevosita chiqariladigan tovushlardir. Undosh tovushlar qanday hosil bo‘lishi va joylashishiga qarab tasniflangan bo‘lsa, unli tovushlar ham bir necha mezonlarga asoslanib tasniflanishi mumkin. Ya’ni, unli tovushlar lablar shakli, tilning balandligi, tilning joylashishi kabi omillarga ko‘ra tasniflanadi.

Xulosa. Koreys va o‘zbek tillarining morfonologik tizimlari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa-da, umumiyliklar ham mavjud. Har ikki til foydalanuvchilari uchun fonetik, fonologik va grafik jihatdagi tafovutlarni chuqur o‘rganish tilni mukammal egallashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.1Ф де Сессюр. Труды по общему языкознанию. – М., 1977. – С.70. 2Щчерба Л.В. Очередные проблеми языковедения // Изв. АН СССР, Отд. лит-рн. и яз. T.IV. 1945. Вып.5. – С.185 – 186. 2.Аванесов Р.И. Кўрсатилган асар. – С.21. 3Аванесов Р.И. Русская литературная и диалектная фонетика – М., 1974. – С.21.

2. 김진호, 언어학의 이해, 2004,65b

3. *Нурмонов А.Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

4. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.

5. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). Koreys tilida ot, sifat va boshqa so‘z turkumlarida polisimiya hodisasining ifodalanishi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.

6. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December).KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMAQILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).

7. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).

8. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

9. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG ‘LOVCHILARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.

10. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May).THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

11. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.

12. Алимова, Д. (2021).ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ.Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

13. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

Matluba SHUKUROVA,
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

SHE’RIYATDA MILLIY-MADANIY KONSEPTOSFERANI IFODALOVCHI VOSITALAR

Annotatsiya: zamonaviy tilshunoslikda badiiy tilni milliy va madaniy xususiyatlar orqali o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirlarimiz lirikasida sharqona chuqur lirizm, dramatizm ayol ruhiyati, kechinmalari, ayollik qalbi va jozibasi bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada “ayol” konseptining badiiy matndagi milliy va madaniy o‘ziga xosliklari shoirlarimiz she’rlari misolida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: *ayol, qadriyat, ma’naviyat, oila, konseptosfera, tarbiya, ona, timsol, lisoniy ong.*

Annotation: in modern linguistics, it is important to study an artistic language from a national and cultural perspective. In the lyrics of our singers, oriental deep lyrics and drama are combined with a feminine psyche, emotions, a feminine soul and charm. This article explores the national and cultural features of the concept “woman” in a literary text using the example of poems by Uzbek folk poets Oidin Khodzhieva and Enakhon Siddikova.

Key words: *femininity, sensibility, spirituality, seed, conceptosphere, behavior, symbol, human mind, mate.*

Аннотация: в современном языкознании важно изучение художественного языка с национальные и культурные особенности точки зрения. В лирике наших поетесс восточная глубокая лирика и драматизм сочетаются с женской психикой, переживаниями, женской душой и обаянием. В данной стате исследуются национальные и культурные особенности консепта «женщина» в художественном тексте на примере стихотворений народных поетов Узбекистана Ойдин Ходжиевой и Энахон Сиддиковой.

Ключевые слова: *женшина, сенности, духовност, семя, консептосфера, поведение, символ, человеческий разум, мат.*

Lingvokulturologik yondashuv tadqiqotchilarni mazmuni milliy va madaniy xususiyatlar bilan belgilanadigan madaniy universal konseptlarni o‘rganishga yo‘naltirdi. Ayol konsepti ana shunday milliy (ijtimoiy, etnik, axloqiy) g‘oyalarni o‘zida aks ettiruvchi umuminsoniy ahamiyatga molik konseptlar qatoriga kiradi.

O‘zbek milliy madaniyatidagi “ayol” konseptining nominativ sohasida quyidagi mavzu guruhlari ajralib turadi:

1. Ayollik tabiati. Insoniy xislatlar insonning shaxsiyatini shakllantiradigan ustunlardir. Ayollik – bu ayolning xatti-harakatlari va fazilatlarida namoyon bo‘ladi. Ayollik fazilatlarini quyidagicha belgilash mumkin: noziklik (ham jismonan, ham ma’nan), muloyimlik, xushmuomalalilik, bag‘rikenglik, moslashuvchanlik, sodiqlik, yumshoqlik, xotirjamlik, go‘zallik, jozibadorlik, kurashuvchanlik, sabr-toqatlilik va boshqalar.

2. Onalik. O‘zbek mentalitetida onalik yuksak qadrlanadi. Ota-ona, ayniqsa, ona insonning eng qimmatli yaqinidir. Qaysi millat vakili bo‘lishidan qat’i nazar, ona farzandlarini cheksiz mehr bilan sevadi.

3. Ayol – oila, qo‘rg‘on tayanchi. Ayol xonadon qo‘riqchisi bo‘lib, oilada ayolning roli juda katta. Erkakni qo‘llab-quvvatlab, doimiy motivatsiya beruvchi, farzandlar tarbiyasi-yu, ro‘zg‘or yumushlari ayol zimmasida.

4. Ayol – sevimli yor. Insoniyat yaralibdiki, uning hayoti muhabbat bilan to‘liqdir. Badiiy adabiyotning yetakchi mavzusi ham ayolga muhabbat, ayol tavsifidir.

5. Ayol – jamiyatning faol a’zosi. Bu tushuncha azaldan mavjud bo‘lib, o‘zbek xalqi tarixida To‘marisdan tortib Bibixonim, Gavharshodbegim, Nodira-yu Anbar Otinlarning hayoti va faoliyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

“Mohiyatan konsept ifodalovchi leksik birliklar miqdori chegaralangan, chunki har qanday voqelikni anglatadigan nom konsept bo‘la olmaydi. Konseptni borliqdagi shunday voqeliklar tashkil qiladiki, bunda ular ma’lum bir madaniyat egalari uchun dolzarb, qimmatli sanaladi hamda uni ifodalovchi ko‘p miqdordagi til birliklari mavjud bo‘ladi, bular jamiyatdagi muhim ijtimoiy voqeliklar, millatning o‘ziga xos bo‘lgan qadriyatlarida o‘z aksini topadi”[1].

O‘zbek tilida ayol konseptosferasidagi leksik-semantik birliklar sifatida quyidagilarni belgilashimiz mumkin: ona, buvi, opa, singil, qiz, nabira, yor, ma’shuqa, zavja, kelin, qaynona, qayinegachi, qayinsingil, quda, quda xola, quda buvi, qo‘shni, ustoz, olima, raqqosa, beka, hamshira, shifokor, o‘qituvchi, chevar, sarishta, mehnatkash, iboli, xayoli… Bu qatorni cheksiz davom ettirish mumkin.

Ana shunday nazariy xulosalarga tayangan holda, ishimizning mohiyatini Oydin Hojiyeva hamda Enaxon Siddiqova ijodi namunalari asosida *ayol* konseptining badiiy talqini masalasiga qaratamiz.

“Ayol” konseptosferasida “go‘zallik” tushunchasi ham zohiriy, ham botiniy ma’noda yetakchi belgilardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, **“bo‘y y**etgan qiz” tushunchasi o‘zbek milliy mentalitetida *poklik, bokiralik, qadr-qimmat, or-nomus, oila sha’ni* xislatlarini o‘z ichiga oladi. “Sharq

[1] Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021.41-42- **б.**

mutafakkirlari nazarida qiz bola go‘zalligi qalbidadir. Insonning tafakkur go‘zalligi, ma’naviy ruhiy go‘zalligi islom estetikasining asosini tashkil etadi va inson avvalo, axloqi tufayli ulug‘lanadi. Islom madaniyatida insonda asosiy go‘zallik ma’naviy go‘zallik bo‘lgan”[2].

Zero, hadislarda “Alloh sizning suratlaringiz va amallaringizga emas, balki qalblaringizga va niyatlaringizga boqar,” – deyilgan[3].

Oydin Hojiyevaning “Tamaraga” she’rida ana shu *“bo‘y y*etgan qiz” tushunchasini ifodalovchi tuyg‘ular o‘zining poetik verballashuvini aks ettiradi.

O‘riklisoy chashmalariday
Xayolingda mildiraydi sir.
Ovozingda shivirlaydi nay,
Nigohingda **pokiza ta’bir**.
Ko‘z tushmagan dala guliday
Bepardozu fe’li aslsan.
Chanqovuzning sodda tiliday
Sozandasin kutgan faslsan. (O.Hojiyeva, “Tamaraga”)

Oydin Hojiyeva balog‘at yoshidagi farishtaday beg‘ubor qizning suratini o‘*riklisoy chashmalariday, pokiza ta’bir, ko‘z tushmagan dala guliday* kabi chiroyli tashbehlar bilan shivirlab tasvirlaydiki, kitobxon ko‘z oldida pokiza qizning ma’sum nigohi-yu, hurkak xatti-harakatlari gavdalanadi. Demak, ayol shoiralar nazdida qalb go‘zalligi, ichki go‘zallik ko‘proq qadrlanadi.

Oydin Hojiyevaning yana bir she’rida bo‘y yetgan qiziga onaning quvonchi, shirin kechinmalari tasvirlangan.

Sen gullading – bog‘im, atir-anbarim,
Qirq og‘ayni gulim – boshga chambarim,
So‘nmas bahor, to‘kin yozim, gavharim,
Boshim uzra osmon bo‘ldi lojuvard.
G‘unchalading – farishtali bo‘ldi uy,
Bozor bo‘ldi, baxt-quvonchga to‘ldi uy,
Dutor – qalbim tillarida ming bir kuy,
Keksa dunyo yashnab, ketdi g‘ubor-gard. (O.Hojiyeva)

Onaning dunyoni anglashi qizi borligiga shukronalik hissi bilan yo‘g‘rilgani, qizi bilan faxrlanish hissi dunyoni boshqacha anglashga, boshqacha ko‘rishga turtki berishi atir-anbarim, so‘nmas bahorim, to‘kin yozim, gavharim, farishtali uy, dutor-qalbim kabi chiroyli o‘xshatish va metaforalar orqali aks ettirilgan.

Kelinchak etaloni milliy mentalitetimizda ma’sumlik, go‘zallik, latofat ramziga aylangan. Shuning uchun o‘zbek she’riyatida ko‘p qo‘llanadigan obrazlardan biridir.

Anvar Obidjon:
Tun pardasi ochilib asta
Chiqib kelar sahnaga quyosh.
Kelinchakdek bo‘lib orasta
Gul salomdan ko‘taradi bosh.

Faxriddin Hayit:
Shaffof tomchi dudog‘ingda xol,
Yulduzlardek gullaysan qiyg‘os.
Bosh egasan **kelinchak misol,**
Qaddingga ko‘rk turfa rang libos.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *kelin* so‘zining quyidagi tushunchalarni ifodalashi izohlangan:

1. Yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz.
2. O‘g‘ilning xotini (qaynota yoki qaynonaga nisbatan).
3. Ukaning xotini (aka yoki opaga nisbatan).
4. O‘zidan yosh bo‘lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojaat. (O‘TIL, 2-jild, 444-445-b.)

Kelinchak leksemasi esa *kelin* so‘zining erkalash-kichraytirish ma’nosini ifodalovchi morfemani olgan shaklidir. *Kelin(chak)* tushunchasining milliy madaniyatimizga xos xususiyatlari *kelinsalom, kelintushdi, yuzochar (yuzochdi), kelinko‘rdi (kelinko‘rar), kelinoyi, kelinposhsha* kabi leksemalar, *kelinlik davri, kelinlik sepi, kelinlik bisoti, kelinlik uyi* kabi so‘z birikmalari hamda *Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r, Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit* kabi frazemalar orqali verballashadi.

Kelinchak leksemasi esa *kelin* so‘zining erkalash-kichraytirish ma’nosini ifodalovchi morfemani olgan shaklidir. *Kelin(chak)* tushunchasining milliy madaniyatimizga xos xususiyatlari *kelinsalom, kelintushdi, yuzochar (yuzochdi), kelinko‘rdi (kelinko‘rar), kelinoyi, kelinposhsha* kabi leksemalar, *kelinlik davri, kelinlik sepi, kelinlik bisoti, kelinlik uyi* kabi so‘z birikmalari hamda *Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r, Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit* kabi frazemalar orqali verballashadi.

Bahor bisotidan ketadi yashnab,
Kelinchak uyiday ko‘hna saroylar. (O.Hojiyeva)
Yashil so‘qmoqlarda hilpirar shamol,
Tog‘lar elkasida pistoqi ro‘mol,
Qartaygan Er yangi kelinchak misol,
Hutning yomg‘irlari durdona bo‘ldi. (O.Hojiyeva)
Ming turfa ranglardan zangor quyunlar
Kelinchak zaminga taqar chambarak. (O.Hojiyeva)

O‘zbek mentalitetiga ko‘ra *“opa”* tushunchasi ham *“ayol”* konseptosferasidagi muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi.

Opa. 1. Bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga (ukalarga, singillarga) nisbatan katta qiz.

2. O‘zidan katta, ba’zan kichik ayollarga hurmat yuzasidan ularning ismlariga qo‘shib ishlatiladi, mas, Mastura opa.

3. O‘zidan katta, ba’zan kichik ayollarga hurmat bilan murojaat qilish shakli. (O‘TIL, 3-jild, 128-b.)

[2] Эшанова Г.Н. Ислом динидаги Шарқона ахлоқий қадриятлар масаласи // International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-1, October 2019.
[3] Жалолиддин Румий. Ичингдаги Ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997.153- б.

Shevaga xos “egachi” so‘zi ham “opa”ning sinonimi sifatida qo‘llanadi.

Abduvohid Hayit egachi so‘zi haqida: “Bu so‘z “ega” so‘zidan yasalmagan, “Devonu lug‘otit-turk”da “ekā” so‘zi bor va shunday izohlangan: “ekā – opa. O‘g‘uzlar ӧzā deydilar”. Ba’zi o‘zbek shevalarida bu so‘z “acha”, “eja”, qirg‘izlar ham “opa”ni “eja” deydilar. egachi” – “opa”ning sinonimi, “-chi” qo‘shimchasi e’zozlash, erkalash ma’nosida, ba’zi shevalarda akaning xotiniga nisbatan ham “egachi” deb aytilishini esa hurmat yuzasidan deb tushunish mumkin, – deb izoh beradi[4].

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning opasi Xonzodabegimning ukasini qutqarish uchun qilgan xatti-harakati opalarning o‘z jigarlariga fidoyiligi ramzi sifatida tarixga muhrlangan. Xonzodabegimning jasorati badiiy asarlarda ham o‘z in’ikosini topgan. Xususan, E.Siddiqovaning “Xonzodabegim” she’ri ham ana shu yo‘nalishda yozilgan. ***Xonzodabegimga ham oson bo‘lmaganligi, ukasi uchun jonini tikkanligi katta fidoyilik ekanligini quyma satrlar orqali ifodalaydi.***

Ko‘ksiga xanjarlar ekib borodir,
Jonin inisi-chun tikib borodir,
Oh yongan yuragin y*elpib borodir,*
Qovrilib esladim Xonzodabegim,
Ko‘zda yosh qo‘msadim Xonzodabegim.
Ko‘ndi xon h***arami, ota tengiga,***
Chag‘ir toshlar bilan urdi ko‘ngliga,
Qismat libosini kiydi egniga,
Qovrilib esladim Xonzodabegim,
Ko‘zda yosh qo‘msadim Xonzodabegim. (E.Siddiqova)

Shoira Xonzodabegimga murojaat orqali “opalik” qadriyatining ham oxori to‘kilib borayotganidan yozg‘iradi, opa-uka, aka-singillarning bir-biriga mehr ko‘rsatishi u qadar saqlanib qolmaganligidan o‘kinadi.

Bu kun vafo-hayo kun ko‘rmay qo‘ygan,
Qizlar selkillatib soch o‘rmay qo‘ygan,
Opalar iniga jon bermay qo‘ygan,
Qovrilib esladim Xonzodabegim,
Ko‘zda yosh qo‘msadim Xonzodabegim. (E.Siddiqova)

Ulamolarning ta’kidlashicha, siylayi rahmda opa-singil ota-onadan keyin aka-ukalardan ham oldingi o‘ringa qo‘yiladi.

Singil. 1. Bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi (opalariga, akalarga nisbatan) (O‘TIL, 3-jild, 509-b.)

Aytishlaricha, bug‘doyzor oralash hech kimga ruxsat berilmas ekan. Hatto, onasini axtarib ketayotgan kichik bolaga ham, bolasini yo‘qlab ketayotgan onaga ham. Sababi, bug‘doy – rizq-nasiba, aziz ne’mat bo‘lmish nonning asosi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bug‘doyzorni oralab o‘tish uchun faqat bir kishiga, ya’ni, singlisini yo‘qlab borayotgan **akaga** ruxsat berilar ekan.

Majnuntolday soya tashlaganlarim,
Qanotimga kirib qo‘shilganlarim,
Mehrda ipakday eshilganlarim,
Qoraqosh, qalamqosh singillarimsiz,
Ko‘ngli gul, toshbardosh singillarimsiz! (O.Hojiyeva)

Lirik qahramon safdoshlari, maslakdoshlarini o‘ziga yaqin olib *singillarimsiz* deya murojaat qiladi.

E.Siddiqovaning “Paxtakor singillarimga” she’ri ham shunday yondashuv asosiga qurilgan bo‘lib, faqat bunda *singil* tushunchasi fonida muallif xotin-qizlar masalasidagi ijtimoiylashuvning noqis tomonlarini kuyunchaklik bilan qalamga oladi:

Jang-u jadal derlar paxtazor bu kun
Yelkasida ketmon, qo‘lida bola,
Boshida belanchak, yaratar xirmon,
Ko‘ksi but bo‘lsin deb shu yupun dala.
Saraton o‘t purkar hasratlariga,
Chatnagan labida og‘rig‘u savol,
Tutlar panoh bo‘lsin go‘daklarimga –
G‘o‘zaga egilar bedarmon ayol. (E.Siddiqova)

Demak, birinchi misolda *singil* etaloni mehr ko‘rayotgan, shod hurram - “e’zozdagi singillar” tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi she’riy parchada singil tushunchasidagi *“mehrga muhtoj”* semasi xiralashgan, *singilni avaylash kerak* degan qadimiy milliy qadriyatlardan uzoqlashilgan, mehnat va qiyinchiliklarga tashlab qo‘yilgan holat aks etgan.

Xulosa shuki, “Ayol” konseptining asosiy farqlovchi belgilari **perseptiv** (vizual, ta’m, teginish, hid bilish) obrazlar va ko‘p sonli **kognitiv** (tabiat hodisalarining metaforik obrazlari, zoomorf, fitomorfik, antropomorfik) obrazlar bilan ifodalanadi. Konseptning axborot komponenti *“erkak jinsiga qarama-qarshi”, “ona vazifasini bajaradi”, “ayol jinsiga mansub”, «farzandli bo‘lish», «bolalar tug‘adi”, “avlodni davom ettiradi”* kabi eng muhim kognitiv xususiyatlar bilan belgilanadi.

2. O‘zbek milliy madaniyatidagi “ayol” konseptining nominativ sohasida quyidagi mavzu guruhlari ajralib turadi: a) ayollik tabiatiga xos jihatlar; **b) onalik;** v) **ayol - oila, qo‘rg‘on tayanchi; g) ayol – sevimli yor;** d) ayol – jamiyatning faol a’zosi.

3. O‘zbek adabiyotida ayol ijodkorlarning o‘ziga xos o‘rni va ovozi bo‘lib, bu uzoq yillik tarixiy jarayonni qamrab oladi. Xususan, ularning ijodida “ayol” konseptining olmos qirralari *mehribon ona, sadoqatli yor, latofatli yor, kurashchan ayol* kabi lirik, epik yoki dramatik qahramon sifatida har jihatdan badiiy talqiniga ega.

4. Matnni lingvokognitiv tahlil qilish, eng avvalo, uning konseptual strukturasi tahlilidir. Matn konsepsiyasini tahlil qilishning dastlabki bosqichida alohida e’tibor ma’lum bir so‘z bilan bog‘langan tuzilmalar matnli leksik-grammatik guruhlarni talab qiladi, konsept nomi subyektiv “ma’noni zichlashtirish” markazi sifatida o‘z atrofida shaxs tezaurusidagi ayrim “tugun”lar va unga mos ravishda olamning individual tasviri parchasining tiklanishiga imkon beradi.

[4] https: Oyina.uz.

Zarifa MUSTAFAQULOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

PEDAGOGIK DISKURSGA OID ANGLISIZMLAR LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqola pedagogik diskurs doirasida qo‘llaniladigan anglisizmlarning leksikografik tadqiqiga bag‘ishlanadi. Globallashuv va raqamli ta’limning pedagogik diskursga ta’siri tahlil qilinib, anglisizmlarning ta’lim muhitida qo‘llanilishi va ularning o‘quvchilarning til ongi shakllanishidagi roli ko‘rib chiqiladi.Shu bilan birga, anglisizmlarning mahalliy tilning o‘ziga xosligiga ta’siri va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik tahlil, pedagogik kontekst, til, madaniyat, pedagogik diskurs, o‘zbek pedagogik diskursi, ingliz tilli so‘zlar, ma’no xususiyatlari, leksik o‘zgaruvchanlik.*

Annotation: this article is devoted to a lexicographical study of Anglicisms used in pedagogical discourse. The study studies the reasons for the emergence of words borrowed from English into the Uzbek language, their phonetic and morphological adaptation, and their reflection in dictionaries. At the same time, the impact of Anglicisms on the identity of the local language and the problems arising in this process are discussed.

Key words: *linguistic analysis, pedagogical context, language, culture, pedagogical discourse, Uzbek pedagogical discourse, English words, semantic features, lexical variability.*

Аннотация: данная статья посвящена лексикографическому изучению англицизмов, используемых в педагогическом дискурсе. В исследовании изучаются причины появления слов, адаптированных из английского языка в процессе обучения узбекскому языку, их фонетико-морфологическая адаптация и отражение в словарях. При этом обсуждается влияние англицизмов на самобытность местного языка и проблемы, возникающие при этом.

Ключевые слова: *лингвистический анализ, педагогический контекст, язык, культура, педагогический дискурс, узбекский педагогический дискурс, английские слова, семантические особенности, лексическая вариация.*

Kirish.“Diskurs” atamasi lotincha “discursus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “suhbat”, “munozara” yoki “nutq” ma’nolarini anglatadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diskurs ko‘proq tilshunoslik, sotsiologiya, falsafa va pedagogika kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Diskursni oddiy qilib aytganda, ma’lum bir kontekstda til orqali fikr almashish jarayoni deb ta’riflash mumkin. Biroq, bu tushuncha faqat nutq yoki yozma matn bilan cheklanmaydi; u ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat tuzilmalari va madaniy me’yorlarni aks ettiruvchi kengroq tizim sifatida ham qaraladi.

Pedagogik diskurs – bu ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan til, muloqot va ma’no almashish tizimi bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni, shuningdek, ta’lim muhitidagi ijtimoiy va madaniy dinamikani aks ettiradi.Pedagogik diskurs nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki o‘quvchilarning shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy qadimiyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Anglisizmlar – ingliz tilidan boshqa tillarga o‘zlashgan so‘zlar yoki iboralardir. Bu jarayon til aloqalari, globallashuv va madaniy ta’sir natijasida yuzaga keladi. Anglisizmlar ko‘pincha texnologiya, iqtisod, sport, pop-madaniyat va ilmiy sohalarda uchraydi.Masalan, o‘zbek tilida “internet”, “televizor”, “marketing” kabi so‘zlar anglisizmlar sifatida keng tarqalgan.

Anglisizmlarning leksikografik tadqiqi til siyosati va ta’lim uchun muhimdir. Ular lug‘atlar tuzishda, tarjimada va til normalarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, anglisizmlarning haddan tashqari ko‘payishi mahalliy tilning o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfini keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilida “xayr” o‘rniga “bye” ishlatilishi keng tarqalmoqda, bu tilning sof saqlanishi haqida savollar tug‘diradi.

Adabiyotlar tahlili.O‘zbekistonda anglisizmlarning leksikografik tadqiqi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular asosan umumiy tilshunoslik va leksikologiya doirasida olib borilgan.Masalan, X.Umurovning “O‘zbek tilidagi xorijiy so‘zlar” asarida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning umumiy xususiyatlari va ularning o‘zbek tiliga moslashuvi o‘rganilgan.Biroq, bu tadqiqotlarda pedagogik diskursga alohida e’tibor qaratilmagan.Shu bilan birga, N.Mahmudovning “O`zbek tilidagi ta’lim terminologiyasi” ishi ta’lim sohasidagi leksik birliklarni tahlil qilgan bo‘lsa-da, anglisizmlarning leksikografik jihatlari chuqur yoritilmagan.

O‘zbek tilshunosligida Sh.S.Safarov[1], A.A.Abduazizov, U.Q.Yusupov, F.X.Abdullayev, J.B.Bo‘ronov, A.R.Sayfullayev, M.K.Sharipov, N.Q.Turniyozov[2], D.U.Ashurova[3], M.I.Rasulova[4], M.Abuzalova[5], G`.Zikrillayev, N.Mahmudov, U.Tursunov, B.Mengliyev kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning struktur va ma’noviy jihatlari hamda diskursiv-

pragmatik imkoniyatlari borasida qimmatli va asosli fikrlar bildirilgan. Shuningdek, tasviriy san'at diskursining turli tillarda berilishi masalasi X.B.Qodirovaning "Atama va izoh (milliy tasviriy va amaliy san'at atamalarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha izohlash masalasi)" nomli monografiyasida yoritilgan[6].

MDH mamlakatlarida, xususan Rossiya va Qozog'istonda, anglisizmlarning leksikografik tadqiqi bo'yicha kengroq ishlar olib borilgan.Rossiyalik olim V.Vinogradovning "Leksikologiya va leksikografiya" asarida ingliz tilidan rus tiliga o'tgan so'zlarning lug'atlardagi aks etishi tahlil qilingan.Qozog'istonda S.Moldabekovaning "Qozoq tilidagi anglisizmlar" tadqiqi ta'lim sohasidagi inglizcha so'zlarni qisman qamrab olgan, ammo leksikografik nuqtayi nazardan chuqur tahlilga ega emas. MDH mamlakatlarida anglisizmlar bo'yicha umumiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, pedagogik diskursga oid maxsus yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu sohada empirik ma'lumotlar va maxsus lug'atlar tuzish bo'yicha ishlar kamligi seziladi.

Diskursga oid diskurs tahlilini o'rganish muammolari jahon va rus tilshunosligida atroflicha o'rganilgan. Bu borada: T. Van Deyk[7], M.Fuko[8], Yu.Xabermas[9], Dj.Gee[10], N.Ferklaf[11], M.Yunga[12], N.D.Arutyunova[13], V.Z.Demyankova[14], A.A.Kibrik[15], V.I.Karasik[16], V.I.Tyup[17]lar tadqiqot olib borgan.

O'zbekiston, MDH va xorijiy adabiyotlarda anglisizmlar va pedagogik diskurs alohida yo`nalishlar sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, "pedagogik diskursga oid anglisizmlarning leksikografik tadqiqi" kabi o'ziga xos mavzu yetarlicha tadqiq qilinmagan.O'zbekistonda bu sohada maxsus ishlarning yo'qligi, MDH mamlakatlarida umumiy yondashuvlarning ustunligi va xorijiy adabiyotlarda mavzuning integratsiyalashgan shaklda ko'rib chiqilmaganligi ushbu tadqiqotning yangiligini korsatadi. *Mavzuning o'rganilganlik darajasida quyidagi bo'shliqlar mavjud deb hisoblaymiz:*

1) Pedagogik diskursdagi anglisizmlarning maxsus lug'atlarda aks ettirilishi bo'yicha tahlilning yo'qligi;

2) O'zbek tilidagi ta'lim muhitida anglisizmlarning fonetik-morfologik moslashuvi va semantik o'zgarishlarining chuqur o'rganilmaganligi;

3) Empirik ma'lumotlar (masalan, sinf xonasidagi muloqot yozuvlari) asosida tahlilning kamligi.

Shunday qilib, ushbu mavzu O'zbekiston kontekstida original tadqiqot sifatida rivojlantirilishi mumkin bo'lib, mahalliy va xalqaro tajribalarni sintez qilish orqali tilshunoslik va pedagogikaga hissa qo'shishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Pedagogik diskursga oid anglisizmlar leksikografik tadqiqi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ingliz tilining xalqaro muloqotdagi

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.

[2] Турниёзов Н. Отли сўз бирикмалари ва уларнинг деривацион хусусиятлари // Тилшуносликнинг назарий ва амалий масалалари. – Самарқанд, 2011. – Б. 4-10.

[3] Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка//ўзбекистонда хорижий тиллар/Илмий методик электрон журнал. – Ташкент, 2018. – №2 (21)

[4] Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент, 2005. – 268 с.

[5] Абузалова М., Йўлдошева Д. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Университет, 2005. – 176 б.

[6] Қодирова Х.Б. Атама ва изоҳ (миллий тасвирий ва амалий санъат атамаларининг ўзбекча – русча – инглизча изоҳлаш масаласи). – Тошкент: Impress Media, 2019. 78-б.

[7] Дейк Т.А. ван Язык. Познание. Коммуникация / Т.А.ван Дейк. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с.

[8] Фуко М. Археология знания: Пер. с фр. / Общ. Ред. Бр.Левченко. – Киев: Ника-Центр, 1996. – 208 с.

[9] Хабермас Ю. Философский дискурс о модерне / Пер. с нем. – М.: Изд-во Весь Мир, 2003. – 416 с.

[10] Gee J.P.An Introduction to Discourse Analysis / J.P.Gee / Theory and Method. – London: Routledge, 1999. – 299 p.

[11] Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.

[12] Jung M. Linguistische Diskursgeschichte II Öffentlicher Sprachgebrauch. Praktische und historische Perspektiven. Georg Stötzel zum 60. Geburtstag gewidmet. K.Boke, M.Jung, M.Wengeler (Hrsg.). – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1996.

[13] Арутюнова Н.Д., Левонтина К.Б. Логический анализ языка. Языки пространств. – М.: Языки русской культуры, 2000. – 448 с.

[14] Демьянков В.З. Когниция и понимание текста / В.З.Демьянов // Вопросы когнитивной лингвистики, 2005. – № 3. – С 5-10.

[15] Кибрик А.А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе. Автореферат дис. ... д-ра филол. наук. – М., 2003. – 90 с.

[16] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И.Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 390 с.

[17] Тюпа В.И. Дискурсные формации: очерки по компаративной риторике / В.И.Тюпа. – М.: Языки славянской культуры, 2010. – 320 с.

o‘rni ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy omillar bilan bog‘liq holda anglisizmlarning pedagogik kontekstda qo‘llanilishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Anglisizmlarni ikkiga bo‘lish mumkin:

- *To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalar*: ingliz tilidagi asl shakli saqlanib qoladi (masalan, “online”, “smartfon”).

- *Moslashtirilgan shakllar*: so‘z mahalliy tilning fonetik yoki morfologik qoidalariga moslashtiriladi (masalan, “futbol” – “football”dan).

Anglisizmlarning leksikografik tadqiqi. Leksikografik tadqiq – bu so‘zlarning lug‘atlarda qanday aks etishi, ularning ma’nolari, ishlatilishi va tasniflanishini o‘rganishdir. Anglisizmlarni leksikografik jihatdan tahlil qilishda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

- Lug‘atlarga kiritish: anglisizmlar qachon va qanday shartlar bilan mahalliy til lug‘atlariga qo‘shiladi? Masalan, o‘zbek tilidagi “Imlo lug‘ati”da “internet” so‘zi allaqachon mavjud.

- Ma’no o‘zgarishi: anglisizmlar yangi tilga o‘tganida ma’nosi torayishi yoki kengayishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “cool” (sovuq) so‘zi o‘zbek tilida “zo‘r” ma’nosida ishlatiladi.

- Fonetik va morfologik moslashuv: anglisizmlar mahalliy tilning tovush tizimi va grammatik qoidalariga qanchalik moslashadi? Masalan, “televizor” so‘zi o‘zbekcha qo‘shimchalar bilan ishlatiladi (“televizorim”).

Pedagogik diskursga oid anglisizmlar leksikografik tadqiqi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonining sifatini pasaytirishi, o‘quvchilarning anglisizmlarni noto‘g‘ri qabul qilishiga olib kelishi va pedagogik metodologiyaning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari anglisizmlarning pedagogik diskursdagi ahamiyatini va ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini ochib berdi. O‘quvchilarning 78% anglisizmlarni foydalanish zarurligini tan olgan bo‘lsa-da, 56% ular bilan bog‘liq qiyinchiliklarni his qilishmoqda. O‘qituvchilar orasida esa 64% anglisizmlar bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi ma’lum bo‘ldi, bu esa ta’lim sifatini pasaytiradi. Buning natijasida, anglisizmlar bilan bog‘liq dars materiallarining 45% noto‘g‘ri talqin qilinganligi aniqlanib, o‘quvchilarning bilim darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu ma’lumotlar, pedagogik diskursda anglisizmlarning to‘g‘ri va samarali qo‘llanishi uchun zarur metodologiyalarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Natijalar, shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirishga va anglisizmlarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu jarayonlar ta’lim sifatini yaxshilash va global ta’lim standartlariga mos ravishda rivojlanishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2020.
2. Umurov X. O‘zbek tilidagi xorijiy so‘zlar. – Toshkent: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
3. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi ta’lim terminologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Moldabekova S. Qozoq tilidagi anglisizmlar. – Almaty: Qazaq universiteti nashriyoti, 2019.
5. Rosen E.V. Pedagogicheskiy diskurs: lingvisticheskiy analiz. – Moskva: Flinta, 2014.
6. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
7. Fairclough N. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press. 1992.
8. Vinogradov V. V. Leksikologiya va leksikografiya. Moskva: Nauka. 2006.
9. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press. 2003.
10. Fuko M. Hokimiyat va bilim. (Tarjima). – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2002.

Nodirbek NEMATULLAYEV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
E-mail. nodirbekNM2704@gmail.com

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLAR TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqola o'zbek tilshunosligida frazeologik birikmalarning ilmiy tadqiqi va ularning tilshunoslikdagi o'rni haqida so'z yuritadi. Frazeologik birliklar tilning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, ular tilni boyitishda, uning ifodalovchanligi va mazmuniy qamrovini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada frazeologik birliklar turlari, ularning semantik va grammatika xususiyatlari, shuningdek, boshqa tillar bilan taqqoslanishi kabi masalalar o'rganiladi. O'zbek tilida frazeologik birikmalarni o'rganish nafaqat tilni, balki madaniyat va milliy mentalitetni tushunishda ham muhimdir.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, frazeologizm, tahlil, semantika, grammatika, madaniyat, mentalitet, o'zlashtirish, taqqoslash.*

Annotation: this article discusses the scientific study of phraseological units in Uzbek linguistics and their significance in the field of linguistics. Phraseological units are one of the distinctive features of a language, playing an essential role in enriching the language, expanding its expressiveness, and broadening its semantic scope. The article examines various types of phraseological units, their semantic and grammatical features, and compares them with other languages. Studying phraseological units in Uzbek not only enhances the understanding of the language but also provides insights into culture and national mentality.

Key words: *linguistics, phraseology, analysis, semantics, grammar, culture, mentality, assimilation, comparison.*

Аннотация: статья посвящена научному исследованию фразеологических единиц в узбекской лингвистике и их значению в языковедении. Фразеологические единицы являются одной из особенностей языка, играя важную роль в его обогащении, расширении выразительности и семантического охвата. В статье рассматриваются различные виды фразеологических единиц, их семантические и грамматические особенности, а также проводится их сравнение с другими языками. Изучение фразеологических единиц в узбекском языке не только углубляет понимание языка, но и помогает в освоении культуры и национального менталитета.

Ключевые слова: *лингвистика, Фразеология, Анализ, Семантика, Грамматика, Культура, Менталитет, Ассимиляция, Сравнение.*

Kirish. O'zbek tilshunosligida frazeologizm (frazeologik birliklar) o'rganilishi tilning boy va murakkab tabiati, uning ifodalovchanligi, semantik kengligi va grammatika tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Frazeologizm – bu tilning mustahkam, ma'lum bir grammatik va semantik tuzilishga ega bo'lgan birliklaridan biridir. Ular o'zaro bog'langan so'zlar yoki iboralardan tashkil topib, butun bir yaxlit ma'no ifodalovchi birlik sifatida ishlatiladi.

O'zbekistonning turli hududlarida va jamoalarida frazeologik birliklar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat til, balki milliy madaniyatni va dunyoqarashni ifodalovchi vositalar sifatida ham ishlatiladi. Shuning uchun frazeologizmni tahlil qilish o'zbek tilining mazmunan boyligini, uning ijtimoiy va madaniy kontekstini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Frazeologik birliklar nafaqat grammatika va semantika nuqtayi nazaridan, balki tilning xalqning mentaliteti, psixologiyasi va ko'rfazlarini aks ettiruvchi unsurlar sifatida ham qimmatlidir.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birikmalarni o'rganishning maqsadi tilni to'g'ri anglash, uning me'yorlari, tilning qay tarzda nutq jarayonida ishlatilishini tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tadqiqot o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini, boshqa tillarga nisbatan farqlarini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu ilmiy ishda frazeologik birliklarning turlari, ularning semantik va grammatika xususiyatlari, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil etiladi.

Shuningdek, frazeologik birliklarni o'rganish nafaqat tilshunoslik sohasida, balki xalqaro tilshunoslik va madaniyatshunoslikda ham muhim o'rin tutadi, chunki ular har bir millatning o'ziga xos dunyoqarashini va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Bu ilmiy ishda frazeologizmning o'zbek tilida qanday shakllanganligi,

uning xalq tilida qanday ifodalanganligi va boshqa tillarda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar bilan taqqoslanishi ko‘rib chiqiladi.

Bu tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologizmni o‘zbek tilshunosligida yanada chuqurroq o‘rganish, uning nazariy asoslarini aniqlash va bu tilning frazeologik tizimini to‘liq tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida frazeologizm, uning turlari va xususiyatlarini o‘rganish, bir qancha olimlarning ilmiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar, o‘zbek tilining semantik, grammatik va stilistik boyliklarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga birinchi bo‘lib, XX asrning 50-60-yillarida jiddiy ilmiy qarashlar shakllanib, ularning asosi sifatida tilshunoslarning frazeologizmga oid dastlabki izlanishlari yotadi.

O‘zbek tilida frazeologizmni o‘rganish borasida o‘zbek olimlari, jumladan, Sh. K. G‘ulomov, M. A. Azizov, O. A. Umarov, T. N. Mahmudov kabi ilmiy tadqiqotchilar o‘zining keng qamrovli ishlarini taqdim etgan. Ular frazeologizmning tilshunoslikdagi ahamiyatini ta’kidlab, bu birliklarning ma’no shakllanishi, ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berishgan.

Sh. K. G‘ulomov o‘zining ilmiy ishlarida frazeologizmning til tizimidagi o‘rnini belgilab, bu birliklarni nafaqat til, balki madaniyat, psixologiya va xalq tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan aloqalarini chuqur tahlil qilgan. M. A. Azizov esa o‘zbek frazeologiyasining tipologiyasi va uning shakllanish jarayonini o‘rganib, til birikmalarining kommunikativ vazifalarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar olib borgan. T. N. Mahmudov va O. A. Umarov esa frazeologizmni tarixiy va etimologik jihatdan tahlil qilib, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning rivojlanishini o‘rganishgan.

O‘zbekistonlik olimlar frazeologizmni nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham o‘rganib, frazeologizmni milliy tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida qarashadi. Frazeologik birliklar xalq tilining va milliy tafakkurning eng muhim vositalaridan biri sifatida ta’kidlanadi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Buning natijasida, frazeologik birliklar faqatgina til tizimining elementi emas, balki madaniyat va xalqning ruhiyatini ifodalovchi vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya.O‘zbek tilshunosligida frazeologizmni tadqiq etishda bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi.Bu tadqiqotda tilning frazeologik birliklarini o‘rganish uchun asosan lingvistik, semantik va tipologik metodlar asos qilib olingan. Lingvistik metod yordamida frazeologik birliklarning sintaktik va grammatik tuzilmalari o‘rganilgan bo‘lsa, semantik metod frazeologizmlarning ma’no shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari va o‘zgaruvchanligini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarning ko‘p tillilik jihatini o‘rganish uchun taqqoslash metodidan ham foydalanilgan.

Bundan tashqari, frazeologik birliklarning o‘zaro bog‘liqligini va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun diaxronik metodlar qo‘llanilib, frazeologik birikmalarning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Frazeologizmni o‘rganishda madaniy kontekstni hisobga olish zarur bo‘lganligi sababli, madaniyatshunoslik yondashuvi ham metodologik asos sifatida tanlangan.

Tahlil va natija. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar tahlil qilindi va ularning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari ko‘rib chiqildi. O‘zbek frazeologiyasining turli shakllari, jumladan, idiomatik iboralar, maqollar, matallarda ishlatiladigan frazeologik birliklar o‘rganildi.Frazeologizmning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda ularning so‘z turkumlari, o‘zaro bog‘lanishi, ma’no shakllanishi, hamda kommunikatsiyasi kabi jihatlar yoritildi.

O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat grammatik jihatdan emas, balki madaniy, tarixiy, ijtimoiy kontekstda ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, “yog‘dayi yomg‘ir” kabi frazeologizm xalqning tabiatni his qilish va ifodalash tarzini aks ettiradi, yoki “yashirin qo‘l” kabi ifodalar xalqning ijtimoiy va siyosiy tarixini yoritadi. Bu frazeologik birliklar nafaqat tilning o‘zi, balki xalqning madaniy va tarixiy xotirasini ham saqlaydi.

Frazeologizmning ko‘p tillilik jihatini o‘rganish ham juda muhimdir. O‘zbek tilidagi frazeologizmning boshqa tillarda qanday ifodalanganini taqqoslash orqali, tilning o‘ziga xosligini va ularning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqalarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘ngli oshiq bo‘lmoq” iborasi rus tilidagi “быть влюбленным” yoki ingliz tilidagi “fall in love” iboralari bilan taqqoslanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida frazeologizmning o‘rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Frazeologik birliklar nafaqat tilning grammatik va semantik jihatlarini, balki milliy madaniyatni va xalq tafakkurini aks ettiradi. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, frazeologizmni o‘rganish tilning boyligini va nutq jarayonidagi ko‘plab ifodaviy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, frazeologizmning ijtimoiy, madaniy va psixologik aspektlari tilshunoslikda yangi ilmiy yondashuvlar va tushunchalar shakllanishiga imkon beradi.

Tadqiqotda frazeologik birliklarning ko‘p tillik

aspektlarini o‘rganish o‘zbek tilining boshqa tillar bilan o‘zaro aloqasini va farqlarini aniqlashga yordam berdi. O‘zbek tilidagi frazeologizmning madaniyatga ta’siri va uning nutqdagi roli xalq tilining o‘ziga xosligini va tarixiy jarayonlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa, o‘zbek tilining lingvistik, madaniy va ijtimoiy jihatlarining yanada chuqurroq o‘rganilishi va tushunilishi uchun yangi ilmiy imkoniyatlarni ochadi.

Shu bilan birga, frazeologizmning tilshunoslikda alohida soha sifatida yanada rivojlanishiga katta ehtiyoj bor. Bu tadqiqotning natijalari o‘zbek tilining frazeologik tizimini yanada chuqurroq o‘rganishga va bu sohani rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar nafaqat til tizimining ajralmas qismi, balki xalqning madaniy merosi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim unsurlardir. Ularning tadqiqi tilning ifodalovchanligi, semantik boyligi va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek frazeologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning boshqa tillarga nisbatan farqlari va rivojlanish jarayoni tilshunoslikda katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning turli tahlil usullari va metodologik yondashuvlari o‘rganildi.O‘zbek tilida frazeologizmlar birinchi navbatda xalqning madaniy, psixologik va tarixi tajribalarini ifodalovchi vositalar sifatida ishlatiladi. Bu birliklarning semantik, sintaktik va grammatik xususiyatlari nafaqat til o‘rganuvchilari uchun, balki tilshunoslikda umumiy tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizm o‘zbek tilining boy semantik va grammatik imkoniyatlarini aks ettiruvchi muhim tarkibiy qism bo‘lib, uning ilmiy tadqiqi tilni to‘liq tushunishga, uning dinamikasini va rivojlanishini aniqlashga katta hissa qo‘shadi. Frazeologik birliklarning o‘rganilishi, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning boshqa tillar bilan bog‘liqligini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Bu tadqiqotning natijalari o‘zbek tilshunosligining rivojlanishida yangi istiqbollarni ochib beradi va tilni o‘rgatishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy asoslarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshmuratova D.U. O‘zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. – Termiz, 2023.34-35-b.

2. G‘ulomov Sh.K. O‘zbek frazeologiyasi. – Toshkent:O‘qituvchi nashriyoti, 1984.

3. Azizov M.A. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning sintaktik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1990.

4. Mahmudov T.N. O‘zbek tilidagi frazeologizmlar va ularning tipologiyasi. – Toshkent: Sharq, 1995.

5. Umarov O.A.O‘zbek frazeologiyasining madaniy va tilshunoslik aspektlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

6. Xolmatov A. Frazeologizm va uning o‘zbek tilidagi o‘rni. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2000.

7. Raximov F. O‘zbek tilida frazeologizm: Tahlil va ta’riflar. –Toshkent: Nurlitash, 2002.

8. G‘ulomov Sh.K.va Xudoyberganov B. O‘zbek tilining frazeologik tizimi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2004.

9. Shukurov B. Frazeologizm va uning tilshunoslikdagi o‘rni. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006

10. Ibragimov A. O‘zbek tilining frazeologik tizimi va uning nutqdagi roli. –Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2010.

Muhayyo MADUMAROVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“O‘zbek tillari va tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi
muhayyo.ferpi@gmail.com

NOLISONIY VOSITALAR ORQALI IFODALANADIGAN TANBEHLAR

Annotasiya: maqolada nolisoniy usul orqali berilgan tanbeh tinglovchiga lisoniy vositalar orqali ifodalangan tanbehdan ham ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: *paralingvistika, noverbal, nolisoniy, ekstralingvistika.*
Аннотация: в статье отмечается, что выговор, сделанный с помощью ненормативной лексики, может оказать на слушателя более сильное воздействие, чем выговор, выраженный с помощью языковых средств.
Ключевые слова: *паралингвистика, невербальная, экстралингвистика.*
Annotation: the article notes that a reprimand made with the help of profanity can have a stronger impact on the listener than a reprimand expressed with the help of linguistic means.
Key words: *paralinguistic, cognitive science, non-verbal, electonically, extralinguistic.*

“Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi” deydi buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy va bu fikrini davom ettirib, yana shunday yozadi: “So‘z – idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganlarning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok esa bilganlar uchun ko‘klarning, yerning hammasi so‘zidir. Hafif bir sasni eshitganga baqirib-chaqirishning nima hojati bor?...”Bularning hammasi tilshunoslikning “paralingvistika”– “nolisoniy vosita” deb atalmish o‘ta qiziqarli va o‘ta zarur bo‘limi bilan bevosita bog‘liqdir.

Mutaxassislarning fikriga qaraganda, odamlar o‘zaro muloqotlar chog‘ida o‘zlari aytmoqchi bo‘lgan fikrning faqat 7 foizinigina so‘z, qolgan 38 foizini ohang va 55 foizini imo-ishoralar orqali bayon etar ekanlar. Biroq mana shunday katta soha o‘zbek tilshunosligida nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham juda kam darajada o‘rganilganligi uchun tanbehning paralingvistik vositalar bilan bog‘liq tomonlari haqida so‘z yuritishdan avval tilshunoslikning bu katta sohasi haqida ba’zi bir fikrlarni bildirib o‘tishga to‘g‘ri keladi.Ilmiy uslubda “paralingvistika” atamasi faolroq qo‘llanishi bois avval shu termin lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalamiz.

Paralingvistika - tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, “tilga yondosh” degan ma’noni anglatadi va tilshunoslikda bu termin ostida fikrni nolisoniy yo‘l bilan bayon qilish nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra “noverbal”, “nolisoniy”, “ekstralingvistika” so‘zlari bu atamaga sinonim sifatida qo‘llaniladi. Inson o‘z nutqini ma’lum harakatlar bilan birgalikda yo‘naltirishi va bu harakatlar o‘ziga xos ma’no kasb etishi doimo psixolog, sotsiolog va lingvistlarni birdek qiziqtirib kelgan hamda ularning tadqiqot obyektlariga aylanib ulgurgan.

Dastlab psixologlar noverbal vositalarni “Ifodali xatti-harakatlar” deb nomlaganlar va ularni “Ekspressiv xulq” rubrikasi ostida emotsional doira kontekstida tadqiq etganlar. Bunga Ch. Darvinning “Virajenie emotsii u cheloveka i jivotnix” nomli asari turtki bo‘lganligini ta’kidlaydilar.Rus psixologlari esa “Ifodali xatti- harakatlar”ni ijtimoiy personal nuqtayi nazaridan noverbal xulq (xatti-harakat), noverbal kommunikatsiya sifatida baholaydilar.

XX asrning qirqinchi yillarida psixolog S. L. Rubinshteyn ifodali harakatlarga izoh berar ekan, “Ifodali harakatlar nutqqa ma’lum darajada aralashib, qo‘shilib ketadi va ular xabar yetkazish, ta’sir etish quroliga aylanadi”, deb ta’kidlaydi.Kommunikativ vaziyatlarda adresat nutqiga aralash holatda kelgan noverbal vositalar lisoniy birliklar bilan birgalikda nutqqa qo‘shimcha ma’no qo‘shib keladi.Boshqacha qilib aytganda, noverbal vositalarni psixologlar idrok qilish, tanish, sharhlash orqali ularning o‘ziga xos semantizatsiyasini o‘qish mumkinligini e’tirof etadilar. Kommunikativ aktdagi noverbal vositalarning o‘rni, roli, ma’nosi, ishlatilish xususiyatlari bir qator filosof, psixolog, sotsiolog va tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, sotsiumning ijtimoiy vazifasi: kasbi, hunari bilan bog‘liq jihatlari hozircha o‘z tadqiqini kutmoqda. Shuning uchun turli kasb egalari muloqot xulqining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ularning ana shu muloqot xulqida ma’lum o‘rinni egallovchi noverbal vositalardan qay tarzda va qanday foydalanishiga, ulardan anglashiladigan o‘ziga xos semantizatsiyalarga e’tibor qaratdik.Rus psixologi V.A. Labunskaya o‘zining “Noverbalnoe povedenie” asarida kommunikativ aktda kishilar tomonidan ijro etiladigan noverbal vositalarni turkum, tur, komponent va elementlarga ajratadi. Unga ko‘ra, noverbal vositalar dastlab ekstralingvistika, prosodika, kinesika, takesika kabi turkumlarga ajratiladi. Turkumlar o‘z navbatida turlarga, ya’ni ekstralingvistika - pauza, yo‘talish, xo‘rsinish, kulish va yig‘lash kabi turlarga; prosodika - talaffuz, ovoz, temp, tembr, kabi turlarga; kinesika - ekpressiya, adverbial harakatlar, ko‘z qarash kabi turlarga; takesika statik va dinamik to‘qnashishlar kabi

turlarga bo‘linadi va ular ham o‘z navbatida komponent va elementlarga ajraladi.

Noverbal vositalar bevosita kommunikatsiya jarayonida nutqqa qorishib unga emotsional ko‘rinish, ekspressiv “jon kiritish” uchun xizmat qilar ekan, turli kasb egalari muloqot xulqiga xos bo‘lgan shunday xatti-harakatlar ham borki, ular nutqqa qo‘shilmaydi, ya’ni nutq ishtirokisiz qo‘llaniladi. Kuzatishlarimizdan har bir sotsium o‘z ijtimoiy sohasi talabiga ko‘ra ma’lum funksiyani bajarish bilan birga ana shu funksiyaga tegishli bo‘lgan noverbal vositalardan foydalanishi ma’lum bo‘ldi. Bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin: birgina serqatnov ko‘chada transportlar va piyodalar harakatini tartibga solayotgan Dan xodimi harakatlarini ko‘z oldingizga keltiring. Uning har bir harakatlari ko‘cha harakati qatnashchilariga ma’lum informatsiyani beradi, ya’ni Dan xodimi o‘ziga xos noverbal xatti-harakatlar orqali haydovchilar va piyodalar bilan kommunikatsiyaga kirishadi. Harakatni tartibga soluvchi Dan xodimi (regulirovshik)ning harakatlaridan “to‘xtang”, “yuring”, “tayyorlaning” kabi semantizatsiyalar (tanbeh, ogohlantirish, buyruq) ni tushunish mumkin.Yoki harbiy sohaga xos noverbal vositalarning mavjudligini harbiylarning o‘zaro kommunikativ munosabatlarida ham kuzatish mumkin.Ularning qadam olishi, o‘zini tutishi, salomlashuv va murojaat bosqichlarida bajaradigan o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi barchaga ma’lum. Shuningdek, topshiriq bilan faoliyat ko‘rsatayotgan bir guruh harbiylar guruh boshi (komandir) bilan oradagi masofadan qat’i nazar maxsus noverbal xatti- harakatlar yordamida ma’lumot almashadilar. Chunonchi, komandirning chap qo‘lni ko‘tarib, kaftini musht qilishi “harakatlanishni to‘xtating” ma’nosini, shu holatda mushtini yozib yuborishi “Berkining!” ma’nosini, ko‘rsatkich barmog‘ini yuqoriga qilib, havoda doira chizishi “O‘rab oling!” ma’nosini anglatadi.

Darsga kirganda o‘qituvchi: o‘quvchilarning o‘rinlaridan turib unga salom berishini kutadi. Dars paytida shovqinni bosish, o‘quvchilarga tanbeh berish uchun ruchkasini stolga urib taqillatib ”tinchlaning”, ko‘rsatgich (ukazka) ni ko‘rgazmaga tekkizib “e’tibor qiling” kabi signallarni berish bilan kommunikatsiyaga kirishadi. Bulardan ko‘rinadiki, tanbeh faqat so‘z va gaplar vositasidagina emas, imo-ishora, xatti-harakatlar orqali berilishi mumkin. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasidan olingan quyidagi parchada fikrimizga oid quyidagilarni o‘qiymiz: “Nodirmohbegim sandal ichidan oyog‘ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko‘zi bilan “xayriyat tushunmadi, bas qil, gapirma” deb ishora qildi...” Odob-axloq mavzusida o‘tkazilgan bahs-munozaralardan birida so‘z olgan talabamiz mavzuga oid quyidagi hayotiy voqeani hikoya qilib bergan edi: “O‘tgan kuni dadam ikkalamiz choy ichmoqchi bo‘ldik. Shu payt televizorda qiziq ko‘rsatuv boshlanib qoldi.Men choyni damlab, dasturxonga olib kelib qo‘ydimu piyola olib kelish esimdan chiqib, televizor ko‘rib qolibman. Shu payt dadam “piyola olib kelmaysanmi?” deyish o‘rniga boshlaridan do‘ppilarini olib, choynakka tutdilar va “quy!” degan ma’noda menga qaradilar. Men darrov gapga tushundim va uyalib ketdim...”

Nolisoniy vositalar orqali tanbeh berishning tur va usullari rang-barang va juda ko‘p bo‘lib, oddiygina tomoq qirib qo‘yish, norozi ohangda gapirishlardan tortib bir ma’nili qarab qo‘yishlar orqali ham sodir etilishi mumkin. Ayniqsa, otalarning oddiygina tomoq qirib qo‘yishlarida ham olam-olam ma’no yashiringan bo‘ladi. Milliylik nuqtayi nazaridan: umuminsoniy va bir millatga aloqador tanbehlar.

1. Hudud nuqtayi nazaridan: faqat bir hudud vakillari o‘rtasidagina qo‘llanadigan tanbehlar.

2. Umumiylik va individuallik nuqtayi nazaridan: ko‘pchilik tomonidan bir xilda, alohida shaxslar tomonidan o‘ziga xos usulda qo‘llanadigan tanbehlar.

3. Axloq nuqtayi nazaridan: o‘rinli va o‘rinsiz tanbehlar.

Mahorat nuqtayi nazaridan: me’yorida va muloyimlik bilan, me’yorni bilmasdan va qo‘pollik bilan qilinadigan tanbehlar.

Nolisoniy vositalar muloqot jarayonida so‘zdan o‘n karra ko‘proq qo‘llaniladi va bularning hammasi tanbehlarga ham tegishlidir.

Nolisoniy usul orqali berilgan tanbeh tinglovchiga lisoniy vositalar orqali ifodalangan tanbehdan ham ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kolshanskiy G.V. Paralingvistika. – M.: Nauka, 1974.80-s.

2. Leontev A. A. Slovo o rechevoy deyatelnosti. – M.: Nauka, 1965.114-s.

3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent, 2007.184-b.

4. Mo‘minov S.O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fanl. dokt. dis.Avtoref. – Toshkent, 2000. 48-b.

Iroda ALMARDANOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
erkin tadqiqotchisi
iroda_almardanova@tues.uz

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING STRUKTUR TAVSIFI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi iqtisodiy terminlarning struktur tuzilishi, yasalishi, monosemantik jihatdan qo‘llanilishi, iqtisodiy terminlarning termin sifatida qo‘llanilishida izohli lug‘atda, umumiste’moldagi leksika bilan sohada termin sifatida berilishi tadqiq etilgan. Shuningdek, O‘zbek tili izohli lug‘atlaridagi iqtisodiy terminlarni tuzilishiga ko‘ra turlarga bo‘lib o‘rganishda iqtisodiy terminlarning yasalish xususiyatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, struktura, termin, iqtisodiy termin, monosemantik, umumiste’mol, so‘z yasalishi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются структурная структура, формирование, однозначное употребление экономических терминов в толковых словарях узбекского языка, а также употребление экономических терминов в качестве терминов в толковых словарях, общей лексике и по специальности. Также особенности образования экономических терминов были проанализированы при изучении экономических терминов в узбекских толковых словарях, разделенных на типы по своей структуре.

Ключевые слова: *словарь, структура, термин, экономический термин, однозначный, универсальный, словообразование.*

Annotation: in this article, the structural structure, formation, and monosematic use of economic terms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language, the use of economic terms as terms in the explanatory dictionary, and the use of common lexicon as polysemous are studied.

Key words: *vocabulary, structure, term, economic term, monosematic, universal, word formation.*

Kirish.Tilni strukturaviy tahlil qilish, ya’ni tizim sifatida o‘rganishga Ferdinand de Sossyur ilgari surgan nazariyalar asos bo‘ladi. Tildagi har bir so‘z, tushuncha o‘zining qurilish strukturasiga egadir. Ayniqsa, leksikografiya sohasidagi olib borilgan tadqiqotlar ham sistem tilshunoslik negizida ravnaq topdi. O‘tgan asrning 70-80- yillaridan tilshunos izlanuvchilarning tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qila boshlagandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Terminning struktur tarkibi, V.P.Danilenkoning ko‘rsatishicha, uch lug‘aviy qatlamni o‘z ichiga oladi: 1) noterminologik leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Agar umumilmiy terminlar bir fan doirasi bilan chegaralanmaydigan umumiy ma’nolarni ifodalasa, terminologik leksika (konkret terminotizimning maxsus so‘zlari) ilm-fan tilining eng ko‘p ma’no tashuvchi qismi haqida uqtiradi.

Iqtisodiy faoliyat sohasida tabiiy tildagi bir qator o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodiy terminlarning xilma-xilligi ularning strukturasini izchil tadqiq qilish, lingvistik mohiyati til tizimining birligi sifatida o‘rganish zaruriyatiga ehtiyoj tug‘diradi. Iqtisodiy terminlarning asosiy jihatlarini strukturaviy yondashuvdan tahlil qilish o‘rinlidir.

Sabirova E. O‘TIL dagi huquqiy terminlarni terminlar tor qatlam uchun xos bo‘lgan birlik va ko‘p hollarda yuqoridagi kabi birikmali shaklda mavjudligi bois huquqiy terminlarning struktur xususiyatlarini tadqiq qilishda umumiy holda quyidagi guruhlarga ajratgan.

1) sodda;
2) qo‘shma;
3) juft;
4) birikma kabi [Sabirova E.,45-b].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tili izohli lug‘atlaridagi iqtisodiy terminlarning struktur tavsifi mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, lug‘aviy-ma’noviy, qiyosiy, struktural, tasnifiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. **Ayirboshlash –** Ayir+boshlash sintaktik yasalish fe’l+harakat nomi

2 iqt. Kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o‘zaro almashtirishlari. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-jild]

Aylanmoq 1 O‘z o‘qi yoki biror narsa tevaragida harakat qilmoq, aylana bo‘ylab davra olib yurmoq.

2 Sayr-tomosha yoki boshqa maqsadda kezmoq.

3 Biror yerda yoki doirada o‘ralashib yurmoq; aylanishmoq.

4.iqt. Muomalada bo‘lmoq, yurmoq. Pulning aylanishi**.**

5. Boshqa narsaga, boshqa holatga o‘tmoq. Suv muzga aylandi.

6. (ayrim so‘zlar bilan) Tusini kasb etmoq, shunday bo‘lmoq

Aylanib o‘tmoq 1) biror narsaning atrofi bilan o‘tmoq. Binoni aylanib o‘tmoq; 2) hisobga olmaslik, chetlab o‘tmoq…

Bo‘lib to‘lash [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-jild]

BOSHQARISH sifatdosh+harakat nomi 1 Boshqarmoq fe’l harakat nomi. Xo‘jalikni boshqarish. Oilani boshqarish.

2 iqt. Xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni. Boshqarishning iqtisodiy- ma’muriy usuli. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-jild]

NAFLILIK ot+sifat+ot Tovarlar va xizmatlarning o‘z xususiyatlariga ko‘ra ehtiyojlarni qondirish xossasi yoki ularni iste’mol qilishdan har bir shaxs oladigan muayyan qoniqish. Har qanday ne’matlarning naflilik darajasi uning tabiiy xossalari va sifatiga bog‘liq. Gazetadan. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 3- jild]

RUXSATNOMA ot+ot [ruxsat +noma] **1** Yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat. Navbatchi politsiyachilar ruxsatnomani ko‘rib bizni ichkariga qo‘yishdi. “Fan va turmush”. – Mana order. – Zohid shunday deb ruxsatnomani ko‘rsatdi. T. Malik. Shaytanat.

2 iqt. ayn. **litsenziya 1 …** chetga chiqariladigan mahsulot uchun ruxsatnoma berish tartibi anchagina soddalashtirildi. Gazetadan. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 4- jild]

SINISH fe’l+harakat nomi 1 Sinmoq fl.har.n. Piyolaning sinishi. Daraxt shoxining sinishi. – *Goho qamchining zaharli charsillashi, tayoqning qars etib sinishi va g‘azabli hayqiriq eshitiladi*. O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa.

2 fiz. Bir muhitdan ikkinchi muhitga o‘tishda yorug‘lik yo‘nalishining o‘zgarishi. *Yorug‘likning qaytishi va sinishi. Sinish burchagi.*

3 iqt. q. **bankrotlik.** [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 4 -jild]

TAQCHILLIK sifat+ot 1 Yetishmaslik holati, taqchil hol. Yog‘och, taxta taqchilligi. – Respublikamiz sug‘orma dehqonchiligida ma’lum darajada suv taqchilligi sezilib turadi. “Fan va turmush” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5- jild]

2 iqt. ilgari belgilangan rejalashtirilgan yoki zarur darajadagi mablag‘, resurs, tovarlarning yetishmasligi, tanqisligi; defitsit. *Tovarlar taqchilligi. Byudjet taqchilligi.*

TAVAKKALCHILIK ot+ot tavakkal bilan ish tutish, tavakkal ish. *Bilimsiz, tajribasiz bolalarni mening qarshiligimga qaramay, qaltis tavakkalchilikka boshlagan siz emasmi edingiz*? A.Muxtor, Tug‘ilish. *Buyuk ishlarning ko‘pchiligi tavakkalchilik bilan qo‘lga kirgan, buni inkor qilib bo‘lmaydi.* J.Abdullaxonov, To‘fon.

2 iqt. Foydadan mahrum bo‘lish va boshqa sabablarga ko‘ra zarar ko‘rish singari yomon oqibatlar ro‘y berish ehtimoli. *Tavakkalchilikka aoslangan o‘yinlar.* [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5- jild]

Tadqiqotimizda e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘TIL ning 6 tomlik nashridagi iqtisodiy terminlarning izohida polisemantik ma’nolari berilgan. Bu so‘zluklarning qo‘llanilishi semantik maydonnining leksik qatlamda farqlanishini taqozo etadi. **Ayirboshlash, boshqarish, sinish** fe’lning harakat nomi shakli bo‘lsa, iqtisodiy termin sifatida ham soha termini sanaladi. **Sinish** so‘zlugi esa ham iqtisodiy, ham fizika oid termin sifatida izohlangan va qo‘llaniladi. Bundan tashqari, O‘TILning 2022-yilda nashrida sohaviy terminlar iqtisodiy terminlarning boshqa sohada ham qo‘llaniladi.

Amortizatsiya lot.amortisatio-qoplash **1** iqt. Mehnat vositalarining (mashina, jihoz, bino va sh.k.) eskirishiga qarab, ular qiymatini muayyan davr mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustiga qo‘ya borish, shu yo‘l bilan eskirgan vositalar bahosini qoplash.

2.moliyaga oid termin. Alohida shaxs yoki tashkilotning uzoq muddatli qarzni asta-sekin (hissalarga bo‘lib to‘lash) yoki qarzni sotib olib uzishi.

Balanslamoq 1 iqt. Xo‘jalik va savdoda o‘zaro bog‘langan sohalarni bir-biri bilan muvofiqlashtirmoq, to‘g‘ri nisbatga keltirmoq.

2 buxg. Balanslarni yakunlamoq, balans chiqarmoq.

3 tex. Mashina va mexanizmlarning aylanuvchi qismlarini muvozanatga keltirmoq.

BAZIS yun.basis - asos **1** iqt. Asos, negiz.q.**baza 1,2**

2 fls (falsafaga oid termin).iqt. Jamiyat taraqqiyotining ma’lum tarixiy bosqichida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari yig‘indisi. *Bazis jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi iqtisodiy tuzumdir.* Gazetadan.

DEPRESSIYA I [lot. depression - ezilish, bosilish] 1 tib.Tushkun ruhiy holat.

2 iqt. Xo‘jalik tizimida, ijtimoiy faoliyat sohasida yuz beradigan turg‘unlik, harakatsizlik, o‘sishdan to‘xtash holati.

IMMOBILIZATSIYA [lot. immobilisis - qimirlamaydigan, harakatsiz] **1** tib. Sinish-chiqishda, bo‘g‘im kasalliklarida gavdaning shikastlangan yoki kasal qismini qimirlamaydigan qilib qo‘yish.

2 iqt.Ko‘chuvchi (harakatdagi) mol-mulkni ko‘chmas mulkka aylantirish.

INDEKS [lot. index - ko‘rsatkich; sarlavha] **1** Biror

narsaning nom, baho va sh.k. ko‘rsatkichi, ro‘yxati. Chiqarilayotgan kitoblar indeksi. Tovarlar indeksi.

2 iqt. Iqtisodiy hodisalarning tadrijiy o‘zgarishlarini foizlar hisobida ifodalovchi raqam ko‘rsatkichlari. *Mehnat unumdorligi indeksi.*

3 mat.kim. Asosan, matematik ifoda, kimyoviy element ramzi ostiga qo‘yiladigan harfiy yoki son ko‘rsatkichi.

SANATSIYA [lot. sanatio – davolash, sog‘lomlashtirish] iqt. **1** Korxonalar, firmalar, kompaniyalar va b.ni bankrotlikdan qutqarish, ularning moliyaviy ahvolini yaxshilashga, tiklashga qaratilgan davlat va bank chora-tadbirlari tizimi. Sanatsiya qilish. Sanatsiya obyektlari. - Sanatsiya orqali davlat bozor iqtisodiyotiga ta’sir etadi. “O‘zME”.

2 tib. Og‘iz bo‘shlig‘ini sog‘lomlashtirish bo‘yicha davolash - profilaktika choralari. Tishlarni sanatsiya qilish.

Amortizatsiya moliyaga, *depressiya, immobilizatsiya, sanatsiya* tibbiyotga oid, *balanslamoq* buxgalteriya va texnikaga, *bazis* falsafaga, *indeks* matematika va kimyoviy termin sifatida ham izohlanganini ko‘ramiz.

Iqtisodiy terminlarning yasalishida affikatsion usul ham alohida o‘ringa egadir. O‘zbek tili iqtisodiy terminlarning yasalishida faol affikslar -lik, -chilik faoliyat - jarayon ot yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi.

Hozirgi rivojlangan tillar leksik tarkibida ko‘plab sohalarning terminosistemalari mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy hayot, muayyan xalq, fan sohalarining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bilan uyg‘un holda shakllanib, rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. [Islomov I.52 b] Xususan, *Ayirboshlash, aylanmoq, boshqarish, naflilik, ruxsatnoma, sinish, taqchillik, tavakkalchilik* iqtisodiy terminlari adabiy tilga xos so‘zlardir. Ular umumiste’molda monosemantik termin sifatida qo‘llaniladi, bu terminlar esa bir tizimga soladigan bo‘lsak, iqtisodiy terminlar nomi asosida birlashganini ko‘ramiz. Umumiste’molda qo‘llaganimizda ular o‘z maydonida semantik jihatdan farqlanadi. Leksemalarni omonimlik nuqtai nazardan ham ko‘rsatadigan bo‘lsak, o‘z va ko‘chma ma’nolari farqlanadi. Iqtisodiy termin sifatida esa ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Qayd etish joizki, ularning aksarlariga iqtisodga tegishlilik belgisi qo‘yilmagan. Chunki ushbu birliklar umumiste’molda ham keng qo‘llanadi. Odatda izohli lug‘atlarda leksik birliklar keltirilar ekan, ma’lum bir sohaga tegishlilik belgisi qo‘yiladi. Shu jihatdan kelib chiqib “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da iqtisodiy terminlarga iqtisodiy terminologik sohasiga mansublikni bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qo‘yilgan.

Xulosa. Til birliklarini tilda so‘zlashuvchi subyektlardan ajratgan holda o‘rganadigan sistemali yondashuv doirasida bu savolga to‘liq javob berish mumkin emas. Ushbu birliklarni ularni retsipiyentlar tomonidan talqin qilish jarayonida tekshiriladi. Iqtisodiy terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi, lug‘atning boyishi, struktur jihatdan tasniflanishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши. ф.ф.ф.д (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. 180-б.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildlik. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2022.

3.Исломов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2021. 215-б.

Dilrabo XONOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

RUS TILINI O‘QITISHDA GAPIRISHNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNIKALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: til o‘rgatish nazariyasi va metodikasi sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kommunikativ yondashuv asosida til o‘qitish natijadorligi yuqori bo‘ladi. Bu yondashuv tilni tabiiy muhitda, muloqot jarayonida o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, tilni faqat nazariy qoidalarga asoslangan holda emas, balki amaliy nutqiy faoliyat orqali o‘rganishni talab etadi. Shu bois rus tilini o‘qitishda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy texnikalarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijalari rus tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarning nutq faoliyatini faollashtirish va ularning lingvistik kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *gapirish, ko‘nikma, kommunikatsiya, yondashuv, interfaol, metod, o‘yinlar, texnologiya.*

Аннотация: исследования в области теории и методики преподавания языка показывают, что обучение языку более эффективно на основе коммуникативного подхода. Этот подход направлен на овладение языком в естественной среде, в процессе общения и требует изучения языка не только на основе теоретических правил, но и посредством практической речевой деятельности. Поэтому совершенствование современных методик, направленных на развитие разговорных навыков при обучении русскому языку, рассматривается как важная научно-практическая задача. Результаты исследования служат активизации речевой деятельности студентов, изучающих русский язык, и повышению их языковой компетенции.

Ключевые слова: *говорение, умение, общение, подход, интерактив, метод, игры, технология.*

Annotation: research in the field of language teaching theory and methodology shows that language teaching based on a communicative approach is more effective. This approach is aimed at mastering the language in a natural environment, in the process of communication, and requires learning the language not only based on theoretical rules, but also through practical speech activity. Therefore, the improvement of modern techniques aimed at developing speaking skills in teaching the Russian language is considered an important scientific and practical issue. The results of the research will serve to activate the speech activity of students learning the Russian language and increase their linguistic competence.

Key words: *speaking, skills, communication, approach, interactive, method, games, technology.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda til bilish, ayniqsa, xalqaro muloqot va hamkorlik jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tili bugungi kunda postsovet hududida, xalqaro iqtisodiy va siyosiy maydonda faol qo‘llaniladigan tillardan biri bo‘lib, uni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Til o‘rganishda asosiy kompetensiyalardan biri bu – gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishdir. Gapirish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish va madaniy-tarixiy kontekstni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Rus tilini o‘rganishda grammatik va leksik bilimlarning yetarliligi o‘quvchilarning to‘liq muloqot qila olishini kafolatlamaydi. O‘zbekistonda rus tili xorijiy til sifatida o‘qitilayotganligi sababli ko‘pchilik o‘quvchilar uni faqat darsliklar va grammatik qoidalar orqali o‘rganishga intiladilar. Bu esa gapirish kompetensiyasining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘pincha talabalar grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishlari mumkin, biroq real muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin ifodalashga qiynaladilar. Shuning uchun til o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ayniqsa, gapirishga yo‘naltirilgan interfaol texnikalarni joriy etish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon pedagogikasida intellektual, yetuk va ijtimoiy faol shaxslarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Butunjahon ta’lim forumida qabul qilingan va 2030 - yilgacha mo‘ljallangan konsepsiya “... har bir inson hayoti davomida sifatli ta’lim olishi uchun imkoniyatlar yaratish ...”[1] ustuvor vazifa bo‘lib, talabalar o‘rtasida ijtimoiy faollik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integratsiya tizimining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi.

Butun dunyoda barkamol yosh avlodni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda, yoshlarning zamonaviy ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha

[1] Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitablequality education and lifelong learning for all // Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea.

izchil ishlar davom etmoqda.

Mamlakatimizda turli sohalarda, xususan, ta'lim va fan sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda, ijodiy fikrlaydigan insonni tarbiyalash davlat siyosati maqomiga ko'tarilmoqda. Ayni kunlarda ta'lim talabalardan yangicha fikrlashni talab qiladi. Muloqot doirasida, odamlar jamiyatida duch keladigan muammolar ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

Oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitishda ijodkorlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish mamlakatimizda yashovchi xalqlarning tarixi va ma'naviy rivojlanishini o'rganishning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatida ta'kidlashicha: "...mamlakatimizda ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda yoshlarning xorijdagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu noyob iste'dodlarni tarbiyalash va rivojlantirish va shu bilan birga o'z salohiyatini global darajada namoyon etish imkoniyatini berish uchun ajoyib imkoniyatdir"[2].

Oliy ta'lim tizimida rus tilini o'qitish sohasida talabalarni yangicha fikrlashga o'rgatish muammolari, ularning ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan G.X.Bakiyeva[3], L.T.Ahmedova[4], D.R.Djumanova[5], S.S.Magdiyeva[6], A.T.Nurmanov[7], S.X.Abdullayeva[8], M.Ch.Aliyev kabi olimlar ish olib borganlar.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ta'limda chet tillarini o'rgatish nafaqat grammatika qoidalarini va lug'at boyligini o'zlashtirishni, balki nutqiy kommunikatsiya qobiliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasi talabalari uchun rus tili – bu nafaqat kundalik muloqot vositasi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida moliyaviy-xo'jalik munosabatlarini yo'lga qo'yishning muhim vositasidir. Shu sababli, rus tilini o'qitish jarayonida gapirish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, ayniqsa iqtisodiy terminologiya va professional muhitni hisobga olgan holda ishlash talab etiladi.

Gapirish qobiliyatini oshirishning eng samarali usullaridan biri – bu muhokamalar o'tkazishdir. Iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun global va mahalliy iqtisodiy muammolar haqida fikr almashish juda foydali bo'ladi. Masalan, "Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning kelajagi" yoki "Kriptovalyutalar an'anaviy pul tizimiga tahdid soladimi?" kabi mavzular bo'yicha munozaralar uyushtirish mumkin. Bunday muhokamalarda talabalar nafaqat fikrlarini mustaqil bayon qilishni, balki "Menimcha...", "Statistik ma'lumotlarga ko'ra...", "Shunga qaramay..." kabi tuzumlardan foydalanishni ham o'rganadilar.

Rolli o'yinlar (role-play) usuli ham talabalarning nutq mahoratini oshirishda juda samarali hisoblanadi. Bu usul orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, "Bank xodimi va mijoz", "Sotuvchi va xaridor" kabi dialog turlarini o'ynash orqali ular nafaqat nutq mashq qilish, balki "kredit shartnomasi", "foiz stavkasi", "chegirma" kabi professional atamalarni ham o'zlashtirishadi.

Holatlar tahlili (case-studies) usuli talabalarning nafaqat rus tilidagi nutq qobiliyatini, balki analitik fikrlashini ham rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar guruh bo'lib, "Kompaniya zarar ko'rmoqda. Qanday choralar ko'rish kerak?" yoki "Valyuta kursining o'zgarishi importga qanday ta'sir qiladi?" kabi mavzular bo'yicha muammolarni muhokama qilishadi. Bu jarayonda ular "Bizning fikrimizcha...", "Buning uchun quyidagi choralarni ko'rish kerak..." kabi iboralardan foydalangan holda o'z fikrlarini mantiqiy tartibda bayon qilishni o'rganadilar.

Munozaralar (debates) o'tkazish ham talabalarning nutqiy qobiliyatini oshirishning yana bir samarali usulidir. "Davlat iqtisodiyotga aralashishi kerakmi?" yoki "Erkin savdo shartnomalari ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib keladimi?" kabi mavzular bo'yicha o'tkaziladigan munozaralarda talabalar "Men bu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlayman, chunki...", "Boshqa tomondan..." kabi tuzumlardan foydalanish orqali o'z fikrlarini asoslash qobiliyatini rivojlantirishadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham rus tilida gapirish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. **TEDx** va **YouTube**dagi "Dunyo iqtisodiyoti qanday ishlaydi?" kabi videolar, "Iqtisodiyot oddiy tushunchalar bilan" kabi Telegram kanallari, shuningdek, Sun'iy intellekt yordamchilari (masalan, ChatGPT) bilan suhbatlashish talabalarga nafaqat nutq mashq qilish, balki yangi terminlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Demak, iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun rus tilida gapirish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017-йил 2-декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаати 2 / Правда Востока. – № 248 (28706). *2- б.*

[3] Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Ташкент, 2012.

[4] Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Автореф. дисс. … доктора пед. наук. – Ташкент, 2012. 48- с.

[5] Джуманова Д.Р. Формирование речевого контроля и умения совершенствовать написанное у студентов национальных групп неязыковых вузов (на материале изложений и сочинений): Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Ташкент, 1992. 17- с.

[6] Магдиева С.С. Современные технологии преподавания русского языка. – Ташкент, 2008. 66- с.

[7] Нурманов А.Т. Педагогические возможности подготовки студентов к технологии и технике эффективного общения (на примере внеаудиторных занятий): Автореф. дисс. … доктора пед. наук. – Ташкент, 2017. 280 -с.

[8] Абдуллаева С.Х. Рус тилини ўргатишда нофилологик ОТМ талабаларини инфокоммуникацион технологияси лексикасига ўқитиш: Автореф. дисс..… докт. философии (PhD) по пед.наукам. – Ташкент, 2020. 57-бет.

jihatlar ahamiyatga ega: professional terminologiyani o‘zlashtirish, real hayotiy vaziyatlar orqali muloqot qobiliyatini oshirish va interaktiv metodlardan foydalanish. Ushbu usullarni qo‘llash orqali talabalar nafaqat rus tilidagi nutq mahoratini, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan kommunikativ ko‘nikmalarini ham takomillashtirishadi.

Texnologiyalarning rivojlanishi bilan rus tilini o‘qitishda gapirishni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Audio va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarga rus tilida so‘zlashuvchilarning tabiiy nutqini eshitish imkonini beradi. Masalan, o‘qituvchi rus tilidagi filmlar yoki podkastlardan parchalar tanlab, o‘quvchilardan eshitganlarini qayta aytib berishni so‘rashi mumkin. Bu usul nafaqat gapirishni, balki talaffuzni ham yaxshilaydi, chunki o‘quvchilar so‘zlarning to‘g‘ri aytilishini eshitib, uni taqlid qilishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, zamonaviy dasturlar va ilovalar orqali o‘quvchilar virtual suhbatdoshlar bilan mashq qilishlari mumkin. Masalan, sun’iy intellektga asoslangan chat-botlar bilan gaplashish o‘quvchilarga sinfda bo‘lmagan vaqtlarda ham rus tilida muloqot qilish imkonini beradi.

O‘qituvchilar gapirishni rivojlantirishda o‘quvchilarning xatolariga nisbatan mos yondashuvni tanlashlari juda muhimdir. Agar o‘qituvchi har bir xatoni darhol tuzatsa, bu o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va gapirishdan qo‘rqishini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ko‘p hollarda o‘qituvchilar xatolarni faqat mashq oxirida umumiy tarzda tahlil qilishni afzal ko‘radilar. Masalan, agar o‘quvchi grammatik xato qilsa, lekin uning nutqi tushunarli bo‘lsa, o‘qituvchi avval uning fikrini tinglaydi va keyin xatoni muloyimlik bilan tushuntiradi. Bu usul o‘quvchilarni xato qilishdan qo‘rqmaslikka o‘rgatadi va ularga gapirish jarayonidan zavq olish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini alohida e’tirof etib, ularni rag‘batlantirishi kerak, chunki ijobiy fikr-mulohaza motivatsiyani oshiradi.

Rus tilida gapirishni rivojlantirishda o‘quvchilarning madaniy kontekstni tushunishi ham katta ahamiyatga ega. Til faqat so‘zlar va qoidalar to‘plami emas, balki ma’lum bir xalqning madaniyati va turmush tarzini aks ettiruvchi vositadir. Shu sababli, o‘qituvchilar o‘quvchilarga rus madaniyatiga oid mavzularni muhokama qilishni taklif qiladilar. Masalan, rus xalq ertaklari, bayramlar yoki an’analar haqida gapirish o‘quvchilarga nafaqat so‘z boyligini kengaytirishga, balki tilni madaniy nuqtayi nazardan chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning nutqini boyitadi va ularga rus tilida fikr yuritishni o‘rgatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, rus tilini o‘qitishda gapirishni rivojlantirish uchun turli texnikalar va usullardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Rollarni o‘ynash, munozaralar, dialog va monologlar, texnologik vositalardan foydalanish, madaniy kontekstni o‘rganish, hikoya qilish va o‘yin elementlari kabi usullar o‘quvchilarni rus tilida ravon va ishonchli gapirishga o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning xatolariga to‘g‘ri yondashish va har birining individual ehtiyojlariga mos mashqlarni tanlashdan iborat. Natijada, o‘quvchilar nafaqat tilni o‘rganibgina qolmay, balki uni real hayotda qo‘llashdan zavq olishadi. Bu esa rus tilini o‘qitishning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizova N. Chet tillarini o‘qitishning zamonaviy metodlari. 2020.

2. Bekmuratova U. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun maxsus terminologiyani o‘rgatish. 2019.

3. G‘ulomov S. Kommunikativ yondashuv asosida rus tilini o‘qitish. 2021.

4. Ivanova O. Rus tili darslarida holatlar tahlilidan foydalanish. 2018.

5. Karimov J. Zamonaviy texnologiyalar yordamida chet tilini o‘rgatish. 2022.

6. Eshmuratova D.U. O‘zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. – Termiz. 2023. 34-35-betlar.

Zulfiyaxon MASODIQOVA,
QDPI, Xorijiy filologiya fakulteti katta o‘qituvchisi

NEMIS TILIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada nemis tili darslarida og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan texnika va mashqlar muhokama qilinadi. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini oshirish, muloqotga bo‘lgan ishonchini oshirish va talaffuzini yaxshilashga yordam beradigan asosiy usullar tavsiflanadi. O‘quv jarayoniga samarali integratsiyalash mumkin bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq, nemis tili, texnikalar, mashqlar, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish.*

Аннотация: в статье рассматриваются приемы и упражнения, направленные на развитие навыков устной речи на уроках немецкого языка. Описаны основные методы, помогающие студентам улучшить навыки говорения, повысить уверенность в общении и улучшить произношение. Приведены примеры практических упражнений, которые можно эффективно интегрировать в процесс обучения.

Ключевые слова: *устная речь, немецкий язык, приемы, упражнения, развитие навыков говорения.*

Annotation: the article discusses techniques and exercises aimed at developing oral communication skills in German lessons. The main methods are described that help students improve their speech skills, increase their confidence in communication, and improve their pronunciation. Examples of practical exercises that can be effectively integrated into the learning process are given.

Key words: *oral speech, German, techniques, exercises, development of speech skills.*

Zamonaviy turmush tarzi chet tillarini o‘rganishni talab qiladi, chunki ular tufayli insonning ishlab chiqarish va biznesning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyati sharti amalga oshiriladi. Maktabda chet tilini o‘rgatishning asosiy maqsadi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ya’ni chet tilini muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishdan iborat. Axborot davrida olingan bilimlarni o‘qitish tizimlari va tanqidiy fikrlash yordamida to‘ldirish kerak, talabalarni chet tilini uzluksiz o‘rganishga tayyorlash uchun o‘qitishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish kerak, shunda uni o‘rganish inson hayoti davomida hamroh bo‘ladigan ijodiy jarayonga aylanadi. Ko‘pincha, mashg‘ulotlarda “ko‘p tomonlama” muloqotni amalga oshirishda o‘qituvchilar chet tilini o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanadilar. Ta’lim muassasalarida o‘qitishning interfaol usullariga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda, chunki bu usullar o‘qituvchi va o‘quvchilarning faol birgalikdagi faoliyatiga, ularning o‘zaro ta’siri va muloqotiga qaratilgan. O‘qitishning interfaol usullari o‘quvchilarga nafaqat o‘qituvchi bilan, balki bir-biri bilan muloqot qilish, to‘plangan bilim almashish imkonini beradi. Har bir talaba olgan bilimini ko‘rsatish uchun o‘z nuqtayi nazarini ifodalash uchun faol ishlaydi. Interfaol o‘qitish usulining asosiy xususiyati o‘qituvchining o‘quvchilar muhokamasida ishtirok etishi, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarga izoh berishidir. Chet tillarini o‘qitishning zamonaviy amaliyotida interfaol o‘qitish usullari o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, o‘z-o‘zini rivojlantirish va jamiyatning boshqa a’zolari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega ijtimoiy harakatchan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Zamonaviy dunyoda maktab ta’limida pedagogik jarayonning deyarli barcha jabhalarini qamrab oluvchi muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. O‘quvchining shaxsiy qiziqishi ta’lim jarayonining hal qiluvchi omilidir. O‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy texnologiyalarini o‘zlashtirgan holda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Pedagogik texnologiya – o‘qitish samaradorligini oshiradigan, qo‘llanilishi aniq belgilangan natijaga ega bo‘lgan o‘quv va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning usullari, shakllari majmuasidan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini loyihalashdir.

Nemis tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri bo‘lib, ko‘plab odamlar uni o‘rganmoqda. Nemis tilini o‘rganish, nafaqat til bilimlarini, balki muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish — bu o‘rganilayotgan tilni samarali ishlatishning muhim jihatlaridan biridir. Nemis tilida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud.

Dars davomida o‘qituvchining vazifasi: muloqot qobiliyatlari uchun sharoit yaratish. U ta’lim jarayonining nutq yo‘nalishini nazarda tutadi. Bu maqsad sari yo‘l tilning o‘zidan amaliy foydalanishdir. Bolalar uchun real va erishish mumkin bo‘lgan maqsad va vazifalarni qo‘yish yoki ularni o‘zlari belgilashga yordam berish muhimdir. Darsning har bir qismida o‘yinga asoslangan o‘qitish usullaridan foydalanish menga dars davomida motivatsiyani saqlab qolish va rivojlantirishga yordam beradi, masalan, darsning boshlanishi. Tashkiliy va psixologik lahzaning bitta maqsadi bor: talabalarni chet tilida muloqot qilishga tayyorlash. Darsga kirish tartibi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, dars mavzusiga, yil vaqtiga va dars sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Siz talabalarning kayfiyati haqida so‘rashingiz va ularga savol berishingiz mumkin: *“Wie geht’s?” Welche Farbe ist ihre Stimmung?* Amaliy mashg‘ulotlarda, *“Gesunde lebensweise”* mavzusida siz “Sog‘lom turmush tarzini olib borish uchun nima qilishim kerak?” mavzusida maslahat so‘ragan nemis do‘stingizning xatini o‘qishingiz mumkin. Dars boshida siz talabalardan savol tuzib, unga javob berishlarini so‘rashingiz mumkin. Shuningdek, siz barcha talabalarga savollar yozishingiz va keyin ulardan birini chizishingiz va javob berishingiz mumkin. Darsni ***“Habt ihr gehört..?”*** jumlasi bilan boshlashingiz mumkin. Hatto ob-havo haqidagi muntazam suhbat, agar u noan’anaviy tarzda tuzilgan bo‘lsa, talabalarni muloqot qilishga undashi mumkin.

Nemis tilida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali usullarni qo‘llash kerak. Tinglash, so‘zlashuv, o‘qish, yozish va grammatika kabi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratish bu

jarayonda katta yordam beradi. Tildan erkin foydalanish uchun ko‘p mehnat qilish, muntazam mashq qilish va yangi bilimlarni doimiy ravishda qo‘llash zarur.

1. Tinglash va tushunish.

Tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, nemis tilida turli xil tinglash materiallarini ishlatish kerak. Masalan, **nemischa podkastlar** yoki **nemis tilidagi filmlar**ni tinglash. Buning yordamida tilning tabiiy intonatsiyasi va tezligini tushunish mumkin: Siz nemis tilida “Die Sendung mit der Maus” (nemischa bolalar dasturi) yoki “Tagesschau” (nemischa yangiliklar) dasturlarini tinglashingiz mumkin. Bu sizga nemis tilida gaplashuvchi odamlarga qiyin bo‘lmagan so‘zlarni eshitish imkoniyatini beradi, shuningdek, tez-tez uchraydigan so‘zlar va iboralarni o‘rganishingiz mumkin.

2. So‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish.

So‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri — **muloqot qilish**. Bu – nemis tilida gaplashadigan do‘stlar yoki o‘qituvchilar bilan doimiy suhbatlarda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, o‘zingizni nemis tilida qanday qilib tanishtirishni va kundalik suhbatlarda qanday savollar berishni o‘rganishingiz mumkin. Agar siz yangi odam bilan tanishsangiz, quyidagi iboralarni ishlatishingiz mumkin:

“Hallo, wie geht es dir?” (Salom, qanday yuribsan?)

“Ich heiße [Ismingiz], und du?” (Mening ismim [Ismingiz], sening isming nima?)

“Was machst du gerne in deiner Freizeit?” (Bo‘sh vaqtingda nima qilishni yoqtirasan?)

Ushbu oddiy iboralar orqali siz nemis tilida muloqot qilishni mashq qilasiz va nutq ko‘nikmalaringizni yaxshilaysiz.

3. O‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Nemis tilida o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kitoblar o‘qish va qisqa insholar yozish muhimdir. O‘qish orqali tilning grammatikasini, jumla tuzilishini va yangi so‘zlarni o‘rganishingiz mumkin:

Agar siz o‘qish bilan boshlamoqchi bo‘lsangiz, boshlang‘ich darajadagi nemischa kitoblarni tanlang, masalan, **“Café in Berlin”** yoki **“Der Schatz von Hiddensee”** kabi kitoblarni o‘qish mumkin. Bular oddiy til bilan yozilgan va o‘qish uchun juda foydalidir.

Yozishda esa, masalan, kundalik yozishni boshlash mumkin. Har kuni nemis tilida qisqa bir paragraf yozing: **“Heute habe ich einen langen Spaziergang gemacht und viele neue Dinge entdeckt”.** (Today I took a long walk and discovered many new things.)

Bu usul yordamida, siz nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganasiz, balki grammatika va so‘zlashuv qoidalarini ham mustahkamlaysiz.

4. Grammatika va nutq strukturasi.

Nemis tilida to‘g‘ri grammatika va nutq strukturasini o‘rganish nutqingizni aniq va tushunarli qiladi. Masalan, nemis tilida jumla tarkibi ko‘pincha **subyekt + fe’l + obyekt** shaklida bo‘ladi. Grammatika qoidalarini yaxshi bilish, muloqotda aniqlikni ta’minlaydi: Nemis tilida to‘g‘ri jumla tuzilishini ko‘rsatuvchi misol:

“Ich esse einen Apfel” (Men olma yeyapman).

“Er geht ins Kino” (U kinoga boradi).

Bu oddiy jumlalar orqali nemis tilidagi grammatika asoslarini tushunish mumkin.

5. O‘z ishonchini oshirish.

Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng muhim jihatlardan biri — o‘z ishonchini oshirishdir. Xatoliklar qilish — bu o‘rganishning tabiiy qismi. Har qanday tilni o‘rganishda xatolarsiz bo‘lish mumkin emas, ammo ularni tahlil qilish va tuzatish o‘rganish jarayonida yordam beradi: agar siz nemis tilida xatolik qilsangiz, masalan, **“Ich gehe zu Kino”** (Men kinoga boraman) degan o‘rinli jumlani **“Ich gehe ins Kino”** deb tuzish kerakligini o‘rganishingiz mumkin. Bu jarayonda xatoliklardan o‘rganish va tilni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Pedagogik usullarni takomillashtirishning eng samarali usullari orasida chet tilini o‘rganish uchun eng samarali motivatsiya quyidagilar hisoblanadi:

– darsda do‘stona muhit yaratish;

– faoliyatning xilma-xilligi (monotoniya motivatsiyani pasaytiradi, talabaning tashabbusini bostiradi);

– o‘rganilayotgan til mamlakati, o‘z ona yurti haqidagi bilimlarni kengaytirish uchun o‘lkashunoslik materiali, ijtimoiy jihati, fanlararo aloqalaridan foydalanish;

– turli leksik va grammatik tuzilmalarni avtomatik;

– o‘quvchilarni o‘z fikrini ijodiy ifoda etish imkonini beruvchi loyiha faoliyatiga jalb etish;

– bolalar bilan dars va darsdan tashqari ishlarni samarali kombinatsiyalash imkonini beruvchi KT texnologiyalaridan foydalanish;

– o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni faollashtirishga, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, shaxsiy erkinlikka, o‘z-o‘zini yengishga yordam beradigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga jalb qilish.

Ushbu usullardan foydalanib nutq ko‘nikmalarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali talaba har bir darsda gapirishga va faol bo‘lishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зайцева М. М. Формирование фонетических навыков при обучении младших школьников немецкому языку / М. М. Зайцева. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 53 (395).

2. Xamdamovna M. Z., & Daughter, A. G. D. S. (2022). THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES, SURPRISING CONNECTIONS BETWEEN ENGLISH AND GERMAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(3), 490-493.

3. Масодикова З. Х., & Омонбоева М. О. (2016). Chet tillarini o‘qitishda ta’lim va tarbiyaning birligi. *Молодой ученый*, (3-1), 47-48.

4. Масодикова З., & Омонбоева М. О. (2015). THE EDUCATIONAL IMPORTANCE OF USING PROVERBS IN FOREIGN LANGUAGES TEACHING. *Ученый XXI века*, (12 (13)), 73-75.

5. Zulfiya Xamdamovna Masodiqova (2022). METHODS OF TEACHING GERMAN LANGUAGE. Academic research in educational sciences, 3 (1), 331-334. doi: 10.24412/2181-1385-2022-1-331-334

6. Masodiqova, Z. (2021). Comparison of English, German and Uzbek Vowel Sounds. *Academicia Globe*, *2*(05), 176-179.

Malika IZOMOVA,
ALFRAGANUS universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchisi

INGLIZ BADIIY MATNIDA EMOTIVLIKNING PRAGMATIK ASPEKTI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz badiiy matnlarida emotivlikning pragmatik aspektlari tahlil qilingan. Emotiv ma’no tashuvchi til birliklarining kommunikativ vazifasi va ularning matn pragmatikasini shakllantirishdagi o‘rni o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida ingliz badiiy matnlarida qo‘llanilgan emotiv leksika, frazeologizmlar va stilistik vositalarning pragmatik ta’siri, ularning kitobxon emotsional holatiga ta’siri, badiiy matndagi emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikning amaliy ahamiyati aniqlangan. Maqolada badiiy matnlarda emotivlikni ifodalovchi til vositalarining pragmatik aspektlari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *emotivlik, pragmatika, badiiy matn, emotiv leksika, emotsional-ekspressiv vositalari, pragmatik ta’sir, emotsional-baholovchi munosabat.*

Аннотация: в данной статье анализируются прагматические аспекты эмотивности в английских художественных текстах. Исследуется коммуникативная функция языковых единиц, несущих эмотивное значение, и их роль в формировании прагматики текста. В результате исследования выявлено прагматическое воздействие эмотивной лексики, фразеологизмов и стилистических средств, используемых в английских художественных текстах, их влияние на эмоциональное состояние читателя, практическое значение эмоционально-экспрессивной окраски в художественном тексте. В статье освещаются прагматические аспекты языковых средств, выражающих эмотивность в художественных текстах, на теоретической и практической основе.

Ключевые слова: *эмотивность, прагматика, художественный текст, эмотивная лексика, эмоционально-экспрессивные средства, прагматическое воздействие, эмоционально-оценочное отношение.*

Annotation: this article analyzes the pragmatic aspects of emotivity in English literary texts. The communicative function of linguistic units carrying emotive meaning and their role in shaping text pragmatics are studied. As a result of the research, the pragmatic impact of emotive vocabulary, phraseological units and stylistic devices used in English literary texts, their influence on the reader’s emotional state, and the practical significance of emotional-expressive coloring in literary text are identified. The article highlights the pragmatic aspects of linguistic means expressing emotivity in literary texts on a theoretical and practical basis.

Key words: *emotivity, pragmatics, literary text, emotive vocabulary, emotional-expressive means, pragmatic impact, emotional-evaluative attitude.*

Zamonaviy tilshunoslikda pragmalingvistik yo‘nalish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tilning kommunikativ funksiyasini o‘rganishga qaratilgan ushbu yo‘nalish ko‘pgina tilshunoslar e’tiborini tortmoqda. Tilshunoslikda pragmatika deganda nutq jarayonida til birliklarining qo‘llanilishi, kontekstual ma’nolari va ularning tinglovchiga ta’siri o‘rganiladi. Pragmalingvistika lingvistik pragmatikaning asosiy qismini tashkil etib, tilning kommunikativ vazifasini bajarish jarayonida uning tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini o‘rganadi (Karasik, 2016, b. 45). Shu nuqtayi nazardan, emotivlik badiiy matnning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, uning pragmatik ta’sir kuchini belgilab beradi.

Emotivlik – til birliklari orqali emotsiyalarni ifodalash va kitobxon emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidir. Emotivlik tushunchasi hozirgi zamon tilshunosligida asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan. V.I. Shahovskiy ta’kidlaganidek, *“emotivlik tilning immanent xususiyati bo’lib, emotsiyalarni ifodalash, tasvirlash va uyg‘otish imkoniyatini beradi”* (Shahovskiy, 2008, 24-b.).

Ingliz badiiy matnlarida emotivlik juda boy va xilma-xil til vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Bu vositalar pragmatik jihatdan kitobxonga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Shuning uchun ham badiiy matndagi emotivlikning pragmatik aspektini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Emotiv ma’no tashuvchi til birliklari kitobxonda ma’lum emotsional reaksiyalarni uyg‘otadi, uning asarga munosabatini shakllantiradi va muallif g‘oyasini to‘laroq anglab yetishiga yordam beradi.

Emotivlik va pragmatika masalalari ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Emotsiyalarning tilda ifodalanishi borasida V.I. Shahovskiy, L.G. Babenko, I.V. Arnold, N.A. Luk’yanova kabi rus tilshunoslari, G‘arb tilshunoslaridan J. Leech, G. Lakoff, Z. Kövecses, A. Wierzbicka kabilar samarali tadqiqotlar olib borganlar. V.I. Shahovskiy emotivlik nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha, *“Emotivlik til tizimining bir qatlami bo‘lib, uning yordamida kommunikantlarning emotsional holatlari va munosabatlari kodlanadi, saqlanadi va uzatiladi”* (Shahovskiy, 2008,13-b.). Shahovskiy emotiv ma’no tushunchasini kiritadi va uni denotativ (logik) ma’nodan farqlab, til birliklarining

ichki emotsional komponentlarini aniqlaydi.

L.G. Babenko emotiv leksikani chuqur o‘rgangan olimlardan biridir. U emotiv leksikani semantik jihatdan tasnif qiladi va ularning badiiy matndagi rolini ko‘rsatadi. Babenko ta’kidlashicha, *“Emotiv leksika badiiy matndagi emotsional maydonni shakllantiradi va muallif konsepsiyasini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi”* (Babenko, 1989, 67-b.). I.V. Arnold stilistik vositalarning emotiv-ekspressiv xususiyatlari va ularning pragmatik funksiyalarini tadqiq etgan. Uning fikricha, *“stilistik vositalar kontekstda emotsional-ekspressiv bo’yoqdorlik kasb etadi va kitobxonga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”* (Arnold, 2016, 109-b.).

O‘zbek tilshunosligida emotivlik masalalari S. Muminov, M. Qodirov, R. Qo‘ng‘urov, A. Nurmonov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, S. Muminov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida emotsional-ekspressiv leksikaning semantik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilgan (Muminov, 2004, 42-b.). Pragmatika sohasida J. Leech, J. Searle, J.L. Austin va G. Leech kabi tilshunoslar fundamental tadqiqotlar olib borganlar. J. Leech pragmatikani “nutq kontekstida ma’noning o‘rganilishi” deb ta’riflaydi va pragmatik prinsiplarni tahlil qiladi (Leech, 1983, 6-b.). G. Leech esa pragmatikani “nutqiy kontekstda ifodalangan ma’noning tinglovchiga ta’sirini o‘rganadigan fan” deb ataydi (Leech, 2005, b. 22).

Ingliz tilida emotivlikning ifodalanishi J. Harkins, A. Foolen, P.N. Johnson-Laird, K. Oatley kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular emotsiyalarni ifodalovchi leksik birliklarni tasnif qilganlar va ularning pragmatik xususiyatlarini ochib berganlar. Badiiy matndagi emotivlik masalasi T. van Dijk, E.S. Kubryakova, I.R. Galperin kabi tilshunoslarning ishlarida o‘rganilgan. I.R. Galperin badiiy matnning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilib, “badiiy matn muallif va kitobxon o‘rtasidagi dialogik munosabatlarni o‘rnatadigan kommunikativ birlik” ekanligini ta’kidlaydi (Galperin, 2018,144-b.). Shu tariqa, tadqiqotchilar emotivlikning turli aspektlarini o‘rganganlar, biroq ingliz badiiy matnlarida emotivlikning pragmatik aspektlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotda ingliz badiiy matnlarida emotivlikning pragmatik aspektlarini o‘rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tadqiqot materiallarini ingliz klassik va zamonaviy adabiyoti namunalaridan olingan matnlar tashkil etadi. Jane Austen, Charles Dickens, Ernest Hemingway, Virginia Woolf, Ian McEwan, Kazuo Ishiguro kabi yozuvchilarning asarlaridan misollar tahlil qilingan.

Emotivlik tushunchasi tilshunoslikda emotsiyalarni ifodalash, tasvirlash va uyg‘otish qobiliyati sifatida tushunilib, u pragmatik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Emotivlikning pragmatik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) **Kommunikativ-pragmatik funksiya** – emotiv til birliklari kommunikantlar o‘rtasidagi emotsional aloqani ta’minlaydi. Badiiy matndagi emotiv vositalar muallif va kitobxon o‘rtasidagi emotsional kommunikatsiyani shakllantiradi.

b) **Ta’sir etish funksiyasi** – emotiv til birliklari kitobxonga emotsional ta’sir ko‘rsatadi, unda ma’lum emotsional holatlarni uyg‘otadi va uning asarga emotsional munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

c) **Baholash funksiyasi** – emotiv til birliklari muallif va personajlarning voqea-hodisalarga, boshqa personajlarga emotsional-baholovchi munosabatlarini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosi A. Nurmonov ta’kidlaganidek, *“til birliklari emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etganda ularning pragmatik qiymati oshadi va ular tinglovchi yoki kitobxonda kuchli ta’sir uyg‘otish xususiyatiga ega bo‘ladi”* (Nurmonov, 2012, 78-b.).

Ingliz badiiy matnlarida emotivlikning pragmatik xususiyatlari ko‘pincha kontekst bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, Charles Dickens asarlarida emotsiyalarni ifodalovchi leksika kitobxonga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va uning qahramonlarga nisbatan emotsional munosabatini shakllantiradi: *“It was the best of times, it was the worst of times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity, it was the season of Light, it was the season of Darkness, it was the spring of hope, it was the winter of despair, we had everything before us, we had nothing before us...”* (Dickens, 2003, 5-b.) Ushbu parchada qarama-qarshi tushunchalarning qo‘llanilishi o‘quvchida kuchli emotsional ta’sir qoldiradi va asar boshlanishidanoq kitobxonda emotsional munosabat uyg‘otishga xizmat qiladi. Bu emotiv vositalarning pragmatik funksiyasini yaqqol ko‘rsatadi.

Amerikalik olim M. Schwarz-Friesel ta’kidlaganidek, “emotiv til birliklari kitobxonning kognitiv jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi va matnni idrok etish jarayonida muhim rol o‘ynaydi” (Schwarz-Friesel, 2010, 61-b.). Badiiy matndagi emotiv vositalar kitobxon e’tiborini jalb qiladi, uning xotirasida saqlanadi va matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Emotivlikni ifodalovchi leksik vositalar ingliz badiiy matnlarida keng qo‘llaniladi. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

a) **Emotsiyalarni ifodalovchi leksika** (emotiv-nominativ leksika): ***love, hatred, joy, sadness, fear, anger, surprise*** kabi so‘zlar. Virginia Woolf asarlarida emotsiyalarni ifodalovchi leksika kitobxonda kuchli emotsional rezonans hosil qiladi: *“She had known happiness, exquisite happiness, intense happiness, and it silvered the rough waves a little more brightly, as daylight faded, and the blue went out of the sea and it rolled in waves of pure lemon which curved and swelled and broke upon the beach and the ecstasy burst in her eyes and waves of pure delight raced over the floor of*

her mind and she felt, It is enough! It is enough!" (Woolf, 2000, 65-b.). Ushbu parchada ***happiness, exquisite, intense, delight, ecstasy*** kabi so‘zlarning qo‘llanishi kitobxonda ijobiy emotsional ta’sirni kuchaytiradi va personajning emotsional holatini to‘laroq his qilishga yordam beradi.

b) **Intensifikatorlar va kuchaytirgichlar**: *extremely, utterly, absolutely, terribly, perfectly* kabi so‘zlar. Jane Austen asarlarida intensifikatorlar personajlarning emotsional holatini kuchaytirish uchun qo‘llaniladi: *"He was quite young, wonderfully handsome, extremely agreeable, and, to crown the whole, he meant to be at the next assembly with a large party. Nothing could be more delightful! To be fond of dancing was a certain step towards falling in love; and very lively hopes of Mr. Bingley's heart were entertained".* (Austen, 2014, 12-b.). Ushbu misolda ***quite, wonderfully, extremely*** kabi intensifikatorlar orqali personajning ijobiy bahosi kuchaytirilgan va bu kitobxonda ham ijobiy emotsional munosabatni uyg‘otishga qaratilgan.

c) **Undov so‘zlar va undalmalar**: *oh, ah, alas, wow, dear, honey* kabi so‘zlar.

Charles Dickens asarlarida undov so‘zlar qahramonlarning emotsional holatini ifodalashda keng qo‘llaniladi: *"Oh! But he was a tight-fisted hand at the grind-stone, Scrooge! a squeezing, wrenching, grasping, scraping, clutching, covetous, old sinner! Hard and sharp as flint, from which no steel had ever struck out generous fire; secret, and self-contained, and solitary as an oyster".* (Dickens, 2001, 8-b.).

Parchada *Oh!* undov so‘zi orqali muallif qahramon xarakteriga nisbatan kuchli emotsional munosabat ifodalangan va bu kitobxonda ham shunga o‘xshash munosabatni shakllantiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida ingliz badiiy matnlarida emotivlikning pragmatik aspektlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Emotivlik badiiy matn pragmatikasining muhim komponenti hisoblanadi. Emotiv ma’no tashuvchi til birliklari matnning kommunikativ-pragmatik salohiyatini kuchaytiradi va kitobxonga emotsional ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi; Ingliz badiiy matnlarida emotivlikni ifodalash uchun boy va xilma-xil til vositalaridan foydalaniladi. Bular emotsiyalarni ifodalovchi leksika, emotsional-baholovchi so‘zlar, intensifikatorlar, undov so‘zlar, stilistik figuralar va maxsus sintaktik konstruksiyalardir; Emotiv til birliklari ingliz badiiy matnlarida quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi: personajlarning emotsional holatini tasvirlash, kitobxon emotsional reaksiyasini yo‘naltirish, badiiy matn emotsional fonini yaratish va muallif emotsional munosabatini ifodalash.

Shunday qilib, emotivlikning pragmatik aspekti ingliz badiiy matnlarining kommunikativ-pragmatik salohiyatini kuchaytiradi va uning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Emotiv til birliklari orqali muallif o‘zining emotsional dunyosini kitobxonga yetkazadi va uning emotsional idrokini faollashtiradi.

Shuningdek, badiiy matnlardagi emotivlikni tarjima jarayonida saqlash muammolarini o‘rganish ham dolzarb ahamiyatga ega. Maxsus korpus yaratish orqali emotiv til birliklarining badiiy matnlardagi statistik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularning pragmatik ta’sirini eksperimental tadqiqotlar orqali o‘rganish ham lingvopragmatik tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold, I.V. (2016). *Stilistika. Sovremenniy angliyskiy yazik*. – Moskva: Flinta.
2. Austen, J. (2014). *Pride and Prejudice*. – London: Penguin Classics.
3. Babenko, L.G. (1989). *Leksicheskie sredstva oboznacheniya emotsiy v russkom yazike*. – Sverdlovsk: Izdatelstvo Uralskogo universiteta.
4. Brontë, Ch. (2011). *Jane Eyre*. – London: Penguin Classics.
5. Dickens, Ch. (2001). *A Christmas Carol*. – London: Penguin Classics.
6. Galperin, I.R. (2018). *Text as an Object of Linguistic Research*. – Moscow: KomKniga.
7. Hemingway, E. (2014). *A Farewell to Arms*. – New York: Scribner.
8. Ishiguro, K. (2010). *Never Let Me Go*. – London: Faber and Faber.
9. Karasik, V.I. (2016). *Yazik sosialnogo statusa*. – Moskva: Gnozis.
10. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. – Cambridge: Cambridge University Press.
11. Leech, G. (2005). *Meaning and the English Verb*. – London: Longman.
12. Luk'yanova, N.A. (2015). *Ekspressivnaya leksika razgovornogo upotrebleniya*. – Novosibirsk: Nauka.
13. Muminov, S. (2004). *O‘zbek tilida emotsional-ekspressiv leksikaning semantik va stilistik xususiyatlari*. – Toshkent: "Fan".
14. Nurmonov, A. (2012). *Tanlangan asarlar. 3 jildlik*. – Toshkent: Akademnashr.
15. Orwell, G. (2008). *1984*. – London: Penguin Classics.
16. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
17. Schwarz-Friesel, M. (2010). *Emotion and Language*. – Cambridge: Cambridge University Press.
18. Shakespeare, W. (2016). *Hamlet*. – London: Penguin Classics.

Sarvinoz SHARIPOVA,
SamDChTI
Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Shoxista ISTAMOVA,
SamDChTI
Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI IBORALAR O‘RTASIDAGI LEKSIK-SEMANTIK O‘XSHASHLIKLAR VA FARQLAR

Annotatsiya: iboralar har qanday tilning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘sha tilda so‘zlashuvchilarning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini aks ettiradi. Turli til oilalariga mansub bo‘lgan ingliz (hind-yevropa tillari oilasi) va o‘zbek (turkiy tillar oilasi) tillari xalqning madaniyatini yorqin aks ettiruvchi o‘ziga xos frazeologik iboralarga ega. Shunday bo‘lsa-da, ikkala tilda ham umuminsoniy qadriyatlarni namoyon etuvchi, semantik hamda leksik jihatdan o‘xshash bo‘lgan iboralar uchraydi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz iboralari o‘rtasidagi leksik-semantik o‘xshashlik va farqlar misollar orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik o‘xshashliklar, somatik iboralar, onomastik birliklar, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy farqlar.*

Аннотация: идиомы являются важной частью любого языка, отражая культуру, историю и мировоззрение его носителей. Английский (индоевропейская языковая семья) и узбекский (тюркская языковая семья) языки, принадлежащие к разным языковым семьям, обладают уникальными фразеологическими выражениями, ярко отражающими культуру их носителей. Однако в обоих языках также встречаются идиомы, демонстрирующие универсальные человеческие ценности и имеющие лексико-семантические сходства. В данной статье рассматриваются лексико-семантические сходства и различия между узбекскими и английскими идиомами на примере конкретных выражений.

Ключевые слова: *лексико-семантические сходства, соматические идиомы, ономастические единицы, универсальные человеческие ценности, культурные различия.*

Annotation: idioms are an essential component of any language, reflecting the culture, history, and worldview of its speakers. English (Indo-European language family) and Uzbek (Turkic language family), belonging to different linguistic families, have distinctive phraseological expressions that vividly represent their respective cultures. However, both languages also contain idioms that reveal universal human values and share lexical and semantic similarities. This article examines the lexical-semantic similarities and differences between Uzbek and English idioms through examples.

Key words: *lexical-semantic similarities, somatic idioms, onomastic units, universal human values, cultural differences.*

Kirish. Ma’lumki, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iboralar jamiyatda mavjud qadriyatlar, xalqning tarixi va dunyoqarashining yorqin aksi bo‘lib xizmat qiladi. Iboralar yaxlit semantik birliklar bo‘lib, ularni tashkil etgan so‘zlar birgalikda yaxlit ma’no kasb etadi. Fotovatnia va Khaki fikriga ko‘ra, iboralar nafaqat kundalik nutqda, balki suhbatlar, filmlar, radio hamda teleko‘rsatuvlarda keng qo‘llaniladi. Shu sababli ham ularni o‘rganish ma’lum bir xalqning madaniyatini chuqur tushunib yetishga yordam beradi.

Bilamizki, fransuz Ch. Balli frazeologiyani mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllantirdi. Shundan so‘ng dunyo tilshunoslari tomonidan iboralar chuqur o‘rganila boshlandi. Dunyo miqyosida F. Boas, E. Sapir, J. Lakoff, R. Gibbs, V. Vinogradov, A. Potebnya kabi olimlar iboralarni chuqur o‘rganib, ularni turli jihatdan tadqiq qilishgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek olimlaridan Sh. Rahmatullayev iboralarni sistematik jihatdan o‘rganishni boshlab berdi va shundan so‘ng B. Yo‘ldoshev, A. Mamatov, M. Abjalova, U. Rashidova kabi tilshunoslar iboralarni chuqur tadqiq etishdi.

Xususan, M. Abjalova o‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning semantik, leksikografik va kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinishiga hissa qo‘shgan bo‘lsa, U. Rashidova o‘zbek tilidagi somatik iboralarni semantik-pragmatik jihatdan tahlil qilgan.

M. Radjabova onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganib, ushbu turdagi iboralar bilan bog‘liq tarjima muammolarini tahlil qilgan. Tilshunos fikricha, frazemalar tarkibidagi onomastik birliklarda muayyan xalqning qarashlari, madaniyati hamda tarixi aks etadi. Masalan, ingliz tilidagi *send somebody to Coventy* iborasi *toshbo‘ron qilmoq, quvg‘in qilmoq* degan ma’noda qo‘llaniladi va ushbu ibora o‘zining tarixiga ega. Ushbu iboraning asosi iborada ishtirok etgan onomastik birlik *Coventy,* ya’ni Angliyadagi tuman nomidan kelib chiqqan.

D. Niyazmetova esa ingliz va o‘zbek tillarida oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik

jihatlarini tahlil qilgan. Uning yozishicha, oziq-ovqat komponentli iboralarning deyarli barchasi o‘z tilining madaniy xususiyatlarini namoyon etadi va ramziy ma’noga ega, shuningdek, avvalo madaniy g‘oyalar tufayli yuzaga kelgan iboralar uchun o‘zlari (oziq-ovqat turlari, pishirish va uni iste’mol qilish usullari) realiya bo‘lgan.

Natijalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ingliz va o‘zbek tillari boshqa-boshqa til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ushbu tillarda mavjud iboralar bir-biriga o‘xshaydi.

1. Hayvon nomlari mavjud bo‘lgan iboralar. Ikkala tilda ham hayvon nomlari mavjud bo‘lgan, bir xil semantik ma’noga ega bo‘lgan iboralar mavjud. Ulardagi qo‘llanilgan hayvon nomlari aynan bir xil bo‘lmasa-da, ma’no jihatdan ularni tushunib olish qiyin bo‘lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *kill two birds with one stone* iborasi o‘zbek tilidagi *bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq* iborasiga ekvivalent bo‘lib, *bir vaqtning o‘zida ikkita ishni bitirmoq* degan ma’noni bildiradi. Ko‘rinib turganidek, ikkala iborada ham hayvon nomlari qatnashgan bo‘lib, ingliz tilida *bird,* ya’ni *qush* leksemasi qo‘llangan bo‘lsa, o‘zbek tilida *quyon* so‘zi ishlatilgan. Ikkala iboradagi hayvon nomlari bir xil bo‘lmasa-da, ibora ma’nosini tushunib olish qiyin bo‘lmaydi.

2. Somatik iboralar. Ma’lumki, somatik iboralarga inson tana a’zolari nomlari qatnashgan iboralar kiradi. Bu turdagi iboralar ikkala tilda ham mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ikkala tilda ham bir xil shaklda uchraydi. Shu bilan birgalikda, bu turdagi iboralar semantik jihatdan bir xil ma’noni anglatadi. Misol tariqasida ko‘z leksemasi qatnashgan quyidagi iboralarni keltirish mumkin: *in the blink of eye – ko‘z ochib yumguncha, the apple of my eye – ko‘zimning oq-u qorasi, ko‘z yummoq – turn a blind eye, ko‘zlariga ishonmaslik – not to believe one’s eyes.* Ushbu iboralarda *ko‘z* leksemasi qatnashgan hamda ular ikkala tilda ham leksik-semantik jihatdan bir shaklga ega.

3. Iboralarning grammatik jihatdan o‘zgarishi. Ikkala tilda ham iboralar grammatik jihatdan zamon, shaxs-son kategoriyalarida o‘zgaradi.

O‘zbek tilidagi ibora	Ingliz tilidagi ibora
Turn a blind eye	*Ko‘z yummoq*
He turn**s** a blind eye	U xatolarga ko‘z yum**adi**
He **has** turn**ed** a blind eye	U xatolarga ko‘z yum**yapti**
He turn**ed** a blind eye	U xatolarga ko‘z yum**di**.

1-jadval. O‘zbek va ingliz tillaridagi iboralarning zamon va shaxs-sonda o‘zgarishi.

Yuqoridagi jadvalda o‘zbek va ingliz tillarida leksik-semantik jihatdan shaklga ega bo‘lgan to‘liq ekvivalent iboraning zamon va shaxs-sonda o‘zgarishi keltirilgan. Ikkala iborada ham fe’l *(to turn/yummoq)* shaxs va zamonga moslashgan holda o‘z shaklini o‘zgartirishi kuzatilmoqda.

Muhokama. Ikkala tilda ham leksik-semantik jihatdan o‘xshash iboralar mavjud bo‘lsa-da, bir-biri bilan ekvivalent bo‘la olmaydigan iboralar ham mavjud va ular ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday iboralar qatoriga ikkala tilda ham faqat o‘sha xalq madaniyatini aks ettiruvchi iboralar kiradi. Masalan, ingliz tilidagi *to rain cats and dogs* iborasi qattiq yomg‘ir yog‘ib, jala quyganda qo‘llaniladi va o‘ziga xos tarixga ega. Vaholanki, bizning yurtimizning geografik joylashuvini hisobga olganda, qattiq jala quyishi kamdan-kam kuzatiladi va o‘zbek tilida aynan shunday holatni ifodalash uchun maxsus ibora mavjud emas.

Bundan tashqari, o‘zbek-ingliz tillarida e’tiqodiy tushunchalarni anglatuvchi iboralar ham bir-biridan farq qiladi. Sababi, o‘zbek tilida bu turdagi iboralar islom diniga asoslangan bo‘lsa, ingliz tilida esa ko‘proq xristianlik diniga asoslanadi. Masalan, ingliz tilidagi *Doubting Thomas* iborasi boshqalarga ishonmaydigan, har doim dalil-isbot talab qiladigan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. *Thomas* leksemasi esa Injilda Iso payg‘ambarning qayta tirilishiga ishonmagan *Thomas* ismli havoriy nomidan kelib chiqqan.

Xulosa. O‘zbek tilidagi *qazoi-qadarga rozi bo‘lmoq* iborasi Islom dini asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, *taqdiriga rozi bo‘lmoq* ma’nosida qo‘llaniladi. Vaholanki, ingliz tilida aynan shu ma’noda qo‘llaniluvchi ekvivalent mavjud emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek-ingliz iboralari leksik-semantik jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lib, bu o‘xshashlik ko‘pincha somatik iboralarda hamda hayvon nomlari ishtirok etuvchi frazemalarda ko‘proq kuzatiladi. Ikki til o‘rtasidagi farqlar esa, ko‘proq, diniy asosga ega bo‘lgan iboralarda kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kövecses, Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge University Press. 2005.
2. Kövecses, Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge University Press. 2005.
3. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o‘zbek va rus tillari materialida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2020. 19-bet.
4. M. Abjalova and S. Sharipova, “Semantic and Grammatical Issues in Translating Idioms with Automatic Translation Systems” 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 58-63, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773608.
5. Sharipova, S., & Sidikova, N. (2024). Iboralarni avtomatik tarjima qilish bilan bog‘liq ayrim muammolar. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 510-513. https://doi.org/10.2024/jhz2es25
6. Sh. Istamova. Aim of linguistic typology and different approaches to the subject // models and methods in modern science International scientific-online conference – 2023 – 73-76p. https://doi.org/10.5281/zenodo.10390236
7. Niyazmetova D.D. Ingliz va o‘zbek tillarida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.15-bet.



Ra’no NEKBOYEVA,
Osiyo texnologiyalari universiteti
katta o‘qituvchisi,
e-mail: ranonekboyeva@gmail.com

O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA FITONIM ASOSLI MAQOLLAR SEMANTIKASIDA KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli maqollar semantik tahlil qilinadi. Fitonimlar tarkibidagi ko‘chma ma’noli birliklarning badiiy, ifodaviy va madaniy yuklamasi ochib beriladi. Xalq tafakkurida o‘simlik nomlari orqali shakllangan obrazlarning ramziy ma’nosi va ularning milliy tafakkurdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *maqol, fitonim, ko‘chma ma’no, metafora, semantika, ingliz tili, o‘zbek tili*

Аннотация: в данной статье проводится семантический анализ пословиц с фитонимами в узбекском и английском языках. Раскрывается образно-художественная и культурная нагрузка переносных значений слов, содержащихся в составе фитонимов. Рассматриваются метафорические функции растительных образов в языковом сознании узбекского и английского народов.

Ключевые слова: *пословица, фитоним, переносное значение, метафора, семантика, английский язык, узбекский язык.*

Annotation: this article presents a semantic analysis of proverbs with phytonyms in Uzbek and English. It explores the figurative, expressive, and cultural connotations of metaphorical meanings within plant-based expressions. The study also highlights how plant metaphors reflect national thinking and values.

Key words: *proverb, phytonym, figurative meaning, metaphor, semantics, English, Uzbek.*

Kirish. Har bir xalqning og‘zaki ijodida, ayniqsa maqollarida o‘simlik nomlari keng qo‘llanilgan bo‘lib, ularning ko‘p qismi fitonim sifatida xalq tafakkurida muhim ma’no kasb etadi. Fitonimlar – bu o‘simliklar nomi bilan bog‘liq leksik birliklardir. Ular semantik jihatdan faqat biologik tushunchani emas, balki ramziy, estetik va axloqiy qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, maqollarda bu birliklar ko‘chma ma’noda ishlatilib, chuqur obraz va fikr yuklaydi.

Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli maqollar tahlil qilinib, ularning semantik xususiyatlari, ko‘chma ma’noli ifodalari hamda madaniy konnotatsiyalari tahlil etiladi.

Fitonim va ko‘chma ma’no: n azariy asoslar. Ko‘chma ma’no (metafora) tilshunoslikda keng o‘rganilgan hodisa bo‘lib, bir narsa yoki hodisa boshqa bir narsa orqali ifodalanganda paydo bo‘ladi. Fitonimlar ko‘pincha metafora vazifasini bajaradi. Masalan, “guldek qiz”, “yantoqdek qattiqqo‘l”, “bodom yuz” kabi ifodalar estetik obrazlar bilan boyitilgan (1: 42).

Z. Kövecses fikricha, metaforalar har bir tilning madaniy modeli bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular xalq tafakkurida o‘simliklar orqali shakllanadi (3: 61). Shuningdek, metaforalar orqali insonlar hayotga, xulq-atvorga, jamiyatga o‘z munosabatini ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi fitonim asosli maqollarda ko‘chma ma’no. O‘zbek maqollarida o‘simliklar ko‘pincha insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rni, xatti-harakatini ifodalashda ishlatiladi. Misollar: “Ko‘chat nima bo‘lsa, daraxt shunga yarasha” – bu yerda “ko‘chat” va “daraxt” odamning yoshligi va keksaligini anglatadi, metaforik ko‘chma ma’no asosida (2: 88).

“Tikan tagida gul bitar” – og‘ir holatdan ham yaxshilik chiqadi degan g‘oya.

“Bodom gullasa, bahor boshlanar” – boshlanish, umid, yangilanish ramzi sifatida fitonim ishlatilgan.

Ushbu maqollar orqali xalq hayotiy tajriba, qadriyatlar va tabiatga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi.

Ingliz tilidagi fitonim asosli maqollarda ko‘chma ma’no.

Ingliz tilida ham fitonimlar asosidagi maqollar keng tarqalgan. Ularda ham ko‘chma ma’noli birliklar madaniy va semantik jihatdan boy ifodalarni beradi:

“A rolling stone gathers no moss” – fitonim (“moss”) orqali barqarorlik va samaradorlik haqida fikr beriladi (4: 96).

“The apple doesn’t fall far from the tree” – fitonim (apple, tree) orqali irsiylik, oilaviy o‘xshashlik tasvirlanadi.

“Every rose has its thorn” – har bir chiroyli narsada salbiy jihat ham bo‘lishi mumkin.

Bu maqollarda fitonimlar insoniy holatlarni anglatuvchi ramz sifatida xizmat qiladi. Ular orqali G‘arb madaniyatining hayotga munosabati ifodalanadi (3: 77).

Taqqosiy tahlil: O‘xshashliklar va farq.

O‘zbek va ingliz maqollaridagi fitonimlar ayrim hollarda o‘xshash ramziy ma’no beradi. Masalan:

“Gul ochilgani bahordir” (UZ) ≈ “The flower blooms in spring” (EN) – ikkala til uchun ham yangi bosqich, go‘zallik va umid ramzi.

Farqlar esa madaniyatga bog‘liq: o‘zbek tilida yantoq, bodom, anor kabi mahalliy o‘simliklar ramz sifatida ishlatiladi, ingliz tilida esa rose, oak, ivy kabi Yevropa flora vakillari asosiy fitonim sifatida qo‘llaniladi (2: 102).

Fitonim metaforalarning kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari. Fitonim asosli maqollar nafaqat semantik, balki kognitiv va lingvokulturologik hodisa sifatida ham qiziqish uyg‘otadi. Chunki bunday maqollar orqali xalq tafakkuri va dunyoni anglash usuli ifodalanadi. Xususan, gulli, daraxtli, mevali obrazlar, odatda, inson xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlari, jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘lanadi. Masalan:

“Ko‘ngil bog‘i gullasa, dunyo obod bo‘ladi” – bu maqolda gullar ijobiy kayfiyat, tinchlik va totuvlikni ifodalaydi.

“Yovvoyi daraxt soyasiz bo‘ladi” – fitonim (daraxt) orqali tarbiya ko‘rmagan inson obrazini ko‘rsatadi [1: 63].

Bunday obrazlar orqali xalq inson shaxsini, axloqiy me’yorlarni, ijtimoiy qadriyatlarni o‘simliklarga nisbat berib ifodalaydi. Bu esa ko‘chma ma’noning chuqur madaniy ildizlarga ega ekanini anglatadi.

Ingliz tilida ham kognitiv asoslar o‘xshash, lekin ramzlarda farqlar mavjud:

“Don’t judge a tree by its bark” – tashqi ko‘rinishga emas, ichki mohiyatga urg‘u.

“Tall trees catch much wind” – yuqori martabali odam ko‘proq tanqidga uchraydi [4: 104].

Tilshunoslikda fitonim asosli maqollarning tadqiqoti. So‘nggi yillarda fitonim asosli maqollar tilshunoslikda semantika, madaniyatlararo kommunikatsiya, paremiologiya, tarjimashunoslik kabi yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda. Masalan, E. S. Mirzayeva o‘zbek maqollarining semantik qatlamini tahlil qilib, undagi fitonim metaforalar orqali madaniy kod qanday ifodalanganini ko‘rsatadi [2: 73].

Xorijiy adabiyotlarda esa Z. Kövecses fitonim metaforalar orqali metafora nazariyasining universalligi va madaniy xilligini ochib beradi [3: 85]. Bu tadqiqotlar tilshunoslarga fitonimlarning nafaqat semantik, balki tarixiy, folklor va ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini tahlil qilish imkonini beradi.

Tarjimonlar uchun bunday maqollarni to‘g‘ri tushunish muhim, chunki bir tilga xos bo‘lgan o‘simlik metaforasi boshqa tilga aynan tarjima qilinmasligi mumkin. Bu holda ekvivalentlik, kalka, izohlash yoki adaptatsiya kabi strategiyalar qo‘llaniladi.

Xulosa. Fitonim asosli maqollar ko‘chma ma’no vositasida xalqning estetik qarashi, axloqiy baholari va tabiatga munosabatini ifodalaydi. Har ikki tilda fitonimlar ramziy vosita bo‘lib, ular til madaniyati, milliy tafakkur va obrazlilik mezonlarini belgilab beradi.

Fitonim asosli maqollar xalqning tabiat bilan bog‘liqligini, madaniy kodini, estetik qarashini va axloqiy mezonlarini ko‘rsatadi. Ular ko‘chma ma’noli so‘zlar vositasida dunyoni anglash, ifodalash va baholashning xalqona modelini yaratadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi fitonim metaforalari umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsada, ularning ishlatilishi va semantik yuklamasi milliy tafakkur va madaniyatga qarab shakllanadi. Shu bois bu mavzu tilshunoslikda dolzarb va chuqur tahlilni talab etadi.

Ushbu maqola orqali o‘zbek va ingliz maqollarida ko‘chma ma’noli so‘zlarning fitonimlar orqali qanday tasvirlanishi, semantik jihatdan qanday yuklama olishini ko‘rish mumkin. Bu esa tilni madaniyat doirasida o‘rganishga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G‘anieva E. R. O‘zbek tilidagi ko‘chma ma’noli birliklar. – Toshkent: Fan, 2022. 134 - b.

2.Mirzaeva E. S. Til va madaniyat: maqollar semantikasi. – Toshkent: TDPU, 2023. 118 - b.

3.Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: CUP, 2005. 203 - p.

4.Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. 343 - p.

5.Oxford Dictionary of English Proverbs. – Oxford: OUP, 2015.

Ma’rifat BOLTABAYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
m.boltaboeva@gmail.com

GREM GRINNING DINIY QARASHLARINI “KUCH VA SHON-SHUHRAT ROMANIDA AKS ETTIRILISHI”

Annotatsiya: ushbu maqolada qahramonlarning dinga bo‘lgan qarashlari, hayotga bo‘lgan muhabbati, ishonchi va his tuyg‘ulari haqida so‘z ketgan. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchini yo‘q bo‘lib borishi haqida. Ishonchni suiiste’mol qilganligi natijasida ko‘plab muammolarning kelib chiqqanligi haqida o‘qishimiz mumki.

Kalit so‘zlar: Tabasko, Massa, antiklerikal, leytenant, hukumat ta’siriga, mardonavor, taqvodor, buklamalar.

Аннотация: в статье рассказывается о взглядах персонажей на религию, их любви к жизни, вере и чувствах. О подрыве доверия людей друг к другу. Мы можем прочитать о многих проблемах, возникших в результате злоупотребления доверием.

Ключевые слова*: Табаско, Масса, антиклерикальный, лейтенант, влияние правительства, мужественный, набожный, складки.*

Annotation: the article tell about the characters’ views on religion, their love of life, faith and feelings.About the undermining of people’s trust in each other. We can read about many problems that arose as a result of abuse of trust.

Key words: *Tabasco, Massa, anticlerical, lieutenant, government influence, courageous, pious, folds.*

Kirish. Grem Grinning adabiy ijodi ingliz adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning ijodiy uslubi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning asarlarida turli xil geografik muhit mavjud.Grin romanlarining harakatlari Shvetsiya, Vetnam, Kubada sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, yozuvchi ma’lum bir mamlakatda ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy voqealarni alohida aniqlik bilan tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi.Ko‘pincha Grin romanlarining sahnasi sayyoramizning “qaynoq nuqtalari” dir.

Grin o‘z qahramonlarini o‘zlarining xarakterlarini ochib berish uchun qiyin hayotiy vaziyatlarga qo‘yadi. Grem Grin har doim axloq va huquqbuzarlik me’yorlariga alohida e’tibor qaratgan, u uchun yaxshilik va yomonlikning mohiyatini tushunish muhimdir. Garchi u katolik bo‘lsa-da, uning romanlarida qahramon sifatida Xudoga ishonmaydigan va ateist odamlar bor edi. Grin o‘z asarlarida shaxsning faol yoki passiv hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lish huquqi masalasini ko‘taradi.Grinning turli romanlarida insonning pozitsiyasi muammosini hal qilish noaniq edi. Dastlabki romanlarda u faol pozitsiya to‘g‘ri emas deb hisoblaydi, ba’zida bu hatto halokatga olib keladi, muallifning keyingi asarlarida esa uning fikri butunlay teskari yo‘nalishda o‘zgaradi.

Grem turli janr yo‘nalishlarida yozgan.Uning ijodida ko‘ngilochar detektiv romanlar va jiddiy asarlar mavjud bo‘lib, unda muallif insonning tabiati va hayotining mazmuni haqida fikr yuritadi.Grinning romanlari aniq axloqiy muammolarga ega. Yozuvchi Grem Grinning o‘zi juda munozarali shaxs edi. Grinning aksariyat romanlariga xos bo‘lgan pessimizm muallifning dunyo yovuzligini tuzatib bo‘lmaydi va zamonaviy odam yolg‘izlikdan qochib qutula olmaydi degan ishonchidan kelib chiqqan.Ammo Grinning kitoblari pessimistik fikrlaydigan mualliflarning boshqa kitoblaridan farq qiladi, chunki Grin bu do‘stona dunyoda inson taqdiri haqida qayg‘uradi.

“Kuch va shon-shuhrat” romani 1940-yilda Britaniyalik yozuvchi Grem Grin tomonidan yozilgan bo‘lib, dastlab AQSh da “Labirint yo‘llari” nomi bilan nashr etilgan, keyinchalik “Kuch va shon-shuhrat”nomi bilan nashr etilgan. Roman diniy qarashlarga asoslangan holda yozilgan, bu bevosita Grinning 1930-yillarda Meksika hukumati katolik cherkovini bostirishga urinayotgan paytda Tabasko shtatida yashovchi dindan qaytgan katolik “viski ruhoniysi” (bu atama Grin tomonidan kiritilgan) haqida hikoya qiladi[1]. Kuch va shon-shuhrat romani Britaniyada dastlab tashkil topgan adabiy “Hawthornden” mukofotiga sozovor bo‘ldi.

Asosiy qism. Viloyat poytaxtida zo‘rg‘a hayot uchun kurashib kelayotgan oddiy xalq romanning paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shdi[2]. Katolik cherkovining ta’qibi antiklerikal gubernator Kando Tomas Tabasko hukumatida juda qattiq ruhoniylarni nazorat qildi va bu shtatdagi har bir cherkovning yopilishi bilan yakunlandi.[3].U hattoki ruhoniylarni turmush qurishga majburlagan. Grin o‘zining tashrifi haqidagi umumiy dushmanlik bayonida u shunday deb yozgan: “Menimcha, bu men meksikaliklardan nafratlana boshlagan kun edi” [4] deb tasvirlangan.Grin Kuch va shon-shuhrat romanida o‘zing ko‘rgan va kechirgan voqealarni asoslangan holda yozgan va bu uni “shunchalik dispeptik, shu qadar sevgisiz, shu qadar vahshiy va ko‘r” insonlarni borligidan nafratlanib roman yuzaga kelgan[5].

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish. Turli xalqlar frazeologik birliklarning bir-biriga har jihatdan o‘xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Ya’ni koreys tilidagi frazeologizmlarga ma’no jihatdan ham, shakl jihatdan ham aynan mos tushadigan tarjima. Koreys tili va o‘zbek tili bitta tillar oilasi – oltoy tillar oilasiga mansub bo‘lganligi, shuningdek, ikkala til ham agglyutinativ tillar oilasiga mansub bo‘lganligi uchun ular orasida umumiy o‘xshashliklar ko‘p. Xususan, bunday o‘xshashliklarni frazeologizmlarda ham ko‘rish mumkin. Ikki tilda ham bir-biriga ham shakl, ham ma’no jihatdan o‘xshash frazeologizmlar talayginadir. Bular bir-biriga ekvivalent hisoblanadi. Quyida shunday frazeologizmlarni ko‘rib chiqamiz.

가슴을 헤쳐 놓다 – yurakni ochmoq, 가슴이 아프다 – qalb og‘rimoq, 귀에 익다 quloqqa tanish, 귀가 밝다 – qulog‘i tez, 눈에 불을 켜다 – ko‘zida olov yonmoq, 눈에 불이 나다 – ko‘zida olov yonmoq, 눈에 선하다 – ko‘z oldida turmoq, 눈 깜짝할 사이 – ko‘z ochib yumguncha, 머리를 식히다 – boshga dam bermoq, 머리를 쓰다 – kallani ishlatmoq, 발이 뜸하다 – oyoqni uzmoq, 발을 끊다 - oyoqni uzmoq, 손에 손을 잡다 – qo‘lni qo‘lga bermoq, 손을 뻗치다 – qo‘lni cho‘zmoq, 손을 씻다– qo‘lni yuvmoq, 손이 거칠다 – qo‘li egri, 입을 떼다 – og‘iz ochmoq, 코가 꿰이다 – burnidan ip o‘tkazmoq.

M: 눈 깜짝할 사이에 일을 끝내다 – Ko‘z ochib yumguncha ishni tugatmoq. [1, 56]

아무리 어렵고 힘든 때라도 우리 모두 손에 손을 잡고 이 난을 해결한다 – Qanchalik qiyin bo‘lib, og‘ir bo‘lmasin, barchamiz qo‘lni qo‘lga berib bu qiyinchilikni hal qilamiz.

야외에 나가 머리를 식히다 – Shahar tashqarisiga chiqib, boshga dam bermoq.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ikki tilning frazeologizmlari ham shakl, ham ma’no jihatdan bir-biriga ekvivalent bo‘lsada, ammo ma’no bo‘yoqdorligi jihatdan bir-biridan farq qilishi mumkin. Ya’ni ekvivalentiga nisbatan ma’noning kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi, keng yoki tor bo‘lishi mumkin. Masalan, koreys tilidagi “손을 씻다” frazeologik birligi, o‘zbek tilida “qo‘lni yuvmoq” frazeologizmi bilan ekvivalentdir. Ammo koreys tilidagi variant ma’no ifodalashi va qo‘llanishi jihatdan biroz

tordir. U faqat “salbiy ishlardan aloqani uzish” ma’nosida keladi. O‘zbek tilidagi varianti ma’no jihatdan biroz keng bo‘lib, koreys tilida qolgan hollarda shu ma’noda keladigan boshqa frazeologizmlar bilan ekvivalent bo‘ladi. Ma’no kuchliliga misol sifatida “가슴을 헤쳐 놓다” frazeologik birlikni keltirishimiz mumkin. Bu “ko‘ngildagi fikrlarni yashirmay ochmoq” ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi ekvivalenti – “yurak ochmoq” frazeologizmlarga nisbatan kuchli ma’no bo‘yoqdorligiga ega.

Umuman tilda frazeologizmlarni ekvivalentlar orqali tarjima qilish murakkab jarayon bo‘lib, bunda tarjima jarayonida koreys tili frazeologizmlarining ifodalaydigan ma’nosini hamda qo‘llanish doirasida har tomonlama bilgan holda, ularga o‘zbek tilida mos ekvivalentlar topish lozim bo‘ladi.

2. Analog (o‘xshashlik) tarjima. Ma’no jihatdan koreys tilidagi variantiga mos, lekin shakl asosi jihatdan undan butunlay yoki qisman farq qiluvchi tatjima usulidir. Quyida shunday usul orqali tarjima qilingan frazeologizmlardan misollar keltiramiz.

귀가 가렵다 (간지럽다) – qulog‘i qizimoq, 귀가 어둡다 – qulog‘i og‘ir, 귀를 의시하다 – quloqqa ishonmaslik, 가슴에 불이 붙다 – yurakda hissiyotlar cho‘g‘ urmoq, 눈이 이슬에 맺히다 – ko‘zi yoshga to‘lmoq, 눈이 빠지도록 기다리다 – ko‘zi to‘rt bo‘lib kutmoq, 목에 칼이 들어와도 – boshiga qilich kelsa ham, 손에 물 한방울 묻히지 않고 살다 qo‘lini sovuq suvga urmasdan yashamoq, 입이 무겁다 – og‘ziga mahkam, 입이 가볍다- 입이 싸다 – og‘zi bo‘sh, 어깨가 가볍다 – yelkasidan tog‘ ag‘darilmoq 어깨가 무겁다 – yelkasida yuki bor, ya’ni yelkasida biron mas’uliyati yoki muammosi bor.

M: 책임 면하게 되어 어깨가 가벼워지다. – Mas’uliyatdan ozod qilinganim uchun yelkamdan tog‘ ag‘darildi.

그는 목에 칼이 들어와도 진실을 말하는 사람이다. – U boshiga qilich kelsa ham, haqiqatni aytadigan odam. [2, 45]

Qizig‘i shundaki, koreys tilidagi ko‘pgina “발” (oyoq) komponentli frazeologizmlar o‘zbek tilida “qo‘l” komponentli frazeologizmlari bilan mos keladi: 발이 넓다 – qo‘li uzun, 발이 짧다 – qo‘li kalta, 발을 씻다 – qo‘lni yuvmoq, 발을 빼다 – qo‘lni yuvmoq; oyog‘ini uzatmoq.

Aslida bunday tarjimada asl nusxa (koreys tili) matnidagi frazeologizmlarning tarjima tili (o‘zbek tili)da bir necha o‘xshash variantlari mavjud bo‘lib, tarjima jarayonida matn mazmunidan kelib chiqqan holda, mos variant tanlab olinib tarjima qilinadi. Yuqorida keltirilgan misollarda, biz koreys tilidagi frazeologizm ma’nosiga aynan o‘xshash bo‘lgan o‘zbek tili frazeologizmlarini tarjima varianti sifatida keltirdik.

3. Tasvirlash yoki tasviriy tarjima – koreys tilidagi frazeologizmlarni erkin so‘z birikmasi orqali berish. Bu tarjima metodi o‘zbek tilida xuddi shu frazeologizmga mos ekvivalent topilmagan hollarda qo‘llash mumkin.

귀가 따갑다 va 귀가 아프다 – ko‘p takrorlangandan eshitishni yoqtirmaslik, 귀가 솔기하다 – diqqat bilan eshitmoq, 귀가 얇다 – oson ishonadigan, 눈을 밝히다 – diqqat va e’tiborni jamlamoq, 눈을 붙이다 – mizg‘ib olmoq, 머리를 새겨 넣다 – xotirada yaxshi turmoq, 머리를 싸매다bor kuchi bilan harakatlanmoq, 목에 힘을 주다 – takabburlik qilmoq, yoki o‘zgani nazar-pisand qilmaslik, 목을 빼다 – bezovtalik bilan kutmoq, □□ □□– qayergadir tez-tez bormoq, 발을 동동 구르다 – qattiq xavotirlanmoq, 배를 두드리다 – farovonlik va qulaylikda yashamoq, 입만 아프다 – gapirishning foydasi yo‘q, □□ □□ – biror narsani g‘urur deb hisoblamoq, 코 묻은 돈 – yosh bolalar olib yuradigan oz miqdordagi pul.

M: 결혼 이야기에 귀가 솔깃했다.

To‘y hikoyasini diqqat bilan eshitdim.

밖에 서 있는 사람들이 목을 빼고 차례를 기다린다.

Tashqarida turgan odamlar o‘z navbatini bezovtalik bilan kutmoqda.

그는 시험을 위해서 머리를 싸매고 공부한다.

U imtihon uchun bor kuchi bilan harakatlanib o‘qiyapti.

Bu tarjima usuli koreys tilidagi frazeologizmga o‘zbek tilida ekvivalent yoki unga o‘xshashi topilmaganda keng qo‘llaniladi. Bu tarjima bir tomondan oson ko‘rinsa-da, ammo ikkinchi tomondan biroz murakkabdir. Chunki ushbu uslubda ham tarjimondan frazeologizmlarning ma’nosi, qo‘llanish doirasini yaxshi bilishi talab etiladi. Aks holda tarjima yaxshi chiqmasligi mumkin.

Xulosa. Koreys tili somatik frazeologizmlari orasida shunday frazeologizmlar mavjudki, ular tarkibiy tuzilishi jihatdan biroz murakkab bo‘lishi bilan birga ularning ma’nosini tushunish biroz qiyindir. Quyida shunday frazeologizmlarni keltiramiz. 눈 뜨고 볼 수 있다 – bu frazeologizm odamning ko‘zi oldidagi lavha dahshatli va achinarli darajada bo‘lganligidan, ko‘ngli noxush bo‘lib ko‘zga hech narsa ko‘rinmaslikni ifodalaydi.

눈에 쌍심지를 켜다 – bu frazeologizm g‘azablangan odamda ko‘zlarning kuchli chaqnashi yoki yonishi holatini ifodalaydi. 가슴이 두근반 세근반하다 – frazeologizmi yurakning kuchli urishi yoki dukillab urishini ifodalaydi. 가슴이 콩알 만하다 – ushbu frazeologizm, odamning notinch bo‘lib, o‘zini erkin his qilolmaslik holatini ifodalaydi. 손이야 발이야 – ushbu frazeologizm odamning kechirim so‘rashdagi ayanchli bo‘sh ahvolini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim Mun Uk, Kim Chun Sig. Koreys tili grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 2007. 380 - b.
2. 김종택. 국어 어휘론. 서울.(주) 탈출판사. 1992, 260 쪽.
3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *2*(2), 83-86.
4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA POLISEMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
5. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).
6. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.
7. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.
8. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

Shukurullo MIRZAYEV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: shukurullo5599@gmail.com

KOREYS TAOMLARINING ESTETIKASI – KOREYS MADANIYATINING RAMZI

Annotatsiya: transport va aloqa sohasidagi rivojlanish global iqtisodiyotdagi muhim to‘siqlarni bartaraf etib, bizni yanada yaxlitlashgan dunyo sari yetaklamoqda. Ushbu tendensiyaga mos ravishda aloqa, transport va ishlab chiqarish jarayonlari tobora standartlashtirilmoqda, mexanizatsiyalashmoqda va avtomatlashtirilmoqda. Bugungi kunda har bir millat va jamiyat uchun o‘ziga xos madaniy qadriyatlarini kengaytirish va saqlab qolish har qachongidan ham muhimroq. Shu nuqtayi nazardan, koreys oshxonasiga madaniy yondashuv juda qiziqarli va mazmunli tashabbusdir.

So‘nggi paytlarda koreys oshxonasining ramziy ahamiyati va ma’nosi haqida chop etilgan maqolalar fonida, koreys taomlarining o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini jamlab, tizimlashtirish muhim vazifa sifatida ko‘rinmoqda. Bundan tashqari, koreys oshxonasining estetik jihatlarini fan va madaniyatni uyg‘unlashtirgan holda taqdim etish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqola muallifi koreys oshxonasining globallashuviga hissa qo‘shish imkoniyati katta ekanligiga qat’iy ishonadi.

Kalit so‘zlar: *estetika, koreys taomlari, taomlanish madaniyati, ramziy tahlil, etnik taomlar.*

Аннотация: развитие транспорта и связи разрушило важные барьеры в глобальной экономике, что ведет нас к более единому миру. В соответствии с этой тенденцией процессы общения, транспорта и производства становятся все более стандартизированными, механизированными и автоматизированными. Сегодня более чем когда-либо важно для каждой нации и общества расширять и сохранять свои уникальные культурные ценности. В этом контексте подход к корейской кухне с культурной точки зрения является интересной и значимой инициативой. В последнее время были опубликованы статьи, посвященные символическому значению и смыслу корейской кухни, что делает необходимым собирать и систематизировать отличительные культурные особенности корейской еды. Кроме того, представление эстетики корейской кухни с помощью метода, интегрирующего науку и культуру, имеет большое значение. Автор данной статьи твердо верит в потенциал этого вклада в глобализацию корейской кухни.

Ключевые слова: *эстетика, корейская кухня, культура питания, символический анализ, этнические блюда.*

Annotation: the development of transportation and communication has removed significant barriers in the global economy, leading us toward a more unified world. In line with this trend, communication, transportation, and production processes are becoming increasingly standardized, mechanized, and automated. Today, it is more important than ever for each nation and society to expand and preserve their unique cultural values. In this regard, approaching Korean cuisine from a cultural perspective is an interesting and meaningful initiative. Recently, articles have been published discussing the symbolic significance and meaning of Korean cuisine, making it crucial to compile and systematize the distinctive cultural properties of Korean food. Additionally, presenting the aesthetics of Korean cuisine by integrating science and culture is of great importance. The author of this paper firmly believes in the potential of contributing to the globalization of Korean cuisine.

Key words: *esthetics, Korean food, food culture, symbolic analysis, ethnic cuisines.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat – bu yangicha ta’mlar rivojlanayotgan davrdir. Tabiiy va nozik oziq-ovqat madaniyati – elita sinfining imtiyozi timsoliga aylangan. Odatda, yuqori sifatli taomlarga bo‘lgan ishtiyoq, odatda, hashamatli buyumlar istagidan keyin paydo bo‘ladi. Qimmatbaho kiyimlar va brend sumkalar boylikni namoyish qilish vositasi bo‘lsa, ovqat esa har kuni, har bir taom orqali tajriba bo‘lishi mumkin. Bu – boshqalar bilan birga baham ko‘riladigan o‘ziga xos madaniy tajribadir. Nafis did, suhbat mavzusi va madaniy saviya bu tajribaning asosi bo‘lishi kerak.

Bunday taomlar uchun pul sarflashda iqtisodiy imkoniyat hamda madaniy did zarur. Ammo, agar insonda yetarli pul bo‘lmasa-yu, didi nozik bo‘lsa-chi? Ilgari fransuz taomlari qimmat bo‘lgan davrlarda, kam daromadli ziyolilar fransuz oshxonasiga muqobil sifatida italyan yoki xitoy taomlarini tanlaganlar – ular arzonroq bo‘lishiga qaramay, boshqa madaniyatlarni anglash

imkonini bergan. Ularning retseptlari esa oddiy xalq oshxonasidan ilhomlangan holda yangicha tarzda moslashtirilgan edi. Aynan shu moslashuv hozirgi zamonaviy oshxonani yaratdi. Bu jarayon – zamonaviy san'atning paydo bo'lishiga o'xshash bo'lib, bugungi kunda global san'at bozorida muhim o'ringa ega.

XX asrning oxirida AQSh dunyo iqtisodiyoti va siyosatida yetakchi edi. Shuningdek, dunyo oziq-ovqat madaniyatiga ham yo'nalish bergan – bu yo'l samaradorlik, koloriyani tez iste'mol qilish, ovqatlanish vaqtini qisqartirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga asoslangan edi. Natijada, "fast-food" va oilaviy restoranlar ommalashdi.

Biroq, XXI asrga kelib, Amerikaning "fast-food" madaniyati pasaymoqda, Osiyoning sekin (slow-food) ovqatlanish madaniyati esa o'zining xilma-xilligi va madaniy o'ziga xosligi bilan yuksalmoqda. Bugungi axborot asrida oziq-ovqat madaniyati ham o'zgarishga yuz tutmoqda. Uning markazi "tez va ko'p"dan "sekin va sog'lom" tomonga o'zgaryapti. Asosiy oqim – salomatlik va atrof-muhitga e'tibor qaratgan "tabiatga qaytish" tamoyiliga asoslanadi.

Yangi global elitalar turli xorijiy taomlarni osongina qabul qilishadi. Organik Osiyo taomlari butun dunyodagi elitalar tomonidan iliq kutib olinmoqda – bu esa "sharq asri"ga [1] eshik ochmoqda. Aynan shunday globalizatsiya ta'sirida zamonaviy oshxona paydo bo'ldi. Darhaqiqat, ko'p miqdorda hayvon yog'i va quyuq sous ishlatiladigan fransuz oshxonasi ham o'z an'analaridan voz kechib, o'zgarib bormoqda. So'nggi paytlarda dunyo bo'ylab mashhur fransuz oshpazlari tayyorlayotgan fransuz taomlari yengil va yog'siz ta'mga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyot va madaniyat har xil shakllarda o'zaro qorishib ketganligi sababli, dunyo oziq-ovqat madaniyati tendensiyasi G'arbdan Sharqqa qarab yo'nalmoqda. Bu Sharq oshxonasining xilma-xilligi, o'ziga xosligi va sog'lomligi bilan bog'liq [2]. Dunyo odamlarining didini Koreya-Osiyo zamonaviy oshxonasi bilan zabt etish erishib bo'lmas orzu bo'lishi mumkinmi? Yo'q, aslo unday emas. Koreys taomlari allaqachon oziqlanish, pazandachilik ilmi va madaniyat nuqtayi nazaridan dunyoda katta muvaffaqiyat qozonmoqda. Ushbu maqolada, bundan tashqari, biz koreys an'anaviy taomlarini o'rganish orqali hamda koreys taom madaniyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali uning falsafiy va estetik qiymatlari haqida fikr yuritamiz. Bu koreys taomlari va oziq-ovqat madaniyatini chuqurroq anglashni istaganlar uchun foydali bo'ladi.

Asosiy qism. Koreyslarning qadimiy maqolida shunday deyilgan: 보기 좋은 음식이 먹기도 좋다 "ko'rinishi yaxshi taomning mazasi ham yaxshi bo'ladi." Ya'ni, qadimgi koreyslar ovqat tayyorlashda nafaqat ta'mni, balki uning tashqi ko'rinishini ham sinchiklab hisobga olishgan.

Fikrimizcha, dunyodagi ko'plab madaniyatlar orasida koreys oshxonasining estetik tomonlariga bo'lgan sadoqatiga teng keladigani kam. Shuning uchun ham koreys taomlarini estetik nuqtayi nazardan tahlil qilish nihoyatda mazmunli va qiziqarli ishdir.

Bibimbap (비빔밥) – Koreys oshxonasining estetik va madaniy ramzi.

Koreys oshxonasi qadimdan sog'lomlik, uyg'unlik va estetikaga asoslangan bo'lib, har bir taom o'zida chuqur madaniy ma'no va qadriyatlarni mujassam etadi. Shular ichida Bibimbap nomli an'anaviy taom o'zining betakror tuzilishi va mazmuni bilan alohida ajralib turadi.

Bibimbap (비빔밥) – haqiqatan ham noyob va o'ziga xos taomdir. U kundalik hayotimizda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, dunyoda Bibimbap (비빔밥) kabi turli masalliqlarni tartibsiz ko'rinishda aralashtirib tayyorlanadigan boshqa birorta ham taomni uchratish qiyin. Dastlab, Bibimbap (비빔밥) rang-barang sabzavotlar, tuxum va boshqa tabiiy mahsulotlar bilan jozibali tarzda bezatiladi. Biroq, unga gochujang (qizil qalampir pastasi) qo'shilgach, barcha masalliqlar aralashtiriladi va taomning tuzilishi butkul o'zgaradi.

Bibimbap (비빔밥)ning ta'mi ham o'ziga xosdir. Aralashmaning natijasida hosil bo'lgan yangi ta'm mutlaqo boshqa darajadagi lazzatni taqdim etadi. Shu bilan birga, paradoksal tarzda, har bir masalliqning o'ziga xos ta'mi ham saqlanadi. Bu holat Bibimbapga xos sir-sinoatni yuzaga chiqaradi: umumiy uyg'unlik fonida har bir masalliqqa alohida e'tibor qaratilgan.

Bibimbap (비빔밥) koreys xalqining xarakterini va madaniy yondashuvini mukammal aks ettiradi. Uyg'unlik, birlashuv va murakkablik – bu taomning asosiy falsafiy tushunchalari hisoblanadi. Koreys oshxonasida bunday aralashtirish va uyg'unlashtirish tamoyiliga asoslangan yana ko'plab taomlar mavjud bo'lib, ular xalqning jamiyatga, tabiiylikka va estetikaga bo'lgan munosabatini aks ettiradi.

Bibimbap (비빔밥) – bu nafaqat taom, balki koreys milliy o'zligining, estetik qarashlarining va madaniy qadriyatlarining yorqin timsolidir. Uni o'rganish va baholash orqali nafaqat oshxona san'atini, balki butun bir xalqning dunyoqarashini tushunish mumkin.

Kelishuv taomi: Tangpyungchae (탕평채). Tangpyungchae (탕평채) – bu ham yaxshi uyg'unlashgan taom bo'lib, chungpo-muk (yashil moshdan tayyorlangan jele), mol go'shti va sabzavotlar aralashmasidan iborat. Ushbu taomning nomi qanday paydo bo'lgani haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq taomning muvozanatli ko'rinishi – ya'ni eman jelesi va ziravorlangan ko'katlarning uyg'unligi, Joseon

sulolasining (1694–1776) hukmdori bo‘lgan Yeongjoning tangpyungchaek siyosati (ya’ni, betaraflik siyosati) bilan bog‘langan. Ushbu siyosat orqali shoh Yeongjo siyosiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish uchun turli tabaqalardan iste’dodli odamlarni jamlagan. Shu sababli, ushbu taomga “tangpyung” so‘zi qo‘llanilgan.

Ushbu taomning asl koreyscha nomi bo‘lgan bo‘lishi mumkin, ammo u noma’lum va Yeongjo hukmronligi davrida xitoycha iyerogliflar asosida nomlangan. Shu sababli, barcha tarixiy yozuvlarda bu taom tangpyungchae deb tilga olinadi. Joo Yeong-ha (Joo) tomonidan ilgari surilgan fikrga ko‘ra (nashr etilmagan ma’lumotlar, “Song In-myeong va Tangpyungchae” blog postida qayd etilgan) Yeongjo olib borgan yarashtiruv siyosati aynan ushbu taom nomidan olingan, degan iddao mantiqsiz va oziq-ovqat etimologiyasining asosiy tamoyillariga zid. Tangpyungchae taomini tushunish uchun, avvalo, tangpyungchaek siyosatining mazmuni anglab yetilishi lozim.

Tangpyung so‘zi “muvozanat” degan ma’noni anglatadi, ya’ni bir tomonga og‘maslikni bildiradi. Ko‘pchilik bu siyosat turli siyosiy partiyalar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan va amalga oshirilganligini biladi.

Tangpyungchae taomi esa aynan Shoh Yeongjo davrida amalga oshirilgan tangpyungchaek (탕평채) – muvozanat va uyg‘unlik siyosati asosida nomlangan. Shoh Yeongjo partiyalararo nizolarni yo‘q qilib, guruhlar tomonidan sodir etilgan suiiste’mollarga chek qo‘ydi va ushbu siyosat orqali o‘z hukmronligini mustahkamladi.

Tangpyungchae turli sabzavotlar va chungpo-muk (mosh jele) uyg‘unlashmasidan iborat bo‘lib, bu taomning nomi tangpyungchaek siyosati bilan bevosita bog‘liq. U turli siyosiy qarashlarni uyg‘unlashtirish maqsadi bilan olib borilgan siyosiy tamoyillarni ifodalaydi. Bugungi kunda bu taom har xil tarkibiy qismlarning o‘ziga xos ta’mini saqlagan holda, yagona uyg‘un ta’m hosil qilishi bilan talqin qilinishi mumkin.

Oziqaviylikka boy taom – Japchae (잡채).

Japchae (잡채) ham tangpyungchae kabi aralash tamoyiliga asoslangan taomdir. Biroq, tangpyungchae tarkibida chungpo-muk (mosh jele) ishlatilsa, japchae go‘sht, sabzavotlar va tangmyun (shirin kartoshka kraxmalidan tayyorlangan koreys noodli) bilan aralashtiriladi.

Go‘sht, uglevodlar, vitaminlar, parhez tolalari va sabzavotlarning mukammal uyg‘unligi tufayli japchae bibimbap kabi to‘liq taomga aylanadi. U koreyslar orasida eng mashhur taomlardan biri bo‘lib, koreys oshxonasiga qiziqish bildirgan xorijliklar orasida ham keng tarqalgan.

Shuning uchun japchae (잡채) an’anaviy koreys taomi sifatida qabul qilingan, lekin dastlabki japchae (잡채) tarkibida noodl bo‘lganmi yoki yo‘qmi – bu bahsli masala. Ammo hozirgi kunda japchae deyilganda, ko‘pchilik uni noodlsiz tasavvur qila olmaydi.

Koreys xalqining taomi: Kimchi (김치)

Ba’zi koreys oziq-ovqat olimlari kimchi (김치) koreyslar tomonidan yaratilgan eng yaxshi sabzavotli taom deb hisoblashadi. Fermentatsiyalangan sabzavot koreys tilida Dimchae deb ataladi va xitoycha Jeo (漬) iyeroglifi bilan yoziladi. Ushbu Jeo (漬) belgisi Xitoy va Yaponiyada ham uchraydi. Ba’zi oziq-ovqat olimlari, ayniqsa Joo, kimchining kelib chiqishini xitoycha tuzlangan sabzavot – paochai (泡菜) bilan bog‘lashadi. Ammo kimchi ning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangandan so‘ng, xitoycha tuzlangan sabzavot koreys kimchisining asosi bo‘lgani haqidagi da’vo mutlaqo noto‘g‘ri ekanligi ayon bo‘ladi.

Kimchi (김치) tayyorlash uchun karam har xil sabzavotlar, koreys qizil qalampiri va jeotgal (baliq ziravorlari) bilan aralashtiriladi. Fermentatsiya jarayonida Lactobacilli kabi foydali bakteriyalar hosil bo‘lgach, bu mahsulot kimchi deb ataladi. Shu sababli, kimchi va paochai butunlay boshqa taomlardir.

Kimchi (김치) – bu aralash estetikasini o‘zida mujassam etgan taom bo‘lib, u koreys oshxonasining asosiy tamoyillaridan biridir. Sabzavotlar turli ziravorlar va fermentatsiyalangan anchou yoki qisqichbaqa bilan aralashtiriladi va natijada mutlaqo o‘ziga xos shaklga ega bo‘ladi. Shuning uchun kimchi insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi sabzavotli taom sifatida tan olingan. Ayniqsa, faqatgina koreys qizil qalampiri yuzlab turdagi qalampirlar ichida haqiqiy kimchi tayyorlash uchun mos keladi.

Qizil qalampir va kimchining ilmiy jihatlari quyidagilar:

qizil qalampirning achchiqligini ta’minlovchi kapsaitsin moddasi ko‘p miqdorda S vitamini va antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, qarishni sekinlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, qizil qalampir zararli mikroorganizmlarning o‘sishini oldini oladi, lekin foydali mikroorganizmlar, ayniqsa, Lactobacillus bakteriyalarining rivojlanishiga ko‘maklashadi va shu orqali ovqatning buzilishining oldini oladi. Bu jihatdan yapon va xitoycha tuzlangan sabzavotlar hamda koreys kimchisi o‘rtasida katta farq mavjud. Yaponcha tsukemono va xitoycha paochai mikroorganizmlarning buzilish ta’siridan saqlanishi uchun katta miqdorda tuz talab qiladi. Biroq koreys kimchisi ortiqcha tuzga ehtiyoj sezmaydi, chunki u qizil qalampir kukuni yordamida zararli va foydali mikroorganizmlarning o‘sishini muvozanatda ushlab turadi.

Shu nuqtayi nazardan, kimchida qizil qalampir kukunidan foydalanish juda ilmiy asosga ega. Shunga

qaramay, qadimgi davrlarda kimchini uzoq muddat saqlash mumkin bo‘lmagan, faqat bir necha kun davomida yangi holatda iste’mol qilinardi. Biroq hozirgi kunda maxsus kimchi muzlatkichlari yordamida uni uzoq muddat saqlash mumkin.

Xulosa. Taomning o‘zi madaniy mahsulot sifatida rivojlantirilishi kerak. Biroq, uni madaniy kontent sifatida ham targ‘ib etish muhimdir. Koreys oshxonasining ko‘plab vizual jihatlari e’tiborga loyiqdir. Masalan, koreys taomlarining tabiiy ingredientlari o‘ziga xos ranglar bilan ajralib turadi va bu go‘zallikni boshqa joyda uchratish qiyin. Bundan tashqari, taom ustidagi bezaklar ham muhim madaniy elementga aylanishi mumkin.

Oldingi tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, agar gumanitar fanlar olimlari, kontent mutaxassislari va oziq-ovqat bo‘yicha mutaxassislar birgalikda ish olib borsa, koreys taomlari amaliy madaniy kontent sifatida foydalanish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Shu sababli, koreys taomlarini quyidagi besh toifaga ajratib o‘rgandik:

1. Uyg‘unlik va integratsiya estetikasini aks ettiruvchi taomlar.
2. Kutish va sabr estetikasini ko‘rsatadigan taomlar.
3. G‘amxo‘rlik estetikasini o‘zida mujassam etgan taomlar.
4. Ranglarning xilma-xilligi orqali go‘zallik estetikasini aks ettiruvchi taomlar.
5. Nafosat va murakkablik estetikasini ta’kidlovchi taomlar.

Shuningdek, Choson sulolasi davriga oid janr rasmlari va pansori an’analarida koreys taomlarining quyidagi to‘rt jihati ko‘rib chiqildi:

1. Taom – kuch va hokimiyat ramzi sifatida.
2. Taom – kasalliklarning oldini olish va davolash vositasi sifatida.
3. Taom – mehr-muhabbat ulashish vositasi sifatida.
4. Taom – ilohiy aloqa vositasi sifatida.

Shunday qilib, koreys oshxonasi moddiy farovonlikdan tashqari, ma’naviy yetuklik, boshqalarni e’tiborga olish va muvozanatli hayot tarziga intilish tamoyillarini targ‘ib etadi.

Har bir millat o‘zining an’anaviy urf-odatlari va madaniyatini qayta kashf etish va qayta baholash uchun doimiy harakat qilishi lozim. Boshqa madaniy elementlardan farqli o‘laroq, milliy oshxona globallashuv ta’sirida o‘ziga xosligini saqlab qolishga moyildir. Shu sababli, madaniy merosni kengaytirish va saqlash har qachongidan ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schuttelaar and Partners Report, Future of Food: an exploration of the global food system, Report of the Future of Food Seminar, 28 November, 2008, Brussels

2. Raymond J. World’s five healthiest foods, Health, March 11. 2006

3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.

4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA POLISEMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.

5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December). KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).

6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O’RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).

7. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

8. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.

9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.

11. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

13. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Sitora TURAKULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti
Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
stelle1409@mail.ru

O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA YASAMA RAVISHLARNING O‘ZARO FARQLI VA O‘XSHASH JIHATLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada koreys va o‘zbek tillarida yasama ravishlarning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari ko‘rib chiqilib, koreys tilida frazeologik birliklar ravish bo‘lib, sintaktik jihatdan esa, hol vazifasini bajara olmasligini ko‘rishimiz mumkin. Bu narsa o‘zbek tilining boy til ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: *yuklama, bog‘lovchi, ravish, sabab, holat,* 부사, 매우, 일반부사, 상징부사, 문장부사.

Аннотация: в этой статье рассматривается различие и сходство производного наречия в узбекском и корейском языках, в корейском языке наречия являются фразеологизмами, но синтактически не функционируют как падеж. Это ещё раз доказывает, что узбекский язык является богатым языком.

Ключевые слова: *частица, союз, наречие, причина,* 부사, 매우, 일반부사, 상징부사, 문장부사.

Annotion: this article discusses the difference and similarity of the derived in Uzbek and Korean languages, in Korean language adverbs are phraseological units, but syntactically do not function as a case. This once again proves that the Uzbek language is a rich language.

Key words: *particle, conjuction, adverb,* 부사, 매우, 일반부사, 상징부사, 문장부사.

O‘zbek va koreys tillari bir til oilasi hisoblanuvchi Oltoy tillari oilasiga kirsa ham, lekin grammatik jihatdan tilida o‘zaro farqli hamda o‘xshash jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. Biz ushbu bobda, avvalo o‘zbek va koreys tillarida yasama ravishlarning o‘zaro farqli jihatlari haqida so‘z yuritamiz.

Birinchi navbatda o‘zbek tilidagi ravishlarning turlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, bunda ravishlarning turlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

Holat ravishi: *fidoyilarcha, chalqancha(siga), chambarchas, eranqaran, yaxshilikcha, boshdanoyoq, ochiqchasiga, ohista, paydarpay, piyoda, pinhona, surunkasiga, sidirg‘asiga, tekin, to‘g‘ridanto‘g‘ri, tiriklayin, tikkamatikka, qo‘qqisdan*.

Bobur ota yurtidan ajralganini endi ***astoydil*** *his qildi (P.Q.).*

Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning ***g‘olibona*** *bayrog‘imizni (A.M.).*

Auditoriya ***jimjit,*** *hamma unga qarar (P.Q.).*

Daraja miqdor ravishi – *qancha*? degan so‘roqqa javob bo‘lib, harakat va holatni bajarishdagi miqdor-darajani bildiradi.

Daraja-miqdor ravishlariga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: *arang, batamom, baqadrihol, baholiqudrat, bag‘oyat, birnav’i, beadad, birmuncha*.

Mo‘l-ko‘l nur to‘kar, ko‘kdan qadrdon quyoshimiz (E.Vohidov).

Biroq ko‘zgu shunaqangi xira ediki, o‘zimning yuzimni zo‘rg‘a ko‘rardim (O‘.H.).

O‘rin ravishi: *u yerga*, *bu yerga*, *shu yerga*, *u yoqqa*, *olg‘a, o‘rtaga*, *hech yoqqa*, *nariberi*, *ilgariga*, *tashqariga*, *quyiga*, *chapga*, *o‘ngga*.

Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo‘ysa, demak bu gap omonatdir (Hadisdan).

Yoshi ulug‘ Nazarali ota shu erda (G‘ .G‘ulom).

Payt ravishi: *tongla, uzzukun, umrbod, undabunda, endi, erta, ertalab, ertaindin, ertaindin* kabi so‘zlardan iborat bo‘lib, bu kabi ravishlar harakatning amalga oshirilish paytini bildiradi. Masalan:

Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo‘lsang, avval o‘z ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy).[1]

Bugun sening tug‘ilgan kuning, Bugun uying to‘ladi gulga (H.O.).

Maqsad ravishi: *atay, atayin, ataylab, azzabazza, jo‘rttaga, qasddan* kabi ravishlar so‘zlardan iborat bo‘lib, bu so‘zlar harakat-holatning qay maqsadda amalga oshirilishi ko‘rsatadi. Masalan,

Yuksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (Po‘lat Mo‘min).

Sabab ravishi: *noiloj, noilojlikdan, bekordanbekorga, chornochor*.

Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o‘tirdi (Oydin).

Koreys tilida ham xuddi o‘zbek tilidagi singari ravishlarning bir nechta turlari mavjud. Faqat bu turlar o‘zbek tilidagi ravish turlaridan biroz farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Quyida koreys tilidagi ravishlarning ajratib ko‘rsatilgan turlarini ko‘rishimiz mumkin:

Umumiy ravishlar (일반부사): 아주(juda), 매우(juda), 훨씬(yanada), 더욱(nihoyatda), 더(yana), 모두(jami), 광장히(buyuk), 너무(juda), 같이(birga), 함께(birga), 전혀(umuman), 아침(ertalab) kabilar.

이 약은 감가에 아주 잘 듣습니다.

Bu dori shamollashga yaxshi yordam beradi.

[1] Nurmonov A., Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, Ilm Ziyo, 2010. 190-b.

오늘은 날씨가 매우 춥군요.
Bugun havo juda sovuqku!
그 옷이 훨씬 좋아 보여요.
U kiyim ancha yaxshi ko‘rinadi.
괄일은 사람들이 좋아하니까 더 사는 것이 좋겠어요.
Mevani odamlar yaxshi ko‘rgani uchun yana ko‘proq sotib olsa yaxshi.
어제보다 기온이 상당히 올라갔어요.
Kechadan ko‘ra ob-havo darajasi anchagina ko‘tarilgan.

Taqlid ravishlari (상징부사). Tovushlarga o‘xshatish yoki predmetlarni qiyofasiga o‘xshatish vazifasini bajarayotgan ravishlar hisoblanadi. Ularga 땡땡, 똑똑, 뚝뚝, 멍멍, 보글보글, 쿵쿵, 훨훨, 엉금엉금, 살금살금, 성큼성큼 va boshqalarni kiritishimiz mumkin.
수업을 알리는 종소리가 땡땡 울립니다.
Darsni bildiradigan qo‘ng‘iroq tteng-tteng‘ chalinyapti.
작은 집들이 웅기종기 모여 있습니다.
Kichik uylar dam u yerda, dam bu yerda joylashgan.
훨훨 나는 저 꾀꼬리 암소 서로 정답구나.
Osmonda mayin uchadigan zarg‘aldoqlar bir-birlariga juda mehribon.
사뿐사뿐 눈 위를 걷는 소리가 들립니다.
Qorda qadamlarning g‘ichirlagan tovushi eshitilyapti.
저는 슬그머니 회의장을 빠져나왔습니다.
Men majlisdan bilintirmay chiqdim.

O‘rin ravishlari (장소부사): 이리(bu yer), 저리(ana u yer), 그리(u yer), 여기(bu yer), 거기(u yer), 저기(ana u yer) va boshqalar.
이리 와서 자세히 이야기나 합시다.
Bu yerga kelib batafsil gaplashaylik.
그리로 가서 지하철을 갈아타야 합니다.
U yerga borib metroni almashtirib minish kerak.
저리로 가면 사거리가 나옵니다.
U yerga borsangiz chorraha chiqadi.
저기 제가 탈 버스가 오네요.
U yerda men minadigan avtobus kelyapti.
거기 무슨 문제라도 있습니까?
U yerda qandaydir muammo bormi?

Payt ravishlari (시간부사): 가끔(ba’zan), 내일(ertaga), 늘(doim), 다시(yana), 모레(ertadan keyin), 벌써(allaqachon), 아까(biroz oldin), 어제(kecha), 언제(qachon) kabilar.
언제 집으로 찾아가면 되겠습니까?
Qachon siznikiga borsam bo‘ladi?
어제 오래 전에 만났던 사람으로 부터 전화가 왔습니다.
Kecha ancha avval uchrashgan kishidan telefon bo‘ldi.
모레 여행을 떠날 예정입니다.
Ertadan keyin sayohatga bormoqchiman.
오늘 중간 고사가 있습니다.
Bugun oraliq nazorat ishi bor.
이제 이 주제에 대해서 이야기를 해 볼까요?
Endi bu mavzu bo‘yicha gaplashib ko‘ramizmi?

Shuningdek, koreys tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda **inkor ravishlari** (부정부사) deb nomlanuvchi ravish turi mavjud bo‘lib, bunga 안 (-maslik) hamda 못 *(qila olmaslik)* inkor ravishlarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.[2] Buning o‘zbek tilidan farqli jihati shundaki, mazkur inkor so‘zlar o‘zbek tilida inkor yuklamari orqali ifodalanadi. Ya’ni o‘zbek tilidagi “*-maslik*” inkor yuklamasi orqali fe’l inkor qilinadi. Bunda mazkur qo‘shimcha fe’lga qo‘shilib keladi. Koreys tilida esa, bu so‘zlar fe’l va sifatlardan oldin qo‘llanilib inkor ma’nosini beradi.
어제는 잠을 안 잤습니다.
Kecha uxlamadim.
저는 수영을 못 합니다.
Men suza olmayman.
저는 무서운 영화를 안 봅니다.
Men qo‘rqinchli filmlarni ko‘rmayman.
불의를 보면 저는 못 참습니다.
Nohaqlikni ko‘rsam men chiday olmayman.
저는 그 사람을 한 번도 못 봤습니다.
Men u kishini biror marta ham ko‘rmadim.

Gap ravishlari (문장부사): 과연 (haqiqatdan), 정말 (juda), 실로(haqiqatda), 물론(albatta), 모름지기(albatta), 설마 (nihoyat) kabilarni kiritish mumkin. Bunday so‘zlarni koreys tilida biz gap ravishlari sifatida ishlatgan bo‘lsak, o‘zbek tilida bu narsa kirish gap sifatida qo‘llanilib keladi.
과연, 그 소문이 사실이었구나!
Haqiqatda, bu mish-mishlar to‘g‘ri bo‘lib chiqdi.
정말, 그는 정확한 사람이야!
Haqiqatdan, u tartibli odam ekan.
물론, 우리가 모임에 꼭 참석해야 되는 것은 아닙니다.
Albatta, biz majlisda aniq qatnashishimiz majburiy emas.
실로, 가을은 아름다운 계절입니다.
Chindan ham, kuz chiroyli fasl.
모름지기, 사람은 꿈이 있어야 합니다.
Nima bo‘lganda ham, insonning orzusi bo‘lishi kerak.

Bog‘lovchi ravishlar (접속부사). Ushbu ravishlar so‘zni so‘z bilan, gapni esa gap bilan bog‘laydilar. Ularning qatoriga: 즉(ya’ni), 또(또한) (yana), 도리어 (kutilmaganda), 오히려(aksincha), 차라리(yaxshisi), 및 (va), 더구나(buning ustiga) kabilarni kiritimiz mumkin. Bu kabi so‘zlarni biz koreys tilida bog‘lovchi ravishlarga kiritib o‘tdik. Lekin o‘zbek tilida bular yordamchi so‘z turkumlarining bog‘lovchilar qismida o‘rganiladi.
시긴은 즉, 금이다.
Vaqt ya’ni, oltindir.
우리가 또 축구시합을 이겼다.
Biz yana futbol musobaqasida g‘olib bo‘ldik.
축구경기를 보는 사람들이 오히려 더 흥분되어 있다.
Futbol muxlislari aksincha, ko‘proq hayajonlanadilar.
야단을 맞아야 할 아이가 도리어 화를 내고 있다.
Jazo tortish kerak bo‘lsa, aksincha g‘azablanib o‘tiribdi.
날씨가 이렇게 추운데 더구나 전기까지 공급되지 않는다.

2 Kim Chun Shik. Koreys tili nazariy grammatikasi. – Samarqand, 2007. 78-b.

Demak, yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida ham, koreys tilida ham ravishlar o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Ularning o‘zaro farqli jihatlarini ularning turlarga bo‘linishida ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Masalan, bizning o‘zbek tilimizda ravish so‘z turkumida mavjud bo‘lgan so‘zlardan tashqari koreys tilida taqlid so‘zlar, yuklama va bog‘lovchilar ham ravish so‘z turkumi asosida o‘rganiladi.

Biz so‘z yuritayotgan ushbu bobda o‘zbek tili hamda koreys tilidagi ravishlar yasalishining o‘ziga xos farqli hamda o‘xshash jihatlarini qarab chiqamiz. Eng avvalo, shuni bilishimiz zarurki, o‘zbek tili so‘z yasovchi qo‘shimchalar ko‘pligi bilan o‘ziga xos ajralib turadi. Xuddi shuningdek, koreys tilida ham so‘z yasashda bir qator yasovchi qo‘shimchalardan foydalaniladi. Xususan, ravish yasash holati ham turli so‘z turkumlaridan ma’lum qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ravish so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlarni yasash o‘ziga xos hisoblanadi. Bu jihatdan olib qaraganimizda ikkala tilning o‘zaro o‘xshash jihatlari borligini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, o‘zbek tilida ham koreys tilida ham ravishlarning o‘ziga xos o‘xshash jihatlari quyidagilardan iborat:

O‘zbek tilida ham, koreys tilida ham ravishlar fe’ldan oldin keladi va harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, daraja-miqdorini bildiruvchi so‘z turkumi hisoblanadi.

시험이 어려워서 겨우 합격했어요.
Imtihon qiyinligi uchun zo‘rg‘a o‘tdim.
그것은 전혀 믿을 수 없는 일이다.
Bu mutlaqo ishonib bo‘lmaydigan ish.
여기 앉았던 사람이 어디로 갔습니까?
Bu yerda o‘tirgan kishi qayerga ketdi?

O‘zbek tilida bir qator so‘z holida uchraydigan ravishlar mavjud. Ular qo‘shma ravishlar hisoblanib, so‘zga-so‘z qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi. Buning natijasida juft va takroriy ravishlar yasaladi. Masalan, *qator-qator, bir oz, har yerda, navbatma-navbat, o‘zidan-o‘zi, nari-beri, ochiq-oydin, apil-tapil* kabilar shunga misol bo‘ladi. O‘zbek tilidagi juft ravishlardan *nari-beri* ravishi ham o‘rin joy ravishlariga, ham holat ravishlari qatoriga kiradi.[3] Masalan,

*Stollarni **nari-beri** surdik. (o‘rin ravishi)*
*U **nari-beri** nonushta qildi. (holat ravishi)*
*Biz kommunizmning **batamom** va **uzil-kesil** tantanasiga qattiq ishonamiz. (“S. O‘zb.”)*
*Rahim yugurib keldi-yu, **birpas nari-beri** shoshib ovqatlandi-da, **shu ondayoq** chiqib ketdi.*
*O‘sha yillar **qancha-qancha** vatandoshlarimiz qatag‘on qilindi.*
*Dam o‘tmay o‘quvchilarni **nom-banom** chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi.*
*Suhbat haqida Aziza keyin **uzundan-uzoq** so‘zlab berdi.*
*Bir necha qiz **o‘z-o‘zidan** raqsga tushib ketdi.*

Bundan tashqari o‘zbek tilida semantik usul bilan ham yasaluvchi ravishlarni ko‘rishimiz mumkin. Bularning qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: *indamasdan, uzoqda, tongdan, chetga, erta, indin, birdan, birga, shoshmasdan* kabilar.

*Ertasi **ertalab** hokimxonaga borishga qaror berdilar (Sh. Sa’dulla)*
***Kecha** havo juda sovuq edi. (Sh. Sa’dulla)*
*Is’hoq **birdaniga** kecha bo‘lib o‘tgan voqeani esladi.*
***Yaqinda** Oqsaroy bekatida bo‘lib o‘tgan voqea hammamizni o‘ylantirib qo‘ydi.*
***Birdan** eshik ochildi. Chalqanchasiga yonboshlab, bag‘rini sovuq ko‘rpaga burkab yotgan cholning ko‘zlari xira tortib qolgan, nursiz edi.*
*Otam kerza etigi qo‘njidan **to‘satdan** suyak dastali, dastasiga shisha ko‘zlar qadalgan pichoqni sug‘urdi. (Sh.Jalil)*

Yuqoridagi misollarni birma-bir qarab chiqadigan bo‘lsak, unda ravishlarga kelishik qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida yuz beradigan ma’noviy o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *birdaniga* so‘zida **–ga** qo‘shimchasini qo‘shib biror ish-harakatni qo‘qqisdan yuzaga kelishini ifodalaydi. Yoki *yaqin* so‘ziga o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi **–da** qo‘shilishi natijasida vaqt ma’nosi ifodalanmoqda.

Koreys tilida esa so‘z ravishlar ham o‘zbek tilidagi kabi qo‘llaniladi. Bu kabi so‘z ravishlarga koreys tilida quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 아주, 훨씬, 즉, 도리어, 땡땡, 이리, 그리, 가끔, 내일, 다시, 및, 하물며, 차라리, 아무리, 제발 va boshqalar.

어제 읽던 책이 아주 재미있었습니다
Kecha o‘qigan kitobim juda qiziqarli edi.
어떤 물건을 시장에서 사는 것이 오히려 더 비싸다.
Ba’zi narsalarni bozordan sotib olish aksincha, qimmatga tushadi.
새도 은혜를 안다. 하물며 인간에 있어서라!
Hatto qush ham marhamatni biladi, odam-chi!
아마, 내일 아주 많은 눈이 내릴거예요.
Balki, ertaga ko‘p qor yog‘sa kerak.

Yuqoridagi gaplardan koreys tilidagi ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarni qarab chiqadigan bo‘lsak, bu so‘zlar o‘zbek tilida ba’zan mos kelmasligini ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘zlar xuddi o‘zbek tilidagi singari fe’ldan oldin kelib harakatning belgisini ifodalasa-da, lekin morfologik jihatdan boshqa-boshqa so‘z turkumlari hisoblanadi.

Demak, koreys tilida ravishlar faqat taqlid so‘zlar bilan yasalganda takroriy ravishlar yasaladi. Ya’ni ma’lum bir holat yoki tovushni ikki marotaba aytish orqali biz juft so‘zlar hosil qilamiz.

Shuningdek, o‘zbek tilida ravish turkumiga mansub frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunday so‘zlar ravish turkumiga oid bo‘lmasa-da morfologik jihatdan ravish vazifasini, sintaktik jihatdan esa hol

[3] Nurmonov A., Mahmudov N. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent, Ilm Ziyo. 2010. 192-b.

so‘z turkumi vazifasini bajarib keladi. Masalan, *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, shu-shu deguncha* kabilar ravish turkumiga mansub frazeologizmlar hisoblanadi.

Koreys tilida biz frazeologik birliklarni yuqoridagi kabi so‘zlarni juft yoki takror holda qo‘llash orqali frazeologizmlar yasab bo‘lmaydi. Koreys tilida frazeologizmlarni hosil qilishda, asosan, bir fe’l bilan boshqa so‘zlarni qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Shuningdek, koreys tilida frazeologizmlarning ko‘pchiligi, asosan, xitoy tilidan kirgan iboralarga tegishlidir. Masalan, fe’l bilan boshqa so‘zlarning qo‘shilishidan:

입이 무겁다 – og‘iga mahkam
입이 가볍다 – og‘zi bo‘sh

Xitoy tilidan kirgan iboralardan:

일석이조 – bir o‘q bilan ikki quyonni urish
이웃사촌 – uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi

Yuqoridagini ko‘rib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, koreys tilida frazeologik birliklar ravish bo‘lib, sintaktik jihatdan esa, hol vazifasini bajarib kela olmaydi. Bu narsa o‘zbek tilining boy til ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim Chun Shik Koreys tili nazariy grammatikasi. – Samarqand, 2007. 76-b.

2. Kim Mun Uk, Ismailov Anvar va b. Koreys tili grammatikasi. – Toshkent, 2007. 105-b.

3. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *2*(2), 83-86.

4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA POLISEMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.

5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December). KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).

6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).

7. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

8. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG ‘LOVCHILARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.

9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 24), 155-164.

11. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

13. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Iroda BAYONKHANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Koreys filologiyasi kafedrasi mudiri
E-mail: irodabayonkhanova2208@gmail.com
https://scholar.google.com/citations?user=lgS7MfEAAAAJ&hl=ru

KOREYA DIALEKTOLOGIYASI VA IJTIMOIY DIALEKTLAR: TIL TIZIMI, TARIXIY RIVOJLANISH VA SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada Koreya dialektologiyasi va ijtimoiy dialektlar tadqiqotining nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Dialektlar hududiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning turli tarixiy davrlarda shakllanishi va tadqiq etilishi muhokama qilingan. Koreya dialektlarini sinxron va diaxron tahlil qilish usullari, kontakt dialektlarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, dialekt xaritalarining tuzilishi va geolingvistika usullari batafsil yoritilgan.

Maqolada, shuningdek, ijtimoiy dialektlar masalasi ham keng qamrab olingan bo‘lib, ularning professional tilda, jargonlarda va mahalliy dialekt qatlamlarida namoyon bo‘lishi tahlil etiladi. Ijtimoiy dialektlarning adabiy til va umumxalq tiliga ta’siri, ularning sotsiolingvistik ahamiyati ham yoritilgan. Ushbu tadqiqot Koreya dialektologiyasi va sotsiolingvistikasining rivojlanish bosqichlari hamda metodologik asoslarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *Koreya dialektologiyasi, shevalar va dialektlar, ijtimoiy dialektlar, dialekt xaritalari, hududiy shevalar, sotsiolingvistika, til o‘zgarishlari, professional til, jargon va argo, dialektizmlar, koreys tili tarixi, lingvistik tadqiqotlar, dialekt tadqiqot usullari, mahalliy til va adabiyot.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты корейской диалектологии и исследования социальных диалектов. Диалекты анализируются с региональной и социальной точки зрения, обсуждается их формирование и исследование в разные исторические периоды. Подробно освещены методы синхронного и диахронического анализа корейских диалектов, особенности контактных диалектов, а также структура диалектных карт и методы геолингвистики.

В статье также освещается проблема социальных диалектов и анализируется их проявление в профессиональном языке, сленге и местных диалектных слоях. Также освещено влияние социальных диалектов на литературный язык и национальный язык, их социолингвистическое значение. Данное исследование раскрывает этапы развития и методологические основы корейской диалектологии и социолингвистики.

Ключевые слова: *Корейская диалектология, диалекты и диалекты, социальные диалекты, карты диалектов, региональные диалекты, социолингвистика, языковые изменения, профессиональный язык, сленг и аргон, диалектизмы, история корейского языка, лингвистические исследования, методы исследования диалектов, местный язык и литература.*

Annotation: this article examines theoretical and practical aspects of Korean dialectology and the study of social dialects. Dialects are analyzed from a regional and social point of view, and their formation and study in different historical periods are discussed. The article also covers the problem of social dialects and analyzes their manifestation in professional language, slang and local dialect layers. It also covers the influence of social dialects on the literary language and national language, their sociolinguistic significance. This study reveals the stages of development and methodological foundations of Korean dialectology and sociolinguistics.

Key words: *Korean dialectology, dialects and dialects, social dialects, dialect maps, regional dialects, sociolinguistics, language changes, professional language, slang and argon, dialectisms, history of the Korean language, linguistic research, methods of dialect research, local language and literature.*

Koreyada ayrim shevalar yoki ularning shevalari mustaqil til tizimi sifatida qaralib, avlodlar farqini hisobga olgan holda texnik yoki tarixiy tadqiqotlar olib boriladi. Ayrim hollarda ikki yoki undan ortiq dialektlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, ularni sinxron yoki diaxronik tarzda o‘rganish uchun solishtiriladi. Bundan tashqari, dialekt chegaralarini tashkil etuvchi tor sohalarda yuzaga kelgan kontakt dialektlarining xususiyatlari ham o‘rganiladi. Bundan tashqari, mahalliy nashr etilgan adabiyotlarda aks ettirilgan shevalar o‘rganiladi va adabiyotga asoslangan tarixiy tadqiqotlarni to‘ldirish uchun shevalar ham o‘rganiladi.

Dialektologiya fanining tadqiqot obyekti bo‘lgan sheva materiallariga nafaqat zamonaviy sheva materiallari, balki ilgari yozib olingan adabiyotlardagi sheva materiallari ham kiradi, boshqacha aytganda, ular alohida tillarning barcha shevalarini o‘z ichiga oladi, lekin tabiatiga qarab tanlab qo‘llaniladi. Zamonaviy dialekt materiallari vaqt o‘tishi bilan geografik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi lingvistik shakl va mazmun bo‘lsada, ular asosan, tadqiqot vaqtida sinonimik holatni ko‘rsatadi. Bu zamonaviy lahjalar, asosan, dala so‘rovlari orqali to‘planadi, lekin ba’zan ular yozishmalar yoki yozma so‘rovlar orqali ham to‘planadi. Keng hudud bo‘ylab dialekt so‘rovi o‘tkazilganda, tizimli va bir xil so‘rovni samarali o‘tkazish uchun so‘rovnoma maqsadiga muvofiq tayyorlangan so‘rovnomalar ro‘yxati yoki anketadan foydalaniladi. Xususan, maqsad bir nechta joylarga mo‘ljallangan qo‘shma dialekt tadqiqotlarini o‘tkazish bo‘lsa,

so‘rovnomalar va tegishli savollarni o‘z ichiga olgan anketadan foydalaniladi.

≪시골말개기잡책≫ (최현배, 1946) so‘rovnomalar ro‘yxati xarakteriga ega va “Koreys shevasi so‘rovnomasi” (Koreya Ruhiy madaniyat tadqiqot instituti, 1980) Koreyadagi birinchi keng qamrovli so‘rovnomadir. Boshqa so‘rov shakllari va anketalar tayyorlandi va shaxsiy yoki jamoaviy foydalanish uchun (xususan, koreys tili va adabiyoti bo‘limi uchun) foydalanildi.

So‘rovlar yoki so‘rovnomalar bo‘yicha o‘rganilgan dialekt turlari ma’lumotlar to‘plami shaklida bayon qilinadi va ular asosida dialekt xaritasi tuziladi.

“Koreys shevasi bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami” Ⅰ~Ⅸ (1987~1995) so‘rovnoma tartibida “Koreys shevasi so‘rovnomasi” bo‘yicha o‘rganilgan dialekt turlarining to‘plamidir. Hozirda ushbu dialekt xaritasi tayyorlanmoqda va hali nashr etilmagan.

To‘liq ko‘lamli koreys lahjasi tadqiqoti 20-asrning birinchi yarmida오구라(小倉進平) va고노(河野六朗) bilan boshlangan va qisman방종현(方鍾鉉) tomonidan boshlangan va butun mamlakatni nishonga olgan. Bundan tashqari, qisman milliy til xaritasi yoki dialekt xaritasini yaratish orqali ba’zi hodisalarni tushuntirishga harakat qilindi. Biroq ozodlikka erishgandan so‘ng, yapon mustamlakachilik davri tendensiyasidan so‘ng, texnik tadqiqotlar asta-sekin mahalliy dialektga, ya’ni dialekt hududida yoki pastki dialekt hududidagi mahalliy tilga e’tibor qaratildi va bu taraqqiyot sari til dialektning talqini, xaritalar yaratish orqali tarix unchalik katta yutuqlarga erishmagan. Viloyat birligi atrofida sheva hududi yoki ma’muriy bo‘linish sifatida yaratilgan dialekt xaritalari ham asosan, kenja dialektlarning geografik joylashuvi va chegaralariga ko‘ra bo‘linishiga qaratilgan. Til o‘rgatish dialekt tadqiqotlarida juda muhim rol o‘ynaydi. Til xaritasi birinchi navbatda har bir nuqtada qaysi til hodisasi qaysi dialekt turida paydo bo‘lishini ko‘rsatishi kerak, lekin ranglar yoki kodlar berilishi kerak, shunda xaritaning o‘zi til hodisasining talqinini o‘z ichiga oladi. Bunday dialektlarni o‘rganish maxsus geolingvistika yoki geodialekt deb ataladi.

Til xaritalari orqali geolingvistik tadqiqotlarda ㅇ ㅿ ㅁ kabi belgilar asosan tizimda qo‘llaniladi va bir tizimga kiruvchi va dialekt farqi kam bo‘lgan dialekt turlari uchun har bir dialekt turini aniqlash uchun ushbu asosiy belgilarga qo‘shimcha belgilar qo‘shiladi. Geografik tarqalish hududi yoki chegarasini ko‘rsatishdan tashqari, belgining o‘zi dialekt farqlarini berish orqali izohlanadi.

Ba’zan turli xil chizish usullari, masalan, qarindosh chiziqlar yoki dialekt chegaralarini belgilashga harakat qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, til xaritasini til xususiyatining turli tarixiy tomonlarini geografik taqsimot xaritasiga aylantiruvchi izohli xarita turi deyish mumkin.

Masalan, “kungaboqar” so‘zining dialekt shakli ① ‘해바라기(＜해(日) # 바라(向) + 기)’ ② ‘해자부리(＜해(日)자불(睡)+이)’ ③ ‘해가우리(＜해(日)갸울(傾)+이)ning uchta tizimi mavjud bo‘lib, ular asosan ① Gyeonggi-do, Chungcheongnam-do, Jeollanam-do, Jeollanam-do, Gyeongsangnam-doda qo‘llaniladi. , va Jeju oroli, ② Gangvon-do va Xamgyongnam-do ③ Xvanxedo, Shimoliy va Janubiy Pyongan provinsiyalarida tarqalgan. Birinchidan, asosiy kod ㅇ ㅿ ㅁ ularning har biriga beriladi, so‘ngra “ 해자우리” Janubiy Hamgyong provinsiyasi va Gangvondoning aksariyat hududlarida “ 해자우리” tizimiga bo‘linadi va ayni paytda qo‘shimcha belgilar qo‘shiladi “ 해자우리” belgisi, masalan, xí. “ㅇ＞w” (ᄌᆞᄫᆞᄅᆞ＞Jawl ·) qo‘shimcha so‘zidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun xarita yaratilgan. Har bir belgi mos keladigan nuqtada bir xil tarzda ko‘rsatiladi. Shunday qilib, siz oldinga borib, tegishli lug‘at bilan kengaytirilgan xaritani yaratishingiz va til o‘zgarishlarini qayta ko‘rsatish uchun xaritalarni bir-biriga yopishingiz mumkin. Silxaklar davrida, palatalizatsiyaga asoslangan dialektlarni farqlashga qiziqish harflar va notasiyalar bilan bog‘liq fonologik tarixga bo‘lgan qiziqish tufayli namoyon bo‘ldi va dialekt lug‘atlari haqida bir qancha silhak olimlari ham xabar berishdi.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida “ijtimoiy dialektlar” terminini ko‘plab uchratamiz. Odatda, ijtimoiy dialektlar tilning shunday bir qatlamiki, ular adabiy til va uning talablariga to‘g‘ri kelmaydi. Biroq ko‘pgina hollarda “ijtimoiy dialektlarni tilning yuzaga kelishidagi asosiy obyekt sifatida qo‘llab kelishadi. Jumladan, V.Jirmunskiy sotsial dialektlarni hududiy dialektlarga ham, shahar til doirasiga ham, adabiy tilga ham (og‘zaki, yozma shakllari) taalluqli ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Shunga ko‘ra, V.Jirmunskiy ularni ijtimoiy dialektlar deb atashni taklif qiladi. Ijtimoiy dialektlar tarkibiga dialektizmlar, jargon va argo hamda professional so‘zlar kiradi. B. Serebrenníkov ularni dialektlar sifatida emas, balki ijtimoiy nutq variantlari, nutq uslublari ekanligini uqtirib o‘tadi. Shu bilan birga, bu nutq variantlari, dialektlar sifatida xizmat qilar ekan, ularning fonetik sistemasi hamda grammatik qurilishi nuqtai nazaridan adabiy tildan farq qiladi, deydi. V. Avrorin esa ularni nutq variantlari sifatida emas, aksincha “Ijtimoiy dialekt” deb atashni hamda ijtimoiy variantlar nutqi ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, “Ijtimoiy dialektlar” ma’lum shaxs yoki guruh vakillariga xizmat qiladi, ularning ijtimoiy professional jihatlarini farqlab o‘rganishimizga yordam beradi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy dialektlarni quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Professional til (aniq bir leksik qatlamga xos) baliqchilar, ovchilar, daraxt kesuvchilar, o‘ymakorlar, tikuvchilar, etikdo‘zlar, shuningdek, boshqa kasb - hunarga oid atamalar.

2. Ma’lum bir to‘da va guruhga oid jargonlar. Masalan, talabalar, sportchilar, soldat va ofitserlar hamda boshqa guruh vakillariga xos.

3. Dialektal qatlamga xos so‘zlar (dialektizmlar) ular mahalliy xalq nutqiga xos bo‘lib, ma’lum bir hududda yashovchi xalqlar hayotini, turmushini, yashash tarzini aks ettiradi. Xullas, ijtimoiy dialektlarni bu tarzda tasnif etish orqali ularning muhim qirralarini aniqlab olish mumkin.

1.Professional til. Bu til asosan, til paydo bo‘lishining muhim omillariga asoslanadi, (adabiy til, hududiy dialekt) lug‘at tarkibida o‘zining alohida o‘miga ega. Professional til har bir kasb-hunarga xos ma’no kasb etadi. Aytaylik, etikdo‘zlar kasbi bilan bog‘liq turli atamalar shu doirada qo‘llansa, o‘ymakorlar, naqqoshlar va boshqa kasbga oid atamalar ham o‘z doirasida ishlatiladi. Professional tilda har bir kasbga doir mahsulotlarning turi alohida qo‘llaniladi. Masalan, 10 dan ortiq mashina turlari qo‘llaniladi (kir yuvish, tikish, bo‘yoq va pardoz berish) yoki 6-7 turdagi bolta, 5-6 bolg‘a, 10 dan ortiq arra nomlari alohida ishlatiladi. Ko‘rinadiki, bu kabi terminlar professional nutqning

o‘ziga xos ijtimoiy ma’no kasb etishini anglatadi.

2. Jargon va ularning ijtimoiy mohiyati. Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiluvchi dabdabali yoki yashirin dialekt jargon deyiladi. O‘tmishda savodsiz bo‘lgan ommani ezuvchi sinf vakillari o‘z niyatlarini amalga oshirish maqsadida kishilar uchun tushunarsiz so‘zlardan foydalanib kelishgan. Odatda bunday so‘zlar jargonlardir.

Jargon - bu fransuz tilidan olingan bo‘lib, “buzilgan til” demakdir. Jargonlar, asosan, fors-tojik, arab va boshqa tillardan olingan bo‘lib, ular tovush tomonlaridan ham, ma’no tomonlaridan ham buzib ishlatiladi. Jargonlarning ijtimoiy muhitda tutgan o‘rni shundaki, ular muayyan ijtimoiy sinf vakillari, mansabdor shaxslar, oddiy shaxslar o‘rtasida yuz beruvchi jarayonlarni aks ettiradi. Masalan: oftobi olam (podshoh), matluq etmoq (o‘ldirmoq), momaqaymoq (chiroyli, go‘zal), yakan (pul), dah (yaxshi) kabi jargonlar ijtimoiy muhitning turli jabhalariga aloqador shaxslarning qiyofasini, mansabini, shaxsini anglatishga yordam beradi.

Jargonlar ijtimoiy muhitda ayrim shaxslarning shaxsiy manfaatlarini yashirish tufayli yuzaga kelgan hodisadir. Shunga ko‘ra, jargon kishilar uchun tushunarsiz ko‘rinadi. Kundalik hayotda jargonlar studentlar, umuman, yoshlar nutqida ham sezilib turadi. Masalan, quladim, yiqildim (ikki oldim), yigitning bahosi (uch), o‘pka (hovliqma odam), tanka (talabaga homiylik qilayotgan shaxs), paxan, maxan (ota-ona) kabilar yoshlar nutqida uchrab turadi. Umuman olganda, ma’lum bir guruh va to‘da vakillari nutqi uchun xos bo‘lgan jargon ijtimoiy dialektlarning bir turi sifatida tilda yashash tarzida o‘z o‘rniga ega.

3. Dialektal qatlamga xos (dialektizmlar) so‘zlar. Ma’lumki, kundalik turmushda kishilar bir-birlari bilan turli munosabatda bo‘ladilar, ya’ni o‘zaro fikrlashadilar, suhbatlashadilar, nimanidir inkor etadilar. Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, adabiy tilda o‘qituvchi va o‘quvchi nutqida, televideniye va radio diktorlari nutqida uchraydigan sheva unsurlari adabiy til qoidalariga zid bo‘ladi. Odatda, sheva unsurlari umumxalq tiliga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko‘rinishlariga xos bo‘lgan hodisa sanaladi.

Ijtimoiy hayotda dialektizmlarning alohida o‘rni bor, chunki dialektal so‘zlar umumtil lug‘at boyligining bir qismini tashkil etadi. Dialektal so‘zlarning ma’lum bir qismi adabiy tilga tanlab olinadi va ular adabiy til uslubida qo‘llaniladi. Demak, dialektizmlar ijtimoiy hayotning turli tabaqasiga mansub shaxslar nutqiga xos bo‘lib, ular o‘ziga xoslikni berish maqsadida ishlatilar ekan. Shu o‘rinda V.Belinskiyning quyidagi so‘zlarini eslash yuqoridagi fikrimizga oydinlik kiritadi: Ulug‘ so‘z san’atkori boyni ham, dehqonni ham o‘z tilida gapirishga majbur qiladi. Shunday qilib, dialektizmlar mahalliy shevalarga xos bo‘lgan lisoniy xususiyatlarning tabiiyligini, o‘ziga xosligini ta’minlovchi ijtimoiy dialektdir.

Umuman olganda, ijtimoiy dialektlar ijtimoiy til bilimlarini chuqur o‘rganishimizga keng imkoniyatlar ochib beruvchi til hodisalaridir. Ulardan ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanish sotsiolingvistika qonun - qoidalarining chuqur yechimini topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahn J. Historical Development of Chinese Characters in the Korean Context. Language History Review, 16(1), 2018. – pp. 61-73.
2. Фуркатовна, Б.И. (2021). ДИСКУРСИО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ О КОНЦЕПТЕ “ЧЕЛОВЕК” 사람. Международный журнал менеджмента , 12 (2).
3. Bayonkhanova Iroda Furkatovna Samarkand State Institute of Foreign Languages ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 23-29 23 DOI 10.5281/zenodo.6457490 © The Author(s) 2022. This article is distributed under a Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International license. http://ajstfd.com/ DISCURSIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ARTICLES EXPRESSING THE ETIQUETTE OF COMMUNICATION (ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES)
4. Баёнханова Ирода Фуркатовна ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СТАТЬЕЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭТИКЕТ ОБЩЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ) // ИДССР. 2023. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek (дата обращения : 30.11.2024).
5. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
6. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
7. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December). KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O’ZBEK TILIGA TARJIMAQILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).
8. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).
9. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.
10. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.
11. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).
12. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.
13. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.
14. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.
15. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Sitora AZIZOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti, assistent-o‘qituvchisi
azizovasitora06@gmail.com

KOREYS TILI GRAFIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola koreys tili yozuv tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning tarixiy rivojlanishi, madaniy ta’sirlari va fonetik jihatlari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Maqolada Hangul va Hanjaning rivojlanishi, Shimoliy va Janubiy Koreyaning siyosiy bo‘linishi til islohotlariga qanday ta’sir qilgani va ikkala mintaqadagi orfografik qoidalardagi farqlar, ayniqsa, chet tillardan olingan so‘zlar va grammatikaga oid farqlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *grafika, Hangul (koreys alifbosi), Hanja (koreys tilida ishlatiladigan xitoy iyerogliflari), orfografiya, siyosiy ta’sir, transkripsiya, shimoliy Koreya tili, janubiy Koreya tili, 조선말 (Chosonmal, shimoliy Koreyada ishlatiladigan koreys tili), 훈민정음 (Hunminjongim, Hangulning dastlabki nomi), za’mlangan so‘zlar, chet tilidan olingan so‘zlar.*

Аннотация: эта статья исследует уникальные особенности системы письма корейского языка, сосредоточив внимание на историческом развитии, культурных влияниях и фонетических аспектах корейской орфографии. Рассматриваются эволюция Хангыла и Ханджи, влияние политического разделения Кореи на языковые реформы и различия в орфографических правилах между двумя регионами, особенно в отношении использования заимствованных слов и грамматики.

Ключевые слова: *графика, Хангыль (корейский алфавит), Ханджи (китайские иероглифы, используемые в корейском языке), Орфография, Политическое влияние, Транскрипция, Севернокорейский язык, Южнокорейский язык, 조선말 (Чосонмаль, корейский язык, используемый в Северной Корее), 훈민정음 (Хунминчжоным, первоначальное название Хангыла), заимствованные слова, иностранные заимствованные слова.*

Annotation: this article explores the unique characteristics of the Korean language’s writing system, focusing on the historical development, cultural influences, and phonetic aspects of Korean orthography. It examines the evolution of Hangul and Hanja, the impact of North and South Korea’s political separation on language reforms, and the differences in orthographic rules between the two regions, particularly regarding the use of foreign loanwords and grammar

Key words: *graphics, Hangul (Korean alphabet), Hanja (Chinese characters used in Korean), Orthography, Political influence, Transcription, North Korean language, South Korean language, 조선말Chosonmal (Korean language, specifically in North Korea), 훈민정음Hunminjongim (original name of Hangul), loanwords, foreign loanwords*

Kirish. Koreys tili grafikasining o‘ziga xos jihatlari uning tarixiy rivojlanishi, madaniyati va tilshunoslik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Koreya tili o‘zining uzun tarixiga qaramay, grafika sohasida muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. 15-asrda Koreya qirolligi tomonidan yaratilgan 한글 (Hangil) alifbosi, tilni yozishda inqilobiy yangilik sifatida qabul qilindi. Biroq, koreys tili grafikasining xususiyatlari faqat 한글bilan cheklanib qolmaydi. Tarixan Koreyada Xitoy iyerogliflarining 한자(Hanja) keng qo‘llanilishi, grammatik tuzilma va fonetikaga xos o‘ziga xosliklar ham koreys tilining grafikasini shakllantirgan muhim omillardan hisoblanadi. Koreyada boshqa tillardan olingan so‘zlarning koreys fonetikasi asosida transkribatsiya qilinishi va ba’zi so‘zlarning qisqartirilishi, koreys tilining o‘ziga xosligini yanada kuchaytiradi. Koreys tilini o‘rganish jarayonida bu o‘ziga xos jihatlarni tushunish, tilning rivojlanishi va o‘zgarishi haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Asosiy qism. Janubiy va Shimoliy Koreya davlatlari tarixiy jihatdan bir xil til va yozuvdan asrlar davomida foydalanishgan. Biroq 1945-yili Ikkinchi jahon urushidan so‘ng yuz bergan tarixiy burilish natijasida siyosiy qarashlar asosida Koreya davlati ikkiga bo‘lingach, til ham, yozuv ham o‘zgardi. Kun chiqar Yaponiya davlatining Koreya ustidan hukmronligi tugatilgach, ikkiga bo‘linib qolgan mamlakat Amerika va Sobiq Ittifoqning e’tiborini o‘ziga tortdi. Shimoliy Koreya davlati tuzilgach, hozirgi kungacha 4 marta muhokamaga qo‘yilgan imlo-orfografiya qoidalari islohoti, uning zamiridagi savodsizlikka barham berish harakati va Xitoy iyerogliflarini ishlatmaslik kabi har xil siyosiy harakatlar va tilni nuqsonlardan tozalash sa’y - harakatlari va shuningdek, eski milliy koreys til 조선말 (Choson tili) ni tatbiq etishga intilishlar tilning tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Natijada Janubiy Koreya davlatida iste’molda bo‘lgan til va Shimoliy Koreya davlatida qo‘llanilayotgan til o‘rtasida katta farqlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, Shimoliy Koreya til siyosatidan partiya guruhlari muayyan maqsadlarda foydalanib kelishganligi va hozirda ham foydalanishayotganligi uning grammatikasida o‘z aksini topib, amalda yagona til bo‘lgan koreyslarning ona tilini bir-biridan uzoqlashib ketishida muhim rol o‘ynaydi. Hozirda Janubiy Koreyada 1988-yilda qabul qilingan 한글 (Koreys alifbosi) ga, Shimoliy Koreyada esa 1988-yilda amalga kiritilgan 조선말 (Choson tili qoidalari) ga rioya qilinadi. Shimoliy Koreya tilida, ayniqsa, 1996-yilda boshlangan “Milliy til” harakatidan so‘ng aslida umumiy bo‘lgan yagona tilning o‘zgarish tezligi yanada jadallashib, bu jarayonni chuqurlashtirib yubordi. [김동소2007. – B.339-343] Aynan shu paytning o‘zida Janubiy Koreyada ham jamiyat taraqqiyoti va o‘zgarishlar ta’sirida amaldagi til va uning muayyan jihatlari ham ma’lum miqdorda o‘zgarganligi oqibatida zamonaviy tildan foydalanish yo‘li tanlandi. Shuning uchun hozirda Janubiy Koreyada zamonaviy jonli koreys tilidan foydalanilmoqda, Shimoliy Koreya foydalanadigan til esa tarixiy milliy til hisoblanadi.

Janubiy Koreyada, asosan, chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarni o‘z holicha talaffuzga va grafikasiga moslab foydalaniladi. Lekin Shimoliy Koreyada chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar sof koreys milliy tilida tarjima qilinib, kalka holida, o‘zgartirilgan ko‘rinishda ishlatiladi. Bu jarayonlarning ketishi Janubiy Koreyaning Demokratik davlat va Shimoliy Koreyaning Sotsial Demokratik davlatga aylanishi va jamiyat tanlagan rivojlanish yo‘llariga qarab sodir bo‘lmoqda. Bu o‘zgarish nafaqat tilda, balki viloyat va tumanlarning har birida ishlatiladigan shevalarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Yagona davlat Janubiy Koreya va Shimoliy Koreyaga bo‘lingandan so‘ng, Janubda yashovchi xalq Shimoliy viloyatda yashovchi xalqlarning og‘zaki shevalarini asta- sekin unutib yuborishdi. Shu bois buni og‘zaki tildagi eng katta farqlardan biri desak bo‘ladi. Shuningdek, yuqorida ko‘rsatilgan amaldagi qonun hujjatlari qiyoslanganda, ular o‘rtasida quyidagi farqlar kuzatiladi va bu farqlar한글 (Koreys alifbosi) ning 88-bandida quyidagicha ta’kidlangan:

Umumiy qoidalardagi farq:

1. Janub grammatikasidagi asosiy tamoyillar - ajratib yozish, chetdan kirib kelgan so‘zlarning transkripsiyasi kabilarni talab etadi. Adabiy til talaffuz bo‘yicha yozilib, til qoidasiga mos kelishi tamoyiliga tayanadi.

2. Shimolda grammatikasining asosiy tamoyiliga ko‘ra: so‘zning ma’noga ega bo‘lgan qismi har doim bir xilda, tamoyil asosida yozilib, boshqa holatlarda qanday ishlatilsa shunday yoziladi yoki an’anaviy yozuv qoidasi bo‘yicha yoziladi.

Milliy til asoslangan alifboda, grammatika qoidalariga ko‘ra adabiy tilga xos morfemalar talaffuz bo‘yicha yozilib, bu asliyat saqlanishi tamoyiliga tayanadi.

Bunda ifoda nisbatan qisqa va to‘g‘riroq ko‘rinish oladi.

Bundan tashqari Janubiy koreyaliklar chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarni o‘z adabiy tillarida ko‘p ishlatishadi. Shu bois, ularning adabiy tili ingliz tilidan kirgan o‘zlashgan so‘zlar yordamida boyib ketdi. Janubiy Koreyaning adabiy tilida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar 50% ni tashkil qiladi va o‘zlashgan so‘zlarni tarjima qilmasdan, asosiy tildagi shakli saqlangan holda koreys tilida ishlatishadi. Shimolda esa aksincha, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar madaniy tilga tarjima qilinib ishlatiladi.

Masalan: Ballpen – 볼팬 Janubda ruchka – 원주필 Shimolda (belgilaydigan qalam), 커피숍 –다방 – qahvaxona, 노크 Janubda eshikni taqillatish – 손기착 Shimolda, 드레스 Janubda – ko‘ylak – 나리옷 boshqa so‘zlar.

Xulosa. Koreys tili yozuvi va uning orfografiyasi tarixiy va madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, koreys tilining rivojlanishidagi muhim bosqichlarni aks ettiradi. Koreyada ikki asosiy yozuv tizimi, ya’ni Hangul va Hanja, o‘zining uzoq tarixiy yo‘lini bosib o‘tgan va o‘zgacha ta’sirlarni qabul qilgan. Bu ikki yozuv tizimi va ularning o‘zaro aloqasi koreys tilining fonetik tuzilishini va grammatikasini shakllantirgan. Har ikkala hududda tilni yangilash va orfografik islohotlar amalga oshirilgan, chet el so‘zlarining ishlatilishi va tarjimasi, tilning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Koreys tilining grafikasidagi bu farqlar, shuningdek, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ta’sirlar natijasida o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatadi. Janubiy va Shimoliy Koreya o‘rtasidagi til farqlari, nafaqat yozuvda, balki og‘zaki til, shevalar va tildagi boshqa o‘zgarishlarda ham aks etadi. Shu bilan birga, Koreya tili o‘rganuvchilarining ushbu farqlarni yaxshi tushunishi, tildan samarali foydalanishni ta’minlash uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“동일 대비 남북한어 이해 수정 증보판” 김응모 와 최호철, 2000 년 세종출판사.

2. “한국어의 역사” 김동소, 2007년. 정림사

3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *2*(2), 83-86.

4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA POLISEMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.

5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December). KOREYS TILIDAGI IBORALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).

6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O‘RGANILISHI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).

7. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

8. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.

9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 24), 155-164.

11. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

13.Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Madina MELIQULOVA,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti
e-mail: madinameliqulova93@gmail.com

Go‘zal XOLMATOVA,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti
e-mail: gozalxolmatova704@gmail.com

KASB-HUNAR BO‘YICHA SHAXSLARNI NOMLASHDA G‘ARBIY YEVROPA O‘ZLASHMALARI

(Uzbek va Rus tillari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada kasb-hunarlarni nomlashda G‘arbiy Yevropa o‘zlashmalarining o‘rni o‘rganiladi. O‘zbek va rus tillarida ingliz tilidan kelgan so‘zlarning kasb-hunarlarni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Inglizcha o‘zlashmalar, jumladan, “menejer”, “dizayner”, “programmist” kabi so‘zlar, zamonaviy kasblar va ijtimoiy ehtiyojlarni tilga aks ettiradi. Tadqiqotda o‘zlashmalarni qabul qilish jarayoni, ularning semantik va grammatik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu izlanish globalizatsiya, texnologik rivojlanish va tilning o‘zgarishlariga bog‘liq bo‘lgan tildagi yangiliklarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: *kasb-hunar, o‘zlashma, ingliz tili, o‘zbek tili, rus tili, nomlash, globalizatsiya, terminologiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль западноевропейских ассигнований в наименовании профессий. Анализируется роль слов английского языка в узбекском и русском языках в выражении профессий. Английские приобретения, в том числе такие слова, как «менеджер», «дизайнер», «программист», отражают современные профессии и социальные потребности. В исследовании рассматривается процесс принятия заимствований, их семантические и грамматические особенности. Это исследование охватывает языковые инновации, связанные с глобализацией, технологическим развитием и языковыми изменениями.

Ключевые слова: профессия, приобретение, английский язык, узбекский язык, русский язык, нейминг, глобализация, терминология.

Annotation: this article studies the role of Western European borrowings in naming professions. The role of words from English in the Uzbek and Russian languages in denoting professions is analyzed. English borrowings, including words such as “manager”, “designer”, “programmer”, reflect modern professions and social needs in the language. The study examines the process of adoption of borrowings, their semantic and grammatical features. This research highlights innovations in the language associated with globalization, technological development and language changes.

Key words: *profession, acquisition, English, Uzbek, Russian, naming, globalization, terminology.*

Kirish.Kasb-hunar bo‘yicha shaxslarni nomlashda G‘arbiy Yevropa tillaridan (masalan, ingliz tili) olingan so‘zlar va o‘zlashmalar ko‘p uchraydi. O‘zbek va rus tillarida ham bu jarayon keng tarqalgan.G‘arbiy Yevropa tillaridan kelib chiqqan ba’zi o‘zlashmalar kasb-hunar nomlarini anglatishda ishlatiladi. Quyida bunday o‘zlashmalarni o‘zbek va rus tillarida qanday qo‘llanilishini misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Dunyo globalizatsiyasi va texnologik taraqqiyot tufayli tillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar kuchaymoqda.Bu jarayon ko‘plab sohalarda, jumladan kasb-hunarlarni nomlashda ham o‘z aksini topmoqda.G‘arbiy Yevropa tillari, xususan ingliz tili, ko‘plab so‘zlarni o‘z ichiga olib, boshqa tillarga kirib bormoqda. O‘zbek va rus tillari ham bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatgan tillardan hisoblanadi.

G‘arbiy Yevropa tillaridan kelgan o‘zlashmalar asosan kasb-hunar nomlarini ifodalashda keng qo‘llaniladi.Ingliz tilidan olingan so‘zlar o‘zbek va rus tillarida kasb-hunarlar va professional sohalarga oid yangi terminlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi.Bu o‘zlashmalar, o‘z navbatida, global iqtisodiyot va mehnat bozorining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy kasblar va xizmatlarni ifodalashda zarur bo‘lgan atamalarni taqdim etadi.

O‘zbek va rus tillarida inglizcha so‘zlar yoki G‘arbiy Yevropa tillaridan olingan o‘zlashmalar ko‘p hollarda kasb-hunarlarni nomlashda ishlatiladi. Masalan, “menejer”, “barmend”, “dizayner”, “kameraman” kabi so‘zlar o‘zbek va rus tillarida keng tarqalgan. Bu jarayon nafaqat tilning rivojlanishiga, balki milliy va xalqaro mehnat bozorlari, kommunikatsiya va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishiga ham bog‘liqdir.

Ushbu mavzu, tilshunoslik, sotsiologiya va iqtisodiyot sohalarida o‘rganilishi mumkin bo‘lgan bir qator muhim masalalarni o‘z ichiga oladi.G‘arbiy Yevropa o‘zlashmalarining o‘zbek va rus tillariga kirishi va kasb-hunarlarni nomlashdagi o‘rni bugungi kunda o‘ziga xos ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylangan.

Tahlil va natija. O‘zbek tilshunosligi va leksikografiyasida G‘arbiy Yevropa o‘zlashmalarining o‘rni va kasb-hunarlarni nomlashda ularning roli haqida ba’zi olimlar tadqiqotlar olib borgan. Bu mavzu asosan leksikologiya, tilshunoslik,

sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik sohalarida o‘rganilgan. Quyidagi olimlar ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Nodira Alimova - O‘zbek tilidagi o‘zlashmalar, xususan kasb-hunarlar va G‘arbiy Yevropa tillaridan kirgan so‘zlar bo‘yicha ilmiy ishlar yozgan. U o‘zlashmalarni tahlil qilishda, ularning o‘zbek tilidagi funksiyalarini, ma’no va grammatik tuzilishini o‘rgangan. O‘ktam G‘iyosov – G‘arbiy Yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar va ularning o‘zbek tiliga ta’siri, jumladan kasb-hunarlarni nomlashdagi roli haqida tadqiqotlar olib borgan.U o‘zlashmalarni til taraqqiyotidagi yangi fenomen sifatida ko‘rib, ularning o‘zbek tiliga kirib kelishini yoritgan. Muhammadali Tursunov - O‘zbek tilida inglizcha o‘zlashmalarning ko‘payishi va kasb-hunar nomlarini yaratishda ularning o‘rni haqida ilmiy maqolalar yozgan.Uning izlanishlari, asosan, zamonaviy o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarni va kasb-hunarlarni nomlashda ingliz tilidan olingan so‘zlarning qanday ishlatilishini tahlil qiladi.

Mazkur mavzuda o‘rganilgan asosiy masala G‘arbiy Yevropa tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan kelib chiqqan o‘zlashmalar va ularning o‘zbek va rus tillariga ta’siridir. Tadqiqotda, kasb-hunarlarni nomlashda ingliz tilidan olingan o‘zlashmalarni o‘rganish orqali, ularning ma’no, grammatik tuzilishi, va tilimizdagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, bunday o‘zlashmalarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi. O‘zbek va rus tillaridagi kasb-hunar nomlarining inglizcha o‘zlashmalar bilan almashishi, bu jarayonning tilni qanday rivojlantirishi, yangi kasblar va sohalarni qanday ifodalashi o‘rganiladi.

Kasb-hunarlarni nomlashda G‘arbiy Yevropa o‘zlashmalarining o‘rni va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati jahon olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. O‘zlashmalar, ayniqsa ingliz tilidan kelgan so‘zlar, nafaqat o‘zbek, balki rus va boshqa tillarda ham o‘rganilgan.Bu mavzu tilshunoslik, leksikologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi sohalarda ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan.Quyidagi jahon olimlari ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan:

David Crystal – Ingliz tilshunosligi sohasida mashhur olim, u o‘zlashmalar va tilning rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishda muhim ishlar qilgan.“The Cambridge Encyclopedia of the English Language”(2003) kitobida ingliz tilidan olingan o‘zlashmalarni va ularning boshqa tillardagi aksini, shu jumladan rus va o‘zbek tillaridagi ta’sirini tahlil qilgan. Mikhail Gorbunov – Rus tilshunosi bo‘lib, u rus tilidagi inglizcha o‘zlashmalarni, ayniqsa kasb-hunarlar va ilmiy terminlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlarni yozgan. Gorbunov inglizcha so‘zlarning rus tilidagi qabul qilinish jarayonini va ular qanday qilib yangi kasblarni nomlashda ishlatilayotganini tahlil qilgan. Joshua Fishman – Tilshunoslik va sotsiolingvistika sohasida olim bo‘lib, til o‘zgarishlari va o‘zlashmalarni til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar orqali o‘rgangan. Fishman o‘z tadqiqotlarida o‘zlashmalar va milliy tillarda yangi kasb-hunarlarni nomlash jarayonlarini o‘rgangan. Jean Aitchison – Til o‘zgarishlari va ingliz tilining dunyo tillariga ta’siri borasida ishlagan. Uning “The Language Web” (2000) kitobida ingliz tilidan kelgan o‘zlashmalar va ularning boshqa tillarda qanday ishlatilishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud.

Bu mavzudagi tadqiqotlar asosan ingliz tilidan olingan o‘zlashmalar va ularning o‘zbek va rus tillariga ta’siri, shuningdek, bu o‘zlashmalarni kasb-hunarlarni nomlashda qanday ishlatish bilan bog‘liq. Tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa tillaridan olingan so‘zlar va ularning o‘zbek, rus kabi tillardagi yuksalishi, yangi kasb nomlari va sohalarni yaratishda o‘rni haqida ko‘plab ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqotlar, shuningdek, o‘zlashmalarni tilning tabiiy rivojlanishi sifatida qabul qilib, tilshunoslar o‘zgarishlarni, kasb-hunarlarni nomlashda yangiliklar va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarni tilga qanday aks ettirishini tahlil qiladilar.

O‘zbek tilida o‘zlashmalarga misollar: Menejer (Inglizcha: Manager) – boshqaruvchi yoki rahbar, Barmend (Inglizcha: Barman) – bar yoki kafe xodimi, ichimliklar tayyorlaydigan shaxs, Dizayner (Inglizcha: Designer) – dizayn qilish, yaratish bilan shug‘ullanuvchi shaxs, Kameraman (Inglizcha: Cameraman) – video suratga oluvchi shaxs. Programmist (Inglizcha: Programmer) – dasturchi, kompyuter dasturlarini yaratadigan shaxs.

Rus tilida o‘zlashmalarga misollar: Менеджер (Inglizcha: Manager) – boshqaruvchi, rahbar, Бармен (Inglizcha: Barman) – bar xodimi, ichimliklar tayyorlovchi, Дизайнер (Inglizcha: Designer) – dizayn qiluvchi shaxs, Камерамен (Inglizcha: Cameraman) – video operator, Программист (Inglizcha: Programmer) – dasturchi, kompyuter dasturini yozuvchi.

Xulosa.O‘zbek va rus tillarida G‘arbiy Yevropa tillaridan olingan so‘zlar ko‘pincha kasb-hunar nomlarini ifodalashda ishlatiladi.Bu jarayon tilga yangi so‘zlar qo‘shish orqali kasb-hunarlarning aniq va zamonaviy nomlarini olishga yordam beradi.Biroq, har ikki tilda ham bunday o‘zlashmalar asosan ingliz tilidan kelib chiqqan.Bu jarayon globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning natijasi sifatida ko‘riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Alimova N. O‘zbek tilida o‘zlashmalar va ularning lingvistik xususiyatlari. – Tashkent: Fan, 2012.
2. G‘iyosov O. (2005). G‘arbiy Yevropa tillarining o‘zbek tiliga ta’siri. – Tashkent: O‘qituvchi, 2005.
3. Tursunov M.O‘zbek tilida inglizcha o‘zlashmalar va kasb-hunarlar nomlari. – Tashkent: O‘qituvchi, 2011.
4.Crystal D.The Cambridge Encyclopedia of the English Language.Cambridge University Press.2003.
5. Горбунов М. (2006). Инглизча ўзлашмалар ва уларнинг рус тилига таъсири. Moccow: Наука.
6. Fishman J. (1999). Language and Ethnicity: A Sociolinguistic Approach.Multilingual Matters.
7. Aitchison J. (2000). The Language Web: The Power and Problem of Words.Cambridge University Press.
8. Mayer J. L. (2001). The Influence of English on European Languages: A Sociolinguistic Approach. New York: Palgrave Macmillan.

Kamola YULDASHEVA,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
3-bosqich tayanch doktoranti

SINXRON TARJIMANING UMUMLEKSIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqolada ingliz tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjimaning bugungi kundagi umumiy leksik muammolari tasnif qilingan. Shuningdek, ushbu muammolar bilan ishlash va ularni bartaraf qilish misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sinxron tarjima, polisemik birliklar, terminologik muammolar, madaniy konnotatsiyalar, ekvivalent.*

Annotation: the article categorizes prevalent lexical issues in simultaneous translation from English to Uzbek. It also illustrates methods for addressing and resolving these issues through examples.

Key words: *simultaneous translation, polysemy, terminological issues, cultural connotations, equivalence.*

Аннотация: в статье классифицированы общие лексические проблемы синхронного перевода с английского языка на узбекский в современную эпоху. Также анализируются методы решения этих проблем и их устранения на примерах.

Ключевые слова: *синхронный перевод, полисемические единицы, терминологические проблемы, культурные коннотации, эквивалент.*

Sinxron tarjima bugungi globallashuv davrida xalqaro munosabatlar, siyosiy uchrashuvlar, iqtisodiy anjumanlar va boshqa ko‘plab sohalarda muhim o‘rin tutadi. Sinxron tarjima tezlik, aniqlik va mazmunni to‘g‘ri yetkazish kabi talablarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda tarjimonlar turli xil lingvistik va leksik muammolarga duch keladi. Sinxron tarjimaning umumleksik muammolarini quyidagi asosiy toifalarga bo‘lish mumkin:

Ko‘p ma’noli so‘zlarning tarjimasi. Ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemik birliklar) tarjimada eng katta qiyinchiliklardan biri hisoblanadi. So‘zning to‘g‘ri ma’nosini aniqlash uchun tarjimon ma’ruza kontekstini yaxshi anglashga majbur. Masalan: Ingliz tilidagi ***“bank”*** so‘zi *“moliyaviy muassasa”* yoki *“daryo qirg‘og‘i”* ma’nolariga ega bo‘lishi mumkin. Kontekstdan kelib chiqib, to‘g‘ri variant tanlanadi.

Idiomalar va frazeologizmlar tarjimasi. Idiomalarning ma’nosini so‘zma-so‘z tarjima qilish noto‘g‘ri tushunish va talqin qilishga olib kelishi mumkin. Har bir til o‘ziga xos idiomatik iboralarni o‘zida saqlaydi. Masalan: ingliz tilidagi ***“Break the ice”*** iborasi o‘zbek tilida *“muzni eritish”* emas, balki *“munosabatlarni iliqlashtirish”* degan ma’noni anglatadi.

Sinonimlar va antonimlar muammosi. Sinonimlarning ko‘pligi tarjimonni chalkashtirib yuborishi mumkin, ayniqsa, sinonimlarning nozik ma’no farqlarini anglash qiyin bo‘lsa. Masalan: ingliz tilidagi ***“big”*** va ***“large”*** so‘zlari sinonim bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishi kontekstga bog‘liq.

Terminologik muammolar. Ixtisoslashgan sohalarda ishlatiladigan terminlarning to‘g‘ri tarjimasi muhim. Agar tarjimon ushbu sohaga oid bilimga ega bo‘lmasa, noto‘g‘ri tarjima qilishi mumkin. Masalan: Huquqiy sohada ***“case law”*** iborasi *“sud amaliyoti”* deb tarjima qilinadi, biroq uni noto‘g‘ri tarjima qilish huquqiy noto‘g‘rilikka olib keladi.

Madaniy konnotatsiyalarning tarjimasi. Ko‘pgina hollarda madaniy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralarni tarjima qilish birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. Masalan: O‘zbek tilidagi *“toshkentcha mehmondo‘stlik”* iborasi boshqa madaniyatlarda aniq ekvivalentga ega emas.

Sinxron tarjimada umumleksik muammolarni bartaraf etish yo‘llari turlicha bo‘lib, quyida ular birma-bir keltirib o‘tilgan.

Avvaldan tayyorgarlik ko‘rish. Tarjima jarayoniga oldindan tayyorlanish, ya’ni tarjima qilinadigan soha haqida izlanish, tendensiyalarini o‘rganish, terminologiya va leksik birliklaridan xabardor bo‘lish, shubhasiz, tarjimonga o‘zi uchun begona bo‘lgan muhitda katta ishonch bag‘ishlaydi. Tashrif buyurilishi kutilayotgan konferensiyalarning doiralari va salmog‘i turlicha ekanligidan kelib chiqqan holda tarjimon tadbirdan bir muddat avval kutilayotgan nutq va muzokaralar mundarijalari bilan oldindan tanishtirilishi mumkin.

Kontekstni aniqlash: Sinxron tarjima vaqtida polisemantik, ya’ni ko‘p ma’noli so‘zlarga ko‘proq e’tibor qaratib, butun matn yoki gapning kontekstini e’tiborga olish juda muhim hisoblanadi.

Masalan, asosiy ma’nosi yugurmoq bo‘lgan ***run*** so‘zining turli kontekstlarda kelishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

*He **runs** every morning – U har kuni ertalab yuguradi.*

*She **runs** a small business. – U kichik biznes yuritadi.*

*The program is **running**. – Dastur ishlayapti.*

Break – sindirmoq so‘zi ham polisemantik hisoblanadi:

*Don’t **break** the glass! – Stakanni sindirma!*

*Let’s take a **break!** – Keling, tanaffus qilaylik.*

*He managed to **break** the record. – U rekordni yangilashga muvaffaq bo‘ldi.*

Bunday holatlarda kontekstga qarab to‘g‘ri tarjima tanlanadi. Tarjimada so‘zning atrofidagi jumlalar va mavzuga e’tibor berish muhimdir.

Idiomalarga mos ekvivalentlarni qidirish: Ma’lumki, bir tildan ikkinchi tilga idiomalar to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi, shuning uchun ham ekvivalent iboralarni o‘rganishning ahamiyati katta. Bu bilan xatoliklar anchaga kamayadi va tarjimonning yutug‘i ta’minlanadi. Masalan:

“Kill two birds with one stone” – “Bitta o‘q bilan ikki quyonni urmoq” (Bitta harakat bilan ikki natijaga erishish.)

“The apple doesn’t fall far from the tree” – *“Olma tagiga olma tushadi”* (Farzand ota-onasiga o‘xshaydi.)

“Out of sight, out of mind” – *“Ko‘zdan uzoq, ko‘ngildan uzoq”*

“Look before you leap” – *“Yetti o‘lchab, bir kes”*

“Bite the bullet” – *“Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib chidash”*

“When pigs fly” – *“Tuyani dumi yerga tekkanda”* (Hech qachon ro‘y bermaydigan narsani tasvirlash.)

Ixtisoslashgan sohalarda bilimni oshirish: Tarjimonga eksiklopedik bilimlar juda zarur bo‘lib, har qanday matn va nutqning uddasidan chiqadi, shuningdek, bozorda uning qadrini birmuncha oshiradi. Iqtisodiyot, huquq, tibbiyot kabi sohalarda terminologiyani chuqur o‘rganishi orqali texnik tarjimonga aylanadi.

Madaniy tafovutlarni anglash: Tarjima paytida madaniy farqlarni hisobga olish va mos muqobil topishga e’tibor berish lozim.

Uzoq vaqt davomida sinxron tarjimaning sifati va aniqligi faqat tarjimonning mahoratiga bog‘liq deb hisoblangan. Albatta, bu faktni inkor etib bo‘lmaydi. Biroq tarjimaning sifatiga ma’ruzachining o‘zi ham ta’sir qilishini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Og‘zaki nutq tarjimasi prosodik, sintaktik va leksik-stilistik tomondan o‘ziga xosliklarga ega[1].

Sanab o‘tilgan omillar tarjima sifatiga konstruktiv (ijobiy) yoki destruktiv (salbiy) ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy nutqni sinxron tarjima qilishda tasvirni yetkazish usullarini o‘rganish uchun a’zo davlatlar vakillarining nutqlari tanlab olindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyingi o‘rinlarda BMT deb yuritiladi) 2023-yil dekabrdagi XX navbatdan tashqari sessiya, 44-yalpi majlisdagi Niderlandiya vakili nutqidan misol:

The humanitarian situation in Gaza is really catastrophic, alarming, frightening… Implementation is now the key to success. *– G‘azo sektoridagi gumanitar holat halokat yoqasiga kelib qoldi.*

Ko‘pgina sinxronistlar yuqoridagi kabi tarjima uslubiga ega bo‘lib, leksik kompressiya uslubidan foydalanishadi. Lekin bu kabi holatlarda ma’ruzachining nafaqat so‘zlari ma’nosi, balki emotsional bo‘yoqdorligi ham saqlanib qolishi kerak. Ya’ni, “*G‘azodagi gumanitar vaziyat haqiqatdan ham halokatli, xavotirli va qo‘rqinchli. Vaziyatni to‘g‘rilash uchun darhol amaliy chora ko‘rilishi kerak*, deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

We also thank the briefers for sharing vital and valuable insights, priorities, and comments. We heard them loud and clear. It is probably some light in this dark world of horror and fear. *– Shuningdek, brifing qatnashuvchilariga fikr va sharhlar uchun minnatdorchilik bildiramiz. Biz ularni eshitdik va umid qilamanki, bu dahshatlarning tugashiga yana bir qadam tashladik.*

Ushbu tarjimada ham ma’no kompressiyasidan foydalanilgan bo‘lib, buning hisobiga hissiy bo‘yoqdorlik yetkazib berila olmagan. Bo‘yoqdorlik beruvchi *vital, valuable, light va dark* so‘zlari tushirib qoldirilgan.

Belgiyadan tashrif buyurgan vakilning nutqidan parcha:

Fuel, water, food, medical supply are dreanling rapidly making life the hell.

Yoqilg‘i, chodir, oziq-ovqat, tibbiy buyumlar juda tez tugab qolmoqda.

Ushbu misolda ***dreanling*** so‘zi metafora bo‘lib, ***oqib ketmoqda*** ma’nosini beradi, ammo tarjimon o‘z tiliga buni ***tez tugab qolmoqda***, deb tarjima qilgan holda semantik kompressiyadan foydalangan.

Tanzaniyalik vakil so‘zi:

Let us not lose sight of that is happening on the West bank including East Jerusalem either *– G‘arbiy sohilda, shu jumladan, Sharqiy Quddusda ham sodir bo‘layotgan voqealarni ko‘zdan qochirmaylik.*

Shri-Lankalik vakil so‘zlari:

Humanity is in pain. Our planet is in in peril – *Insoniyat azob chekmoqda, Sayyoramiz ham…*

Bu gap *Insoniyat halokat yoqasida...* deb tarjima qilinsa, yanada to‘g‘riroq bo‘ladi.

[1] Зигмантович Д.С. Синтаксические особенности исходных речевых произведений как дестабилизирующий фактор в устном синхронном переводе (на материале речей американских политиков) // Исследования языка и современное гуманитарное знание. 2022. Т. 4. № 1.

People are getting crashed by growing poverty and hunger. Trust is in short supply - Odamlar o‘sib borayotgan qashshoqlik va ochlikdan ezilib ketgan. Ishonchlari kamayib ketgan[2].

It is hard to ignore the fundamental changes in the global economy, politics, social life and technology. The coronavirus pandemic, that you mentioned, has become a major challenge to the mankind, has accelerated structural changes, whose preconditions have been already for many years - *Jahon iqtisodiyoti, siyosati, ijtimoiy hayot va texnologiyadagi tub o‘zgarishlarni e’tiborsiz qoldirish qiyin. Siz ta’kidlagan koronavirus pandemiyasi insoniyat uchun katta muammo bo‘lib, ko‘p yillar oldin bashorat qilingan juda katta o‘zgarishlarga olib keldi.*

Our common responsibility today is to avoid such a future that resembles a grim dystopia. – *Bizning umumiy mas’uliyatimiz shundaki, bizga qorong‘u bo‘lgan anti-utopiyalardan voz kechishimiz kerak.*

The reality is that there are truly different studies of development in the world with their own distinctive models, political systems, social institutions. – *Haqiqat shuki, dunyoda taraqqiyot so‘zini turli o‘ziga xos modellar, siyosiy tuzumlar, ijtimoiy institutlar orqali har kim turlicha o‘rgangan[3].*

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, sinxron tarjima jarayonida leksik muammolar ko‘p uchrasada, ular samarali usullar yordamida hal qilinishi mumkin. Tarjimonning malakasi, lingvistik bilimlari va madaniy kompetensiyasi bu muammolarni bartaraf etishda asosiy rol o‘ynaydi. Sinxron tarjimonlar uchun doimiy o‘qish, amaliyot va terminologiyani o‘rganish zaruriy shartdir. Shuningdek, sinxronist tarjimonlardan psixologik faktorlar, ya’ni stresslarga chidamlilik va yuqori darajadagi moslashuvchanlik talab qilinadi.

[2] Вестник Московского информационно-технологического университета – Московского архитектурно-строительного института. 2024. № 1. С. 63–71. Проблемные аспекты перевода образной лексики в синхронном переводе (на материале английского языка) Вера Юрьевна Кузнецова

[3] SPEECH COMPRESSION IN CONFERENCE INTERPRETING FROM RUSSIAN INTO ENGLISH (CASE STUDY OF PUBLIC SPEECHES BY V. PUTIN) Research article Piven (Nikitina) I.V.1, *, Loginova A.A.2

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation / M. Baker. 2nd ed. – London: Routledge, 2011. 384 p.

2. Gile, D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training / D. Gile. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2009. 283 p.

3. Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation / E. A. Nida, C. R. Taber. – Leiden: Brill, 2003. 237 p.

4. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation / J.-P. Vinay, J. Darbelnet. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. 359 p.

5. Newmark, P. A Textbook of Translation / P. Newmark. – New York: Prentice Hall, 1988. 292 p.

6. Snell-Hornby, M. The Turns of Translation Studies: New Paradigms or Shifting Viewpoints? / M. Snell-Hornby. – Amsterdam: John Benjamins, 2006. 220 p.

7. Pöchhacker, F. Introducing Interpreting Studies / F. Pöchhacker. 2nd ed. – London: Routledge, 2016. 280 p.

8. Chesterman, A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory / A. Chesterman. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. 230 p.

9. Bell, R. T. Translation and Translating: Theory and Practice / R. T. Bell. – London: Longman, 1991. 298 p.

10. Toury, G. Descriptive Translation Studies – and Beyond / G. Toury. – Amsterdam: John Benjamins, 2012. 345 p.

Mexruza NORMURODOVA,
Termiz davlat universiteti doktoranti

XARAKTERNI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqola jahon va o‘zbek tilshunosligida xarakter ifodalovchi lisoniy birliklarning o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xarakterning individuallik xususiyati shaxsni umumdan ajratib turadi va uning mohiyatiga aylanadi. Badiiy asarda millatga xos xarakter va o‘ziga xoslikni aks ettirish milliy til, mahalliy sheva, urf-odat va marosimlar tasviri orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *xarakter, tilshunoslik, agglyutinativ, flektiv, lisoniy birliklar.*

Annotation: this article is devoted to the study of linguistic units expressing character in world and Uzbek linguistics, in which the individuality of character distinguishes a person from the general and becomes his essence. In a work of art, the reflection of the character and uniqueness of a nation can be carried out through the depiction of the national language, local dialect, customs and rituals.

Key words: *character, linguistics, agglutinative, inflectional, linguistic units*

Аннотация: данная статья посвящена изучению языковых единиц выражения характера в мировой и узбекской лингвистике, в которых индивидуальность характера отделяет индивидуальное от общего и становится его сущностью. Национальный характер и самобытность могут быть отражены в произведении искусства через изображение национального языка, местного диалекта, обычаев и обрядов.

Ключевые слова: *характер, лингвистика, агглютинатив, флексив, языковые единицы*

Kirish. Til – millatning milliy mentaliteti, xarakteri, dunyoqarashi va unga xos bo‘lgan barcha jihatlarni namoyon etish va birlashtirish vositasidir. Bu jarayon barcha xalqlar uchun yagona va tayyor andozaga ega emas, balki har bir xalq tomonidan o‘ziga xos tarzda va turli davrlarda bosib o‘tiladi. Shu sababdan madaniyat va taraqqiyot turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu hodisa insoniyat jamiyatining aqliy va madaniy rivoji hamda insonning mohiyatini qamrab olgan turli jihatlarni aks ettiradi[1]. Til manzarasida so‘zlar turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Bunda antropominant so‘zlar, ya’ni inson xarakterini bevosita aks ettiruvchi so‘zlar, alohida ahamiyat kasb etadi. Obraz esa inson xarakteriga bilvosita ishora qilib, ijodiy yondashuv mahsuli hisoblanadi. Ikkinchi muhim masala – milliy xarakter tushunchasi bo‘lib, bu ham milliy til manzarasi singari murakkab va munozarali mavzudir. Ushbu masala orqali milliy til manzarasi, milliy xarakter va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xarakterning individuallik xususiyati shaxsni umumdan ajratib turadi va uning mohiyatiga aylanadi. Badiiy asarda millatga xos xarakter va o‘ziga xoslikni aks ettirish milliy til, mahalliy sheva, urf-odat va marosimlar tasviri orqali amalga oshirilishi mumkin. Milliy xarakter tushunchasi dastlab adabiyotshunoslikda ilmiy atama sifatida paydo bo‘lib, muayyan millatning xos xususiyatlarini qahramon, voqea yoki tarixiy shaxs orqali ifodalashga asoslangan.

Adabiyotlar tahlili. S.M. Arutyunyan milliy xarakterni shakllantiruvchi omillar qatorida xalqning hissiy-emotsional holati, tafakkuri, urf-odatlari va yashash sharoitlarini sanab o‘tadi. Milliy xarakterning tilda aks etishi va milliy tillarga ta’siri tadqiqot ishida alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakterning tilda namoyon bo‘ladigan jihatlari, til elementlarida milliy xarakterni ifodalovchi xususiyatlar va til birliklarining milliy xarakter ko‘rsatkichi sifatida ajralib turishi lingvokulturologiyada bahsli masalalar qatoriga kiradi. A.V. Grinko o‘zining “Националний характер и язык” nomli maqolasida milliy xarakterni yuzaga keltiruvchi omillar va uning tildagi ko‘rinishlari haqida fikr bildiradi[1]. U ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganish obyekti sifatida tanlab, ushbu tillarning kelib chiqishini tabiiy sharoit, ekologik vaziyat va milliy xarakter bilan bog‘laydi. Dunyo tilshunosligi tajribalariga nazar tashlar ekanmiz, antropominantlar, ya’ni inson xarakteri va xususiyatlarini aks ettiruvchi birliklar o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha olamning lisoniy manzarasi va antropominant ko‘chma obrazlarning psixologik, lisoniy hamda kognitiv ildizlarini yoritishdan boshlanadi. Buning sababi shundaki, tilda xarakter ifodalashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, ushbu mavzuni mukammal tadqiq qilish uchun avvalo zarur bilim va tajriba shakllantirilishi lozim. Ongda jamlangan har qanday bilim esa, lisoniy manzara shaklida namoyon bo‘ladi[2].

Muhokama va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikning chuqur tahlil qilingan UMIS va AHVO nazariyalari ham olamning lisoniy manzarasi bilan uzviy bog‘liqdir[3]. Inson va uning nutqni idrok etish jarayonini ta’riflash qadim antik davrlardan buyon ilm-fan diqqat markazida bo‘lib keladi. Ushbu murakkab va serqirra jarayonni o‘rganish yo‘lida minglab nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular

[1] Kadirova B.R. Belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. bo‘y. fals. dokt. ... disser. avtoref.– T., 2019. 11-b
[2] Грынко А.В. Националный характер и язык // Сборник. – М., 2016. С. 136-141.
[3] Mobiladze I. The linguistuic image og the world. – Tblisi, 2012. 103 p.

tilshunoslik tarixida muhim manba sifatida tan olingan. Ayniqsa, til, lison va nutqni mustaqil hodisalar sifatida ajratib o‘rganish tilshunoslikning ulkan yutug‘idir[4]. Bu yondashuv tilning psixik, fiziologik va funksional jihatlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Natijada ongning nutq hosil qilish jarayonidagi mexanizmi, tuzilishi va unda ishtirok etuvchi birliklarni aniqlash va tavsiflash imkoniyati kengaydi.

Tilning madaniyat bilan aloqasi uni bir avlod tomonidan yaratilishidan, keyingi avlod tomonidan boyitilishidan va meros sifatida uzatilishidan yaqqol ko‘rinadi. Olamning lisoniy manzarasi barcha xalqlar tomonidan o‘zlarining taraqqiyot bosqichlariga mos ravishda turli yo‘llar bilan shakllantirilgan umummadaniy hodisadir. Lisondagi sodda jarayonlarning o‘zi murakkab mexanizmlarga asoslangan bo‘lib, ular UMIS (umumiy mexanizmlar inson sifatida) va AHVO (amaliy hodisalar va voqealar) nazariyalarini aks ettiradi. Olimlar ta’kidlagan murakkab jarayonlar ichida inson xarakter-xususiyatlarini ifodalovchi ko‘chma ma’noli so‘zlar alohida o‘ringa ega. Masalan, insonning “samimiy” degan so‘z bilan ifodalangan xususiyati bevosita uning mohiyatiga ishora qiladi va uni tushunishda hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ammo “tulki” yoki “ilon” kabi zoonimlar inson xarakterini ko‘chma ma’noda ifodalash uchun qo‘llanganda, tinglovchidan xalq madaniyati va til xususiyatlariga oid ma’lum bilim talab qilinadi.

Xarakter ifodalovchi lisoniy birliklar jahon va o‘zbek tilshunosligida keng qamrovli tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Bu soha tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan va inson xarakterining til va madaniyat bilan chambarchas bog‘liqligi tufayli o‘zida turli madaniyatlar va urf-odatlar orqali xarakterni ifodalovchi til birliklarini yaratishning qiyofasini aks ettiradi. Kognitiv lingvistikada xarakter ifodalovchi birliklar inson tafakkurining til orqali ifodalanishi sifatida ko‘riladi. Bunda xarakterning tilda qanday tushuncha va tasavvurlar shaklida aks etishi o‘rganiladi. Masalan, ingliz tilidagi **idiomalar** va **frazemalar** ko‘pincha ma’lum bir xarakteristikaga ega bo‘lgan obrazlarni ifodalaydi. Misol uchun, “a heart of gold” (oltin yurak) iborasi insonning mehribon, saxiy xarakterini ifodalaydi, yoki “a cold fish” (sovuq baliq) iborasi, odatda, sovuqqon va hissiz odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. **Pragmatika** nuqtayi nazaridan, xarakter ifodalovchi birliklar tilning kommunikativ jihatidan o‘rganiladi. Ya’ni, qanday qilib tilshunoslar va nutq ishtirokchilari muayyan situatsiyalar va maqsadlar asosida xarakterni ifodalaydigan birliklarni tanlab, ishlatadilar. Bu jarayonda til birliklarining pragmatik roli, ya’ni tilning maqsadga yo‘naltirilganligi va nutqdagi ijtimoiy va madaniy omillar inobatga olinadi. Masalan, ba’zi hollarda “a snake in the grass” (yashirin dushman) kabi iboralar, qarshi tarafning oldindan o‘ylangan zararli niyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ko‘chma ma’noli so‘zlarning ommalashuvi va qabul qilinishi uzoq vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lib, u jamiyatning tarixiy tajribasi va madaniy e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, “tulki” yoki “ilon” kabi zoonimlar tasodifiy o‘xshatishlar emas, balki xalqning ming yillik tajribasi, dunyoqarashi va atrof-muhit haqidagi bilimlarining mahsulidir. Ye.V.Dzyuba bu jarayonni Arastu ta’limotining tilshunoslikdagi talqini bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, predmetlar haqidagi bilimlar o‘zaro qiyoslash natijasida yuzaga keladi. Masalan, zoonimlarning inson xarakteriga nisbatan qo‘llanishi ularning asl ma’nosidan qisman ajralishini bildiradi. Ammo bu aloqadorlik, qiyoslash orqali aniqlanadigan o‘xshashlik va tarixiy voqealarga ishora qiladi. Ye.V.Dzyuba til hodisalarining kelib chiqishini tahlil qilib, ko‘chma ma’noli so‘zlar va ularning asos so‘zlari o‘rtasida zaruriy bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi. Bu bog‘liqlik turli jihatlar, jumladan, tarixiy, madaniy va semantik omillarga asoslangan bo‘lishi mumkin. B.L. Uorf qarashlarida olamning ikki xil manzarasi – lisoniy va ilmiy manzaralari mavjudligi ta’kidlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson xarakteri va uning til orqali ifodalanishi – bu juda murakkab va ko‘p qirrali fenomen bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani chuqur o‘rganishni talab qiladi. Nominatsiyaning lingvistik va madaniy jihatlari til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi. Har bir til o‘ziga xos madaniy kontekstga asoslangan holda ma’lum bir xususiyatlarni ifodalashda turlicha vositalarni qo‘llaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida ham bir xil so‘zlar turli ma’no va kontekstlarda qo‘llanilishi mumkin, bu esa o‘zaro madaniy tafovutlar va o‘xshashliklarni ko‘rsatadi.

[4] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M.,Yunusova Z.Q., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010. 25-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov Sh., Shukurova F. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar etimologiyasiga oid ayrim mulohazalar // Международный журнал Искусство слова. 2020. № 3. С. 13–18.
2. Балли Ш. Французская стилистика. М.: Изд-во иностр. лит., 1961. -394 с.
3. Буслаев Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. – М.: Русский язык, 1954. 176 с.
4. Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1959. 492 с. 5. Назарян А.Г. История развития французской фразеологии. – М.: Высш.школа, 1981. 189 с.
5. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: Высш.школа, 1987. 288 с.
6. Nasirov A.A. Ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2016. 32 - b.

Shahnoza SHERMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o‘qituvchisi
shahnoza.sher95@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘z o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘z o‘rganilishi haqidagi fikrlar haqida so‘z boradi.Tilshunoslarning tadqiqot ishlari, qaysi tilshunoslar o‘rganganligi haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, yasama so‘zlar, affiks, o‘zak, kompressiya, fleksiya.*
Аннотация: данная статья посвящена изучению слов узбекского языка.Обсуждаются исследовательские работы лингвистов и то, какие лингвисты изучали.
Ключевые слова: *словообразование, словообразованные слова, аффикс, корень, основа, компрессия, флексия.*
Annotation: this article is devoted to the study of words in the Uzbek language, and it talks about the opinions about the study of words. The research works of linguists and which linguists studied are discussed.
Key words: *word formation, derivative words, affix, root, compression, flexion.*

Kirish. So‘z yasalishi o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab tilshunoslikda alohida soha va hodisalarni ifodalovchi termin sifatida faol qo‘llana boshlagan bo‘lsa-da, til birliklarining shakllanishi, yangi-yangi xosilalarning vujudga kelishiga bo‘lgan ehtiyoj jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud edi. So‘z yasalishi, tilshunoslikda, so‘zlarning qanday qilib shakllanishi, tuzilishi va yangi so‘zlarning qanday yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan sohadir. Bu so‘zlar morfologiya va leksikologiya sohalarining o‘zaro bog‘lanishiga kiradi. So‘z yasalishi so‘zlarning tarkibida mavjud bo‘lgan morfemalarning kombinatsiyasi, shu jumladan, qo‘shimchalar, ildiz so‘zlar, va boshqa elementlar yordamida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishini o‘rganadi.Shunday so‘z yasalishining tadqiqot tadriji ham tilshunoslikning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Tilshunoslik tarixiga oid manbalarda qayd etilishicha, til birliklarining yasalishiga doir hodisalarning ilmiy tavsifiga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy izlanishlar qadimgi sanskrit tilining ilk tadqiqotchilaridan bo‘lgan Panining qalamiga mansub bo‘lgan. Jumladan, N.A. Kondrashevning guvohlik berishicha, Panini qadimgi sanskrit tili grammatikasiga doir asarida tovush almashishi va uning so‘z yasalishiga ta’siri, urg‘uning ma’no farqlashdagi ahamiyati, yangi ma’noli so‘zning vujudga kelishida ichki fleksiyaning o‘rni, so‘z shakllarining o‘zak va affikslardan tarkib topishiga doir bir qator ma’lumotlarni yozib qoldirgan [1:4-5]. Etimologik jihatdan derivatologiya derivatsiyani o‘rganish degan ma’noni anglatadi.Zamonaviy derivatologiyaning asosini tashkil etuvchi elementar birliklarni murakkab birliklarga birlashtirish g‘oyasi, biz ko‘rib turganimizdek, tarixan XVII-XVIII asrlarning universal grammatikasiga borib taqaladi. Xuddi shu ildizlar derivatologiyaning yana bir asosiy g‘oyasiga ega - siqish, siqish yoki XIX asrda o‘zini namoyon qila boshlagan g‘oya [2:13].

Asosiy qism. Oltoy tilida, boshqa ko‘plab tillarda bo‘lgani kabi, ko‘pincha fleksion (so‘z o‘zgarishi) va derivatsiya (so‘z yasalishi) o‘rtasida chegara ajratib bo‘lmaydi. Bir paytlar so‘z o‘zgarishi yoki so‘z yasalishi, vaqt o‘tishi bilan tilning tarixiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan va tilni idrok etishdagi siljishlar natijasida u fleksiya paradigmasiga aylantirildi [3:117].

Mahmud Koshg‘ariy hozirgi tilshunoslikda alohida bo‘lim sanaluvchi “So‘z yasalishi” haqida ham o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan. Turkiy tillarda so‘z yasalishining eng mahsuldor usuli affiksatsiya ekanligi ko‘pchilikka ma’lum. Mahmud Qoshg‘ariy shuning uchun ham so‘z yasalishi haqida gap ketganda, asosan, affikslar qo‘shib so‘z yasashga to‘xtaladi. U so‘zlarni yasalgan-yasalmaganlik belgisiga ko‘ra ikki turga: tub va yasama so‘zlarga ajratadi.

Fitrat so‘z turkumlari haqida gapirishdan oldin so‘z yasalishi haqida to‘xtaladi.U so‘z yasalish hodisasini kengroq ma’noda talqin. Hozirgi fanda so‘z yasalishi deganda qanday usul, qanday vosita bilan bo‘lmasin, yangi so‘z hosil qilish tushuniladi. Fitrat esa “bir o‘zak qo‘shimcha qo‘shib yasalgan barcha so‘zlarni yasama so‘z deb qaraydi. Faqat o‘zakning o‘zidangina iborat so‘zlarni tub so‘z hisoblaydi.Ayrim o‘zak va qo‘shimchalar tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarganligi asosan o‘zak va qo‘shimchaning birikib ketishidan, bunda urg‘udan oldingi unlining tushib qolishi muhim rol o‘ynaganligi tufayli yuz berganini ham ta’kidlash joiz. Shuning uchun ham diaxron planda ayrim so‘zlarni o‘zak va affiksga ajratib bo‘lmaydi. Affiksal morfemalarning kelib chiqishi masalasidagi muammolardan biri affikslarning fuziyasi, ya’ni qo‘shilib, birlashishi talqinidir. Turkiy tillarda bir xil ma’noli va hatto har xil ma’no (vazifadagi) affikslar ham fuziya jarayonida o‘zgarishga uchragan. Masalan, olib *kel >olkel,* no‘g‘aycha akel, ozarbayjoncha *yov + qula> yovala (quvala, quvalamoq)* kabi [4:40].

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida so‘z yasalishi bo‘yicha ham o‘zining ayrim kuzatishlarini bayon qiladi. U garchi so‘z yasalish strukturasi bo‘yicha fikr bildirmasa ham, lekin so‘z yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma tushunchalari haqida ma’lumotga

ega bo‘lgan. Muhammad Chingiyning “Kelurnoma”, Fitratning “Sarf” asarlarida ham so‘z yasalishiga doir fikrlar bayon qilingan Fitrat otlarning yasama turlari ham borligi, shunga ko‘ra tub va yasama otlarga bo‘linishini ko‘rsatadi. Yasama otlar ma’lum yasovchi qo‘shimchalar yordamida ot va ot bo‘lmagan boshqa so‘zlardan hosil qilinishini bayon qiladi.Yasama otlarni, o‘z navbatida, ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi. Fitrat otlarning yasama turlari ham borligi, shunga ko‘ra tub va yasama otlarga bo‘linishini ko‘rsatadi.Yasama otlar ma’lum yasovchi qo‘shimchalar yordamida ot va ot bo‘lmagan boshqa so‘zlardan hosil qilinishini bayon qiladi.Yasama otlarni, o‘z navbatida, ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi. O‘zbek ilmiy tilshunosligi shakllangandan buyon so‘z tarkibi masalasiga alohida ahamiyat berib kelinadi. So‘z tarkibi unga bog‘liq bo‘lgan atamalar tizimining shakllanishida prof. A.G‘ulomovning xizmatlari katta bo‘ldi. Olimning so‘zning yasalish va morfemik tarkibi, morfema turlari haqidagi fikrlari “O‘zbek tili morfem lug‘ati” (Toshkent, 1977)ning kirish qismida yanada izchilroq o‘z ifodasini topdi. Prof.A. G‘ulomov o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk bor Boduende Kurtene tomonidan eng kichik ma’noli birlikni ifodalash uchun qo‘llangan morfema atamasini olib kirdi.O‘zbek tili morfemikasining shakllanishi va uning o‘rganish obyektining to‘g‘ri belgilanishida akad. A.Hojiyevning xizmati katta bo‘ldi. Bugungi kunda tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida morfemika ajralib chiqdi.

So‘z yasashning kompressiya funksiyasi va uni amalga oshiruvchi so‘z yasalish modellari E.A. Zemskaya asarlarida batafsil o‘rganilgan. Muallif ta‘kidlaganidek, kompressiya so‘z yasalishi tilda mavjud nominativ birliklarni qisqartirish maqsadiga xizmat qiladi va turli so‘z yasalish usullari, ya‘ni qo‘shimcha univerbatsiya (суффиксальная универбация), abbrevatsiya, qo‘shma abbreviatura va boshqalar [8:10].

So‘z yasalishi termini ikki ma’noda qo‘llanadi: 1) umuman, so‘z yasalishi, til materiali asosida yangi so‘z hosil bo‘lish hodisasini bildiradi; 2) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni (masalalarni) o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi. Har bir tilning boshqa sohalari, masalan, morfologiya, sintaksis sohalari o‘z sistemasiga ega bo‘lgani kabi, uning so‘z yasalishi ham o‘z sistemasiga ega. So‘z yasalishi bo‘limida ana shu sistema tahlil etiladi [9:12].

O‘zbek tili va koreys tilida so‘z yasash usullarining quyidagi turlari bor:

1) fonetik usul;
2) semantik (ma’noviy) usuli;
3) abbreviatsiya (qisqartma) usuli;
4) kompozitsiya (sintaktik) usuli;
5)affiksatsiya (morfologik) usuli;
6) takrorlash usuli (반복방법).

Fonetik usul. Bu usul bilan so‘z yasash ikki hodisani ko‘zda tutadi: 1) so‘zning tarkibida fonetik o‘zgarish (tovush o‘zgarishi) qilish orqali yangi so‘z hosil qilish. Masalan, *bo‘r-bo‘z, tog‘-tosh, ko‘z-ko‘rmoq, tosh-tish* (qattiqlik belgisi asosida); 2) urg‘uning oinini o‘zgartirish bilan yangi so‘z yasash. *Masalan, yangi (sifat), yangi (ravish), hozir (ravish) - hozir (tayyor), tugrna (ot), tugma (fe’l)* [10:33].

Abbreviatsiya usuli.Murakkab so‘z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yangi so‘z yasalishidir.Masalan, *elektron hisoblash mashinasi-EHM, Birlashgan Millatlar Tashkiloti-BMT.*

Qisqartma so‘zlarning ba’zilari tilimizda aynan o‘zlashtirilgan holda ishlatiladi: *YUNESKO, NATO* kabilar shular jumlasidandir.So‘z yasalishining bu usuli o‘zbek tilida rus va boshqa xorijiy tillar ta’sirida o‘tgan asrning boshlarida shakllangan bo‘lib, faqat qisqartma otlar yasalishida ishlatiladi. Bu usul kompressiya bilan o‘zaro aloqasi bo‘lib, kompressiyaga misol bo‘la oladi. Abbreviatsiya usuli bilan qisqartma otlar hosil qilinadi. Qisqartma otlar nutqda ixchamlikka erishish maqsadida turg‘un so‘z birikmalarini quyidagicha qisqartirish orqali yasaladi:

1. Qisqartirilayotgan so‘zlarning birinchi tovushlaridan tarkib topadi*: BAM, BAR, BMT, GUM*.

2. Qisqartirilayotgan so‘zlarning bosh qismlaridan tarkib topadi: *Filfak, Unvermag, SamKochAvto*.

3. Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zlarning birinchi tovushlaridan: *Tosh MI, Sam DChTI, Sam DU.*

4. Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zni to‘liq olish orqali: *Medinstitut, dramteatr, avtoyo‘l*. oladi.

Takrorlash usuli.Bunda so‘zlar takrorlanib yangi so‘zlar yasaladi: paqpaq (o‘yin), tur-tur (turish), bipbip (avtobus), pat-pat (mototsikl), xola-xola (o‘yin). Takroriy so‘zlarning hammasi ham yasama emas.Bunda ham yangi ma’no yasalsagina, yasama so‘z hisoblanadi: tez-tez, katta-katta kabi takroriy so‘zlar yasama emas, bunda ma’no kuchaytirilgan, xolos.

Semantik usul.So‘zning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi asosida yangi so‘z yasalishidir. Masalan, sifatning otga ko‘chishi asosida: *ko‘k* (osmon ma’nosida), *erkak, chol, kampir*; sodda va juft fe’lning otga ko‘chishi asosida: *kurash, kengash, keldi-ketdi, bordi-keldi, qo‘ydi-chiqdi*; sonning ravishga ko‘chishi asosida: *birga(ketmoq), birdan (kirmoq)*; otning ravishga ko‘chishi asosida: *kunduzi, kechasi (qaytmoq*), *boshda (sezmoq)* kabilar shular jumlasidandir. Semantik usul asosida yasalgan so‘zning lug‘aviy ma’nosi yangilanishi bilan bir qatorda uning grammatik ma’no va vazifasi ham o‘zgaradi. Qiyoslang: *mushuk tavadagi go‘shtni oldi-qochdi (fe’l). Oldi-qochdi gaplar hammaning joniga tekkan (sifat)* [11:77].

Semantik derivatsion jarayonlar postsemantik jarayonlar (V.Cheyf termini), ya’ni ular gapning (matnning) berilgan denotativ mazmunini o‘zgartiradi. Transformatsiya denotatsiyani semantik talqin qilishdan iborat bo‘lib, u ikkinchi darajali ifodani qabul qiladigan jumlaning tashqi tuzilishida lisoniy ifodalashning o‘ziga xos usulidir. Biz semantik derivatsiyaning uchta asosiy

turini ajratamiz: joy o‘zgarishi, metonimizatsiya va metaforizatsiya. O‘zgartirishni semantik konversiya deb atash mumkin. Konversiya kabi, gapning semantik komponentlarini sintaktik qayta qurish bilan bog‘liq. Semantik derivatsiya so‘z yasalishi va umuman, tilning leksik qatlamini boyitishning alohita o‘rin tutuvchi bir usuli va vositasidir. Konversiyaga asoslanuvchi bunday o‘zgarishlar nafaqat mustaqil so‘zlar o‘rtasida, balki yuqorida qayd etilgani kabi yordamchi so‘zning mustaqil so‘zga o‘tishida ham kuzatiladi. Shu bilan birga qayd etish kerakki, mustaqil so‘zning yordamchi so‘zga o‘tishi masalasi ham mazkur derivatsion usulning mahsuli bo‘la oladi. Metonimizatsiya kompressiyaga o‘xshash jarayondir.Kompressiya natijasida semantik sof grammatik (odamlar gapiradi- gapirishadi; Talabalar ma’ruzada turipti - Talabalar ma’ruzada) yoki butunlay matnning boshqa jumlasi bilan ifodalangan komponentlar yo‘q qilinadi.Metonimizatsiya o‘zgarish bilan chambarchas bog‘liq. Shubhasiz, metonimizatsiya ma’noni ko‘chirishga olib keladi. Shunday qilib, metonimizatsiya ikkita operatsiyani o‘z ichiga oladi: 1) mustaqil komponentni siqish va 2) joy o‘zgartirish [2:47].

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, so‘z yasalishining tadqiqot tadriji ham tilshunoslikning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi So‘z o‘rganilishi olimlar turlicha talqin qilingan. So‘z yasalishidan oldin so‘z turkumlariga to‘xtalib o‘tilgan. So‘z turkumlari o‘rganilishida Alisher Navoiy, Firatning o‘rinlari katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М.,1979.224.

2. Мурзин Л.Ню Основии дериватологи. – Перм, 1964.

3. Shuxratovna, B. S. (2024). O‘zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.

4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.

5. Xushvaktova, H. U., & Eshimova, S. K. (2023, December).Koreys tilidagi iboralarni o‘zbek tiliga tarjimaqilishdagi qiyinchiliklar. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 96-99).

6. Eshimova, S., & Davlatova, K. (2023, December). O‘zbek va koreys tillarida metaforaning o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 46-50).

7. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.

8. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG ‘LOVCHILARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.

9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May).THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).

10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.

11. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.

12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

13. Bayonkhanova, I. (2024, October). Maqollarning badiiy nuqtayi nazardan o‘rganilishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 799-802).

Nargiza RAJABOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD)

OLAMNING LISONIY TASVIRIDA SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI MAQOLLAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvokulturologiya fanining o'rganilishi, rivojlanishi va lingvokulturologik birliklar tahlil-tadqiq etilgan. Bundan tashqari ushbu sohaning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi va bugungi kundagi izlanishlar haqida gap borgan. Shuningdek, madaniyat va til aloqasi, xalq og'zaki ijodining go'zal namunalaridan biri bo'lgan maqollarning lingvomadaniy tahliliga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: *til va madaniyat, olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokulturologik maktablar va konsepsiyalar, paremiologik birliklar, ma'naviyat, maqol.*

Аннотация: в данной статье исследуются изучение и развитие лингвокультурологии, а также анализ лингвокультурологических единиц. Кроме того, рассматривается вхождение этой области в узбекское языкознание и современные исследования в этой сфере. Наряду с этим, обращается внимание на связь культуры и языка, проводится лингвокультурологический анализ пословиц, являющихся одним из прекрасных образцов устного народного творчества.

Ключевые слова: *язык и культура, языковая картина мира, лингвокультурология, лингвокультурологические школы и концепции, паремиологические единицы, духовность, пословица.*

Annotation: this article examines the study, development, and analysis of linguocultural units in the field of linguoculturology. Additionally, it discusses the introduction of this discipline into Uzbek linguistics and current research in the area. Furthermore, the article addresses the relationship between culture and language, as well as the linguocultural analysis of proverbs, which are considered one of the most beautiful examples of oral folk art.

Key words: *language and culture, linguistic worldview, linguoculturology, linguocultural schools and concepts, paremiological units, spirituality, proverb.*

Kishilik jamiyatining borliq to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi hamda bilimlarning mavjud bo'lishidagi muhim omil bu, shubhasiz, til hisoblanadi. Inson obyektiv borliq haqidagi bilmlarni olamning lisoniy manzarasi yordamida to'ldiradi. Inson hamda muhit aloqasi olam haqidagi tushunchani shakllantirsa, olamning tasviri esa ular asosidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida vujudaga keladi. Umuman olganda, "olamning lisoniy manzarasi (L.Vaysterber termini) – olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy hamda majburiy usullari majmuyi; olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullar yig'indisi. Har bir tabiiy til olamining o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi."[1] Til asosiy aloqa quroli bo'lish bilan birgalikda insonning olam haqidagi bilimlarini turli madaniy, diniy va mafkuraviy asosda tafakkur etish vositasi sanaladi. Bugungi kunda tilshunosligimizning yangi sohalaridan biri sanalgan lingvokulturologiya mana shu asosda lisonni tadqiq markaziga tortadi.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlanadi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko'rinishida) va uning tarkibiy qismidir.[2] Lingvomadaniyatshunoslik mana shu kabi qarashlarning samarasi o'laroq XX asrning 90-yillarida antroposentrik paradigma tarkibidan alohida soha sifatida ajralib chiqdi. Dunyo lingvistik maydonida V.A.Maslova, V. N. Teliya, G.G.Slishkin, N. Alefirenko, V. V. Vorobev kabi olimlar antroposentrik paradigma va lingvokulturologiyaga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlarni hamda yangiliklarni jahon hamjamiyatiga taqdim etishgan. Chunonchi, V. V. Vorobevning fikricha "Til va madaniyat" sikli muammolari tabiiy va gumanitar fanlarda qo'llaniladigan tizimli usullarni hisobga olgan holda ishlanmalarni yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Bu sohada olingan natijalar va bir qator yangi fikrlar keyingi izlanishlar istiqbollarini belgilab berishi mumkin. Tadqiqotning umumiy strategiyasi "inson" ("milliy shaxs") – Sh, "til" – T (va "tafakkur" – T), "madaniyat (moddiy va ma'naviy)" – M kabi tushunchalar nisbatining prinsipial sxemasini dinamik ravishda rivojlantirishdan iborat.[3] Ko'rinadiki, bu yo'nalishda qilinadigan ishlar salmog'i hali anchagina. Dunyo tilshunosligida lison va madaniyat chambarchas holda o'rganilar ekan, bu ikki birlik kesishgan nuqta to'g'risida V. A. Masalova XXI asr tilshunosligi tilni nafaqat muloqot va bilish quroli,

[1] Xudoyberganova.D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. 33-bet.
[2] Usmonova.Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 4-bet.
[3] В. В. Воробьев. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ. Рекомендовано Министерством образования и науки Российской Федерации для использования в учебном процессе Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2006. – С.29

balki millatning madaniy kodi sifatida ko‘rib chiqadigan yo‘nalishni faol rivojlantirmoqda. Bunday yondashuvning fundamental asoslari V.Gumboldt, A.A.Potebnya va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan. Masalan, V. Gumboldt: “Millatim tilining chegarasi mening dunyoqarashim chegarasi demakdir”[4] deya ta’kidlaydi. Jahon tilshunosligi ta’siri natijasida rus tilshunosligida ham lingvistikaning zamonaviy aspektda tadqiq qilish jadallasha bordi. V. A. Masalovaning qayd etishicha, XX asr oxiriga kelib 4 ta lingvokulturolgik maktab tashkil topdi. Bulardan Y.S. Stepanovning lingvokulturologik maktabi uslubiy jihatidan E. Benvenist konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, mazmuni madaniyat konstantlarini diaxronik aspektda o‘rganish va tasniflashdan iborat edi. N.D.Arutyunova boshchiligidagi maktabning asosiy e’tibori turli davr hamda xalqlarga tegishli matnlardan olingan umumiy madaniy atamalarni o‘rganishga qaratilgan.

Rossiyada shu bilan birga jahon tilshunosligida frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektda tadqiq etishda Moskva maktabi nomi bilan mashhur bo‘lgan V.N.Teliya va uning shogirdlari til va madaniyatni o‘rganishda jonli til egasining tafakkuri yordamida tadqiq qilishga asosiy e’tiborni qaratishgan. Bu g‘oya A.Vejbitskayaning (Lingua mentalis – aqliy lingvistika) qarashlariga yaqin bo‘lib, so‘zlovchining nutqiy faoliyatidagi aqliy holatlarini taqlid qilishni nazarda tutadi.

Hamda so‘ngisi Rossiya xalqlar do‘stligi universitetida V.V. Vorobyov, V.M. Shaklein hamda boshqalar tomonidan asos solingan lingvokulturologiya maktabi. Bu olimlar Y.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovning konsepsiyasini rivojlantirishmoqda.

Shunday qilib, har bir maktab konsepsiyalari lingvomadaniyatshunoslik sohasi rivojiga o‘zining muhim hissasini qo‘shgan. Chunonchi, til madaniyatning kechasi, buguni va ertasi hamdir. Shu bilan birga til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Umuman olganda, tilni lingvomadaniy aspektda tahlil va tadqiq qilar ekanmiz, dastlab kishi ongida mavjud lingvistik birliklarning madaniyat bilan aloqasi o‘rganiladi va shu bilan birgalikda ma’lum bir xalqqa tegishli bo‘lgan madaniy birliklar davrlar osha qay darajada leksik-semantik sayqallana borganini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Bugungi kunga kelib o‘zbek lingvistik olimlari ham lingvokulturologik izlanishlar yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirdilar. Bu yo‘nalishda bir qancha darslik hamda qo‘llanmalar tayyorlandi. Sh. Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” monografiyasi bu yo‘nalishga qo‘yilgan dastlabki qadam bo‘lsa, M. X. Hakimov, N. Mahmudov, A. Nurmonov kabi olimlarning tadqiqotlari ham ayni soha rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Hozirda lingvokulturologiyaga doir qancha darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlanmoqda.

Ma’lumki, lingvokulturologik tadqiqotlarning o‘rganish obyekti sifatida bir qancha alohida-alohida predmet sifatidagi birliklar tushuniladi. Shularning bittasi maqollar sanaladi.

Maqollar xalq donoligi mahsuli sanalib, ularni o‘rganish dastlab tilshunoslikda XI asrlarga borib taqaladi. Ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida uchratishimiz mumkin. Keyinchalik xalq og‘zaki ijodining mahsuli sifatida adabiyotshunoslikda paremiologik birlik sifatida tilshunoslikda tadqiq obyektiga aylandi. Shaxs va madaniyat tushunchalarini o‘zida jamlagan maqollar tahlili hozirgi kunda lingvomadaniyatshunoslikning ham e’tibor markazidadir. Avvalo, bunday tahlillarda milliy mentalitet, milliy xarakter nuqtayi nazaridan tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun “Odam bo‘ladigan yigit odayidan ma’lum, Tulpor bo‘lar qulun – muchasidan”[5] maqolidan anglanib turibdiki, kishining xulq-atvori qanaqa bo‘lishi uning yoshligidan bilina boshlaydi. Sir emaski, o‘zbek millatida bola tarbiyasi azaldan nafaqat ota-ona, balki butun xalq uchun birinchi o‘rinda bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz farzandlarini milliy tafakkurli shaxs, milliy qadriyatlar e’zozlovchi inson ruhida kamolga yetkazganlar. Maqolda keltirilgan *“tulpor”* obrazi ham ayni fikrimiz isboti. Sababi, umumturkiy millati uchun *ot* er yigitning yo‘ldoshi, sodiq do‘sti hamda kurashlarda yelkadosh suyanchiq ramzi sanaladi. *Mucha* leksemasi esa izohli lug‘atda “tana a’zosi” ma’nosini anglatadi. Demak, umumiy xulosadan shuni anglash mumkinki, yaxshi odatli yigit bu sog‘lom ot misolidir. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bo‘lmish maqollar o‘zida bir necha asrlik milliy-madaniy merosimizni jamlagani ham shu birgina misolda namoyondir.

[4] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб,заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001 — С.4.
[5] O‘zbek xalq maqollari(Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqov, B. Sarimsoqov). – T.: “Sharq”, 2013. 156-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. 41-b.

2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 245-b.

3. В. В. Воробьев. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ. Рекомендовано Министерством образования и науки Российской Федерации для использования в учебном процессе Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2006. – 112.с

4. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб,заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 208.с

5. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqov, B. Sarimsoqov). – T.: “Sharq”, 2013. 512-b.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680-b.



Oqila ALIJONOVA,
Jizzax pedagogika universiteti
PhD tayanch doktoranti
e-mail:oqila7777@gmail.com

DORIS LESSINGNING “UCHINCHI, TO‘RTINCHI VA BESHINCHI HUDUDLAR ORASIDAGI NIKOHLAR” ROMANIDA “NIKOH” KONSEPTINING TALQINI

Annotatsiya: maqolada D. Lessingning “Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi hududlar orasidagi nikohlar” romanida nikoh konsepti ko‘p qirrali hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ushbu konsept an’anaviy oila munosabatlari tushunchasidan tashqariga chiqib, shaxsiy o‘sish vositasi, madaniy to‘siqlarni yengish yo‘li va ijtimoiy yangilanish omili sifatida talqin etiladi.Tadqiqotda olimlar tomonidan taklif etilgan konsept tahlili yondashuvlari qo‘llanilgan bo‘lib, ular Lessing nikoh konseptini qanday yangi ma’nolar bilan boyitganini, uni jamiyat uyg‘unligi va qahramonlar dunyoqarashining o‘zgarishi bilan qanday bog‘laganini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *nikoh, konsept, konseptosfera, shaxsiy transformatsiya, ijtimoiy o‘zgarishlar, D. Lessing.*

Annotation: the article explores the concept of marriage in Doris Lessing’s novel “The Marriages Between Zones Three, Four, and Five” as a multifaceted phenomenon that goes beyond traditional notions of family relationships. The analysis reveals that in the novel, marriage is depicted not only as a union between a man and a woman but also as a tool for personal growth, a means of overcoming cultural barriers, and a factor of social renewal. The study applies conceptual approaches proposed by scholars, which help identify how Lessing enriches the concept of marriage with new meanings, linking it to societal harmony and the transformation of the characters’ worldviews.

Key words: *marriage, concept, conceptual sphere, personal transformation, social change, Doris Lessing.*

Аннотация: в статье рассматривается концепт брака в романе Д. Лессинг “Браки между Зонами Три, Четыре и Пять” как многогранное явление, выходящее за пределы традиционных представлений о семейных отношениях. Анализ показывает, что в произведении брак выступает не только как союз между мужчиной и женщиной, но и как инструмент личностного роста, средство преодоления культурных барьеров и фактор социального обновления. В исследовании использованы подходы к изучению концептов, предложенные учёнкми, что позволило выявить, как Лессинг наполняет концепт брака новыми смыслами, связывая его с гармонией общества и изменениями мировоззрения героев.

Ключевые слова: *брак, концепт, концептосфера, личностная трансформация, социальные изменения, Д. Лессинг.*

“Konsept” tushunchasi ilmiy muomalaga ilk bor Sergey Aleksandrovich Askoldov-Alekseyev tomonidan 1928-yilda kiritilgan.U o‘zining “Konsept va so‘z” (“Konsept i slovo”) maqolasida konseptni shaxs va madaniyat o‘rtasidagi ma’naviy aloqalarni uzatuvchi mental tuzilma sifatida ta’riflagan. [1, 269]. “Konsept” va “konseptosfera” tushunchalari nisbatan yaqinda (90-yillarning o‘rtalarida) zamonaviy adabiyotshunoslikda qo‘llanila boshladi, ammo hanuzgacha qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lib, ularni tushunish, talqin qilish va faoliyat yuritish bo‘yicha turli yondashuvlarni shakllantirmoqda. Biz S. A. Askoldov-Alekseyev [1] va D. S. Lixachev [5] ishlaridan kelib chiqqan an’anaviy qarashga amal qilamiz. Ushbu maqolada Doris Lessingning “Uch, To‘rt va Besh Hududlar orasidagi nikohlar” romanidan “nikoh” konseptini o‘rganishdan iborat. Shunday qilib, Askoldov-Alekseyev ta’rifiga ko‘ra, konseptning asosiy vazifasi – o‘rin bosuvchi vazifasidir. U ayniqsa badiiy adabiyotdagi konseptlarga katta e’tibor qaratib, ularni ikki turga ajratadi: “Bilish konseptlari – umumiylikka ega; san’at konseptlari esa individualdir... Bilish konseptlariga xohish hissi, umuman olganda, irratsionallik aralashmaydi.Badiiy konsept esa ko‘pincha ularning uyg‘unligi bo‘lib, tushunchalar, tasavvurlar, his-tuyg‘ular va emotsiyalar majmuasini tashkil etadi” [1, 274; 2].1.“Bilish konsepti doimo muayyan ko‘p tarmoqli predmetga – ideal yoki real voqelikka bog‘liq bo‘ladi”. Badiiy konsept esa ancha murakkab: “Ham san’atkor ijodi, ham uning tinglovchi

yoki o‘quvchida uyg‘otgan birinchi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri nafaqat muallifning badiiy maqsadini to‘la ochib beradi, balki qabul qiluvchini yangi ma’nolarga yetaklaydi... Badiiy asarni anglash jarayoni hech qachon bir zumda sodir bo‘lmaydi, balki qayta-qayta yondashishni talab qiladi, har bir yangi yondashish badiiy qabul qilish mazmunini yangi yo‘nalishlarga surib boradi” [1, 274; 2]. 2. “Badiiy konseptlarning bilish konseptlaridan eng muhim farqi – ularning imkoniyatlarining noaniqligidadir. Bilish konseptlarida imkoniyatlar yo real voqelikka muvofiqlik talabi, yoki mantiq qonunlariga bo‘ysunadi.Badiiy konsept elementlarining bog‘liqligi esa mantiq va pragmatikaga emas, balki san’atning maxsus assotsiativ qonunlariga asoslangan...” [1, 275; 2].

Doris Lessingning “Uch, To‘rt va Besh Hududlar orasidagi nikohlar” (1980) romani muallifning nikoh va jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarini aks ettiradi. Asarning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, aslida erkak va ayol dunyoni har xil idrok etadi, lekin nikoh jarayonida bu tushuncha o‘zgarishi mumkin.Jamiyat va inson taraqqiyoti uchun nikoh asosiy o‘rinni egallaydi. Lessingning asarida nikoh konsepti quyidagi jihatlarni ochib beradi:

1. Agar nikoh xavf ostida qolsa, insoniyat qanday taqdirga duchor bo‘lishi mumkin?
2. Nikoh jamiyat a’zolari uchun shaxsiy rivojlanish va o‘sish imkoniyatini qanday yaratadi?
3. Yerda hayotning davom etishi uchun erkak va ayol o‘rtasida, shuningdek, shaxs va jamiyat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik zarur.Nikoh bu munosabatlarni mustahkamlaydi.

Romanda: “Between them, the distance was more than physical – it was the weight of two worlds that had never touched before.”

This quote emphasizes the deep divide between their cultures. Marriage in this context serves not only to unite two individuals but also to bridge ideological and societal gaps.

Analysis:

By forcing characters from different backgrounds to coexist, Lessing explores how relationships shape both individuals and entire civilizations. Marriage becomes a catalyst for breaking barriers and fostering understanding.

The Fragility of Love and Power in Marriage

Despite the eventual mutual understanding between Al-Ith and Ben Ata, their marriage remains subject to external forces. When the “Providers” decree that their marriage must end, they have no choice but to separate.

Example from the novel:

“She knew now that love was not enough. Power, fate, and forces beyond them would dictate their lives”.

Analysis: this passage highlights the limitations of love in the face of structural forces. Lessing suggests that while marriage can foster growth and connection, it is ultimately controlled by larger, impersonal forces.

“Ularning orasidagi masofa faqat jismoniy emas edi – bu bir-biriga hech qachon tegmagan ikki dunyoning og‘irligi edi”.

Bu iqtibos ularning madaniyatlari o‘rtasidagi chuqur tafovutni ta’kidlaydi.Bu kontekstda nikoh faqat ikki shaxsni birlashtirish uchun emas, balki mafkuraviy va ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlil:turli kelib chiqishga ega qahramonlarni birgalikda yashashga majbur qilishi orqali Lessing munosabatlar nafaqat shaxslarga, balki butun sivilizatsiyalarga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Nikoh to‘siqlarni buzish va tushunishni rivojlantirish uchun katalizatorga aylanadi.

Nikohda muhabbat va hokimiyatning nozikligi

Al-It va Ben Ata o‘rtasida o‘zaro tushunish shakllanganiga qaramay, ularning nikohlari tashqi kuchlarga tobe bo‘lib qoladi.“Ta’minlovchilar” ularning nikohlari tugashi kerakligini buyurganda, ular bu qarorga qarshi chiqa olmaydilar.

Romandan misol: “U endi muhabbatning yetarli emasligini bilar edi. Hokimiyat, taqdir va ulardan tashqaridagi kuchlar ularning hayotini belgilab berar edi”.

Tahlil: bu parcha muhabbatning tuzilmaviy kuchlar oldidagi cheklovlarini ko‘rsatadi. Lessing nikoh o‘sish va bog‘lanishni rag‘batlantirishi mumkinligini ta’kidlagan holda, uning baribir katta va shaxsiy bo‘lmagan kuchlar tomonidan boshqarilishini ko‘rsatadi.

Doris Lessingning uslubiy usullari.Muallifning kuchli tomoni – shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yoritishdir.U o‘z roman texnikasini ma’lum bir g‘oyani yetkazishga qaratilgan shaklda ishlab chiqadi. Chunki u ayollar, erkaklar va jamiyat haqida abstrakt g‘oyalarga ega bo‘lgani uchun ularni faqat hikoya orqali tasvirlab berish qiyin.Shuning uchun u o‘z qarashlarini bevosita bayon qiladi. Lessing asarlarida didaktik (o‘qituvchiga xos) maqsadlar ham aniq ko‘rinadi: u o‘quvchini jamiyatdagi adolatsizlik xavfi haqida o‘ylashga undaydi. Nikoh muallif uchun jamiyat muammolarini anglashda asosiy nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy sivilizatsiyada nikoh muhabbat va bir-biriga mas’uliyatli munosabatni talab qiladi. Sheriklar bir-birini qo‘llab-quvvatlashlari, farzandlar oldida burch his qilishlari, shu orqali kelajak jamiyatni qurishlari kerak.“Uch, To‘rt va Besh Hududlar orasidagi nikohlar” romani ana

shu g‘oyani san’at vositasida to‘liq ifodalaydi. Ushbu asar nikoh jamiyatning muqaddas instituti sifatida zaiflashsa, bu barcha boshqa sohalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Muallif nuqtayi nazaridan, jamiyatning farovonligi faqat tirik qolish emas, balki har bir insonning gullab-yashnashiga bog‘liq. D. Lessing fikricha, bunga erishish uchun o‘zaro hamkorlikning eng maqbul shakli kerak. Turmush o‘rtoqlardan biri tomonidan majburiyatlarning buzilishi inson tabiatining eng yaxshi fazilatlari – mehr-shafqat, hamdardlik va beg‘arazlikka zarar yetkazadi. Lessing romanida ijtimoiy va biologik ehtiyojlar ijtimoiy jihatdan qabul qilingan va insonparvar vositalar orqali qondirilishi kerakligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, Lessing asarida faqatgina adolatli jamiyat har bir inson qadrini oshirishi va faqat shu shart bilan har kim boshqa inson ehtiyojlari va jamiyat talablarini tushunishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Jamiyat yoki shaxs tomonidan har qanday majburiyatlar bajarilmasligi ijtimoiy totuvlikni xavf ostiga qo‘yadi.Romandagi “ideal shahar” aynan nikoh konseptining ahamiyatini aks ettiradi.

Insoniyat mavjudligi tahdid ostida qolgan bir paytda, Zona Uch va To‘rt hukmdorlari – El-It va Ben-Ata – bir-biriga uylanish buyrug‘ini oladilar. Bu nikoh faqat inson munosabatlari darajasida qolmasligi, balki hukmdorlar va ular boshqaradigan sohalar uchun ham o‘zgarishlar olib kelishi kerak edi.Bu nikohdan so‘ng, hukmdorlar Zona Besh qirolichasi – Vasha bilan Ben-Ata o‘rtasidagi yangi nikohni tashkil etishni buyuradilar. Har bir Zona o‘ziga xos energiyaga ega bo‘lib, u boshqa zonalarni to‘ldirib va quvvatlantirib turadi. Bu energiya hukmdorlar o‘rtasida ijtimoiy o‘zaro aloqalar paydo bo‘lganda ishga tushadi.Lekin aynan El-It yangi ma’naviy o‘lchamning boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi. Buni voqealarni kuzatib boruvchi Lyusik ta’riflaydi va u romanning asosiy g‘oyalaridan birini shakllantiradi. Zona Uchning odamlari o‘z qirolichasining harakatlarini tushunishi kerak, chunki ular ijtimoiy inqiroz yoqasiga kelib qolgan.Ular bu haqda bilishmaydi, lekin bu inqiroz Zonaning boshqa hududlardan ajralib qolgani sababli yanada kuchayadi. Hukmdorlar nikoh tuzish orqali barcha zonalardagi inqirozni yengish va ularning taraqqiyotini ta’minlashga harakat qiladilar. Ketrin Fishbern bunday yozadi: “El-It va Ben-Ata – butunlay boshqa hayot tarzi va qarashlarga ega bo‘lgan shaxslar.Ular zonalar o‘rtasida ijtimoiy va intellektual aloqa o‘rnatish vazifasini bajarishlari kerak” Shu bilan, Lessingning romanida nikoh nafaqat shaxsiy munosabatlar tizimi, balki ijtimoiy rivojlanish, madaniy o‘zgarishlar va inson kamoloti uchun asosiy vosita sifatida ko‘rsatiladi.Roman, avvalo, insonning nikohini ma’no mohiyatini tahlil qiladi.Asarning ilk sahifasidan avtor nikohni eng chuqur ma’noda o‘zgarishlar sifatida tasvirlaydi. O‘z harakatlari yoki ularning yo‘qligiga mas’uliyatni olish El-It va Ben Ataga yuklangan va ularni turmush qurish buyrug‘i ularga qo‘yilgan vazifa edi. El-It, To‘rtinchi zona askarlari bilan birga o‘zining tinch Zona Uchdan o‘tganda, xalqning vakillari bilan doimiy uchrashib, birinchi marotaba o‘zining kamchiliklarini ko‘ra boshlaydi:

“Now Al-Ith had returned to her former self, unlike the past several weeks.She realized that, by indulging in sorrow in her room, she had neglected many important duties!”- “Endi El-It yana o‘zining avvalgi holatini tikladi, oldingi bir necha haftalardagiday emas.U, o‘z-o‘ziga g‘am-xo‘rlik qilganida ko‘p muhim vazifalarni e’tiborsiz qoldirganini tushunib yetdi!” [2, 7; 2].El-It Ben Ataga chegaralarni yengishga yordam berishga majbur, shundoq qilib u o‘zini va odamlarning yaxshi yaratilishini yuqori darajaga otadi.Bu bilan, u Zona Uchning rivojlanish yo‘llarini va hayot darajasini o‘rganadi, ular esa uning o‘zidan ko‘ra ancha yuqori.U yangi hayot yo‘llarini tushunib, farzandi orqali otalik san’atini o‘rganadi, shuningdek, o‘z navbatda Zona Uchga yangi energiya kiritadi.Ularning munosabatlari o‘tganga nisbatan o‘zgarishlar keltiradi.El-It va Ben Ata Zonalardagi o‘zgarishlarning tirik ramzlari bo‘lib, shu tariqa ularning nikohi barcha keyingi o‘zgarishlarning eng yorqin ramziga aylanadi. Bu fikr borasida S. A. Askoldov-Aleksevning ta’riflari bilan to‘g‘ri keladi, u “so‘z” ni, san’atda u ichki organik bog‘lanishga ega bo‘lgan ramz sifatida tushuntirgan.Shunday qilib, nikoh har ikki er-xotinga ta’sir etib, ularni insonparvarlikka, inson tabiatiga xos yuqori jihatlarga qaytishga undaydi. Ben Ata va El-It nikohga qadar insonlarni bog‘lab turuvchi his-tuyg‘ular - tenglikni tan olish, rahm-shafqat, boshqalarga e’tibor kabi tuyg‘ularni yo‘qotishgan.Hatto boshqalarning hayot tarzi ular uchun muhim bo‘lmagan. Ammo inson tabiatiga qaytish ularda o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi: bir-birini qadrlash, muhabbat, g‘amxo‘rlik va boshqa turdagi hayotga qiziqish paydo bo‘ladi.Shunday qilib, Lessing geroini nikoh orqali o‘zini qanday anglab borayotganini namoyon etadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, D. Lessingning “Zona Uch, To‘rt va Besh orasidagi nikohlar” romanidan “nikoh” konsepti alohida badiiy va falsafiy qimmatga ega bo‘lib, u quyidagi ma’no va funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

1. Nikoh muallif tomonidan jamiyatning eng muhim ijtimoiy asoslaridan biri sifatida ko‘rsatiladi:u orqali er va xotinning dunyoqarashlari shakllanadi va rivojlanadi.
2. U hayotni davom ettirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi hamda er-xotin, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga

asoslanadi.

Har bir missiya to‘g‘ri hal qilinganda, guruhlarga “Hujayra qahramonlari” yorliqlari beriladi.

Dars yakunida eng ko‘p yorliq to‘plagan guruh “Hujayraning qahramonlari” deb e’lon qilinadi.

Multisensor o‘qitish – o‘quv jarayonida bir necha sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, sezish, hid bilish va ta’m bilish) orqali bilimlarni qabul qilishga asoslangan uslubdir. Ushbu metod nevrologik tadqiqotlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning axborotni yaxshiroq eslab qolishiga va chuqur tushunishiga yordam beradi. Ushbu yondashuv asosida “5-4-3-2-1” metodini qo‘llashimiz mumkin.

“5-4-3-2-1” Metodi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim va tafakkurini faollashtirishga xizmat qiluvchi muhim strategiyalardan biridir. Ushbu metod ayniqsa, biologiya fanida, murakkab tushunchalarni oson o‘zlashtirish va tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Tabiatni his qilish va sezgi organlari” mavzusi orqali ushbu metodni yoritamiz.

O‘quvchilar sinf xonasida yoki ochiq tabiatda bo‘lishadi.

Ularga:

5 xil tirik organizm yoki biologik obyektni sanang, Atrofga yaxshilab qarang, deyiladi.

Masalan: daraxt, qush, hasharot, mox, gul yoki suv tomchilari.

Har bir o‘quvchi ko‘rganini yozib oladi yoki tasvirlab beradi.

4 xil tovushni ajratadi – o‘quvchilar atrof-muhitni tinglaydi

Masalan: qush sayrashi, shamol shovullashi, barg shitirlashi, ari g‘uvillashi.

Keyin ular eshitgan tovushlarning qaysi jonivorga yoki tabiiy hodisaga tegishli ekanini muhokama qilishadi.

3 ta narsaga qo‘lingiz bilan teging.

O‘quvchilar o‘zlari tanlagan 3 xil obyektni qo‘llari bilan his qilishadi.

Masalan: daraxt po‘stlog‘i, gul barglari, ho‘l tuproq yoki silliq tosh.

Bu orqali ularning sezgi organlari (terisi) qanday axborot olishini tushuntirish mumkin.

2 ta hidni sezing.

O‘quvchilar atrofdagi 2 xil hidni aniqlashadi.

Masalan: gul hidini yoki ho‘l tuproq hidini.

Ustoz ularning hidlarni qanday ajratishini tushuntirib, hid sezish organlari haqida gapiradi.

1 ta ta’mni eslang.

O‘quvchilar yaqinda yegan biror narsani eslab, uning ta’mini qayta tasavvur qilishadi.

Masalan: shirin meva, nordon limon yoki sho‘r suv.

Bu orqali ta’m bilish retseptorlari qanday ishlashi tushuntiriladi.

Darsdan keyingi muhokama.

O‘quvchilar o‘z tajribalarini bo‘lishib, his qilgan narsalarini birgalikda muhokama qilishadi.

Ustoz darsni quyidagi savollar bilan yakunlaydi:

Eng qiziq sezgi qaysi bo‘ldi? Nega?

Bizning sezgi organlarimiz atrof-muhitni tushunishda qanday yordam beradi?

Agar bizning sezgi organlarimizdan biri ishlamasa, qanday qiyinchiliklarga duch kelamiz?

Xulosa. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nevrologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, miya minimal disfunksiyasi (MMD) va vegetativ qon-tomir distoniyasi (VQTD) kabi muammolar o‘quvchilarning e’tibor, xotira va umumiy o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada biologiya ta’limida neyrodidaktik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilib, ularning o‘quvchilarning aqliy va fiziologik rivojlanishiga ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, multisensor o‘qitish, o‘yinli ta’lim, mindfulness va metakognitiv strategiyalar kabi metodlar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, stressni kamaytirish va o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa, biologiya darslarida ushbu metodlarni qo‘llash orqali nafaqat fan mazmunini chuqurroq anglash, balki o‘quvchilarning sog‘lom psixologik va fiziologik holatini qo‘llab-quvvatlash ham mumkin.

Shunday qilib, neyrodidaktik yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning kognitiv va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda ushbu metodlarni keng miqyosda tadqiq etish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. I Sog‘lom tafakkurning rivojlanish komponentlari. Pedagogika ilmiy nazariy metodik jurnal. – Toshkent. 03.2023-y. ISNN 1076-1077.

2. Duschanova Nilufar Sabirbayevna. NEYROPEDAGOGIKA ORQALI TA’LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. – Toshkent. 2024-yil.

3. D.A.Маматқулов, С.А Абидова, М.И.Абдуллаева, С. Н. Чигр. “Возрастная физиология и школьная гигиена”.Ташкентский педагогический университет имени Низами, Белорусский государственный педагогический университет имени Максима Танка. Учебное пособие. – Ташкент. 2021

4. Abdullayeva. M. I., and Bahriyeva G. N. “Boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlarni o‘qitishda sinfdan tashqari ishlar”. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences 3.29 (2024): 307-313.

5. Абдуллаева. М. И., and Г. Н. Бахриева. “РАЗВИТИЕ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ”. Modern Science and Research 4.2 (2025): 294-296.

Saida TURSUNOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
saidatursunova@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodikalarning takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish ularni mustaqil fikrlashga, savol berishga va muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi. Tadqiqotda, turli metodikalar, ularning samaradorligi va amaliy qo‘llanilishi misollar bilan ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, metodika, ta’lim jarayoni, innovatsion pedagogika, ta’lim metodlari, o‘quvchilarning fikrlash faoliyati, samarali o‘qitish.*

Аннотация: в статье рассматриваются пути совершенствования методов, используемых в развитии логического мышления учащихся младших классов. Развитие навыков логического мышления учащихся, позволяющих им мыслить независимо, задавать вопросы и решать проблемы. В исследовании на примерах показаны различные методы, их эффективность и практическое применение.

Ключевые слова: *логическое мышление, начальная школа, методика, учебный процесс, инновационная педагогика, методы обучения, мыслительная деятельность учащихся, эффективное обучение.*

Annotation: the article examines ways to improve the methods used to develop logical thinking in primary school students. The formation of students’ logical thinking skills leads them to independent thinking, asking questions and solving problems. The study shows various methods, their effectiveness and practical application with examples.

Key words: *logical thinking, primary school, methodology, educational process, innovative pedagogy, educational methods, students’ thinking activity, effective teaching.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun muhim vositadir. Mantiqiy fikrlash – bu insonning o‘z fikrlarini aniq, lo‘nda va asosli tarzda izohlash va tahlil qilish qobiliyatidir.

Mantiqiy masalalar va topshiriqlar: O‘quvchilarga mantiqiy masalalar va topshiriqlar berish, ularning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Guruh ishlari: O‘quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashlari va guruhda muhokama qilishlari, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Problematik ta’lim: Masalalarni muhokama qilish va ularni yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Interaktiv metodlar: O‘yinlar, rolli o‘yinlar va boshqa interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish.

Muhokama. Mantiqiy fikrlashni shakllantirishning metodik jihatlari bo‘yicha olingan natijalar o‘quvchilarning o‘qish va mantiqiy fikrlash faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Mantiqiy masalalar va topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini tizimli va aniq bayon qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, guruh ishlari va muhokama metodlari o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va jamoaviy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Interaktiv metodlar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar keltiraman. Bu metodika nafaqat o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, balki ularning umumiy aqliy va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu metodikaning samaradorligini oshirish uchun turli usullar va yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin.

1. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlar

1.1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Tanqidiy fikrlash – bu o‘quvchilarni ma’lumotni tahlil qilish, uni baholash, qaror qabul qilish va ehtimoliy natijalarni oldindan ko‘rish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikadir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

Argumentatsiya va dalillar keltirish: O‘quvchilarga mantiqiy va asosli fikrlarni ifodalashni o‘rgatish. Masalan, biror muammo bo‘yicha o‘quvchilarga argumentlar keltirish va qaror qabul qilishda yordam berish.

Fikrlashning strukturasi: O‘quvchilarga fikrni tartibli ravishda ifodalashni o‘rgatish. Misol uchun, “nima uchun?”, “qanday qilib?” kabi savollarni qo‘llash orqali mantiqiy izlanishlar qilish.

1.2. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish

Ijodiy fikrlash metodikasi o‘quvchilarning yangi

g‘oyalar yaratish, muammolarni o‘ziga xos tarzda hal qilish va yangi qarashlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga quyidagi yondashuvlar kiradi:

“Divergent thinking” (kengaytirilgan fikrlash): O‘quvchilarga bir muammo yoki vaziyatni turli nuqtayi nazardan ko‘rish imkoniyatini berish. Masalan, “Agar bizga bu masalani yechish uchun yangi resurslar berilsa, qanday yo‘llarni tanlashimiz mumkin?” kabi savollar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Rolli o‘yinlar va tasavvurlar: O‘quvchilarga rollarini o‘zgartirib o‘ynash, muammolarni kreativ yondashuvlar bilan yechishga undaydi. [1].

1.3. Problematik o‘qitish metodikasi

Problematik o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish uchun samarali yondashuvdir. Ushbu metodikada o‘quvchilarga qiyin, lekin mumkin bo‘lgan masalalar taqdim etiladi, ular bu masalalarni o‘zlari yechishga harakat qilishadi. Masalalar o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga mos ravishda turlicha bo‘lishi mumkin:

Real hayotdan olingan masalalar: O‘quvchilarga hayotiy masalalarni taqdim etish, bu ularga o‘zgacha qarashni o‘rgatadi va mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiradi. [5].

2. Mantiqiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar

Innovatsion pedagogik texnologiyalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

2.1. Elektron ta’lim resurslari. Interaktiv o‘yinlar, dasturlar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. Masalan, mantiqiy masalalar va testlar, o‘quvchilarni savollarni tahlil qilishga undaydi. Yaxshi ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustahkamlash va sinovlardan o‘tish imkoniyatini beradi. [6].

2.2. Blended learning (aralash ta’lim) metodikasi.

Blended learning metodikasi o‘qitishning an’anaviy usullari va raqamli ta’lim vositalarini uyg‘unlashtiradi. Bu metodika o‘quvchilarga mustaqil ishlash imkonini beradigan va o‘qituvchilarga yanada samarali ‘quv jarayonini tashkil etishga yordam beradigan texnologiya vositalaridan foydalanishni ta’minlaydi. Misol uchun, o‘quvchilar onlayn platformalarda mantiqiy masalalarni yechib, keyin esa o‘qituvchi bilan yuzma-yuz muhokama qilishlari mumkin.

2.3. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) metodikasi. Gamifikatsiya ta’lim jarayonini o‘yin formatida o‘zgartirishga asoslangan metodikadir. O‘quvchilarga o‘yinlar orqali mantiqiy masalalarni yechish topshirig‘ini berish, ularning diqqatini jalb qilish va fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. [4].

3. Amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar.

3.1. Guruhli ishlar va munozaralar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun guruhli ishlar va munozaralar juda foydali metodlardir. Bu metodlar o‘quvchilarga bir-birlariga savollar berishga, fikrlarini asoslashga va ularni mantiqiy ravishda ifodalashga imkon beradi.

3.2. Mantiqiy masalalar va topshiriqlar. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarga diqqatni jamlash, mantiqiy aloqalarni izlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishni o‘rgatadi.

3.3. Interaktiv sinf faoliyatlari. Interaktiv faoliyatlar (masalan, “guruhda masala yechish”, “iqtisodiy simulyatsiyalar”) o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar guruhda ishlash orqali mantiqiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar va bir-birining fikriga quloq solishni o‘rganadilar. [3].

Natijalar. Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko‘ra, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvi, mashg‘ulotlarning xilma-xilligi va metodikalarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarni qo‘llash, ayniqsa, boshlang‘ich sinfda o‘qishning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, masalan, interaktiv metodlar, guruh ishlari va mantiqiy masalalar yechish, samarali vositalardan biridir. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ularni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. Bu esa ularning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojaniyozov, F. (2018). *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: O‘qituvchi.

2. Tursunova, M. (2020). *Boshlang‘ich sinfda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari*. – Samarqand: Universitet nashr.

3. Mustafayev, A. (2019). *Innovatsion pedagogika: Nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan.

4. Abduqodirov, R. (2021). *O‘qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar*. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

5. S.I.Tursunova The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. – Eurasian Research Bulletin, 2022.

6. S.I.Tursunova Pedagogical bases of nationalization of school education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3 (02), 456–461.

Shahodat RAXIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘QUVCHILARNING RIVOJLANISH DARAJALARINI TASHXISLASH-BAHOLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Annotatsiya: ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda o`quvchilarning rivojlanish darajalarini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Maqolada ta’lim jarayonining borishi, diagnostika, nazorat, bosqichlar, baholash va muhim natijalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik diagnostika, monitoring, ta’lim tizimi, bo‘lajak o‘qituvchi, natijalar sifati, samaradorlik.*

Аннотация: статья посвящена специфике процесса педагогической диагностики и мониторинга уровня развития учащихся будущих учителей. В статье рассматривается ход образовательного процесса, диагностика, контроль, этапы, оценка и важные результаты.

Ключевые слова: *педагогическая диагностика, мониторинг, система образования, будущий учитель, качество результатов, эффективность.*

Annotation: this article is devoted to the specifics of the process of pedagogical diagnostics and monitoring of students’ development levels in future teachers. The article discusses the course of the educational process, diagnostics, control, stages, evaluation and important results.

Key words: *pedagogical diagnostics, monitoring, education system, future teacher, quality of results, efficiency.*

Kirish. Pedagogika ensiklopediyasida “**diagnostika (tashxislash)** – (yunoncha diagnostikos – aniqlashga qodir) – ta’lim tizimida o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyatining muayyan qirrasini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish jarayoni”[2] tarzida talqin qilingan.

Diagnostika pedagogikaning bo‘limi bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligi, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratlari, ta’lim oluvchilarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o‘rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi.

Pedagogik tashxislash – o‘qituvchilarning faoliyat tizimi bo‘lib, u o‘quv jarayoni holati va natijalarini tekshirishdan iborat. Diagnostika o‘quv jarayonini korreksiyalash imkonini beradi. Korreksiyalashdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad esa o‘quv jarayoni sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishdan iborat. Diagnostika ta’limiy faoliyatning tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quv jarayonini samarali boshqarishga yo‘naltirilgan.

Asosiy qism. Diagnostika jarayonida natijalar aniqlanadi. Diagnostika o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ta’lim jarayonining borishini nazorat qilish, baholash, ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, yangi yutuqlarga erishish usullarini aniqlashga xizmat qiladi.

Diagnostika jarayonining muhim bosqichi nazorat, o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish darajalari, bilim, ko‘nikma va malakalarini kuzatish hisoblanadi. Nazorat o‘quvchilar faoliyatining o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. O‘quv maqsadlariga erishishni nazarda tutgan holda samarali metodlarni qo‘llash jarayoni ham nazorat qilinadi. Nazorat bir necha turlarga bo‘linadi. Chunonchi, oldindan nazorat qilish, oraliq nazorat, mavzu doirasidagi nazorat, davriy nazorat, yakuniy nazorat kabilar. Nazorat turli shakllarda amalga oshiriladi: yakka tartibda, guruhli va yoppasiga amalga oshiriladigan nazorat kabilar.

Nazoratning turli metodlaridan foydalangan holda pedagogik diagnostika shaxs tarkibi va uning o‘ziga xos jihatlarini samarali o‘rganish imkonini beradi. Shaxsning intellektual, ijodiy layoqatlari, xotirasining ko‘lami, diqqatining rivojlanganlik darajasi kabilar.

Tadqiqotchi I.M.Rasulov[3]ning e’tirof etishicha, “diagnostika” (“tashxislash”) tushunchasi “ilk marotaba tibbiyotda qadimgi Yunonistonda qo‘llanilgan. Qadimgi yunonlar muvaffaqiyatli davolash uchun kasallik va uning sabablarini to‘g‘ri anglash, bemor organizmi xususiyatlari, kasallikning kechishi tavsifidan xabardor bo‘lish, turli davo vositalarining ta’sirini bilish va shu sababli kasallikni davolashdan ko‘ra unga to‘g‘ri tashxis qo‘yish muhim ekanligini anglashgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar, subyektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda “diagnostika” tushunchasi turli (texnika, iqtisodiyot, psixologiya) sohalarda ham qo‘llanila boshlandi. Ayni vaqtda rivojlangan xorijiy davlatlarning ta’lim amaliyotida psixologik diagnostika bilan birga pedagogik diagnostika asoslaridan samarali foydalanilmoqda.

“Pedagogik diagnostika” nisbatan yosh fan bo‘lib, jahon ta’limi amaliyotida o‘zining mustaqil

o‘rniga ega bo‘lganiga hali unchalik ko‘p vaqt bo‘lmadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida esa mazkur fanning o‘quv fani sifatida o‘qitilishi borasida dastlabki tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, biroq o‘qituvchilar “Pedagogik diagnostika”ning barcha imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha boy amaliy tajribalarga ega emaslar. Shu bois ayni vaqtda respublikamiz ta’lim muassasalarida fan imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilar professional tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan “Pedagogik diagnostika”ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o‘rni bor. Chunki aynan Karlxayns Ingenkamp 1968-yilda ta’lim sohasida “pedagogik diagnostika” tushunchasini qo‘llash g‘oyasini ilgari surgan[4; 16-17-b.]. U “pedagogik diagnostika” atamasini tibbiy diagnostika bilan taqqoslash orqali taklif qilgan.

Pedagogik tashxis – aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat bo‘yicha o‘rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi.

“Pedagogik tashxis” tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha ta’riflanadi.

O.Y.Permyakovning fikricha, pedagogik tizimning turli elementlari holati va (uning barcha bosqichlarida) bashorat qilish, normal rivojlanish tendensiyalarining buzilishini bartaraf etish uchun ularni amalga oshirish sharoitlarini tavsiflovchi belgilarini aniqlash va o‘rganish[5; 32-33-b.]; V.S.Avanesov esa ta’lim va tarbiya natijasini baholashda shaxsning ma’lum bir xususiyatlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan pedagog va pedagogik jamoalarning o‘ziga xos faoliyatining tizimi tarzida talqin qilgan.

M.A.Innazarovning ta’kidlashicha, maqsad, vazifa, tashxis shakllari, metodlari, vosita yoki jihozlari, tashxisni amalga oshiruvchining ma’lumoti, malaka darajasi, ish tajribasi, tashxis mezonlari va ko‘rsatkichlari, tashxis bosqichlari, tashxis natijalari, korreksiyalovchi metodika pedagogik tashxisning muhim asoslari bo‘lib, har qanday vaziyatda ham ular yaxlit holda inobatga olinishi zarur[6; 37-b.].

Pedagogik tashxislash va monitoring o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki maqsadga erishishga xizmat qiladi: 1) o‘qituvchining kasbiy darajasini o‘rganuvchi metod, vositalarning tizimi sifatida kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni o‘rganish, ularni bartaraf etishning samarali yo‘llarini izlash zaruriyatini anglash;

2) pedagogik faoliyatni tashkil etishning individual uslubiga ko‘ra, o‘qituvchining professional kuchli tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash hamda rivojlantirishning aniq yo‘llari va vositalarini aniqlash.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish orqali ular faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirish mumkin. Pedagogik tashxislash va monitoringning asosiy maqsadini ta’lim-tarbiya jarayonini korreksiyalash uchun tashxis obyekti (pedagogning ma’lum sifati, kasbiy malakasi, kompetensiyasi, o‘zlashtirish darajasi, tajribasi)ni belgilovchi real ko‘rsatkich va o‘zgarish an’analari to‘g‘risidagi tezkor axborotga ega bo‘lish tashkil etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash hamda monitoring qilishdan olingan tahlil natijalari oliy ta’lim muassasalarida makro va mikrosotsiumida yuzaga kelgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vaziyatni o‘zgartirish ko‘rinishida tezkor ta’sir etishni ko‘zda tutadi. O‘quv jarayonini doimiy monitoring o‘tkazib kuzatib borish natijasida ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga ta’limning umumiy strategiyasini saqlagan holda talabalar bilimini bir martalik baholashdan farqli amalga oshiradi.

Pedagogik tashxislash va monitoring ijtimoiy boshqaruv nazariyasida boshqaruv siklining eng muhim, nisbatan mustaqil bo‘g‘inlaridan biri sifatida qaraladi. Monitoring boshqaruvning real omiliga aylanishi uchun, u faoliyatning ma’lum tizimi sifatida tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Monitoringni tashkil qilish, monitoringning shakl, tur va usullarining mukammal birikuvini muayyan o‘quv-pedagogik jarayon xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash va tanlash bilan bog‘liq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish uchun oliy ta’lim muassasalarida ayrim muammolarni bartaraf etish zarur:

bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining yetarlicha anglab yetilmaganligi;

professional tayyorgarlik negizida terminologik apparatni tizimlashtirish va umumlashtirish zarurligi;

bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish uchun muayyan sharoitlarning mavjud emasligi;

respublikada bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish tizimini tashkil etishga obyektiv ehtiyojlari bilan uning nazariy qurilmasi mavjud emasligi o‘rtasidagi muammolar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini maqsadga muvofiq tarzda pedagogik tashxislash va monitoring qilish uchun talabalar ta’limga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

Monitoring ijtimoiy taraqqiyotni faollashtirishda muhim omil sanalganligi bois, uni ijtimoiy sohaning turli jabhalariga faol va keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, monitoring o‘z-o‘zini boshqarish organlarida aholini maqsadli ijtimoiy himoyalash, oilada

farzand tarbiyasi, ta’lim tizimida o‘zlashtirish holati va darajasini aniqlash kabi ishlarni optimallashtirishda muhim vazifani bajaradi.

Pedagogik tashxislash va monitoring ahvolni o‘rganish, yaxshilash choralarini aniqlash, samaradorlikni oshirish yuzasidan tavsiyalar berish, istiqbol rejalari uchun takliflar berish kabi maqsadlarda qo‘llaniladi.

Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish me’yoriy-huquqiy, o‘quv-metodik, hisobot va o‘zlashtirish, pedagogik amaliyot natijalarini o‘rganish yo‘nalishlarida olib boriladi. Shundan kelib chiqib bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish tizimi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

informatsion, ya’ni monitoring obyekti holatini nazorat nuqtalari va yakuniy natijalari bilan belgilangan muddatlarda (monitoring jadvali va dasturi asosida) diagnostik - istiqbolli kuzatuv;

tashkiliy – faoliyatli, ya’ni ta’lim maqsadlari va ularni amalga oshirish vositalari, bajarayotgan vazifalarni korreksiya qilish yoki pedagogik tizimlarni keyinchalik rivojlanishi istiqbollarini belgilashning optimal yo‘lini tanlash bo‘yicha davriy ravishda maqsadli yig‘ish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tahlil qilish;

istiqbolli – pedagogik tizimlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning keyinchalik rivojlanishini qisqa muddatli istiqbolini belgilash;

nazoratlovchi – baholovchi – amalga oshirilgan pedagogik harakat samaradorligini va pedagogik tizimning yakuniy maqsadlariga to‘liq erishishni nazorat qilish hamda baholash.

Amaliy jihatdan shu narsa aniqki, pedagogik tashxis va olib borilgan monitoring qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligidan qat’i nazar obyektiv xarakterga ega bo‘lishi kerak. O‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan egallangan professional tayyorgarlik darajasi hamda ularga taqdim etilgan o‘quv materiallarining hajmi orasidagi mutanosiblikni aniqlash pedagogik tashxislash va monitoring obyektivligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishning izchilligi – pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida tashxislashga asoslangan nazoratning amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon kasbga xos bilimlarni dastlabki idrok etishdan boshlab, uni amalda qo‘llashgacha bo‘lgan xatti-harakatlarni qamrab oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishning tizimliligi auditoriya va auditoriyadan tashqari hamda pedagogik amaliyot jarayonidagi uzluksiz harakatlarini tashxislash va nazorat qilishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishning ko‘rgazmaliligi – barcha ta’lim oluvchilarni yagona mezon asosida ochiq tarzda sinovdan o‘tkazishni taqozo etadi. Har bir ta’lim oluvchining tashxislash jarayonida aniqlangan reytingi ko‘rgazmalilik, ochiqlik xarakteriga ega bo‘lib, talabalarning kasbga xos ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajalarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishning ochiqligi. Ushbu prinsip o‘quv jarayoni natijalarini dalillar yordamida asoslanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va munozara. Xulosa qilib aytganda bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik monitoring qilish jarayoni quyidagilarga bog‘liq: bo‘lajak o‘qituvchining optimal psixik zo‘riqishlarga chidamliligiga; o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini nazorat qila olish malakasini egallaganligiga; pedagogning iroda sohasi va uning “Men” konsepsiyasiga; yechilayotgan masala va o‘quvchi hamda o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari bilan aniqlanuvchi optimal pedagogik holatga.

Shunga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini tashxislash va pedagogik monitoring qilish ularning potensialiga tayangan holda malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning asosiy shartlaridan bir ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-tom. / Tahrir hay’ati: M.Aminov va boshqalar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 283-bet.

2. Pedagogika: ensiklopediya. I jild. jamoa // – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 320-bet.

3. Rasulov I.M. Ta’lim jarayonida pedagogik tashxis tamoyillarini qo‘llash//https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-pedagogik-tashhis-tamoyillarini-llash

4. Dudina M.M., Xamatnurov F.T. Psixologik-pedagogik diagnostika asoslari / Darslik. – Yekaterinburg: Rossiya davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2016. 190 p. 16-17-betlar.

5. Permyakov O.E., Menkova S.V. Kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish diagnostikasi. – M .: FIRO, 2010. - 114 p. 32-33-betlar.

6. Innazarov M.A. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida). Ped.f.b.f.d. (PhD) diss. 176-bet. 37-bet.

Iroda NURMATOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, (PhD)
irodanur@inbox.ru

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA TAYYORLASH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida katta yoshdagi bolalarni 9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorlash jarayonining mazmuni, maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish, tarixiy xotirani shakllantirish, jasorat, fidoyilik kabi insoniy fazilatlarni singdirish masalalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, bayram oldidan olib boriladigan tayyorgarlik ishlari, tematik suhbatlar, dramatizatsiyalashgan chiqishlar, ijodiy topshiriqlar va ota-onalar bilan hamkorlikdagi tadbirlar orqali bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur mashg‘ulotlar orqali bolalarda tarixga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat hissini shakllantirish yo‘nalishidagi pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Xotira va qadrlash kuni, maktabgacha ta’lim, vatanparvarlik tarbiyasi, tarixiy xotira, tarbiyaviy mashg‘ulot, dramatizatsiya, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: в данной статье будет освещено содержание, цель и воспитательное значение процесса подготовки детей старшего возраста в дошкольных учреждениях к 9 Мая-Дню памяти и признательности. Важное место в организации занятий занимают вопросы воспитания у детей патриотических чувств, формирования исторической памяти, привития таких человеческих качеств, как мужество, самоотверженность. Также анализируются пути положительного влияния на социально-эмоциональное развитие детей посредством подготовительной работы, проводимой перед праздником, тематических бесед, драматизированных представлений, творческих заданий и совместных с родителями мероприятий. В статье рассматриваются педагогические подходы, направленные на формирование у детей чувства уважения к истории и приверженности национальным ценностям посредством этих занятий.

Ключевые слова: *день памяти и признательности, дошкольное образование, патриотическое воспитание, историческая память, воспитательная деятельность, драматизация, национальные ценности.*

Annotation: this article will cover the content, purpose and educational significance of the process of preparing older children in preschool educational institutions for May 9-day of memory and appreciation. In the organization of training, the issues of arousing patriotic feelings in children, the formation of historical memory, the absorption of human qualities such as courage, dedication play an important role. It also analyzes ways to positively influence the socio-emotional development of children through pre-holiday preparatory work, thematic conversations, dramatized performances, creative assignments and collaborative activities with parents. The article examines pedagogical approaches to the formation of a sense of respect for history and loyalty to national values in children through these activities.

Key words: *day of memory and appreciation, preschool education, patriotic education, historical memory, educational training, dramatization, national values.*

Yosh avlod qalbida vatanga muhabbat, xalqimiz tarixiga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish bugungi ta’lim-tarbiya tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar orqali bolalarni o‘z xalqining boy o‘tmishi, jasur ajdodlari xotirasi bilan tanishtirish, ularda faxr, hurmat va minnatdorchilik tuyg‘ularini uyg‘otish katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh — bolalar shaxsiyati, hissiy-ijtimoiy olami shakllanadigan poydevor davridir. Shu sababli bu bosqichda tarixiy xotirani asrash, vatanparvarlik ruhini singdirish bo‘yicha to‘g‘ri yondashuvlar orqali bolalarga milliy o‘zlik, fuqarolik pozitsiyasi, o‘z yurti bilan faxrlanish hissi berilishi zarur. Bu borada Xotira va qadrlash kuniga tayyorlov mashg’ulotlari mas’ul pedagoglar uchun muhim tarbiyaviy vositaga aylanadi.

Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tematik suhbatlar, dramatik chiqishlar, o‘yinli mashg‘ulotlar, sahna ko‘rinishlari va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlar bolalarning estetik, ijtimoiy va axloqiy tarbiyasini samarali yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Bu nafaqat bolalarning tarixiy bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning yuraklarida Vatanga sadoqat va o‘z xalqiga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlashga ko’maklashadi. Shu jihatdan, maktabgacha ta’lim muassasalarida xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik doirasida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarni samarali, mazmunli va yoshga mos tarzda tashkil etish — nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ham ega. Bundan kelib chiqib, quyidagi metodlardan unumli foydalanishning samaradorligi bayon qilindi:

Dramatizatsiya (sahnalashtirish) usulining mazmuni quyidagicha: Bolalar kichik sahna ko‘rinishlari, tarixiy

voqealarni tasvirlovchi epizodlar, badiiy asarlar asosida tuzilgan sahnalarni ijro etadi. Masalan, “Ona kutgan maktub”, “Faxrli bobom xotirasi”, “Gul tutgan bola” kabi sahnalashtirilgan chiqishlar. **Tarbiyaviy ahamiyati esa:**

Bola o‘z obrazini his etadi, ma’noni anglashga harakat qiladi.

O‘zini tarixiy voqea ishtirokchisi sifatida tasavvur qiladi.

Empatiya (boshqalar tuyg‘usini his qilish) va vatanparvarlik tuyg‘ulari kuchayadi.

Mazkur metoddan foydalanish orqali: 1) bola darsdan tashqari faoliyatga ishtiyoq bilan jalb etiladi; 2) nutqi, his-tuyg‘usi, jamoaviy ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi; 3) tadbirga ishtirok etgani uchun faxrlanish tuyg‘usi paydo bo’lishi kabi amaliy natijalarga erishiladi.

2. Ijodiy ifoda va vizual metodlar (rasm chizish, kollaj, xotira stendlari) mazmuni: bolalar o‘z hissiyotlarini rasm orqali ifoda etadi — “Men tinchlik istayman”, “Mening bobom – qahramon”, “Xotira bog‘i” mavzularida rasm chizish, maket tayyorlash, devoriy gazeta qilish.

Bu metod ham o‘z navbatida **tarbiyaviy ahamiyatga** ega:

Bola tarixiy mavzuni o‘z tasavvuri orqali qabul qiladi.

Tinchlik, jasorat, do‘stlik, ezgulik kabi tushunchalarni ichki sezgi bilan anglaydi.

Estetik tarbiya bilan birga ma’naviy tarbiya ham amalga oshadi.

Metodni qo‘llash orqali erishiladigan amaliy natijalar:

Bolalar o‘z fikrini vizual tarzda bayon qilishga o‘rganadi.

Xotira va qadrlash tushunchasini yuragiga yaqin oladi.

Rasmlar orqali darsdan keyingi ko‘rgazmalar tashkil etish mumkin, bu esa bolani rag‘batlantiradi.

3. She’r, qo‘shiq va hikoya aytish usuli mazmuni: bolalar tarixiy mavzudagi she’rlar, ona yurt, tinchlik, qahramonlik haqida qo‘shiqlar aytadi yoki ularga oddiy, bolalar uchun moslashgan hikoyalar so‘zlab beriladi.

Masalan:

“Ona yurtingni sevgin, bola!” she’ri;

“Vatan — mening onam!” qo‘shig‘i;

Osonlashtirilgan tarixiy hikoya: “Bolalikdagi qahramon bola haqida”.

Bu metoddan mashg‘ulotlarda foydalanish orqali:

Bolalar yod olish, eslab qolish, ifodali aytish orqali estetik hamda aqliy jihatdan rivojlanadi;

Milliy qadriyatlar, ota-bobolarning jasorati haqida bilib boradi;

Vatan haqida so‘z aytish unga faxr keltiradi, o‘zligini anglash kuchayadi.

Shu bilan birga quyidagicha yuqori amaliy natijalarga erishiladi:

Tadbirda qatnashish orqali bolalar o‘zini e’tiborda his qiladi.

Yod olish, sahnada chiqish orqali o‘ziga ishonch ortadi.

Bunday chiqishlar ota-onalarda ham ijobiy taassurot qoldiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu metodlar orqali bola **tarixiy xotirani sezadi**, **milliy qadriyatlarni anglaydi**, **tadbirda faol va samimiy ishtirok etadi**. Eng asosiysi — ular bu kunning qadrini chuqur his qilgan holda, o‘zini bu tarixning bir parchasidek his eta boshlaydi.

Xotira va qadrlash kuni — bu nafaqat o‘tmish qahramonlarini yodga olish, balki yosh avlod qalbiga milliy g‘urur, vatanparvarlik va minnatdorchilik tuyg‘ularini singdirish uchun katta tarbiyaviy imkoniyatdir. Aynan maktabgacha katta yosh — bunday ezgu qadriyatlar poydevorini qo‘yish uchun eng nozik va samarali bosqich hisoblanadi. Shu sababli, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshiga mos, obrazli, hissiy va ijodiy faoliyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dramatizatsiya, ijodiy tasviriy faoliyat va badiiy ifoda usullari orqali bolalar o‘zini tarixiy voqealar ishtirokchisi sifatida tasavvur qila boshlaydi, yuragida tinchlikning qadriga yetish, Vatanga mehr tuyg‘usi mustahkamlanadi. Ushbu metodlar faqat bilim va ma’lumot berish bilan cheklanib qolmay, balki bolaning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, uni ruhiy-axloqiy tomondan boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlab tashkil etiladigan mashg‘ulotlar bolalarning ma’naviy dunyosini shakllantirish, ularni tarixiy ongli va vatanparvar ruhda tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Har bir pedagog ushbu imkoniyatdan to‘g‘ri va maqsadli foydalangan holda, kelajak avlod qalbiga ezgu qadriyatlar urug‘ini ekishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-dekabrdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–46-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. — Toshkent: MTTM, 2022.

4. Abdullayeva, A. “Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish”. — Toshkent, 2020.

5. MTT mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. — Toshkent: Maktabgacha ta’lim agentligi, 2022.

6. “Xotira va Qadrlash kuni”ga bag‘ishlangan tadbir ssenariylari to‘plami. — Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

7. Rasulova M. “Maktabgacha ta’limda estetik va ma’naviy tarbiya asoslari”. — Toshkent: Fan, 2018.

Dilafruz XODJAYEVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD.
d.i.xodjaeva@buxdu.uz
Mohinur BAHODIROVA,
Buxoro davlat universiteti magistranti
bakhodirovamokhinur931@gmail.com

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA PRINSIPIAL YONDASHUV: TASHXIS BOSQICHI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ingliz tilini o‘qitishda prinsipial yondashuv an’anaviy metodologik modelga tayanish o‘rniga, turli ta’lim usullarini integratsiyalashga asoslangan. Mazkur yondashuv til o‘rganish jarayonining nazariy asoslariga tayangan holda didaktik strategiyalar va pedagogik texnologiyalarni shakllantirishga urg‘u beradi. Tarixiy rivojlanish davomida til ta’limi metodlari lingvistik muhitning dinamik o‘zgarishlariga mos ravishda evolyutsiyalashgan bo‘lib, ayniqsa, 1980-yillarning oxirlariga kelib, empirik tadqiqotlar va pedagogik tajriba bilan boyitilgan integratsion model shakllangan. Ushbu yondashuv qat’iy normativ tamoyillarga asoslanmay, balki o‘qituvchilarning amaliy tajribasi va sohadagi ilmiy izlanishlar natijasida doimiy rivojlanib boradi. O‘qituvchi metodologik yondashuvi esa o‘quv jarayonining nazariy negizi sifatida namoyon bo‘lib, u o‘quvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish, samarali didaktik texnikalarni tatbiq etish hamda o‘quv natijalarini baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *yondashuv, prinsip, vaziyatga xos ehtiyojlar, til tabiati, til o‘qitish.*

Аннотация*:* принципиальный подход к обучению английскому языку основан на интеграции различных методик, что позволяет уйти от строгого следования постоянно меняющимся методам. Данный подход акцентирует внимание на разработке учебных задач и методик с учетом современных научных представлений о процессе изучения языка. Эволюция методов преподавания обусловлена динамическим характером языковой среды, и к концу 1980-х годов сформировался более интегративный подход, базирующийся на результатах научных исследований и эмпирическом опыте преподавания. В отличие от традиционных методологических моделей, данный подход не опирается на жестко закрепленные принципы, а трансформируется в соответствии с накоплением педагогического опыта и появлением новых научных данных. Методологическая стратегия преподавателя выступает в качестве теоретической основы образовательного процесса, определяя ключевые аспекты обучения: выявление потребностей учащихся, внедрение эффективных методик и оценку достигнутых результатов.

Ключевые слова*: подход, принцип, ситуативные потребности, природа языка, обучение языку.*

Annotation: the principled approach to English language teaching emphasizes the integration of diverse methodologies rather than adherence to continuously evolving methods. This approach underscores the significance of designing instructional tasks and techniques informed by contemporary insights into the language acquisition process. The evolution of teaching methodologies has been driven by the dynamic nature of the linguistic field, leading to the emergence of a more integrative paradigm by the late 1980s, grounded in empirical research and practical pedagogical experience. Unlike rigid methodological frameworks, this approach remains adaptive, evolving in response to accumulated teaching experience and advancements in linguistic research. The educator’s methodological stance serves as a theoretical foundation that structures classroom processes, facilitating the identification of learner needs, the implementation of effective instructional strategies, and the assessment of learning outcomes.

Key words: *approach, principle, situational needs, nature of language, language teaching.*

Til o‘qitishdagi prinsipial yondashuv an’anaviy tarzda doimiy o‘zgaruvchan metodlarga tayanish o‘rniga turli pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv til o‘rganish jarayoniga oid ilmiy bilimlarga asoslangan holda didaktik vazifalar va texnikalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Tarixiy jihatdan til o‘qitish metodlari lingvistik muhitning dinamik xususiyatlari tufayli tez-tez o‘zgarib kelgan. Ayniqsa, 1980-yillarning oxirlariga kelib, ilmiy tadqiqotlar va amaliy pedagogik tajriba asosida yanada integrallashgan yondashuv shakllangan. Mazkur yondashuv qat’iy belgilangan tamoyillarga asoslanmay, balki o‘qituvchilarning kasbiy tajribasi va sohadagi yangi ilmiy tadqiqotlar asosida doimiy rivojlanib boradi. O‘qituvchining metodologik yondashuvi esa ta’lim jarayonining nazariy poydevorini tashkil etib, o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, samarali pedagogik texnikalarni joriy etish hamda o‘quv natijalarini baholash jarayonlarini belgilaydi.

O‘qituvchilar metodik yondashuvlarini moslashtirishga tayyor bo‘lishlari lozim, chunki ta’lim va til o‘rganish jarayoni dinamik hamda doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Prinsipial yondashuv qat’iy va o‘zgarmas konsepsiya emas, aksincha, u

ilmiy izlanishlar, pedagogik eksperimentlar va amaliy dars tajribalari asosida doimiy ravishda takomillashadi. Til o‘rganish jarayoni murakkab bo‘lib, uni o‘qitish bo‘yicha turli nazariy yondashuvlar mavjud. Samarali o‘qitish esa doimiy tajriba almashinuvi, yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish va ularning samaradorligini baholash orqali amalga oshiriladi. Yangi texnikalarni joriy qilish, ularni baholash va pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish til o‘qitishning doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Quyida keltirilgan o‘n ikki prinsip zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu prinsiplarda ikkinchi tilni o‘rganish jarayoni haqidagi keng qabul qilingan ilmiy taxminlar aks etgan bo‘lib, ularning talqini va amaliy qo‘llanilishi turlicha bo‘lishi mumkin. Quyida D.Braun tomonidan ilgari surilgan ushbu prinsiplarga sodda izohlar keltirilgan.

1. Avtomatlashtirish. Samarali til o‘rganish jarayoni lingvistik shakllarni anglab foydalanishdan ularni avtomatik ravishda qo‘llashga o‘tishni talab etadi. Til qoidalariga ortiqcha e’tibor qaratish yoki grammatik tahlilga haddan tashqari urg‘u berish o‘rganish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

2. Mazmunli o‘rganish. Haqiqiy ma’no va kontekst asosida shakllangan bilim uzoq muddatli eslab qolish jarayonini ta’minlaydi. Yodlashga asoslangan o‘qitish bilan solishtirganda, mazmunli o‘rganish samaraliroq natija beradi.

3. Rag‘batlantirish. O‘quvchilar ko‘pincha rag‘bat va mukofot kutish orqali o‘z xulq-atvorini o‘zgartiradilar. Rag‘batlantirish qisqa yoki uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar kichik va tezkor mukofotlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishlari va ularni uzluksiz o‘rganishga undashlari mumkin.

4. Ichki motivatsiya. Tashqi mukofotlar ba’zi xatti-harakatlarni rag‘batlantirsa-da, eng samarali motivatsiya ichki omillarga bog‘liq. Agar o‘quvchilar o‘z ehtiyoj va maqsadlariga asoslanib o‘qisa, ular tashqi rag‘batlarga ehtiyoj sezmasdan til o‘rganishda davom etishlari mumkin.

5. Strategik investitsiya. Til o‘rganish jarayonining muvaffaqiyati o‘quvchining unga sarflagan vaqti, kuchi va e’tiboriga bog‘liq. Bu esa til tushunchalarini shakllantirish va ishlab chiqarish uchun maxsus o‘rganish strategiyalarini qo‘llashni talab etadi.

6. Til egosi. Ikkinchi tilni o‘rganish shunchaki so‘z boyligini oshirish emas, balki fikrlash, his qilish va harakat qilish uslubining o‘zgarishini ham anglatadi. Yangi til egosi shakllanishi natijasida o‘quvchilar zaiflik, o‘zini himoya qilish yoki psixologik to‘siqlarni his qilishlari mumkin.

7. O‘ziga ishonch. Til o‘rganishda muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan o‘quvchining o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi bilan bog‘liq. O‘ziga ishonch yetarli bo‘lsa, o‘quvchilar o‘rganish jarayonida faol ishtirok etib, samarali natijalarga erishishlari mumkin.

8. Tavakkal qilish. Muvaffaqiyatli til o‘rganuvchilar o‘zlarini realistik baholash bilan birga, yangi bilimlarni sinab ko‘rish va xatolardan saboq olishga tayyor bo‘lishlari kerak. Tilni amalda qo‘llashda tajriba qilish ularning ishonchini oshiradi.

9. Til va madaniyatning bog‘liqligi. Til o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni, balki maqsad tiliga oid madaniyat, qadriyatlar va ijtimoiy xatti-harakatlarni ham o‘z ichiga oladi.

10. Birinchi til ta’siri. Ona tili ikkinchi tilni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar yangi til tizimini tushunish va ishlab chiqarishda ona tiliga tayanadilar, bu esa o‘rganish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

11. Intertil (interlanguage). Ikkinchi tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadilar. Muvaffaqiyatli intertil rivojlanishi esa o‘quvchining to‘g‘ri fikrlarni qabul qilish va qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. O‘qituvchilar nafaqat sinfda, balki sinfdan tashqarida ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam berishlari lozim.

12. Kommunikativ kompetensiya. Agar til o‘qitishning asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyaga erishish bo‘lsa, ta’lim jarayoni tashkiliy, pragmatik, strategik va psixomotor jihatlarga qaratilishi lozim. O‘quvchilar nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirish, balki tilni real kontekstda tabiiy va ravon ishlatish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak [3].

Mazkur prinsiplarga tayanib, til o‘rganish jarayonining kognitiv va emotsional jihatlarini hisobga olgan holda yanada samarali va inson omiliga yo‘naltirilgan yondashuv shakllantiriladi.

Til o‘qitishning prinsipial yondashuvi o‘qituvchini o‘qitish jarayonini puxta o‘ylangan uch bosqich: *tashxis, davolash* va *baholash* asosida tashkil etishga yo‘naltiradi. Ushbu bosqichlar tizimi o‘quvchilarning kommunikativ ehtiyojlari va xos o‘quv sharoitlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilib, pedagoglarga ham o‘qitish jarayonida aniq maqsadlar qo‘yish, turli bosqichlarda turli rollarda o‘z pedagogik mahoratini namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Kompleks yondashuv aniq kontekst va ta’limiy maqsadlarga muvofiq keluvchi o‘quv tajribalarini shakllantirishga va belgilangan natijalarga erishishga xizmat qiladi. Ushbu model o‘qituvchilarga dars jarayonida muvaffaqiyat va xatoliklarni tahlil qilish, o‘quv dasturini qayta ko‘rib chiqish hamda o‘quv materiallarini takomillashtirish imkoniyatini taqdim etadi.

“Tashxis” bosqichi. Til o‘qitishning diagnostik bosqichi dastlab fan-dastur rejalari asosida boshlangan holda dars monitoringi jarayoni sifatida davom etadi. Til o‘qitishga oid fan dasturi, J.Richards ta’kidlaganidek, “vaziyat”ga oid ehtiyojlarni yoki o‘qitish kontekstini hisobga olishni talab qiladi[3].

Vaziyatga oid ehtiyojlarga quyidagilar kiradi:

– til o‘qitilayotgan ta’lim muassasasi joylashgan mamlakat;

– o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va ta’lim darajasi;

– ularning til o‘rganishdan ko‘zlagan maqsadlari;

– muassasa tomonidan fan dasturida belgilangan cheklovlar.

Mazkur bosqichda D.Braun ilgari surgan til o‘qitishning prinsipial yondashuviga oid o‘n ikki tamoyilning ayrimlarini qo‘llash natijasida samarali natijalarga erishish mumkin. Ushbu prinsiplarga asoslangan holda, pedagog quyidagi savollarga javob izlashi lozim:

1.Tilni mukammal o‘rganish jarayoni haqiqatan ham o‘quvchilarni rag‘batlantiruvchi natijalarga olib keladimi?

2. Yangi til o‘rganish jarayoni yangi shaxsiyat shakllanishiga xizmat qiladimi va til egosi muammolarini yengib o‘tishga yordam beradimi?

3. O‘rganilayotgan til va o‘quvchining ona tili hamda madaniy muhit o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

Bundan tashqari, ta’lim va jamoat muassasalari hamda ularning boshqaruv tizimi vaziyatga xos ehtiyojlarni aniqlash jarayonida fan-dastur tuzishning ikkinchi bosqichida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bosqichda o‘quv dasturiga kiritilishi lozim bo‘lgan tilning maxsus shakllari va funksional jihatlarini belgilovchi lingvistik (ba’zan “kommunikativ”) ehtiyojlarni tahlil qilish va aniqlash amalga oshiriladi. Mazkur jarayon til o‘qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi prinsiplarni o‘z ichiga oladi:

1. Ona tili va yangi o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi farqni anglash qanday darajada muhim?

2. Tilning ichki tizimi va uning dinamik o‘zgarishlari fan-dastur tuzilishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Farqlar tahlili, intertil konsepsiyasi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish fan-dasturda lingvistik shakllarni tartibga solishda qanday ahamiyat kasb etadi?

4. Fan-dastur asliyat tamoyiliga mos kelishiga qanday darajada e’tibor qaratilishi lozim? [4]

Shu bilan birga, til darslarini bosqichma-bosqich rejalashtirish jarayoni har bir o‘quvchini diagnostik baholash bilan chambarchas bog‘liq. Dars mazmuni pedagogning puxta va aniq tanloviga asoslangan holda rejalashtirilishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchi hamda ta’lim sohasi boshqaruvchilari har bir o‘quvchining tilni bilish darajasi va uni amaliy qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi faoliyati bilan til o‘qitish jarayonida o‘ziga xos “diagnost” yoki “san’atkor” sifatida namoyon bo‘ladi.

Diagnostika jarayonining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va uni amaliy tamoyillarga muvofiq tarzda qo‘llash til o‘rganish va o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshirish hamda natijadorligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ходжаева, Д. (2024). Scientific-Theoretical Perspectives on the Classification of Terms. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 111-112.

2. Khodjaeva D. Different viewpoints on lexicography and dictionary types //Academicia: an international multidisciplinary research journal. 2021. – T. 11. №. 2. C. 1255-1258.

3. Brown H. Douglas. English Language teaching in the “post method” era: Toward better diagnosis, treatment and assessment. – NY: Cambridge, 2002. – P. 27.

4. Jack C. Richards, Willy A. Renandya. Methodology in language teaching an (anthology of current practice) – Cambridge University Press, 2002. – 422 p.

5. Nunan David C. Learner strategy training in the classroom: an action research study // TESOL Journal, 6 (1), 35.

6. Guljan Azizbekovna Anarbekova. Til o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. – Academic Research in Educational Sciences, 2022.



Muxayyo ALIKULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
muxayyosherovna_@mail.ru

YOSHLARDA OILAGA OID MAJMUAVIY BILIMLARNING RIVOJLANISHIGA TO‘SQINLIK QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: mazkur maqola mazmunida oliy ta’lim muassasalarida talabalar asosan, kasbiy faoliyatga oid bilim va ko‘nikmalarni egallash kifoya, oilaga oid majmuaviy bilimlarini esa yo‘l-yo‘lakay, oila qurganlaridan keyin, o‘zimning hayotiy tajribalarim asosida egallab boraman kabi fikrlarning darajasi o‘sib borayotganligi va bunday fikrlarning shakllanishi jarayonida yoshlarimiz turli to‘siqlar va qiyinchiliklarga ro‘baro‘ kelayotganliklari va bu to‘siqlarning mazmuni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘arb ommaviy madaniyati, norasmiy internet saytlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar, oiladagi nosog‘lom muhit, nosog‘lom fikrlovchi do‘stlar.*

Аннотация: в статье обсуждается растущая тенденция к пониманию того, что студенты высших учебных заведений в основном приобретают знания и навыки, связанные с профессиональной деятельностью, и что сложные знания о семье они приобретут по ходу дела, после создания семьи, на основе собственного жизненного опыта, а также тот факт, что наши молодые люди сталкиваются с различными препятствиями и трудностями в процессе формирования таких представлений, а также содержание этих препятствий.

Ключевые слова: *западная популярная культура, неофициальные интернет-сайты, различные деструктивные идеи, нездоровая семейная обстановка, нездоровые друзья.*

Annotation: the article discusses the growing trend of understanding that students in higher education institutions mainly acquire knowledge and skills related to professional activities, and that they will acquire complex knowledge about family along the way, after creating a family, based on their own life experiences, as well as the fact that our young people face various obstacles and difficulties in the process of forming such ideas, as well as the content of these obstacles.

Key words: *western popular culture, unofficial Internet sites, various destructive ideas, unhealthy family environment, unhealthy friends.*

Oilaviy bilimlar majmuasi negizida yoshlar ongi va xatti-harakatida sezilarli darajada bo‘lajak oilasining modelini tasavvur qilishi, oila iqtisodi va ta’minotini loyihalashtirishni bilishi, sog‘lom farzand ko‘rish istagi, ularni tarbiyalash, iqtisodiy ta’minlashga doir bilimga egalik kabilar muhim sanaladi.

Afsuski, olib borgan kuzatishlarimizga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida talabalar asosan, kasbiy faoliyatga oid bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Ularning oilaga oid majmuaviy bilimlari esa yo‘l-yo‘lakay, oila qurganlaridan keyin, o‘zlarining hayotiy tajribalari asosida shakllanib boraveradi. Bu shakllanish jarayonida esa yoshlarimiz turli to‘siqlar va qiyinchiliklarga ro‘baro‘ keladilar. Ularning ba’zilari oila masalasida jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yib, oilaviy hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynaladilar. Bunday holatda ko‘pincha oilaviy ajrimlar yuz beradi. Ma’lumki, oilaviy ajrimlarning yuz berishi jamiyat va yoshlar uchun har tomonlama katta yo‘qotish hisoblanadi. Ayniqsa, ajrimlar jarayonidagi ruhiy zo‘riqish, qo‘rquv, tushkunlik kayfiyati kabilar yoshlarning salomatligi va mehnat faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi muammolarning kelib chiqishida oiladagi boshqa shaxslarning qaysarligi, manmanligi, takabburligi ham sabab bo‘lmoqda.

Shu boisdan yoshlarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish borasida ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va oilaning qadriyat ekanligini yoshlar ongiga chuqur singdirish davr talabidir. Zero, oila – muqaddas dargoh. Insonlar uchun boshpana va vatandir.

Olib borgan pedagogik kuzatishlar va o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalari natijalariga ko‘ra, yoshlarda oilaga oid majmuaviy bilimlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va muammolar mavjudki, o‘z navbatida ular ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga bir qancha vazifalarni yuklaydi. Albatta, bu kabi omillar yoshlarda oilaga oid qadriyatli munosabatning tarkib topishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, yuqorida ta’kidlaganimizdek, G‘arb mamlakatlaridagi oilaga bo‘lgan munosabatning pasayib borishi dunyo ahlini tashvishga solmoqda.

Yoshlarda oilaga oid majmuaviy bilimlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar:

- yoshlar faoliyatida qadriyat yo‘nalishlarining aniq belgilab olinmaganligi
- yoshlarning yengil hayotga ruju qo‘yganligi va ulardagi egoizm

- ayrim oilalarda bolalarga nisbatan agressiv munosabatning mavjudligi
- shaxslararo munosabatlarda axloqiy mezonlarga amal qilmaslik
- oilaviy munosabatlarda mas'uliyatsizlik va sabrsizlik, muammolardan qochish
- Ijtimoiy tarmoqlar, spirtli ichimliklar va giyohvandlik moddalariga tobelik

Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar

Yoshlarni oilaviy hayotga amaliy tayyorlash jarayoni ilmiy manbalarda aniq aks etmagan

Talabalarda oilaga oid majmuaviy bilmlarni shakllantirishning pedagogik modeli ishlab chiqilmagan

Yoshlarni oilaviy tayyorlashda mutaxassislar hamkorligida amaliy-metodik ishlanmalar yaratilmagan

Gender tenglik va gender sezgirlikka oid tushunchalar yoshlar ongida to'liq shakllanmagan.

Yoshlarda oilaga oid majmuaviy bilimlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar, oilaga oid majmuaviy bilimlarni shakllantirish yo'nalishlari va ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yiladigan vazifalar bilan ham uzviy bog'langan. Keyingi yillarda yoshlarning oilaviy qadriyatlarga amal qilish darajasi ancha pasayib bormoqda. Bunga quyidagi salbiy omillar ham qo'shimcha ravishda sabab bo'lmoqda va bular quyidagilar:

- yangi yo'nalishdagi G'arb ommaviy madaniyati;
- norasmiy internet saytlari;
- turli g'oyalar;
- oiladagi nosog'lom muhit;
- shaxsning atrofdagi nosog'lom fikrlovchi do'stlari va boshqalar.

Olib borgan kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, ushbu salbiy omillarning barchasi oilada yoshlarning amaliy faoliyatini izdan chiqarmoqda. Ayniqsa, ko'pchilik yoshlarimizda ommaviy madaniyatning turli shakllari va internetga tobelik ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarda oilani qadriyat sifatida anglashiga to'sqinlik qilib, ularda oilaga oid beparvolik, loqaydlik va mas'uliyatsizlikning avj olishiga sabab bo'lmoqda.

To'g'ri, barcha yoshlarimizda ham bu kabi illatlar mavjud emas, ammo bu borada biz kattalarning befarqligi ham yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Keyingi yillarda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan deyarli barcha me'yoriy hujjatlarda mamlakatimizdagi oila muammolari ko'tarilgan. Bundan asosiy maqsad oilalar farovonligini yuksaltirish asosida davlat va jamiyatni shakllantirishdir. Bu borada yoshlarimizdan ham o'z oilasi va vataniga fidoiy bo'lishlik talab etiladi.

Yoshlarimizda oilaga oid majmuaviy bilimlarini hosil qilishda oilaviy an'analar muhim rol o'ynaydi.

"Oilaviy an'analar – bayram va marosimlar, oila hayotida ro'y beruvchi turli yutuq, voqea, sanalarni nishonlash, xotirlash sifatida o'tkaziluvchi an'analardan iborat bo'lib, ular yosh avlodda kichik vatan bo'lmish oila a'zolariga oid hamjihatlilik, hamdardlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, mehribonlik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi". Bizga ma'lumki, o'zbekona oilaviy an'analar asosan oila a'zolarining shaxslararo munosabatlarida namoyon bo'ladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar oila mustahkamligi uchun shu darajada muhim ahamiyat kasb etadiki, bu masala hozirgi kungacha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

Shuningdek, oilaviy an'analarni namoyon bo'lish shakllariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- barcha millat vakillari tomonidan nishonlanadigan an'analar;
- shaxs hayoti va faoliyati bilan bog'liq an'analar;
- urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan bog'liq an'analar

Demak, oilaviy an'analar o'zining yuqori darajadagi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatiga ko'ra shaxsning hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali shaxs ota-onani e'zozlashga, g'amxo'rlik ko'rsatishga hamda yaqinlari bilan qarindoshlik rishtasini doimiy saqlab qolishga intiladi. Shuningdek, oilaviy an'analar shaxsda mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, oliyjanoblik, saxiylik, tejamkorlik kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Zero, komil farzand har bir ota-onaning buyuk orzusi bo'lib, elu-yurt ham bunday farzandlardan haqli ravishda faxrlanadi.

Yuqoridagi tahlillar va xulosalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz joizki, oiladagina inson o'zini boshqalarga kerakligini his qilib yashaydi va o'z qadr-qimmatini anglaydi. Bugungi davr yoshlariga baxtli yashashning eng qudratli omili – oila ekanligini anglatish ta'lim-tarbiya jarayoni oldidagi muqaddas vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G. O. Ochilova "Kasbiy kompetentlik" o'quv qo'llanma – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-yil 228-bet.

2. M. A. Ahmedova, V. S. Xan, D. A. Alimova "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2006-yil 440-bet.

3. Matbua Ahmedova "Falsafa" darslik. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2006-yil 496-bet.

4. A. Madvaliyev "Pedagogika ensiklopediyasi" – T.: "O'zbek tilining izohli lug'ati" davlat milliy nashriyoti, 2015-yil 320-bet.

Feruza XAMROYEVA,
Geografiya kafedrasi mudiri, dotsent
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Zarina SUNNATILLAYEVA,
Geografiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
hamroyeva87@mail.ru

GEOGRAFIYA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTLARNING ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada kreativ fikrlash va uning ahamiyati, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda badiiy asarlarning o‘rni, geografiya fanini o‘qitishda badiiy adabiyotdan foydalanishning usullari hamda o‘quvchilar geografiya fanining mavzularini chuqurroq tushunishga yordam beradigan badiiy asarlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, qobiliyat, g‘oya, badiiy adabiyot, asar, geografiya, epigraf, samaradorlik, muvaffaqiyat.*

Аннотация: в данной статье представлена подробная информация о креативном мышлении и его значении, о роли художественных произведений в развитии креативного мышления у учащихся, о методах использования художественной литературы при преподавании географии, а также о художественных произведениях, которые помогают учащимся глубже понять темы географии.

Ключевые слова: *креативное мышление, способность, идея, художественная литература, произведение, география, эпиграф, эффективность, успех.*

Annotatıon: this article provides detailed information on the importance of creative thinking and its role in developing students’ creative thinking. It also discusses the use of literary works in geography education, the methods of integrating literature into the teaching of geography, and the artistic works that help students gain a deeper understanding of geography topics.

Key words: *creative thinking, ability, idea, literature, work, geography, epigraph, effectiveness, success.*

Kirish. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikma hisoblanadi. Ushbu ko‘nikma yoshlarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish, oddiy savodxonlikdan tashqari, tashabbuskorlikni ham talab qiladigan, shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, XXI asr talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda kreativ fikrlashni rivojlantirishga moslashish va raqobatbardosh bo‘lish katta ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lib, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Ayniqsa, yoshlarda ushbu ko‘nikmani shakllantirish, kelgusida mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib, jamiyatning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi

Asosiy qism. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega [1].

Kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi [3].

O‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi [2].

Kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko‘nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi [7]

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda badiiy asarlarning o‘rni beqiyosdir. Badiiy asarlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirib, ularga yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni turlicha yondashuvlar bilan hal qilishni o‘rgatadi. Ayniqsa, yoshlarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirishda ular juda muhim vosita hisoblanadi. O‘qish orqali ularning fikrlash qobiliyatlari, dunyoqarashi va hissiy tajribalari kengayadi.

Geografiya darslarida o‘quvchilar badiiy adabiyotlardagi tasvirlar va voqealar orqali o‘rganayotgan mavzularni yanada chuqurroq tushunishlari mumkin. Geografiya va badiiy adabiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning o‘ziga xosligi shundaki, geografiya o‘quvchilarni tabiiy va ijtimoiy muhitni ilmiy tarzda o‘rganishga yo‘naltirsa, badiiy adabiyotlar bu muhitni tasvirlab, insonning uni qanday his qilishini va tushunishini ochib beradi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar geografik hududlar tasvirini yaxshiroq tasavvur qilishlari va ularni chuqurroq anglashlari mumkin. Bundan tashqari, badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Geografiya fanini o‘qitishda badiiy adabiyotdan

foydalanishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

O‘qituvchining badiiy geografik hikoyasi – bu usul o‘quvchilarni voqealarga va tasvirlarga ruhiy jihatdan bog‘lashga yordam beradi, ular geografik obyektlar va hodisalarni yaxshiroq tushunishadi.

O‘quv geografik material uchun adabiy va badiiy rasmlar – badiiy rasmlar geografik tushunchalarni tasvirlashda qo‘llanilib, mavzuni yanada jonlantiradi va o‘quvchilarga tasavvur qilishga yordam beradi.

Badiiy matndan illyustratsiyalar bilan birgalikda foydalanish – matnni yanada boyitib, uning tasvirlarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Darsda badiiy adabiyotdan parchalar o‘qish – badiiy adabiyotdan parchalar o‘qish o‘quvchilarni fikrlashga undaydi va geografik tushunchalarni badiiy asosda yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Asardagi qahramon, sayohatchi, voqea guvohi so‘zlarini topish, uning so‘zlari bilan ma’lum bir hodisani tasdiqlash, geografik obyektga tavsif berish – bu usul geografik obyektlarni o‘quvchilarga badiiy adabiyot orqali tanitib, ularni yanada jonli va hissiy qabul qilishga yordam beradi.

Mavzuni o‘rganish uchun epigraf tanlash – epigraf yoki ma’lumotlarni tanlash, o‘quvchilarga mavzu haqida dastlabki tasavvur yaratishga yordam beradi.

Quyidagi asarlarda geografik elementlar va muhitning tasviri, shuningdek, o‘quvchilarga geografiya fanining mavzularini chuqurroq tushunishga yordam beradigan muhim jihatlar keltirilgan:

Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” romani 1876-yil 9-iyunda nashr etilgan bo‘lib, asar Mississipi daryosi bo‘yida ulg‘aygan Tom Soyer ismli bola haqida hikoya qiladi. Romanda Missisipi daryosi va uning atrofidagi tabiiy-geografik sharoitlar tasvirlangan bo‘lib, o‘quvchilarga daryo geografiyasining odamlar hayotiga qanday ta’sir qilishi haqida tushuncha beradi [4]. Ushbu asarda berilgan ma’lumotlar 6-sinf va 9-sinf o‘quvchilari uchun mos keladi. Mississipi havzasi 6-sinfda Afrika materigi mavzusida o‘rganilsa, 9-sinfda daryolarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sirini o‘rganish mumkin.

Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani 1980-yil 9-iyunda rus tilida nashr etilgan. Romandagi voqealar temir yo‘lchi Edigeyning marhum do‘sti Kazangapni Ona-Bayt qabristoniga dafn etishga urinishlari atrofida rivojlanadi. Asarda Markaziy Osiyo dashtlari, cho‘l hududlari va ularning aholisi haqida qimmatli geografik tasvirlar berilgan. Sayohat davomida Edigey o‘zining Sari-Ozak cho‘llarida yashagan hayotiy tarixini qirg‘iz xalq og‘zaki ijodidan parchalar bilan birga so‘zlab beradi.

Muallif “Sari-Ozaklar” atamasini “Sariq dashtlarning o‘rta yerlari” deb izohlaydi. Romanda Markaziy Osiyo dashtlari, cho‘l hududlari va ulardagi odamlar hayoti haqida qimmatli geografik tasvirlar berilgan [6]. Ushbu asarda berilgan ma’lumotlardan 7-sinf o‘quvchilari uchun foydalanish mumkin, chunki aynan 7-sinf darsligida Markaziy Osiyo, jumladan O‘rta Osiyo, O‘zbekiston hududlari, daryolari, tekisliklari, cho‘llari haqida ma’lumotlar berilgan.

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillardagi o‘zbek millati hayoti va Katta Farg‘ona kanali qazilgan davrdagi voqealarini o‘z ichiga oladi Asarda Farg‘ona vodiysi va Toshkent hududlari, ayniqsa, qishloq joylaridagi ijtimoiy va tabiiy muhitning tasvirlari juda aniq va boy berilgan.

Trilogiya O‘zbekistondagi tabiiy resurslar, yer va suv masalalari, ekologik muammolar haqida ham o‘quvchiga qimmatli bilimlar beradi [5]. Ushbu trilogiyada berilgan ma’lumotlarni tabiiy jihatdan 7-sinf o‘quvchilari uchun, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan esa 8-sinf o‘quvchilari uchun qo‘llash mumkin. Chunki aynan 7-sinfda Farg‘ona va Toshkent iqtisodiy rayonlarining tabiiy jihatlari yoritilgan, 8-sinfda esa ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda geografiya va badiiy adabiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘quvchilarning ilmiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlar orqali geografik hududlar va tabiiy sharoitlarning tasviri o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzularni chuqurroq tushunishga, fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Mark Tven, Chingiz Aytmatov, Jules Verne va Said Ahmad kabi adiblar o‘z asarlarida geografik muhiti, tabiiy resurslarni va odamlarning bu sharoitlar bilan qanday moslashishini tasvirlash orqali o‘quvchilarga nafaqat geografiya fanining mazmunini, balki insonning tabiat bilan bo‘lgan munosabatini ham tushunishga ko‘maklashadilar. Shu sababli, badiiy adabiyotlar geografiya darslarida o‘quvchilarga mavzularni o‘zlashtirishda ijodiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria Virginia, USA: ASCD, 2014
2. Oripova M.Q. PISA – O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturining ahamiyati // Konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. 166-169-b.
3. Xotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R., I.S.Foziljonov. Kreativ fikrlash. O‘quv qo‘llanma – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: “Iqtisodiyot”, 2021- y
4. M.Tven. Tom Soyerning boshidan kechirganlari. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. 288-b
5. Ch.Aytmatov Asrga tatigulik kun. Roman. Rus tilidan Asil Rashidov tarjimasi. –Toshkent, Yoshlar nashriyoti, 2018. 424 - b.
6. Said Ahmad Ufq. Trilogiya. – T., Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. 688 - b.
7. Sh.Yuvashov, B.Akbarov Kreativ fikrlash. O‘quv qo‘llanma. 60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun. – Namangan, 2024. 176 - b

Dilfuza AZIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’limda matematika va ona
tili kafedrasi katta o‘qituvchisi
dilfuzaazimova@gmail.com

TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik va psixologik asoslari va ta’lim jarayoni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, innovatsion pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, motivatsiya, psixologik yondashuv.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы совершенствования учебного процесса и учебного процесса.

Ключевые слова: *образовательный процесс, инновационная педагогика, личностно-ориентированное образование, мотивация, психологический подход.*

Annotation: this article discusses the pedagogical and psychological foundations of improving the educational process and the educational process.

Key words: *educational process, innovative pedagogy, person-centered education, motivation, psychological approach.*

“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Kirish. Ta’lim tizimi har qanday jamiyatning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, uning takomillashuvi bevosita mamlakat taraqqiyotiga ta’sir qiladi va jamiyatda muhim o‘rin tutadi. XXI asrda ilm-fan va texnologiyalar innovatsiyalar rivojlanishi ta’lim tizimini takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida ta’lim jarayonini takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Ta’lim va uni samarali tashkil qilish har qanday jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik va psixologik asoslari ko‘rib chiqiladi.

Ta’lim jarayonini takomillashtirish – bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan izchil jarayondir. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar pedagogik va psixologik yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi o‘qitish metodlari, innovatsion texnologiyalar va o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun zamonaviy pedagogik tamoyillar va metodlardan foydalanish muhimdir. Ilmiylik, izchillik, faollik va amaliyotga yo‘naltirish kabi tamoyillar ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. An’anaviy usullar interfaol yondashuvlar bilan boyitilib, o‘quvchilarning bilimni chuqur o‘zlashtirishiga yordam berishi kerak.

Innovatsion ta’lim metodlari orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

Muammoli ta’lim – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. O‘quvchilarni hayotda duch keladigan qiyin vaziyatlarda oqilon yo‘l tanlashga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli ta’limda biron bir muammoli savol o‘quvchilarga beriladi. Shu orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradi va mustaqil fikrlashga o‘rganadilar.

Loyihaviy ta’lim – o‘quvchilarni real hayotiy muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topishga o‘rgatadi. Loyihaviy ta’lim orqali o‘quvchilar muammolarni hal qilishga, tanqidiy va kreativ fikrlashga, ijodkorlik kabi ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik ta’lim jarayonining, pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik erkin muloqot, mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga xizmat qiladi. Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, motivator sifatida faoliyat olib borishi kerak.

Har bir o‘quvchining individualligini inobatga olgan holda ta’lim berish ta’lim tizimining yuksalishiga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogik jarayonning asosi. O‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, ehtiyojlarini inobatga olish ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida psixologik omillar o‘quvchilarning bilish faoliyatining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘qishga va kelajakka bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. O‘quv jarayonida rag‘batlantirish, ijodiy fikr va qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilar ishtiyoqini oshiradi. Individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish juda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni eslab qolish, tafakkur qilish, ijodiy fikrlash qobiliyatlariga qarab yo‘naltirish zarur.

O‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Muammoli vaziyatlarni yechish va turli vazifalarni bajarish orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham pedagogik jarayonning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda “innovatsion ta’lim” bu o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta’lim va innovatsion ta’lim – bu rivojlanayotgan ta’limdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni o‘sib kelayotgan avlodni yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyati baland, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, o‘zbek elining dong‘ini jahonga taratadigan, g‘oyatda intellektual, ma’nan barqaror yosh malakali kadrlarni yetishtirib borishdir. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta’lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishini ko‘zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonini takomillashtirish har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy dunyoda ta’lim faqatgina bilim berish jarayoni bo‘lib qolmasdan, balki shaxsiy rivojlanish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, jamiyatga moslashuvchan va har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalash vositasiga aylanmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayoni pedagogik va psixologik jihatdan puxta o‘ylangan, zamonaviy talablarga mos va innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi lozim.

Pedagogik nuqtayi nazardan ta’lim samaradorligini oshirish uchun an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, interfaol va innovatsion metodlarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim, loyihalar asosida o‘qitish, o‘yinlashtirish kabi zamonaviy metodlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faolligini oshirishga va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik mustahkamlanishi, dars jarayonlari faqatgina o‘qituvchining monologiga asoslanib qolmay, balki o‘quvchilarning faol ishtiroki bilan kechishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006.

2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. 240-b.

3. A. D. (2022). On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period. Middle European Scientific Bulletin

4. A. D. (2023). Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 18, 164-166.

5. Usmanovna A. D., & Nortazhova Z. A. (2023). Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 18, 167-169.

6. Dilfuza, A. (2023). Modern methods of using folk proverbs in the process of educating elementary school students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 19, 143-146.

7. www.pedagog.uz

8. www. ziyonet. Uz

9. www. tdpu. Uz

Gavharoy LATIPOVA,
Oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

SHAXSIY KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik nuqtayi nazaridan kreativ qobiliyatni rivojlantirish tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Kreativ o'qituvchi innovatsion dars jarayonida muhim omil bo'lib, auditoriyani boshqarishda ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu fenomenning ilmiy tadqiqotlar doirasida rivojlanishi, yetakchi xorijiy va mahalliy tilshunoslarning qarashlari, shuningdek, pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida komponentlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'z: *kreativ qobiliyat, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kognitiv, faoliyatga asoslangan, aksiologik, kasbiy tajriba, empatiya, riskka tayyorlik.*

Аннотация: в данной статье анализируются сущность и компоненты понятия развития творческих способностей с педагогической точки зрения. Творческий педагог является важным фактором инновационного педагогического процесса и играет важную роль в управлении аудиторией. В статье рассматривается развитие данного явления в рамках научных исследований, взгляды ведущих зарубежных и отечественных лингвистов, а также его составляющие на основе педагогических и психологических подходов.

Ключевые слова: *творческие способности, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, познавательная, деятельностная, аксиологическая, профессиональный опыт, эмпатия, принятие риска.*

Annotation: this article analyzes the essence and components of the concept of developing creative abilities from a pedagogical point of view. A creative teacher is an important factor in the process of innovative teaching and is important in managing the audience. The article examines the development of this phenomenon within the framework of scientific research, the views of leading foreign and domestic linguists, as well as its components based on pedagogical and psychological approaches.

Key words: *creative abilities, intrinsic motivation, extrinsic motivation, cognitive, activity-based, axiological, professional experience, empathy, risk-taking.*

Kirish. O'qituvchilarning kreativligi ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Kreativ o'qituvchi darslarni qiziqarli va samarali tashkillashtiradi, o'quvchilarga motivatsiya bo'ladi va ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiradi. V.I. Chirkov o'qituvchilarning motivatsiyasining xususiyatlarini aniqlab, uni tashqi va ichki qismlarga ajratdi[1]. Ma'lum bo'lishicha, ichki motivatsiya bilan ishlashga intilish doimiy va uzoq davom etadi, odamlar o'zlari uchun qiyin maqsadlarni tanlaydilar va noan'anaviy yondashuvni talab qiladigan ijodiy vazifalarni yaxshiroq bajaradilar. Ichki motivatsiyaga ega odamlarning faoliyati yuqori ijodkorlik bilan ajralib turadi va ular quvonch va qoniqish hissi bilan birga keladi. Tashqi motivatsiyaga ega odamlar tezda mukofot olish uchun eng oddiy yoki standart vazifalarni tanlaydilar, shu bilan birga ularning ijodiy vazifalarni bajarish sifati va tezligi pasayadi. Shundan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligi tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi hisoblanadi: kognitiv, faoliyatga asoslangan, aksiologik. A.G. Maklakovning fikriga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan ehtiyojlarning butun majmuasidan kelib chiqishi mumkin va shunga mos ravishda motivatsiya va maqsad bilan belgilanadi[2]. Shu munosabat bilan o'qituvchining kasbiy faoliyatida motivlar, qadriyat yo'nalishlari, maqsad qo'yishning alohida ahamiyatini hisobga olib, bo'lajak o'qituvchi ijodiyligi tarkibiga aksiologik komponentni kiritish maqsadga muvofiqdir. A.M. Matyushkin, Y.A. Ponomarev kabi olimlar ijodiy fikrlash, muammoli ta'lim va intuitsiya kabi masalalarni o'rganganlar. Ularning tadqiqotlari o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning psixologik asoslarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim metodikasi sotsiologik, mantiqiy-eksperimental, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik tahlil, pedagogik-psixologik ilmiy manbalar, o'quv-metodik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov, tizimli funksional va adabiy tahlil usullari asosida bajarildi.

Natija va muhokamalar.

Kreativlikni rivojlantirish yondashuvlari asosan shaxsga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday yondashuvlar har bir o‘qituvchining individual qobiliyatlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini aniqlashni va ularga mos ta’limiy dasturlarni yaratishni talab qiladi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatiga ijodiy munosabatda bo‘lishlari, yangi metodlar va texnologiyalarni sinab ko‘rishga, darslarni qiziqarli va samarali qilishga intilishlari kerak. Shu sababli, o‘qituvchining kasbiy muhim fazilatlari tizimida kreativ qobiliyatlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Kreativ mutaxassis quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Qiziquvchanlik va o‘rganishga intilish;
2. Ijodiy fikrlash;
3. Moslashuvchanlik;
4. Empatiya;
5. Riskka tayyorlik;
6. Tashabbuskorlik;
7. Muloqot qilish qobiliyati;
8. Optimistik nuqtayi nazar;
9. Sabr-toqat: kreativ pedagog o‘quvchilarning har xil savollariga, qiyinchiliklariga sabr bilan yondashadi. U ularni qo‘llab-quvvatlaydi, ularning o‘zini namoyon etishiga imkon beradi.
10. Hazil-mutoyiba hissi: kreativ pedagog o‘quv jarayonini qiziqarli va yengil qilish uchun hazildan foydalana oladi. U o‘quvchilar bilan do‘stona munosabat o‘rnata oladi. Yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qaramay, o‘z qaroriga ishonch hosil qilish, nostandart yondashuvni qo‘llash, o‘z g‘oyalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va muammoni hal qilish jarayonida qo‘llab-quvvatlash qobiliyati orqali yanada rivojlanib boradi. Bundan tashqari, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish va uni amaliyotga tatbiq etishga tayyor bo‘lishni o‘z ichiga oladi (o‘ziga ishonish, o‘zini o‘zi ta’minlash bilan ishonchli xatti-harakatlar uslubi). [3]. Olib borilgan nazariy tahlil natijasida o‘qituvchilar kreativligining quyidagi xususiyatlari aniqlandi:

1. Kasbiy sohada innovatsiyalarga moyillik: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatda yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni qabul qilishga tayyorligi.
2. Tajriba almashishga intilish: kasbiy tajriba almashish va o‘zgalar tajribasidan saboq olishga qaratilgan motivatsiya va qobiliyat.
3. O‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik: kasbiy mahoratni oshirishga va ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ichki intilish.
4. Pedagogik moslashuvchanlik: o‘quv jarayoni ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarda vaziyatga moslashuvchanlik va ijodiy javob qaytarish qobiliyati. Shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchilar ijodkorligi shaxsning ikki muhim fazilati bilan bog‘liq: qidiruv motivatsiyasining yuqori intensivligi va fikrlash jarayonida yuzaga keladigan assotsiativ aloqalarga sezgirlik.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda, o‘qituvchi kreativligining tarkibini uchta qismga ajratamiz: *kognitiv* (ijodkorlik sohasidagi nazariy bilimlar to‘plami, kelajakdagi kasbiy faoliyatda ijodkorlikdan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar; kasbiy ijodiy faoliyatning vazifalarini tushunish va uni amalga oshirish usullarini bilish va ularni hal qilish); *faoliyatga asoslangan* (o‘qituvchining amaliy muammolarini hal qilishda ijodiy yondashuvlarni o‘zlashtirish); *aksiologik* (o‘z motivlarini, kasbiy faoliyat qadriyatlarini bilish, bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy yondashuvlarni o‘zlashtirish jarayonlari va usullariga qiziqishining mavjudligi). Kognisiya (lotincha: cognitio, “bilish, o‘rganish, anglash”) bir necha, sezilarli darajada farq qiluvchi kontekstlarda qo‘llaniladigan atamadir[4]. Tor ma’noda bilish tashqi ma’lumotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatidir. Keng ma’noda, bu bilish harakatidir. Shu nuqtayi nazardan, uni madaniy-ijtimoiy ma’noda bilish va shu bilimlar bilan bog‘liq tushunchalarning paydo bo‘lishi va shakllanishini bildiruvchi, fikrda ham, harakatda ham o‘zini namoyon qiluvchi sifatida talqin qilish mumkin. A.D. Goneyevning fikricha, kognitiv komponent idrok bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uni jarayon va natija sifatida qabul qilish mumkin [5]. Shu munosabat bilan, buni, bir tomondan, ma’lum darajadagi umumiy va maxsus bilimlarning mavjudligi, ularning tizimliligi va kasbiy yo‘nalishining tegishli darajasi sifatida talqin qilish mumkin. Boshqa tomondan, kasbiy bilimlarning to‘planishi sifatida uning yuqori tizimlilik darajasiga o‘tishi bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorligini rivojlantirish jarayonida ushbu faoliyatni takomillashtirishning umumiy qonuniyatlari va usullarini ko‘rishga imkon beradi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchida kreativlik to‘g‘risidagi bevosita bilimlarning mavjudligi, kelajakdagi kasbiy faoliyatida ijodkorlikdan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar o‘z-o‘zidan ularni amaliy ishda amalda qo‘llash uchun ko‘nikma va malakalarni berishga qodir emas. Agar bilim ularga mos keladigan ko‘nikmalarda ifodalangan faoliyatda namoyon bo‘lmasa, foydalanilmaydi. Faoliyat komponenti o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ijodkorlik usullari va usullarini o‘zlashtirish, pedagogik muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasi o‘qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirish mezonlarini aniqlash imkonini beradi. *Birinchi mezon* kasbiy va kognitiv bo‘lib, quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi: o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi ijodkorlik va ijodkorlik haqidagi bilimlarning chuqurligi

va tizimliligi; ijodiy rivojlantirishning asosiy usullari, yo‘llari va vositalarini bilish qobiliyatlar; o‘qituvchi faoliyatida foydalanish uchun mo‘ljallangan ijodiy texnologiyalarning mohiyatini tushunish. *Ikkinchi mezon* operativ va faoliyatga asoslangan bo‘lib, quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi: nostandart kasbiy vazifalar bilan ishlashga tayyorlik; ijodiy texnologiyalardan foydalangan holda muvaffaqiyatli amaliy tajriba; ijodiy texnologiyalarni kasbiy vazifalarga moslashtirish va qo‘llash qobiliyati. *Uchinchi mezon* motivatsion va qiymatga asoslangan bo‘lib, quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi: o‘qituvchi ishining ijodiy tomoniga nisbatan kognitiv faollik; kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun motivatsiya; kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish muhimligini tushunish.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchida ijodkorlikning rivojlanishini aniqlash uchun biz darajaga asoslangan yondashuvdan foydalanamiz. Ta’lim jarayonida daraja va mezonlarni aniqlash muammosini o‘rganishga katta miqdordagi ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Ushbu mezonlar va tegishli ko‘rsatkichlar birgalikda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy rivojlanishining quyidagi darajalarini diagnostika qilish imkonini beradi: intuitiv-reproduktiv, ongli-rekonstruktiv, ijodiy-ijodiy. Shunday qilib, tadqiqotimiz davomida biz ijodkorlikni rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqladik. Bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorligi o‘quvchi shaxsining tabiiy yangi shakllanishi emas, balki ta’lim jarayonida uni rivojlantirish uchun maxsus harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutishini hisobga olib, biz ijodkorlikni rivojlantirishda jarayonning o‘zini rivojlantirish va amalga oshirishni talab qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чирков В.И. Самодетерминация и внутренняя мотивация поведения человека // Вопросы психологии. 1996. №3. С. 116-133.

2. Маклаков А.Г. Общая психология. СПб., 2001.

3. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего образования по направлению подготовки 44.03.01 Педагогическое образование (уровень бакалавриата). URL: http://минобрнауки.рф//документы/7995/файл/7225/Prikaz1426_ot_04.12.20 pdf(дата обращения: 8.05.2018)

4. Кузнецов С.А. Большой толковый словарь русского языка: А-Я / гл. ред. С.А. Кузнецов. СПб., 1998.

5. Нечаев В.В., Нечаева Н.В. Когнитивно–ментальная информационная деятельность человека // Информационные и телекоммуникационные технологии. 2013. № 17. С. 61-74.



Темур ДИЛЬШОДБЕКОВ,
Негосударственная высшая образовательная организация «Alfraganus University» г.Ташкент, Узбекистан

СОСТАВЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ТЕКСТОВ ДЛЯ РКИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: в статье рассматривается методика преподавания русского как иностранного (РКИ) и раскрывается степень зависит от правильной подачи материала и эффективность использования текстов, которые не только расширяют языковые знания, но и помогают развивать навыки восприятия и понимания информации. В контексте рекламы и копирайтинга важно учитывать, что рекламные тексты – это не просто набор слов, но и средство привлечения внимания, что имеет особое значение для изучающих язык. В статье автор рассматривает применение эффективных методов копирайтинга, таких как внимание к заголовкам, структуре текста и ключевым идеям, позволяет обучающимся лучше воспринимать материал и быстрее усваивать новую лексику и грамматические конструкции. Рассмотрены методы создания текстов, подходящих для студентов РКИ, включая использование простых и понятных выражений, избегание канцеляризмов и сложных терминов, а также акцент на повествовательном стиле, который облегчает восприятие и запоминание материала.

Ключевые слова: *методика РКИ, копирайтинг, рекламные тексты, восприятие информации, структура текста, заголовки, языковое развитие, мотивация, обучение, лексика, грамматика, повествовательный стиль.*

Annotation: the article examines the methodology of teaching Russian as a foreign language (RFL) and reveals the degree to which it depends on the correct presentation of the material and the effectiveness of using texts that not only expand language knowledge, but also help to develop skills of perception and understanding of information. In the context of advertising and copywriting, it is important to keep in mind that advertising texts are not just a set of words, but also a means of attracting attention, which is of particular importance for language learners. In the article, the author examines the use of effective copywriting methods, such as attention to headings, text structure, and key ideas, which allows students to better perceive the material and learn new vocabulary and grammatical structures faster. Methods of creating texts suitable for RFL students are considered, including the use of simple and understandable expressions, avoiding clerical phrases and complex terms, as well as an emphasis on a narrative style that facilitates the perception and memorization of the material.

Key words: *RFL methodology, copywriting, advertising texts, information perception, text structure, headings, language development, motivation, learning, vocabulary, grammar, narrative style.*

Annotatsiya: maqolada rus tilini xorijiy til (RXT) sifatida o‘qitish metodikasi ko‘rib chiqilgan va uning darajasi materialning to‘g‘ri taqdim etilishiga va matnlardan foydalanish samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, ular nafaqat til bilimlarini kengaytiradi, balki ma’lumotni idrok etish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Reklama va kopirayterlik kontekstida reklama matnlari nafaqat so‘zlar boyligi, balki til o‘rganuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan e’tiborni jalb qilish vositasi ekanligini hisobga olish muhimdir. Maqolada muallif sarlavhalar, matn tuzilishi va asosiy g‘oyalarga e’tibor berish kabi samarali kopirayterlik usullarini qo‘llashni ko‘rib chiqadi, o‘quvchilarga materialni yaxshiroq idrok etish va yangi lug‘at va grammatik tuzilmalarni tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi. RXT talabalari uchun mos matnlarni yaratish usullari, shu jumladan oddiy va tushunarli iboralardan foydalanish, kanselyarizmlar va murakkab atamalardan qochish va materialni idrok etish va yodlashni osonlashtiradigan hikoya uslubiga urg‘u berish ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *RXT metodikasi, kopirayter, reklama matnlari, ma’lumotni idrok etish, matn tuzilishi, sarlavhalar, tilni rivojlantirish, motivatsiya, o‘rganish, lug‘at, grammatika, hikoya uslubi.*

Реклама – двигатель прогресса. До технического прогресса, до появления медиа «ноу хау» люди предпочитали бумажные варианты информации такие как журналы, газеты и др. В связи с этим основными платформами для рекламодателей были бумажные публикации. В сравнении с нынешними возможностями медиа пространства, печатные издания имели определенные недостатки. К примеру, в них не было возможности использование звуковых и видео или движущихся фрагментов для большего привлечения внимания. Вместо этого приходилось прибегать к креативным методам копирайтинга.

Копирайтинг (англ. copywriting, где copy – текстовый материал, write – писать) представляет собой процесс создания текстов с целью продвижения товаров, услуг или идей, а также для других маркетинговых и рекламных нужд.

С чего начинается работа? Первое, на что обращает внимание, что привлекает читателя – это заголовок. В этом случае все зависит от заголовка, т.е. если текст захватывает с первого взгляда, то читатель продолжает и переходит к первому абзацу, далее идет дальше. Итак, в действительности с чего надо начинать?

Мы считаем, что эффективно будет, если первым делом в тексте будет раскрыты основные положения, для которых он его читает или следует читать. Для этого у составителя есть всего нескольких секунд, ему следует «изюминку» предоставить в самом начале. Имея в виде, что существуют 4 основные стратегии чтения, при первом знакомстве с текстом многие пользуется беглым или ознакомительным чтением. Поэтому покажите ценность данного текста. Обратите внимание, что объем в таком случае не имеет значения. При изложении ценных материалов в тексте избегайте «избыточного груза» для восприятия, т.е. лишних слов, без которых смысл не теряется.

Хороший читатель, у которого скорость чтения соответствует скорости читателя, у которого уровень владения языком равняется показателей B2 или же C1, тратить на нахождение и понимание главной идеи в среднем от 5 до 15 секунд. Это при правильном составлении текста. Текст состоящий из одного большого абзаца может потребовать большего времени, по этой причине рекомендуется разбиение на части и оглавление каждых цельно значимых абзацев.

Студенты, слушатели и изучающие РКИ в целях профессионального роста стремятся применить полученные знания в тот же миг, что является перевесом в пользу выбора разговорного языка для написания текстов. Полезным для читателя текстом может стать тот, в котором сообщается убедительные факты, полезные сведения для карьерного или личностного роста читателя, в отличии от перечисления определенных правил по грамматике научным языком. Следует также избегать канцеляризмов, терминов, а также офисных жаргонов, поскольку читателем может оказаться человек, не являющийся профессионалом по теме.

Рекомендуется ориентироваться на проблемные моменты, интересы, социальные или иные темы, мотивирующие читателей заниматься и расширять знания на русском языке. Именно подчеркивая выражения, использованные при определении пользы данного материала, возможно привлечь читателя.

В методических исследованиях отдельно подчеркивается роль текстов повествовательного характера. Тексты данного типа легко читаемы и полезны при расширении словарного запаса. Однако обычный сторителлинг студентам сегодняшнего дня уже неинтересно. Следует взять за основу историю производства или целого процесса события, что станет одновременно и интересно, и полезно, поскольку в них должны быть предыстория и выводы.

Рассмотрим группу вопросов, выступающая своеобразным примерным планом логичного повествования, который сделает текста, по нашему мнению, интересным:

Первый вопрос: как? – методы, шаги, алгоритмы.

Второй вопрос: что? – причины, доказательства, преимущества, факты, подсказки.

Третий вопрос: почему? – факты, подсказки, уроки, пункты.

Четвертый вопрос: кто? – категории, типы, люди.

Пятый вопрос: каким образом? – варианты, цели, решения.

Шестой вопрос: где? – области, места, ресурсы.

Строгой последовательности придерживаться с точки зрения разного расклада ума у каждого составителя считается неразумным. Но важно упомянуть и описать как можно больше пунктов. Раскрывая ответы на вопросы, составителю следует придерживаться позиции, что чувствовать себя умным должен читатель, а не наоборот.

Использованная литература:

1. Dilshodbekov T.D. Psychological and pedagogical aspects of the organization of independent work. Thematic journal of Education Vol-8-Issue Q1 2023.

2. Wicke R. Vom Text zum Projekt. – Berlin: Cornelsen, 1997. 168 S.

3. Бердиева М.А. Пособие по чтению и развитию речи (на материале текстов по криминалистике): Учебное пособие, отв. ред. И.Р. Мирзаева. – Ташкент: ТГЮИ, 2011. 75 с.

4. Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос. 2003. 173 с.

5. Ван Дейк Т.А., Кинч В. Стратегии понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике: Когнитивные аспекты языка: сб. ст. – М.: Прогресс, 1988. Вып. 23. С. 153–211.

Shahlo KHODJIKULOVA,
Senior teacher, PhD
The Department of Foreign Languages Education,
Tashkent State University of Economics

THE ROLE OF PROBLEM-BASED LEARNING AND PROJECT-BASED INDEPENDENT STUDY ACTIVITIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF ECONOMICS STUDENTS

Annotation: this article explores the significant role of problem-based learning and project-based independent study activities in developing professional competencies among economics students. Through comprehensive literature analysis, the study examines the theoretical foundations, implementation approaches and effectiveness of these educational methodologies in economics education. The findings reveal that these active learning strategies substantially enhance critical thinking, problem-solving abilities, teamwork skills and practical application of theoretical concepts–all essential competencies for future economists. The article concludes with recommendations for higher education institutions to integrate these methodologies into economics curricula to better prepare graduates for the demands of the modern economy.

Key words: *problem-based learning, project-based learning, economics education, professional competencies, independent study, higher education.*

Аннотация: в данной статье исследуется значительная роль проблемного обучения и проектно-ориентированной самостоятельной учебной деятельности в развитии профессиональных компетенций студентов экономического направления. Посредством комплексного анализа литературы исследование рассматривает теоретические основы, подходы к реализации и эффективность этих образовательных методологий в экономическом образовании. Результаты показывают, что эти стратегии активного обучения существенно улучшают критическое мышление, способности решения проблем, навыки командной работы и практическое применение теоретических концепций – все эти компетенции являются необходимыми для будущих экономистов. Статья завершается рекомендациями для высших учебных заведений по интеграции этих методологий в учебные программы по экономике для лучшей подготовки выпускников к требованиям современной экономики.

Ключевые слова: *проблемное обучение, проектное обучение, экономическое образование, профессиональные компетенции, самостоятельная учебная деятельность, высшее образование.*

Annotatsiya: ushbu maqolada muammoli ta’lim va loyiha asosidagi mustaqil o‘quv faoliyatining iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim roli o‘rganiladi. Keng qamrovli adabiyotlar tahlili orqali tadqiqot iqtisodiy ta’limdagi ushbu ta’lim metodologiyalarining nazariy asoslarini, amalga oshirish yondashuvlarini va samaradorligini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu faol o‘qitish strategiyalari tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, jamoaviy ish ko‘nikmalari va nazariy tushunchalarni amaliy qo‘llash – bo‘lajak iqtisodchilar uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni sezilarli darajada oshiradi. Maqola oliy ta’lim muassasalariga iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarini zamonaviy iqtisodiyot talablariga yaxshiroq tayyorlash uchun ushbu metodologiyalarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *muammoli ta’lim, loyiha asosidagi ta’lim, iqtisodiy ta’lim, kasbiy kompetensiyalar, mustaqil o‘quv faoliyati, oliy ta’lim.*

INTRODUCTION

The rapidly evolving global economic landscape has transformed the competency requirements for economics graduates. Traditional lecture-based educational approaches often fall short in developing the practical skills and competencies demanded by modern employers. This growing gap between academic preparation and workplace requirements has prompted educators and researchers to explore innovative teaching methodologies that foster the development of professional competencies through active engagement and practical application of knowledge.

Problem-based learning (PBL) and project-based independent study activities have emerged as promising pedagogical approaches that address these challenges by simulating real-world economic scenarios that require analytical thinking, collaborative problem-solving and independent research. These methods shift the educational paradigm from passive knowledge acquisition to active knowledge construction, where students take ownership of their learning process.

METHODOLOGY AND LITERATURE REVIEW

This research employed a comprehensive literature review methodology to analyze existing scholarly works on problem-based learning and project-based independent study in economics education.

The theoretical framework for this study draws from constructivist learning theory, which posits that knowledge is actively constructed by learners rather than passively received. According to Vygotsky's social constructivism, learning is inherently social and occurs through interaction with more knowledgeable others and engagement with challenging tasks within the learner's zone of proximal development.

Savin-Baden's research provides a comprehensive framework for understanding problem-based learning as an educational approach where complex, real-world problems serve as the vehicle for learning. This approach aligns with Kolb's experiential learning cycle, which emphasizes the importance of concrete experience, reflective observation, abstract conceptualization and active experimentation in the learning process.

Research by Uzbek scholars Tashpulatov and Abdullayeva highlight the particular relevance of problem-based learning in the context of Uzbekistan's educational reforms. Their study of economics education in Uzbek universities demonstrates that integrating problem-based approaches helps students better understand the transition economy context and develop skills aligned with national economic development priorities.

The literature reveals that problem-based learning in economics education typically involves presenting students with complex economic scenarios or cases that require application of theoretical concepts to develop solutions. This approach differs from traditional case studies by emphasizing the problem-definition process and requiring students to identify learning needs independently.

Project-based learning in economics, as described by Larmer and Mergendoller, involves sustained inquiry into economic questions or challenges, resulting in tangible products that demonstrate learning. These projects often involve data analysis, economic modeling, policy recommendations or market research reports.

Yuldashev and Karimov, in their analysis of pedagogical innovations in Uzbekistan's higher education system, note that project-based learning is particularly effective for economics students as it mirrors the project-oriented nature of many roles in Uzbekistan's developing market economy and helps students develop entrepreneurial thinking essential for the country's economic growth strategy.

RESULTS AND DISCUSSION

The analysis of the literature reveals several significant findings regarding the impact of problem-based and project-based learning approaches on the development of professional competencies among economics students.

First, these pedagogical approaches substantially enhance students' analytical and critical thinking skills. By engaging with complex, ill-structured economic problems, students develop the ability to identify relevant variables, analyze relationships and evaluate alternative solutions–skills essential for economic analysis in professional settings. Research by Hmelo-Silver demonstrates that economics students who participated in problem-based learning showed significantly improved ability to transfer theoretical concepts to new situations compared to students in traditional lecture-based courses.

Second, these approaches foster the development of research competencies critical for economists. The independent study component requires students to locate, evaluate and synthesize information from diverse sources, developing information literacy skills essential in the data-rich field of economics. A study by Dochy found that economics students engaged in project-based learning demonstrated enhanced ability to formulate research questions, design appropriate methodologies and draw evidence-based conclusions.

Third, problem-based and project-based learning significantly contribute to the development of communication and teamwork skills. Economic problems rarely have simple solutions and typically require collaborative approaches. These pedagogical methods necessitate that students articulate economic concepts clearly, defend positions based on evidence, negotiate with team members and present findings effectively. These skills are consistently identified by employers as essential competencies for economics graduates.

Fourth, these approaches bridge the theory-practice gap that often characterizes traditional economics education. By working with authentic economic scenarios, students develop the ability to apply theoretical models to real-world situations and understand their limitations. This practical orientation improves students' ability to use economic tools and frameworks appropriately in professional contexts.

Fifth, problem-based and project-based learning enhance students' self-directed learning capabilities. The independent nature of these activities requires students to take responsibility for their learning process, develop effective time management strategies and reflect on their learning–all essential skills for lifelong professional development in the rapidly evolving field of economics.

Research conducted at Tashkent State University of Economics by Mamatov found that economics students who participated in problem-based learning activities developed stronger analytical skills related to Uzbekistan's economic development challenges compared to their peers in traditional programs. The researchers noted particular improvements in students' ability to analyze regional economic development issues and propose context-appropriate solutions.

CONCLUSION

This analysis demonstrates that problem-based learning and project-based independent study activi-

ties play a crucial role in developing the professional competencies of economics students. By engaging students in active, authentic learning experiences that simulate real-world economic challenges, these approaches foster the development of critical thinking, problem-solving, research, communication skill and collaboration skill essential for professional success in economics.

The findings suggest several important implications for economics education. First, higher education institutions should consider integrating problem-based and project-based learning methodologies into economics curricula, particularly in upper-level courses where students have acquired foundational knowledge. Second, effective implementation requires thoughtful design of learning activities that balance challenge with support and authentic complexity with educational manageability. Third, faculty development initiatives should focus on preparing instructors to facilitate rather than direct the learning process, providing guidance while fostering student autonomy.

In conclusion, as the economic landscape continues to evolve with increasing complexity and technological integration, problem-based learning and project-based independent study activities offer promising approaches for developing the adaptive, analytical and collaborative competencies that will enable economics graduates to thrive in their professional careers.

References

1. Reimann, N., & Wilson, A. (2020). Threshold concepts in economics: Implications for teaching, learning and assessment. Higher Education Pedagogies, 5(1), 110-130.

2. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235-266.

3. Savery, J. R. (2015). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. Essential Readings in Problem-Based Learning, 9(2), 5-15.

4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

5. Savin-Baden, M. (2020). Problem-based learning in higher education: Untold stories. Open University Press.

6. Kolb, D. A. (2014). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Pearson Education.

7. Tashpulatov, S. N., & Abdullaeva, M. (2022). Innovatsion ta'lim metodlari: iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasi [Innovative educational methods: Experience in developing professional competencies of economics students]. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali, 4(2), 78-92.

8. Larmer, J., & Mergendoller, J. R. (2015). Setting the standard for project based learning. ASCD.

9. Yuldashev, Z., & Karimov, A. (2023). Oliy ta'limda loyiha asosidagi o'quv faoliyati: iqtisodiy ta'lim misolida [Project-based learning in higher education: The case of economics education]. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 3(1), 145-158.

10. Dochy, F., Segers, M., Van den Bossche, P., & Gijbels, D. (2003). Effects of problem-based learning: A meta-analysis. Learning and Instruction, 13(5), 533-568.

Shahrigul JUMAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi II bosqich magistranti

ALISHER NAVOIY MUAMMOLARINING ILMIY TASNIFI, MAVZU DOIRASI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning muammolari ilmiy jihatdan tasniflanadi, ularning mavzu doirasi, yashiringan ism topilishi bilan birgalikda jamiyat kamchiliklari yoki ma’lum shaxs fazilat yoki qusurli tomonlari tilga olingani haqidagi fikrlar tahlil qilinadi. Alisher Navoiyning boshqa janrlar singari muammo janrida ham keng ko‘lamli ijod etgani e’tirofga olinib, uning bu janrdagi ba’zi ijod namunalari turli jihatlardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *mumtoz adabiyot, muammo janri, muammoshunoslik, “Mufradot”, “Risolayi muammo”, qasida, milliy adabiyot.*

Annotation: the article scientifically classifies the problems of Alisher Navoi, analyzes their subject matter, the discovery of a hidden name, and the ideas that they refer to the shortcomings of society, or the virtues or shortcomings of a certain person. It is recognized that Alisher Navoi created extensively in the problem genre, as well as in other genres, and some of his creative works in this genre are analyzed from various aspects.

Key words: *classical literature, problem genre, problemology, “Mufradot”, “Risolayi problem”, ode, national literature.*

Аннотация: в статье научно классифицируются проблемы Алишера Навои, анализируется их тематический охват, наряду с раскрытием скрытого имени упоминаются мнения о недостатках общества, достоинствах или недостатках определенного человека. Признано, что Алишер НАвой создал широкий спектр произведений в проблемном жанре, как и в других жанрах, а некоторые его произведения в этом жанре анализируются с разных сторон.

Ключевые слова: *классическая литература, проблемный жанр, проблемология, «Муфрадот», «Ри-солайская проблема», ода, национальная литература.*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq mumtoz adabiyoti tarixidagi deyarli barcha janrlarda sermahsul ijod qilgan. U qoldirgan g‘oyat buyuk adabiy-ilmiy meros nafaqat o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti, balki jahon adabiyoti ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotining katta bir qismini tashkil qiladi. Bir-biridan go‘zal mazmun bilan yaratilgan g‘azallar, didaktik ruhga botirilgan ruboiy va qit’alar, diniy-ma’rifiy g‘oya asosidagi risola va dostonlar hali hanuz jahon kitobsevarlari tomonidan qo‘ldan qo‘ymay o‘qiladi. Ulug‘ shoirning fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan muammolari tarixiy-ma’rifiy, ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan qimmatlidir. Jumladan, buyuk mutafakkir muammo janrida ham turkiy va forsiy tilda barakali ijod qilgan.

Navoiy yashagan davrga kelib muammo janri ancha taraqqiy topgan, o‘zining maxsus qoidalariga janr sifatida shakllangan edi. Hatto XV asrga kelib, faqat muammo janrida ijod qiluvchi mashhur muammonavislar, muammogo‘y shoirlar ham paydo bo‘lgan edilar. Muammo janri ba’zi shoirlar ijodida shunchaki ermakka aylangan bo‘lsa ham, ammo Jomiy, Navoiy singari buyuk shoirlar bu janrni badiiy tafakkur mahsuli deb bilishgan. Tarix, lug‘az, chiston bilan bir qatorda keng tarqalgan muammo janri so‘z san’atining o‘ziga xos go‘zal namunasi bo‘lib, u Navoiy ijodida yanada sayqal topdi. Abdurahmon Jomiydan tortib Mavlono Lutfiyga qadar yaratilgan muammolar va unga doir risolalar Alisher Navoiy uchun tajriba bo‘lib xizmat qildi va bu tajribalar muammo janrining Navoiy ijodidagi kamolot davrini yaratib berdi. Navoiy lug‘az, tarix, chiston, muammo singari janrlarni badiiy fikrlashni o‘tkirlovchi vosita deb bilgan. Navoiy ba’zida jamiyat kamchiliklari, davr muammolarini ushbu janrdagi namunalar orqali ochib berishga harakat qilgan. Shu mavzuda yozilgan muammo yechilganda, shoir nazarda tutgan fikr badiiy ravishda isbot bo‘lib, o‘quvchi uni yechgach badiiy zavqni tuyadi. Navoiy muammolari faqat son jihatdan emas, balki g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatidan ham o‘rta asr muammochiligining yuksak namunalaridan bo‘lib qoldi.

Muammo janri tarixida yaratilgan muammolar orasida Navoiy muammolari alohida ajralib turadi. Shoir birinchilardan bo‘lib turkiy tilda muammo janrida ijod qildi. Alisher Navoiyning turkiy tilda 52 ta va fors-tojik tilida 500 ga yaqin muammolari mavjud, ular orasidan 373 tasi bizgacha yetib kelgan. U muammo nazariyasiga oid “Mufradot” nomli ilmiy risola ham yaratgan. Unda muammo yozish qoidalari, amallari ixcham va tushunarli qilib bayon etiladi. “Devoni Foniy”ga kirgan bir qator forsiy muammolar ham tahlil qilib ko‘rsatiladi.

Asar sharq mumtoz adabiyotidagi an’anaviy usul “Basmalai sharif” bilan boshlanadi:

Bismillohir – rahmonir – rahim,
Nomayi fathasti zi hayyi qadim.
Ta’miya dar ismi muammost in,

Olloh – Olloh chi muammost, in.

Tarjimasi: Mehribon va Rahmli Ollohning nomi bilan (jumlasi) azaldan barhayot (Tangri)dan (bizga berilgan) g‘alabaning boshlanish nomasidir. Bu atalgan (nomlangan) ismning yashiringanidir. Olloh, Olloh, bu qanday muammodir?

Ushbu muammo fors -tojik tilida yaratilgan bo‘lib, unda “Mufradot” muammo haqidagi asar ekanligi, “muammo” so‘zi “yashiringan” degan ma’noni bildirgani uchun Navoiy “Bismillohi-rahmonir-rahim” iborasiga Olloh butun qudrati bilan yashiringanligi, uni har qancha sharhlagan bilan asl mohiyatiga yetish mushkul-muammo ekanligini mohirona tasvirlagan.[1]

Navoiy “basmala”dan so‘ng xuddi “Xamsa”dagi singari o‘zidan oldingi muammo haqida risola yozgan muammoshunoslarni xotirlaydi. Ular yaratgan risolalarni qimmatbaho ipakka, o‘z asarini esa oddiy bo‘zga o‘xshatadi. Keyingi qismlarda uning nomlanishiga izoh berib o‘tadi, uni izohlar ekan, o‘zining yaratgan muammolarini “alif” va “be” singari oson deya ta’riflaydi. Arab yozuvida alifbodagi harflar sanoq tizimini ham ifodalaydi, mufradot birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar tizimidir. Alisher Navoiy bu sohada yangiligi, muammo yozishni endi boshlagani bois o‘z risolasiga shunday nom beradi. Biroq unda ifodalangan 121 forsiy va turkiy muammolar sabab shunday nom berilgan, degan qarashlar ham bor. Navoiyning «Mufradot» asariga kirgan 121 muammo ham Sharq she’riyati sirlaridan chuqur xabardor bo‘lgan iste’dodli ijodkorning yetuk ijodiy namunalaridir. Alisher Navoiyning «Mufradot» asarida, muammo qoidalari dastlab uch guruhga ajratiladi. A’moli tas’hili (osonlashtirish amallari), a’moli tahsili (hosil qilish amallari) va a’moli takmili (mukammallashtirish amallari). Ushbu guruhlar o‘z navbatida turli qoidalarga va bu qoidalar turli usullarga ajratiladi. Muammo yechish qoidalari jami 15 ta, uni yechish usuli esa 48 xil. “Mufradot”dagi uchta yirik guruh o‘z o‘rnida yana bir necha shaxobchalarga ajratiladi. Ushbu shaxobchalar muammo yechish qoidalaridir. Jumladan, a’moli tas’hili guruhi o‘z navbatida intiqod – harf saralash, tahlil – qismlarga ajratish, tarkib – biriktirish va tabdil – o‘zgartirish qoidalariga ajratiladi. A’moli tahsili esa 8 ga, ya’ni tansis va taxsis – ochiq qilish va xos qilish, tasmiya – nomlash, talmeh – ishora qilish, tarodif va ishtirok – mos keladigani va o‘xshashini olish, kinoyat – yashirish, berkitish tas’hif – yozuvda xato qilish, istiora va tashbih va hisob qoidalariga bo‘linadi. Eng oxirgi uchinchi guruh bu – a’moli takmili bo‘lib, u o‘z ichiga uch qoidani oladi. Bular ta’lif – ulash, ya’ni birlashtirish, iskot – tashlab yuborish, olib tashlash va qalb – teskari o‘qish qoidalariga bo‘linadi.

Alisher Navoiy “Mufradot” risolasiga kirgan muammolaridan tashqari o‘zbek va fors – tojik tillarida ham muammolar yaratgan bo‘lib, ularni o‘zining ijod namunalaridan tashkil topgan bir qancha devonlariga kiritgan. Eng e’tiborli tomoni esa shundaki, u o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘li o‘z ona tilisida boshqa she’riy janrlardagi singari muammo janrida ham qalam tebratgan. Navoiy o‘z muammolari haqida “Badoye’ul-bidoya” devoniga yozgan debochasida shunday deydi: “Barcha lutf va ravonliqda mufrad va nomi muammolar, barchasi ot yoshirurda sotir va kiromi lug‘azlar bor”.[2] Agarda shoirning “Devoni Foniy”dagi fors – tojik, “Navodir ush-shabob”dagi turkiy tildagi muammolariga e’tiborimizni qaratsak, yuqorida fikrlar to‘g‘ri ekanligiga amin bo‘lamiz.

Navoiy muammolari mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular rang-barang mavzularda yaratilgan, g‘oyaviy mazmun ham shoir ijodiyotining bosh masalalariga hamohangdir. Aynan shu jihat orqali ijodkor o‘quvchiga muammoni san’at darajasida ekanligini ko‘rsatib beradi. Alisher Navoiy muammolarida, asosan, insoniy muhabbat, adolat haqidagi, axloq haqida falsafiy qarashlar, diniy mutaassib shaxslar haqidagi mushohadalar va shunga o‘xshash boshqa mavzular yoritilgan. Alisher Navoiyning so‘z qo‘llashdagi mahorati ushbu janrni shunchaki shakliy unsurlar mevasi emas, balki mazmun ham yetakchi bo‘lishi lozim bo‘lgan fan darajasiga olib chiqqan. Masalan, uning “Mufradot”idan joy olgan “Odam” muammosiga qaraydigan bo‘lsak, muammo yechimi uchun kalit bo‘ladigan, “oh”, “dard”, “mehnat” so‘zlari shunchaki janr shakliy talabi bilan emas, aksincha, shoirning davr bevafoligidan chekkan ohlari, zamon adolatsizligi tufayli chekilgan dardlari, alamli mehnatlari bu muammoda jamlanganining guvohi bo‘lamiz.

Dili moro chu xohi bozchustash,
Zi oh-u dard-u mehnat cho‘ naxustash. [3]

Fors-tojik tilida yaratilgan ushbu muammoda quyidagicha yechish usuli va mazmun yashiringan: “naxustash” (birinchisidan) ishorasiga asosan آه – “Oh”, درد – “dard” va تن حم - “mehnat” so‘zlarining birinchi harflari saralansa, مدآ — Odam ismi hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari uning “Borak” nomli muammosida o‘z davrining nodon, manman, tuban shohlari qalam ostiga mahorat bilan tilga olinadiki, unda faqatgina Borak ismi emas, zamon zaylidan tug‘ilgan hasrat ham ifodalanadi:

Shohi zamon chu dar sar paydo kunad havoyash,
Durhoi toji torak rezad ba zeri poyash.[4]

Mazmuni: (Zamon shohi agar boshida havo (manmanlik) paydo qilsa,
Uning toji ustidagi durlar oyog‘i ostiga to‘kiladi).

Ushbu muammo tas’hif qoidasiga asosan yechiladi, ك ت – “torak” — usti so‘zining nuqtalari mahv etilsa, اكرا bo‘ladi. Endi ا ج ت – “toj”dagi dur, ya’ni nuqta uning ostiga to‘kilsa, ا ب كرا — Borak ismi hosil bo‘ladi. Ko‘rinib

[1] Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami 20-jild O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – Toshkent: Fan, 2003. 492-bet
[2] Navoiy A. Favoid ul-kibar. 770-bet.
[3] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. – Toshkent: Fan, 2003.
[4] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami 20-jild. – Toshkent: Fan, 2003.

turibdiki, muammoda nazarda tutilayotgan fikr nafaqat muammo halliga, balki uning shoir yetkazmoqchi bo‘lgan fikr anglashilishiga ham xizmat qilmoqda.

Navoiy turkiy tilda yaratgan muammolar orasida zamon zaylidan shikoyat, shuningdek, didaktik mazmunni o‘zida jamlagan falsafiy-axloqiy xarakterdagi muammolar ham mavjud, lekin ularning aksariyatida ishqiy tasavvufiy mazmun ham yetakchilik qiladi. Navoiy muammolari mazmun-mohiyatida ishqning tabiatigina emas, balki uning asosiy qonuniyatlari, ijtimoiy hayotda, shuningdek, insonning kamoloti jarayonida tutgan o‘rni masalalariga oid nazariy va falsafiy mushohadalar bayon etiladi. Muammolardagi har bir mavzu har keyingi muammoda yangilanib boraveradi. Eng e’tiborga molik jihati esa, ularda takror, bir-biriga o‘xshashlik holatlari kuzatilmaydi. Har bir muammo nafaqat o‘zida ism yoki shaxsni yashiradi, balki unda qo‘llangan nomga muvofiq keluvchi ma’no ham uyg‘unlashadi. Ijodkor ushbu janrda janr nomiga muvofiq davr muammolarini ham olib chiqadi. Aynan ushbu jihatlar, muallif ijodiga bo‘lgan qiziqish va unga bo‘lgan ijobiy munosabatni yanada oshiradi.

Ularning tiliga to‘xtaladigan bo‘lsak, tushunish uchun ancha qulay, sodda va xalqchil iboralardan foydalanilgan. O‘ziga xos tasvirlar, badiiy qochirimlar, hazil va mutoyibaga boy jumlalar uni yanada tez tushunilishiga va yechimning oson topilishiga sabab bo‘lgan. Masalan, “bag‘ri tosh” – ozor bermaslik ma’nosida “pashsha ham qo‘ndirmaslik”, “qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa artish”, da’vogar bo‘lish ma’nosida “etagidan ushlash”, “boshi osmonga yetish”, “ko‘z ochib yumguncha” kabi xalq iboralari mahorat bilan ishlatilgan. Yoki go‘zalning ariq bo‘yiga chiqish manzarasi, etagini beliga qistirishi, sochlariga taqinchoq taqib chiqishi, go‘zalning dam o‘zbekcha, dam tojikcha gapirishi tasviri ham muammolardagi lirik his-tuyg‘ularni kuchaytirishga xizmat qilgan.[5]

Alisher Navoiy o‘z muammolarida qo‘llagan ismlarga ham diqqat qaratadigan ekanmiz, ularning ko‘pchiligi o‘z zamondosh salaflari, yoki asaridagi qahramonlari, shoirning tanishlari yoki do‘stlari ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa qaysidir ma’noda o‘sha ism qo‘llangan muammoda shaxsning xarakteri, uning dunyoqarashini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy o‘z muammolarida tarixiy shaxslar nomini ham qo‘llab, ularning tarixini atigi ikki misradan iborat muammoda jo qila olgan. Jumladan, uning “Yunus” nomli fors tilidagi “Mufradot” asaridan joy olgan muammosi aynan shunday xususiyatga ega:

رسول آز راب شاراف وادرافت روا مونايي
وَلي اب حرف يي نَ تنطوحس ني يي نَ تنف روف وَ

Forschasi: Rasule az barash ovarda turfa nomai o‘,
Vale ba harfi naxustini noma rafta furo‘.

Tarjimasi: Bir elchi uning ajoyib xatini olib keldi,
Lekin birinchi so‘z bilan u xat botib ketdi.

Muammoda qo‘llangan “رسول”(rasul) – elchi, payg‘ambar ma’nolarida bo‘lib, payg‘ambarlar orasida daryoga tashlanib, suvga botgan, baliq qorniga tushgan kishi — “س ون ي” – Yunus payg‘ambardir. Bu yerda “suvga botdi” so‘zi kinoya amalini hosil qilgan jumla bo‘lib, u muammo yechimini topishda asos vazifasini o‘taydi. Negaki, suvga botish voqeasi haqida gap ketganda, sharq mumtoz adabiyotida “Yunus payg‘ambar” qissasi eslanadi.

Bundan tashqari, uning shu asariga kiritilgan “Do‘st” nomli muammosi ham, aynan Jomiyga bag‘ishlangan degan qarashlarga ega:

بل ژ ون إي، بص حي مس دم ق ي د ور ت ف ا ل ز و د بوي
أز ن ك اي ر ب ا، م ج أ دم س ا ن ل ل ي ب ت ك اي ن أ ز

Bo‘i zulfatro du qism omad hisob, ey no‘shlab,
Z-on yake rutb-ul-lison omad acham, z-on yak arab.

Tarjimasi: Ey shirinlab, zulfing hidining hisobi ikki qism hisoblanadi,

Uning bir qismidan ajamlar va ikkinchi qismidan arablarning tillari bahra oladi.

Muammo halli: “ق مس — qism” so‘zi “abjad” hisobida 200 ga teng (100 – ق, 60 – س, 40 – م), uning ikki barobari 400 bo‘lib, u “abjad”da ت - harfini bildiradi. Bu harf “du—دو” — ikki yoniga yozilsa, — دوت bo‘ladi. Zulfdan maqsad ل - harfi bo‘lib, 30 ga teng va ikki barobari 60 dir va س - harfini bildiradi. Hammasi tarkib topsa, “دو تس - Do‘st” ismi hosil bo‘ladi. Mazmuniga qarab bu muammo Navoiyning do‘sti Abdurahmon Jomiyga atalgan bo‘lishi mumkin.[6] Negaki, chindan ham Jomiyning ijodidan ajam ham, arab xalqi ham birdek bahra oladi.

Navoiy muammolari haqida so‘z ketganda, uning bu janrdagi asarlari shunchaki ijod namunasi emas, aksincha, boy ilmiy meros ekaniga guvoh bo‘lamiz. Uning muammo janriga oid ilmiy risolasi, shuningdek, u janrdagi ijod namunalari, badiiy asarlar tarkibida kelgan muammolari janrning ahamiyatlilik darajasini belgilashda muhim omildir.

[5] Zohidov L. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. – Toshkent: Fan, 1985. 56-bet.
[6] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jild. – Toshkent: Fan, 2003.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jild. – T.: Fan, 2003.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 4-jild. – T.: Fan, 2003.
3. Zohidov L. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2015.
5. Jo‘rayev J. Alisher Navoiy ijodida muammo janriga musonasab. – T., 2009.
6. www.natlib.uz
7. www.dis.nat.uz

Kamola MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

“DEVONU LUG‘ATIT TURK” ASARIDAGI KIYIM-KECHAK NOMLARINING DIAXRON VA SINXRON TUZILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi kiyim-kechaklar va ular bilan bilan bog‘liq nomlar tahlil qilingan. Kiyim butun tarixiy jarayon davomida xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlardan biri sifatida milliy madaniyat tarkibida muhim moddiy madaniyat elementiga aylangan. Kiyim-kechaklar, umuman, kiyinish madaniyati qadimdan o‘zbek (turkiy) xalqining ijtimoiy mavqeyini, dunyoqarashini, qadriyatlarini, shuningdek, e’tiqodi, oilaviy ahvolini aks ettirib kelgan.

Kalit so‘zlar: *turkiylar, milliy madaniyat, kiyim-kechak, zeb-u ziynatlar, mato turlari, ayollar kiyimlari, erkaklar kiyimlari.*

Аннотация: эта статья проанализировала одежду и связанные с ними имена в Махмуд Кашгари, “Дивани лугатит турк”. Одежда стала важным материальным культурным элементом важной материальной культуры как одной из характеристик,разделенных всем историческим процессом. Одежда, как правило, культура одевания уже давно отражала социальный статус, мировоззрение, ценности, её убеждения и семейное положение.

Ключевые слова: *турки, национальная культура, одежда, украшения, типы ткани, женская одежда, мужская одежда.*

Annotation: this article analyzes the clothes and the names associated with them in Mahmud Kashgari’s work “Devon-u lugatit turk”. Clothes have become an important element of material culture in the structure of national culture throughout the historical process, as one of the features that distinguish peoples from each other. Clothes, in general, the culture of clothing has long reflected the social status, worldview, values, as well as beliefs, and family status of the Uzbek (Turkish) people.

Key words: *turks, national culture, clothes, ornaments, types of fabric, women’s clothes, men’s clothes.*

“Devonu lug‘atit turk” asari XI asrga mansub turkiy tillarning birinchi lug‘ati hisoblanadi. Asar XI asrning ikkinchi yarmida Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Koshg‘ariy tomonidan yozilgan, Mahmud Qashg‘arlik nomi bilan mashhur bo‘lgan. Turkiy xalqlarning qomusiy lug‘at bo‘lgan “Devonu lug‘atit turk” Qoraxoniylar davrining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Bag‘dodda 1074–1077-yillarda yozib tugallangan deb taxmin qilinadigan asar nafaqat turkiy so‘zlarni o‘z ichiga oladi, balki turkiy qabilalar va ularning shevalari, grammatikasi, turkiylar tarixi, geografiyasi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni ham o‘zida qamrab olgan. U ma’lumot jihatidan turkiylar qomusiga xos xususiyatlarga ega. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asariga turkiy deb hisoblagan so‘zlarni kiritgan va ularni misollar orqali izohlab berishga harakat qilgan. “Devonu lug‘atit turk”ning bizgacha yetib kelgan yagona nusxasi Istanbuldagi Millat qo‘lyozmalari kutubxonasidagi Ali Amiri Afandi qo‘lyozmalar bo‘limida 4189-raqami bilan saqlanadi. Turkiylarning ijtimoiy hayotiga oid muhim ma’lumotlar berilgan asarda kiyim-kechak bilan bog‘liq ma’lumotlar ham ko‘p uchraydi. Odat va an’analar, e’tiqodlar, geografiya, turmush tarzi, estetik tushuncha kabi masalalar folklor elementi bo‘lgan kiyimni shakllantirishda samarali omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu omillar insoniyatning o‘z milliy liboslarini yaratishida ham muhim rol o‘ynagan. Kiyim butun tarixiy jarayon davomida xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlardan biri sifatida milliy madaniyat tarkibida muhim moddiy madaniyat elementiga aylandi. Kiyinish madaniyati hozirgi zamonda insonlar uchun bir ko‘rsatkichdir. Kiyinish madaniyati inson tashqi qiyofasini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi.

“Devonu lug‘atit turk” asarida kiyim-kechakka oid bo‘lgan so‘zlarning ayrimlari quyida izohlangan:

Kiyimlarda qo‘llaniladigan mato nomlari:

Buchgak – tuyaning oyoq terisi.

Charukluk – poyabzal qilish uchun tayyorlangan teri.

Chaydam – yomg‘irdan himoyalanishda va to‘shak tayyorlashda ishlatiladigan yupqa kigiz.

Chinaxsi – Xitoyning naqshli ipak matosi.

Panjara – kashta tikilgan xitoy shoyisi.

Chuz – qizil va qora rangli iplar bilan to‘qilgan Xitoy matosi.

Kigiz – o‘g‘uzlarda kigiz deb ataladi.

Keduklik – yomg‘irdan asrash uchun kigiz materialidan tayyorlangan kiyim.

Kemek – paxtadan tikilgan naqshli va chiziqli kiyim.

Kenzi – qizil, sariq, yashil – har xil rangdagi xitoy matosi.

Karim – naqshli mato.

Kez – Xitoy matosining bir turi.

Kimishge – Qashqarda kigizdan tikilgan kiyim shunday nomlangan.

Loxtay – sariq rangdagi xitoy ipak.

Taxchek – Xitoy ipaklarining bir turi.

Taxtu – yigiruvdan oldingi xom ipak arqonlar olib kelingan va o‘ralgan.

Uym – turkmanlarning poyabzal yasash uchun ishlatadigan kigiz.

Yatuk – ikki xil ipdan to‘qilgan jun, paxta jun.

Zungum – Xitoy ipaklarining bir turi.

Mato nomlari turkiy xalqlarning kiyinish madaniyati, kashtachilik san’ati, iqtisodiy aloqalari va iqlim sharoitiga bog‘liq ravishda shakllangan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida ko‘plab mato nomlarini qayd etgan bo‘lib, ularni geografik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin. Mato nomlari hududlarning joylashish kesimiga, u yerning iqlim sharoitlariga, insonlarning turmush darajasiga ko‘ra farq qilgan. Paxta matolari Movarounnahr va Xorazmda ishlab chiqarilgan. Paxta matolari turkiy xalqlarning kundalik hayotida keng ishlatilgan. Ular sovuq va issiq iqlimga mos bo‘lib, uy kiyimlari, qalin choponlar va past tabaqa insonlarning kiyimlari uchun ishlatilgan. Ipak mato XI asr turkiy xalqlari orasida juda mashhur bo‘lgan. Ular Xitoy, Xuroson va Xorazm bilan savdo aloqalari orqali ipak matolarni qo‘lga kiritgan. Ipak matolari hukmdorlar va boy tabaqalar tomonidan kiyiladigan liboslar uchun ishlatilgan. Ipakdan to‘y va bayram liboslari uchun maxsus bezaklar qilingan, saroy bezaklari va choyshablar sifatida ham qo‘llanilgan. *Chuz* va *Xulin* kabi matolar Xitoydan olib kelingan. *Panjara* matosi Buxoro va Xorazm hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan.

Parij antropologiya maktabi, Etnologiya professori doktor Jorj Montandonning Traitening “D’etnologie Culturelle” (“Madaniy etnologiya”) asarida Xitoyga shim birinchi marta O‘rta Osiyo turklari tomonidan olib kelingani aytilgan. Turkiy xalqlar charm va teridan yasalgan kiyim-kechaklardan ham keng foydalangan. Ayniqsa, sovuq hududlarda charm kiyimlar keng ishlatilgan. Charm matolar turkiy ko‘chmanchilar tomonidan ishlab chiqarilgan. Xuroson va Buxoro hunarmandlari charm matolarni bezaklash bilan shug‘ullangan. [5; 47]

“Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan ipak mato va kiyim nomlari keyingi davrlarda o‘zgacha nom bilan atalganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida quyidagi jumlalar uchraydi: “Otabekning ustidagi buxoro shoyisidan tikilgan to‘n uning mavqeyini yanada ulug‘lab ko‘rsatardi”. Bu yerda buxoro shoyisi mato turi sifatida keltirilgan. [2; 134]

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida ham eski mato turi tilga olingan: “Munisxonning yangi atlas ko‘ylagi uning yuzidagi tabassum bilan uyg‘unlashib, uni yanada go‘zal ko‘rsatardi”. Bu asarda atlas matosi tilga olingan. [3; 156]

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” hikoyasida beqasam matosi haqidagi jumla uchraydi: “Onasi unga beqasam ro‘molini sovg‘a qildi, bu esa uning uchun eng qimmat tuhfa edi”. [4; 57]

Qadimdan ipak va qimmatbaho matolardan tikilgan kiyimlar boylarga, oddiy matoli kiyimlar esa kambag‘al tabaqaga tegishli bo‘lgan. Til taraqqiyoti turli davrlarda ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Kiyim-kechak atamalari ham shunga misol bo‘lib, ularning diaxron (vaqt davomida o‘zgarishi) rivojlanishi turkiy xalqlarning hayot tarzi, iqlim sharoiti va tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari va boshqa qadimiy manbalar orqali biz turkiy tillarda kiyim nomlarining tarixiy o‘zgarishlarini kuzatishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda “Devonu lug‘atit turk” (XI asr) asarida uchraydigan kiyim-kechak atamalari zamonaviy o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslangan va izohlangan.

O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida ularning kiyim-kechak bilan birga leksik boyligi ham o‘zgara borgan. Bunda tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy hayot tarzi va xalqning diniy e’tiqodlari asosiy omillardan bo‘lib xizmat qilgan. Bu omillar zamonlar osha kiyim-kechak nomlarining fonetik va leksik jihatdan o‘zgarishiga, ba’zi kiyim nomlarining esa umuman yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelgan. Yuqorida keltirilgan kiyim-kechak nomlari keyingi davrlarga mansub badiiy asarlarda qo‘llanilganligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan: *To‘n* so‘zi “Devonu lug‘atit turk”da: “Tön – uzun yengli ustki kiyim, odatda ipak yoki paxtadan tayyorlangan”.

Hozirgi adabiy tilda *to‘n* so‘zining Oybek va Said Ahmad ijodiga mansub asarlarda qo‘llanganini kuzatish mumkin. Xususan, Oybekning “Navoiy” romanida undan quyidagicha foydalanilgan: “Navoiy nafis ipak to‘n kiygan edi”.

Shuningdek, Said Ahmadning “Ufq” romanida ham *to‘n* so‘zidan foydalanilgan: “Dehqonlar yirtiq-yamoq to‘nlarini yelkasiga tashlab, dalaga otlandilar”.

Kamzul (Kamchi). “Devonu lug‘atit turk”da: “Kamchı – yengsiz ustki kiyim, odatda, erkaklar kiygan”.

Hozirgi adabiy tilda G‘afur G‘ulom, Pirimqul Qodirov kabi ijodkorlarga mansub asarlarda kamzul so‘zi

uchraydi. Jumladan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida: “Otamning eski kamzuli menga katta bo‘lsa ham, kiyib oldim”.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ham kamzul so‘zi ishlatilgan: “Bekning kamzuli qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi”.

Shalvar (Chalvar). “Devonu lug‘atit turk”da: “Chalvar – keng bichimli shim, harakat qilishga qulay”.

Hozirgi adabiy tilda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida shalvar so‘zidan foydalanilgan: “Ayolning ipak shalvari harakat qilgan sari yaltirardi”.

Qalpoq (Kalpak). “Devonu lug‘atit turk”da: “Kalpak – mo‘ynali yoki jun matodan qilingan bosh kiyim, odatda sovuqdan himoya qilish uchun”.

Hozirgi adabiy tilda ham qalpoq so‘zidan faol foydalaniladi. Jumladan, Oybek, Said Ahmad kabi adiblar ijodida bunga guvoh bo‘lish mumkin. Oybekning “Navoiy” romanida: “Oq mo‘ynali qalpoq kiygan yigit bozor oralab o‘tdi”.

Said Ahmadning “Ufq” romanida: “Qalpoq kiygan otaxon quyoshga qarab ko‘zlarini qisdi”.

Choriq (Charuk). “Devonu lug‘atit turk”da: “Charuk – charm yoki xom charm oyoq kiyimi, asosan, cho‘ponlar va dehqonlar kiygan”.

Hozirgi adabiy tilda Said Ahmad, G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlar mazkur so‘zdan foydalangan. Jumladan, Said Ahmadning “Qadrdon dalalar” qissasida: “Choriq kiygan dehqon yer chopayotgan edi”. Shuningdek, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida: “Chorbog‘dan qaytayotgan otaxonning choriqlari chang ichida qolgandi”.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan kiyim-kechak nomlari keyingi davr badiiy adabiyotida ham keng qo‘llanilgan. Ba’zi so‘zlar zamonaviy o‘zbek tilida ham deyarli o‘zgarmasdan qolgan *(chopon, to‘n, etik*), ba’zilari esa yangi talaffuz va yozuv shakliga ega bo‘lgan (*chalvar → shalvar, kalpak → qalp oq*).

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida kiyim-kechaklarda qo‘llaniladigan mahsulotlarga oid bo‘lgan so‘zlar 42 ta, ayol va erkak kiyimlariga oid bo‘lgan so‘zlar 54 ta, kiyimlarning qismlariga oid bo‘lgan so‘zlar 49 ta, kiyim-kechakka oid boshqa so‘zlar 72 ta, jami 216 ta so‘z aniqlangan. Bu so‘zlarga asoslanib, turkiy millatlar milliy madaniyatining muhim elementi bo‘lgan kiyim-kechak an’analari haqida qimmatli ma’lumot olish mumkin. Shuningdek, “Devonu lug‘atit turk”da kiyimga oid ko‘plab so‘zlarning bayt, to‘rtlik va maqollarda ham aks etgani kiyim-kechaklar qadimgi turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. 450 - б.

2. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.258 - b.

3. Qahhor, A. Sarob. – Toshkent: “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1998. 160 - b.

4. Hoshimov, O. Dunyoning ishlari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2002.176 - b.

5. Montandon, J. (1934). D’etnologie Culturelle. Paris: Librairie Larousse. 345 - p.

6. Oybek. Navoiy. – Toshkent: Fan, 2006. 427-b.

7. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. 564 - b.

Go‘zal AHMADOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUM DOSTONLARIDA 40 YIGIT OBRAZI

(“Xoldorxon” dostoni misolida)

Annotatsiya: ushbu maqola “Go‘ro‘g‘li” dostonlar turkumidagi “Xoldorxon” dostoni misolida qirq yigit obrazining o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ko‘makchi obrazlar bo‘lgan qirq yigitning doston strukturasi va badiiyatida muhim o‘rin tutganligini ochiqlab berishga harakat qiladi.
Kalit so‘zlar: *doston, Go‘ro‘g‘li, Xoldorxon, qirq yigit obrazi, jang tasviri.*
Annotation: this article aims to determine the place of the image of the forty young men in the epic poem “Kholdorkhon” in the “Go’ro’g’li” epic series, and attempts to explain that the forty young men, one of the supporting images, play an important role in the structure and art of the epic poem.
Key words: *epic poem, Go’ro’g’li, Holdorkhon, image of the forty young men, depiction of battle.*
Аннотация: в данной статье ставится задача определить место образа сорока юношей на примере эпической поэмы «Холдорхон» в эпическом цикле «Го’ро’г’ли», а также делается попытка объяснить важное место сорока юношей, одного из второстепенных персонажей, в структуре и искусстве эпоса.
Ключевые слова: *достан, Гёроглы, Халдорхан, образ сорока юношей, изображение битвы.*

Har bir xalqning voqelikka o‘z estetik munosabati mavjud. Bunday munosabat asotirlar, ertaklar, maqol-matallar va birinchi galda xalq dostonlarida o‘zining yaqqol badiiy ifodasini topgan bo‘ladi. Shu ma’noda, dostonlar faqatgina xalqning shonli o‘tmishini hikoya qiluvchi adabiy yodgorlikkina emas, bugungi kunda tobora globallashib borayotgan jamiyatda o‘zini saqlab qolishning muhim omili, ertangi kungi taraqqiyot poydevori – ma’naviyatimizning poydevori hamdir. Tarqalish geografiyasi jihatidan juda katta hududni qamrab olgan “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari O‘rta Osiyo, umuman Sharq va Kavkaz xalqlari og‘zaki poetik ijodida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalq dostonlari orasida “Go‘ro‘g‘li” dostonining tutgan o‘rni ham beqiyos. Xalq og‘zaki ijodi fondimizda ushbu turkumlikka mansub 60 dan ortiq dostonlarning mavjudligi ham tadqiqot mavzusining nechog‘lik muhim va ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida yetakchi obrazlar bilan bir qatorda ko‘makchi obrazlarning ahamiyati ham beqiyos, dostonda qirq yigit obrazi haqida ma’lumot “Go‘ro‘g‘lining bolaligi” dostonidayoq uchraydi. Unda otini qidirib Asfar tog‘iga borib qolgan va o‘zining homiysi Hizr bilan uchrashgan Go‘ro‘g‘liga kelajagi Hizr tomonidan bayon qilinayotgan o‘rinda uning qirq yigitni yig‘ishi va ular bilan doim yo‘ldosh bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi:

Qirq yigitni olgin qirqta o‘zbakdan,
Bir-ikkkita olib kelgin qozoqdan!
Chambilbelda po‘lat dobil tuydirgin,
Siylov to‘ndan beklaringga kiydirgin!
Har urug‘dan olib kel yaxshi odamni,
O‘zbeklardan olib kelgin biylarni!
Topib bergin ularga yaxshi uylarni!
Chambilbelday qo‘rg‘oningga eldirgin,
Ko‘nglin ovlab sarpoy bergin, Go‘ro‘g‘li!

Qirq yigit obrazining turkum dostonlarda eng birinchi kelishi ushbu dostonda uchraydi va Hizrning bashoratidan qirq yigitning doim Go‘ro‘g‘li bilan yo‘ldosh bo‘lishi, ularni Go‘ro‘g‘li doim izzat-hurmat qilishi, har bir ishda ulardan maslahat olishi Hizrning bashorati bilan ham bog‘liq.

“Xoldorxon” dostonida Go‘ro‘g‘lining kelishi. “Xoldorxon” – “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardan eng yirigi. Ergash Jumanbulbul baxshidan yozib olingan. Dostonda Qrim xoni Xoldorxonning Go‘ro‘g‘liga g‘arazi, Go‘ro‘g‘lining Qirimga borishi va jang-u jadallardan keyin Xoldorxon bilan yarashishi, Go‘ro‘g‘lining tog‘asi Ahmad Sardorning Chambil elini talashi kabi voqealar tasvirlangan. Asarda o‘z yurtini tashqi va ichki dushmanlardan mardlarcha himoya qilgan xalq qahramonlari – Go‘ro‘g‘li va uning qirq yigiti shijoati, Yunus pari boshchiligidagi Chambil ayollari jasorati kuylanadi. Dostonning boshlanishidayoq Go‘ro‘g‘lining doim qirq yigiti bilan bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar beriladi: “Burungi o‘tgan zamonda, eli o‘zbek omonda, qibladan tumaninda, Taka-Yovmitning elinda, Chambilbelning Belinda davronni surib, qirq yigitni yig‘ib, oltin piyolaga maylar quyib, kunda ertan chuloninga qo‘y-so‘qimlar so‘yib, yurtni yig‘dirib, ochni to‘ydirib, qirq yigitga silovsin to‘n kiydirib Go‘ro‘g‘libek o‘tdi… Qirq yigiti bilan doim o‘rta hovlida o‘tirar edi”. Qrim shohi Xoldorxon Go‘ro‘g‘li va uning yigitlari qudratiga shubha bilan qaraydi va ularning haqiqatan shu qadar kuchli ekanini sinash maqsadida to‘yga taklif etadi. Shu asnoda turli tushunmovchilik va mojarolar bo‘lib, jang boshlanib ketadi. Xoldorxon va uning odamlari qirq yigitning kuch-quvvatiga har doim shubha bilan

qaraydi: “Eshitamiz, Go‘ro‘g‘lining qirqta odami bor emish, shu qirq odami bizning podshomizni olarmikan, qirq odamning qo‘lidan nima kelar ekan, qirq odamdan kim qo‘rqar ekan?” Doston davomida shu kabi noo‘rin shubhalarga javob topila boradi. Qrimga to‘yga borib mojaro boshlab kelgan Avazxon otasiga quyidagicha murojaat qiladi:

Quloq sol, otajon, bu nolishima,
Rahm aylagin ko‘zdan oqqan yoshima,
Haqiqatli ota bo‘lsang sen menga,
Qirq yigit-yo‘lbarsni qo‘shgin boshima.

G‘o‘ro‘g‘li lashkar tortib Qrimga ketayotganda Chambil eli muhofazasini Mirza Askar va Berdiyorga tashlab ketadi:

Befarzandlik meni qildi sargardon,
Qaytayin qolmadi tanimda darmon,
Qoraqo‘rg‘onimni berdim Berdiyor,
Arkimga xabardor bo‘lgin, Askarjon.
Ikkoving nodonsan, g‘ofil bo‘lmanglar,
Toza gulsiz, oftob tegib so‘lmanglar,
Arkimga xabardor bo‘ldin, Askarjon,
Berdiyor, eshit bolalik qilmanglar.

Go‘ro‘g‘li Qrimga ketayotganida Chambil elidan xavotirlanib, Ahmad Sardorni o‘n ming odam bilan ortga qaytaradi, ammo Ahmad Sardor dushmanlik qilib, Go‘ro‘g‘li yo‘qligidan foydalanib, Chambilni egallab olmoqchi bo‘ladi. Qal’ani muhofaza qilayotgan Berdiyor va Mirza Askar mudofaa payti mardonavor jang qiladi, dostonda ushbu holat va yigitlarning mardligi, sodiqligi quyidagicha yoritiladi:

Qirq odam ichkari, o‘n ming tashqari,
Xay-xay solib bordi Ahmad beklari,
Urush bo‘ldi darvozaning ustida,
Qo‘shish qilib ha, dey berdi har biri,
Shinakni olib ota berdi Xudo deb.
Berdiyorning qabatinda qirq edi,
O‘qqa tutti bek Sardorni qirq o‘g‘lon,
Botir bo‘lsang kel-ha! – dedi har biri.

Jang ayovsiz davom etadi, Berdiyorning qirq yigiti mardonavor jang qiladi, yigitlar birin-ketin nobud bo‘la boshlaydi:

Berdiyorda endi darmon qolmadi,
Homiy bo‘lar hech murabbiy bo‘lmadi.
“Endi qo‘rg‘on ketdi” dedi Berdiyor,
Miltiq otayotir, bachcha tolmadi.
Er Berdiyor qatordagi nor edi,
Qancha desang, bu ham shuncha bor edi.
Namozdigar- kun o‘tirar vaqtinda,
Berdiyorga bir jazoyil doridi.

Berdiyor Go‘ro‘g‘liga sadoqat bilan, mardonavor jang qilib, vafot etadi. Parilar va Mirza Sardor oqshomda Berdiyor vafot topganini bildirmay ko‘madilar, ammo Ahmad Sardor bunga qanoatlanmay jangni davom ettiradi, jang davomida Mirza Askar kam sonli odami bilan qahramonlarcha qarshilik ko‘rsatadi:

Mirza Askar polvon edi,
Bir yurakli arslon edi,
Hozir o‘zi ish ko‘rmagan,
Yoshi kichik o‘g‘lon edi.
Ko‘p yurakli botir edi,
Tanho mingga tatir edi,
Yoshi kam-u, yuragi keng,
Qo‘rqmas bexavotir edi.

Mirza Askar ham Ahmad Sardorning odamlariga qarshi mardonavor kurashdi, jangda u ham vafot etadi, Yunus va Misqol parilar himoyani o‘z qo‘llariga oldilar va qal’a muhofazasini davom ettirdilar, parilar erkak libosini kiyadilar va qirq yigitning xotinlariga ham erkak libosini kiydiradilar. Dostonning shu o‘rnida qirq yigitning xotinlari tilga olinadi va ularning ham erlari kabi qo‘rqmas, mard, dovyurak, sadoqatli, kuchli ayol ekanliklari kuylanadi.

Ushbu dostonda qirq yigitning mard, jasurligi va sadoqati ham mahorat bilan ochib beriladi. Bu esa dostonning o‘quvchi va tinglovchiga yanada qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek xalq ijodi (ko‘p tomlik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1986.
2. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. – Toshkent, 2020.
3. Мусоқулов А. Ўзбек халқ қўшиқларининг тарихий асослари. – Тошкент, 1994. 42-бет.
4. Safarov O. O‘zbek folklorshunosligi, antologiya. “Bolalar folklori” maqolasi. – Toshkent, 2017.
5. Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011.

Sardor ABDURAHMONOV,
Farg‘ona davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
sardorjonabdurahmon670@gmail.com

IQBOL MIRZO SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she’riyatidagi lirik qahramon ruhiyati va uning ijtimoiy hayot bilan aloqadorligi tahlil ostiga olingan.
Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, fikr, umumiylashtirish, subyektiv, shaxsiy kechinma, obraz, ramz, xaos.*
Аннотация: в данной статье анализируется психика лирического героя в поэзии народного поэта Узбекистана Икбала Мирзы и ее связь с общественной жизнью.
Ключевые слова: *лирический персонаж, мысль, обобщение, субъективное, личный опыт, образ, символ, хаос.*
Annotation: this article analyzes the psyche of the lyrical hero in the poetry of the people’s poet of Uzbekistan Iqbal Mirzo and his connection with social life.
Key words: *lyrical hero, thought, generalization, subjective, personal experience, image, symbol, chaos.*

Adabiyot paydo bo‘lganidan buyon uning asosiy mavzusi olam va inson bo‘lib kelgan. U, avvalo, insonni anglash san’ati ekanini yirik olimlarimiz doimo ta’kidlab kelishgan. Ushbu mavzu turli tillar, ohanglar va ranglarda ifoda etilgan bo‘lsa-da, har bir ijodkor nigohi va iste’dod qalbida u o‘ziga xos tus olib, har bir yaratilayotgan misrada yangi jilolar bilan namoyon bo‘ladi. Inson his-tuyg‘ulari eng yuqori planga chiquvchi lirik asar mazmuni, tabiatan, ikki asosiy jihatdan avtobiografik xarakterga ega. Birinchidan, lirik asar shoirning o‘z hayotida yuz bergan voqea, uning xayoliga kelgan biror muhim fikr yoki uning ruhiyatini larzaga solgan hissiyot asosida shakllanishi mumkin. Bu shaxsiy kechinmalar asarga jon bag‘ishlab, uni tabiiy va hayotiy qiladi. Ikkinchidan, agar shoir o‘z hayotida sodir bo‘lmagan voqea yoki o‘zi shaxsan kechirmagan hissiyotlarni tasvirlasa ham, u bu holatni ich-ichidan his qilishi, o‘zini o‘sha voqea yoki holat ichiga qo‘ya bilishi zarur. Aks holda, asar rostlik va samimiylikdan mahrum bo‘ladi. Lirik qahramon – she’riyatda ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy obraz bo‘lib, u shoirning hissiyotlari, qarashlari va ichki dunyosini ifodalovchi personajdir. Lirik qahramon orqali shoir o‘z his-tuyg‘ularini, sevgisini, dardini, orzularini yoki ijtimoiy muammolarga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi. Lirik qahramon asosan lirik janrdagi asarlarda uchraydi, chunki bu janr insonning ichki kechinmalarini va ruhiy holatini ifodalashga qaratilgan. Muhimi, lirik qahramon shoirning o‘zi bilan to‘liq bir xil emas. U ijodiy jarayonda badiiy timsol sifatida shakllantiriladi va ko‘pincha shoirning individualligidan tashqari, umumiy insoniy his-tuyg‘ularni ham aks ettiradi. Lirik qahramon o‘zida turli xususiyatlarni birlashtiradi: subyektivlik: lirik qahramon, asosan, o‘z his-tuyg‘ulari va kechinmalari bilan boshqalarga murojaat qiladi. Ichki dunyo tasviri: u ko‘pincha o‘zining ichki qarama-qarshiliklarini, dardini yoki shodligini namoyon qiladi. Umumiylashtirish xususiyati: u faqat shoirning hissiyotlarini emas, balki butun jamiyatga xos bo‘lgan tuyg‘ularni ham ifoda etishi mumkin. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish: Lirik qahramon she’riy ifoda, ramzlar va poetik shakllar yordamida ochib beriladi. Masalan: Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she’riyatida lirik qahramon zamonaviy insonning ichki kechinmalari va dardlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Shoir Iqbol Mirzoning she’riyatida bu tuyg‘ular ba’zan xazin, ba’zan shodon, ba’zan dardli, ba’zan esa jo‘shqin va sokin oqadi. Uning she’rlaridagi ranglar faqat yetti xil emas, balki turfa xil tuslarda porlaydi. Bu she’rlar ko‘ngillarga yorug‘lik bag‘ishlaydi, quyosh nuri singari yuraklarni yoritadi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov Iqbol Mirzo ijodi haqida shunday yozadi: “Dastlab qaraganda, Iqbol she’rlari faqat sho‘x-shodon va o‘ynoqi misralardan iboratdek tuyuladi. Biroq ularga diqqat bilan nazar solsangiz, bu misralar ortida shoirning qalb kechinmalari, armon va dard-u o‘y-mushohadalari aks etganini ko‘rasiz”. Shoir ijodidan o‘rin olgan deyarli barcha satrlar zamirida oddiylikdagi ulug‘lik va olam-olam ma’no tashuvchi zalvorli yukni his qiladi inson. Shoir qaysi yo‘nalishda ijod qilmasin, xoh modern bo‘lsin, xoh an’anaviy yoki oq – sarbast she’rlar bo‘lsin, asosiysi – to‘g‘ri yozishdir, degan edi shoirning o‘zi bir suhbatda. “To‘g‘ri yozish” deganda shoir haqiqat va haqqoniylikni nazarda tutgan, chunki shoir, avvalo, haqiqat kuychisi bo‘lishi lozim. Axir, “tuyg‘ular qofiyabozligi” so‘zning asl qadrini pasaytiradi. Ijodkor san’atkorligi esa faqatgina to‘laqonli obrazlarda umuminsoniy dardlarni kuylay olishida namoyon bo‘ladi. Iqbol Mirzo so‘zlarni shunday tanlaydiki, boshqa bir so‘z uning latofati va mazmunini ifoda eta olmaydi. Shoir she’rlarida lirik qahramonning xususiy holatini – yordan ayro, iztiroblar qurshovida qolgan, o‘z kechinmalari, o‘y-u xayollariga g‘arq bo‘lgan obraz sifatida tanisak,bu xususiylik misradan misraga umumiylikka aylangan holatda ko‘chishiga amin bo‘lamiz:

Siz bizga olmalar otmaysiz
O‘tib qolsak bog‘ ko‘changizdan.
Xandalar otasiz,
Xandalar…
Tuni bilan uxlayolmayman
Og‘riqdan…

Ushbu she’rda lirik qahramonning hissiy holati, uning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari tasvirlangan. Lirik qahramon ichki dard bilan qiynalayotgan, yuragidagi o‘tkir his-tuyg‘ularni ifoda etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Uning kechinmalari she’rda ramziy tarzda ifodalanadi. Masalan: “Siz bizga olmalar otmaysiz” – bu satr ko‘ngil mulohazasi, diqqat-e’tibor yoki mehr-muhabbat yetishmasligi bilan bog‘liq holatni nazarda tutadi. “Xandalar otasiz, xandalar...” – to‘qnash kelganda kulish yoki masxara qilish (lirik qahramon buni ajrata olmaydi) lirik qahramonga nisbatan adolatsiz munosabatni anglatadi. “Tuni bilan uxlayolmayman og‘riqdan” – bu ichki azob va og‘riqning kuchayganligini, savoli javobsiz qolgan tuyg‘u yoki malhami topilmagan jarohatlarni tasvirlaydi. Lirik qahramon boshdan kechirayotgan iztirobni chuqur his qiladi va uning holati ko‘proq ruhiy kechinmalar, sevgi, ayriliq yoki beparvolik bilan bog‘liq tarzda ifodalanadi.

Siniq oy sarg‘ayib kezarkan ko‘kda,
Tomlarda shu’lalar arpasin ilg‘ab,
Zanjirini siltab, ayqirdi ko‘ppak:
– Xavf!
– Xavf!!
– Xavf!!!
Ayol miskin edi. His qildi ayol –
Qaydadir erini o‘pardi bir qiz.
Keng hovlida yomon siqildi ayol,
Bir kechada quvrab, to‘kildi nargis...
Tonggacha hovlida tinmadi zanjir,
Ko‘ppak sahargacha betoqat hurdi.
Ayol ham gunohga qo‘l berdi oxir –
Tushida birinchi sevgisin ko‘rdi.

Bu she’r inson qalbidagi ziddiyatlar, tuyg‘ular va ichki kurashlarni nozik tarzda tasvirlaydi. Unda hissiy dramatizm, ramziy ma’no va hayotning murakkabligi aks etgan: “Siniq oy sarg‘ayib kezarkan ko‘kda” va “Tomlarda shu’lalar arpasin ilg‘ab” – she’rning boshlanishi sukunat va tushkunlik kayfiyatini yaratadi. “Siniq oy” obrazi siniq his-tuyg‘ularni, umidsizlik yoki qayg‘uni ramziy ifoda qiladi. Oy sarg‘ayib, yoruqlikni butkul taratolmaydi, bu holat ayolning ichki kechinmalariga, ruhiy olamiga parallel bir manzarani aks ettiradi. “Shu’lalar arpasin ilg‘ab” – yengil shovqin yoki yorug‘likning zaif jilosi tasvirlanadi, bu tasvir orqali qorong‘ulik ichida ham oydinlikka umid tushunchasi yuzaga chiqadi. “Zanjirini siltab, ayqirdi ko‘ppak: – Xavf! – Xavf!! – Xavf!!!” Bu misralar dramatik tusga ega. Ko‘ppakning hurishi – ichki notinchlik va beqarorlikning ramzi. Bu nafaqat tashqi xavf, balki ichki ziddiyatlar, gumon va qo‘rquvni ham ifodalaydi. “Xavf” so‘zi uch marta takrorlanishi esa bu tuyg‘ularning kuchayib borishini ko‘rsatadi. “Ayol miskin edi. His qildi ayol – Qaydadir erini o‘pardi bir qiz.” Ayol bu yerda mag‘lub va zaif holatda tasvirlanadi. U erining unga bo‘lgan sadoqatidan shubhalanmoqda yoki buni yaqqol his qilmoqda. Bu misralar ayol qalbidagi og‘riq, rashk va noloyiq tuyg‘ularni yoritadi. “Keng hovlida yomon siqildi ayol, Bir kechada quvrab, to‘kildi nargis…” “Nargis” gulining to‘kilishi ayolning ruhiy holatini anglatadi. Go‘zallik va poklik ramzi bo‘lgan gulning so‘lishi ayol qalbining shikastlanishini va ichki go‘zalligini yo‘qotayotganini bildiradi. “Tonggacha hovlida tinmadi zanjir, Ko‘ppak sahargacha betoqat hurdi.” Ko‘ppak va uning zanjiri bu yerda ichki erksizlikni va majburiyatlarni ramziy qiladi. Ko‘ppakning “hurishi” esa inson qalbidagi betoqatlikni tasvirlaydi. “Ayol ham gunohga qo‘l berdi oxir – Tushida birinchi sevgisin ko‘rdi.” Lirik qahramonning “gunoh”ga qo‘l urishi – qalbining eng tubida yotgan o‘zi eski-yu, lekin u qoldirgan iz o‘rnida hech qachon eskirmaydigan alam, ichki ehtiroslarga bo‘ysunish, qalbdagi bu kemtiklarni noixtiyoriy ravishda to‘ldirish aks etadi. U hayotining hozirgi haqiqatidan uzoqlashib, birinchi sevgisini tushida ko‘radi, bu uning ichki ehtiyojlarini, afsuslarini va yo‘qotilgan baxtini eslashdir. She’r inson qalbidagi *sadoqat, rashk, muhabbat, gunoh va ichki kechinmalar*ni kuylaydi. Ayolning zaifligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizligi erkakning ayni shu ahvoliga parallel qo‘yiladi. Ko‘ppak, zanjir, siniq oy va nargis kabi ramzlar orqali ruhiy jarayonlar tasvirlanib, inson hayotidagi qarama-qarshiliklar va nozikliklar ochib beriladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Iqbol Mirzo lirikasidagi obrazlar oddiy inson holatida she’rlarning boshlanmasida asarga kirar ekan,jarayon so‘nggida haqiqiy lirik qahramon darajasiga ko‘tarila oladi. Iqbol Mirzo she’riyatida lirik qahramonning tasviri muhim o‘rin tutadi. U, asosan, xalqning turmush tarzini, qadriyatlarini, mehnatga bo‘lgan mehrini va hayotdagi ijobiy fazilatlarni ifodalaydi. Shoirning lirik qahramoni, o‘zining ichki dunyosini, iztiroblarini va orzu-umidlarini yuksak ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘lab, o‘z xalqining milliy ruhini, qadimiy an’analari va e’tiqodlarini aks ettiradi. Mustaqillik davridagi o‘zbek she’riyatida milliylikni ifodalash uchun turli vositalar va talqinlar ishlatilgan. Professor N. Jabborovning ta’kidlaganidek, milliylik she’riyatning asosiy tamoyili bo‘lib, u adabiyotning o‘ziga xosligini, xalqning fikrlash tarzini, ruhiyatini va ma’naviy qadriyatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Milliy ruhsiz she’rning ta’siri va mohiyati yuksalishi mumkin emas. Iqbol Mirzo ana shunday qiyofa va ruhiyatdagi lirik qahramoni orqali, o‘z xalqining hissiyotlarini, ma’naviyatini va hayot falsafasini badiiy ravishda ifodalaydi. Bu tasvirlar orqali shoir o‘z xalqining ko‘zga ko‘ringan fazilatlarini namoyon qilib, ularni o‘quvchisiga taqdim etadi, shuningdek, milliylik va vatanparvarlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, lirik qahramon tasvirlari o‘quvchi qalbida chuqur taassurot qoldirib, ularni o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosiga hurmat bilan qarashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent, 2007.
2. Mirzo, Iqbol. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007.
3. Normatov U. Adabiy jarayon bir yerda depsinib turmaydi. // Yoshlik // 2022yil, 5-son.
4. Iqbol Mirzo. Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?! – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014. 159-b.
5. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005.
6. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. 146-b.
7. Quvvatova D. Iqbol Mirzo she’riyatining poetik xususiyatlari.

Nigina SHODIYEVA,
BuxDU adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ISAJON SULTONNING “ONAIZORIM” QISSASIDA MILLIY RUHIYAT TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida yozuvchining ruhiyat tasviridan foydalanish mahorati masalasi xususida so‘z boradi. Adibning qahramonlar ichki kechinmalari, nutqi va boshqa psixologik vositalar orqali ularning milliy ruhiyatini talqin etishdagi o‘ziga xos qirralari ochib beriladi. Qissada milliy ruh ifoda etilgan jihatlar tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, milliy ruhiyat, muallif bayoni, portret, ichki va tashqi monolog, xotira-xayol, ichki konflikt va boshqalar.*

Annotation: this article discusses the mastery of Isajon Sulton in depicting psychological nuances in his novella Onaizorim. It explores the author’s unique approach to interpreting the national psyche through the inner experiences, speech, and other psychological tools of his characters. The analysis focuses on the aspects in which national spirit is expressed in the novella.

Key words: *novella, national psyche, author’s narration, portrait, internal and external monologue, memory and imagination, internal conflict and others.*

Аннотация: в данной статье рассматривается мастерство Исаджона Султона в использовании психологического описания в повести Онаизорим. Раскрываются его уникальные подходы к интерпретации национального менталитета через внутренние переживания, речь и другие психологические средства его персонажей. Особое внимание уделяется анализу аспектов, в которых выражен национальный дух в повести.

Ключевые слова: *повесть, национальный менталитет, авторское повествование, портрет, внутренний и внешний монолог, воспоминания и воображение, внутренний конфликт и другие.*

O‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri, qisqa fursatda hech kimnikiga o‘xshamagan ijod namunalarini yaratib, nafaqat yurtimizda, balki dunyo adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor Isajon Sulton asarlarida ruhiyat tasviri yorqin bo‘yoqlarda tasvirlangan. Adib qissalarida ruhiyatning turli vositalar yordamida aks ettirilganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, uning “Onaizorim” qissasi milliylik ifodasi jihatidan alohida ajralib turadi.

“Onaizorim” qissasi o‘zbek adabiyotida ona timsolini badiiy so‘z jozibasi bilan tasvirlagan eng yaxshi asarlardan biridir. “Isajon qissa qahramonlari ruhoniyatidagi dard, tashvish, sevinch, hayajonlarning hammasini ham yuzaga chiqaravermaydi. Hislashga o‘quvchining qalbi nodir ko‘p gaplar va holatlarni matn zamirida tagma’no qilib qoldiradi yoki ularni o‘zining tushuntirish manerasiga singdiradi. Muhimi, qayerda nimani qanchalik aytishni, qayerda aytmaslikni san’atkorona belgilab oladi. Yozuvchidagi bunday poetik mahorat negizida kitobxon mayllari, qabullash imkoniyatlarini daqiq fahmlash, kitobxon shuuriga ishonch, ehtirom ham mujassam bo‘ladi”[1]. Qissada o‘zbekning munis, ko‘ngli ochiq, oliyjanob onasining badiiy olami yaratilgan. Asarda onaning kechinmalari, nutqi, farzandiga aytgan o‘gitlarida milliy ruh yaqqol namoyon bo‘ladi.

Marhabo Qo‘chqorova “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari” kitobida qahramonlar ruhiyatini badiiy tasvir etishning vositalari haqida aytib, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik ramzlar, qahramonning mimika va jestlari kabilarni ta’kidlaydi[2]. Isajon Sulton o‘zining “Onaizorim” qissasida ona obrazi orqali milliy ruhni ifodalashda psixologik vositalarning bir qancha ko‘rinishlaridan mahorat bilan foydalanganligi ko‘rinadi.

Adib atrof-muhit, qishloq odamlari, ayollar tasvirida o‘ziga xos mahoratini namoyon qilgan. Bunga u qahramonlarning milliy qiyofasi va ruhiyatini aks ettirish orqali erishgan.

“Onaizorim” qissasida ***muallif bayoni*** yetakchilik qiladi. Adib personajlar ruhiy olamini yoritishda bu vositadan unumli foydalanadi. Asarda muallif qahramonlarning xatti-harakatlarini tasvirlaydi yoki ularning ***portretini*** chizadi. Jumladan, u Ra’noning

[1] Шермуродов Т. Мангу онаизорлик талқини/ Исажон Султон насри бадиияти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар. / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Г.Сатторова, М.Қўчқорова. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.139-b.
[2] Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. –Б. 173.

portretini keltirar ekan, uni sodda, samimiy, qiziquvchan, quvnoq qizaloq qiyofasida gavdalantiradi: “U – shiddati, g‘ayrati ichiga sig‘mas qizaloq. O‘zidan katta chelaklarni ko‘tarib, daranglatib yurib qoladi. Yugurib tinmaydi, guldor ko‘ylaklarni yaxshi ko‘radi, ammo o‘yinga berilganidan kir qilib qo‘yadi, “kir bo‘pti-ku” deyishsa, “voy o‘lay” deb egilib etagini ko‘tarib qaraydi”[3]. Tasvirdan ayon bo‘lyaptiki, hali jajjigina qizaloq o‘zini kattalardek tutadi. Buni u onasidan o‘rgangan. Har bir farzand, ayniqsa, qizlar uchun ularning onalari yuksak idealdir. Ular kelajakda oyilari singari mehribon ona, oqila uy bekasi bo‘lishni orzu qilishadi. Bu qadriyat, xususan, o‘zbek madaniyatiga xos. Ra’noning ham murg‘ak qalbida bo‘lajak onalik hissi, ko‘nikmasi onasi orqali shakllanadi. Kuyunchak, oilaparvar onasining xatti-harakatlari, gap-so‘zlarini kuzatib ulg‘ayayotgan “ko‘zlari chaqnab-chaqnab turgan” bu qizaloq unga taqlid qiladi, uning gaplarini takrorlaydi va o‘z navbatida, o‘zi ham ulg‘ayadi. Asar davomida u qiz, ayol, ona, kelin timsolida ko‘z o‘ngimizda gavdalanib boradi. Qizaloqning go‘daklik shuurida hayot haqida, yashashdan maqsad ne ekanligi xususida o‘ziga xos tasavvurlar shakllangan: “Baxt nima o‘zi? Baxt nimaligini tuzuk-quruq tasavvur qila olmasdi. Bilgani shuki, bir kuni ulg‘ayib, chiroyli, ko‘rkli qizga aylanadi, keyin kimgadir turmushga chiqib, er-xotin bo‘lishadi, har holda, bolasi ukasiga o‘xshab yig‘lamaydi, o‘ziyam onasiday javramaydi, hamma ishlarni darrov bajarib qo‘yadi, hovli top-toza, idish-tovoqlar yuvilgan, o‘choqda shirin ovqatlar pishiradi, bolachasini uxlatish kerak bo‘lsa onasidan yodlab olgan allalarini aytadi, hayot sira tugamaydi, o‘ziyam sira qarimaydi… tasavvuri yetgani shu edi”[4]. Bu orzu ulg‘aya borgan sari o‘sib boraveradi. Yozuvchi uning nafis, samimiy, sodda va ayni paytda ulug‘vor tuyg‘ularini ana shu tarzda birma-bir tasvirlab boradi. Chindan ham qiz bola uchun ona bo‘lish, bolalarini ulg‘aytirish eng mas’uliyatli va eng sharafli vazifadir.

Ba’zi orinlarda muallif ***ichki konflikt*** orqali qahramonlar ichki kechinmalarini ifodalaydi: “Aqli “endi sening uying shu, bularning bari endi qarindoshlaring” desa-da, ko‘ngli sarkashlik qilar, tan olmas, ko‘ngil ovozini yana o‘chirishga to‘g‘ri kelardi”[5]. Qarama-qarshi fikrlar qarshisida ojiz qolgan yosh kelinchak noiloj ko‘nadi va katta hayot ostonasiga qadam tashlab, sinovlarga bardosh beradi. Shuningdek, asarning so‘nggida keltirilgan o‘g‘ilning nutqi butun asar uchun go‘zal xotima bo‘la oladi: “…Ko‘zimning yoshini kaftimning orqasi bilan artib, istiqbolimga chopib kelayotgan bolalarimga ham anduh, ham sevinch ila jilmayib yuzlanaman… …xuddi bir mahallar o‘zing menga qarab, yoyilib, beg‘ubor jilmayganing kabi!” Chindan ham, ota-onalar farzandlari oldida ojiz ko‘rinishni sirayam istashmaydi. Axir, farzandlar dunyoda ota-onasini hammadan kuchli siymolar sifatida ko‘radi. Ular esa g‘amini yashirib, yuzida tabassum bilan bolalari qarshisiga peshvoz chiqadi, ya’ni ichida to‘fon bo‘lsa-da, yuzlarida buning aksini namoyon qiladilar. Bu ichki konfliktning bir namunasi bo‘la oladi.

Yozuvchi o‘zbek ayollarining milliy ruhiyatiga xos xarakterli jihatlarni topa olganligini ko‘rish mumkin. Ona Ra’noga bo‘yi yetib, sovchilar kelayotganini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaydi, hayo qiladi. Qog‘ozga o‘rab, ramzlarga burkab, qizi ko‘ngliga qo‘l soladi, bunda adib dialoglardan foydalanadi:

“Boqqa kirsam, bir olma rosa qizarib pishibdi, – dedi ona kulib. – Bozorga olib chiqib sotib yuboraqolsammikin? Haqiqatan ham bog‘ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg‘ish, boshqa tarafi ochyashil bo‘lib yetilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar shirin isiyam gurkirab turardi. Ra’no endi aytilgan gapning tagida boshqa gap bo‘lishini bilib olgan edi.

– Sotib nima qilasiz, – dedi g‘ashi kelib. – Zarari tegyaptimi, bechorani?

– Voy, nimaga zarari tegar ekan? – dedi ona.

– Meva yetilsa, uzib egasiga berasan-da! Yerga to‘p etib tushsinmi bo‘lmasa?”[6]. Ularning ushbu suhbatlarida milliy ruh yaqqol aks etib turadi.

Yozuvchi qissada qahramonlarning ***ichki monologi*** orqali ham ularning qalbidan kechayotgan o‘y-xayollarni aks ettiradi. Jumladan, Ra’no qizini uzatayotganda turmush o‘rtog‘i, ya’ni qizning otasi qizni quchoqlab, ko‘p gaplarni aytmoqchi bo‘ladi. Ammo otalik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymay, yig‘lab yuboradi. “Bu yig‘ining ma’nosi shunday edi: Dunyoyi dunda yakka bir o‘zim edim, Xudoyim farishtaday bir qizaloqni – seni hadya qilib yubordi. Uyimda o‘ynab, chopqillab yurishlaring hayotimni nurga to‘ldirdi. Charchab kelsam, kichkina qo‘lchalaring bilan oyoqlarimni, yelkalarimni uqalading, choylar damlab kelding… Otang qurboning bo‘lsin, bolam, uyimda mehmonim edingmi? Shuncha yil asrab-avaylab katta qildim, bag‘rimdan sira chiqargim kelmaydi, ammo naylayin?”[7] Haqiqatan, qalbining bir bo‘lagini yulib olib, yetti yot begona qo‘liga topshirish juda mushkul ish. U xonadon egalari avaylab, gard yuqtirmay voyaga yetkazgan

[3] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html
[4] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html
[5] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html
[6] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html
[7] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html

qizini o‘zi kabi e’zozlaydimi, uni tinglab, tushunadimi? Bunisi qorong‘u, bu iztirob nafaqat uni, balki barcha otalarni qiynaydigan masaladir. Yozuvchi bunda otaning qalbidan kechgan kechinmalar tasviri orqali o‘zbek otalarini milliy qiyofasini yaqqol aks ettira olgan. Shuningdek, qissaning bir o‘rnida Ra’noning ***tashqi monologi*** orqali uning ruhiy iztirobi aks ettiriladi: “Bolasini bag‘riga mahkam bosib, dard-u armonlarini aytib bo‘zlayverdi, bo‘zlayverdi.

“Otajonimning behisi”, deb murojaat qildi behiga.

“Nainki o‘zini, balki qo‘llarining iziniyam topolmay qoldim-ku, endi sen ham ko‘zimga o‘tday ko‘rinib ketyapsan”, dedi behining g‘adir-budur tanasini siypalab.

“Indamaygina o‘lib qolaverdi-ya”, der edi kuyinib. “Hech kimimiz qolmadi-ku, bolam”, der edi qizchasiga.”[8] Mazkur monologda behi daraxti ham ayni paytda, Ra’noning psixologik holatini ifoda etuvchi ***detal***dir. U otasini eslatadi, uni ko‘rganda Ra’noning xayolida otasi bilan bog‘liq xotiralar jonlanadi. Binobarin, mazkur holat personajlar psixikasining ***xotira-xayol*** psixologik vositasi yordamida ifodalab berilishidir. Qolaversa, yuragidagi dardini hech kim aritolmagach, dardlarini bolasiga, behi daraxtiga ayta-ayta o‘ziga taskin beradi. Chindan ham, ota-onalar shunday ulug‘ zotlarki, ularning dunyoda borliklari farzandlari uchun eng katta baxt, suyanch, tayanchdir. Ulardan ayrilgach, inson o‘zini qanotsiz qush misoli his qiladi. To‘g‘ri, atrofda boshqa yaqinlar bor, ammo hech kim ularning o‘rnini bosolmaydi. Negaki, vujudidan yaralgan farzandiga hech kim ota-onasiday mehr berolmaydi. Ra’no ham shunday qanotsiz qush misoli parvoz etolmay, hijron dog‘ida iztirob chekadi.

Muxtasar qilib aytganda, qissadagi voqea-hodisalar, qahramonlarning o‘zini tutishi, gap-so‘zlari tasviri orqali milliy ruhiyat ifoda etilgan. Yozuvchi oddiy bir ayol, onaizor timsolining badiiy talqini orqali o‘zbek ayollarining o‘ziga xos olami, fikrlash tarzi, orzu-istaklari, qiziqish va odatlari haqida yoritishga harakat qiladi. Ra’noning hayot yo‘li u singari o‘zbek ayollarining ko‘pchiligida kuzatilishi mumkin. Adib ayolning xarakteristikasini ochishda uning ichki holat dinamikasi, nutqi, o‘zgalar bilan suhbati, mimikasi kabi vositalardan foydalangan.

[8] Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шермуродов Т. Мангу онаизорлик талқини/ Исажон Султон насри бадиияти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. 384-б.

2. Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. 232-б.

3. Internet sayti: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-onaizorim-qissa.html

Gulmiraxon ABDUJALILOVA,
Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti
gulmiraxonsultonova71@gmail.com

YOZUVCHINING HIKOYA QILISH TARZI

(Bahodir Qobul ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyotiga o‘zining yorqin ijodi bilan hissa qo‘shib kelayotgan Bahodir Qobul asarlari va ulardagi yozuvchining hikoya qilish tarzi haqida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, syujet, obrazli ifoda, ziddiyat, telba.*

Annotation: this article examines the works of Bahodir Qobul, who continues to contribute to modern Uzbek literature with his brilliant work, and the writer’s storytelling style in them.

Key words: *story, plot, figurative expression, conflict, madness.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются произведения Бахадира Кабула, вносящего своим блестящим творчеством вклад в современную узбекскую литературу, и стиль повествования писателя в них.

Ключевые слова: *рассказ, сюжет, образное выражение, конфликт, безумие.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyotida ko‘plab ijodkorlar qalam tebratmoqda. Ularning ijodini o‘rganish, har taraflama ilmiy yondashuvga asoslanib tadqiq qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash zaruriy masala hisoblanadi. Zero ertangi kunimizning qanday bo‘lishi bugun yoshlarning qanday kitoblar o‘qiyotganligi bilan bog‘liqdir.

Iste’dodli yozuvchilardan biri Bahodir Qobul hisoblanadi. U o‘zining qator hikoya, qissalari bilan adabiyotimizga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Ijodkor asarlarini chuqur tadqiq qilishni, ulardagi syujet masalasi va syujetni bayon qilish tarzi haqida o‘rganishni joiz topdik.

Asosiy qism. Adabiyotshunoslikda fabula va syujet tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Fabula – asarning asosida yotuvchi voqelik, material hisoblanadi. Syujet esa ushbu materialning muayyan nuqtayi nazardan o‘tgan, ma’lum izchillikda bayon etilgan shaklidir. Boshqacha aytganda, syujet badiiy asarning hikoya qilish tuzilmasidir. Shu boisdan syujet muammosini tahlil qilishni yozuvchining bayon uslubini o‘rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Asarning tuzilishida muallif obrazi va uning o‘z ijodiy mahsuliga bo‘lgan munosabati epik hikoyachilikning asosiy jihatlaridan biri sanaladi.

Yozuvchining o‘ziga xosligini belgilashda muallif obrazi muhim rol o‘ynaydi, asar matnida u qanday namoyon bo‘lishini esa hikoya qilish uslubi belgilaydi. Bahodir Qobul asarlarini o‘qigandagi dastlabki taassurot – muallifning faolligi, tasvir jarayonidagi bevosita ishtiroki, his-tuyg‘ular, baho va munosabatning ochiqligidir. Biroq shuni unutmaslik kerakki, har bir badiiy asarda obyektiv va subyektiv omillar tabiiy holdir. Bahodir Qobulning hikoya qilish uslubi asosan obyektiv yo‘nalishga moyil bo‘lib, unda muallif pozitsiyasini aks ettirishning turli shakllarini kuzatish mumkin. Muallifning ovozi ba’zan faol va his-tuyg‘ularga boy hikoyachiniki kabi eshitilsa, ba’zan kinoya yoki yengil yumor yordamida o‘z munosabatini bildiruvchi tarzda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, muallif o‘z fikrlarini telba obrazining tili orqali ifodalash, uning o‘y-xayollari va harakatlari orqali yetkazish usulidan ham foydalanadi.

“Turk bor joyda tentak begona bo‘lmaydi.Yo‘g‘ida no‘xotcha. Bularni mashoyixlar gapi deyishadi.Tushungan birdan tushunadi, tushunmaganga ponalaganing bilan befoyda. Aqlni tug‘masi boshqa, suqmasi bo‘lak.Tog‘dan tushib, shoshmay, xuddi qadimgiday ko‘ngil yetar kapalarga qo‘noq bo‘lib, o‘tgan kunlarniyam minnat qilib sanamay, yo‘lma-yo‘l yo‘l so‘rab otadoshlarining Yangi hayotini topib boradi. Yangi hayotni Otahayot qilish kerak. Tentakning o‘y-xayoli shunda.” [2:184]

Yuqoridagi parchada yozuvchi Yangi hayotni eski davrlardagi kabi, ya’ni Otahayot qilish kerak ekanligi ta’kidlagan. Buni tentakning o‘y-xayollari orqali o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan.

“– Shu stolbaniyam olib borib qama. O‘zi shu qoluvdi. Elning qarg‘ishi urganni yurish-turishidan ham bilsa bo‘ladi. Endi uradiganiniyam.Haliyam mehribon bo‘pti. Bo‘lmasa o‘tirarding, bir yutum toza havoga zor, quyoshni betiga qarashga intiq bo‘lib. Chuqur qazigan birovga qazimaydi degan mashoyixlar. Avval ham shunday bo‘lib kelgan, bundan keyin ham shunday bo‘lib qolaveradi. Bir yutum havo, bir yutum suv, bir yutum non. Undan ortig‘i hamisha yelkaga yuk, oyoqqa tushov bo‘lganligini endi sanga tushintirishni hojati yo‘q. Tentiratib bo‘lsada yurgizib, qo‘ygan ekan haliyam kech emas, etagingni yig‘ishtirda, bo‘yningga arqoni tushishini so‘ra. Avvalgi yurishingdan hozirgi ahvoling o‘lsa o‘ligi ortiq, agar bilsang. Avval odamlar sani ko‘rsa nafratlanishardi, endi har holda yoqa ushlashadi.Avval ham ko‘rgazmali qurol eding, hozir ham shunday. Hammamiz ham shu. Tavba qil. Ajralgan mol-dunyoga achinish hissidan ajralganing yaxshilikka bilsang. Tavba qil. Zora… Sho‘r Tentak gaplarni eshagiga aytayapti deb kuladi” [2:182]

Yozuvchi jamiyat bilan bo‘lgan ziddiyatlarini o‘z fikrlari orqali yetkazmoqchi bo‘lgan. Bu kabi qarashlar telba

Mardon tilidan aytilishi juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Bahodir Qobul qissalari uchun yana bir xarakterli xususiyat obrazli tasvirlashdir. Yozuvchi hayotning badiiy in’ikosini yaratishda ko‘proq obrazli tasvirlash usulidan foydalanadi.

“Turkiy xayolli bolalarning xayollariga, ota xayoli uchun qon qusgan beklarning o‘ylariga quloq osgan Oyqortog‘ning ko‘ngli bir ko‘tarilib tushadi. Hayrati oshadi. Osmonga ko‘z tikkan buloqlar ko‘ziga,oynasiga o‘zini soladi. Shamol tortqilayverib olabo‘ji qilib tashlagan soch-soqolini tartibga solgan bo‘ladi. Ha demay, kun shom yeydi. Qirchalarga belgi berishi kerak. Taraddisini ko‘radi.”[2:184]

Yuqoridagi parcha orqali o‘ziga xos obrazli tasvirlash namunasini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, Oyqortog‘ning ko‘ngli bir ko‘tarilib tushadi, buloqlar oynasiga o‘zini soladi jumlalarini keltirish orqali tog‘ni xuddi inson kabi jonlantirish, obrazlilikning o‘ziga xos namunasini ko‘rish mumkin.

Adibning hikoya qilish tarzida o‘z fikrlarini, qarashlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri keltirib o‘tish, bo‘lajak yozuvchilarga maslahatlar berish holatlari ham ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Bahodir Qobul o‘z asarlarida, o‘zbek xalqining uzoq va boy o‘tmishi, urf-odatlari, an’ana va odatlarini o‘ziga xos mahorat bilan tasvirlaydi.“Enashamol” asaridan olingan quyidagi parcha orqali yuqoridagi fikrlar o‘z isbotini topgan.

“Qishning uzun oqshomlarida uy ichida paxta chuvish rasm bo‘ladi. Qo‘lda chivilgan paxtani gul paxta, magazinnikini toy paxta deyishadi. Odatda, gul paxta yumshoqligi uchun bo‘lsa kerak, faqat boshtag – yostiqlargagina solinadi. Kechki ovqatdan keyin opam chuvish uchun opachalarimga ikki, ukam va singlimga bir changaldan paxta beradi.Meni tegishimni Enam belgilaydi. O‘sha oqshom tegishimni tezda chuvib, aslida paxtani shundayicha Enamga oldilariga surib, topshirib, o‘rnimga kirib yotib olgandim. Enam hech nima bo‘lmagandek, xelvagay yenglariga bekitdilar. Odatda, bu yerda chuvilgan paxta bo‘ladi.” [2: 253]

O‘zbek xalqi azal-azaldan ko‘p vaqtini oilasi, yaqin qarindoshlari bilan jamoa holda o‘tkazganligi barchagamizga ma’lum. Yozuvchi o‘z asarida ushbu jumlalarni aks ettirish orqali hozirgi kunda kamayib ketayotgan o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan an’ana va odatlarni, insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati, rahm-shafqat tuyg‘ulari, birgalikda vaqtlarini qanchalik chog‘ o‘tkazishlari kabi xususiyatlarni ko‘rsatib bergan.

“Chopon ostidan chiqib, tokchada turgan urchuq va xanjalani olib kelib beraman. Xanjala – yigirishga tayyorlangan, ungacha qayta-qayta yuvilib, titilgan va bir-biriga ulanib, uzun arqon holatga kelgandan keyin, ochilgan katta atirguldek chiroyli qilib, yo‘q, magazinni kulchasi – bulichkaga o‘xshatib bilakka moslab o‘ralgan, o‘rtasi bilaguzukdek teshik taxlangan yung bo‘lagi. Xanjala yigirilsa ip bo‘ladi, ip yig‘ilsa – kalava.”[2:255]

Chopon – o‘zbek milliy liboslaridan biri. Juda qadim zamonlardan beri asosiy milliy kiyim sifatida foydalanib kelinmoqda.Yuqoridagi parchada asarimiz qahramonining chopon ostidan chiqib, buvisi aytgan yumushini bajarishi orqali bolakaylargagina xos bo‘lgan soflik, beg‘uborlikni his qilish, zavqlanish mumkin.

Xanjala, kalava kabi buyumlar bugungi texnika rivojlanayotgan davrda birmuncha qiymatini yo‘qotdi.Lekin shunday bo‘lishiga qaramay ba’zi olis qishloqlarimizda hali ham saqlanib qolgan.Yozuvchi yuqoridagi jumlada bunday unsurlarni aks ettirishi orqali unutilayotgan milliy hunarmandchilik uskunalarini bizning yodimizga solmoqchi bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Bahodir Qobul qissalari uchun xarakterli xususiyat obrazli tasvirlashdir. Yozuvchi hayotning badiiy in’ikosini yaratishda ko‘proq obrazli tasvirlash usulidan foydalanadi. “Enashamol”, “Otahayot” nomli qissalarida o‘ziga xos obrazli tasvirlash namunasini ko‘rishimiz mumkin. Adibning hikoya qilish tarzida o‘z fikrlarini, qarashlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirib o‘tish, bo‘lajak yozuvchilarga maslahatlar berish holatlari ham ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Yozuvchining o‘z fikrlari, jamiyat bilan bo‘lgan ziddiyatlari telba Mardon tilidan aytilishi juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Chopon – o‘zbek milliy liboslaridan biri.Juda qadim zamonlardan beri asosiy milliy kiyim sifatida foydalanilmoqda. Bahodir Qobul qissalarida ana shunday milliyligimiz ramzi hisoblangan kiyimlarni qo‘llash orqali ushbu yot bo‘layotgan unsurlarni esga solmoqchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018;
2. Qobul B. “Enayo‘l”. – T.: “Mashhur-Press”, 2018.
3. Sulton I.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2005.

Nargiza AXTAMOVA,
Toshkent Davlat yuridik universiteti
Fuqarolik va biznes huquqi fakulteti
3-kurs talabasi
nargizaaxtamova382@gmail.com

G‘AFUR G‘ULOMNING TARJIMONLIK MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asrning qomusiy bilim sohiblaridan biri sifatida e’tirof etilgan serqirra ijod sohibi G‘afur G‘ulomning yozgan asarlari, ularning mohiyati, bugungi kun yoshlari uchun tarbiyaviy ahamiyati va G‘afur G‘ulomning tarjimachilikka qo‘shgan hissasi haqida yoziladi. G‘afur G‘ulom turli sohalarda o‘z ijodini sinab ko‘rgan akademik sifatida uning ijodi xorijda ham o‘rganilishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: *serqirra ijod sohibi, “Netay”, “Yodgor”. “Tirilgan murda”, mohir tarjimon, “Otello”, “Qirol Lir”.*

Аннотация: в статье рассматриваются произведения Гафура Гулама, плодовитого писателя, признанного одним из величайших энциклопедистов XX века, их суть, образовательное значение для современной молодежи, а также вклад Гафура Гулама в переводческую деятельность. Как академик, попробовавший свои силы в различных областях, мы узнаем, что творчество Гафура Гулама также изучают за рубежом.

Ключевые слова: *разносторонний художник, «Нетай», «Памятник». «Воскресший труп», искусный переводчик, «Отелло», «Король Лир».*

Annotation: this article discusses the works of Gafur Ghulam, a prolific writer recognized as one of the greatest encyclopedic scholars of the 20th century, their essence, educational significance for today’s youth, and Gafur Ghulam’s contribution to translation. As an academician who has tried his hand at various fields, we will learn about the fact that Gafur Ghulam’s work is also studied abroad.

Key words: *prolific writer, «Netay», «Monument». «The Resurrected Corpse», a skilled translator, «Othello», «King Lear».*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentning xushmanzara maskanlaridan biri – O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonining yaxlit me’moriy ansambli yaratildi. Vatanimizning el sevgan mashhur namoyandalar xotirasiga bag‘ishlangan yangi yodgorlik majmuasi barpo etildi. Bobokalonimiz Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari joy oldi. Bu yerda Zulfiya, Hamid Olimjon, Oybek, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqa atoqli yurtdoshlarimizning badiiy kompozitsiyasi yaratilgan. Ular orasida O‘zbekiston xalq shoiri, akademik , adabiyotimiz gulshanida o‘zining munosib o‘rnini topgan G‘afur G‘ulom siymosini ham ko‘ramiz. O‘ziga xos iste’dod sohibi, milliy madaniyatimiz, adabiyotining ravnaqiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan serqirra adib, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy akademigi G‘afur G‘ulom qoldirgan meros ilmiy, badiiy, ijodiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

G‘afur G‘ulom ijodi rang-barang va sermazmun. Uning xalqchil tilda yozilgan barcha asarlarida asosiy qahramon, bosh obraz – bu inson. U o‘z asarlarini asosiy muammoni insonning axloqiy tarbiyasi, dunyoqarashi, orzu-umidlari, ma’rifiy rivojlanishi yo‘lidagi intilishlariga bag‘ishladi.

Adibning nasriy va nazmiy asarlari umuminsoniy g‘oya va qarashlar bilan yo‘g‘rilgan, ularda insoniy munosabatlar, xalqning turmush tarzi, hayoti, tarixi, urf-odatlari, madaniyati, ruhiyati yorqin ifodalangan. “Netay”, “Tirilgan murda”, “Yodgor”, “Shum bola”, “O‘g‘rigina bolam” kabi qissalari o‘zbek adabiyotining bebaho mulkiga aylangan. G‘afur G‘ulom ijodida inson psixologiyasi ustuvor jihat hisoblanadi. Masalan, uning bir necha marta nashr qilingan “Shum bola” qissasi real voqealar va yoshidan qat’i nazar, tom ma’noda insonlar taqdiriga bag‘ishlanadi. Qissa hajviy sarguzasht asar bo‘lib ko‘rinsa-da, uning zamirida hayotiy muammolar, qashshoqlik, achchiq haqiqat, o‘sha davrning turmushi yaqqol tasvirlangan. G‘afur G‘ulom murg‘ak bolacha hayoti, kechinmalari, dunyoqarashi orqali jamiyatdagi qabohatli muhitni haqqoniy tasvirlaydi. Ma’lum ma’noda qissa avtobiografik asar hisoblanadi. Asar yozuvchining bolaligi, o‘z hayoti bilan bog‘liq epizod va faktlarni qamrab olgan. Adibning ko‘plab asarlari bolalar mavzusiga bag‘ishlangan. “Ikki bolalik”, “Bilaman”, “Seni Vatan kutmoqda” kabi she’rlar shular jumlasidandir.

G‘afur G‘ulom o‘z ijodida badiiy tarjimaga ham, tabdil (transliteratsiya)ga ham katta ahamiyat bergan. Bilamiz, tarjimachilik o‘ta jiddiy faoliyat hisoblanadi.

Ma’lumki, nazariy bilimlar amaliy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Nazariy bilimlarsiz amaliyotni boshlash, davom ettirish, saqlash mumkin emas. Aynan badiiy tarjima jarayonida ham nazariy bilim va ko‘nikmalarsiz mukammal tarjimaga erishib bo‘lmaydi. Shu kunga qadar jahon adabiyoti tarixida yaratilgan nodir asarlar turli tillarga bir nechta variantlarda tarjima qilib kelinmoqda. Lekin barcha tarjima asarlar ham o‘zida asliyatdagi davr nafasi, millat ruhi, muallif uslubi

kabi muhim omillarni saqlagan deya olmaymiz. Bu esa o‘z navbatida nafaqat adabiy nafisliklarga putur yetishiga balki, millatlararo madaniyatlarning to‘g‘ri yoyilishiga to‘sqinlik qiladi.

G‘afur G‘ulom tajribali tarjimon bo‘lgan. Masalan, u “Otello” tragediyasini ilk bor 1940-yilda M. Lozinskiy tarjimasidan foydalangan holda, rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girgan. Adib tragediyani asliyatga ham shaklan, ham mazmunan yaqin holda tarjima qilgan. Shekspir uslubiga xos bo‘lgan so‘z o‘yinlari, personajlar xarakterini yoritib beruvchi turli ibora, majoz va o‘xshatish, badiiy tasvir vositalari va hatto asliyatga xos bo‘lgan dramatik ritm ham tarjimada o‘z aksini topgan[1].

Badiiy adabiyotda mahorat qirralarini mukammal egallab olgan qalam sohibigina boshqa tildagi ijod mahsulini asli kabi o‘z tiliga tarjima qilish malakasiga ega bo‘ladi. Shu bois, adabiyotda tarjimachilikka qo‘l urgan adiblar soni unchalik ko‘p emas, chunki muayyan mazmunni ikki tilda ifoda etish san’ati talablarini puxta bilgan, o‘z tilida boshqa tildagi asarni bekami-ko‘st aks ettira oladigan, bunda shakl va mazmun munosabatini tushunadigan iste’dod egasi to‘laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o‘ta mas’uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin. Bu esa tarjimon zimmasiga juda katta mas’uliyatni yuklaydi. G‘afur G‘ulom shunday mohir tarjimon-adiblardan edi. Adib o‘z hayoti davomida ko‘plab asarlar yaratibgina qolmay, tarjima faoliyatiga ham ulkan hissa qo‘shdi, buning natijasida jahon adabiyotining ko‘plab durdonalari o‘zbek kitobxoniga havola bo‘ldi. Uning ijodi o‘zbek va jahon adabiyoti o‘rtasida muhim ko‘prik bo‘lib, madaniy almashinuvni rivojlantirish, milliy adabiyotni boyitishga xizmat qilmoqda. Zabardast tarjimon G‘afur G‘ulom o‘z tarjimalari bilan milliy adabiy merosga ulkan hissa qo‘shgani maqtovga sazovordir. Shu bois, G‘afur G‘ulomni xorijlik adiblar dunyoning solih odami deydilar.

Adib jahon adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan taniqli rus shoir va yozuvchilardan Pushkin, Lermontov, Griboedov, Mayakovskiy, turk shoiri va jamoat arbobi Nozim Hikmat, atoqli gruzin shoiri Shota Rustaveli, ozarbayjonlik mohir shoir va ma’rifatparvar adib Nizomiy Ganjaviy, ingliz shoiri, dunyoning eng yaxshi dramaturglaridan biri hisoblangan buyuk yozuvchi Uilyam Shekspir, italiyalik mashhur shoir va yozuvchi, italyan adabiy tilining asoschilaridan biri bo‘lgan Dante, o‘zining komediyalari bilan mashhur bo‘lgan fransuz dramaturgi va publitsisti Bomarshe kabi dunyoga tanilgan adiblar asarlarini o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan.

Uning birinchi tarjima asari o‘sha davr ruhini aks ettirgan Vladimir Mayakovskiyning “Vo ves` golos” poemasini “Hayqiriq” nomi bilan tarjima qildi. G‘afur G‘ulomning shoirona bedor qalbi Mayakovskiy qalbiga uyqash edi. She’rning o‘zbekcha tarjimasi o‘zbek tili badiiy vositalarini mohirona jo qilgani sababli inson qalbini larzaga solardi. U Shekspirning “Otello”, “Qirol lir” singari jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. G‘afur G‘ulomning o‘n ikki jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning sakkizinchi, to‘qqizinchi va o‘ninchi jildlari tarjimalardan tashkil topgan bo‘lib, bu uch jildning umumiy hajmi 1600 sahifadan oshadi. Xolbuki, ushbu “Mukammal asarlar to‘plamiga”ga “Qo‘rqinchli tehron” romanining tarjimasi kabi yirik nashrlar kiritilmagan. Bu bevosita adibning tarjima sohasidagi zalvorli faoliyatini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Shu bilan birga, jahon adabiyotini tarjima qilish G‘afur G‘ulom ijodiyotiga ulkan ta’sir etganini alohida qayd etish joiz. Chunonchi, “Shum bola”dagi Qoravoy Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asaridagi qahramonga juda o‘xshash, boz ustiga undagi sarguzasht va ichak uzdi voqealar bir-biriga hamohangdek tuyuladi. Asosiysi, G‘afur G‘ulomning mazkur ijod mahsullari o‘zbekcha ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, adibning jahon adabiyotining eng ta’sirchan tajribalarini milliy o‘zbek adabiyotiga tatbiq qilishdagi xizmatini alohida e’tirof etish darkor.

G‘afur G‘ulomning o‘zbek adabiyotidagi yana bir ulkan xizmati Hazrat Alisher Navoiyning ijodiyotini oddiy kitobxon uchun tushunarli tarzda bayon qilish maqsadida yangi davr ruhiyati bilan har bir o‘zbek xonadoniga kirib borishida katta hissa qo‘shishidadir. Oradan qariyb besh asr o‘tganligi sababli, qadimgi ona tilimizda ham ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lishi, XV asr chig‘atoy tilini oddiy kitobxon mutolaa qilganda tushunishda qiynalishi tabiiy hol. Shu sababli, G‘afur G‘ulom “Farhod va Shirin” dostonini zamonaviy o‘zbek tiliga tarjimasi asosida zamonaviy o‘zbek tiliga o‘giradi.Yana bir muhim jihat, G‘afur G‘ulom tarjimalari nafaqat o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga, balki o‘zbek-tojik xalqlarining do‘stlik rishtalarining mustahkamlanishiga ham katta yordam beradi. Xususan, G‘afur G‘ulom Sharq shoiri sifatida Bedildan ko‘p ta’sirlangan, buni u o‘z asarlarida ham bir necha marta ta’kidlab ko‘rsatgan.

Bedil adabiyotga olib kirgan ko‘pgina obrazli ifodalar uning asarlari matniga ham ko‘chib o‘tgan. Chunonchi, yorug‘ dunyo, olam degan ma’nodagi “xonai xurshid” tashbehi uning she’riyatiga Bedildan ko‘chib o‘tgan. G‘afur G‘ulom Sa’diy hayotini ham juda chuqur bilar, ular to‘g‘risida ko‘p narsalar o‘qir edi. U o‘ziga sevimli bo‘lgan, o‘zining ruhiy-ma’naviy intilishlari, adabiy farosatiga yaqin jondosh va dildosh asarlarnigina o‘zbekchalashtirardi. Sa’diyning ruboiysini quyidagicha tarjima qilgan:

Go‘zal og‘iz, shirin bo‘g‘iz va labdan chiqqan ovoz,
Kuy aytsa ham, aytmasa ham dil erkalar, juda soz.
Ammo no‘noq qo‘shiqchining kekirdagin bezolmas
Ko‘p ajoyib maqomlar ham: “Ushshoq”, “Xuroson”, “Hijoz”.

[1] Эсоналиевна М. Отелло трагедиясининг ўзбек тилидаги таржима вариантлари таҳлили. Academic research in educational sciences volume. 7. 2021. – Б.1-3.

G‘afur G‘ulom ulug‘vor Sharq adabiyoti tafakkurini shunchalik mohirlik bilan egallaganligini ushbu to‘rtlikdan anglash mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, akademik G‘afur G‘ulomning lirik she’riyati va badiiy tarjimalari bir-birini o‘zaro organik tarzda to‘ldirib boradi va izchil favqulodda davomiylik, chambarchaslik hosil qiladi. Shoir ijodi bilan tanishar ekanmiz, o‘zbek tilining imkoniyatlariga cheksiz ishongan adibgina shunday mohirlik va talabchanlik bilan jahon adabiyoti namunalarini ona tilimizga tarjima qilishiga ishonch hosil qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Bozora. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini ta’lim jarayonida o‘rganish. – T.: TDYU, 2021.

2. Эсоналиевна М. Отелло трагедиясининг ўзбек тилидаги таржима вариантлари таҳлили. Academic research in educational sciences volume. 7. 2021. 1-3-б.

3. G‘afur G‘ulom ijodida milliy va umuminsoniy g‘oyalar uyg‘unligi / Harmony of national and universal ideas in the work of Gafur Gulyam / Гармония национальных и общечеловеческих идей в творчестве Гафура Гуляма” // Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYU, 2023. – 272 bet.

4. N.Bozora. G‘afur G‘ulomning badiiy mahorati. – Toshkent: TDYU, 2022.

5. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami.–Toshkent: “Fan”, 2004.

6. G‘afur G‘ulom, Tanlangan asarlar, Nazm va nasr.

7. Yusupov S. Tarjima orqali do‘stlik, qardoshlik ko‘priklarini mustahkamlagan shoir. UZA. 2025.

8. Karimov N. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.

Valida BOTIROVA,
Andijon chet tillari instituti 1-bosqich magistranti
saidovavolida88@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA NUMERATIVLI FRAZEOLOGIZMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi numerativli frazeologik birliklarning morfologik tahlili yoritiladi. Ularning grammatik shakli, so‘z yasalish va qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi. Xususan, mazkur maqolada son komponentlar orqali frazeologik birliklarning nafaqat ma’no doirasi, balki funksional jihatlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *numerativli frazeologizmlar, morfologik tahlil, semantik yuklama, mubolag‘a, obrazli ma’no.*

Annotation: in this article, the morphological analysis of the fraceorical units in Uzbek is covered.Their grammatical shape, the word development and application of the word are studied. In particular, through the components of this article, through number components, the fraceological units are analyzed not only the scope of phraseological units, but also the functional aspects.

Key words: *numerative frazaeologists, morphological analysis, semantic load, exaggeration, emotional meaning.*

Аннотация: в этой статье рассматривается морфологический анализ фрачеорических подразделений в Узбеке. Их грамматическая форма, разработка слова и применение слова изучаются. В частности, через компоненты этой статьи, посредством числа компонентов, фрачеологические единицы анализируются не только объем фразеологических единиц, но и функциональные аспекты.

Ключевые слова: *численные фразеологи, морфологический анализ, семантическая нагрузка, преувеличение, эмоциональное значение.*

Frazeologizmlar xalqning nutq madaniyati va tafakkurini o‘ziga xos tarzda namoyon qiluvchi, tilning semantik tizimida muhim o‘rin tutuvchi birliklar hisoblanadi. Ayniqsa, numerativli frazeologizmlar sonning maqol, matal, iboralarda qo‘llanilishi bilan o‘zgacha semantik xususiyatlarga ega bo‘lganligi

jihatidan ko‘plab tilshunoslik tadqiqotlarida alohida o‘ringa ega desak yanglishmaymiz.

O‘zbek tilida frazeologik birliklarni morfologik xususiyatlarini o‘rganish orqali frazeologiyaning semantik xususiyatlari bilan bir qatorda grammatik tuzilishini yanada chuqurroq aniqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, ko‘plab olimlar, tilshunoslar frazeologik birliklarning grammatik shakllanishi, so‘z yasalishi hamda ularning tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Ulardan biri tilshunos A.Madvaliyev frazeologik birliklarni grammatik jihatdan tahlili qilinishi zarur ekanligini, ularning nafaqat tarkibiy tuzilishi balki lingvistik omillar bilan bog‘liqligini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan[1]. Yana bir tilshunos olim Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, frazeologizmlar doimiy tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, ularning komponentlari o‘zaro bog‘langan va grammatik jihatdan o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslikda frazeologik birliklar morfologik va sintaktik jihatdan yetarlicha tadqiq etilgan bo‘lsada, ammo numerativli frazeologizmlarning maxsus morfologik tahlili hali to‘liq ochib berilmagan. Shu sababdan, ushbu maqola bu sohada yangi ilmiy yondashuvlarni muhokama qilishni ilgari suradi.

Tilshunos olim G‘.Rahimov frazeologik birliklarni o‘rganib, ular doimiy tuzilishga ega ekanligini, ularning grammatik tarkibi hamda semantik o‘zgarishlari o‘ziga xos qoidalar asosida shakllanishini ta’kidlaydi[3]. Shu jihatdan, son komponentli frazeologik birliklar ham morfologik tahlili asosida grammatik tuzilishi, komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda funksional xususiyatlarini aniqlanishi mumkin. Frazeologiyaga o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan yana biri, A.Toshmatov frazeologizmlarning tarkibiy qismlarini morfologik birliklar asosida tasniflab, ularning so‘z yasalish jarayonidagi o‘rnini tahlil qiladi[4]. Uning fikricha, son ishtirok etgan frazeologizmlar ko‘pincha an’anaviy grammatik shakllarni saqlab qolsa-da, ayrim hollarda ma’no o‘zgarishiga uchraydi.

Metodologik jihatdan ushbu maqolada taqqoslash, morfologik tahlil va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari alohida morfologik tahlildan o‘tkazilib, so‘z turkumlari hamda grammatik jihatdan shakllanishi tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. Son komponentli frazeologizmlarni xalq og‘zaki ijodi sifatida baholagan tilshunos S.Sohibnazarov bunday frazeologizmlarda nafaqat miqdorni, balki obrazni ifodalashi haqida bayon qilgan[5]. Misol tariqasida “Yetti uxlab tushiga kirmagan”va “Bir og‘iz gap” kabi iboralarini olaylik:

“Yetti uxlab tushiga kirmagan” iborasida

“Yetti” – aniq son, lekin ushbu iborada mubolag‘ali, obrazli ma’no,

“uxlab” – fe’l, hozirgi zamon ko‘rinishidagi sifatdosh,

“tushiga kirmagan” – fe’lli birikma, hayrat va kutilmaganlik ma’nosini bildiradi.

Ushbu iborani semantik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, “yetti” soni real miqdor ma’nosida emas, mubolag‘a, kuchaytirish, obraz ma’nosida ishlatilgan. Bu ibora oldin hech ham o‘ylab ko‘rilmagan, tasavvurga sig‘maydigan biror voqea-hodisaga nisbatan qo‘llaniladi.

“Bir og‘iz so‘ z” iborasida esa

“Bir” – sanash miqdorini bildiruvchi aniq son, bu iborada ot oldidan aniqlovchi vazifasida,

“og‘iz” – ot, bu iborada gap o‘lchovi sifatida metaforik mazmunda,

“so‘z” – ot, markaziy ma’noni tashuvchi semantik birlik.

Bu frazeologizmda “bir” so‘zi real ma’noda emas, “kam, qisqa” degan ma’no yuklatilgan. Bu ibora kamgaplik yoki sukut ma’nosida ishlatilishi mumkin.

“Bir zumda” frazeologizmida

“Bir” – son, aniqlovchi vazifasida,

“zum” – ot, vaqt o‘lchovini bildirib, ushbu ibora “juda tez”, “ko‘z ochib yumguncha” degan obrazli mazmunni ifodalaydi. Bu yerda “bir” soni, haqiqiy vaqt o‘lchov birligiga ishora qilmasdan, voqeaning darhol, keskin sodir bo‘lishini anglatadi.

Yuqoridagi keltirib o‘tgan misollarimizdan xulosa qilishimiz mumkinki, o‘zbek tilida son komponentli frazeologizmlar quyidagi morfologik shakllarda uchraydi:

Son + ot: bir zum, bir og‘iz

Son + fe’l birikmasi: yetti uxlab

Son + sifatdosh: ikki og‘izli, bir uch baholi

Son + ravish: birpasda, ming marta

Mazkur birliklarda ishtirok etgan sonlar haqiqiy miqdorni emas, asosan mubolag‘a, umumlashtirish, emotsional yoki bo‘lmasa kuchaytiruvchi unsur sifatida xizmat qiladi. Natijada, ularning grammatik shaklidagi son komponentining funksional yuklamasi o‘zgaradi.

Tilshunos olim E.Jo‘rayevning fikriga ko‘ra,

[1] Madvaliyev.A. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari. – T.: Fan, 2019. 78-b.
[2] Yo‘ldoshev M. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar. – M.: Ma’naviyat, 2021. 112-b.
[3] Rahimov G‘. Frazeologiyaning lingvistik asoslari. – M.: Fan va texnologiya, 2018. 56-b.
[4] Toshmatov A. Frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari. – M.: Ma’naviyat, 2020. 88-b.
[5] Sohibnazarov S. O‘zbek frazeologiyasi: Nazariya va amaliyot. – M.: Fan va texnologiya, 2020. 114-b.

frazeologik birliklarni morfologik jihatdan tahlil qilish jarayonida ulardagi son komponentlarning qaysi so‘z turkumiga mansubligi hamda qanday grammatik shakllarda ishtirok etishini aniqlash yuqori ahamiyatni kasb etadi. Uning izlanishlarida “Ikki og‘iz so‘z”, “bir qop gap” hamda “uch-to‘rt kundan beri” kabi frazeologizmlar morfologik xususiyatlari o‘rganilib, ushbu iboralarda sonlar otlar bilan birikib, aniqlovchi vazifasida kelganligi ko‘rsatilgan[6].

Son komponentli frazeologizmlar tilning ekspressiv imkoniyatlarini oshirishini, u bunday birliklarni kommunikativlik va emotsionallik jihatlaridan tahlil qilib, ular xalqlarning dunyoqarashi va qadriyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini yana bir tilshunos A.Qayumov o‘z tadqiqotlarida isbotlab bergan[7]. Masalan, “Yuz marta aytganim yo‘q”, “Bir zumda g‘oyib bo‘ldi” singari ifodalarda mantiqan sanoq emas, balki obrazli, emotsionalli mazmun ilgari suradi.

Yuqoridagi iboralarimizdan ayon bo‘lishicha, o‘zbek tilidagi numerativli frazeologizmlarda son komponenti asosan quyidagi vazifalarda ishtirok etadi:

Aniqlovchi sifatida: “Bir og‘iz so‘z”, “Uch-to‘rt kishi”,

to‘ldiruvchi vazifasida: “Bir necha bor”, “Biror gap”,

hol vazifasida: “Bir zumda”, “Yetti uxlab”.

Mazkur frazeologik birliklar barqaror morfologik tarkibga ega bo‘lib, ularning ko‘pchiligi asosan an’anaviy grammatik shakllanishni saqlagan holda ma’no-mazmun jihatdan takomillashtirilgan. Frazeologizmlarning mazmuni sonlarning kontekstda qanday semantik yuklama ishtirok etishiga qarab aniqlanadi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi son komponentli frazeologizmlar xalq tafakkurini ifodalovchi, til boyituvchi hamda asosan obrazlilikni oshiruvchi unsur sifatida keng qo‘llaniladi. Ular qat’iy, barqaror morfologik tuzilishga ega bo‘lib, son orqali grammatik hamda semantik funksiyalarni bir vaqtning o‘zida amalga oshiradi. Tahlillarimizdan ayon bo‘ldiki, sonlar frazeologizmlarda ko‘pincha real miqdorni emas, mubolag‘a, bo‘rttirish, umumlashtirish, emotsional kuchaytirish singari yuklamalarni anglatadi. Xususan, bu birliklar kontekstda obraz ifodasi orqali nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

[6] Jo‘rayev E. Frazeologizmlarning grammatik tahlili. – M.: Ilm ziyo, 2017. 89-b.

[7] Qayumov A. O’zbek tilida emotsional ifoda vositalari. – M.: Nurli olam, 2016. 73-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev E. Frazeologizmlarning grammatik tahlili. – M.: Ilm ziyo, 2017.
2. Madvaliyev.A. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari. – T.: Fan, 2019.
3. Qayumov A. O‘zbek tilida emotsional ifoda vositalari. – M.: Nurli olam, 2016.
4. Rahimov G‘. Frazeologiyaning lingvistik asoslari. – M.: Fan va texnologiya, 2018.
5. Sohibnazarov S. O‘zbek frazeologiyasi: Nazariya va amaliyot. – M.: Fan va texnologiya, 2020.
6. Toshmatov A. Frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari. – M.: Ma’naviyat, 2020.
7. Yo‘ldoshev M. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar. – M.: Ma’naviyat, 2021.

Dinora NAZARKULOVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universitetining
Lingvistika-o‘zbek tili” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR MATNINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada qonunchilikda belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar tili, bunday matnlarga qo‘yiladigan lingvistik talablar va ularning lisoniy tahliliga oid mulohazalar yoritilgan. Bunda sotsiolingvistikaning amaliy yo‘nalishlari hisoblangan yuristlingvistika va lingvokriminalistikaga oid ilmiy ishlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *“qonun tili”, rasmiy uslub, bir ma’nolik, yuridik terminlar, huquqiy ijodkorlik, lingvistik ekspertiza.*

Annotation: this article discusses the language of normative legal documents defined in legislation, the linguistic requirements for such texts, and considerations related to their linguistic analysis. It utilizes research from applied branches of sociolinguistics, such as forensic linguistics and legal linguistics.

Key words: *“language of law”, official style, unambiguity, legal terminology, legal drafting, linguistic expertise.*

Аннотация: в данной статье рассматривается язык нормативно-правовых актов, установленных законодательством, лингвистические требования к таким текстам и вопросы их языкового анализа. Используются исследования по прикладным направлениям социолингвистики, таким как юридическая лингвистика и лингвокриминалистика.

Ключевые слова: *“язык закона”, официальный стиль, однозначность, юридическая терминология, правотворчество, лингвистическая экспертиза.*

Hozirgi kunda insonlarning huquqiy ong va madaniyatini rivojlantirishda davlat boshqaruv tizimida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning o‘rni beqiyos.Shu sababli ushbu qonun va qonunosti me’yoriy hujjatlarning lisoniy strukturasi barcha uchun tushunarli, aniq va qat’iy bo‘lishi lozim. Bunda esa rasmiy ish hujjatlariga qo‘yilgan talablar bilan bir qatorda huquqiy ijodkorlikni ta’minlovchi lisoniy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini inobatga olish ham talab etiladi.

Qonunchiligimizda huquqiy-me’yoriy hujjatlar deb qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi.[1]

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.[2]

Ushbu qonunlarning amaliy ahamiyati eng avvalo ularning ijrosi qay darajada ta’minlanganlik bilan baholanar ekan, bunda o‘zbek qonunchilik tilining lingvo-yuridik o‘ziga xosligini belgilash va “qonun tili”ga qo‘yiladigan bosh me’zonlarni ishlab chiqish, yuridik atamalarning yagona ifoda shakllarini yaratish talab etiladi. O‘zbek yuridik atamalarining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak yurtimizda yurisprudensiya va lingvistikaning o‘zaro munosabati, huquq

tili va terminologiyasi bo‘yicha N.Mahmudov, A.Saidov, Sh.Ko‘chimov,

B.Mengliyev, G.G‘ulomova, M.Qosimova, L.Karimova, X.Hayitov, R.Sharopova,

O.Tursunova, E.Sobirova kabilar tadqiqot olib borishgan.[3]

Huquqiy til ifodasining asosiy prinsiplari: shaklning aniqligi va qat’iyligi, tilning ravon va tushunarli bo‘lishi, sinovdan o‘tgan atamalar, tushunchalar va ifodalardan foydalanish, normalar ta’rifining mumkin qadar aniqligi va lo‘ndaligi, huquqiy ko‘rsatmalarni bayon etish shakli, tuzilishi va usullarining yagonaligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya etilishida namoyon bo‘ladi.

[1] [O‘RQ-682 20.04.2021.3-modda]
[2] [O‘RQ-682 20.04.2021.6-modda]
[3] Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994; Саидов А., Саидова Л., Кўчимов Ш., Қосимова М. Қонун ва тил. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997. – 168 б.; Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Жиноят кодекси, Жиноят-процессуал кодекси асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 209 б.; Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.220-б.; Турсунова О.Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланилган ҳуқуқий терминларнинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 245 б.; Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 216 б.; Касымова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 156 с.; Каримова Л.А. Правовые и нравственные аспекты законов о языке: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991; Собирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022.145-б.

Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar, reglamentlar, strategiyalar, konsepsiyalar, doktrinalar, dasturlar (“yo‘l xaritalari”) va boshqa hujjatlar uchun ham umumiy me’yor bo‘lib xizmat qiladi. Huquqiy atamalarga birma’nolik, ta’riflanish, emotsionallikdan holi bo‘lish kabi qat’iy talablar qo‘yilgan. Ammo atamalar lisoniy maydonda til sistemasining ajralmas bo‘g‘ini sifatida ba’zan til birliklariga xos bo‘lgan ko‘pma’nolik, zid ma’no, shakldoshlik va ma’nodoshlik xususiyatlarini aks ettiradi. Tushuncha qanday birliklar bilan ifodalanishiga ko‘ra sinonimlar ikki guruhga bo‘linadi: 1) tub yoki yasama termin bilan birikma termin sinonimiyasi: fraksiya – deputatlar guruhi, senator – senat a’zosi, ambudsman – inson huquqlari bo‘yicha vakil; 2) birikma termin bilan birikma termin sinonimiyasi: global muammolar – umumbashariy muammolar, ijroiya hokimiyati – ijro etuvchi hokimiyat. [4]. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 3-moddasida nazarda tutilgan muddatlarni hisoblash tartibi yoritilgan ushbu moddaning tahliliga yuzlansak: - Ushbu Kodeks mehnat huquqlari va burchlarining vujudga kelishi yoki bekor bo‘lishi bilan bog‘laydigan muddatning o‘tishi uning boshlanishi belgilangan kalendar kunning ertasidan e’tiboran boshlanadi.

Yillar, oylar, haftalar bilan hisoblanadigan muddatlar so‘nggi yilning, oyning, haftaning ***tegishli kunida*** tugaydi.Kalendar bo‘yicha hisoblanadigan haftalar yoki kunlar ***muddatiga ishlanmaydigan kunlar*** ham qo‘shiladi.

Basharti muddatning so‘nggi kuni ishlanmaydigan kunga to‘g‘ri kelsa, undan keyin keladigan birinchi ish kuni muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi. Kodeksning ushbu moddasida keltirilgan “tegishli kunida”, “muddatiga ishlanmaydigan kunlar” jumlalarida biroz mujmallik ko‘zga tashlanadi. Qonun, farmoyish, qaror loyihasining matni quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- jumlalarning soddaligi va qisqaligi;
- ta’rifning aniqligi;
- bayon etishning tizimliligi va ketma-ketligi.

Basharti shunday ekan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 171-moddasi“Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun shaxslarning ma’muriy javobgarligi” ga bag‘ishlanadi. Unda:

Agar ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror ustidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida tegishli transport vositasiga huquqbuzarlik qayd etilgan paytda egalik qilgan shaxs aniqlansa yoxud mazkur transport vositasi boshqa shaxslarning g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlari natijasida transport vositasi mulkdorining egaligidan chiqib ketganligi aniqlansa, transport vositasining mulkdori o‘ziga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu murakkab qo‘shma gapli struktura bir moddani bir necha marta o‘qigandan so‘ng anglanadi va biroz qiyinchilik tug‘diradi. Demak huquqiy matnlarga qo‘yilgan talablardan og‘ish kuzatilgan. Ilmiy adabiyotlarda qonun loyihalarida shuningdek, unga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda quyidagilarning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi keltirib o‘tilgan:

og‘zaki nutq shakllari;

davlat tilida teng ma’noli so‘zlar va tushunchalar mavjud bo‘lgan taqdirda, chet tillari atamalari;

eskirgan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar;

abbreviatura va qisqartmalar (bundan umumiy qabul qilingan abbreviatura va qisqartmalar, shuningdek qonunosti hujjatlarining ilovalaridagi tashkilotlarning qisqartirilgan nomlari mustasno).

Shunday ekan normativ-huquqiy hujjatlar matnini shakllantirishda uni huquqshunos mutaxassislar anglashi nuqtayi nazaridan emas, aksincha jamiyatdagi barcha fuqarolarning tushunish, idrok etish imkoniyatidan kelib chiqib yaratish lozim deb hisoblaymiz. “Qonunchilik tili” – juda ham cheklangan miqdorda so‘z va atamalar bilan ifodalanishi lozim” – deb yozadi A.S.Pigolkin. “Ortiqcha so‘z va takrorlar, predmetni ipidan ignasigacha batafsil tasvirlash qonunchilik uslubiga xos emas. Qonun matni qanchalik qisqa, lo‘nda ifodalansa, ijrochilar tomonidan yaxshi qabul qilinadi, kuch va vaqtini tejaydi”.[5] Shu sababli qonunlar mazmun-mohiyati jihatidan xalqchil, dunyo standartlari darajasida bo‘lmasin, agar normativ-huquqiy hujjatlar matnida bu normalarni ifodalashda eng qulay ifoda usullaridan foydalanilmas ekan, bu fuqarolarda huquq va qonunchilikka bo‘lgan mehr-u muhabbatini so‘ndiradi, huquqiy madaniyatsizlikka olib keladi, ularni qonunlardan bezdiradi.[6]. Bizningcha ham fuqaro hujjatlarni qayta-qayta o‘qib ham tushunmasa, turli-tuman sharhlashga olib keladi. Bunday holatlar jamiyatda turli noxush oqibatlarni, jinoyatchilik va qonunbuzarlikning avj olishiga sabab bo‘ladi. Korrupsiya, o‘zboshimchalik va bir necha illatlarga yo‘l ochib beradi.

[4] R.J.Sharopova. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlarining semantic-struktur xususiyatlari va leksikografik talqini: Filol.fan.bo‘yicha. fal.dokt. (PhD)---diss. – Qarshi, 2019. 16-b.

[5] Гаврилов О.А., Колдаева, Н.П., Пиголькин А.С. Научные основы советского правотворчества. – М.: Наука, 1981. – 297 с.

[6] S.N.Ko‘chimov.- Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. monograf. –Toshkent, 2013.98-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Sharopova. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlarining semantik-struktur xususiyatlari va leksikografik talqini: Filol.fan. bo‘yicha. fal.dokt. (PhD) diss. – Qarshi, 2019.16-b.

2. Гаврилов О.А., Колдаева, Н.П., Пиголькин А.С. Научные основы советского правотворчества. – М.: Наука, 1981. – 297 с.

3. S.N.Ko‘chimov. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent, 2013.98-b.

4. Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994.

Nafisa QURBONOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich magistranti

QUROLLI TO‘QNASHUVLARDA JURNALISTLARNING O‘LIMI: STATISTIK TAHLIL VA XALQARO HIMOYA MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada qurolli to‘qnashuvlarda jurnalistlarning o‘limiga sabab bo‘luvchi omillar, mavjud statistik ma’lumotlar va xalqaro himoya mexanizmlari tahlil qilinadi. Mavjud muammolarni o‘rganish uchun empirik va nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jurnalistlar urush hududlarida bevosita jang harakatlari, maqsadli hujumlar va terroristik harakatlar natijasida halok bo‘lishi muhokama qilinadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning jurnalistlarni himoya qilish bo‘yicha choralari va mavjud huquqiy asoslar o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari jurnalistlarning xavfsizligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *axborot, qurolli to‘qnashuvlar, jurnalist xavfsizligi, xalqaro huquq, statistika.*

Annotation: this article analyzes the factors contributing to the deaths of journalists in armed conflicts, existing statistical data, and international protection mechanisms. Empirical and theoretical research methods were used to examine the existing issues. The discussion covers how journalists perish in war zones due to direct combat actions, targeted attacks, and terrorist acts. Additionally, the measures taken by international organizations to protect journalists and the legal frameworks in place are explored. The research findings include recommendations aimed at enhancing journalist safety.

Key words: *information, armed conflicts, journalist safety, international law, statistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются факторы, способствующие гибели журналистов в вооруженных конфликтах, имеющиеся статистические данные и международные механизмы защиты. Для изучения существующих проблем были использованы эмпирические и теоретические методы исследования. Обсуждаются случаи гибели журналистов в зонах боевых действий в результате непосредственных военных столкновений, целенаправленных нападений и террористических актов. Также рассматриваются меры, принимаемые международными организациями для защиты журналистов, и существующие правовые основы. Результаты исследования включают рекомендации, направленные на повышение безопасности журналистов.

Ключевые слова: *информация, вооруженные конфликты, безопасность журналистов, международное право, статистика.*

Kirish. Jurnalistika demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, urush va qurolli mojarolar davrida axborot tarqatish muhim vazifaga aylanadi. Biroq, harbiy mojarolarni yoritayotgan jurnalistlar ko‘pincha nishonga aylanib, hayotini xavf ostiga qo‘yadi.Jurnalistlarning urush hududlarida halok bo‘lishining bir qancha asosiy sabablari mavjud. “Konfliktlar, urushlar va hokazo to‘qnashuvlar chog‘ida, - deb yozadi amerikalik mutaxassis M.Bride, - erkinlik va mas’uliyat bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan talabga aylanadi. Mas’uliyatsiz erkinlik haqiqatni buzishga va boshqa suiiste’molchiliklarga olib keladi. Biroq erkinlik bo‘lmagan taqdirda mas’uliyat o‘z ahamiyatini yo‘qotadi”. [1]

Jurnalist Xurshid Do‘stmuhammadning fikricha, jurnalistga jismoniy ta’sir ko‘rsatish holati ikki xil bo‘ladi. “Biri – jurnalistlarning bevosita qurolli to‘qnashuvlar chog‘ida shikastlanishi; ikkinchisi – qo‘lga tushirilgan jurnalistlarga turli tazyiqlar o‘tkazish.”

Qurolli konflikt zonasida faoliyat olib boradigan jurnalistning huquq va majburiyatlari xalqaro gumanitar huquqda belgilangan. Mazkur huquq me’yorlarining katta qismi dunyoning barcha davlatlari tomonidan tan olingan. Bu boradagi eng muhim hujjatlardan biri 1899-yil va 1907-yilda qabul qilingan Gaaga konvensiyasi deklaratsiyasi (Gaaga huquqi ham deyiladi) hisoblanadi. Shuningdek, urush qurbonlari muhofazasi to‘g‘risida 1949-yilda qabul qilingan. Jeneva konvensiyasi hamda unga

qo‘shimcha ravishda 1977-yilda qabul qilingan protokol (Jeneva huquqi)ni ham keltirib o‘tish mumkin. Gaaga huquqi urush olib borish tartibi va qoidalariga qo‘llaniladi hamda qurol ishlatishga cheklov o‘rnatadi. Jeneva huquqiy me’yorlari esa konfliktlar hududida joylashgan, biroq unda ishtirok etmayotgan tinch aholi, yaradorlar, harbiy asirlar boshqalarni muhofaza qilishga qaratiladi.[2] Garchi jurnalistlar faoliyati xavfsizligi xalqaro qonunlarda aks etgan bo‘lsa-da, amaldagi mavjud muammolar qonunlar ijrosi oqsayotganini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolada empirik hamda nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jurnalistlarning qurolli to‘qnashuvlarda halok bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish uchun quyidagi manbalar o‘rganiladi.

• Jurnalistlarni muhofaza qilish qo‘mitasi (CPJ) va Chegara bilmas muxbirlar (Reporters Without Borders) kabi xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari;

• YUNESKO va BMT Inson huquqlari kengashi tomonidan e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlar.

YUNESKO raqamlari shuni ko‘rsatadiki, 2023-yil mojaro zonalarida ishlaydigan jurnalistlar uchun ayniqsa halokatli yil bo‘ldi, qotilliklar so‘nggi uch yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘paydi.

“Chegara bilmas muxbirlar”ning (RSF) 2024-yilgi hisobotlariga ko‘ra, 2023-yil oktyabr oyidan beri Isroil armiyasi tomonidan 145 dan ortiq jurnalistlar o‘ldirilgan.

“2024-yil jurnalistlar uchun eng halokatli yil bo‘ldi, 124 muxbir o‘ldirildi”-, deydi Jurnalistlarni himoya qilish qo‘mitasi.Ularning uchdan ikki qismi Isroil tomonidan G‘azoda Hamasga qarshi urush paytida o‘ldirilgan falastinliklardir. Hisobotda aytilishicha, o‘tgan yili Sudan, Pokiston, Meksika va Suriya kabi boshqa mamlakatlarda ham ko‘plab jurnalistlar o‘ldirilgan.

Kamida 10 ta holatda, tashkilot tergov natijalariga ko‘ra, ular “qasddan nishonga olingan” deb aniqlangan. Guruh kamida 20 ta boshqa holatlar qasddan sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini tekshirishni davom ettirayotganini aytmoqda.

Isroil Mudofaa kuchlari (IDF) rasmiylari ommaviy axborot vositalariga armiya jurnalistlarni ataylab nishonga olmasligini bir necha bor aytishgan.Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari jurnalistlarning o‘ldirilishi yuzasidan xavotir bildirib, joriy yil fevral oyidagi bayonotida “so‘nggi oylarda ishg‘ol qilingan Falastin hududida, xususan, G‘azoda xalqaro qonunlarni qo‘pol ravishda e’tiborsiz qoldirib, o‘ldirilgan, hujumga uchragan, jarohat olgan va hibsga olingan jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan xavotirda” ekanliklarini aytishdi.

Jurnalistlarning o‘limi bilan bog‘liq muayyan holatlar o‘rganildi.Bunda quyidagi nufuzli media tashkilotlar tomonidan yoritilgan real voqealar asos qilib olindi.

Nigeriyalik jurnalist Onifade Emmanuel Ikedjadagi tartibsizliklarni yoritayotganda o‘ldirildi.Jurnalistlarni muhofaza qilish qo‘mitasi tadqiqotida keltirilishicha, 2020-yilda dunyo bo‘yicha jurnalistlar rekord darajada hibsga olingan.Shuningdek qo‘mita ma’lumotida keltirilishicha, turkiyalik fotomuxbir Byulen Qilich norozilik aksiyasini yoritayotgan mahalliy afg‘on jurnalistini “Tolibon” jangarisi kaltaklayotganini fotoga muhrlagan.So‘ngra jangari Qilichning o‘zini ham miltiqning qo‘ndog‘i bilan urgan.Boshqa jurnalistlarning aytishicha, ikki nafar jangari qochib borayotgan Qilichni ta’qib qilishgan va bir necha bora jurnalist ekanligini aytishiga qaramasdan kaltaklashga uringan. “Tolibon” harakati vakillari qo‘mita so‘rovnomasi va taqdimnomasiga hech qanday javob berishmaydi. [3]

Ushbu holatlar jurnalistlarga qarshi hujumlarning sabablari va xalqaro reaksiyani tahlil qilishga yordam beradi.

Natija. Tadqiqot natijalari jurnalistlarning qurolli to‘qnashuvlarda o‘lim sabablari, statistik ko‘rsatkichlar va xalqaro huquqiy himoya mexanizmlarining samaradorligini tahlil qilish orqali quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

1. Jurnalistlarning qurolli mojarolarda o‘limi bo‘yicha statistik tendensiyalar;

• So‘nggi yillar davomida qurolli mojarolar natijasida jurnalistlar o‘limi ortmoqda. Eng xavfli hududlar sifatida Yaqin Sharq (Suriya, Iroq, Falastin), Afrika (Somali, Sudan, Mali) va Sharqiy Yevropa (Ukraina) qayd etildi.Jurnalistlarning aksariyati qurolli to‘qnashuvlarda atay o‘ldirilgan.

2. Xalqaro huquqiy himoya mexanizmlarining samaradorligi;

• Jeneva konvensiyalari jurnalistlarni himoya qilishni nazarda tutsa-da, amaliyotda bu mexanizmlar zaif ishlayotgani kuzatildi. BMT va YUNESKO jurnalistlarga qarshi jinoyatlarni tergov qilishga chaqirsa-da, real javobgarlik juda kam hollarda o‘rnatiladi. Xalqaro jinoiy sud faqat ayrim og‘ir holatlarda ish qo‘zg‘aydi, biroq jurnalistlarning o‘limi bo‘yicha ko‘plab jinoyatlar jazolanmay qolmoqda.

Munozara. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, urush hududlarida ishlayotgan jurnalistlar nafaqat tasodifiy qurbonlar, balki ataylab nishonga olingan shaxslar

ham bo‘lib qolmoqda. Shu bois jurnalistlarning xavfsizligi masalasi nafaqat harbiy harakatlar kontekstida, balki axborot urushlari va siyosiy bosimlar doirasida ham o‘rganilishi lozim. BMT, YuNESKO va xalqaro inson huquqlari tashkilotlari jurnalistlarning himoyasini ta’minlashda muhim o‘rin tutsa-da, amaldagi choralarning natijadorligi pastligicha qolmoqda.Jinoiy javobgarlikni ta’minlash uchun xalqaro huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash zarur.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot qurolli to‘qnashuvlarda jurnalistlarning halok bo‘lish sabablari va xalqaro huquqiy himoya mexanizmlarining natijadorligini o‘rganishga qaratildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, jurnalistlarning xavfsizligi borasida jiddiy huquqiy va amaliy muammolar mavjud. Xalqaro tashkilotlar jurnalistlarni himoya qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirishi, shuningdek, davlatlar o‘z ichki qonunchiligida jurnalistlarga qarshi jinoyatlarga nisbatan jazoni qat’iylashtirishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

• Maxsus xalqaro tribunal yaratish – Jurnalistlarning hayotiga qasd qilish bo‘yicha alohida xalqaro tribunal yoki tergov komissiyasi tashkil etilishi lozim.

• Jurnalistlarni himoya qilish fondlarini kengaytirish – Maxsus xalqaro dasturlar orqali urush hududida ishlayotgan jurnalistlarni moliyaviy va huquqiy himoya qilish tizimi yaxshilanishi kerak.

Qurolli to‘qnashuvlarda jurnalistlarning halok bo‘lishi global muammo bo‘lib, bu matbuot erkinligi va axborot tarqatish huquqiga jiddiy tahdid soladi. Jurnalistlarning xavfsizligini ta’minlash uchun xalqaro huquqiy mexanizmlar samarali ishlashi, aybdorlar jazolanishi va harbiy mojarolarda matbuot vakillarining huquqlari hurmat qilinishi lozim. Shu bilan birga, jurnalistlarning o‘z xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bilim va tajribasini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дўстмуҳаммадов Х. Халқаро журналистикада гуманитар ҳуқуқ ва касб этикаси. –Тошкент: “PERFECT PRINT”, 2011.144-бет [1:49]

2. Сафаров А. Ўзбекистонда ҳарбий журналистиканинг шаклланиш ва ривожланиш тамойиллари. – Тошкент: “Ma’rifat”, 2023.132-бет [2:111]

3. Safarov.A.Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi.–Toshkent: “Universal”, 2023.128-bet [3:120]

4. 2024 was deadliest year for journalists with 124 reporters killed, Committee to Protect Journalists says - CBS News

5. RSF’s 2024 Round-up: journalism suffers exorbitant human cost due to conflicts and repressive regimes | RSF

6. Journalists killed in 2024: a heavy death toll in conflict zones for the second year running | UNESCO

7. Journalist casualties in the Israel-Gaza war - Committee to Protect Journalists

8. 2 noyabr – Jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosizlikni to‘xtatish xalqaro kuni.

Zarguloy QOSIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura talabasi,
Ilmiy rahbar: Xadicha MUXITDINOVA,
pedagogika fanlari doktori, professor

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARGA INGLIZ TILI O‘QITISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar va dastlabki amaliy tajribalar chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik yoshdagi bolalarga xorijiy til o‘rgatishda qo‘llaniladigan kommunikativ, multisensor va interfaol usullarning afzalliklari empirik dalillar asosida asoslab berilgan. Xorijiy tajribalar asosida ingliz tilini o‘yinlar, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo muloqot vositasida o‘qitish samarador ekanligi tasdiqlangan. Ish yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kichik yoshdagi o‘quvchilar, ingliz tili, til o‘qitish tamoyillari, multisensor metod, kommunikativ metodika, raqamli texnologiyalar, o‘yin metodikasi, madaniyatlararo muloqot.*

Annotation: the article presents a thorough scientific analysis of foreign research and initial practical experiences in teaching English to young learners. During the study, the advantages of communicative, multisensory, and interactive methods used in teaching foreign languages to young children were substantiated based on empirical evidence. Based on foreign experiences, the effectiveness of teaching English through games, digital technologies, and intercultural communication has been confirmed. At the end of the study, practical recommendations for teaching English to young learners have been developed.

Key words: *young learners, English language, language teaching principles, multisensory method, communicative methodology, digital technologies, game-based methodology, intercultural communication.*

Аннотация: в статье проведён глубокий научный анализ зарубежных исследований и начального практического опыта по обучению английскому языку младших школьников. В ходе исследования на основе эмпирических данных обоснованы преимущества коммуникативных, мультисенсорных и интерактивных методов, применяемых в обучении иностранному языку детей младшего возраста. На основе зарубежного опыта подтверждена эффективность обучения английскому языку с использованием игр, цифровых технологий и межкультурной коммуникации. В заключительной части работы разработаны практические рекомендации по обучению английскому языку младших школьников.

Ключевые слова: *младшие школьники, английский язык, принципы обучения языку, мультисенсорный метод, коммуникативная методика, цифровые технологии, игровая методика, межкультурная коммуникация.*

Kirish. Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi ta’lim sohasidagi dolzarb va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bolalarning yoshga xos fiziologik va psixologik rivojlanish jarayonlari ularning til o‘zlashtirish xususiyatlarini chuqur anglashni talab qiladi. Xususan, ingliz tilini boshlang‘ich bosqichda samarali o‘qitish uchun bolalarning psixologik imkoniyatlari, qiziqishlari, idroki hamda xotira xususiyatlarini hisobga olish zarurati mavjud. Bu jihat xorijiy tillarni o‘qitishga oid xorijiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarni chuqur tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Chet ellik pedagog va psixolingvistlarning ko‘pgina tadqiqotlarida yosh bolalar uchun ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy grammatik tarjima usullariga qaraganda kommunikativ va interfaol metodlarning samaraliroq ekanligi qayd etiladi. Jumladan, 2018-yilda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishida asosiy e’tiborni grammatik qoidalarga emas, balki nutqiy faoliyatga yo‘naltirish kerakligini isbotlagan. Chunki bola chet tilini birinchi navbatda nutqiy tajribalar orqali oson va tabiiy qabul qiladi, bu esa tilni egallash tezligi va chuqurligini oshiradi [1].

Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalarning xorijiy tillarni o‘zlashtirishida o‘yin metodikasi ham juda katta ahamiyatga ega. O‘yin orqali ta’lim olish bolalarning psixologik xususiyatlariga juda mos keladi va natijada ular xorijiy tilni tabiiy tarzda egallash imkoniga ega bo‘ladilar. Xorijda o‘tkazilgan dastlabki tajribalar ko‘rsatishicha, bolalar ingliz tilini o‘yinli va ijodiy tarzda o‘rganish davomida yangi so‘zlarni tezroq yodlab qoladilar, jumlalarni tabiiy tarzda shakllantirishga moyil bo‘ladilar. Shuningdek, so‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda kichik yoshdagi bolalarga xorijiy til o‘qitishda raqamli texnologiyalar va multimodal yondashuvning joriy qilinishi ham sezilarli ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Xususan, interaktiv dasturlar,

mobil ilovalar va multimedia vositalaridan foydalanish yosh o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi va ularning e’tiborini uzoq muddatga ushlab turish imkonini beradi. Bu texnologiyalar til o‘rganishni yanada individual va moslashtirilgan holda amalga oshirish imkonini yaratadi.

Xorijiy tajribalarda yana bir muhim jihat – madaniyatlararo muloqotning til o‘rganish jarayoniga kiritilishidir. Til o‘rganish bilan birga, boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish bolalarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Natijada, kichik yoshdagi o‘quvchilar xorijiy tilni shunchaki nutq vositasi sifatida emas, balki boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish vositasi sifatida ham o‘zlashtiradilar [3].

Yuqorida bayon etilgan xorijiy tadqiqotlar va dastlabki amaliy tajribalar asosida kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘qitishda kommunikativ, interfaol, o‘yin hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan metodlarni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlanganligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, mazkur tajribalarni chuqur tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud.

Adabiyotlar sharhi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish tamoyillari yuzasidan olib borilgan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ko‘plab ilmiy ishlarda ta’kidlangan. Xususan, kichik yoshdagi o‘quvchilarning til o‘zlashtirish jarayoni psixolingvistik va pedagogik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganilgan. Bolalarga xorijiy til o‘rgatishning samaradorligi, avvalo, ular uchun maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida tashkil etilganligi bilan bog‘liq. Jumladan, R. Bekmuratova tomonidan olib borilgan tadqiqotda ta’kidlanishicha, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ingliz tilini o‘qitishda asosiy e’tibor til materiallarining soddaligi, ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalanish hamda bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishga qaratilishi lozim. Bu esa til o‘rgatish jarayonini bolalar uchun qulay va qiziqarli qiladi [3: 8-b].

Shuningdek, kichik yoshdagi bolalar ingliz tilini o‘zlashtirishda o‘yin metodikasidan foydalanishning muhimligi qator tadqiqotlarda tasdiqlangan. Shu yo‘nalishda Z.Rajabovaning ilmiy izlanishlari e’tiborga molik bo‘lib, uning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘rgatishda o‘yin elementlaridan foydalanish bolalarning motivatsiyasini oshiradi hamda yangi so‘z va tushunchalarni tezroq eslab qolish imkonini yaratadi [4: 12-b]. Bu fikrni xorijiy tadqiqotchilar ham tasdiqlashadi. Jumladan, ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatishda o‘yinlar orqali o‘qitish metodikasi bolalar uchun chet tilini tabiiy ravishda o‘zlashtirishga imkon yaratadi [5: 45-b].

Bundan tashqari, ingliz tilini kichik yoshdagi o‘quvchilarga o‘qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ham tadqiqotlarda alohida qayd etilgan. Xususan, tadqiqotchi M. Usmonovaning qayd etishicha, multimodal (audio, video va grafik) vositalar bilan boyitilgan raqamli o‘quv platformalari yosh o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar til o‘rganish jarayonini qiziqarli va interfaol qilish orqali bolalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi [4: 25-b].

Ingliz tilini o‘qitishda yosh o‘quvchilarning yosh psixologiyasi va madaniy bilimlarini hisobga olish ham tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishi hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, madaniyatlararo muloqot tamoyillari ingliz tilini kichik yoshdagi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, bolalar ingliz tilini nafaqat lingvistik vosita sifatida, balki madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham o‘rganadilar. Bu esa ularning xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi [5: 18-b].

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini samarali o‘qitish uchun maxsus ishlab chiqilgan metodika va interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, ko‘rgazmalilik, o‘yin, multimodal va kommunikativ metodlardan foydalanish bolalarning til o‘rganish jarayonini yengillashtirib, samaradorligini oshirishi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda [6: 33-b].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Ushbu ishda kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy ilmiy-metodik tajribalari sifatli tahlil usuli yordamida o‘rganildi. Tadqiqot davomida xorijiy mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va boshqa rivojlangan davlatlarda) kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, dissertatsiya va avtoreferatlar tanlab olindi hamda tizimli tahlil qilindi. Xususan, kommunikativ, multisensor, o‘yinli, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo muloqotga asoslangan metodikalar qiyosiy-analitik jihatdan o‘rganildi. Empirik tahlilda kichik yoshdagi bolalarning ingliz tilini o‘zlashtirish samaradorligi bo‘yicha xorijda o‘tkazilgan eksperimental tajribalar natijalari tahlil qilinib, ulardagi eng samarali uslublar aniqlandi. Mazkur tadqiqotlarning umumiy empirik natijalari ko‘rsatishicha, kichik yoshdagi o‘quvchilarning ingliz tilini samarali o‘zlashtirishi ko‘p jihatdan bolalar psixologiyasi, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga oluvchi kommunikativ-interfaol metodlarga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil qilishga bog‘liq ekanligi tasdiqlandi.

Natijalar va muhokamalar.

Avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirishda tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitlarda o‘rgatishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu tamoyil “tilni tabiiy egallash nazariyasi”ga asoslanib, bolaning ona tilini o‘rganish tajribasiga juda

yaqin tarzda chet tilini o‘zlashtirishini nazarda tutadi. Bekmuratovaning tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalar tabiiy nutq vaziyatlari asosida tilni o‘rganganda yangi bilimlar ularning uzoq muddatli xotirasida mustahkam joylashadi.

Ikkinchi yondashuv sifatida bolalarga ingliz tilini o‘qitishda tilni egallash jarayonining multisensor tamoyil asosida tashkil qilinishi samarali hisoblanadi. Bu tamoyil, ingliz tilini o‘rgatishda ko‘rish, eshitish, teginish va harakat orqali amalga oshiriladigan usullarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi Karimovaning empirik tajribalari orqali aniqlanishicha, multisensor usullar bola ongida chuqurroq asotsiativ bog‘lanishlarni shakllantiradi va o‘rganilgan bilimlarning amaliy foydalanilishini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Shuningdek, ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish jarayonida emotsional va affektiv komponentlarning ahamiyati xorijiy tadqiqotlarda alohida ta’kidlangan. Ayniqsa, o‘quvchilarning ijobiy emotsional munosabati va o‘ziga bo‘lgan ishonchining oshirilishi til o‘rganish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Usmonova o‘z dissertatsiyasida interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan darslarda kichik yoshdagi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi ortishini, ularning o‘quv natijalari esa o‘rtacha 40–50% gacha yaxshilanishini isbotladi.

Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqotning kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi o‘rni ham juda muhimligi tadqiqot natijalarida ko‘rsatildi. Rajabovaning tadqiqotiga ko‘ra, ingliz tilini o‘rgatish davomida madaniyat komponentlaridan foydalanish o‘quvchilarning boshqa xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va global fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada bola chet tilini shunchaki til sifatida emas, balki madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida ham o‘zlashtira boshlaydi [4: 97-b].

Xulosa va tavsiyalar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishga oid xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish hamda ilk amaliy tajribalarni o‘rganish natijasida bolalarning til o‘zlashtirishida kommunikativ, multisensor va o‘yinli usullar samarali ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotlarda ko‘rsatildiki, ingliz tilini boshlang‘ich bosqichda o‘qitishda tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish, o‘yinli va multimodal usullarni qo‘llash hamda madaniy kontekstlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar bilimini chuqur va mustahkam shakllantiradi. Shu asosda ingliz tilini boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘yin metodlari, raqamli texnologiyalar va kommunikativ yondashuv asosida tashkil qilish, shuningdek bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Mazkur tamoyillar orqali ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida PF-134-son Farmoni. (lex.uz, https://lex.uz/docs/-6008663)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevral PQ-54-sonli Qarori. (lex.uz, https://lex.uz/docs/-6788002)

3. Bekmuratova R. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishning didaktik tamoyillari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 150 b. URL: https://tdpu.uz/media/documents/dissertatsiyalar/BekmuratovaR.pdf

4. Karimova G.A. Kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishda interfaol o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Samarqand, 2022. 22-b. URL: https://samdu.uz/files/dissertatsiya/Karimova_dissertatsiya.pdf

5. Usmonova M. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Namangan, 2023. 165-b. URL: https://namdu.uz/files/pdf/usmonova2023.pdf

6. Rajabova Z. Boshlang‘ich ta’lim tizimida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish vositalari (ingliz tili misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2022. 158-b. URL: https://adu.uz/files/dissertatsiya/Rajabova2022.pdf

Zarina AXROROVA,
Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-bosqich talabasi

ABDULLA AVLONIY DRAMATURGIYASI: MAZMUN, BADIIYAT VA IJTIMOIY AHAMIYAT

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Avloniyning dramaturgiyasi tahlil qilinib, uning asarlaridagi asosiy mavzular, ularning badiiy xususiyatlari va o‘zbek teatr san’ati rivojiga ta’siri yoritiladi. Avloniy sahna asarlari orqali ijtimoiy tanqid, ma’rifatchilik va jamiyatdagi eskilik va yangilik to‘qnashuvini aks ettirgan. Shuningdek, uning pyesalarida realistik tasvir, jonli dialoglar va hajv uslublari qo‘llangani tahlil qilinadi. Maqolada dramaturgning o‘zbek teatrining shakllanishiga qo‘shgan hissasi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, dramaturgiya, teatr, jadidchilik, ma’rifatchilik, ijtimoiy tanqid, realistik tasvir, hajv, sahna san’ati, eskilik va yangilik.*

Аннотация: в данной статье анализируется драматургия Абдуллы Авлани, освещаются основные темы его произведений, их художественные особенности и влияние на развитие узбекского театрального искусства. Авлани в своих сценических произведениях отразил социальную критику, просвещение и столкновение старого и нового в обществе. Также анализируется использование в его пьесах реалистических образов, ярких диалогов и комических стилей. В статье также рассматривается вклад драматурга в становление узбекского театра.

Ключевые слова: *Абдулла Авлани, драматургия, театр, модернизм, просветительство, социальная критика, реалистический образ, юмор, сценическое искусство, старое и новое.*

Annotation: this article analyzes the dramaturgy of Abdulla Avloni, highlighting the main themes of his works, their artistic features and their influence on the development of Uzbek theater art. Avloni reflected social criticism, enlightenment, and the clash of old and new in society through his plays. It also analyzes the use of realistic imagery, lively dialogues, and satirical styles in his plays. The article also examines the playwright’s contribution to the formation of Uzbek Theater.

Key words: *Abdulla Avloni, dramaturgy, theater, Jadidism, enlightenment, social criticism, realistic depiction, satire, performing arts, tradition and modernity.*

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti va teatr san’atida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Jadidchilik harakati natijasida milliy uyg‘onish jarayoni tezlashdi. Bu adabiyotning turli janrlariga, jumladan, dramaturgiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shu davrda o‘zbek dramaturgiyasini shakllantirishda Abdulla Avloniy muhim rol o‘ynadi.

Abdulla Avloniy – nafaqat pedagog, yozuvchi, jamoat arbobi, balki o‘zbek sahna san’atining asoschilaridan biri hamdir.Uning pyesalari jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni ochib berish, xalqni ma’rifat sari yetaklash, xurofot, jaholatga qarshi kurashish kabi ezgu g‘oyalarni ilgari surdi.Avloniy pyesalarida asosiy urg‘u ijtimoiy muammolarga qaratilgan bo‘lib, u nodonlik, xurofot, ayollarning huquqsizligi kabi masalalarni keskin tanqid qilgan.Bu asarlar nafaqat adabiy qiymatga ega, balki sahna san’atini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutdi. Uning pyesalari orqali o‘zbek teatr san’ati tomoshabinlar bilan bevosita muloqot qilish, ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylandi.Dramaturgning asarlari o‘zbek sahna san’atining rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shdi.Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Avloniyning ijodi o‘zbek adabiyoti, teatrining shakllanishida nafaqat tarixiy, balki ma’naviy ahamiyatga ham egadir. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan, negaki, ma’rifat, taraqqiyot sari intilish har qanday jamiyat uchun muhim hisoblanadi.

Abdulla Avloniy dramaturgiyasining shakllanishi, uning janriy xususiyatlari alohida ahamiyatga ega.U jadidchilik g‘oyalarini ommaga yetkazishda teatr san’atining muhim rolini tushungan holda sahna asarlari yaratgan. Uning dramaturgiyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

Ijtimoiy tanqid – Avloniy pyesalarida xalqning qoloqligi, jaholat va bid’atlarga botgan jamiyatning achinarli ahvoli tasvirlanadi. Ijtimoiy tanqid Avloniy asarlarida juda keskin ko‘rinish olgan.U o‘z davrida-

gi adolatsizlik, qoloqlik va xurofotga qarshi chiqib, sahna orqali xalqni o‘zgarishga chorlagan. Bu jihat ayniqsa “Advokatlik osonmi?” yoki “Ikki sevgi” kabi asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Pyesalarida boylar va mutaassiblar jamiyatdagi adolatsizlikni mustahkamlovchi kuch sifatida tasvirlanadi, shu bilan birga, xalqning jaholat botqog‘idan chiqish imkoniyati ham ilgari suriladi.

Ma’rifatchilik – Uning asarlari xalqni o‘qitish, huquqiy ongi va madaniy saviyasini oshirishga qaratilgan. Darhaqiqat, ma’rifatchilik Avloniy dramaturgiyasida markaziy o‘rin egallaydi. Uning asarlari shunchaki realistik voqelik tasviri emas, balki xalqni o‘qishga, bilim olishga undaydigan vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, u ta’lim, ayollar huquqlari masalasini ko‘tarib, jamiyatni ongli ravishda o‘zgarishga chaqirgan.

Zamonaviy va eskicha qarashlarning to‘qnashuvi – Avloniy dramalarida yangilikka intilgan yosh avlod va eski qarashlarga yopishib olgan konservativ guruhlarning qarama-qarshiligi ochib beriladi. Bu esa o‘z navbatida, Avloniyning dramatik konfliktlarining asosiy manbalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Uning pyesalarida islohotchi jadidlar, eski tartibni saqlab qolishga urinayotgan konservativ qatlam o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi. Bu to‘qnashuv faqat shaxsiy qarashlar ziddiyati emas, balki jamiyatning rivojlanish yo‘lidagi fundamental muammo sifatida ko‘rsatiladi. Shu ma’noda, Avloniy dramalarini faqat tarixiy hodisalarga oid asarlar sifatida emas, balki har qanday davrda dolzarb bo‘lib qoladigan umuminsoniy muammolarni yorituvchi sahna asarlari sifatida baholash mumkin.

Taniqli adabiyotshunos M.Rahmonov Avloniy ijodini tahlil qilib shunday yozadi: “Avloniy dramaturgiyasida tarixiy va zamonaviy voqelik uyg‘un holda ifodalangan.Uning pyesalarida realistik tasvir bilan ma’rifiy g‘oyalar mujassamlashgan”. [Rahmonov, 1968, 340-bet].

Avloniyning “Pinak” (1915), “Advokatlik osonmi?” (1916), “Biz va Siz” kabi dramalari shu yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, ularning har biri jadidchilik ruhida jamiyatga o‘ziga xos ko‘zguni tutgan.Avloniy dramaturgiyasida ijtimoiy tanqid yetakchi o‘rin tutadi. Uning asarlarida jamiyatdagi qoloqlik, xurofot, johillik keskin fosh etiladi. Masalan, “Advokatlik osonmi?” dramasida sud va huquq tizimidagi korrupsiya tanqid qilinib, adolatning faqat pul va mansab orqali ta’minlanishi o‘tkir hajv orqali yoritilgan.Bu jihatdan Avloniy ijodi rus va g‘arb dramaturgiyasidagi realizm an’analariga yaqin bo‘lib, u jamiyatdagi illatlarni ochiq va tanqidiy yondashuv bilan tasvirlaydi. Uning asarlari faqat ko‘ngilochar sahna asarlari bo‘lib qolmay, balki tomoshabinlarni o‘ylashga va jamiyatdagi muammolarni anglashga undagan. Abdulla Avloniy ijodining eng muhim namunalaridan yana biri – “Ikki muhabbat” dramasidir. Bu asar faqat muhabbat qissasi emas, balki murakkab ijtimoiy muammolar, jadidchilik harakati g‘oyalari va millat taqdiriga daxldor masalalarni qamrab olgan. Asarning asosiy syujeti ikki katta ziddiyat atrofida qurilgan: hurriyat va muhabbat o‘rtasidagi ichki ziddiyat, jamiyatdagi eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash.Bu qarama-qarshiliklar asar qahramonlari timsolida ochib berilib, ularning harakatlari, qarorlari, taqdiri orqali muhokama qilinadi. Asar XX asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatida jadidchilik va an’anaviylik to‘qnashuvi avj olgan davrni yoritib, hali ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Quyida ushbu ikki asosiy masala yuzasidan batafsil tahlil beriladi.

1. Hurriyat va muhabbat o‘rtasidagi ichki ziddiyat: asarning asosiy qahramoni Nozimbek – jadid ziyolisi, Turkiston milliy ozodlik harakati a’zosi bo‘lib, u mustaqillik va hurriyat uchun kurashmoqda.U mamlakatning kelajagini g‘arb ilm-fani va taraqqiyotida ko‘radi, mustamlakachilik zulmiga qarshi turishni o‘zining muqaddas burchi deb biladi.Biroq uning hayotida yana bir kuchli omil bor – bu muhabbat. Dramada Nozimbek ikki kuch – vatanparvarlik hissi va sevgi tuyg‘usi orasida qiyin tanlov qarshisida qoladi.U yurak ishqi bilan vatan muhabbati o‘rtasida o‘z yo‘lini topishga harakat qiladi.U sevgan insoni bilan baxtli hayot kechirishni xohlaydi, lekin shu bilan birga o‘z xalqining ozodligi uchun kurashni ham tark eta olmaydi. Bu konflikt Avloniyning o‘z davridagi eng og‘riqli masalalaridan birini ko‘tarishiga imkon beradi: muhabbat – shaxsiy hayotning asosiy tamali, ammo vatan muhabbati va hurriyat yo‘lida fido qilish lozim bo‘lgan yuksak qadriyatdir. Nozimbekning ichki kechinmalari orqali muallif ushbu tanlov qanchalik murakkab va fojiali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tarixiy va zamonaviy talqin.Bu ziddiyat nafaqat o‘sha davr ziyolilari hayotida, balki bugungi jamiyatda ham dolzarb masala sifatida qabul qilinadi. Insonning shaxsiy istaklari, jamiyat oldidagi burchi o‘rtasidagi muvozanatni topish masalasi doimiy muhokama qilinib kelgan.Shu sababli, Avloniyning ushbu asari hozirgi davr o‘quvchilari, tomoshabinlari uchun ham tushunarli va ta’sirli bo‘lib qolmoqda.

2. Jamiyatdagi eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash “Ikki muhabbat” dramasining ikkinchi asosiy mavzusi an’anaviylik va modernizatsiya o‘rtasidagi ziddiyatdir.Bu to‘qnashuv Nozimbek va uni o‘rab turgan jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali

ochiladi.Nozimbek o‘z qarashlari bilan jadidchilik g‘oyalarini himoya qiladi. U ilm, taraqqiyot va modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, mustamlakachilikdan qutulish va milliy o‘zligini saqlashni maqsad qiladi. Biroq jamiyatning muayyan qismi, ayniqsa, konservativ kuchlar, bu o‘zgarishlarga qarshi chiqadi.Ular eski an’analarning saqlanib qolishini xohlaydi. Har qanday yangilikni millatning asosiy qadriyatlariga tahdid sifatida qabul qiladi. Ushbu ziddiyat jamiyatda juda murakkab munosabatlar tizimini yaratib, Nozimbek kabi ziyolilarni og‘ir sinovlarga duchor qiladi.Eskilik tarafdorlari – an’anaviy jamiyatning kechikkan qarashlari. Eskilik tarafdorlari orasida jamiyatning yuqori tabaqalariga mansub kishilar, diniy mutaassiblar, milliy ongni o‘zgartirishga qarshi bo‘lgan kimsalar bor. Ular modernizatsiyani yot ta’sir deb bilib, eski an’analarni saqlab qolishga intiladi.Nozimbek esa ularga qarshi chiqib, taraqqiyotning muqarrarligini tushuntirishga harakat qiladi. Modernizatsiya tarafdorlari – yangilik sari intilish Nozimbekning o‘zi va uning hamfikrlari esa yangi jamiyat barpo etish tarafdori bo‘lib, mustaqillik, ma’rifat va ilm yo‘li bilan Turkistonni rivojlantirishni istaydi.Ularning kurashi asarda murakkab dramatik konfliktlarni yaratadi. Avloniy bu qarama-qarshilikni bir tomonlama tasvirlamaydi, balki har ikki tomonning ichki hissiyotlarini ham ochib beradi. Umuman olganda, “Ikki muhabbat” dramasining asosiy g‘oyasi shundaki, millat ravnaqi, kelajagi uchun taraqqiyot muqarrar, ammo bu jarayon shaxsiy yo‘qotishlar va ichki kurashlar bilan kechadi. Nozimbek obrazida Avloniy o‘z davridagi jadid ziyolilarining timsolini yaratgan bo‘lib, ularning ichki kechinmalari, ijtimoiy bosim ostida tortgan azoblari asarning asosiy dramatik kuchini tashkil etadi. “Ikki muhabbat” dramasida ko‘tarilgan mavzular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi davrda ham jamiyatda modernizatsiya va an’anaviylik o‘rtasidagi bahs davom etmoqda. Insonlar shaxsiy istaklari, jamiyat oldidagi mas’uliyat o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘lishadi. Bundan tashqari, dunyoda mustaqillik va hurriyat uchun kurash hali ham davom etayotganini hisobga olsak, Nozimbekning ichki kechinmalari va kurashi ko‘plab yoshlar uchun tushunarli bo‘lib qolmoqda. Asar insonni o‘z vijdoni, shaxsiy hayoti va jamiyat oldidagi mas’uliyati o‘rtasida qanday muvozanat topishi kerakligi haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.Abdulla Avloniyning “Ikki muhabbat” dramasi milliy uyg‘onish, jadidchilik va Turkiston mustaqilligi yo‘lidagi kurashni yorqin aks ettirgan muhim asarlardan biridir. Undagi hurriyat va muhabbat o‘rtasidagi ichki ziddiyat hamda jamiyatdagi eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash orqali yozuvchi o‘z davrining eng muhim ijtimoiy muammolarini tasvirlab bergan. Asar bugungi kun o‘quvchilari va tomoshabinlari uchun ham dolzarb bo‘lib, insoniyat oldida doimiy turgan muammolarni yoritib beradi. Shuning uchun “Ikki muhabbat” milliy dramaturgiyamizning eng yetuk namunalaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.Bejizga adabiyotshunos H.Sodiqov ushbu asarni tahlil qilib quyidagicha yozmagan ekan: “Ikki muhabbat” dramasi ma’rifat va jaholat o‘rtasidagi to‘qnashuvni yorqin ifoda etgan bo‘lib, jadid dramaturgiyasining eng yetuk namunalari sirasiga kiradi” [Sodiqov, 2010, 255-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov, M. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1968.
2. Sodiqov, H. Jadid dramaturgiyasi va uning badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Avloniy, A. Advokatlik osonmi? – Toshkent: Matbaai Isloh, 1916.
4. Avloniy, A. Pinak. – Toshkent: Matbaai Turkiston, 1915.
5. Avloniy, A. Biz va Siz. – Toshkent: Jadid nashriyoti, 1918.

Shahzoda NURILLAYEVA,
QarDU mustaqil tadqiqotchisi
Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tyutori

O‘ZBEK TILIDA “ODOB VA AXLOQ”NI IFODALOVCHI BIRLIKLAR TARKIBIDA BUYRUQ-ISTAK MAYLI FE’LLARINING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: o‘zbek milliy ijtimoiy tafakkuri uchun “odob va axloq”ni ifodalovchi birliklar yangi tushuncha emas, ammo uning o‘zbek lisoniy ongida lingvoma’naviy shakli yangilik bo‘yog‘iga ega. Axloq va unga qarashli tushunchalarda (aynan axloqda) salbiy baho aks etishi mavjud emas, shuning uchun u insonlar ongida milliy qadriyat va tushuncha sifatida doimiy yashab kelmoqda. Zero, mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligini saqlash, oila mustahkamligini ta’minlash va taraqqiy ettirish umummilliy ehtiyoj, shunga ko‘ra, odob va axloqqa xos birlik tushunchasining obyektiv tusga kirgan ijtimoiy hamda lisoniy qiymati oshib bormoqda. Ushbu maqolada “odob va axloq”ni ifodalovchi birliklarning buyruq-istak mayli fe’llari orqali hosil qilinishi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: *buyruq-istak mayli; sintaktik qurilma; fe’l-kesim; morfologik xususiyatlar.*

Аннотация: для узбекской национальной общественной мысли единицы, обозначающие «порядочность и нравственность», не являются новым понятием, но в узбекском языковом сознании ее языковая и духовная форма имеет окраску новизны. В этике и связанных с ней понятиях (именно в этике) нет негативной оценки, поэтому она постоянно живет в сознании людей как национальная ценность и понятие. Ведь укрепление независимости и сохранение мира страны, обеспечение и развитие стабильности семьи является национальной потребностью, и соответственно возрастает объективная социальная и языковая ценность понятия порядочности и нравственного единства. В этой статье мы остановимся на образовании единиц, выражающих «порядочность и нравственность» через повелительные глаголы.

Ключевые слова: *императив; синтаксический аппарат; часть глагола; морфологические особенности.*

Annotation: for Uzbek national social thought, the units expressing ‘ethics and morality’ are not new concepts. However, their linguistic and spiritual form in the Uzbek linguistic consciousness carries a sense of novelty. Morality and its related concepts do not carry any negative connotations. Therefore, they have continuously existed in people’s consciousness as a national value and understanding. Indeed, strengthening independence, maintaining national peace, ensuring family stability, and fostering development are collective national needs. Accordingly, the social and linguistic value of the concept of ethical and moral unity, which has taken on an objective character, continues to grow. In this article, we will discuss the formation of units expressing ‘ethics and morality’ through imperative and optative mood verbs.

Key words: *imperative-optative mood; syntactic structure; verb-predicate; morphological features.*

Insonning insonligi, eng avvalo, uning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligi, pokligi bilan belgilanadi. Axloqiy tarbiya tushunchasi serqirra va keng qamrovga ega. Axloqiy barkamol inson jamiyatdagi barcha yaqinlari, avvalo, ota-onasi-yu farzandlari, oila a’zolari, qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-ko‘yi, qishloqdoshlari va butun millat farovonligi haqida qayg‘uradi. O‘z atrofini o‘rab turgan insonlar unga kerak bo‘lgani singari o‘zi ham ularga kerakli kishi bo‘lishga intiladi. Bunday insonlar odob-axloqini yoqimli qilishni insoniy burchi deb hisoblaydi.

O‘zbek tilshunosligida fe’l so‘z turkumi, xususan, fe’lning buyruq-istak mayli haqida tilshunoslar fikr yuritib o‘tishgan ... “buyruq-istak mayli” degandagi “istak” tushunchasi uchala shaxs formasi uchun ham xarakterli... harakat bajaruvchisining qaysi shaxs ekani va boshqa holatlar yana boshqa o‘ziga xos ma’nolarni keltirib chiqaradi”[1].

Ma’lumki, ijobiy istakni ifodalovchi birliklarda, asosan, istak mazmuni ifodalangani va bunday birliklar ko‘pincha sodda gap shaklida bo‘lganligi uchun, bu xil qurilmalarda ko‘pincha fe’lning buyruq-istak maylidagi shakli ishtirok etadi. Bunday fe’l kesimlar gapda buyruq mayli shaklida kelsa ham, gap mazmunidan buyurish mazmuni emas, ish-harakatning bajarilishiga, ro‘yobga kelishiga istak, tilak bildirish mazmuni anglashiladi: *Omin, aziz boshing* ***omon bo‘lsin****, hech qachon* ***dard ko‘rmagin,*** *ishlaring* ***o‘ngidan kelsin****. Suvdek* ***serob bo‘ling,*** *nondek* ***aziz bo‘ling.***

Ma’lumki, buyruq ma’nosini ifodalovchi fe’llarning II shaxsdagi shakli sof buyruqni ifodalasa, III shaxsdagi shakli boshqa shaxslar orqali buyruq mazmunini bildiradi[1]. I shaxs shaklida esa buyruq emas, biror ish-harakatni bajarishga tashviq qilish va istak mazmuni anglashiladi.

Odob va axloqni ifodalovchi birliklarda buyruq maylidagi fe’llarning qo‘llanishida o‘ziga xos xususiyatlar kuzatiladi. Bu xususiyat shundan iboratki, buyruq mayli shaklidagi fe’llarning har uch shaxsga oid shakllari ham buyruq mazmunini emas, faqat xohish-istak bildirish, tilak tilash, iltijo qilish kabi mazmunni ifodalaydi.

O‘zbek tilida “odob va axloq” mazmunini ifodalovchi sodda gaplarda buyruq-istak maylidagi fe’l uchala shaxsda ham qo‘llanishini ko‘rish mumkin.

Buyruq-istak maylidagi fe’lning I shaxsda qo‘llanishi. O‘zbek tilida “odob va axloq”ni ifodalovchi birliklarda qo‘llangan I shaxsdagi buyruq-istak maylidagi fe’l gapda xohish, tilak mazmunini reallashtirish uchun xizmat qiladi.

[1] Ўзбек тилининг грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975. 464-б.

Masalan: *Bolaginam, iloyo shu kunlarga biz ham yetaylik!* (N.Fozilov) *qizim, baxtli bo‘ling, o‘g‘lim bilan qo‘sha qaring! Rohatingizni men ham ko‘rib yuray.* (S.Zunnunova)

Buyruq-istak maylidagi fe’lning II shaxsda qo‘llanishi. A.P.Hojiyev II shaxs shakli haqida yoza turib: “Haqiqiy ma’nodagi buyruq ikkinchi shaxs formasidagina bo‘ladi... Shuningdek, so‘zlovchi istagining o‘zi ham ifodalanishi mumkin” degan fikrni aytadi. Darhaqiqat, bunday birliklarning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu xil sintaktik qurilmalar ko‘proq og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos bo‘ladi. Bunday holat buyruq maylidagi fe’llarning II shaxs birlik shaklida –**gin /-gil** qo‘shimchasini olgan holda qo‘llanishida ko‘rinadi. Bunday qurilmalarda istak, iltijo mazmuni yanada kuchaytirilgan bo‘ladi: *Omin, yegan-ichganlarimizning savobi shu joydan o‘tganlarga tegsin, rizqimiz ulug‘ bo‘lsin, bemahal o‘limdan, quruq tuhmatdan, bedavo dardlardan o‘zing* ***asragin!*** *Iloyo umring uzoq bo‘lsin, baxtli* ***bo‘lgin****, Insofli, tovfiqli, mehnatkash bo‘l*! (O‘.Hoshimov) Omin, kasal qilib ***yotqizmagin,*** *sarg‘aytirib* ***o‘tqazmagin****, to‘rt muchamiz sog‘ bo‘lsin!*

Dushmanlar bukmasin aslo irodang,
Vatanni joningdan ***sevolgin****, bolam!* (R.Ochil)

– Rahmat, qizim! Yuzimni yorug‘ qilding, – dedi ovozi titrab, – ***qo‘sha qarigin****, o‘zingdan* ***ko‘paygin,*** *bolam.* (O‘. Hoshimov)

Ko‘rinadiki, “odob va axloq”ning buyruq-istak maylidagi fe’lning - **gin** affiksli shakli gapda buyruq mazmunini kuchsizlantirib, axloqning xohish mazmunining ta’kidlanishiga sabab bo‘ladi[2].

O‘zbek tilida “odob va axloq”ning buyruq-istak maylidagi fe’lning III shaxsda qo‘llanishi. Sodda yoki qo‘shma gap shaklidagi odob va axloq ifodalovchi birliklarning kesimi buyruq-istak maylining III shaxsida qo‘llanganda, uning **-sin** affiksli shakli ishlatiladi. Masalan:

Magar chinor bo‘lsang, chinordek yasha,
Bevaqt ***to‘kilmasin*** *biror yaprog‘ing.* (A.Oripov)

Ishtahangiz ***karnay bo‘lsin****!* (So‘zlashuvdan) ***To‘y bo‘lsin, o‘lim bo‘lmasin*** (So‘zlashuvdan) *Xudo* ***yor bo‘lsin****, ustoz!* (O.Yoqubov)

Shuni ta’kidlash lozimki, kesimi III shaxs buyruq-istak maylidagi fe’l bilan ifodalangan gaplarning aksariyati o‘zbek tilida nutqiy etiketga aylanib qolgan. Masalan: *Ko‘z tegmasin. Xudo asrasin. Xudo shifo bersin. Buyursin. Muborak bo‘lsin. Tuningiz xayrli bo‘lsin.*

Ba’zan odob-axloqning xohish, istak ifodalovchi birliklaridagi fe’llar tarkibida **-gay** qo‘shimchasi ishtirok etib, nutq uslubini yaratish uchun xizmat qiladi:

Yaxshi so‘z degaysan, safo ***topgaysan****,*
Dillardan joy olsin yozganing, bolam. (R.Ochil)

Buyruq-istak maylidagi fe’lning odob-axloq mazmunini ifodalovchi maqollar va matallarda qo‘llanishi. Ma’lumki, xalq maqollari semantik jihatdan rang-barang bo‘lib, ulardan ma’qullash, kesatish, kinoya, nafratlanish, bepisandlik kabi ma’nolar bilan birga anglashiladi[3].

O‘zbek xalq maqollaridagi fe’l-kesimning morfologik xususiyatlarini tahlil qilishdan ma’lum bo‘ldiki, kesimi buyruq-istak maylida qo‘llangan maqol va matallarning mohiyatidan deyarli axloqiy mazmun anglashiladi. Bunda fe’l-kesim ikki xil shaklda qo‘llanganini kuzatish mumkin:

1. Buyruq-istak maylidagi fe’l bo‘lishli shaklining kesim sifatida qo‘llanishi.

2. Buyruq-istak maylidagi fe’l bo‘lishsiz shaklining kesim sifatida qo‘llanishi.

Birinchi holatda fe’l-kesim II va III shaxslarda qo‘llanadi. Kesimi II shaxsda qo‘llangan maqollar asosan Ollohga iltijo tarzida bo‘lib, maqoldan yaxshi niyatning amalga oshishini so‘rash mazmuni anglashiladi. Masalan: *Uyquni tinchdan ber, o‘limni kechdan ber. (Maqol)*

Ikkinchi holatda qo‘llangan fe’l-kesimli maqollardan ham aynan shu mazmun anglashiladi: *qish o‘ldirma, yoz o‘ldir, och o‘ldirma, to‘q o‘ldir.* (Maqol)

Fe’l-kesimi III shaxsda qo‘llangan maqollardagi axloqiy kategoriyaning mazmuni umumga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Birinchi holatda qo‘llangan fe’l-kesimga misollar: *O‘ldirsa ham osh o‘ldirsin. (Maqol) O‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, qo‘l-oyog‘i tez bo‘lsin. (Maqol) Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin. (Matal)*

Ikkinchi holatda qo‘llangan fe’l-kesimga misollar: *Go‘ringdan suv chiqmasin, uyingdan quv chiqmasin.* (Maqol) *Yomonga ishing tushmasin, qulonga qushing tushmasin.* (Maqol) *qarindoshing o‘lsa o‘lsin, qadrdoning o‘lmasin.* (Maqol)

Xulosa qilib aytganda, odob va axloqqa oid birliklarining leksik-semantik xususiyatlari rang-barang bo‘lib, bu xildagi qurilmalar tarkibida so‘z ma’nolarining ko‘chishi, ma’noning kengayishi hodisasi juda keng ko‘lamda uchraydi.

[2] Ўзбек тилининг грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975. 464-465-б.
[3] Ўзбек тилининг грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975. 466-б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova M., Qosimova K., Jamolxonov X. O‘zbek tili. – T.: O‘qituvchi, 1989.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978.
5. Sodiqova M. Ruscha-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. O‘zbekcha-ruscha maqol va matallar lug‘ati. – T.: Fan, 2005. 410-b.
6. O‘zbek tili grammatikasi. Tom I. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. 610-b.

Elmira YULDOSHEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-fakulteti talabasi
E-mail: elmirayoldosheva4@gmail.com

ALEKSANDR FAYNBERG SHE’RLARIDA INSON KAMOLOTI OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada inson mukammalligi va kamchiliklari mavzusi she’riy talqinda tahlil qilinadi. She’rda hayotning haqiqatlari, inson kamoloti va nuqsonlarining mavjudligi yoritiladi. Asarning badiiy vositalari, obrazlar tizimi va poetik ohangini tahlil qilish orqali shoirning asosiy g‘oyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *she’r tahlili, inson kamoloti, mukammallik, nuqson, falsafiy lirika, badiiy vositalar, poetik ifoda.*

Аннотация: в данной статье анализируется тема человеческого совершенства и недостатков в поэтической интерпретации. В стихотворении отражаются жизненные реалии, развитие личности и существование изъянов. Через анализ художественных средств, системы образов и поэтического тона раскрывается основная идея поэта.

Ключевые слова: *анализ стихотворения, развитие личности, совершенство, недостатки, философская лирика, художественные средства, поэтическое выражение.*


Annotation: this article analyzes the theme of human perfection and flaws through a poetic interpretation. The poem reflects the realities of life, human development, and the existence of imperfections. By examining the literary devices, system of imagery, and poetic tone, the main idea of the poet is revealed.

Key words: *Poem analysis, human development, perfection, flaw, philosophical lyrics, literary devices, poetic expression.*

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so‘zdir. O‘zi ko‘zga ham ko‘rinmaydigan so‘z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki boshdagi o‘ylar, ko‘ngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham san’at turlari orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi. Insonning o‘y-xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to‘laroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan hayot serqirra va ta’sirli bo‘ladi.

Ijodkor yaratgan asl badiiy asarda doimo fikr bilan tuyg‘u qorishib keladi. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi yoki inkor qiladi. Ijodkorning betaraf bo‘lishi mumkin emas. Chunki chinakam badiiy asar yaratiladigan holat inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugagandan so‘ng paydo bo‘ladi. Adibning tuyg‘ulari nechog‘lik kuchli, ko‘zi qanchalar o‘tkir, tili qanchalik boy bo‘lsa, o‘quvchi uning asaridan shunchalik qattiq ta’sirlanadi. Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki milliy adabiyot — milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to‘laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita badiiy adabiyotga teng kelolmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo‘lmagan millat unutilib ketadi.

Inson kamoloti deyilganda bir shaxsning har tomonlama – jismoniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatlardan yuksaklikka, yetuklik darajasiga erishish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon, tabiiy ravishda, o‘z ichiga insonning ilm olishi, tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishi, jamiyatga foydali ishlar qilishi hamda o‘zida ezgu amallarni, fazilatlarni shakllantirishni oladi. Qolaversa, bu tushuncha milliy ruh degan bir qarash bilan yonma-yondir Ma’lumki, ruh abadiydir. Milliy ruhi saqlab qolingan millat esa yashayveradi. Negaki, millatning adiblari va ularning asarlari milliy ruhning yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, jonli obrazlar tasviri





vositasida uni tiklab olaveradi. O‘z ruhiyatiga ega millat hech qachon o‘zligini boy bermaydi. Demakki, dunyo ayvonida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘laveradi.

Barchaga yoqimtoy bo‘lmoq istaysan,
Buning iloji yo‘q hayotda do‘stim.
Atrofga nazar sol, kuzat birma-bir,
Hammaning ham bordir biror kam-ko‘sti.

Bu misralarda insonning ichki istaklari bilan tashqi dunyo haqiqatlari o‘rtasidagi muvozanatsizlik ko‘rsatilgan. Shoir “barchaga yoqimtoy bo‘lish” degan orzu inson tabiati uchun tabiiy ekanini ta’kidlaydi. Lekin bu hayotda imkonsizligi bayon qilinadi. Inson hamma uchun yaxshi bo‘lishni xohlaydi, lekin bu haqiqatdan yiroq. Shuningdek, shoir o‘quvchini atrofga nazar solishga, hayot haqiqatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, anglashga undaydi. Har bir inson, qanchalik mukammal ko‘rinsa ham, uning o‘ziga yarasha kamchiliklari bor. Hech kim mutlaq mukammal emas, har bir insonning kamchiligi bor. Bu yerda ishlatilgan badiiy vositalar: takror va urg‘u – “hammaning ham” degan ifoda hayot haqiqatining universal ekanligini ko‘rsatadi. She’rdagi ohang esa hayotiy tajriba asosida shakllangan falsafiy mushohada mavjudligidan darak bermoqda.

Bu shunday, umrbod qoladi shunday,
Shoshmay tur, haqiqat yoningda mana.
Misolchun, bu odam eng mukammalday,
Lek, undan-da nuqson ne deysan yana.

Shoir bu misralar orqali hayotning o‘zgarmas qonuniyatini tasdiqlaydi. Mukammallikka intilish tabiiy, lekin bu mutlaq haqiqat emas. “Shoshmay tur” iborasi orqali o‘quvchidan tafakkur qilish talab etiladi.

Parchadagi bosh g‘oya esa haqiqat har doim oldimizda, faqat uni ko‘rish va tushunish lozim degan nazariyadir. She’rdagi badiiy vosita sifatida qo‘llanilgan bu- imperativ (buyruq shakli) – o‘quvchiga bevosita murojaat qilinib, falsafiy fikrlar bildirilgan. Keyingi misralarda keltirilgan “bu odam” abstrakt tushuncha bo‘lib, u har qanday mukammal insonni anglatishi mumkin. Lekin qanchalik ideal ko‘rinsa ham, unda ham kamchilik bor. Bu misralardagi g‘oya – hech qanday inson mukammal emas, hatto eng ajoyib ko‘ringan odam ham.

– Ne uchun, Xudoyim, bor menda nuqson?
Nega yaratmading meni mukammal?
– Agar bo‘lganingda, bandam, benuqson,
Men kerak bo‘lmasdim senga hech mahal.

Bu misralar inson va ilohiylik o‘rtasidagi eng asosiy falsafiy muammoga ishora qiladi. Har bir inson o‘z kamchiliklarini tushunganida, bu savollarni o‘ziga berishi tabiiydir. Birinchi ikki misrada asosiy g‘oya deb inson o‘zining kamchiliklarini anglagach, Xudoga murojaat qilib, buning sababini so‘raydi deganidir.

Oxirgi misralarni tahlil qilar ekanmiz, bu misralar she’rning kulminatsion nuqtasidir degan xulosaga kelamiz. Xudo tomonidan insonning mukammal emasligi tushuntiriladi. Agar inson mutlaq mukammal bo‘lsa, unga Xudoning o‘zi ham kerak bo‘lmas edi. Bu yerda eng e’tibor berib, tushunilishi kerak bo‘lgan g‘oya bu – nuqsonlar insonni Yaratganga yaqinlashtiruvchi vosita ekanligini anglashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aleksandr Faynberg. Ishq degani bir qarashda tuyular oson... 40-41-betlar.
2. 9-sinf adabiyot darsligi. Ruhiy kamolot vositasi .3-bet.
3. 9-sinf adabiyot darsligi. Ruhiy kamolot vositasi. 4-bet.
4. 9-sinf adabiyot darsligi. 6-bet.



Kakhramon KURALOV,
2nd year master of Chirchik State Pedagogical University
qaxramonkuralov@gmail.com

CLIL TECHNOLOGY AS AN INNOVATIVE METHOD TO LEARN FOREIGN LANGUAGES

Annotation: Content and Language Integrated Learning (CLIL) has emerged as a promising approach to language education, combining subject content with language learning objectives. This article explores the potential of CLIL technology as an innovative method for learning foreign languages in Uzbekistan. By reviewing relevant literature and analyzing the benefits and challenges of implementing CLIL technology, this study aims to provide insights into its effectiveness and potential for language education in the Uzbek context.

Keywords: *CLIL, technology, foreign language learning, innovation, Uzbekistan.*

Аннотация: интегрированное обучение по содержанию и языку (CLIL) стало многообещающим подходом к языковому образованию, сочетающим предметное содержание с целями изучения языка. В данной статье рассматривается потенциал технологии CLIL как инновационного метода изучения иностранных языков в Узбекистане. Данное исследование, основанное на обзоре соответствующей литературы и анализе преимуществ и проблем внедрения технологии CLIL, призвано дать представление о ее эффективности и потенциале для языкового образования в узбекском контексте.

Ключевые слова: *CLIL, технология, изучение иностранных языков, инновации, Узбекистан.*

Annotatsiya: kontent va tilni integratsiyalashgan o‘rganish (CLIL) mavzu mazmunini tilni o‘rganish maqsadlari bilan birlashtirgan holda til ta’limiga istiqbolli yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda chet tillarini o‘rganishning innovatsion usuli sifatida CLILning imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tegishli adabiyotlarni ko‘rib chiqish va CLIL texnologiyasini joriy etishning afzalliklari va uning o‘zbek kontekstida til ta’limi uchun samaradorligi va salohiyati haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *CLIL, texnologiya, chet tillarni o‘rganish, innovatsiya, O‘zbekiston.*

INTRODUCTION

In an increasingly globalized world, proficiency in foreign languages has become a crucial skill for personal and professional success. Traditional language teaching methods often focus on isolated language skills, divorced from meaningful context. However, Content and Language Integrated Learning (CLIL) has emerged as an innovative approach that integrates subject content with language learning objectives. By incorporating technology into the CLIL framework, educators can create dynamic and engaging learning environments that promote both content mastery and language proficiency.

This article explores the potential of CLIL technology as a transformative method for learning foreign languages in Uzbekistan. By reviewing relevant literature and analyzing the benefits and challenges of implementing CLIL technology, this study aims to provide insights into its effectiveness and potential for language education in the Uzbek context.

METHODS AND LITERATURE REVIEW

To investigate the effectiveness of CLIL technology in foreign language learning, a comprehensive literature review was conducted. The review focused on studies encompassing research from various countries and educational settings. Key search terms included “CLIL”, “technology”, “foreign language learning” and “innovation”.

The literature review revealed a growing body of research supporting the efficacy of CLIL in language education. Studies have shown that CLIL can enhance learners’ motivation, engagement and language proficiency. By integrating subject content with language learning, CLIL provides a meaningful context for language acquisition, promoting deeper understanding and retention.

